# IQTISODIY TAHLIL






M. Q. PARDAYEV, I. T. ABDUKARIMOV, B. I. ISROILOV

# IQTISODIY TAHLIL

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT — «MEHNAT» — 2004

9(2)
65. 052-ya7
P1 180

O'quv qo'llanmada bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida korxonada iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish, unda qo'llaniladigan usullar, korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, asosiy va aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar, mehnat salohiyati, pul mablag'lari oqimi, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar hajmi, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlik, moliyaviy barqarorlik, tovar-moddiy zaxiralar kabi muhim iqtisodiy kategoriyalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning tizimi, tavsifi, aniqlanish va baholanish yo'llari, tahlil qilish usullari nazariy hamda amaliy jihatdan ochib berilgan. Nazariy tavsiyalar aniq amaliy ma'lumotlar bilan isbotlangan.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talaba va o'qituvchilariga, magistrlarga, aspirantlarga mo'ljallangan. Shuningdek, undan rahbarlar, buxgalterlar, menejerlar, auditorlar va boshqa iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchilar foydalanishi mumkin. Ushbu qo'llanmaning 1, 2, 5, 10, 11, 12, 15-boblari M.Q. Pardayev tomonidan, 3, 6, 7, 8, 9, 16-boblari I.T. Abdukarimov va M.Q. Pardayevlar, 17, 18-boblari M.Q. Pardayev va B.I. Isroilovlar, 4, 13, 14-boblari I. T. Abdukarimov va B. I. Isroilovlar bilan hammualliflikda yozilgan.

***Taqrizchilar:*** **N.A.IBROHIMOV** — iqtisod fanlari doktori, professor, Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi; **SH.U.HAYDAROV** — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

SamDI
KUTUBXONASI

$P\frac{0605010205 - 39}{M\ 359\ (04) - 2004}$ e'lonsiz, 2004

ISBN 5—8244—1604—4

© «Mehnat» nashriyoti, 2004-y.

# KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi — iqtisodiyotni erkinlashtirish orqali aholiga erkin va farovon hayotni ta'minlashdan iboratdir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, o'z navbatida, o'ziga mos iqtisodiy dastaklarni yaratishni taqozo qiladi. Shu tufayli, hozirgi paytda mamlakatimizda erkin iqtisodiyotning qonuniy asoslari yaratildi va yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida», «Auditorlik faoliyati to'g'risida», «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunlari qabul qilindi. Buxgalteriya hisobi va auditning jahon standartlariga asoslangan milliy andozalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinyapti. Bu esa o'z navbatida har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar)ning mustaqil faoliyat ko'rsatishini ta'minlash imkonini berayotir.

Mulkning asosiy qismi davlat tasarrufidan chiqarilib, turli mulk shakliga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar paydo bo'ldi. 2000-yilning 1-yanvari holati bo'yicha O'zbekistonda ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 178,3 mingtani tashkil qilgan bo'lsa, ularning 89,6 % nodavlat sektoriga to'g'ri keldi. Hozirgi kunda davlat mulkiga asoslangan korxonalarning ulushi atigi 10,4 %ni tashkil qiladi[1]. Xususiylashtirish jarayoni hamon davom etmoqda. Birgina 1999-yilda 448 ta obyekt xususiylashtirildi va shu asosda 373 ta yangi nodavlat korxonasi vujudga keldi[2]. Natijada har bir korxona o'z mulkiga ega bo'ldi. Oldin korxonaning hisob-kitob ishlarini davlat belgilab bergan bo'lsa, endilikda bu masalani korxonaning o'zi mustaqil hal qiladi. Shu paytgacha davlat barcha nazoratni o'z zimmasiga olib, juda ko'plab taftishchilarni ushlab

[1] Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 1999 год. Т., Минмакроэкономика РУз. 2000, с. 10—17.

[2] O'sha joyda, 11-bet.

turgan bo'lsa, endilikda mazmunan yangi, davlat tasarrufida bo'lmagan auditorlik xizmati tashkil topdi.

Bunday o'zgarish va jarayonlar iqtisodiy tahlil fanini ham erkin iqtisodiyotga moslashgan mazmun va mohiyati jihatidan tubdan yangilanishni taqozo qilmoqda. Endilikda iqtisodiy tahlil yuqori tashkilot (davlat) nuqtayi nazaridan emas, balki, eng avvalo, mulkdor va mehnat jamoasi nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'ldi. Iqtisodiy tahlil oldin, asosan, rejaning bajarilishini tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa, endilikda korxonaning foyda olib samarali ishlashini, mulkdorning mulkini ko'paytirishini ta'minlashga qaratilgan. Bu obyektiv jarayonlarning hammasi iqtisodiy tahlilni takomillashtirishni, uning bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotga mos nazariy, metodologik va tashkiliy muammolarini tadqiq qilib uni yanada takomillashtirish vazifasini qo'ymoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, buxgalteriya hisobi fani o'qitila boshlanganiga 500 yildan oshgan bo'lsa, shu fan asosida vujudga kelgan iqtisodiy tahlilning shakllanganiga 100 yildan ko'proq vaqt o'tdi. U mustaqil fan sifatida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitilishi XX asrning 20—30-yillariga to'g'ri keladi. O'tgan davrda tahlil buxgalteriya balansiga izoh (balansshunoslik)dan iqtisodiy tahlil darajasigacha yetdi. Bu fanning shakllanishiga juda ko'plab yirik iqtisodchi olimlar katta hissa qo'shishdi. Bular jumlasiga I.T.Abdukarimov, M.I.Bakanov, S.B.Barngols, N.V.Dembinskiy, O.R.Kmitsikevich, V.V.Kovalyov, D.K.Kudbiyev, A.A.Kudryavsev, L.I.Kravchenko, I.I.Karakoz, B.I.Maydanchak, A.I.Muravyov, V.V.Osmolovskiy, V.V.Patrov, V.I.Samborskiy, G.V.Savitskaya, V.I.Strajev, R.S.Sayfulin, S.K.Tatur, A.D.Sheremet, N.G.Chumachenko, E.M. Shapiguzovlarni kiritish mumkin.

Iqtisodiy tahlil bo'yicha yirik maktablar jumlasiga, Moskvadagi M.I.Bakanov, S.K.Tatur va A.D.Sheremet kabi olimlar yaratgan maktablarni, Belorussiyada L.I.Kravchenko va V.I.Strajev maktabini, Ukrainada I.I.Karakoz va V.I.Samborskiy rahbarligidagi maktabni, O'zbekistonda I.T.Abdukarimov rahbarligidagi maktablarni misol keltirish mumkin. Ammo shuni e'tirof etish kerakki, oldingi paytda iqtisodiy tahlilning barcha maktablarida uning

obyekti va maqsadi bir xil bo'lib, asosan, rejani asoslash hamda uning bajarilishini nazorat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, endilikda iqtisodiy tahlilning obyekti, maqsadi va vazifalari ham tubdan o'zgardi. Negaki, mustaqillik yo'liga o'tgan har bir mamlakat o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi, bu borada qonun va me'yoriy hujjatlarga ega bo'ldi. Jamiyatda sodir bo'lgan bu o'zgarishlar har bir mamlakatga o'ziga xos iqtisodiy tahlil fanini yaratishni taqozo qiladi. Mustaqil O'zbekiston ham bu holatdan mustasno emas.

Ishlab chiqarish kuchlarining ishlab chiqarish munosabatlariga muvofiq kelishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir. Inson — bu birinchidan, ishlab chiqarish kuchlarining tarkibiy qismi bo'lsa, ikkinchidan esa, ishlab chiqarish munosabatlarining jonli subyekti hamdir. Odamzotdagi shu ikki xislat, bu ikki iqtisodiy kategoriyalarning bir-biriga muvofiq bo'lishida bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaradi. Ana shu ikki jarayonda ham inson o'z mehnati bilan ishtirok etadi. Shaxs salohiyati haqiqatda juda ko'p qirrali. Uning mehnat qilish qobiliyati, ya'ni mehnat salohiyati o'rganilayotgan muammoning bir qismi, xolos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida inson salohiyatiga alohida to'xtalib, «Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi»[1], deb ta'kidladi. Inson salohiyati, eng avvalo, mamlakatda mavjud bo'lgan aholining soni, uning mehnatga qobiliyatli qismi, professional — ta'lim darajasi, malakasining tarkibi bilan belgilanadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, hozir O'zbekiston aholisining 50,4 % yoki 12,3 millioni mehnatga qobiliyatli yoshda. Mehnatga qobiliyatli aholidan 8,9 millioni iqtisodiyotda ish bilan band[2]. Ayni paytda O'zbekistonda barcha aholining 36,0 % mehnatga layoqatli aholining 72,4 % ish bilan ta'minlangan. O'zbekistonda

---

[1] I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T,. «O'zbekiston», 1997, 252-bet.

[2] Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 1999 год. Т., Минмакроэкономика РУз., 2000, с. 77.

butun ishlayotgan aholining 46,5 % yoki 3,8 million nafari qishloq xo'jaligida band. Sho'rolar davrida qishloq aholisini shaharga ko'chirib, ularni sanoatga, industrial mehnatga jalb qilinar edi. Endi vaziyat butunlay o'zgardi. Bu muammoga butunlay mazmun jihatdan yangicha yondashishni talab qilmoqda. Endilikda bu maqsadga sanoatni qishloqqa ko'chirish evaziga erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida qishloqda qayta ishlaydigan kichik korxonalar, xizmat sohasi bilan shug'ullanadigan yangi xo'jalik subyektlarini ochishni talab qiladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Ish bilan band bo'lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni faoliyatning yangi ilg'or tarmoqlari va sohalariga jalb qilish ham mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning qudratli zaxirasidir»[1]. Qishloq xo'jaligida band aholini boshqa sohalarga, eng avvalo, «sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar qilish hamda uni jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi»[2].

Qishloqda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish faqat unga sanoatni ko'chirish bilan cheklanib qolmaydi. Ammo hozir aholining uchdan bir qismi hamon tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan. Bular qishloqda sanoat va xizmat sohasini rivojlantirishga obyektiv to'siq bo'lishi mumkin. Shu tufayli bu sohani rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tegishli kapital qo'yilmalarni axtarib topish lozim. Shundagina qishloqda xizmat sohasini tubdan o'zgartirib, sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish mumkin.

Mamlakatimizda qishloq aholisining turmush darajasini keskin oshirish lozim. Qachonki, aholining daromadi kundalik ehtiyojidan ortib qolsa, u qo'shimcha pulli xizmatdan foydalanadi. Ammo bunga erishish uchun qishloqda boshlangan islohotlarni yanada chuqurlashtirishni izchil davom ettirish lozim.

Qishloq joylarda mehnat salohiyatidan foydalanishning samaradorligini oshirish zarurati yana shundan kelib chiqadiki, ya'ni ishlaydigan bir xodimga 2,7 ishlamaydigan aholi to'g'ri kelsa,

---

[1] I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997, 252-bet.
[2] O'sha asar, 254-bet.

qishloqda bu ko'rsatkich 3,6 kishini tashkil qiladi. Qishloqda oila daromadi ham shunga mos ravishda tenglashtiriladigan bo'lsa, qishloq mehnatkashining oila daromadi, respublikaning o'rtacha daromadidan 33,3 % ko'p bo'lishi kerak edi. Ammo hozir buning teskarisi. Bu holat kelajakda ham saqlanib qolmasligi uchun qishloqda aholining ish bilan bandlik darajasini keskin ko'tarish lozim. Ish bilan bandlik darajasi ta'kidlanganidek, respublikamizda aholining 36,1 %ni tashkil qilgan bir paytda, bu ko'rsatkich qishloqda 28,1 %ni tashkil qiladi. Demak, bolalar va qariyalar soni qishloq joylarida hamon aholining asosiy qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Qishloqda tub islohotlar o'tkazish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili va manbaidir», deb bejiz ta'kidlamagan. O'zbekistondek mamlakat uchun yangi ish o'rinlarini ochish obyektiv zaruriyat. Buning uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ularga tabiiy boyliklarimiz, suv va havo, quyosh energiyasi, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan yetarli darajadagi xomashyo zaxiralarni kiritish mumkin. Eng muhimi tayyor mahsulotni sotish uchun o'zimizda bozor, iste'molchi bor. Biz jahon bozoriga ham chiqmoqdamiz.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekistonga ilg'or texnologiyani joriy qilish, qo'shma korxonalar ochish chetdan sarmoya kiritish evaziga amalga oshmoqda. Kelajakda o'zimizda texnologiya yaratadigan texnologiyani barpo qilishimiz lozim. Shunda biz XXI asrda o'z salohiyatimizga, jahon bozorida o'z o'rnimizga ega bo'lamiz. XXI asr tom ma'noda O'zbekiston asri bo'ladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida iqtisodiy tahlilga va uning ayrim sohalariga bag'ishlangan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, o'quv va amaliy qo'llanmalar chop qilindi. Xususan, I.T. Abdukarimovning o'zbek va rus tillarida «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari», I.O.Voljin va V.V.Ergashboyevlarning o'zbek va rus tillarida «Moliyaviy tahlil», M.Q.Pardayev va B.I. Isroilovlarning «Moliyaviy tahlil», «Iqtisodiy tahlil», N. Hasanov va S.Najbiddinovlarning «Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish», A.Ibrohimovning «Moliyaviy tahlil», A.X. Shoalimovning

«Sanoat korxonalarida xo'jalik faoliyatining tahlili», E.Akramovning «Korxonaning moliyaviy holati tahlili» kabi asarlarni keltirish mumkin.

Shuni aytish lozimki, bu kitoblar iqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, uni bir butun yaxlit holda rivojlantirish masalasi adabiyotlarda batafsil ko'rib chiqilmagan. Bu holat, o'z navbatida, iqtisodiy tahlil fanidan bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotga va O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'liga mos nazariy hamda metodologik asosni yaratishni taqozo qiladi. Shular inobatga olingan holda mazkur o'quv qo'llanma yaratildi.

Qo'llanmaning birinchi bobida iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish masalasi qarab chiqilgan. Unda iqtisodiy tahlilning mohiyati va uning zarurligi, iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi subyektlar, iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar, iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari va tahlil natijalarini rasmiylashtirish masalalariga e'tibor berilgan.

Ikkinchi bob iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar tasnifi (klassifikatsiyasi), tavsifi (xarakteristikasi), matematik modellarning turlari va hozirgi bosqichda tahlil usulini takomillashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan qarab chiqilgan bo'lib, barcha tavsiyalar aniq ma'lumotlar asosida jadvallar yordamida yoritilgan. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar tizimi va unda buxgalteriya balansining o'rni qo'llanmaning uchinchi bobida yoritilgan. Unda bevosita iqtisodiy tahlilning rahbar xodimlarga, ayniqsa, menejerlarga zarurligi qo'llaniladigan axborotlar tizimi, moliyaviy hisobotlar tarkibi, buxgalteriya balansi atroflicha tavsiflab berilgan.

Qo'llanmaning to'rtinchi bobi korxonaning moliyaviy holatini baholash va tahlil qilish, dastlabki baho berish hamda uni to'liq baholash usullariga bag'ishlangan. Korxonaning moliyaviy holatiga baho berish bevosita uning likvidligini aniqlashdan boshlanadi. Unda likvidlikning mazmuni, uni baholash va tahlil qilish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Beshinchi bobda korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni tasniflash va aniqlash yo'llari,

samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar omilli yoritilgan. Oltinchi bobda korxonalarda asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash asosiy vositalarni baholash turlari, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, tasnifi va aniqlash yo'llari ko'rsatib berilgan.

Korxona aktivlari tarkibida nomoddiy aktivlar tushunchasi paydo bo'ldi. Ular ham buxgalteriya balansida o'zining o'rnini topib bermoqda. Shu tufayli qo'llanmaning yettinchi bobi nomoddiy aktivlar tahliliga bag'ishlangan. Unda nomoddiy aktivlarning mazmuni, turlari, baholash yo'llari, ko'rsatkichlar tizimi atroflicha yoritilgan. Eng muhimi, nomoddiy aktivlarni tahlil qilish usullari va ularning samaradorligini oshirish yo'llari ham alohida tadqiq qilingan. Bu ko'rsatkichlar tahlili ham amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda yoritilgan. Qo'llanmaning sakkizinchi bobi korxonada aylanma mablag'lar tahlili mazmuni, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, baholash yo'llari va tahlil qilish usullari ham ishda o'z o'rnini topgan. Aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar ham talaygina. Ularni o'rganish va tahlil qilishda to'g'ri xulosa chiqarish uchun uch guruhga bo'lish tavsiya qilingan: holatini, ta'minlanganlikni va samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda yoritilgan.

To'qqizinchi bob korxonada tovar-moddiy zaxiralar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahliliga bag'ishlangan. Unda tovar-moddiy zaxiralarning turlari, me'yordan ortiqcha saqlangan tayyor mahsulot qoldiqlarini baholash va ularni aniqlash usullari, tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilish yo'llari ko'rsatib berilgan. Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish ombor uchun emas, xaridor, iste'molchi uchun amalga oshiriladi. Shu jihatdan tovar-moddiy zaxiralar, ularning qoldig'i muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Zaxiralarning bu me'yorda ushlab turilishi, haddan tashqari ko'payib ketmasligi korxona ishining samaradorligini, tovar (xizmat)larning sifatliligini belgilaydi.

Qo'llanmaning o'ninchi bobi korxonaning mehnat salohiyati tahliliga bag'ishlangan. Ushbu muammo o'ta murakkab va kam o'rganilganligi tufayli unga alohida ahamiyat berilgan. Chunki inson salohiyati uning o'zi kabi teran va murakkab. Shu tufayli uni

o'rganishni aslo cheklab bo'lmaydi. Deyarli barcha fanlarning obyekti inson, uning u yoki bu salohiyatini o'rganishga bag'ishlangan.

O'n birinchi bobda korxonalar moliyaviy salohiyatining tushunchasi va tarkibi, axborotlar manbai, moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va tasnifi, holatini ifodalovchi ko'rsatkichlari, baholash va tahlil qilish yo'llari, moliyaviy salohiyat holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari, chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar, ularni aniqlash va tahlil qilish usullari, korxonalar hamda moliyaviy salohiyati samaradorligining tahlili hamda samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari, korxona moliyaviy salohiyati samaradorligining tahlili, korxona moliyaviy salohiyati samaradorligining omilli tahlili kabi masalalar ko'rilgan.

Qo'llanmaning o'n ikkinchi bobi korxona iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini baholash va tahlil qilish usullari, mohiyati va mazmuni, ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari tahlili, korxona iqtisodiy mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalariga bag'ishlangan. Shu bobda korxonaning nochorligi va bankrotligi, uning oldini olish masalalari ham qarab chiqilgan. Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy hisobotlar tarkibida «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» ham paydo bo'ldi. Bunga mos ravishda pul oqimlarining tahlili o'n uchinchi bobda yoritilgan. Mazkur bobda pul mablag'lari oqimi tushunchasi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, pul mablag'lari tushumi, so'ngra ularning chiqib ketishi tahlil qilingan. O'n to'rtinchi bobda ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmining tahlili, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, aniqlash yo'llari va vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Qo'llanmaning o'n beshinchi bobi korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati va uni tahlil qilish zarurligi, moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi, moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari, o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili, chetdan jalb qilingan mablag'lar

(kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili, haraktdagi mablag'lar (kapital), asosiy vositalar (kapital, aylanma mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili kabi masalalar atroficha yoritilgan. Shuningdek, ushbu bobda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari ham ko'rsatib berilgan.

Hozirgi paytda korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish muhim masalalardan birige aylandi. Shu tufayli bu ko'rsatkichlarning holatini davlat nazoratiga olgan. Qo'llanmada ushbu masalaga o'n oltinchi bob bag'ishlandi. Unda debitorlik va kreditorlik qarzlarining mazmuni, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, aniqlash va tahlil qilish yo'llari ko'rsatib berilgan. Tahlil natijalari amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda yoritilgan.

O'n yettinchi bob korxonada foydalilik nuqtasini aniqlash va tahlil qilish, marjinal foyda, uning shakllanishi va daromadlar tarkibi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'zgaruvchi va o'zgarmas xarajatlar hamda korxona foydalilik nuqtasini aniqlash uchun qo'llaniladigan muvofiqlik koeffitsiyenti kabi masalalar ham o'z aksini topgan. O'n sakkizinchi bobda moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llari, foydaning shakllanishi, ishlatilishi, tahlil qilish usullari qarab chiqilgan. Unda korxonaning rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari, ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar o'z aksini topgan. Barcha nazariy tavsiyalar amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda isbotlangan. Ushbu bobda ko'rilgan masalalar O'zbekiston iqtisodiyotida sodir bo'lgan tub o'zgarishlarni, xususan buxgalteriya hisobining milliy andozalarida ko'zda tutilgan yangiliklarni o'zida ifoda etgan.

Ushbu qo'llanmadagi mavzularning ayrimlari bugungi O'zbekiston iqtisodiyotidan kelib chiqqan holda muallifar tomonidan ilk bor tahlil qilinmoqda. Tabiiyki, unda munozarali, o'z yechimini kutayotgan amaliy va metodologik muammolar bo'lishi mumkin. Mualliflar bayon etilgan barcha taklif va tavsiyalar takomillashgan, deb da'vo qilishmaydi. Ularni keng kitobxonlar hukmiga havola qilishdan asosiy maqsad iqtisodiy tahlilni takomillashtirish bo'yicha xolis taklif va tavsiyalar bilan yanada boyitish, bu borada mulkammal ushbiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

# *1-bob.* IQTISODIY TAHLILNI TASHKILLASHTIRISH

## 1.1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati va uning zarurligi

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bir tomondan korxonalarning mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyat yaratib bersa, ikkinchi tomondan, ularning mas'uliyatini yanada oshiradi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy erkinligi xodimlar mas'uliyatining oshganligi ham faoliyatni chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlilni tashkil qilish tizimi yaratilgan bo'lib, asosan, rejaning bajarilishi va unga ta'sir qiluvchi omillarni davlat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Endilikda esa tahlilning mazmuni, shakli va o'tkazish usullari o'zgardi. Hozir tahlil, eng avvalo, mulkdor tomonidan o'tkazilib, uning manfaatiga xizmat qiladi. Bu yerda mehnat jamoasi va davlat manfaatlarining uyg'unligi ta'minlanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan tahlilni yangi talabga mos holda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy tahlilda korxona rahbari yoki menejeri ishlab chiqarishni batafsil o'rganishi lozim. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Shu maqsadda iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlarning asosiy guruhlari keltiriladi. Iqtisodiy tahlilni qanday ketma-ketlikda, ya'ni bosqichda amalga oshirish ham uning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy subyekt sifatida ishtirok etadi. U o'z mulkining ko'payishidan, ko'proq foyda olishdan manfaatdor. Bunga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Buning uchun tadbirkorlik va aql bilan ish ko'rish lozim.

Mulkdor o'z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo'lishi mumkin. Buning uchun qo'shimcha mutaxassislar, xodimlar yollashiga to'g'ri keladi. Shu asnoda mehnat jamoasi tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining

farovonligini ta'minlaydi. Korxona qancha ko'p daromad qilsa, mehnat jamoasi a'zolari shuncha ko'p mehnat haqi olishadi. Bu esa mehnat jamoasi o'z korxonasining muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Har bir korxonaning xo'jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o'z mulkidan, aylanma mablag'i va olgan foydasidan soliq tulaydi. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxona faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy jarayonning, ya'ni korxona yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijasidan kim manfaatdor bo'lsa, u mazkur subyekt faoliyatini o'rganishga, tahlil qilishga qiziqadi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil investorlarga, hamkorlarga, birlashmalarga, uyushmalarga, sug'urta, bank, moliya idoralariga kerak.

### 1.2. Iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi subyektlar

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi barcha mutaxassislar shug'ullanadi. Ammo hammasi ham korxona to'g'risida batafsil axborotga ega emas. Hamma o'zi bajarayotgan u yoki bu soha bo'yicha axborot bilan ta'minlangan. Shu jihatdan hamma o'z sohasini muntazam tahlil qilib boradi. Lekin shuni e'tirof etish kerakki, xo'jalik faoliyati to'g'risida butun faoliyatni o'zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada to'planadi va qayta ishlanadi. Shu tufayli korxonaning kompleks iqtisodiy tahlili bilan buxgalteriya xodimlari, bevosita bosh buxgalter shug'ullanadi. Chunki unda korxonaning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlari mavjud. Ular moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topadi. Iqtisodiy tahlil uchun asosiy ma'lumot manbai bo'lib, moliyaviy hisobotda ifoda etilgan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ularning kompleks tahlili bilan bosh buxgalterlar shug'ullanadi. Alohida sohalar bo'yicha tahlil kimga kerak bo'lsa, o'shalar shug'ullanadi.

### 1.3. Iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar

Korxonalar xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

• korxonalarning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
• ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
• moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
• korxonaning iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
• korxonaning moliyaviy salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
• korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
• korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
• korxonaning mustaqilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
• korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
• korxonaning faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxonaning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga uning tashkiliy holati, texnik ta'minot darajasi va ishlab chiqarish jarayonining texnologik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bularning tasviri 1.1-chizmada o'z aksini topgan.




*1.1-chizma.* Korxonaning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

**Korxonaning mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlari** ham tahlilda muhim o'rin egallaydi. Bularga mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi kiradi. Ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'rsatkichlarga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi (natural miqdori va qiymatida), tovar mahsuloti kabilar kiradi. Hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish masalaning bir tomoni bo'lib, eng asosiysi ularni sotishdir. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda mahsulot (ish, xizmat)ni sotish hajmi muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli ko'pgina hisobotlarda

faqat sotilgan mahsulot hajmi ko'rsatiladi, xolos. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi 1.2-chizmada ifoda etilgan.




*1.2-chizma.* Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

**Moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar** iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan asosiy ko'rsatkichlardir. Bular tarkibiga daromadlar, xarajatlar, foyda va rentabellik bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. O'z navbatida daromadlarning bir qancha turlari bor. Xuddi shunday xarajatlar ham, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari ham turlicha. Qaysi ko'rsatkichni qo'llash tahlilning qaysi sohani o'rganishiga va nima maqsadda amalga oshirishiga bog'liq. Ushbu ko'rsatkichlarning bog'liqligi 1.3-chizmada ifoda etilgan.

*1.3-chizma.* Moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

Daromadlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga yalpi daromad, asosiy faoliyatdan olinadigan daromad, moliyaviy faoliyat daromadi, tasodifiy daromad kiradi. Xarajatlarning ham bir qancha turlari bor. Bu xarajatlar to'g'risidagi Nizomda o'z aksini topgan. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari ham turlicha. Masalan, aktivlar tahlil qilinsa — aktivlar rentabelligi, xarajatlar samaradorligi tahlil qilinsa — xarajatlar rentabelligi, mehnat ko'rsatkichlari tahlil qilinsa — mehnat rentabelligi kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi.

**Korxonaning iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar** ham iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardir. Ushbu ko'rsatkichlarning hajmi korxonaning moliyaviy xo'jalik

faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu guruh ko'rsatkichlarga asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, nomoddiy faollar va mehnat salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. Har bir guruh ko'rsatkichlar ham o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ular 1.4-chizmada ifoda etilgan.




*1.4-chizma.* Korxonaning iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

**Korxonaning moliyaviy salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar** ham iqtisodiy tahlilning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'limidagi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Chunki ular bilan bog'liq ko'rsatkichlar korxona moliyaviy manbaining tarkibi, uning holati va samarali ishlatilishini ifodalaydi. Mazkur guruhga korxonaning o'z mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar hamda chetdan jalb qilingan uzoq va qisqa muddatli mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. Ushbu mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham asosan buxgalteriya balansining passiv qismida ko'rsatiladi. Ularning tahlili mazkur hujjat va moliyaviy hisobotning boshqa turlariga asosan amalga oshiriladi. Mazkur ko'rsatkichlar 1.5-chizmada ifodalangan.




*1.5-chizma.* Korxonaning moliyaviy salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

**Korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar** erkin raqobat sharoitida o'ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish orqali hamisha korxonaning bankrotlik holatiga tushib qolmasligining oldini olishga

erishish mumkin. Ushbu guruh ko'rsatkichlarga korxona balansining likvidliligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar, kreditni to'lashga qodirligi kabi ko'rsatkichlar kiradi. Ularning qisqartirilgan tizimi 1.6-chizmada ifodalangan.




*1.6-chizma.* Korxonaning to'lovga qodirligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

**Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni** o'rganish korxona faoliyatining qanday rivojlanganligini bugungi ahvoli qanday va kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini ifodalaydi. Ushbu guruh ko'rsatkichlar tizimi juda keng. Ular quyidagi besh guruhga bo'linadi:

- korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Ularning tuzilishi 1.7-chizmada o'z aksini topgan.

Ushbu guruh ko'rsatkichlarining har biri yana o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni qamrab oladi.




*1.7-chizma.* Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

**Korxonaning mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar** ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismidir. O'z mazmuni va mohiyati jihatidan ikki guruhga bo'linadi:

- korxonaning iqtisodiy mustahkamligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy mustahkamligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlarning bog'liqligi 1.8-chizmada o'z aksini topgan.




*1.8-chizma.* Korxonaning mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

**Korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar** ham mulkdor va korxona menejeri uchun muhimdir. Shu tufayli mazkur guruh ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularga korxonaning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi va bankrotlik ehtimolini aniqlaydigan ko'rsatkichlar tizimi kiradi. Ularning bog'liqligi 1.9-chizmada keltirilgan.




*1.9-chizma.* Korxonaning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan yana biri **korxonaning faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir.** Korxona faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ikki yirik guruhga bo'linadi: korxonaning ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va korxonaning bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu ko'rsatkichlar o'z navbatida o'nlab ko'rsatkichlarni o'ziga jamlagan. Ularning qisqartirilgan chizmasi quyidagicha ifodalangan (1.10-chizma):




*1.10-chizma.* Korxona faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxona ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'z navbatida yana uch guruhga bo'linadi:

- iqtisodiy salohiyatdan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- moliyaviy salohiyatdan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxona faoliyati samaradorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Korxonaning bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi ham uning bozordagi ishtiroki va o'rnini belgilash imkonini beradi:

- korxonaning ishlab chiqarish vositalari, ya'ni texnologiya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning xomashyo bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning mehnat bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliya va investitsiya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning xalq iste'moli va ishlab chiqarish iste'moli bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

## 1.4. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari

*Korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish — iqtisodiy faoliyatning* tarkibiy qismi sifatida o'z boshlanishi va adog'iga ega. Bu jarayon bir qancha bosqichlardan iborat:

1. Tahlil o'tkazishning maqsadini aniqlash va dasturini tuzish.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni to'plash.
3. Axborotlarni tahlil qilish maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish va jadvallar tuzish.
4. Jadval ma'lumotlari asosida dastlabki xulosalar chiqarish.
5. Xulosani chuqurlashtirish maqsadida lozim bo'lgan holatlarni chuqurroq o'rganish uchun ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash.
6. Xo'jalik faoliyati yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichlar haqida mufassal xulosaga kelish.

7. Korxona xo'jalik faoliyatini yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Amalda doim faoliyat ko'rsatuvchi korxona bo'lsa, tahlil ham har bir hisobot tuzilgandan keyin va yangi davrni boshlashdan oldin muntazam ravishda o'tkazib turiladi. Unda barcha bosqichlar aynan shu holatda takrorlanishi mumkin. Faqat ko'rsatkichlarning raqamlari o'zgaradi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlagan holda uni kompyuterga kiritish va tahlil usulini dasturlash ham mumkin. Albatta, shuni e'tirof etish kerakki, tahlil ishlarini dasturlashda va uni avtomatlashtirishning ayrim masalalari I.O.Voljin va V.V.Ergashboyevlarning kitoblarida yoritilgan.

## 1.5. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish

Tahlil korxona xo'jalik faoliyati to'g'risida batafsil xulosaga kelib, boshqarishni takomillashtirish uchun qilinadi. Chunki tahlil jarayonida o'rganilgan ko'rsatkichlar, qilingan hisob-kitoblar korxona xo'jalik faoliyatining u yoki bu jihatinigina ifodalaydi. Xo'jalik faoliyati to'g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun barcha ko'rsatkichlar tahlilini jamlab, ularni umumlashtirish lozim. Ular umumlashgach, xo'jalik faoliyatining qaysi qismida yaxshi natijalarga erishilgani yoki kamchiliklarga yo'l qo'yilgani aniq bo'ladi. Kamchilikka yo'l qo'yilgan holatlarga e'tiborni qaratib, ularni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bu jarayon iqtisodiy tahlilning pirovard natijasi va asosiy maqsadidir.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo'jalik faoliyatini to'liq ifoda etishi lozim. Shuningdek, jadvallar bir korxonada har safar, uning bo'linmalarida bir vaqtning o'zida yagona kelishilgan shaklda tuzilishi lozim. Bunday yondashuv ko'rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Jadvallar odatda, egasi va kesimiga ega. Uning egasida asosan ko'rsatkichlarning nomi, kesimida esa qaysi davrda amalga oshirilayotganligi, ularning farqi, o'zgarish sur'atlari kabi ifodalar ko'rsatiladi. Jadvallar natija o'zgarishiga ta'sirini hisoblash jarayonida ham tuziladi. Bu holda jadvalning egasida ta'sir qiluvchi omillar bilan birga natija ko'rsatkichining nomi ifodalanadi. Uning kesimida

esa qaysi davr natijalari tahlil qilinayotganligi, shu orada yuz bergan o'zgarishlar va ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun hisob-kitob qilinadigan usullarning aloqadorligi ko'rsatiladi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari asosan kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Shu tufayli tahlilda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari jadvallar bilan birgalikda turli chizmalar va diagrammalarda ham ifoda etilyapti. Bu esa korxona xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni juda tez ilg'ash imkonini beradi. Mazkur usullar iqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini aniqlashda qo'llaniladi. Masalan, chizmalar (grafiklar) ko'rsatkichlar dinamikasini ifodalashda juda qulay. Korxona xo'jalik faoliyatidagi tarkibiy tuzilmalar, ularning o'zgarishi diagrammalarda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chizma va diagrammalarning qulayligi shundaki, u korxona xo'jalik faoliyati natijasini tez va tushunarli tarzda ifoda etadi. Masalan, korxonada beshta bo'linma bo'lsa, ularning o'tgan yilga nisbatan biror ko'rsatkichining o'sishi ustunli diagrammada ifodalansa, yuqori natijaga erishganligi eng baland ustun sifatida yaqqol ko'rinib turadi. Bu har bir bo'linma xodimlarining ruhiy kayfiyatiga ta'sir qiladi. Eng yuqori ustunga erishgan bo'linma xodimlarida faxrlanish hissi tug'ilsa, eng past ustunga ega bo'linma xodimlarida o'z jamoasi uchun qayg'urish hissi paydo bo'lishi mumkin. Unisi ham, bunisi ham ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun kurashish tuyg'usini uyg'otishi tabiiy. Bu ichki omillar o'ta muhim, ortiqcha mablag' talab qilmaydigan, ammo korxona xo'jalik faoliyatiga ijobiy ta'sir etib, uni yaxshilaydigan omillardir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohotlar chuqurlashuvi korxonalar o'rtasida erkin raqobat muhitini tug'dirmoqda. Bu esa o'z navbatida korxona xo'jalik faoliyatini tezkor tarzda kundalik natijalarni o'rganib borishni taqozo qiladi. Hisob-kitoblarga kompyuterlarni qo'llash natijasida ish kuni oxirida xo'jalik faoliyatining kunlik natijasi qanday bo'lganligini aniqlash mumkin. Bu esa yutuq va kamchiliklarni juda tez anglashga, kamchiliklarni bartaraf qilishga asos bo'ladi. Tahlilning ushbu shakli boshqaruvni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Kunlik natijalar har kuni jamlanib borilsa, hisobot davrining xohlagan paytida qanday natijaga erishganligini bilib olish mumkin. Masalan, bir oyning o'n oltinchi kuni qanday natijaga erish-

ganligini kunlik hisobotni jamlab borish orqali aniqlash mumkin. Shu, 16-kuni qanday natijaga erishdik va o'tgan 16 kun mobaynidagi umumiy ahvol xususida xulosa chiqarish uchun ham tegishli axborot kompyuterda mavjud bo'ladi. Bu esa korxona xo'jalik faoliyatini tezkor boshqarish, kamchiliklarni o'z vaqtida, hisobot davri tugamasdan bartaraf qilishga imkon yaratadi.

Agar korxonaning barcha bo'linmalarida kompyuterlar o'rnatilib, yagona tarmoqqa ulangan bo'lsa, qog'ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usulini joriy qilish mumkin. Korxona menejeri har bir bo'linmadan tegishli axborotlarni olib, bir joyda umumlashtiradi va xulosa chiqaradi. Xulosa natijasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, tegishli topshiriqlarni ham kompyuter orqali tarmoq orqali jo'natish mumkin. Bu mutaxassis va bo'linma rahbarlarining turli yig'ilishlarga ketadigan vaqtini tejaydi.

Hisobot davri tugagach, tahlil natijasi tezkor tarzda jadvallarda, chizmalarda, diagrammalarda mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va oqibatlari ko'rsatiladi. Ayniqsa, kim aybdorligi ochiq-oydin bayon etilishi lozim. Bu — kelajakda xatoga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo'yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib, korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Buning uchun mutaxassislar, bo'linma rahbarlari taklif qilinib, chuqur o'ylangan holda puxta ish yuritish rejasi tuziladi. Agar korxona yirik bo'lsa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda «Fikrlar hujumi» usulidan ham foydalanishi mumkin. Buning uchun ijodiy guruh tashkil qilingan bo'lishi lozim. Ijodiy guruhning vazifasi korxona xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bo'ladi.

Iqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv bilan birga auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek faqat taftish bilan emas, balki tahlil bilan shug'ullanishlari lozim. Shu tufayli tahlil usullari, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha yaxshi bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki bor ko'proq puxta egallashi shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin, xolos.

## *2-bob.* IQTISODIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN USULLAR

### 2.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar tasnifi (klassifikatsiyasi)

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fanining mohiyati va mazmuni ham islohotlar davrida tubdan o'zgardi. Oldin tahlilning natijasi asosan rejani bajarish uchun ichki imkoniyatlarni axtarib topishga qaratilgan bo'lsa, endilikda har bir korxonaning ichki imkoniyatlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yaxshilash uchun safarbar qilishga qaratiladi. Ilgari tahlil yaxshi yutuqlarni oshkor etgan bo'lsa, endilikda bu tijorat siridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona o'z tijorat sirlarini saqlashga majbur. Bunday sharoitda xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning umumiy usuli bo'lishi lozim. Lekin har bir korxona ushbu umumiy usullar orqali o'zining ichki imkoniyatlarini topadi va u o'ta muhim bo'lsa, tijorat siri sifatida saqlanadi. Xullas, raqobat har bir korxonani, ularning mulk shaklidan qat'iy nazar, samarali ishlashini talab qiladi. Samaradorlikni uzluksiz oshirib borish uchun uning holatini chuqur o'rganishni, tahlil qilishni taqozo qiladi. Shu orqali har bir korxona o'zining istiqbolini, moliyaviy barqarorligini ta'minlashni ko'ra bilishi lozim.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda juda ko'p usullar qo'llaniladi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin: 1) *an'anaviy usullar;* 2) *matematik usullar.*

**An'anaviy usullar** eng qadimgi bo'lib, ular tahlil vujudga kelgan kundan boshlab qo'llanilib kelinmoqda. Ularga quyidagilar kiradi: solishtirish usuli; muvozanat usuli (balans usuli); farqli usul; qayta hisoblash usuli; zanjirli almashtirish usuli; indeks usuli; integral usul; nisbiy ko'rsatkichli usul kabilardir. Bundan tashqari, bir qancha statistik usullar ham qo'llaniladi.

**Matematik usullar** tahlil fanining takomillashuvi bilan, unga EHMlarni qo'llash va matematik usullardan foydalanish jarayonida kirib kelgan. Buning bir qancha usullari bilan birgalikda bir qancha turlari ham mavjud. Matematik modellarning turlariga quyidagilar kiradi: multiplikativ model; additiv model; kasrli model kabilardir. Ushbu modellarning hammasi ham iqtisodiy axborotlarni tahlil qilishda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Additiv model natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalanganda qo'llaniladi. U o'qilishi-yozilishi jihatdan juda sodda va ixchamdir. Multiplikativ model natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalansa, qo'llaniladigan modeldir. Kasrli model esa natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lish bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarning tasnifini 2.1-chizmadadek ifodalash mumkin.




*2.1-chizma.* Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar tasnifi (klassifikatsiyasi).

Ushbu usullarning barchasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladi. An'anaviy usullar barcha darsliklarda u yoki bu shaklda bayon etilgan. Bular, asosan, mikroiqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladi. Bunda ko'pincha matematik usullardan foydalaniladi.

## 2.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarning tavsifi (xarakteristikasi)

**2.2.1. Solishtirish usuli.** Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullarning eng ko'p uchraydigani solishtirish usulidir. Bu usulni qo'llash bilan tahlil boshlanadi. Shu usul orqali tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning farqi aniqlanadi. Qolgan barcha usullar solishtirish natijasida aniqlangan farqni isbotlashga, aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Solishtirishda asos qilib miqdorlar olinadi. Statistika fanida bunga katta ahamiyat beriladi, chunki iqtisodiyotning o'lchami miqdorlarda ifodalanadi. Jumladan, yangidan yaratilgan milliy yalpi ichki mahsulotning bir yillik miqdori, tovar oboroti (aylanmasi)ning miqdori, milliy daromadning miqdori va h. k.

Miqdor ko'rsatkichlari, asosan, buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z ifodasini topadi, chunki barcha iqtisodiy jarayonlar birinchi galda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va hisobotida jamlanadi. Tahlil qilish uchun miqdor ko'rsatkichlarining barcha turlari: mutlaq miqdor, nisbiy miqdor, o'rtacha miqdor kabilar qo'llaniladi.

**Mutlaq miqdor** har qanday miqdorning asosi, iqtisodiy jarayonlarni sanaydigan va o'lchaydigan boshlang'ich raqamdir. Masalan, savdo korxonalari soni, korxonada ishlaydigan xodimlar soni, korxonadagi jihozlar soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni sanash yo'li bilan aniqlansa, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti kabilar bevosita o'lchash yo'li bilan aniqlanadi. Bunday mutlaq miqdorlar hajm ko'rsatkichlari, deb ataladi.

Mutlaq miqdordan tahlilda asosan, qo'shish va ayirish amallari ishlatiladi. Mutlaq miqdorlar o'lchov birligiga qarab natura, shartli natura, pul va kompleks turlarga bo'linadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida ko'rsatkichlar asosan, pul birligida ifodalanar edi. Endilikda mulkchilik shaklidagi iqtisodiyotning vujudga kelishi tahlil qilishda

natura, shartli natura va kompleks ko'rsatkichlardan keng foydalanish zaruratini tug'dirdi.

Umuman olganda, iqtisodiy jarayonlar, ayniqsa, ularni ma'lum raqamlarda ifodalash shunchalik murakkabki, unda faqat bir xil o'lchovga ega bo'lgan ko'rsatkich bilan cheklanib bo'lmaydi. Shu tufayli uni tahlil qilishda bir qancha ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bularsiz tahlil qilish, umuman ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga baho berish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish qiyin. Shu bilan birgalikda faqat mutlaq miqdor orqali xo'jalik faoliyati haqida chuqur va batafsil xulosa qilish ham mumkin emas. Shu tufayli tahlil uchun mutlaq miqdor bilan birgalikda nisbiy miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

**Nisbiy miqdorlar** tahlil qilishda dastlabki va yakuniy xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Nisbiy miqdorlardan tahlilda foydalanishda, asosan, bo'lish va ko'paytirish usullari ishlatiladi. Ularning hajmini solishtirish va farqini aniqlash uchun ayirish amalidan foydalaniladi. Nisbiy miqdor tahlil jarayonida, asosan, mutlaq miqdorlarni bir-biriga bo'lish natijasida vujudga keladi va iqtisodiy jarayonlar haqida aniq ma'lumotlarni beradi. Masalan, biror ko'rsatkich bo'yicha rejaning bajarilishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, me'yorga nisbatan erishilganlik darajasi kabilar.

Tahlil jarayonida nisbiy miqdorning nimani ifodalash mohiyatiga qarab, bir qancha turlari qo'llaniladi:

— reja topshirig'i va bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdor;

— o'zgarish sur'atini ifodalovchi nisbiy miqdor;

— tarkibni ifodalovchi nisbiy miqdor;

— me'yorga (etalonga, o'rtachaga) nisbatan erishilgan darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor;

— intensivlik darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor va h. k.

Nisbiy miqdorlar hajmi tahlil uchun to'liq xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Masalan, do'konda reja topshirig'i 105 %ga bajarildi, o'tgan yilga nisbatan korxonaning yalpi daromadi 107 %ga ortdi, shu obyektning umumiy tovar mahsulotidagi ulushi 15 %ni tashkil qildi, mehnat unumdorligi etalonga nisbatan 15 %ga kam bo'ldi, tovar mahsulotining 80 % o'sish sur'ati intensiv omillar evaziga yuzaga keldi va h. k.

Keltirilgan har bir ko'rsatkich tahlil qiluvchi uchun ma'lum xulosaga kelishda asos bo'lib xizmat qiladi. Tahlil jarayonida mutlaq

va nisbiy miqdorlar bilan birgalikda o'rtacha miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

**O'rtacha miqdorlar** — tahlilda iqtisodiy hodisa va jarayonlardagi ma'lum qonuniyatlar hamda umumiy yo'nalish tendensiyalarini aniqlashda qo'llaniladi. Bu miqdorni qo'llashning zarurligi shundaki, iqtisodiy jarayonlar alohida obyektlar bo'yicha o'rganilganda vaqtinchalik tasodiflar ta'sirida bo'lishi mumkin. Masalan, korxona xorijiy xomashyo asosida ishlaydi, deylik. Xomashyo bir yilda to'liq keltirildi. Ammo ikkinchi yil xomashyoni keltirish imkoni bo'lmadi. Shu bois ishlab chiqarish ko'rsatkichi juda past bo'lishi tabiiy. Albatta, bu tasodifiy hol, chunki ishchilarning malakasi, moddiy-texnika bazasi, uning texnologik darajasi o'zgarmasdan qolishi mumkin. Boshqa bir misol. Bir xil mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan bir necha korxona mavjud. Ammo shulardan yarmi xomashyoni o'z vaqtida keltirishga muvaffaq bo'lsa, shu korxonalar ishi yaxshi bo'lishi mumkin. Qolgan korxonalarda faqat shu omil evaziga ishlab chiqarish darajasi past bo'lishi tabiiy. Shunga o'xshash tasodiflarni bartaraf qilish uchun o'rtacha miqdorlardan foydalaniladi.

O'rtacha miqdorlarni aniqlashning bir qator usullari mavjud: o'rtacha arifmetik, o'rtacha garmonik, o'rtacha xronologik kabilar. Bu usullar statistika fanining «O'rtacha miqdorlar» bobida batafsil o'rganiladi.

**2.2.2. Muvozanat usuli.** Ushbu usul buxgalteriya hisobi, statistika, rejalashtirishda xususan, omillar bilan natija o'rtasida funksional bog'lanish bo'lganda, omillar ta'sirini hisoblashda, xo'jalik faoliyatidagi muvozanatni saqlashda qo'llaniladi. Muvozanat usulining qo'llanilishi iqtisodiyotning hamma sohalarida tuziladigan tovar va boshqa moddiy boyliklar muvozanati misolida ko'rish mumkin. Asosan tovar muvozanati formulasidan foydalaniladi:

$$Zyb + KT = T + Xch + Zox,$$

bunda, $Zyb$ — tovar zaxirasining hisobot yili boshidagi qoldig'i; $KT$ — kelib tushgan tovarlarning hisobot yilidagi hajmi; $T$ — tovar oboroti (hisobot davrida sotilgan tovarlarning hajmi); $Xch$ — tovarlarning turli sabablar bilan chiqib ketishi (tabiiy kamayishi,

chirishi, sinishi va boshqalar); $Zox$ — tovar zaxiralarining hisobot yili oxiridagi qoldig'i.

Yuqoridagi formulaga asosan har bir miqdorni qolganlarining algebraik yig'indisi ko'rinishida tasvirlash mumkin. Masalan, tovar oboroti hajmini quyidagi funksional bog'liqlikda ifodalasa bo'ladi:

$$T = Zyb + KT - Xch - Zox.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, tovar oborotiga to'rt omil ta'sir qilgan. Tovar zaxiralarining boshlang'ich qoldig'i va kelib tushgan tovarlar hajmining ko'payishi tovar oborotiga ijobiy ta'sir qilsa, tovarlarning har xil chiqimlari va tovar zaxiralarining yil oxiridagi qoldiq summasi ko'payishi natijaga salbiy ta'sir qiladi. Tovarlarning yil boshidagi qoldig'i o'zgarishining tovar oborotiga ta'siri ($\Delta Tzyb$)ni topish uchun tovar zaxiralarining hisobot yilidagi miqdoridan ($Zyb_1$) shu ko'rsatkichning asos yilidagi miqdorini ($Zyb_0$) ayirib tashlanadi, ya'ni:

$$\Delta Tzyb = Zyb_1 - Zyb_0.$$

Tovar kelib tushishining tovar oboroti hajmiga ta'sirini ($\Delta Tkt$) topish uchun uning hisobot yilidagi miqdoridan ($KT_1$) asos yilidagi miqdori ($KT_0$) ayirib tashlanadi, ya'ni:

$$\Delta Tkt = KT_1 - KT_0.$$

Tovarlarning har xil chiqib ketishi tovar oboroti hajmiga ta'sirini ($\Delta Txch$) topish uchun uning hisobot davridagi miqdoridan ($Hch_1$) asos davridagi miqdori ayrilib tashlanadi ($Xch_0$), ya'ni:

$$\Delta Txch = Hch_1 - Xch_0.$$

Tovar zaxirasi qoldig'ining hisobot davri oxiridagi o'zgarishining tovar oborotiga ta'sirini ($\Delta Tzox$) topish uchun, uning hisobot davridagi miqdoridan ($Zox_1$) asos davridagi miqdori ($Zox_0$) ayiriladi, ya'ni:

$$\Delta Tzox = Zox_1 - Zox_0.$$

Omillar ta'siri hisobining to'g'riligini aniqlash uchun hamma omillar ta'sirini qo'shish lozim. U holda umumiy farq barcha omillar ta'siriga teng bo'ladi:

$$\Delta T = \Delta Tzyb \pm \Delta Tkt \pm \Delta Txch \pm \Delta Tzox.$$

2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tovar oboroti hajmi hisobot davrida rejadagiga nisbatan 97,2 ming so'mga ortgan. Ushbu o'zgarishga tovar kelib tushishining 106,3 ming so'mga ortishi va tovarlarning har xil chiqib ketishining 0,1 ming so'mga kamayishi tovar oborotiga ijobiy ta'sir qilgan. Boshqa omillar esa tovar oborotining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, tovar zaxiralarining hisobot davrining boshida me'yorga nisbatan 6,2 ming so'mga kam bo'lishi, shu davrning oxirida esa me'yordan 3,0 ming so'mga ortiqcha bo'lgani tovar oborotiga salbiy ta'sir qilgan. Shunday qilib, tovar oborotining umumiy farqi 97,2 ming so'm vujudga kelgan:

$$-6,2 + 106,3 + 0,1 - 3,0 = +97,2.$$

*2.1-jadval*

**Tovar oboroti hajmining o'zgarishiga tovar muvozanati ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillar ta'sirini aniqlash**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Rejada | Hisobotda | Farqi (+, −) | Omillar ta'siri |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Tovar zaxiralarining boshlang'ich qoldig'i (Zyb) | 648,0 | 641,8 | − 6,2 | − 6,2 |
| 2. | Kelib tushgan tovarlar (KT) | 3069,8 | 3176,1 | + 106,3 | + 106,3 |
| 3. | Tovarlarning har xil chiqib ketishi (Hch) | 0,4 | 0,3 | − 0,1 | + 0,1 |
| 4. | Tovar zaxiralarining oxirgi qoldig'i (Zox) | 695,9 | 698,3 | + 3,0 | − 3,0 |
| 5. | Tovar oboroti (T) | 3021,5 | 3118,7 | + 97,2 | x |

Ushbu jadvaldagi tahlil natijasi tovar oborotini ko'paytirishning ichki imkoniyatlarini topish uchun asos bo'ladi. Agar hisobot yilida tovar zaxiralarining boshlang'ich va oxirgi qoldiqlari me'yor darajasida bo'lganda edi, tovar oboroti yana 9,2 ming so'mga (6,2 +3,0) ko'paygan bo'lar edi. U holda haqiqiy tovar oboroti 3118,7 ming so'm emas, balki 3127,9 ming so'mni (3118,7 + 9,2) tashkil qilardi. Uning o'tgan yilgi yoki asos yiliga nisbatan farqi 97,2 ming so'm emas, balki 106,4 ming so'mni (97,2 + 9,2) tashkil qilgan bo'lardi. Tovar oborotining ko'payishi evaziga boshqa ko'rsatkichlar ham yaxshilanar edi.

**2.2.3. Qayta hisoblash usuli.** Bu usul ham omilli tahlilda keng qo'llaniladi. U natijaga bir yoki ikki omil ta'sir qilgan paytlarda qo'llanilishi qulay. Usulning mohiyati rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinishidan iboratdir. Masalan, tovar oboroti ($T$) asosiy kapitalning o'rtacha qiymati ($Ak$) va shu kapitalning samaradorligi bilan funksional bog'liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$T = Ak \cdot Ks,$$

bunda, $Ks$ — asosiy kapitalning samaradorligi.

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, natijaga ikki omil ta'sir qiladi. Har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olamiz. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini ($Ak_1$) ikkinchi omilning rejadagi miqdori bilan ko'paytirish yo'li orqali aniqlanadi ($Ks_0$), ya'ni:

$$Tkx = Ak_1 \cdot Ks_0.$$

Omillarning tovar oborotiga ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim:

1. Tovar oboroti asosiy kapitalning o'zgarishi evaziga o'zgarganligini ($\Delta Tak$) topish uchun tovar oborotining qayta hisoblangan miqdoridan ($Tkx$) uning rejadagi hajmini ayirish kifoya ($T_0$):

$$\Delta Tak = Tkx - T_0 = (Ak_1 \cdot Ks_0) - (Ak_0 \cdot Ks_0).$$

2. Tovar oboroti o'zgarishiga asosiy kapital samaradorligining ta'sirini ($\Delta Tks$) aniqlash uchun tovar oborotining haqiqiy summasidan ($T_1$) uning qayta hisoblangan miqdorini ($Tkx$) ayirish kifoya:

$$\Delta Tks = T_1 \cdot Tkx = (Ak_1 \cdot Ks_1) - (Ak_1 \cdot Ks_0).$$

Ikki omilning ta'siri tovar oboroti farqining umumiy summasiga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta T = \Delta Tak \pm \Delta Tks.$$

Ushbu nazariy tavsiyani aniq ma'lumotlarni qo'llab yechish yo'lini 2.2-jadval orqali ko'rish mumkin.

*2.2-jadval*

**Tovar oboroti hajmiga asosiy kapital va ular samaradorligining ta'sirini qayta hisoblash usulini qo'llab aniqlash**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Qayta hisoblangan | Farqi (+, −) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Shu jumladan | | |
| | | | | Jami | Ak evaziga | Ks evaziga |
| Tovar oboroti, ming so'm | 42850,0 | 44520,0 | 42636,3 | + 1670,0 | −213,7 | + 1883,7 |
| Asosiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 26664,5 | 26531,6 | 26531,6 | − 132,9 | x | x |
| Asosiy kapitalning samaradorligi, so'm | 160,7 | 167,8 | 160,7 | + 7,1 | x | x |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tovar oboroti hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 1670,0 ming so'mga ortgan. Bu quyidagi omillar evaziga vujudga kelgan:

1. Asosiy kapital o'rtacha yillik qiymatining 132,9 ming so'mga kamayishi tovar oboroti hajmini 213,7 ming so'mga kamaytirdi:

$$42636,3 - 42850,0 = - 213,7 \text{ ming so'm.}$$

2. Asosiy kapital samaradorligining hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 7,1 so'mga ortganligi tovar oboroti hajmini 1883,7 ming so'mga oshirdi:

$$44520,0 - 42636,3 = + 1883,7 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu usullar mavjud bo'lgan ichki rezervlarni aniqlash imkonini beradi. Bizning misolimizda tovar oborotini oshirish uchun asosiy fondlarni ko'paytirish lozimligi aniqlandi. Agarda asosiy fondlar hisobot davrida hech bo'lmaganda o'tgan yil hajmida qolganida tovar oboroti yana 132,9 ming so'mga ortgan bo'lar edi. U holda haqiqiy tovar oboroti hajmi 44520,0 ming so'm emas, balki 44652,9 ming so'mni (44520,0 + 132,9) tashkil qilgan bo'lardi. Tovar oboroti rejasining bajarilishi 103,9 % emas, (44520,0 · 100 : 42850,0), balki 104,2 %ni (44652,9 · 100 : 42850,0) tashkil qilardi.

**2.2.4. Zanjirli almashtirish usuli.** Bu tahlilda keng qo'llaniladigan usullardan biridir. Natija o'zgarishiga uch va undan ko'p omillar ta'sir qilib, ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lsa, ushbu usuldan foydalaniladi. Masalan, tovar oboroti ($T$) o'zgarishi xodimlarning ro'yxatdagi soni ($X$), ularning o'rtacha ish kunlari ($K$) va bir kunlik mehnat unumdorligi ($M$) ko'rsatkichlari bilan funksional bog'liqdir. Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$T = X \cdot K \cdot M.$$

Ushbu formula asosida natijaga uch omil ta'sir qilganligini ko'ramiz. Omilli tahlilning asosiy vazifasi natija har bir omil evaziga o'zgarishini topishdan iboratdir. Zanjirli almashtirish usulidan foydalanadigan bo'lsak, rejadagi natijani har bir omil evaziga qayta hisoblab olish lozim. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

1. Tovar oboroti hajmi xodimlarning ro'yxatdagi soni o'zgarishi evaziga o'zgarganligini topish uchun birinchidan shu ko'rsatkich rejasini xodimlarining ro'yxatdagi soni haqiqiy miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$Tx = X_1 \cdot K_0 \cdot M_0,$$

bunda, «1» va «0» indekslari ko'rsatkichlarning haqiqiy va rejadagi miqdorini ifodalaydi. Ikkinchidan esa, shu qayta hisoblangan miqdordan rejadagi tovar oboroti ayirib tashlanadi:

$$\Delta Tx = Tx - To = (X_1 \cdot Ko \cdot Mo) - (Xo \cdot Xo \cdot Mo),$$

bunda, $\Delta Tx$ — tovar oboroti xodimlarning ro'yxatdagi soni o'zgarishi ta'sirida o'zgargan qismi.

2. Tovar oboroti ikkinchi omil, ya'ni xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha ish kuni o'zgarganligi evaziga o'zgarishini ($\Delta Tk$) topish uchun birinchi omil bilan hisoblangan miqdorini ikkinchi omilning miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$Tk = X_1 \cdot K_1 \cdot M_0.$$

Chiqqan natijadan birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan hisoblangan tovar oboroti hajmi olib tashlanadi:

$$\Delta Tk = Tk - Tx = (X_1 \cdot K_1 \cdot M_0) - (X_1 \cdot K_0 \cdot M_0).$$

3. Natijaning uchinchi omil — mehnat unumdorligining ta'siri evaziga o'zgarishini topish uchun tovar oborotining haqiqiy summasidan ($T_1$) uning ikkinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblangan ($T_k$) miqdori ayrilib tashlanadi:

$$\Delta T_m = T_1 - Tk = (X_1 \cdot K_1 \cdot M_1) - (X_1 \cdot K_1 \cdot M_0).$$

Uch omilning ta'siri tovar oborotining umumiy farqiga ($\Delta T$) teng bo'lishi kerak:

$$\Delta T = \Delta Tx \pm \Delta Tk \pm \Delta Tm.$$

Keltirilgan hisob-kitoblarga aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda yechiladigan bo'lsa, 2.3-jadval tuzilishi mumkin.

*2.3-jadval*

**Natijaga omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli yordamida hisoblash yo'llari**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Belgisi | Rejada | Haqiqatda | Zanjirli almashtirish | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 1 | 2 | 3 |
| 1. | Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni, kishi | X | $X_0$ | $X_1$ | $X_1$ | $X_1$ | $X_1$ |
| 2. | Har bir xodimga to'g'ri keladigan ish kuni, kun | K | $K_0$ | $K_1$ | $K_0$ | $K_1$ | $K_1$ |
| 3. | Xodimlarning o'rtacha bir kunlik mehnat unumdorligi, so'm | M | $M_0$ | $M_1$ | $M_0$ | $M_0$ | $M_1$ |
| 4. | Tovar oboroti, ming so'm | T | $T_0$ | $T_1$ | $T_x$ | $T_k$ | $T_m$ |

Jadvalga asosan tovar oborotining o'zgarishida omillar ta'sirini quyidagicha aniqlash mumkin:

1. Tovar oboroti xodimlar sonining o'zgarishi evaziga o'zgarganligini ($\Delta Tx$) topish uchun quyidagi amalni bajarish lozim:

$$\Delta Tx = T_x - T_o = (X_1 \cdot Ko \cdot Mo) - (Xo \cdot Ko \cdot Mo).$$

2. Tovar oborotining har bir xodim o'rtacha ish kunining o'zgarishi evaziga o'zgarganligini ($\Delta Tk$) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Tk = Tk - Tx = (X_1 \cdot K_1 \cdot Mo) - (X_1 \cdot Ko \cdot Mo).$$

3. Tovar oboroti har xodim bir kunlik mehnat unumdorligining o'zgarganligi evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi amalni bajarish lozim:

$$\Delta Tm = Tm - Tk = (X_1 \cdot K_1 \cdot M_1) - (X_1 \cdot K_1 \cdot Mo).$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta T = \Delta Tx \pm \Delta Tk \pm \Delta Tm.$$

Ushbu nazariy usulning bevosita amaliyotga qo'llanilishini ko'rib chiqish uchun natija ko'rsatkichi sifatida tovar oborotini ($T$) olish mumkin. Bu ko'rsatkichga aholi soni ($A$), ularning o'rtacha pul daromadlari ($D$) va tovar oborotining pul daromadini qamrab olish darajasi ($O$) ta'sir qiladi. Bu bog'liqlikni quyidagi formula bilan tasvirlash mumkin:

$$T = (A \cdot D \cdot O) / 100.$$

Bu formulaga zanjirli almashtirish usulini qo'llab, har bir ko'rsatkich bo'yicha amaliy ma'lumotlardan foydalangan holda natijaga omillar ta'sirini aniqlash mumkin (2.4-jadval).

*2.4-jadval*

**Chakana tovar oborotiga aholining soni va ularning pul daromadi bilan bog'liq bo'lgan omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usulini qo'llab yechish yo'llari**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Rejada | Haqiqatda | Zanjirli almashtirish | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 1 | 2 | 3 |
| 1. | Aholining o'rtacha yillik soni, kishi | 50265 | 50986 | 50986 | 50986 | 50986 |
| 2. | Bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha pul daromadi, so'm | 778,2 | 781,6 | 778,2 | 781,6 | 781,6 |
| 3. | Aholi pul daromadining tovar oboroti bilan qamrash darajasi, % | 72,5 | 76,4 | 72,5 | 72,5 | 76,4 |
| 4. | Chakana tovar oboroti, ming so'm | 28359,6 | 30446,3 | 28766,4 | 28892,1 | 30446,3 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida tovar oborotining hajmi 2086,7 ming so'mga (30446,3 – 28359,6) ortgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan:

1. Aholining o'rtacha yillik soni rejaga nisbatan 721 kishiga ortganligi tovar oboroti hajmini 406,8 ming so'mga (28766,4 – 28359,6) ko'paytirgan.

2. Aholining o'rtacha pul daromadi hisobot yilida 3,4 so'mga ortgan. Bu omil tovar oborotini 125,7 ming so'mga (28892,1 – 28766,4) ko'paytirish imkonini bergan.

3. Pul daromadining aholiga sotilgan tovar oborotining qamrab olish darajasi 3,9 %ga oshganligi umumiy tovar oboroti summasini 1554,2 ming so'mga (30446,3 – 28892,1) ko'paytirgan.

Ko'rinib turibdiki, tovar oborotining o'zgarishiga har uch omil ham ijobiy ta'sir qilgan. Natijada umumiy farq kelib chiqadi:

$$406{,}8 + 125{,}7 + 1554{,}2 = +\ 2086{,}7 \text{ ming so'm.}$$

Zanjirli almashtirish usulidan faqat ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanish ko'paytma shaklidagina emas, balki bo'linma shaklidagi bog'lanishlarda ham foydalanish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko'rsatkichini olaylik. Bu quyidagicha bog'liqlikka ega:

$$R = \frac{F}{Ak + Ayl.k.},$$

bunda, $R$ — rentabellik darajasi; $F$ — foyda summasi; $Ak$ — asosiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati; $Ayl.k.$ — aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati.

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, rentabellik darajasiga uch omil: foyda summasi, asosiy kapital, aylanma kapitallarning o'zgarishlari ta'sir qiladi. Rentabellik darajasiga foyda summasining ta'sirini ($\Delta Rf$) zanjirli almashtirish usuli bilan hisoblash uchun rentabellik darajasini foyda summasining haqiqiy darajasi bilan qayta hisoblanadi va undan rentabellik darajasining rejadagi miqdori ayriladi:

$$\Delta Rf = \frac{F_1}{Ak_0 + Ayl.k_0} - R_0 .$$

Rentabellik darajasi asosiy kapitalning o'rtacha yillik summasi o'zgarishi evaziga o'zgarganligini (ΔRak) aniqlash uchun rentabellik darajasini asosiy kapitalning o'zgarishi bilan qayta hisoblanadi va undan rentabellik darajasining foyda summasi bilan qayta hisoblangan miqdori ayiriladi:

$$\Delta Rak = \left(\frac{F_1}{Ak_1 + Ayl.k_0}\right) - \left(\frac{F_1}{Ak_0 + Ayl.k_0}\right).$$

Rentabellik darajasiga aylanma kapitalning o'rtacha yillik summasi o'zgarishining ta'sirini (ΔRam) aniqlash uchun rentabellik darajasining haqiqiy miqdoridan uning asosiy kapitalning o'zgarishi bilan qayta hisoblangan hajmini ayirib tashlaydi:

$$\Delta Ram = R_1 - \left(\frac{F_1}{Ak_1 + Ayl.k_0}\right).$$

Bunda ham barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta R = \Delta Rf \pm \Delta Rak \pm \Delta Ram.$$

Ushbu bog'lanishni aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda zanjirli almashtirish usulini qo'llab yechilishini ko'rish mumkin (2.5-jadval).

*2.5-jadval*

**Rentabellik darajasiga foyda, asosiy va aylanma kapitallar o'zgarishining ta'sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash yo'llari**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Zanjirli almashtirishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 1 | 2 | 3 |
| 1. | Foyda, ming so'm | 51,7 | 62,7 | 62,7 | 62,7 | 62,7 |
| 2. | Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati, ming so'm | 985,6 | 997,2 | 985,6 | 997,2 | 997,2 |
| 3. | Aylanma kapitalning o'rtacha qiymati, ming so'm | 245,0 | 231,5 | 245,0 | 245,0 | 231,0 |
| 4. | Rentabellik darajasi, % | 0,042 | 0,051 | 0,051 | 0,050 | 0,051 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, rentabellik darajasi hisobot yilida 0,009 %ga ortgan (0,051 – 0,042). Bu o'zgarish quyidagi omillar evaziga vujudga kelgan:

1. Foyda summasining 11,0 ming so'mga (62,7 – 51,7) ko'payishi rentabellik darajasini 0,009 %ga (0,051 – 0,042) oshirgan.

2. Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan 11,2 ming so'mga ortgan (997,2 – 985,6). Ammo bu tegishli samara bermagan. Oqibatda rentabellik darajasi 0,001 %ga (0,050 – 0,051) kamaygan.

3. Aylanma kapitalning o'rtacha yillik summasi tahlil davrida 13,5 ming so'mga (231,5 – 245,0) kamaygan. Bu o'z navbatida aylanma kapital bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p omillar, xususan, xarajatlarning kamayishiga olib kelgan. Oqibatda, rentabellik darajasi 0,001 %ga ortgan (0,051 – 0,050).

Barcha omillar ta'sirida rentabellik darajasining umumiy farqi kelib chiqadi: 0,009 – 0,001 + 0,001 = + 0,009.

Shunday qilib, ta'kidlash lozimki, xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda zanjirli almashtirish usuli keng qo'llaniladi. Eng muhimi bu usul ham boshqa usullar singari ichki imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, oxirgi misolda ko'rinib turibdiki, korxonaning rentabelligini oshirish uchun asosiy kapitalning samaradorligini oshirish lozim ekan.

**2.2.5. Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli.** Bu usul omilli tahlilda keng qo'llaniladi, chunki amalda mutlaq raqamlar bilan birgalikda nisbiy miqdorlarning qo'llanilishi tez uchrab turadi. Nisbiy miqdordan foydalanish usulining mohiyati natijaga omillar ta'sirini aniqlashda ularning nisbiy o'zgarishi natijaning nisbiy o'zgarishidagi ulushida ifodalanishidir. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi yalpi mahsuloti hajmi (M), ishchilar soni (I) va ularning mehnat unumdorligi darajasiga (MU) bog'liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$M = I \cdot MU.$$

Nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish uchun ushbu formuladagi natija va omillarning o'sish sur'atlari olinadi. Hisob-kitoblarda ana shu nisbiy ko'rsatkichlar ishtirok etadi. Masalan, yalpi mahsulot ishchilar sonining o'zgarishi evaziga o'zgarganligini topish uchun ishchilar sonining o'sish sur'atini (ΔI) yuzga ko'paytirib, yalpi mahsulotning o'sish sur'atiga bo'linadi (ΔM):

$$\Delta Mi = (\frac{\Delta I \cdot 100}{\Delta M}).$$

Natijaga ikkinchi omilning — mehnat unumdorligi ta'sirini (ΔMmu) aniqlash uchun yuzdan shu chiqqan natija miqdori, ya'ni birinchi omilning natijaga ta'siri ayriladi:

$$\Delta Mmu = 100 - \frac{\Delta I \cdot 100}{\Delta M}.$$

Odatdagidek, ikki omilning umumiy ta'siri natija o'zgarishiga teng bo'lishi kerak. Bu holda ikki omil ta'siri 100 ga teng bo'ladi. Masalan, yalpi mahsulot hisobot davrida 20 %ga, ishchilar soni esa 4 %ga ortdi. Bu holda yalpi mahsulotning ishchilar soni evaziga o'zgarganligi 20 %ni tashkil qiladi:

$$(\frac{4 \cdot 100}{20}).$$

Natijaning mehnat unumdorligi evaziga o'zgarganligi 80 %ni (100—20) tashkil qiladi. Bu usulni aniq ma'lumotlarni qo'llab, quyidagi javdal misolida ham ko'rish mumkin (2.6-jadval):

*2.6-jadval*

**Nisbiy miqdorlardan foydalanish usulini qo'llab natijaga omillar ta'sirini hisoblash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | O'sish sur'ati |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yalpi mahsulot (M), ming so'm | 29450 | 30245 | 102,7 |
| 2. | Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni (I), kishi | 1980 | 2010 | 101,5 |
| 3. | Mehnat unumdorligi (MU), ming so'm | 14,9 | 15,0 | 100,7 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yalpi mahsulot hajmining o'tgan yilga nisbatan 2,7 %ga ortganligini ishchilarning 1,5 %ga ko'payganligi va mehnat unumdorligining 0,7 %ga ortganligi evaziga vujudga kelgan. Bularning nisbiy ko'rsatkichdagi ta'siri quyidagicha:

1. Yalpi mahsulotning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atini 100 %ga teng deb olsak, uning 55,6 % (1,5 · 100 : 2,7) ishchilar sonining ko'payishi evaziga sodir bo'lgan.

2. Yalpi mahsulot o'sishining 44,4 % (100 − 55,6) mehnat unumdorligi ortishi evaziga vujudga kelgan.

Ushbu amallarni bajarib bo'lgandan so'ng, natijaga omillar ta'sirini mutlaq miqdorda ham aniqlash mumkin. Bizning misolimizda yalpi mahsulot hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 795,0 ming so'mga (30245 − 29450) ortgan. Shundan 442,0 ming so'mi (795,0 · 55,6 : 100) xodimlar sonining ko'payganligi evaziga vujudga kelgan. Mehnat unumdorligi ortganligi evaziga yalpi mahsulot hajmi 353,0 ming so'mga (795,0 · 44,4 : 100) ko'paygan. Ikki omil ta'siri umumiy natijani beradi, ya'ni:

442,0 + 353,0 = + 795,0 ming so'm.

**2.2.6. Indeks usuli.** Bu usul statistika nazariyasi fanida batafsil yoritilgan. Tahlil fani buxgalteriya hisobi va statistika fanlari asosida vujudga kelganligini oldingi boblarda ta'kidlagan edik. Shuningdek, tahlil fani statistika fanining bir qancha usullaridan foydalanadi. Shulardan biri indeks usulidir. Bu usul juda ko'p qirrali mavzu. Biz esa ushbu bobda shu usulning omilli tahlilida qo'llanilishini ko'ramiz, xolos. Indeks usulida juda ko'p qo'llaniladigan bog'lanish: mahsulot hajmining *(Q)* o'zgarishi uning miqdori (q) va bahosiga (p) bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Mahsulotning rejadagi hajmini ($q_0$ $p_0$) va haqiqatdagi hajmini ($q_1$ $p_1$) tegishli formulada ifodalab olinsa, uning reja bajarilish indeksi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$J_{qp} = \frac{\Sigma q_1 p_1}{\Sigma q_0 p_0}.$$

Mahsulotning hisobot davridagi o'zgarishi mutlaq miqdorini aniqlamoqchi bo'lsak, uning suratidan maxrajini ayirish kifoya:

$$\Delta Q = \Sigma q_1 p_1 - \Sigma q_0 p_0.$$

Formuladan ko'rinib turibdiki, natijaga ikki omil ta'sir qiladi. Bu omillar ta'sirini hisoblash uchun birinchidan, mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini rejadagi (asos yilidagi) narxda ifodalash lozim, ya'ni $q_1 p_0$. Natija o'zgarishiga mahsulot miqdorining ta'sirini ($\Delta Qq$) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Qq = \Sigma q_1 p_0 - \Sigma q_0 p_0.$$

Mahsulot hajmining baho evaziga o'zgarganligini topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$\Delta Q = \Sigma q_1 p_1 - \Sigma q_1 p_0.$$

Ushbu hisob-kitobni aniq ma'lumotlarni qo'llab ham amalga oshirish mumkin (2.7-jadval).

*2.7-jadval*

**Mahsulot hajmining o'zgarishiga uning miqdori va bahosining ta'sirini indeks usuli bilan aniqlash**

| Mahsulot turlari | Miqdori, dona | | Bahosi, so'm | | Mahsulot hajmi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | rejada | haqiqatda | rejada | haqiqatda | rejada | haqiqatda |
| A | 450 | 500 | 15 | 16 | 6750 | 8000 |
| B | 230 | 235 | 8 | 6 | 1840 | 1410 |
| D | 670 | 710 | 7 | 9 | 4690 | 6390 |
| Jami: | | | | | 13280 | 15800 |

Jadval ma'lumotlari asosida mahsulot hajmi bo'yicha rejaning bajarilish indeksi 1,190 ga teng:

$$J_{qp} = \frac{15800}{13280} = 1,190 = \text{yoki } 119,0\ \%.$$

Natijaning umumiy mutlaq farqi 2520 so'mni (15800 − 13280) tashkil qiladi. Mahsulot fizik hajmining agregat indeksi (mahsulotning rejadagi va haqiqatdagi miqdori bir xil bahoda hisoblanganda) quyidagini tashkil qiladi:

$$Jq = \frac{\Sigma q_1 p_0}{\Sigma q_0 p_0} = \frac{(500 \cdot 15) + (235 \cdot 8) + (710 \cdot 7)}{13280} = \frac{14350}{13280} = 1,081 \text{ yoki } 108,1\ \%.$$

Shunday qilib, hisobot davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning miqdori ko'payishi mahsulot hajmini rejadagiga nisbatan 8,1 % yoki 1070 so'mga (14350 − 13280) oshirgan.

Baho agregat indeksi (suratida mahsulot miqdori va bahosi haqiqatda, maxrajida miqdori haqiqatda bahosi rejada) 1,101 ni tashkil qilgan:

$$Jq = \frac{\Sigma q_1 p_1}{\Sigma q_1 p_0} = \frac{15800}{14350} = 1,101 \text{ yoki } 110,1\ \%.$$

Demak, mahsulotning umumiy hajmi baho omili ta'sirida 10,1 %ga ortgan, mutlaq miqdori esa 1450 so'mga (15800 – 14350) ko'paygan. Natijada, shu ikki omilning ta'sirini nisbiy va mutlaq miqdorda ham aniqlash mumkin. Ikki omil indeksining ko'paytmasi umumiy indeksga teng bo'lishi kerak:

$$1{,}081 \cdot 1{,}101 = 1{,}190.$$

Natija o'zgarishining mutlaq miqdorini topish uchun ikki omil yig'indisi olinadi:

$$1070 + 1450 = + 2520 \text{ so'm}.$$

Indeks usulidan foydalanganda omillar ta'sirini individual indekslar orqali ham hisoblash mumkin. Masalan, poyabzal buyumlari bo'yicha tovar oboroti hajmiga xizmat ko'rsatilayotgan aholining soni (A), o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol darajasi (I) va o'rtacha baho (R) ta'sir qiladi. Bu bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = A \cdot I \cdot R,$$

bunda, $Q$ — poyabzal buyumlari bo'yicha tovar oborotining umumiy hajmi. Ushbu omillarning tovar oborotiga ta'sirini aniqlash uchun ularning individual indekslari aniqlanadi (2.8-jadval).

*2.8-jadval*

**Tovar oboroti o'zgarishiga ko'rsatkichlarning individual indekslarini aniqlash yo'li bilan omillar ta'sirini hisoblash usuli**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Asos yilida | Hisobot yilida | Individual indekslar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Aholining soni (A), ming kishi | 10,4 | 10,9 | 1,048 |
| 2. | O'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol darajasi (I), juft | 2,6 | 2,9 | 1,115 |
| 3. | O'rtacha bahosi (R), so'm | 36,2 | 37,4 | 1,034 |
| 4. | Poyabzal bo'yicha tovar oboroti (O), ming so'm | 978,8 | 1182,2 | 1,208 |

Poyabzal sotilishining umumiy hajmiga omillar ta'sirini individual indeksini qo'llab yechadigan bo'lsak, u quyidagi bog'lanishga ega bo'ladi:

$$JQ = i_a \cdot i_i \cdot i_r$$

Natijaga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1. Aholi sonining asos yiliga nisbatan 0,5 ming kishiga (10,9—10,4) ortishi poyabzalga bo'lgan talabni oshirgan va shuning evaziga poyabzal sotilishining umumiy hajmi 47,0 ming so'mga ko'paygan:

$$\Delta(Q_a = (Q_0 \cdot i_a) - Q_0 = (978,8 \cdot 1,048) - (978,8) = 1025,8 - 978,8 = +47,0 \text{ ming so'm.}$$

2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan poyabzal buyumlariga bo'lgan iste'mol darajasining 0,3 juftga (2,9—2,6) ortishi poyabzal sotilishi hajmini ko'paytirishning asosiy omili bo'lgan. Bu omil ta'sirida o'rganilayotgan ko'rsatkich 118,0 ming so'mga ortgan:

$$\Delta(Q_i = (Q_0 \cdot i_a \cdot i_i) - (Q_0 \cdot i_a) = (1025,8 \cdot 1,115) - 1025,8 = 1148,8 - 1025,8 = + 118,0 \text{ ming so'm.}$$

3. Poyabzalning o'rtacha bahosi 1,2 so'mga ortgan (37,4 —36,2). Bu omil evaziga tovar oboroti 38,4 ming so'mga ko'paygan:

$$\Delta Q_r = (Q_0 \cdot i_a \cdot i_i \cdot i_r) - (Q_0 \cdot i_a \cdot i_i) = 1143,8 \cdot 1,034 - 1148,8 = 1182,2 - 1148,8 = + 38,4 \text{ ming so'm.}$$

Jami omillar ta'sirining yig'indisi poyabzal sotilishi umumiy hajmining hisobot yilida, asos yiliga nisbatan umumiy farqini beradi:

$$\Delta Q = \Delta Q_a \pm \Delta Q_i \pm \Delta Q_r = 47,0 + 118,0 + 38,4 = + 203,4 \text{ ming so'm.}$$

Omilli tahlilda qo'llaniladigan usullardan qulayi indeks usulidir, chunki bu usulni qo'llash jarayonida bir vaqtning o'zida omillarning natijaga ham mutlaq, ham nisbiy ta'sirini aniqlash mumkin.

**2.2.7. Farqlash usuli.** Ushbu usul natijaga omillar ta'sirini hisoblashda keng qo'llaniladi. Xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bunda bir ko'rsatkich natija deb qaralsa, shunga bog'liq bo'lgan qolgan ko'rsatkichlar ta'sir qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Farqlash usulining mohiyati shundaki, natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omilning farqi olinib, qolgan omillarning joylashish tartibiga qarab asos yoki

hisobot davridagi miqdori olinadi. Masalan, natija ko'rsatkichi (tovar oboroti) bilan unga ta'sir qiluvchi omillar: xodimlarning ro'yxatdagi soni ($X$) va mehnat unumdorligi ($MU$) o'rtasidagi bog'lanish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$T = X \cdot MU.$$

Ushbu formuladagi omillarning ta'sirini farqlash usuli bilan aniqlaydigan bo'lsak, birinchi omil, ya'ni xodimlarning ro'yxatdagi soni tovar oborotiga ta'sirini ($\Delta Tx$) hisoblash uchun shu omilning farqini ($X_1 - X_0$) ikkinchi omil, ya'ni mehnat unumdorligining asos (reja) ko'rsatkichiga ($MU_0$) ko'paytiriladi:

$$\Delta Tx = (X_1 - X_0) \cdot MU_0.$$

Ikkinchi omil, ya'ni mehnat unumdorligining tovar oboroti hajmi o'zgarishiga ta'sirini ($\Delta Tmu$) topish uchun shu omilning farqi olinadi ($MU_1 - MU_0$) birinchi omil — xodimlarning o'rtacha yillik ro'yxatdagi sonining hisobot davridagi miqdoriga ($X_1$) ko'paytiriladi:

$$\Delta Tmu = X_1 \cdot (MU_1 - MU_0).$$

Ikki omilning ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta T = \Delta Tx \pm \Delta Tmu.$$

Ushbu bog'lanishni aniq misollar yordamida ko'rib chiqish mumkin. Bu esa tavsiya qilinayotgan nazariy hisob-kitoblarning amaliyotga qo'llanilishidan ham dalolat beradi (2.9-jadval).

*2.9-jadval*

**Tovar oboroti hajmiga xodimlarning ro'yxatdagi soni va mehnat unumdorligi o'zgarishining ta'sirini farqlash usuli bilan aniqlash yo'llari**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Rejada | Haqiqatda | Farqi (+, −) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Shu jumladan | | |
| | | | | jami | xodimlar soni evaziga | mehnat unumdorligi evaziga |
| 1. | Xodimlarning o'rtacha yillik ro'yxatdagi soni, kishi | 8038 | 8057 | + 19 | x | x |
| 2. | Mehnat unumdorligi, so'm | 6282,0 | 6365,5 | + 83,5 | x | x |
| 3. | *Tovar oboroti, ming so'm* | *50495* | *51287* | *+ 792,0* | *+ 119,3* | *+ 672,7* |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tovar oboroti rejaga nisbatan 792,0 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Xodimlarning o'rtacha yillik ro'yxatdagi soni 19 kishiga ko'payganligi tovar oboroti hajmini 119,3 ming so'mga ko'paytirgan: (19 · 6282,0).

2. Hisobot yilida mehnat unumdorligining 83,5 so'mga ko'payishi tovar oborotini 672,7 ming so'mga ko'paytirishga muvaffaq bo'lgan: (8057 · 83,5).

Ushbu ikki omil ta'siri tovar oborotining umumiy farqiga teng:

$$119,3 + 672,7 = + 792,0 \text{ ming so'm.}$$

Farqlash usuli natijaga ta'sir etuvchi omillar soni uch va undan ortiq bo'lgan taqdirda ham, agar ular o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalansa, qo'llanilishi mumkin. U holda natijaga birinchi omilning ta'sirini topish uchun uning farqini qolgan ikki omilning rejadagi miqdoriga ko'paytiriladi. Natija birinchi omil ta'siri bo'lib hisoblanadi. Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'sirini topish uchun birinchi omilning haqiqiy miqdori ikkinchi omilning farqiga va uchinchi omilning rejadagi darajasiga ko'paytiriladi. Chiqqan natija shu omilning ta'siri bo'lib hisoblanadi.

Natijaga uchinchi omilning ta'siri ham xuddi shu tartibda hisoblanadi. Unda birinchi va ikkinchi omillarning haqiqiy miqdoriga uchinchi omilning farqi ko'paytiriladi. Chiqqan natija uchinchi omil ta'siri bo'lib hisoblanadi. Misol uchun quyidagi matematik bog'liqlikni olaylik:

$$T = Sh \cdot Msh \cdot Tm,$$

bunda, $T$ — tovar oboroti hajmi; $Sh$ — savdo shoxobchalarining o'rtacha soni; $Msh$ — har bir savdo shoxobchasiga to'g'ri keladigan savdo maydoni; $Tm$ — 1 m². savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oboroti hajmi.

Tovar oboroti o'zgarishiga savdo shoxobchalari soni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Tsh = (Sh_1 - Sh_0) \cdot Msh_0 \cdot Tm_0.$$

Chakana tovar oborotining bir savdo shoxobchasiga to'g'ri keladigan o'rtacha savdo maydoni o'zgarishi evaziga o'zgarganligini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Tmsh = Sh_1 \cdot (Msh_1 - Msh_0) \cdot Tm_0.$$

Chakana tovar oboroti hajmining 1m². savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oboroti evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$\Delta Ttm = Sh_1 \cdot Msh_1 \cdot (Tm_1 - Tm_0).$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri tovar oborotining umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta T = \Delta Tsh \pm \Delta Tmsh \pm \Delta Ttm.$$

Yuqorida keltirilgan usulning amaliyotda qo'llanilishini aniq ma'lumotlarni qo'llab isbotlash mumkin (2.10-jadval).

*2.10-jadval*

**Tovar oborotining o'zgarishiga savdo shoxobchalari, ularning savdo maydoni va samaradorligining ta'sirini farqlash usuli bilan aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Savdo shoxobchalarining soni, birlikda | 128 | 130 | + 2 |
| 2. | Bir savdo shoxobchasiga to'g'ri keladigan o'rtacha savdo maydoni, m². | 4,1 | 4,5 | + 0,4 |
| 3. | 1 m². savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oboroti, ming so'm | 47,34 | 45,17 | − 2,17 |
| 4. | Tovar oboroti, ming so'm | 24845,6 | 26425,2 | + 1579,6 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, chakana tovar oboroti hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 1579,6 ming so'mga ko'paygan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

1. Savdo shoxobchalari sonining 2 taga ko'payganligi tovar oboroti hajmini 388,2 ming so'mga (2 · 4,1 · 47,34 ) ko'paytirgan.

2. Bir savdo shoxobchasiga to'g'ri keladigan o'rtacha savdo maydonining 0,4 m² ga ko'payishi tovar oborotini 2461,9 ming so'mga (130 · 0,4 · 47,34 ) oshirgan.

3. Savdo maydoni samaradorligi, ya'ni bir $1m^2$ savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oborotining 2,17 ming so'mga pasayishini tovar oboroti hajmini 1268,5 ming so'mga (130−4,5 · (− 2,17) kamaytirgan.

Barcha omillarning ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$388,2 + 2461,9 - 1268,5 = + 1579,6 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu tahlil natijasiga asosan, mazkur korxonada mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash mumkin. Bu imkoniyat savdo maydonidan samarali foydalanishdir. Agar hisobot yilida ushbu omil o'tgan yilgi darajada bo'lganda edi, tovar oboroti yana 1268,5 ming so'mga ko'paygan bo'lardi. U holda tovar oborotining haqiqiy hajmi 26425,2 ming so'm emas, balki 27693,7 ming so'mga teng bo'lar edi (26425,2 + 1268,5).

Tovar oborotining rejasi yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati ham ortgan bo'lar edi. Hisobot davrida tovar oborotining o'sish sur'ati 6,4 %ni tashkil qildi:

$$(26425,2 : 24845,6 \cdot 100) - 100).$$

Agarda aniqlangan ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanilganda edi, hisobot yilida tovar oborotining o'sish sur'ati 111,5 %ni tashkil qilgan bo'lardi:

$$(27697,3 : 24845,6 \cdot 100).$$

**2.2.8. Integral usul.** Bu usul bir tomondan an'anaviy, ikkinchidan esa matematik usulga mansub takomillashgan usuldir. Natija ko'rsatkichiga alohida omillar ta'sirini integral usuli bilan aniqlashni farqlash, zanjirli almashtirish kabi usullarning takomillashgan shaklidir. Integral usulining ijobiy tomoni shuki, agarda zanjirli almashtirish yoki farqlash usullarida omillar ketma-ketligi o'zgarsa, ularning natija o'zgarishiga ta'sir har xil bo'ladi. Bu usulda esa u yoki bu omilning ta'sirini hisoblashda ketma-ketlikka rioya qilish talab qilinmaydi. Omillarning ketma-ketligi o'zgarishidan qat'i nazar, omillar ta'siri hamisha bir xil, eng muhimi to'g'ri topiladi.

Integral usuli determinal omil tahlilining bosh muammosini tushuntirishga yordam beradi. Bir hisobot davr chegarasida omillar

o'zgarishi dinamikasi aniq bo'lgan taqdirda omillar ta'sirini faqat integral usuli bilan ilmiy asoslab baholash mumkin. Integral usuli bilan bog'liq hisoblar bir tarafdan matematik tahlil asoslarini bilishni talab qilsa, boshqa tomondan zanjirli almashtirish usuliga nisbatan hisoblarni bajarishni taqozo qiladi. Shu sababli bu usulning qo'llanilishi EHM sharoitida yaxshi samara beradi. Natija ko'rsatkichga omillar ta'sirini hisoblashning turli shakllari mavjud. Natijaga ikki omil ta'sir qiladigan bo'lsa, quyidagi bog'liqlik bo'ladi:

$$U = X_1 \cdot X_2 .$$

Bu holda omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi, natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri

$$\Delta Ux_1 = X_2^0 \cdot \Delta X_1 + (\frac{1}{2}(\Delta X_1 \cdot \Delta X_2)).$$

Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri

$$\Delta Ux_2 = X_1^0 \cdot \Delta X_2 + (\frac{1}{2}(\Delta X_1 \cdot \Delta X_2)).$$

Yuqoridagi formulalarga asosan, natija ko'rsatkichlariga omillar ta'sirini hisoblashni aniq misollarda ko'rib chiqamiz. Masalan, mahsulot hajmiga ishlab chiqarish fondlari va ular samaradorligining ta'sirini hisoblash talab qilinsa (2.11-jadval).

*2.11-jadval*

**Yalpi mahsulotga asosiy fondlar va ular samaradorligining ta'sirini integral usulida aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Shartli belgilar | Rejada | Haqiqatda | Farqi (+, −) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Yalpi mahsulot, ming so'm | M | 43420 | 45850 | + 2430 |
| 2. | Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | AF | 47115 | 47825 | + 710 |
| 3. | Fondlar samaradorligi (bir so'm fondga to'g'ri keladigan tovar mahsuloti), tiyin | FS | 92,16 | 95,87 | + 3,71 |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida natijaning o'zgarishiga omillar ta'sirini integral usulida aniqlash mumkin.

1. Yalpi mahsulotning asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymati ta'siri evaziga o'zgarishi 668,5 ming so'mni tashkil qildi:

$$\Delta Mf = 710 \cdot 92,16 + \frac{710 \cdot 3,71}{2} = +668,5 \text{ ming so'm.}$$

2. Yalpi mahsulotning fondlar samaradorligiga ta'siri evaziga o'zgarishi 1761,5 ming so'mni tashkil qildi:

$$\Delta Mfs = 3,71 \cdot 47115 + \frac{710 \cdot 3,71}{2} = +1761,5 \text{ ming so'm.}$$

Ikki omilning ta'siri birgalikda yalpi mahsulotning umumiy farqini beradi: 668,5 + 1761,5 = + 2430 ming so'm.

Natija o'zgarishi uch omilga bog'liq bo'lgan sharoitda integral usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, «*U*» natija $X_1$, $X_2$, $X_3$ omillar o'zgarishiga bog'liq bo'lsa, tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3.$$

Bu holda natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri ($\Delta Ux_1$) quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Ux_1 = \frac{1}{2}\Delta X_1(X_2^0 \cdot X_3^1) + (X_2^1 \cdot X_3^0) + \frac{1}{3}(\Delta X_1 \cdot \Delta X_2 \cdot \Delta X_3).$$

Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'sirini ($\Delta Ux_2$) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_2 = \frac{1}{2}\Delta X_2(X_1^0 \cdot X_3^1) + (X_1^1 \cdot X_3^0) + \frac{1}{3}(\Delta X_1 \cdot \Delta X_2 \cdot \Delta X_3).$$

Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'sirini ($\Delta Ux_3$) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_3 = \frac{1}{2}\Delta X_3(X_1^0 \cdot X_2^1) + (X_1^1 \cdot X_2^0) + \frac{1}{3}(\Delta X_1 \cdot \Delta X_2 \cdot \Delta X_3).$$

Ushbu nazariy usulni aniq ma'lumotlar qo'llab amaliyotda foydalanish yo'lini ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, tovar zaxirasining aylanish tezligi savdo zalida band bo'lgan xodimlar mehnat unumdorligi ($X_1$), ularning umumiy xodimlardagi ulushi ($X_2$) va tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta'minlanganligi ($X_3$) ga bog'liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3.$$

Ushbu bog'liqlikni amaliy ma'lumotlar yordamida 2.12-jadvalda ko'rib chiqiladi.

*2.12-jadval*

**Tovar zaxiralari aylanish tezligiga ta'sir etuvchi omillarni integral usul bilan aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Shartli belgilar | Rejada | Haqiqatda | Farqi (+, −) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Savdo zali xodimlarining mehnat unumdorligi, ming so'm | $X_1$ | 120,5 | 122,1 | + 1,6 |
| 2. | Savdo zali xodimlarining umumiy xodimlardagi ulushi, % | $X_2$ | 65,2 | 63,4 | − 1,8 |
| 3. | Tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta'minlanganligi, kishi | $X_3$ | 40,5 | 42,1 | + 1,5 |
| 4. | Tovar zaxiralarining aylanish tezligi, marta | U | 3,18 | 3,26 | + 0,08 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tovar zaxiralarining aylanish tezligiga ularning mehnat unumdorligi, uning umumiy xodimlar sonidagi ulushi va xodimlarning tovar zaxiralari bilan ta'minlanganligi ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning tovar zaxiralarning aylanish tezligiga ta'sirini topish uchun yuqorida keltirilgan bog'lanishdan va integral usulidan foydalaniladi.

1. Savdo zali xodimlarning mehnat unumdorligi ortishi tovar zaxiralari aylanish tezligini 0,05 marta oshirgan:

$$\Delta Ux_1 = \frac{1}{2} \cdot 1,6 \cdot (65,2 \cdot 142,1 + 63,4 \cdot 40,5) + \frac{1}{3} \cdot 1,6 \cdot (-1,8) \cdot 1,5 = 0,8 \cdot$$
$$(2744,92 + 2567,7) - 1,44 = 0,8 \cdot 5312,62 - 1,44 = 4250,1 - 1,44$$
$$= 4248,7 \text{ yoki } 0,05 \text{ marta.}$$

2. Savdo zali xodimlarining umumiy xodimlar sonidagi hissasining kamayishi o'rganilayotgan ko'rsatkichni rejaga nisbatan 0,09 martaga kamaytirgan:

$$\Delta Ux_2 = \frac{1}{2}(-1,8)(120,5 \cdot 42,1 + 122,1 \cdot 40,5) + \frac{1}{3} \cdot 1,6 \cdot (-1,8) \cdot 1,5 =$$
$$-0,9\,(5073,05 + 4945,05) - 1,44 = -0,9 \cdot 10018,1 - 1,44 =$$
$$-9016,29 - 1,44 = -9017,7 \text{ yoki } -0,09.$$

3. Tovar zaxiralari xodimlar bilan ta'minlanganligining ortishi tovar zaxiralari aylanish tezligini 0,12 martaga orttirgan:

$$\Delta Ux_2 = \frac{1}{2} \cdot 1,5\,(120,5 \cdot 63,4 + 122,1 \cdot 65,2) + \frac{1}{3} \cdot 1,6 \cdot (-1,8) \cdot 1,5 =$$

$0,75\,(7639,7 + 7960,2) - 1,44 = 0,75 \cdot (15600,62 - 1,44) = 11700,5 - 1,44 = 11699,0$ yoki 0,12 marta.

Hamma omillar yig'indisi natija o'zgarishining umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \cdot \Delta Ux_2 \cdot \Delta Ux_3 = 0,05 - 0,09 + 0,12 = +\,0,08 \text{ marta.}$$

Amalda natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqliklar kasrli bo'lishi ham mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi ($U$) tovar oborotining hajmi ($X_1$) va xodimlar soni ($X_2$) bilan bevosita bog'liqdir. Bu holda quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$U = \frac{X_1}{X_2}.$$

Ushbu formulaga integral usulini qo'llab, natijaga birinchi omilning, ya'ni tovar oboroti o'zgarishining ta'sirini aniqlash lozim bo'lsa, quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_1 = \left(\frac{\Delta X_1}{\Delta X_2}\right) \cdot \ln\left(\left|\frac{X_2^0}{X_1^0}\right|\right).$$

Natijaning ikkinchi omil evaziga o'zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_2 = \Delta U - \Delta Ux_1.$$

Juda ko'p hollarda ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblashga to'g'ri keladi. Bu bog'liqlikni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$U = \frac{X_1}{X_2 + X_3},$$

bunda, $U$ — rentabellik darajasi; $X_1$ — foyda summasi; $X_2$ — asosiy kapitalning o'rtacha qiymati; $X_3$ — aylanma kapitalning o'rtacha qiymati. Ushbu formulaga asosan, rentabellik darajasiga barcha omillarning ta'sirini aniqlash mumkin.

1. Rentabellik darajasining foyda summasi evaziga o'zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_1 = \frac{\Delta X_1}{\Delta X_2 + \Delta X_3} \cdot \ln \left( \left| \frac{X_2^1 + X_3^1}{X_2^0 + X_3^0} \right| \right).$$

2. Rentabellik darajasining o'zgarishiga asosiy kapitalninig ta'sirini ($\Delta Ux_2$) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_2 = \frac{\Delta y - \Delta Yx_1}{\Delta X_2 + \Delta X_3} \cdot \Delta X_2.$$

3. Aylanma mablag'lar (kapital) summasi o'zgarishining rentabellik darajasiga ta'siri ($\Delta Ux_3$) quyidagi formuladan topiladi:

$$\Delta Ux_3 = \frac{\Delta U - \Delta Ux_1}{\Delta X_2 + \Delta X_3} \cdot \Delta X_3.$$

Umumiy natijaning o'zgarishi ($\Delta U$) shu uch omil ta'siriga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \pm \Delta Ux_2 \pm \Delta Ux_3.$$

Integral usuli ancha murakkab bo'lib, ko'proq mehnat va ortiqcha xarajatlar talab qiladi. Tadqiqot natijalariga omillar bo'yicha farq unchalik katta bo'lmagan taqdirda, ya'ni 10 %gacha bo'lganda integral usuli bilan aniqlangan omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlangani kabi deyarli farq qilmaydi. Bunday hollarda zanjirli almashtirish usulidan foydalanish mumkin. Agar omillar ketma-ketligi to'g'ri aniqlanib qo'yilgan bo'lsa, zanjirli almashtirish usulidan foydalaniladi.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan asosiy maqsad — har bir ishlab chiqaruvchi, xizmat qiluvchi yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarda mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni izlab topishdan iborat. Bu tahlilda qo'llaniladigan barcha usullar bilan ham aniqlanishi mumkin. Biroq tahlilchi qaysi usulni qachon qo'llashni yaxshi bilishi lozim.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy ko'rsatkichlar ham o'zgarmoqda. Milliy hisob tizimi, buxgalteriya hisobining milliy andozalari joriy qilinayotir. Amaliyotda shularga mos ko'rsatkichlar

vujudga kelyapti. Bular esa buxgalteriya va statistik hisobotlardagi ko'rsatkichlar tizimiga ham tegishli o'zgarishlar kiritishni taqozo qiladi.

**2.2.9. Kichik sonlardan foydalanish usuli.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini to'g'ri va haqqoniy baholash lozim. Sobiq sho'rolar davrida iqtisodiy faoliyat natijasini baholashning asosiy mezoni umumlashgan ko'rsatkichlar bo'yicha rejaning bajarilishidan iborat edi. Bunday ko'rsatkichlar bilan natijaga to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun tahlilda qo'llaniladigan kichik sonlar usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usulning mohiyati shundaki, agar firma bir vaqtning o'zida bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanayotgan bo'lsa yoki bir necha mahsulot ishlab chiqarayotgan bo'lsa, hammasidan foyda olishi, manfaatdor bo'lishi lozim. Aks holda, hozirgi sharoitda bir qism faoliyat samarasiz bo'ladi, u faqat firmaga zarar keltiradi. Masalan, firma besh faoliyat turi bilan shug'ullanadi, deb faraz qilamiz. Uning natijasi quyidagicha (2.13-jadval):

*2.13-jadval*

**Firma shug'ullanayotgan faoliyat turi bo'yicha moliyaviy natijaning holati**

(ming so'm)

| T/r | Faoliyat turlari | Sotish qiymati (daromad) | Tannarxi (xarajatlari) | Foyda (+) zarar (−) | Hisoblangan xarajati (tannarxi) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Kiyim tikish | 48530 | 41371 | + 7159 | 41371 |
| 2. | Meva sharbati ishlab chiqarish | 22450 | 23542 | − 1092 | 22450 |
| 3. | Savdo | 51230 | 56213 | − 4983 | 51230 |
| 4. | Maishiy xizmat | 4150 | 3186 | + 965 | 3186 |
| 5. | Binolarni ta'mirlash | 11342 | 10111 | + 1231 | 10111 |
| | Jami: | 137703 | 134423 | + 3280 | 128348 |

Firma shug'ullanadigan besh faoliyat turi bo'yicha 3280 ming so'm foyda olishga muvaffaq bo'lgan. Ammo ularning ikkitasi zarar bilan yakunlangan. Oqibatda bu zarar qolgani evaziga qoplangan. Firma yoki boshqa xo'jalik subyekti hozirgi sharoitda har qanday faoliyatdan foyda olishi lozim. Shu tufayli ushbu tahlil qilayotgan firma 3280 ming so'm foyda olgan, deyish noto'g'ri bo'ladi. Bu foyda zamirida ko'rilgan zararlar ham qoplanib ketilgan. Shu tufayli bu jarayondan to'g'ri xulosa chiqarish uchun kichik sonlar usulini qo'llaymiz.

Firma kiyim tikish bo'yicha yaxshi ishlagan. Xuddi shunday hol maishiy xizmat va binolarni ta'mirlashda ham sodir bo'lgan. U holda sotilgan mahsulot xarajatga nisbatan ko'p bo'lganligi tufayli kichik sonlar bilan hisoblanishi zarur bo'lgan summaga xarajatlar summasini olamiz. Meva sharbati ishlab chiqarishda va savdoda xarajatlar ko'p bo'lgan. Shu tur faoliyatlar bo'yicha xarajatlarni sotish qiymati miqdorida olamiz. Hammasi qo'shib chiqiladi va aniqlangan summa haqiqiy xarajat bilan solishtirib ko'rilsa, boshqa faoliyat evaziga qancha xarajat qoplanganligi aniqlanadi. Bizning misolimizda bu miqdor 6075 ming so'mni (134423–128348) tashkil qiladi, ya'ni zarar bilan ishlayotgan ikki faoliyat turining 6070 ming so'm xarajati (1092+4983) qolgani faoliyat evaziga qoplanganligi aniqlanadi.

Ushbu usul orqali firma faoliyati mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlar ko'rsatiladi. Agar ushbu firma shu ikki faoliyat bo'yicha zarar ko'rmay ishlaganda, ya'ni uning foydalilik nuqtasi nolga teng bo'lganda qancha foyda olish lozimligini aniqlash mumkin. Bu holda firma 3280 ming so'm emas, balki 9355 ming so'm (137703–128348) foyda olishi mumkin ekan. Kichik sonlarni reja bajarilishida ham qo'llash mumkin. Firma 4 xil mahsulot ishlab chiqaradi, deb faraz qilamiz. Bu borada firma quyidagi natijaga ega (2.14-jadval):

*2.14-jadval*

**Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejasining bajarilishi**

(ming so'm)

| T/r | Mahsulot turlari | Rejada | Haqiqatda | Reja va haqiqatdagi kichik sonlar | Rejaning bajarilishi, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O'simlik moyi | 5000 | 5000 | 5000 | 100,0 |
| 2. | Sovun | 6000 | 6100 | 6000 | 101,7 |
| 3. | Kunjara | 7000 | 6800 | 6800 | 97,1 |
| 4. | Sariyog' | 4000 | 4150 | 4000 | 103,8 |
| Jami: | | 22000 | 24050 | 21800 | 109,3 |

Firmada reja 109,3 %ga bajarilganligi ushbu jadval natijasidan ko'rinib turibdi. Ammo kunjara bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi 2,9 % bajarilmaganligi tufayli umumiy ko'rsatkichning miqdori 99,1 %ni tashkil qiladi.

$$(21800 : 22000) \cdot 100 = 99,1.$$

## 2.3. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik modellarning tiplari

Iqtisodiy tahlil jarayonida juda ko'p matematik modellar qo'llaniladi. Ularning ko'p uchraydiganlari quyidagilardir: *additiv model, multiplikativ model, kasrli model.*

**Additiv model** natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Masalan, «U» natija bir qancha omillar ($X_1$, $X_2$, . . . , $X_p$) yig'indisidan iborat deb, faraz qilamiz. U holda additiv modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$U = \sum_{i=1}^{p} Xi = X_1 + X_2 + X_3 + \ldots + X_p,$$

bunda, $\Sigma$ — yig'indi belgisi; $i$ — omillarning tartib soni ($i$ = 1,p); $p$ — omillarning umumiy soni; $Xi$ — $i$ — omilning nomi.

Ushbu model amaliyotda juda ko'p qo'llaniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlariga qarashli korxonalar ishlab chiqargan tovar mahsulotlari hajmi, ularda band bo'lgan ishchi va xizmatchilari umumiy ro'yxatdagi soni va h. k. Faraz qilaylik, ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyatiga 10 ta kichik korxona qaraydi. Ularning har biri har xil hajmda mahsulot ishlab chiqargan. Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotni aniqlash uchun additiv modeldan foydalanganda quyidagi formulaga ega bo'linadi:

$$U = \sum_{i=1}^{10} Xi = X_1 + X_2 + X_3 + \ldots + X_{10} \quad (i = 1,10).$$

Multiplikativ model ham tahlilda keng qo'llaniladi. Bu model natija bilan omilning o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Masalan, «U» natija bir qancha omillar ($X_1$, $X_2$, $X_3$ . . . , $X_p$) ko'paytmasidan iborat, deb faraz qilamiz. U holda multiplikativ modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$U = \prod_{i=1}^{p} Xi = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot \ldots \cdot X_p \quad (i = \overline{1,p}),$$

bunda, $\Pi$ — ko'paytirish belgisi; $i$ — omillarning tartib soni; (i =1,$p$); $p$ — omillarning umumiy soni; $Xi$ — $i$ — omilning nomi.

Ushbu model ham tahlilda keng qo'llaniladi, chunki juda ko'p natija amaliyotda omilning ko'paytmasidan iborat bo'ladi. Masalan,

tovar oborotining hajmiga ta'sir qiluvchi moddiy-texnika bazasi bilan bog'liq omillarni olaylik. Unga savdo shoxobchalarning soni (Sh), har bir savdo shoxobchasiga to'g'ri keladigan savdo maydoni (Msh), har bir kv.m. savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oboroti (Tm) ta'sir qiladi. Natija bilan ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$T = Sh \cdot Msh \cdot Tm.$$

Agar har bir omilni mos ravishda ketma-ket $X_1$, $X_2$, $X_3$ deb belgilasak, bu holda multiplikativ modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$U = \prod_{i=1}^{3} Xi = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \ (i = 1,3).$$

Kasrli model ham tahlilda natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ifodalanganda qo'llaniladi. Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi tovar oboroti hajmining xodimlar ro'yxatidagi soniga nisbati bilan rentabellik darajasi esa foyda summasining tovar oborotiga nisbati bilan aniqlanadi. Fondlarning samaradorligi tovar oboroti fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi va h. k. Bunday hollarda kasrli model bir qancha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$U = \frac{X_1}{X_2}; \qquad U = \frac{\sum_{i=1}^{n} Xj}{\sum_{i=n}^{n} Xi}; \qquad U = \frac{\sum_{i=1}^{n} Xi}{\prod_{i=1}^{n} Xi}.$$

$$U = \frac{\sum_{i=1}^{n} Xi}{n}; \qquad U = \frac{\prod_{i=1}^{n} Xi}{\prod_{j=1}^{n} Xj}; \qquad U = \frac{Xi}{\sum_{i=1}^{n} Xi}.$$

Kasrli modelda bir vaqtning o'zida hamma model turlarini qo'llash mumkin. Ba'zan suratda additiv model bo'lsa, maxrajida multiplikativ model bo'lishi mumkin. Suratida multiplikativ model bo'lishi maxrajida bitta omil ham ishtirok etishi mumkin. Amaliyotda suratida ham, maxrajida ham bir xil modellar ishtirok etishi mumkin.

## 2.4. Hozirgi bosqichda tahlil usulini takomillashtirish masalalari

Iqtisodiy islohot keng qamrovli jarayon. U barcha sohalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi islohotlar faqat iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirib qolmasdan, balki uning barcha mexanizm va dastaklarini tubdan yangilashni talab qiladi.

O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlar uzoq yillar davomida ma'muriy buyruqbozlik asosida rejani bajarishga qaratilgan bo'lib, markazdan taqsimlash va moliyalashtirish tamoyiliga asoslangan holda shakllangan. Bunda davlat ham buyurtmachi, ham xaridor, ham sotib oluvchi va ta'minlovchi rolini o'ynab keldi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ahvol tubdan o'zgardi. Har bir korxonaning davlat bilan iqtisodiy munosabati faqat soliq orqali amalga oshiriladi. Korxonalar davlatga mahsulot yetishtirib bermaydi, balki faqat faoliyati natijasidan soliq to'laydi. Shu orqali korxonaning ish hajmi, daromadi, foydasi hisob-kitob qilinadi. Davlat xo'jalik hisobidagi birorta korxonani moliyalashtirmaydi. U faqat kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash, o'z tasarrufidagi sohalarni mablag' bilan ta'minlash bilan shug'ullanadi. Islohotlar davrida iqtisodiy munosabatlarga mos tarzda ruhiyatini ham shakllantirish va bu boradagi ishni har tomonlama keng qamrovda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Islohotni to'laqonli amalga oshirish uchun faqat iqtisodiy munosabatlarni yangilash yetarli emas. Balki, uning barcha dastak va mexanizmlarini ham yangilash lozim. Bunda biz O'zbekistonda milliy hisob tizimining va xalqaro andozalarga asoslangan buxgalteriya hisobining shakllanishini ko'zda tutayapmiz. Iqtisodiy munosabatlar jahon andozasi darajasiga ko'tarilayaptimi, uning o'lchami, baholash mezonlari ham jahon andozalari darajasiga ko'tarilishi lozim. Albatta, bu borada respublikamizda ancha ishlar qilinmoqda, ammo bular fikrimizcha, hali yetarli emas. Hozir O'zbekistonda milliy hisob tizimiga o'tish bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan.

Iqtisodiy islohotning asosiy maqsadi aholining barcha qatlamlari turmush farovonligini oshirish va O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdan iboratdir. Bu esa, eng avvalo, g'alla, xomashyo, neft va boshqa tarmoqlarda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy

mustaqillikni mustahkamlash uchun islohotlarni jadallashtirish zarur. Islohotni jadallashtirishning asosiy yo'llaridan biri ichki imkoniyatlarni izlab topish va ulardan oqilona foydalanishdan iboratdir. Bu esa iqtisodiyotimizdagi barcha jarayonlarni chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Ammo bu borada hali yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud.

**Tahlilni jahon andozasi darajasiga ko'tarish.** Bu hozirgi paytda iqtisodiy tahlilda qo'llanilayotgan ko'rsatkichlarni milliy hisob tizimi ko'rsatkichlariga moslashtirishni talab qiladi. Buning uchun mikro va makro tahlil ko'rsatkichlarini ishlab chiqarish, ularning bog'liqligi va xususiyatlarini aniqlash lozim. Bu o'z navbatida buxgalteriya va statistik hisobotlarni, ulardagi ko'rsatkichlarni milliy hisob tizimiga moslashtirishni talab qiladi.

**Moliya va boshqaruv tahlilini shakllantirish.** Buxgalteriya hisobining xalqaro andozaga o'tishi, milliy andozalarning ishlab chiqilishi moliyaviy va boshqaruv hisobining shakllanishini ham talab qiladi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy va boshqaruv tahlilining ham vujudga kelishini taqozo qiladi. Shu jihatdan moliyaviy tahlil metodologiyasi shakllanmoqda. Ammo boshqaruv tahlili hozirgi erkin iqtisodiyotga mos tarzda shakllangan emas. Tahlil usullarini iqtisodiyotimiz xususiyatlarini inobatga olgan holda mazmunan yangicha ishlab chiqish lozim.

**Tahlilni erkin raqobat sharoitiga moslashtirish.** Hozirgi mavjud tahlildan ichki (tijorat sirini saqlay oladigan) va tashqi (korxonaning faoliyatini ko'z-ko'z qila oladigan) tahlilni shakllantirish, ularning ko'rsatkichlarini va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Bunda faqatgina raqamlarga tayanib qolmasdan unga mantiqan yondashish usullarini (evristik usul) ham joriy qilish lozim. Negaki, bozor iqtisodiyoti jarayoni hamisha kutilmagan hodisalar, ko'zda tutilmagan jarayon va munosabatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaning har bir ko'rsatkichi bo'yicha reja ko'rsatkichini aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Har bir korxona o'z rejasini o'zi tuzadi. Korxonaning biznes-rejasi tuzilganda uning realligini ta'minlash lozim. Buning uchun mezon qilib, «Foydalilik nuqtasini» olish kerak.

Foydalilik nuqtasi korxonaning uzluksiz faoliyat ko'rsatib turishi uchun uning barcha xarajatlarini qoplaydigan darajasida ishlab

chiqarish hajmiga erishishdir. Masalan, korxonaning bir oyda doimiy qiladigan xarajatini 100 ming so'm, deb faraz qilamiz. Bu xarajatni qoplash uchun korxona 220 ming so'm mahsulot ishlab chiqarishi lozim. 100 ming so'mi doimiy xarajatni qoplash uchun ketsa, qolgan 120 ming so'mi o'zgaruvchi, ya'ni shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketadigan xarajatni qoplashga sarf qiladi. Bu summa korxonaning xarajatlarini to'liq qoplaydi. Demak, bu raqam ushbu korxona uchun foydalilik nuqtasi, deb qabul qilinishi mumkin. Agar mahsulot ishlab chiqarish shu raqamdan ortsa, o'zgaruvchi xarajatlarni qoplashdan qolgan qismi foydani tashkil qiladi.

Faraz qilamiz, ishlab chiqarish hajmi 250 ming so'mni tashkil qildi. Bu quyidagicha taqsimlanadi: 100 ming so'm doimiy xarajatni qoplashga, 120 ming so'm foydalilik nuqtasiga bo'lgan o'zgaruvchi xarajatni qoplashga ketadi. Qolgan 30 ming so'mning yarmi shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketadigan o'zgaruvi xarajatlarni qoplashga sarf qilinadi. Qolgan qismi, ya'ni 15 ming so'mi (30 : 2) foyda summasini tashkil qiladi. Foydani ko'paytirish uchun mahsulotni foydalilik nuqtadan ko'p ishlab chiqarish lozim. U qancha ko'p bo'lsa, foyda summasi ham shuncha ko'payadi.

**Tahlilda iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni joriy qilish.** Hozirga qadar iqtisodiyotda rejaning bajarilishi, bu korxona faoliyatiga berilgan baho bo'lib kelmoqda. Ammo rejaning realligi rejali iqtisodiyot davrida ham hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida ham ilmiy jihatdan asoslanishiga e'tibor berilib kelingan va shu holat saqlanib qolmoqda. Shu tufayli uning korxona faoliyatini baholash uchun asosiy mezon qilib olishga hech qanday asos yo'q. Endigi vazifamiz iqtisodiy ahvolni yildan-yilga yaxshilashdan, uning uzluksiz barqaror ravishda oshib borishini ta'minlashdan iboratdir. Shu tufayli korxona faoliyati natijasini baholashda reja bajarilishi o'rniga iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini qabul qilish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Iqtisodiy o'sishni aniqlash uchun mikro iqtisodiyotda, milliy hisob tizimi shakllanayotgan sharoitda, qaysi ko'rsatkichlarni olish lozimligini ham belgilash yana bir o'ziga xos muammodir. Ushbu muammolarning respublikamiz miqyosida hal bo'lishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi. Buni amalga oshirish uchun respublikadagi barcha kuchlarni birlashtirish lozim.

## *3-bob.* IQTISODIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN AXBOROTLAR TIZIMI VA UNDA BUXGALTERIYA BALANSINING O'RNI

### 3.1. Iqtisodiy tahlilning rahbarlar uchun ahamiyati

Bozor sharoitida ikki subyekt bir-biri bilan iqtisodiy munosabat qilayotgan bo'lsa, albatta, har ikkisi ham bir maqsadni ko'zlaydi. Bu foyda ko'rish istagidir. Hamkorlarning bir-biriga ishonch bildirishi uchun bozor munosabatlariga xos til — «Biznes tili» mavjud. Ma'lumki, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lajak hamkorining, eng avvalo, moliyaviy ahvol bilan qiziqadi. Chunki uning foyda olish olmasligi u bilan hamkor bo'ladigan subyektning moliyaviy ahvoliga bog'liq. Demak, har bir korxonaning moliyaviy ahvolini baholash, tahlil qilish bozor sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Har bir kasbning o'ziga xos tili, jargoni bor. Buxgalterlar, iqtisodchilar, moliyachilar ham hozirgi bozor munosabatlari sharoitida yangi iboralarni ishlatishmoqda. Masalan, bir xo'jalik yurituvchi subyekt ikkinchisi bilan ikki yoqlama manfaatli iqtisodiy munosabatlar o'rnatmoqchi bo'lsa u quyidagi atamalarni ishlatishi mumkin. «Balans likvidmi?», «Moliyaviy barqarormi?», «Moliyaviy mustahkammi?», «To'lovga qodirmi?», «Raqobatbardoshmi?», «Iqtisodiy nochormi?». Bu atamalarni asosan buxgalterlar, auditorlar, moliyachilar, umuman, iqtisodchi mutaxassislar biladi, xolos. Ammo ular zamirida juda chuqur ma'no, butun bir moliya-xo'jalik faoliyati natijasi mujassamlangan. Shu tufayli, har bir mutaxassis, menejer, rahbar ularni baholash, aniqlash yo'llarini bilishi shart. Bu o'z-o'zidan amalga oshib qolmaydi. Bu tilni o'rganish iqtisodiyotning siru-sinoatlarini bilishni taqozo qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'muriy boshqaruvdan erkin raqobat sharoitiga o'tishi kadrlarni qayta tayyorlash, ularning ruhiyatini o'zgartirish, ayniqsa, rahbarlarning mas'uliyatini

oshirishni taqozo qiladi. Biroq hozirgi paytda ko'pchilik tadbirkorlik va rahbarlik borasida bozor sirlarini chuqur o'rganmasdan, uning tilini bilmasdan, iqtisodiy kategoriyalar va moliyaviy axborotlardan foydalanish usullarini tushunmasdan ish olib borishyapti. Shu tufayli respublikamizda ham quyi bo'g'in, ham yuqori bo'g'in rahbarlarini ham iqtisodiy o'qitish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida rahbarlarning tegishli axborotlarni bilishi yetarli emas. Endilikda ular axborotlardan foydalanish usullarini, ulardan to'g'ri va asosli xulosa chiqarish uchun tahlil qilish yo'llarini va bularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga safarbar qilish tamoyillarini bilishi zarur bo'lib qoldi. Buning uchun esa rahbarlar xo'jalik faoliyati haqida to'g'ri axborotlarga va ulardan foydalanish usullariga ega bo'lishi lozim. Bunday axborotlar korxonaning moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarida mavjud bo'ladi. Rahbar o'z korxonasida moliyaviy resurslarning holati, ularning to'g'ri joylashishi, samarali ishlashi, o'z mablag'larini ko'paytirish yo'llarini bilishi, aylanma mablag'lar holatiga aniq baho berishi, soliqlarning budjetga o'z vaqtida to'langan-to'lanmaganligi, debitor va kreditor qarzlarning qay ahvolda ekanligidan voqif bo'lishi kerak. Zero, har bir rahbar moliyaviy hisobotga imzo chekishi bilan shu xo'jalik faoliyati holatiga va uning to'g'riligiga to'liq mas'ul ekanligini o'z zimmasiga oladi. Bu esa rahbarlarning yanada ziyrak bo'lishi, imzo chekayotgan hujjatni yaxshi o'rganishini taqozo qiladi. Aksariyat hollarda rahbarlar hisobotning to'g'riligi uchun buxgalteriya xodimlariga, ishonib qolishadi. Ammo har bir rahbar hisobotni shaxsan tekshirishi va uni iqtisodiy o'qishni bilishi lozim.

Rahbar buxgalteriya hisobini yoki moliyaviy hisobotni tuzish yo'llarini bilishi shart emas. Ammo u moliyaviy hisobotga imzo chekish bilan buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarning to'g'riligiga, haqqoniyligiga ishonch hosil qilishi, moliyaviy holatga baho berishi, xususan, korxonaning likvidliligini, moliyaviy barqarorligini rentabellik darajasi kabi muhim ko'rsatkichlarni aniqlab olishi, ulardagi o'zgarishlarning sabablarini bilishi lozim. Shularni bilmagan rahbar hamkori bilan biznes tilida gaplasha olmaydi. Hamkorlari bilan biznes tilida gaplashishni bilmagan rahbar biznes olamida o'z yo'lini topmasligi tabiiy.

## 3.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar

Korxonaning moliyaviy hisoboti uning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar manbai bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi tufayli ko'plab yangi-yangi xo'jalik yurituvchi subyektlar paydo bo'lmoqda. Odatda, rahbarlar yaxshi g'oyalar va ularning moliyaviy ta'minlanishi korxonalarning samarali faoliyat ko'rsatishi hamda juda ko'p foyda topishiga asos bo'ladi, deb o'ylashadi. Biroq tajribalar ko'rsatmoqdaki, ko'pchilik ishbilarmon biror ishga kirishishdan oldin uni aniq hisob-kitob va nazorat tizimi zarurligi to'g'risida unchalik bosh qotirishmaydi. Aslida ishni, avvalo, malakali hisobchi topishdan boshlash kerak. Bordi-yu, shunday qilinmasa, oxir-oqibatda rahbar boshi berk ko'chaga kirib qolishi, moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalana olmasligi, ishni ilgari siljitolmasligi, tashqaridan qaralganida faoliyati durustgina bo'lib ko'ringan korxonada moliyaviy talon-torojlar sodir bo'lishiga yo'l ochilishi mumkin.

Shu tufayli tashkilotning ahvoli ifoda etilgan axborotlar tizimidan to'g'ri foydalana oladigan hisobchi, ayniqsa, erkin iqtisodiyot sharoitida o'ta muhimdir. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar, odatda, ikkiga bo'linadi: *hisoblanadigan* va *hisoblanmaydigan*.

Hisoblanadigan axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

- buxgalteriya hisobi va hisoboti;
- statistika hisobi va hisoboti;
- tezkor hisob va hisobot;
- tanlab kuzatilgan hisob ma'lumotlari.

Buxgalteriya hisobi va hisobotida xo'jalik operatsiyalari, xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari ifodalanadi. Statistika hisobi hamda hisobotida hodisa va jarayonlar umumiy majmuasining miqdoriy jihatlari ifodalanadi. Tezkor hisob va hisobotlarga hisobot davri ichida olish mumkin bo'lgan axborotlar majmuasi kiradi. Tanlab kuzatish natijasida olingan ma'lumotlar hisobotdagi ko'rsatkichlarni chuqurlashtirish hamda hodisa va jarayonlarni alohida o'rganish imkonini beradi.

Hisoblanmaydigan ma'lumot manbalariga quyidagilar kiradi:

- ichki idora va idoradan tashqari taftish ma'lumotlari;
- ichki va tashqi audit hisobotlari;
- laboratoriya va tibbiy-sanitariya nazorati materiallari;
- soliq xizmati xodimlarining tekshirish natijalari;
- mehnat jamoasining majlis va yig'ilish qarorlari.

Shuningdek, tahlil jarayonida tasdiqlangan reja, biznes-reja va boshqa me'yoriy hujjatlar ham qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar oshkoraligi nuqtai nazaridan yopiq va ochiq ma'lumotlarga bo'linadi. Buxgalteriya va statistik hisobotlarda ifodalangan ma'lumotlar tashqariga, boshqa subyektlarga taqdim qilinadi va ular ochiq ma'lumotlarga kiradi. Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining me'yoriy ko'rsatkichlari, ta'riflari, limitlari va ularni baholash yo'llarini ishlab chiqadi. Bu ko'rsatkichlar xo'jalik subyektining tijorat, texnologik, ishlab chiqarish siri hisoblanadi.

Korxona hisobotlari yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar shaklini tuzish bo'yicha ko'rgazmaga amal qilgan holda tuziladi. Ammo unda xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarini bosh kitob ko'rsatkichlaridagi raqamlar bilan solishtirish. Ular bir-biriga to'g'ri kelishi lozim.

2. Buxgalteriya balansidagi har bir bo'limning moddalaridagi summasi shu bo'lim jami summasiga va aktiv qismining passiv qismiga to'g'ri kelishi aniqlanadi.

3. Buxgalteriya balansidagi moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi boshqa hisobot ko'rsatkichlari bilan to'g'ri kelishi tekshiriladi.

4. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1994-yil 26-martda ishlab chiqilgan 164-sonli «Buxgalteriya hisoboti va balansi to'g'risidagi Nizom»ga, 1997-yil 25-yanvarda tasdiqlangan «Korxona va tashkilotlarning yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarini to'lg'azish bo'yicha Qo'llanma»ga to'g'ri kelishi ko'rib chiqiladi. Bu qo'llanmaga har yili qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib boriladi.

Rahbar moliyaviy hisobotni tasdiqlashda qo'yilgan talablarning hammasini yoki muayyan qismini tekshirib ko'rishi va ishonch hosil qilgandan so'ng, unga imzo chekishi mumkin.

## 3.3. Moliyaviy hisobotlar tarkibi

Korxonaning moliyaviy hisoboti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining har yilgi o'zgartirishlarni o'zida ifoda etadigan «Korxona (tashkilot)larda yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarning shakli va hajmini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'iga asosan tuziladi. Ushbu buyruqqa asosan barcha huquqiy shaxslar (budjet, sug'urta, bank muassasalaridan tashqari) tegishli tashkilotlarga o'zlarining moliyaviy hisobotlarini topshiradilar.

Yillik hisobotlarning tarkibiga quyidagilar kiradi:

1-shakl — «Buxgalteriya balansi»;

2-shakl — «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»;

2a-shakl — «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma»;

3-shakl — «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»;

4-shakl — «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»;

5-shakl — «O'z mablag'lari (kapitali) to'g'risidagi hisobot».

Yarim yillik hisobot tarkibiga:

1-shakl — «Buxgalteriya balansi»;

2-shakl — «Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot»;

2a-shakl — «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma»;

3-shakl — «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»;

4-shakl — «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot».

Choraklik hisobot tarkibiga:

1-shakl — «Buxgalteriya balansi»;

2-shakl — «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»;

2a-shakl — «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma».

Moliya vazirligining 1998-yil 25-iyundagi 79-sonli buyrug'i bilan moliyaviy hisobotlar tarkibiga 2b-shakl — «Moliyaviy-iqtisodiy holat to'g'risida ma'lumotnoma» kiritilgan. Bu ma'lumotnoma korxonaning choraklik va yarim yillik hisobotlari bilan birgalikda topshiriladi. Ushbu hisobot va ma'lumotnomalardan foydalangan holda korxona rahbari moliya-xo'jalik faoliyatining ahvoli joriy yilda qanday ekanligi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Biroq moliyaviy hisobotning barcha imkoniyatlaridan foydalanish bevosita undan foydalanuvchilarning malakasi, bilim saviyasi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. Rahbar korxonaning umumiy

iqtisodiy muammolarini yaxshi bilish bilan birga, buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hisobotlarni o'qiy olishi, ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ham bilishi lozim.

Masalan, «Buxgalteriya balansi» va boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga asosan korxona rahbari mablag'larning miqdorini, ularning shakllanish manbalarini, umumiy mablag'larda o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan majburiyatlar hissasini, uzoq muddatli va oborot aktivlarining ulushini, xo'jalik faoliyatidagi ishtirok etayotgan o'zining aylanma mablag'lari, ulardan qancha foyda olganligi, budjetdan qancha qarzdor ekanligi, debitor va kreditor qarzlarning holati, shundan qanchasining muddati o'tganligi, balansning likvidliligi, korxonaning moliyaviy barqarorligi kabi muhim ko'rsatkichlarni aniqlashi, bilishi va shular bo'yicha korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida zudlik bilan xulosa chiqarishi lozim.

Rahbar «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlariga asosan korxonaning daromadi, xarajatlari va sof foydaning shakllanish yo'llarini aniqlashi mumkin.

Korxona rahbari «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlariga tayanib, asosiy vositalarning hisobot davri boshi va oxiridagi qoldiqlarda o'zgarishlar nimalar evaziga sodir bo'lganligini, qancha asosiy vosita sotib olinganligini, ularning qanchasi ishga tushirilganligi va qanday yo'llar bilan kamayganligi (sotilganligi va hisobdan chiqarilganligi)ni bilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu hisobot asosida asosiy vositalarning qancha qismi eskirganligi, uning yaroqlilik darajasi va qancha qismi aktiv hamda passiv qismlardan iborat ekanligi to'g'risida ham xulosa qilish mumkin. «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»dan korxona pul mablag'larining turlari bo'yicha hisobot davridagi kirimi va chiqimi to'g'risida ma'lumotlarni olish mumkin. Bunda pul oqimlari barcha faoliyat turlari bo'yicha alohida ko'rsatiladi. Shuningdek, korxonaning valuta mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlar ham ushbu hisobotda o'z aksini topgan. «O'z mablag'lari (kapitali) to'g'risida hisobot»da korxona mablag'lari, ularning tarkibi, harakati, hisobot davridagi o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar ifodalanadi.

Hozirgi paytda moliyaviy hisobotlarning eng muhimlaridan biri «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma'lumotnoma» — 2a-shakldir. Bu hisobotda davlatimiz ichidagi va tashqarisidagi korxonalarning ushbu qarzlar bo'yicha ma'lumotlari o'z ifodasini

topgan. Har biri bo'yicha muddati o'tgan debitorlar va kreditorlar ham ushbu hisobotda ko'rsatilgan. Bu hisobot bugungi kun talabidan kelib chiqqan hujjatdir. Chunki millionlab pul mablag'i muddati o'tgan debitor va kreditor bo'lib, oborotdan chetlashtirilgan. Bu esa korxonaning ham, davlatimizning ham iqtisodiy qudratini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu tufayli ushbu ma'lumotlarga korxona rahbarlari alohida ahamiyat berishlari va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishlari lozim.

«Moliyaviy-iqtisodiy holat to'g'risida ma'lumotnoma»da korxona xo'jalik mablag'larida davlat mablag'larining hissasi; xodimlar soni; ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti; ishlab chiqarishga jalb qilingan xomashyoning chetdan keltirilgan va mahalliy manbalari bo'yicha ulushi; eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi kabi axborotlar o'z aksini topgan. Ushbu moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan oqilona foydalana bilish katta samara keltiradi. Axborotlar shunchaki axborotlar uchun emas, balki ulardan to'g'ri foydalanib, korxonaning ahvolini o'rganib tegishli xulosa chiqarish va shu asosda uning samaradorligini oshirish maqsadida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun qo'llanilishi lozim.

### 3.4. Buxgalteriya balansi: turlari, tarkibi, tavsifi

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning asosiy qismlaridan biridir. Shuning uchun korxona rahbari uni iqtisodiy jihatdan o'qiy olishi, har bir moddasida ifoda etilgan ma'lumotlar asosida korxonasining ahvolini ko'ra bilishi, mablag'lar qayerdan kelib tushdi, ular qayerga joylashtirildi, samarali ishlash uchun shu mablag'lar yetarlimi, savollariga javob topa olishi lozim. Shu savollarga javob berish uchun korxona rahbari balans to'g'risida to'liq tushunchaga ega bo'lishi kerak.

«Balans» atamasi lot. *bis* — ikki marta, *banx* — tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ikki palla ma'nosini anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi. Buxgalteriya balansining har xil turlari mavjud bo'lib, ular quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi: tuzilish vaqti, axborot hajmi, mulkchilik shakli, aks ettirish obyekti, tozalash usuli.

***Tuzilish vaqtiga ko'ra,*** buxgalteriya balanslari: kirish, joriy, tugatish, bo'lish va birlashtirish balanslari bo'lishi mumkin.

***Kirish balansi*** korxonaning paydo bo'lish vaqtida tuziladi. Unda korxona o'z faoliyatini boshlayotgan paytdagi boyliklar summasini belgilaydi.

***Joriy balanslar*** korxona faoliyatini ifoda etib, qonunda belgilangan muddatda mavjud vaqt mobaynida tuzilib turiladi.

***Tugatish balanslari*** korxona tugatilganda tuziladi.

***Bo'lish balanslari*** yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo'linish vaqtida yoki shu korxonaning bir yoki bir necha tarkibiy bo'linmasining boshqa korxonaga berilishi vaqtida tuziladi. Shuning uchun bu balans ba'zida berish balansi ham deyiladi.

***Birlashtirish balansi*** bir necha korxonalar birlashganda (qo'shilganda) tuziladi.

***Axborot hajmi bo'yicha balanslar*** bir martali va yig'ma balanslarga bo'linadi. Bir martali balans faqat bir korxona bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi.

***Yig'ma balans*** bir martali balanslar asosida tuzilib, birlashmalar (vazirliklar, firmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi.

***Mulkchilik shakllariga ko'ra,*** davlat, korporativ, xususiy, aralash va qo'shma korxonalar, shuningdek, jamoat tashkilotlari balanslariga bo'linadi.

***Aks ettirish obyektiga ko'ra,*** balanslar mustaqil va alohida balansga ajratiladi. Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo'lgan korxonalar tuzadi. Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, sexlar, korxonaning avtotransport va turarjoy kommunal xo'jaliklari va shu kabilar) tuzadi.

***Tozalash usuliga ko'ra,*** balanslar balans-brutto va balans-nettoga ajratiladi.

***Balans-brutto*** — tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir. Asosiy vositalarning haqiqiy qiymatini (tannarxi yoki qoldiq qiymatini) aniqlashda qo'llaniladigan summalar, boshqa moddalar miqdoridagi summalardan chegiriladigan moddalar tartibga soluvchi moddalar deyiladi. Masalan, asosiy vositalar qoldiq qiymatini aniqlash uchun «Asosiy vositalar» summasidan «Asosiy vositalarning eskirishi» summasi chegiriladi. Balans-bruttoda tartibga soluvchi moddalar summasi balans yakuniy qiymatiga kiritiladi.

***Balans-nettoda*** — balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegiriladi. Bu jarayon balansni

«tozalash» deyiladi. O'zbekistondagi barcha korxonalar hozirgi paytda balans-netto tuzmoqda, ya'ni balans yakuniga: asosiy vositalar, arzon va tez eskiruvchan buyumlar qoldiq qiymati, qayta sotiladigan tovarlar esa tannarxi bo'yicha kiritilmoqda. Buxgalteriya balansiga qo'yiladigan asosiy talablar: to'g'rilik, reallik, yaxlitlik, izchillik va tushunarlilikdir.

**Balansning to'g'riligi** uning tuzish jarayonida asos qilib olingan hujjatlarning to'laligi va sifati bilan ta'minlanadi. Agar hisobot davrida xo'jalik faoliyatining barcha faktlari o'z vaqtida hujjatli rasmiylashtirilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, unda balans korxona ishining huquqiy yakunini aks ettirmaydi. Buxgalteriya balansining har bir moddasi hujjatlar, buxgalteriya hisobi raqamlaridagi yozuvlar, buxgalteriya hisob-kitoblari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Buxgalteriya balansi ma'lumotlarini qasddan buzish *niqoblash* deyiladi. Balansni niqoblash qonunlarining buzilganligini yashirish yoki korxona faoliyatining ayrim tomonlarini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida tuzilgan balans bo'lib hisoblanadi. Buni ayrim hollarda amaldagi qoidalardan bexabarlik oqibatida, bilmasdan qilish ham mumkin.

**Balans realligi** moddalar bahosining obyektiv voqelikka muvofiq kelishini anglatadi. Balansning «to'g'riligi» va «realligi» tushunchalarini bir-biriga aralashtirmaslik kerak. Balans to'g'ri, ammo noreal bo'lishi mumkin. Ya'ni, balans ma'lumotlari hujjatlar asosida tuzilgan bo'ladi va haqiqatda mavjud mablag'larni ko'rsatadi, ammo uning ayrim moddalari real holatni, masalan, asosiy vositalar — ma'naviy eskirganligini, debitorlik qarzlarini talab qilib olib bo'lmasligini, uning qancha qismi umidsiz debitor ekanligini ifodalovchi vaziyatlarni ko'rsatmaydi.

**Balans birligi** balansni yagona hisobga olish va baholash tamoyillari bo'yicha tuzilishini, ya'ni korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalarida va tarmoqlarida buxgalteriya hisobi hisob raqamlari (schyotlari)ning yagona nomenklaturasi ularning bir xildagi mazmuni, ikki yoqlama buxgalteriya yozuvining amalga oshishi va shu kabilar qo'llanilishini anglatadi.

Respublikamizda **balansning yaxlitligiga** erishilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi qaroriga asosan, buxgalteriya balansining yagona shakli qabul qilingan, buxgalteriya schyotlarining 2002-yildan boshlab yagona rejasi

qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Moliyaviy hisobotning barcha shakllari Moliya vazirligi huzurida buxgalteriya hisobi va hisoboti uslubiyati va ularni tashkil etish boshqarmasi ishlab chiqqan «Korxonalarda choraklik va yillik moliyaviy hisoboti shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar» asosida tuziladi.

**Balans davomiyligi** har bir keyingi balans oldingi balansdan kelib chiqishi tamoyiliga asoslanadi. Masalan, oldingi yil yakuniy balansi (yil oxiridagi ma'lumotlar) hisobot yili balansida yil boshidagi ma'lumotlar sifatida ifodalanadi. Chunki hisobot yili o'tgan yilning davomi hisoblanadi.

Balans aniqligi balansni tuzuvchilar va uni o'qiydigan hamda tahlil qiladigan kishilarning tushunishi uchun qulayligidir. Balansni aniq va tushunarli qilish uchun moddalar rekvizitlari va nomlari ikki tilda (o'zbek va rus tilida) bayon qilingan, uning shakli ancha soddalashtirilgan.

Buxgalteriya balansi ikki qismdan **aktiv va passivdan** iborat bo'ladi. **Aktiv qismida** korxona sarmoyasining tarkibi va joylashtirilishi, **passivida** — aktivlarni tashkil etish manbalari, ya'ni o'z sarmoyasi va majburiyatlari, boshqa korxona yoki jismoniy shaxslarning vaqtincha jalb qilingan mablag'lari ko'rsatiladi.

Shunday qilib, buxgalteriya balansi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Korxona egalik qiladigan vositalarni aks ettiruvchi aktivlar.
2. Korxona tasarrufidagi o'z mablag'lari.
3. Keyinchalik qaytarilishi lozim bo'lgan aktivlarni sotib olish, hosil qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar.

Buxgalteriya balansida korxona aktivlari ikki guruhda: **uzoq muddatli** va **aylanma aktivlarda** aks ettiriladi.

Uzoq **muddatli aktivlarga** asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, sarmoya qo'yilmalari, sotib olingan aksiyalar va zayomlar kiritiladi. Korxonaning ishlashi bilan bu vositalar o'z qiymatini o'zgartirmaydi. Masalan, asosiy vositalar qiymati qisqa vaqt mobaynida miqdor jihatidan o'zgarmaydi.

**Joriy aktivlar** naqd pul mablag'larni, iste'molchilar hisob varaqlarini va naqd pul mablag'lari shaklini egallashi lozim bo'lgan zaxiralarni o'z ichiga oladi. Joriy xo'jalik davri mobaynida bu aktivlar doimo o'zgarishi mumkin. Naqd pul mablag'lariga aylantirilishi oson bo'lgan joriy aktivlar va oson realizatsiya qilinadigan aktivlar kiritiladi.

Korxona balansi aktivlarini o'rganishda quyidagilarni aniqlash mumkin:

• balansni tuzish kunida korxonada bo'lgan vositalarni (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, pul mablag'lari va hokazolar);

• ularning joylanishini (asosiy vositalarda, kapital qurilishda, debitorlik qarzida va hokazolarda);

• ularning xo'jalikdagi asosiy rolini (aylanma, asosiy yoki jalb etilgan mablag'lar).

Balans passivi ma'lumotlari asosida quyidagilarni bilib olish mumkin:

• mablag' qaysi manbadan kelib turganligini;

• mablag'lar kimga tegishli (o'zinikimi yoki jalb qilinganmi) ekanligini;

• mablag'larning belgilangan maqsadi qanday ekanligini (uzoq muddatli yoki qisqa muddatli qo'yilmalar).

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi «Korxonalar (tashkilotlar) yillik va yil choragi moliyaviy hisobotlarining shakllari hamda hajmini tasdiqlash to'g'risida»gi 5-sonli buyrug'iga muvofiq 1997-yil 1-yanvardan boshlab choraklik hisobotining yangi shakllari joriy etildi. Balans aktivi va passivida barcha balans moddalari ikki yirik bo'limga guruhlangan (3.1-jadval).

Balans aktivida mablag'lar quyidagi bo'limlar bo'yicha tasdiqlangan:

*1-bo'lim.* Uzoq muddatli aktivlar.

*2-bo'lim.* Aylanma aktivlar.

Balans aktivining «Uzoq muddatli aktivlar»da uzoq foydalaniladigan aktivlar (moddiy-ashyoviy vositalar, qimmatli qog'ozlar, uzoq muddatli investitsiyalar) aks ettiriladi. Balansda ular quyidagi moddalar bo'yicha guruhlangan:

***Asosiy vositalarga*** uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) shaklini o'zgartirmagan holda ishlatiladigan, o'z qiymatini qisman yo'qotadigan moddiy-ashyoviy boyliklar kiradi. Balansda ular dastlabki qiymati bo'yicha, eskirishi va qoldiq qiymati bo'yicha ham ko'rsatiladi.

***Nomoddiy aktivlarga*** yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan, binolar, inshootlar, aqliy intellektual mulk, tovar zaxiralari, ixtirolar, nou-xau va boshqalardan foydalanishga doir mulkiy

*3.1-jadval*

**Buxgalteriya balansi**

(ming so'm)

| AKTIV | | | | PASSIV | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Balans bo'limi va moddalar soni** | **Satr raqami** | **Yil boshida** | **Yil oxirida** | **Balans bo'limi va moddalar soni** | **Satr raqami** | **Yil boshida** | **Yil oxirida** |
| **1. Uzoq muddatli aktivlar** | | | | **1. O'z mablag'lari manbalari** | | | |
| Asosiy vositalar | 010—012 | 9065 | 9739 | Ustav, qo'shilgan va zaxira sarmoya | 320—380 | 18226 | 17696 |
| Nomoddiy aktivlar | 020—022 | — | — | Taqsimlanmagan foyda | 350 | 1362 | 3459 |
| Sarmoya qo'yilmalar | 030 | 3923 | 3175 | Maqsadli tushumlar va fondlar, bo'lajak xarajatlar zaxiralari | 360—380 | 294 | 548 |
| Sotib olingan aksiyalar va zayomlar, uzoq muddatli investitsiyalar | 040—100 | 39 | 37 | | | | |
| 1-bo'lim bo'yicha jami | 110 | 13027 | 12971 | 1-bo'lim bo'yicha jami | 390 | 19882 | 21703 |
| **2. Aylanma aktivlar** | | | | **2. Majburiyatlar** | | | |
| Zaxiralar va sarflar | 120—160 | 11520 | 12631 | Uzoq muddatli qarzlar va kreditlar | 400—410 | 95 | |
| Pul mablag'lari | 170—190 | 351 | 304 | Qisqa muddatli qarzlar va kreditlar | 420—430 | | 97 |
| Qisqa muddatli qo'yilmalar va qayta sotib olingan o'z aksiyalari | 200—210 | 2249 | 3631 | Kreditorlar | 440—530 | 7170 | 7737 |
| 2-bo'lim bo'yicha jami | 300 | 14120 | 16566 | 2-bo'lim bo'yicha jami | 540 | 7265 | 7834 |
| BALANS | 310 | 27147 | 29537 | BALANS | 550 | 27147 | 29537 |

huquqlar kiradi. Balansda ularning dastlabki va qoldiq qiymati eskirish summasi hamda qoldiq qiymati aks ettiriladi.

***Sarmoya qo'yilmalariga*** xo'jalik yoki pudrat usulida amalga oshirilayotgan tugallanmagan qurilish qiymati, shuningdek, geologik-qidiruv ishlari va korxonalarga ana shu maqsadda berilgan mablag'lar summasi kiradi.

***Uzoq muddatli investitsiyalarga*** korxonalarning boshqa korxona ustav fondiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan omonatlari kiradi. Bundan tashqari, bu bo'limda sotib olingan aksiyalar, boshqa korxonalarga berilgan qarzlar alohida moddalar bilan ko'rsatiladi.

Balans aktivining 2-bo'limi «Aylanma aktivlar» deb ataladi. Bu aylanma mablag'larning uch guruhga ajratish mumkin bo'lgan barcha summasidir:

1. Zaxiralar va sarflar — ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotiladigan tovarlar, davr xarajatlari.

2. Pul mablag'lari — kassadagi, valuta mablag'lari, qisqa muddatli qo'yilmalar, qayta sotib olingan o'z aksiyalari.

3. Debitorlar — xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, uyushgan korxonalar bilan hisob-kitoblar, ta'sischilar va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

Balans passivi ham ikki bo'limdan iborat bo'ladi:

1. O'z mablag'lari.
2. Majburiyatlar.

Birinchi bo'limda o'z mablag'lari aks ettirilib, ular quyidagi moddalar bo'yicha guruhlangan:

- ustav sarmoyasi;
- qo'shilgan sarmoya;
- zaxira sarmoya;
- taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar);
- maqsadli tushumlar va fondlar;
- kelgusi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari;
- kelgusi davr daromadlari.

Oxirgi ikki modda oldingi yillar balansida qisqa muddatli majburiyatlar sifatida 2-bo'limda ko'rsatiladi. Aslida esa bu mablag'lar o'z mablag'lariga kiritilishi kerak. Ustav sarmoyasi, odatda, uning

ta'sischilari qo'shgan badallari evaziga tashkil bo'ladi. Uning ko'payishi xo'jalikning o'z faoliyati davomida oladigan foydasi evaziga amalga oshadi. Zarur hollarda ta'sischilarning maqsadli badallari evaziga ham ko'payishi mumkin. Ustav sarmoyasiga badal sharoitida asosiy vositalarni (bino, inshootlar, jihozlar, qurilmalar) va boshqa moddiy ne'matlarni hamda nomoddiy aktivlar (yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi, nou-xau, tovar belgilari kabilar)ni qo'shish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ustav kapitalining miqdori ta'sis hujjatida qayd etilgan hajmidan ortib ketmasligi lozim.

***Qo'shilgan sarmoya*** (kapital) — bu aksiyaning birinchi marta nominal qiymatidan ortiqcha sotish evaziga olingan emission daromaddir.

Zaxira sarmoyasi korxona ustaviga, asosan, foyda hisobidan tashkil qilingan zaxiralardan, inflyatsiya zaxiralaridan mulkni qayta baholash uchun qayta tashkil qilingan, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulklardan iborat bo'ladi. Zaxira sarmoyasi miqdori ta'sischilar tomonidan belgilangan ustav sarmoyasining 25 %gacha miqdorda tashkil qilishi mumkin. Zaxira sarmoyasini kelgusi xarajatlar va to'lovlar zaxirasi bilan aralashtirmaslik lozim. Bu zaxira korxona ustavi va qonun asosida tashkil qilinadi. Ushbu zaxira xarajatlar va to'lovlarga bir xil miqdorda qo'shib berish uchun to'planadi. Masalan, xodimlar ta'tili uchun to'plangan mablag', rag'batlantirishga mo'ljallangan mablag', mavsumiy xarajatlar uchun to'lanadigan mablag', asosiy vositalarni ta'mirlash uchun ajratilgan xarajatlar va hokazo. Taqsimlanmagan foyda korxonaning o'tgan va hisobot yilida taqsimlanmay qolgan foyda miqdorining ma'lum bir muddatga qoldig'ini ifodalaydi.

Maqsadli tushumlar va jamg'armalar — bevosita biror maqsadli tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan mablag'larni o'z ichiga oladi. Bularga: bolalar bog'chalari, turarjoy binolari qurish, ilmiy-tadqiqot ishlarini ta'minlash kabi tadbirlarga mo'ljallangan mablag'lar kiradi. Kelgusi davr daromadlari kelgusi davr uchun joriy yilda olingan daromadlardir. Bunga: kamomadlar bo'yicha kelgusida to'planadigan tushumlar, aybdor shaxslardan kamomad chiqqan ne'matlarning balans qiymati miqdorida undirib olingan mablag'lar kabi moddalar kiradi.

Balansning passiv tomonidagi ikkinchi bo'limida huquqiy va jismoniy shaxslardan olingan va ma'lum muddatdan keyin qaytarilishi shart bo'lgan majburiyatlar jamlangan. Bu majburiyatlar qisqa va uzoq muddatli kreditlar, zayomlar hamda turli kreditor qarzlardan iborat bo'lishi mumkin. Uzoq muddatli majburiyatlarga to'lanish muddati bir yildan ko'p, qisqa muddatli majburiyatlarga esa bir yildan kam bo'lgan qarzlar kiradi. Buxgalteriya balansida uzoq muddatli majburiyatlar ikki moddada ko'rsatiladi: «Uzoq muddatli zayomlar» va «Uzoq muddatli kreditlar». «Uzoq muddatli zayomlar» moddasida banklar boshqa korxona va tashkilotlardan olingan hamda muddati bir yildan ortiq bo'lgan qarzlar kiradi. «Uzoq muddatli kreditlar»ga bir yildan ortiq bo'lgan muddatga banklardan olingan qarzlar kiradi.

«Qisqa muddatli kreditlar» moddasida banklardan bir yilgacha olingan qarzlar ko'rsatiladi. Ushbu moddada banklarning ushbu korxona xodimlariga uy-joy qurilishi uchun bergan krediti hamda tovarlarni kreditga sotib olganda uning qoldiq miqdori ko'rsatiladi. Qisqa muddatli qarzlarga «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar (hisob raqamiga tushganlari)» hamda «Kreditorlar» guruhiga kiruvchi balans moddalari kiradi.

«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar (hisob raqamiga tushganlari)» moddasida boshqa tashkilotlardan kelgusi davr hisob-kitoblari uchun olingan summalari ko'rsatiladi. Ayniqsa, hozir barcha to'lovlar oldin amalga oshirilmoqda. Bu esa ushbu moddada pul bo'lib turishiga asos bo'ladi. «Kreditorlar» guruhida turli tashkilot va korxonalardan, budjet, sug'urta, tovar jo'natuvchilar, pudratchilardan qarzlar, ishchi-xizmatchilar ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar kabi kreditlar ko'rsatiladi.

## 3.5. Buxgalteriya balansi moddalarining bir-biri bilan bog'liqligi

Korxona mablag'lari va ularning manbalari buxgalteriya balansida muayyan sanada (chorak boshi yoki oxiri, yil) ko'rsatiladi. Balansda aktiv moddalari ko'rsatkichlari passiv moddalari ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular teng bo'lishi shart. Bunday o'zaro bog'liqlikni shartli ravishda «Turon» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati (OTAJ) moliyaviy hisoboti misolida ko'rib chiqamiz (3.2-jadval).

*3.2-jadval*

**«Turon» OTAJning hisobot yilidagi qisqartirilgan buxgalteriya balansi**

(ming so'm)

| AKTIV | Satr raqami | Yil boshida | Yil oxirida | PASSIV | Satr raqami | Yil boshida | Yil oxirida |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. Uzoq muddatli aktivlar | | | | 1.O'z mablag'lari manbalari | | | |
| Asosiy vositalar birlamchi qiymati bo'yicha | 010 | 14104 | 15247 | Ustav sarmoyasi | 320 | 13211 | 13211 |
| Eskirish | 011 | 5039 | 5508 | Qo'shilgan sarmoya | 330 | — | 129 |
| qoldiq qiymati bo'yicha | 012 | 9065 | 9739 | Zaxira sarmoyasi | 340 | 5015 | 4356 |
| Kapital qo'yilmalar | 030 | 3923 | 3175 | Taqsimlanmagan foyda | 350 | 1362 | 3459 |
| Uzoq muddatli investitsiya | 080 | 39 | 57 | Maqsadli tushumlar va fondlar | 360 | 294 | 74 |
| | | | | Kelajak davr chiqimlari | 380 | — | 474 |
| Jami bo'lim bo'yicha | 010 | 13027 | 12971 | Jami bo'lim bo'yicha | 390 | 19882 | 21703 |
| 2. Oborot aktivlari | 120 | | | 2.Majburiyatlar | 400 | 95 | — |
| Ishlab chiqarish zaxiralari | 120 | 8925 | 7588 | Uzoq muddatli qarzlar | 400 | 95 | — |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | 130 | 909 | 966 | Qisqa muddatli qarzlar | 430 | — | 97 |
| Tayyor mahsulot | 140 | 1611 | 4089 | Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar | 440 | 1241 | 1723 |
| Qayta sotish uchun tovarlar | 150 | 75 | 8 | | | | |
| Pul mablag'lari | 170 | 42 | 151 | | | | |
| Valuta mablag'lari | 180 | 309 | 140 | | | | |
| Kassadagi pul mablag'lari | 190 | — | 13 | | | | |
| Debitor | 220 | 1224 | 2123 | Kreditorlar | 450 | 2244 | 2511 |
| xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar | 240 | 51 | 42 | Yetkazib beruvchilar; budjet bo'yicha qarzdorlik | 460 | 3342 | 2685 |
| budjet bilan hisob-kitoblar | 250 | — | 1 | ish haqi bo'yicha qarzdorlik | 470 | 124 | 160 |
| xodimlar bilan hisob-kitoblar | 260 | 947 | 1465 | ijtimoiy sug'urta va ta' minot bo'yicha qarzdorlik | 480 | 78 | 60 |
| boshqa debitorlar | | | | boshqa kreditorlar | 530 | 141 | 598 |
| Jami bo'lim bo'yicha | 300 | 14120 | 16566 | Jami bo'lim bo'yicha | 540 | 7265 | 7834 |
| Jami aktivlar bo'yicha | 310 | 27147 | 29537 | Jami passiv bo'yicha | 550 | 27147 | 29537 |

Mazkur korxonaning balansi yil boshida 27147 ming so'm, yil oxirida esa 29537 ming so'mni tashkil etgan. Shu tariqa, OTAJ yil oxiriga kelib 29537 ming so'mlik xo'jalik mablag'lariga ega, degan xulosaga kelish mumkin. Bu mablag'lar quyidagi tartibda taqsimlangan: uzoq muddatli aktivlar, ya'ni asosiy vositalarda, tugallanmagan kapital qurilishda va uzoq muddatli investitsiyalarda — 12971 ming so'm, oborot aktivlarda — 16566 ming so'm. Bu mablag'lar o'z mablag'lari hisobidan — 21703 ming so'm va korxona majburiyatlari hisobidan — 7834 ming so'm (16566 – 8732) miqdorida qoplanadi.

O'z mablag'lari quyidagi tarzda taqsimlanadi: uzoq muddatli aktivlar — 12971 ming so'm, oborot mablag'lari — 8732 ming so'm (21703 —12971). Oborot mablag'larining qolgan summasi, ya'ni 7834 ming so'm jalb qilingan mablag'lar hisobiga qoplanadi. Shu tariqa o'z mablag'larining oborotdagi ulushi 52,7 %ni tashkil etadi:

$$\left(\frac{(8732 \cdot 100)}{16566}\right).$$

Buxgalteriya balansining umumiy ichki o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqamiz. Balans aktivi barcha bo'limlarning yig'indisi uning passiv qismidagi barcha bo'limlar yig'indisiga teng:

$$R1A + R2A = R1P + R2P.$$

Korxona mablag'larining miqdori ikki bo'limda: tarkibi va joylashishi, shuningdek, vujudga kelish manbalari bo'yicha taqdim etiladi. Tarkibi bo'yicha — korxonaning mablag'lari: asosiy vositalar, tovar zaxiralari, pul mablag'lari va hokazolardan iboratdir. Vositalarning tarkibi mablag'larning qayerda (asosiy yoki oborot mablag'larda, kassada, hisob-kitob schyotida va hokazo) joylashganligini ko'rsatadi.

Mablag'larning har bir summasi (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, naqd pul) shakllanish manbaiga ega bo'ladi (ushbu korxona ta'sischilarining o'z mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslardan qarzga olingan mablag', bank kreditlari).

O'z mablag'lari summasi, odatda, uzoq muddatli aktivlar summasidan ortiq bo'lishi kerak:

$$R1P > R1A.$$

Korxonaning o'z mablag'lari asosiy vositalarni xarid qilish va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar uchun sarflanadi. Qolgan qismi hisobiga esa oborot mablag'lari (ishlab chiqarish zaxiralari, pul mablag'lari va hokazo) qoplanadi. Agar o'z mablag'lari uzoq muddatli aktivlardan kam bo'lsa, bu korxona oborotdan tashqari aktivlarni qoplash uchun qarz mablag'laridan foydalanganligini bildiradi. Bozor munosabatlari sharoitida bu holat qoniqarsiz ahvol sanaladi. Bunday holda korxona to'lovga noqobil hisoblanadi.

Oborot aktivlari, ya'ni tovar zaxiralari, xarajatlar, pul mablag'lari, hisob-kitoblar umumiy summasi qarzlar umumiy summasidan ortiq bo'lishi lozim:

$$R2A > R2P.$$

Oborot mablag'larining katta qismi, odatda, qarz mablag'lari emas, o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi. Agar majburiyatlar summasi (R2P) oborot aktivlaridan ortiq bo'lsa, bu oborot mablag'larining butun summasi qarz mablag'lari hisobiga shakllanishidan dalolat beradi. Bozor munosabatlari sharoitida bunday korxona to'lovga noqobil va iqtisodiy jihatdan nochor hisoblanadi.

Uzoq muddatli majburiyatlar uzoq muddatli aktivlardan ortib ketmasligi darkor:

$$UMM < R1A.$$

Bu uzoq muddatli aktivlar, birinchi navbatda, o'z mablag'lari hisobiga shakllanishi bilan izohlanadi. Uzoq muddatli kreditlar va qarzlardan asosiy vositalar, kapital va uzoq muddatli qo'yilmalarni investitsiyalash uchun qo'llaniladi. Ular, shuningdek, oborot aktivlarida (tovar zaxiralarini xarid qilish, pul mablag'larini tashkil etish va hokazoda) ham foydalanilishi mumkin.

O'z oborot mablag'lari (O'OM) o'z mablag'lar manbalaridan (R1P) kam bo'lishi kerak. Chunki o'z oborot mablag'lari korxona o'z mablag'larining bir qismi hisoblanadi:

$$O'OM < R1P.$$

Aktiv va passiv bo'limlari o'rtasidagi o'zaro munosabatni «Turon» OTAJ balansi bo'yicha kuzatish mumkin. Korxonada tahlil qilinayotgan davr oxirida xo'jalik mablag'lari 29537 ming so'mdan iborat. Ular quyidagilar hisobiga tashkil topgan:

1. O'z mablag'lari — 21703 ming so'm.

2. Jalb qilingan mablag'lar (qisqa muddatli qarzdorlik) — 7834 ming so'm.

O'z mablag'larining 12971 ming so'mi uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Qolgan qismi esa (8732 ming so'm) oborot mablag'larini tashkil etadi. Qisqa muddatli qarzdorlik (7834 ming so'm) oborot aktivlarini to'ldirish uchun to'liq foydalanilgan. Shu tariqa, oborot aktivlarining 8732 ming so'mi o'z mablag'lari qolgan qismi 7834 ming so'mi qisqa muddatli qarzlar hisobidan qoplangan.

Aktiv moddalarining o'zaro bog'liqligi buxgalteriya balansi moddalari bir qancha o'zgarishlarni talab qiladi. Amaliyotda bunday o'zgarishlarning to'rt turi kuzatiladi.

1. Faqat balansning aktiv qismidagi summalarning o'zgarishi. Masalan, hisob-kitob schyotida mablag' kamaydi. Kassada esa shu summaga mablag' ko'payadi. Biroq o'zgarishlar teng bo'lganligi sababli, balans yakuni o'zgarmaydi.

2. Balansning passiv qismidagi summalarning o'zgarishi. Foydaning bir qismini biror fondga qo'shish bunga misol bo'lishi mumkin. Bu holda foydalanilmagan fond summasi ko'payadi. Passiv yakuni ham o'zgarmaydi. Chunki o'zgarishlar o'zaro tengdir.

3. Balans aktivi va passivi summalarini bir maromda ko'paytirish. Masalan, yetkazib beruvchilardan materiallar keldi, deylik. Buning natijasida «Materiallar» aktiv moddasi ko'payadi. Xuddi shu summa hisobidan yetkazib beruvchilarga qarz (passiv moddasi) ham ko'payadi. Ya'ni, balansning har ikki qismi ham (aktiv va passiv) bir xil miqdorda ko'payadi.

4. Balansning aktiv va passiv moddalarini bir maromda kamaytirish. Masalan, hisob-kitob schyotidan yetkazib beruvchiga materiallar uchun mablag' to'landi. Natijada, «Hisob-kitob schyoti» aktiv moddasi kamayadi va xuddi shu summaga yetkazib beruvchiga qarzdorlik (passiv moddasi) ham kamayadi. Ya'ni, balansning har ikki qismi bir xil kamayadi.

## 3.6. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'liqlik

Buxgalteriya balansi moddalari moliyaviy hisobotning muayyan shakllari ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqdir. Zero, «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shaklida korxona tomonidan bir yilda olingan foyda hisob-kitobi beriladi. Foydaning barcha besh turi bo'yicha hisob-kitob keltiriladi. Bu shakl ma'lumotnomasida esa budjetga barcha to'lovlar ko'rsatiladi.

Buxgalteriya balansining passiv qismi, 1-bo'limi «O'z mablag'lari manbalari»da taqsimlanmagan foyda summasi ko'rsatiladi. Aktivning 2-bo'limida debitorlik qarzdorligi turlari bo'yicha summa beriladi. OTAJning debitorlik qarzdorligi yil oxirida 3644 ming so'mni tashkil etdi. U bir yilda 1396 ming so'mga ortgan. Balans passivining «Majburiyatlar» bo'limida bir yilda muddati uzaytirilgan debitorlik va kreditorlik qarzdorligi 85 ming so'mga ko'paygan va 6014 ming so'mni tashkil etgan kreditorlik qarzdorligi qayd etilgan.

Nazorat qilish uchun moliyaviy hisobotda maxsus «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma» bor. Unda debitorlik va kreditorlik qarzdorligining vujudga kelishi aks ettiriladi. Ya'ni, ular qanday korxonalar bo'yicha tashkil etilganligi va summasi ko'rsatiladi. Misolimizda butun summada muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi 2383 ming so'm yoki butun qarzdorlarning 65,4 %ini, kreditorlik qarzdorligi 4033 ming so'm yoki 67,1 %ini tashkil etgan. Bunday holat qoniqarsizdir, chunki katta mablag'lar muzlatilgan bo'lib, ulardan xo'jalik faoliyatida foydalanilishi mumkin emas.

Balans aktivining 1-bo'limida asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlar: ularning boshlang'ich qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati mavjud. «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»da asosiy vositalar turlari, ularning harakati hamda boshlang'ich qiymati bo'yicha davr boshi va oxiridagi qoldiqlari (ularning eskirishi va qoldiq qiymati) haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkichlar asosiy vosita holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun juda muhimdir.

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da pul mablag'larining barcha turlari — xo'jalik faoliyati, dividendlar, soliqqa tortish, investitsiyalar

va boshqalar haqidagi axborotlar ko'rsatiladi. Bu shakl buxgalteriya balansi bilan o'zaro bog'liq. Buxgalteriya balansining 170, 180 va 190-satrlari bo'yicha qoldiq pul mablag'lari 070 va 080-satrlardagi pul mablag'lari qoldiqlariga tengdir. «Valuta mablag'lari harakati haqidagi ma'lumotnoma»da (090 va 120-satrlar) valuta mablag'lari qoldig'i ko'rsatiladi. Bu buxgalteriya balansida 180-satr bo'yicha ko'rsatiladi.

*«O'z sarmoyasi haqidagi hisobot»da ustav sarmoyasi, qo'shilgan* ustav sarmoyasi, zaxira sarmoyasi, taqsimlanmagan foyda harakati haqidagi ma'lumotlar beriladi. Balans passivining «O'z mablag'lari manbalari»da ularning yil boshi va oxiridagi ahvoli ko'rsatilgan. Bunday shaklga asoslanib, korxonaning o'z sarmoyasi tashkil bo'lishi va harakati, shuningdek, tuzilmasi tahlil qilinadi. Korxona moliyaviy holatini tahlil qilishda shu tarzda moliyaviy hisobotning barcha shakllaridan foydalanish zarur. Ular bir-birini to'ldirib boradi. Mazkur ma'lumotlar moliyaviy hisobotning shakllari o'rtasidagi oddiy bog'liqlikni ifodalash bilan cheklanmaydi. Zero, korxonani boshqarish va ma'lumotlarni nazorat qilish uchun ham o'ta muhimdir.

## 3.7. Buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlash va uning aniqligini tekshirish

Buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlash uni tuzishning to'g'riligi va ayrim moddalarining aniqligini tekshirish, balans ko'rsatkichlari bilan hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, uning ayrim ko'rsatkichlarini tartibga soluvchi summalardan «tozalash» va yirik pul o'lchamidagi summalarni (million so'mlarda) yaxlitlashni nazarda tutadi.

Balans tuzilishi to'g'riligini tekshirishda *arifmetik* va *moddiy tekshiruvlar* amalga oshiriladi.

**Arifmetik tekshiruv** balans va aylanma qaydnoma (vedomost)lar, bosh daftardagi summalarni solishtirish, balans guruhlari va bo'limlari bo'yicha summalarni, aktiv va passiv yakunlari tengligini hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Moddiy tekshiruv** moddiy boyliklar, pul mablag'lari haqiqiy qoldig'ini buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Tovar-moddiy boyliklarning barcha qoldig'i ularni natural shaklida haqiqiy mavjudligiga muvofiq kelishi kerak. Asosiy

vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari qoldig'ini hisobot ma'lumotlarini yo'qlama (inventarizatsiya) dalolatnomalari bilan taqqoslab tekshirgan ma'qul.

Balansning aniq (real)ligi balans moddalarini to'g'ri baholashga bog'liq bo'ladi. Balansda xo'jalik mablag'larini baholash Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-martdagi 164-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobotlari va balanslari to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiriladi. Bu Nizomga ko'ra, balansda ko'rsatilgan barcha moddiy boyliklar to'g'ri baholangan bo'lishi kerak, chunki noto'g'ri baholash xo'jalik faoliyatining haqiqiy natijasini buzib yuboradi. Noto'g'ri baholash qo'shib yozish, yashirish va boshqa noqonuniy harakatlar oqibatida yuzaga keladi.

Buxgalteriya hisoboti ma'lumotlarining bog'lanishi balansda va boshqa hisobot jadvallarida aks ettiriladigan ayrim ko'rsatkichlar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Masalan, misol tariqasida ko'rib chiqilayotgan buxgalteriya balansida (1.2-jadvalga qarang), 1-bo'limning aktiv qismida «Uzoq muddatli aktivlar» ifodalanadi. Unda asosiy vositalar yil boshiga va oxiriga dastlabki qiymatida, ularning eskirish summasi va qoldiq qiymati bo'yicha ham ko'rsatilgan. «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot»da asosiy vositalar turlarining yil boshidagi va oxiridagi rasshifrovkasi, ularning yil davomidagi o'zgarishi, shuningdek, eskirish summasi va qoldiq qiymati beriladi.

Buxgalteriya balansida asosiy vositalarning yil boshi va oxirida ko'rsatilgan qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlar (010, 011, 012-satrlar) 3-shakl ma'lumotlari (3, 6, 7, 10, 11, 12-katakning 130-satri)ga muvofiq kelishi kerak. Buxgalteriya balansining ma'lumotlari moliyaviy hisobotining boshqa shakllari bilan ham xuddi shu yo'sinda taqqoslanadi. Moliyaviy ahvolni tahlil qilish uchun dastlab buxgalteriya balansi tahlilga tayyorlanishi kerak. Tahlilga tayyorgarlik balansni tozalash, raqamlarni yaxlitlash va bo'limlarni guruhlashdan boshlanadi.

O'zbekiston xalqaro andoza (standart)larga o'tishidan oldin hisobga olish va hisobot tizimida buxgalteriya balansi tartibga soluvchi moddalar (asosiy vositalar eskirishi, arzon va tez eskiradigan

buyumlar eskirishi, savdo ustamalari) bilan tuzilgan. Bunday balans — balans-bruttodir. Buxgalteriya balansida raqamlar aniq bo'lishi uchun balansni tozalash, ya'ni tartibga soluvchi moddalar chiqarib tashlanishi va bir qator moddalarni guruhlash amalga oshirilishi kerak. Bunday buxgalteriya balansi balans-netto, ya'ni tozalangan balans deb yuritiladi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga ko'ra, balans-netto baholashda tuziladi. Balans yakuni korxona tasarrufida bor bo'lgan mablag'lar summasining chamalangan bahosini bildiradi. Biroq, tahlil qulay bo'lishi uchun balansni mavjud regulatorlardan tozalab, ayrim tarkibi bir xil bo'lgan moddalarning summalarini birlashtirish yo'li bilan to'ldirilgan tahliliy balans tuzilishi kerak.

Tartibga soluvchi moddalarga asosiy vositalar eskirish, nomoddiy aktivlar eskirishi, arzon va tez eskiradigan buyumlar eskirishi, ishlatilgan foyda summasi, tovarlarga savdo ustamasi kiritiladi. To'ldirilgan tahliliy balansni tuzishda hisobot yilida summalar aks ettirilmagan moddalar chiqarilishi, shuningdek, turli bo'limlar moddalari, masalan «Ta'sischilar bilan hisob-kitoblar» moddasi debitorlar (kreditorlar) va boshqalar bilan hisob-kitoblarni aks ettiruvchi moddalar bilan birlashtirilishi kerak. Namuna tariqasida oldingi 1.5-paragrafda to'ldirilgan balansni ko'rsatish mumkin. Uning moliyaviy holati shu balans asosida tahlil qilingan (3.2-jadvalga qarang).

# *4-bob.* BUXGALTERIYA BALANSINI TAHLIL QILISHNING VAZIFALARI VA UNGA ASOSAN MOLIYAVIY HOLATNI BAHOLASH

## 4.1. Moliyaviy holatni tahlil qilish

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy kategoriyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmunini bilish, ularni boshqara olish har bir rahbar va mutaxassis uchun *o'ta muhimdir.* Hozirgi sharoitda amaldagi eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri moliyadir. Moliyaga, odatda, pul aylanishi jarayonida pul zaxiralarining shakllanishi va ulardan foydalanishni ifodalovchi pul munosabatlari tizimi sifatida qaraladi.

Har qanday davlatda moliyaviy tizim amalda bo'lib, u o'zaro tarkibiy bog'langan ikki kichik tizimni: umumdavlat mablag'lari va xo'jalik yurituvchi subyektlari mablag'lari, ya'ni korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari va boshqalarning mablag'larini qamrab oladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mablag'lari muhim uch vazifani bajaradi:

- pul zaxiralari (daromadlari)ni shakllantirish;
- bu zaxiralardan foydalanish;
- ularni shakllantirish va ishlatishni nazorat qilish.

Korxona moliyaviy resurslarini to'g'ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda, korxonaning moliyaviy ahvoli, resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanishi hamda tahlil qilinishi lozim bo'ladi. Korxonaning moliyaviy ahvoli deganda, moliyaviy resurslarning turlari bo'yicha mavjudligi, raqobatbardoshlik darajasi, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar kabi muhim jihatlar majmuasi tushuniladi. Korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Ularga

iqtisodiy va moliyaviy salohiyat, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlik, mulkiy holat; likvidlilik; moliyaviy barqarorlik; moliyaviy natijalar; ish va bozor faolligi samaradorlik kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Moliyaviy ahvolni tahlil qilishning asosiy vazifasi quyidagi kategoriya va ko'rsatkichlarni baholash hisoblanadi:

- buxgalteriya balansi va mulkiy holat ko'rsatkichlari tuzilmasi;
- iqtisodiy va moliyaviy salohiyat ahvoli, ta'minlanganlik va foydalanish samaradorligi;
- asosiy va aylanma mablag'lar ahvoli, ta'minlanganlik va foydalanish samaradorligi;
- iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik hamda mustahkamlik;
- likvidlilik va to'lov qobiliyati;
- xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari;
- ish va bozor faolligi;
- bankrotlik holati.

Bozor sharoitida har bir rahbar iqtisodiyotning asosiy jihatlari mohiyati va mazmuni, ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hamda boshqarishni yaxshi bilishi darkor. Asosiy iqtisodiy jihatlarning biri — mablag'lar oboroti jarayonida pul fondlar shakllanishi va sarflanishini ko'rsatuvchi pul munosabatlari tizimi hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy holati turlar bo'yicha — moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, raqobatbardoshlik darajasi, moliyaviy barqarorlik, davlat va boshqa xo'jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmuasini o'z ichiga oladi. Aynan ushbu ko'rsatkichlar tahlil obyekti hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy holati dastlab moliyaviy hisobot bilan tashqi tanishish asosida buxgalteriya balansi moddalarini tahlil qilishni to'liq baholash mumkin.

### 4.2. Moliyaviy holatni dastlabki baholash

Dastlabki baholashdan kelib chiqib korxona rahbari:

- xo'jalik mablag'lari umumiy summasi va uning yil davomida o'zgarganligi;
- o'z va qarz mablag'lar manbalari summasi, ularning yil davomida o'zgarganligi hamda o'zaro nisbati;

• o'z mablag'lari manbalari summasining oborotdan tashqari (uzoq muddatli) aktivlar summasiga nisbati;

• korxona majburiyatlari (qarzdorligi) summasining oborot aktivlari summasiga nisbati;

• zaxiralar va xarajatlarning yil davomida o'zgarishi;

• debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjudligi hamda ularning yil davomida o'zgarishini aniqlashi mumkin.

Xo'jalik mablag'lari umumiy summasi buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida aniqlanadi. «Turon» OTAJ bo'yicha bu summa 29537 ming so'mni tashkil etgan va yil davomida 2390 ming so'mga ko'paydi (29537—27147). O'z (balans passivi, 1-bo'lim yakuni) va qarz (balans passivi, 2-bo'lim yakuni) mablag'lari xo'jalik mablag'lari manbalari bo'lishi mumkin. Tahlil qilinayotgan yil oxiriga kelib korxonaning o'z mablag'lari 21703 ming so'mni tashkil etdi hamda u yil davomida 1821 ming so'mga (21703 — 19882) ortdi. Buxgalteriya balansidan ko'rinib typibdiki, mablag'larni tashkil etish manbalarining asosiy qismini aynan o'z mablag'lari tashkil etdi. Bu korxonaning moliyaviy barqaror ekanligini bildiradi.

O'z mablag'lari tarkibidagi 13211 ming so'm ustav sarmoyasidir. Buning ulushi eng yuqori. Korxona rahbari buxgalteriya balansini tahlil qilganda, eng avvalo, ustav sarmoyasining o'tgan yilga nisbatan qancha o'zgarganligiga e'tibor qaratishi lozim. O'z mablag'lari summasi, odatda, uzoq muddatli aktivlar (balans aktivi, 1-bo'lim yakuni) va majburiyatlar (balans passivi, 2-bo'lim yakuni) summasidan ortiq bo'lishi darkor. O'z mablag'larning uzoq muddatli aktivlardan ortiq bo'lgan summasi majburiyatlarning bir qismini qoplashga yo'naltirilgan bo'ladi. «Turon» OTAJda yil oxirida o'z mablag'lari manbalari uzoq muddatli aktivlardan 8732 ming so'mga (21703—12971) hamda qarz majburiyatlaridan 13869 ming so'mga (21703—7834) ortiqdir. Agar o'z mablag'lari manbalari uzoq muddatli aktivlardan kam bo'lsa, bu oborot mablag'lari to'liq majburiyatlar hisobiga shakllanganligidan dalolat beradi hamda korxonaning to'lovga qodir emasligi va uning moliyaviy holati yomonligini ko'rsatadi.

Qarz mablag'larida kreditorlik qarzdorligiga e'tibor qaratish lozim. Misolimizda kreditorlik qarzdorlik hisobot davrida 2511 ming so'mni

tashkil etgan hamda 267 ming so'mga ko'paygan (2511—2244). Qarz mablag'lari («Turon» OTAJning tahlil davri yil oxiridagi majburiyatlari) 7834 ming so'm (balans passivi, 2-bo'lim yakuni) bo'lgan va yil davomida 664 ming so'mga ortgan (7834—7170), biroq ular summasi o'z mablag'lari summasidan 13869 ming so'mga kamligicha qolgan (21703—7834). Bu oddiy hol bo'lib, manbalarda korxonaning o'z mablag'lari ustunlik qilishidan dalolat beradi. Agar qarz mablag'lari o'z mablag'lardan ko'p bo'lganida, qisqa muddatli qarzdorlik uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga sarflanganligi hamda oborot aktivlarini to'liq qoplashini aks ettirardi. Bunday vaziyat korxonaning to'lovga qobil emasligi va moliyaviy barqaror bo'lmaganligini ko'rsatadi.

«Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma» asosida muddati o'tgan kreditorlik qarzlar mavjudligi aniqlanadi. Korxona rahbari buning sabablarini aniqlashi zarur. Bundan tashqari, u buxgalteriya balansi aktivida:

- asosiy mablag'larning dastlabki qiymati va eskirishi;
- ishlab chiqarish zaxiralari, tugatilmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot summasi;
- oborot aktivlari summasi;
- debitorlik qarzdorligi va ayniqsa, uning muddati uzaytirilgan qismi miqdoridagi o'zgarishlarning ro'y berganligi kabi holatlarga diqqatini qaratishi kerak.

Balans aktivining «Uzoq muddatli aktivlar» bo'limida asosiy vositalar eng ko'p summani tashkil etadi. Balansda ularning dastlabki qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati ko'rsatiladi. Balansni ko'rib chiqayotganda, eskirish summasi va uning qoldiq qiymatiga e'tibor qaratish darkor. Eskirish summasining dastlabki qiymatga nisbati asosiy vositalar eskirishi darajasini, qoldiq qiymatning dastlabki qiymatga nisbati esa ular yaroqliligini aks ettiradi. Eskirish darajasining ortib ketishi korxona asosiy vositalari jismonan eskirganligini ko'rsatadi. Korxona mahsulot turlari va sifati bo'yicha raqobatbardoshli bo'lishi uchun ishlab chiqarish jihozlarini vaqti-vaqti bilan yangilab turish, yangi texnologiyalarni joriy qilishi kerak.

Misolimizda asosiy vositalar dastlabki qiymat bo'yicha hisobot yilida 1143 ming so'mga ko'paygan va 15247 ming so'mni tashkil

etgan. Biroq, qoldiq qiymati 674 ming so'mga ortgan. Bu asosiy vositalarning eskirish darajasi keskin ortib ketganligi oqibatidir. Eskirish koeffitsiyenti 0,36 ni tashkil etadi, ya'ni asosiy vositalarning 36 % ta'mirlanishi yoki yangilanishi lozim. Buxgalteriya balansini rahbar ko'rib chiqar ekan, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot mavjudligiga e'tibor berishi kerak. Bu mablag'lar guruhini «Zaxiralar va xarajatlar» yoki «Tovar-moddiy xarajatlar» (TMX) deb nomlash qabul qilingan. Ularning ko'payishi biror darajada oborot mablag'lari immobilizatsiyasi, ya'ni mablag'larni qiyin amalga oshiriladigan aktivlarga jalb qilinishiga olib keladi. Ishlab chiqarish zaxiralarining keskin ortib ketishi ehtiyojdan ortiq xomashyo xarid qilinishi yoki ishlab chiqarish hajmi kamayganligi oqibati bo'lishi mumkin. Tugallanmagan ishlab chiqarishning ko'payishi tayyorlanayotgan mahsulotning kamligiga, tayyor mahsulot ko'payib ketishi esa ularni sotishda qiyinchiliklarga olib kelish ehtimoli bor.

«Turon» OTAJning buxgalteriya balansida hisobot davrida zaxiralar va xarajatlar summasi 1111 ming so'mga (12631—11520) ortib ketdi hamda u 12631 ming so'mni tashkil etdi. Oborot mablag'lari ushbu guruhida yil davomida tayyor mahsulot eng ko'p — 2478 ming so'mga (4089—1611) ortgan. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotning katta qismi sifatsizligi va raqobatga bardosh bera olmasligi oqibatida yaxshi sotilmayotganligi bilan izohlanadi.

Buxgalteriya balansini ko'rib chiqishda debitorlik qarzdorligi o'zgarishiga ham alohida ahamiyat berish lozim. Chunki bu eng muhim masalalardan biridir. Debitorlik qarzdorligining katta summada shakllanishi korxona mablag'larining immobilizatsiyasi, oborotdan chiqib ketishiga olib keladi. 2-a shakli asosida aniqlanadigan muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi, ayniqsa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

«Turon» OTAJda hisobot yili oxiridagi debitorlik qarzdorligi 3631 ming so'mni tashkil etdi hamda yil davomida u 1382 ming so'mga (3631— 2249) ko'paydi. Muddati uzaytirilgan qarzdorlik esa 2382 ming so'm bo'lib, u yil davomida 532 ming so'mga (2382 — 1850) ortgan. Korxona rahbari bunday holat sabablarini aniqlashi va tegishli joylarda buni tushuntirib berishga tayyor bo'lishi lozim.

Shu tariqa rahbar buxgalteriya balansini ko'rib chiqayotganida korxonaning quyidagilarni tavsiflovchi manbalari va mablag'lari mavjudligini nazarda tutishi darkor:

• xo'jalik faoliyatini yaxshilash (umumiy sarmoyaning o'sishi; o'z mablag'lari manbalari; oborot mablag'lari summasi va ulushi ortganligi; debitorlik va kreditorlik qarzlari kamayganligi);

• korxona moliyaviy holati yomonlashganligi (xo'jalik mablag'lari umumiy summasida majburiyatlar ulushi o'sganligi; debitorlik va kreditorlik qarzlari, ayniqsa, muddati o'tgan qismining ko'payganligi; zaxiralar va xarajatlarda mablag'lar summasi va ulushi, asosiy vositalar eskirishi darajasi ortganligi).

Korxonaning moliyaviy holati haqida yanada to'liq ma'lumotlar olish uchun ularning to'liq tahlilini o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu ish iqtisodchi yoki bosh buxgalterga topshirilishi mumkin. Tahlil materiallari rahbarning boshqaruv qarorlari qabul qilishi uchun oson tuzilishi lozim.

Korxonaning moliyaviy holatini baholash mulkiy holati, likvidliligi, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi. Ish faolligi moliyaviy holatga katta ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy holat o'z navbatida korxonaning bozor faolligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tahlilning dastlabki baholash holatida shu masalalarga ham alohida e'tiborni qaratish lozim. Korxona moliyaviy holatini buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan dastlabki baholash hisobot davri oxiridagi balans moddalarini yil boshidagi ma'lumotlar bilan taqqoslash va farqlarni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Balansning muayyan moddalari bo'yicha o'zgarishlar korxona xo'jalik faoliyati natijasida sodir bo'lishi mumkin.

## 4.3. Moliyaviy holatni to'liq baholash

Balans umumiy summasi korxonaning muayyan bo'lim va moddalarda taqsimlangan barcha mablag'larini aks ettiradi. Balans alohida moddalari va bo'limlari summalarining umumiy yakunga nisbati ularning balans summasidagi ulushini tashkil qiladi. Moddalarning muayyan sanadagi ulushlari balansning tarkibiy tuzilmasi deyiladi. U korxona xo'jalik faoliyati tuzilishi hamda amalga oshirilgan ishlarga bog'liq bo'ladi. Savdoda balans aktivida tovar

zaxiralari, sanoatda esa asosiy vositalar, ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlar muhim o'rin tutishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida olinadigan kreditlar uchun foizlar yuqori bo'lganligi sababli, balans passividagi manbalarda o'z mablag'lari ustunlik qilishi kerak. Balansni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi, xo'jalik faoliyati natijasida mablag'lar tarkibi va ular manbalarida ro'y bergan o'zgarishlar o'rganiladi, mablag'lar qanchalik to'g'ri joylashtirilganligi izohlanadi va korxona moliyaviy holati oldindan baholanadi. Xususan, balans tuzilmasi tahlil qilinayotganda oborotdan tashqari (uzoq muddatli) va oborot aktivlari, o'z va jalb qilingan mablag'lar manbalari o'rtasidagi nisbat aniqlanadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning o'zgarganligi, uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit hamda qarzlardan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqiladi, bu o'zgarishlarga baho beriladi (4.1-jadval).

«Turon» OTAJ micolida buxgalteriya balansi tuzilmasidan kelib chiqib, yuqorida ta'kidlanganidek xo'jalik mablag'lari yil mobaynida 2390 ming so'mga ortdi hamda 29537 ming so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida mablag'lar manbalari (balans passivi) va ularni joylashtirishda (balans aktivi) o'zgarishlar ro'y berdi. Mablag'lar manbalarida o'z mablag'lari ustunlik qilmoqda. Ular xo'jalik mablag'lari umumiy summasining 73,5 %ini tashkil etadi va yil mobaynida 0,3 %ga ortganligini ko'rsatadi. Majburiyatlar, ya'ni qarz va kreditlar ko'rinishida olingan mablag'lar ulushi 26,5 % bo'lib, yil mobaynida 0,3 %ga kamaydi.

O'z mablag'lari manbalari ustunlik qilgan tuzilma maqbul bo'lib, u korxonaning moliyaviy barqarorligini ko'rsatadi. Bundan keyin jalb qilingan mablag'lar tuzilmasi va ayniqsa, kreditorlik qarzdorligiga e'tibor qaratish lozim. Hisobot davri oxirida butun qarzdorlik qisqa muddatli hisoblanadi. Uning asosiy qismini byudjetga qarzdorlik tashkil etadi — barcha xo'jalik mablag'lari 9,1 %, mahsulot yetkazib beruvchilarga qarzdorlik — 8,5 %, buyurtmachilar va xaridorlardan olingan bo'naklar — 5,8 % bo'ldi. Shu tariqa, tovarlar, xomashyo va materiallar uchun qarzdorlik 14,3 % (5,8 + 8,5) bo'lib, u yil mobaynida 1,4 %ga ortdi (14,3−12,9).

«Turon» OTAJ bo'yicha mablag'lar manbalari (balans aktivi) yil boshida uzoq muddatli aktivlarda — 43,9 %, oborot aktivlarida —

*4.1-jadval*

**«Turon» OTAJning hisobot yilidagi qisqartirilgan buxgalteriya balansi**

(summasi — ming so'm, ulushi — %)

| AKTIV | Yil boshida | | Yil oxirida | | PASSIV | Yil boshida | | Yil oxirida | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. Uzoq muddatli aktivlar | summasi | ulushi | summasi | ulushi | 1. O'z mablag'lari manbalari | summasi | ulushi | summasi | ulushi |
| Asosiy vositalar: birlamchi qiymati bo'yicha | 14104 | 51,95 | 15247 | 51,62 | Ustav sarmoyasi | 13211 | 48,66 | 13211 | 44,73 |
| eskirish | 5039 | 18,56 | 5508 | 18,65 | Qo'shilgan sarmoya | — | — | 129 | 0,44 |
| qoldiq qiymati bo'yicha | 9065 | 33,39 | 9739 | 32,97 | Zaxira sarmoyasi | 5015 | 18,47 | 4356 | 14,75 |
| Kapital qo'yilmalar | 3923 | 14,45 | 3175 | 10,75 | Taqsimlanmagan foyda | 1362 | 5,02 | 3459 | 11,71 |
| Uzoq muddatli investitsiya | 39 | 0,14 | 57 | 0,19 | Maqsadli tushumlar va fondlar | 294 | 1,08 | 74 | 0,25 |
| | | | | | Kelajak davr chiqimlari | — | — | 474 | 1,60 |
| Jami bo'lim bo'yicha | 13027 | 47,99 | 12971 | 43,91 | Jami bo'lim bo'yicha | 19882 | 73,24 | 21703 | 73,48 |
| 2. Oborot aktivlari | | | | | 2. Majburiyatlar | | | | |
| Ishlab chiqarish zaxiralari | 8925 | 32,88 | 7588 | 25,69 | Uzoq muddatli qarzlar | 95 | 0,35 | — | — |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | 909 | 3,35 | 966 | 3,27 | Qisqa muddatli qarzlar | — | — | 97 | 0,33 |
| Tayyor mahsulot | 1611 | 5,93 | 4089 | 13,84 | Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar | 1241 | 4,57 | 1723 | 4,31 |
| Qayta sotish uchun tovarlar | 75 | 0,28 | 8 | 0,03 | | | | | |
| Pul mablag'lari | 42 | 0,15 | 151 | 0,51 | | | | | |
| Valuta mablag'lari | 309 | 1,14 | 140 | 0,47 | | | | | |
| Kassadagi pul mablag'lari | — | — | 13 | 0,04 | | | | | |
| Debitor | 1224 | 4,51 | 2123 | 7,19 | Kreditorlar | 2244 | 8,27 | 2511 | 8,50 |
| Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar | 51 | 0,19 | 42 | 0,14 | Yetkazib beruvchilar: budjet bo'yicha | 3342 | 12,31 | 2685 | 9,09 |
| Budjet bilan hisob-kitoblar | — | — | 1 | 0,003 | qarzdorlik | 124 | 0,46 | 160 | 0,54 |
| Xodimlar bilan hisob-kitoblar | 947 | 3,49 | 1465 | 4,96 | ish haqi bo'yicha qarzdorlik | 78 | 0,29 | 60 | 0,20 |
| Boshqa debitorlar | — | — | — | — | ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzdorlik | 141 | 0,52 | 598 | 2,02 |
| | | | | | boshqa kreditorlar | — | — | — | — |
| Jami bo'lim bo'yicha | 14120 | 52,01 | 16566 | 56,09 | Jami bo'lim bo'yicha | 7265 | 26,74 | 7834 | 26,52 |
| Jami aktivlar bo'yicha | 27147 | 100,0 | 29537 | 100,0 | Jami passiv bo'yicha | 27147 | 100,0 | 29537 | 100,0 |

56,1 % tarzida joylashtirilgan. Hisobot davri uchun oborot aktivlarida bo'lgan mablag'lar ulushi 4,1 %ga (56,1 – 52,0) ortgan.

Balans tuzilmasini tahlil qilishda oborot aktivlari tuzilmasi maxsus ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularda debitorlik qarzdorligi xo'jalik mablag'larida eng yuqori ulushga ega bo'ladi. U 12,3 % bo'lib, yil mobaynida 4,0 %ga (12,3 – 8,3) ko'paydi. Pul mablag'lari solishtirma og'irligi pasaygani holda tovar-moddiy zaxiralari ulushi ham 0,3 %ga ortdi. Balans aktivida oborot mablag'lari ulushi ortgan bo'lsa-da, bu qiyin sotiladigan aktivlar hisobiga amalga ortdi. Bu esa korxona likvidliligi (to'lovga qobilligi)ga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'z va qarz mablag'larining ko'payishi, asosan, tayyor mahsulot qoldiqlari (2478 ming so'm) hamda debitorlik qarzdorligini (1382 ming so'm) qoplashga sarflandi. Korxona moliyaviy holatini baholashda mablag'lar summasi va ular turlari bo'yicha manbalari mulkiy holati tahlil qilinishi shart. Ularga quyidagilar kiradi:

• **Sarmoyaning umumiy hajmi (Sar.)** – korxona ixtiyoridagi xo'jalik mablag'lari summasi. U buxgalteriya balans-netto yakuniga tengdir:

$$Sar. = 1\text{-}shakl,\ 310\ yoki\ 550\text{-}satr.$$

• **O'z mablag'lari (sarmoyasi) (O'S)** – korxonaning muayyan sanadagi o'z mablag'lari, ular balans passivi, 1-bo'limi yakuni bo'yicha aniqlanadi:

$$O'S = 1P.$$

• **Oborotdagi o'z mablag'lar (OO'M)** — oborotda bo'lgan o'z mablag'lari hajmi. Ular o'z sarmoyasiga (O'S) uzoq muddatli majburiyatlarni (UM) qo'shish hamda asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar (balans aktivi, 1-bo'lim) summasini (IA) ayirish orqali aniqlanadi:

$$OO'M = O'S + UM - IA.$$

Bu ko'rsatkichni mobil (joriy) aktivlar (JA) va joriy majburiyatlar (JM) orasidagi farq sifatida ham aniqlash mumkin:

$$OO'M = JA - JM = 2A - (2P - UM).$$

• **Harakatdagi mablag'lar (sarmoya) (HS)** — oborotda muntazam qatnashadigan o'z oborot mablag'lari hajmi. O'z oborot mablag'lari, shuningdek, muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorlikda ham bo'ladi, u oborotda uzoq vaqt ishtirok etmay, u immobillashgan (ya'ni, boshqa narsaga jalb etilgan) bo'ladi. Shuning uchun HSni aniqlash uchun OO'Mdan «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumot» shaklida aks etgan muddati o'tgan debitorlik qarzdorligini (MO'DQ) chegirib tashlash kerak:

$$HS = OO'M - MO'DQ.$$

• **Jalb qilingan mablag'lar (sarmoya) (JS)** — uzoq muddatli (UM) va joriy majburiyatlar (JM) yig'indisidir, u korxonaning hozirgi paytdagi qarzlari miqdorini ko'rsatadi va u balans passivi, 2-bo'limi yakuniga tengdir (2P):

$$JS = UM + JM = 2P.$$

• **Joriy aktivlar (JA)** («Mobil aktivlar», «Oborot mablag'lari» deb ham ataladi) — zaxira, xarajat, pul mablag'lari hamda debitorlik qarzdorligida bo'lgan mablag'larni aks ettiradi, ya'ni u balans aktivi, 2-bo'limi yakuniga tengdir:

$$JA = 2A.$$

Ularni asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlardan farqli ravishda qarzdorlar bilan hisob-kitob qilish uchun tez qaytarib olish mumkin bo'lganligi sababli mobil aktiv deyiladi.

• **Joriy yoki qisqa muddatli majburiyatlar (JM)** — yil mobaynida to'lanishi zarur bo'lgan qarzdorlik. Unga qisqa muddatli qarzlar, kreditlar, olingan bo'naklar kiritiladi. Bu summani aniqlash uchun balans passivi, 2-bo'limi yakunidan (2P) uzoq muddatli majburiyatlarni (UM) chegirib tashlash kerak. Uning formulasi:

$$JM = 2P - UM.$$

• **Uzoq muddatli aktivlar (UMA)** (ularni «Immobillashgan aktivlar» deb nomlash qabul qilingan) — asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar yig'indisi bo'lib, ular oborot mablag'lari (mobil aktivlar)dan farqli ravishda sekinroq aylanadi va balans aktivi, 1-bo'limi yakuni bo'yicha aniqlanadi. Uning formulasi quyidagichadir:

$$UMA = 1A.$$

• **Uzoq muddatli majburiyatlar (UM)** — bu uzoq vaqt foydalanishga mo'ljallab olingan kredit va qarzlar. Ular balans passivi, 2-bo'limida ko'rsatiladi (400 va 410-satrlar):

$$UM = 1\text{-}shakl,\ 400\text{-}satr + 410\text{-}satr.$$

• **Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari (IZX)** — ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarida bo'lgan oborot mablag'lari. Tez likvidli aktivlardan farqli ravishda ular ko'proq muomalada bo'ladi va joriy majburiyatlarni qoplash uchun darhol qaytarib olinmaydi:

$$IZX = Ishl.zax. + Tugat.\ Ishl. + Tay.mah. + Tovar + Bo'lajak\ davr\ xar.$$

• **Tez likvidli aktivlar (TLA)** — yaqin vaqt ichida qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lardir. Ularga pul mablag'lari va debitorlik qarzdorligi hamda muddati o'tgan qarzdorlik ayirmasi kiritiladi:

$$TLA = Pul\ mab. + (DQ - MO'Q).$$

Korxona mulkiy holati ko'rsatkichlari asosida uning sifat o'zgarishlari, xo'jalik mablag'lari tuzilmasi hamda ular manbalari haqida xulosa chiqarish mumkin. Balans aktivi asosida OTAJ mulkiy holatini tahlil qilishda mazkur izohlovchi ko'rsatkichlar hisob-kitob qilingan. Ularning yil mobaynidagi va qator yillar ichidagi o'zgarishlari aniqlangan (4.2-jadval).

*4.2-jadval*

**«Turon» OTAJning mol-mulki holatini hisobot davrida baholash**

(summasi — *ming so'm*, *salmog'i* — %)

| Ko'rsatkichlar | Yil boshida | | Yil oxirida | | Farqi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | summa | salmog'i | summa | salmog'i | summa | salmog'i |
| O'z sarmoyasi (O'S) | 19882 | 73,2 | 21703 | 73,5 | + 1821 | + 0,3 |
| Jalb qilingan sarmoya (JS) | 7365 | 26,8 | 7834 | 26,5 | + 569 | − 0,3 |
| Joriy (mobil) aktivlar (JA) | 14120 | 52,0 | 16566 | 56,1 | + 2446 | + 4,1 |
| Joriy majburiyatlar (JM) | 7170 | 26,4 | 7834 | 26,5 | + 664 | 0,1 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Uzoq muddatli majburiyatlar (UM) | 95 | 0,3 | – | – | – 95 | – 0,3 |
| Uzoq muddatli aktivlar (UMA) | 13027 | 48,0 | 12971 | 43,9 | – 56 | – 4,1 |
| Asosiy vositalar (AV) | 9065 | 33,4 | 9739 | 33,0 | + 674 | – 0,4 |
| Oborotdagi o'z mablag'lari (OO'M) | 6950 | 25,6 | 8732 | 29,6 | + 1782 | + 4,0 |
| Harakatdagi sarmoya (HS) | 5100 | 18,8 | 6452 | 21,8 | + 1352 | + 3,0 |
| Tez likvidli aktivlar (TLA) | 750 | 2,8 | 1553 | 5,3 | + 803 | +2,5 |
| Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari (IZX) | 11520 | 42,4 | 12631 | 42,8 | + 1111 | + 0,4 |
| Pul mablag'lari (Pul.mab.) | 351 | 1,3 | 304 | 1,0 | – 47 | – 0,3 |
| Debitorlik qarzdorligi (DQ) | 2249 | 8,3 | 3631 | 12,3 | + 1382 | + 4,0 |
| Shu jumladan, muddati o'tgan (MO'DQ) | 1850 | 6,8 | 2382 | 8,1 | + 532 | + 1,3 |
| Kreditorlik qarzdorligi (KQ) | 5929 | 21,8 | 6014 | 20,4 | + 85 | – 1,4 |
| Shu jumladan, muddati o'tgan (MO'KQ) | 2650 | 9,8 | 2534 | 8,6 | – 116 | 1,2 |
| Xo'jalik mablag'lari umumiy summasi (SAR) | 27147 | 100 | 29537 | 100 | + 2390 | – |

Jadval ma'lumotlari xo'jalik mablag'larining asosiy summasini o'z mablag'lari (73,5 %), shuningdek, joriy aktivlar (oborot mablag'lari) — 56,1 % tashkil etadi. Hisobot yili oxiridagi o'z oborot mablag'lari 8732 ming so'm yoki barcha xo'jalik mablag'larining 29,6 %ni tashkil etdi. Biroq harakatdagi sarmoya, ya'ni haqiqatdan ham oborotda qatnashadigan o'z oborot mablag'lari muddati o'tgan debitorlik qarzdorlik mavjudligi sababli 6452 ming so'mga teng yoki 21,8 %. Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarida bo'lgan mablag'lari katta ulushga ega (42,8 %), tez likvidli aktivlar esa xo'jalik aktivlarining atigi 5,3 %ga tengdir.

OTAJning mulkiy holatini qoniqarli deb topish mumkin. Xo'jalik mablag'larida o'z mablag'i manbalari (73,5 %) ustunlik qiladi. Joriy aktivlar joriy majburiyatlarni qariyb ikki barobar qoplaydi. Bu mablag'larni yaxshi aylantirish imkonini beradi. Joriy aktivlarda o'z oborot mablag'lari katta ulushga ega. Biroq, ularning katta qismi qiyin sotiladigan aktivlarga jalb qilingan (ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari — 12631 ming so'm yoki barcha xo'jalik mablag'larining

42,8 % va debitorlik qarzdorligi — 3631 ming so'm yoki 12,3 %). Bularning barchasi hamda muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi bo'yicha katta summaning mavjudligi xo'jalik mablag'lari tuzilmasi yomonlashganligi va ular moliyaviy holatga salbiy ta'sir ko'rsatganligidan dalolat beradi.

Tahlil qilingan tomonlardan tashqari xo'jalik mablag'lari tuzilmasi ko'p jihatdan korxonaning faoliyat sohasi, ishlab chiqarish hajmi va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Biroq mulkiy holatni ko'rib chiqish moliyaviy holatining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### 4.4. Korxonaning likvidliligi: mazmuni, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari

Likvidlilik korxonaning o'z joriy (aylanma) aktivlari hisobidan qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko'rsatadi. Mol-mulkni naqd pulga aylantirish hamda uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarini qoplashga sarflash mumkin bo'lganida balans aktivi (pullanadigan) bo'ladi. Bunda aktiv moddalarining xususiyati shundan iboratki, ular yo'q bo'lib ketmaydi, balki bir shakldan ikkinchisiga o'tadi. Masalan, tovar-moddiy boyliklarning ma'lum qismi sotiladi, deylik. Bu holda korxonadagi tovar-moddiy boyliklar kamayadi. Biroq hisob-kitob varag'i, kassa yoki valuta hisob raqamidagi pul mablag'lari shuncha summaga ko'payadi. Balans yakuni o'zgarmaydi. Chunki tovar-moddiy boyliklari ham, pul ham korxonaning mablag'lari bo'lib, uning balans aktivida turadi.

Balans passivi moddalari «so'ndiriladigan» bo'ladi, chunki ular qarz to'lanishi oqibatida «yo'q bo'lib ketish» qobiliyatiga ega. «Likvidlilik» passivda aks ettiriladigan majburiyatlarning aktiv mablag'lari hisobidan qoplanishidir. Masalan, soliqlar bo'yicha budjetga qarz uzilgan. Bu holda budjetga qarz to'langan va hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari kamaygan bo'ladi. Balans passivida ham, aktivida ham mablag'lar soliqqa to'langan summa miqdorida kamayadi. Yana bir misol: xaridorlarga oldinroq to'langan bo'nak evaziga tayyor mahsulot berildi. Xaridorlarning bo'naklari hisobidan qarzdorlik «tugatiladi» va tayyor mahsulot summasi ham kamayadi.

Korxona bankrot bo'lganida, shuningdek, korxonaning mablag'lari kreditorlar bilan hisob-kitob qilish uchun yetarliligini, ya'ni u qarzini mavjud mablag'lari hisobidan yo'qotishga (to'lashga) qodirligini, unda qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish uchun nazariy jihatdan yetarli miqdorda aylanma mablag'lar mavjudligini aniqlash zarur bo'lgan vaziyatlarda balansning likvidligi masalalari, ayniqsa, jiddiy bo'lib qoladi. Korxona rahbari buxgalteriya balansi bilan tanishib chiqib, passivning 2-bo'limi summalarini aktivning 2-bo'limi summalari bilan taqqoslash orqali likvidlilik darajasini aniqlashi mumkin. Agar aylanma aktivlar summasi majburiyatlar summasidan ortiq bo'lsa, korxona, asosan, o'z kreditorlari bilan hisob-kitob qilish imkoniga ega bo'ladi. Lekin korxona buxgalteriya balansi haqiqatan ham likvidligi, ya'ni to'lovga qobiliyatli deb hisoblanishi uchun joriy aktivlar majburiyatlardan ancha (ikki baravardan ortiqroq) ko'p bo'lishi kerak.

Joriy majburiyatlarni bajarish uchun likvidliligi aylanish tezligiga, ya'ni naqd pulga aylanish tezligiga bog'liq bo'lgan turli aktivlardan foydalanish mumkin. Korxona aktivlari likvidlilik darajasiga qarab, quyidagi guruhlarga bo'linadi:

**Likvidliligi eng kuchli aktivlar.** Ular jumlasiga barcha pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy mablag'lar, ya'ni qimmatli qog'ozlar kiradi. Buxgalteriya balansi aktivining 2-bo'limi, 170—200-satrlar).

**Tez sotiladigan aktivlar.** Ular muddati o'tkazib yuborilgan qismdan tashqari debitorlik qarzlari va boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi (1-shakl aktivining 2-bo'limi, 220 dan 290 gacha bo'lgan satrlar minus 2a-shakl, 7-ustunning yakuni).

**Sekin sotiladigan aktivlar.** Bunga balans aktivi, 2-bo'limining «Zaxiralar va chiqimlar», «Bo'lajak davr xarajatlari», shuningdek, balans aktivi, 1-bo'limidan «Uzoq muddatli investitsiyalar» moddalari kiradi (1-shakl aktivining 2-bo'limi, 120 dan 160 gacha bo'lgan satrlar, aktivning 1-bo'limi, 40 dan 100 gacha bo'lgan satrlar).

**Qiyin sotiladigan aktivlar.** Bular asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan sarmoya mablag'lar, uskuna va qurilmalar, muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlaridir (1-shakl aktivning 1-bo'limi, 12, 22, 30-satrlar plyus 2a-shakl, 7-ustunning yakuni).

Moliyani boshqarish san'ati hisob-kitob schyotlarda minimal miqdorda mablag' saqlab, ularning qolganini tez sotiladigan aktivlarda saqlashdan iboratdir. Hisob-kitob schyotidagi summa qancha katta bo'lsa, to'lovlar va majburiyatlar yuzasidan mavjud mablag'lar bilan hisob-kitob qilish imkoniyati shuncha ko'p bo'ladi. Biroq, pul mablag'lari zaxirada va xarajatda, ya'ni aylanishda bo'lsa, ularni naqd pulga aylantirish ancha murakkab bo'ladi.

Kreditorlar kredit berishdan oldin qay darajada xatarga yo'l qo'yayotganlarini aniqlaydilar. Buning uchun korxonaning kreditni qaytarish qobiliyatini tahlil qiladilar, ya'ni tegishli ko'rsatkichlar yordamida uning likvidligini va to'lov qobiliyatini bilib oladilar. Balansning muayyan moddalari o'rtasidagi nisbatni aks ettiradigan korxona likvidligini ifoda etadigan koeffitsiyentlar va moliyaviy hisobotning boshqa turlaridan iborat butun boshli ko'rsatkichlar tizimi mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

**Qoplash koeffitsiyenti (Qk).** Bu koeffitsiyent korxonaning likvidliligiga baho beradi, joriy majburiyatlar aylanma mablag'lar bilan qay darajada ta'minlanishini (boshqacha aytganda, aylanma aktivlarga solingan moliyaviy resurslarning qancha so'mi joriy majburiyatlarning bir so'miga to'g'ri kelishini) ko'rsatadi va joriy aktivlar summasini (JA) (balans aktivi, 2-bo'limining yakuni) joriy majburiyatlarga (JM) quyidagi formula bo'yicha taqsimlash yo'li bilan hisoblab chiqiladi:

$$Qk = \frac{JA}{JM} \text{ yoki } \frac{\text{1 - shakl, 300 - satr}}{\text{1 - shakl, 540} - (400 + 410)\text{-satr}}.$$

Odatda, bu ko'rsatkichning o'sishi ijobiy baholanadi. Amaliy tajriba nuqtai nazaridan, bu ko'rsatkich 2.0 va undan ko'proqni tashkil etsa, me'yorda deb hisoblanadi. Lekin uning ko'p o'sishi ham ma'qul emas. Chunki bu hol ishlab chiqarish zaxiralariga solingan mablag'lar aylanishi sekinlashganligi va debitorlik qarzlari asossiz o'sib ketganligidan darak beradi.

**Tez likvidlilik koeffitsiyenti (Tl. koef.)** pul mablag'lari (PM), hisob-kitoblar va boshqa aktivlarning joriy majburiyatlaridagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi:

$$Tl.koef. = \frac{PM + DQ + MO'DQ}{JM} \text{ yoki}$$

$$\frac{1\text{ - shakl, } (170 + \ldots + 200) + (220 + \ldots - 290) \text{ - satr, } - 2 \text{ - shakl, } 7\text{- satr yakuni}}{1\text{ - shakl, } 540 - (400 + 410) \text{ - satr}},$$

bunda, *DQ* — debitorlik qarzlari; *MO'DQ* — muddati o'tgan debitorlik qarzlari.

Tez likvidlilik koeffitsiyenti korxonaning joriy majburiyatlarni tez sotiladigan aktivlar hisobidan bajara olishini belgilaydi va qoplanish koeffitsiyentini to'ldiradi. Tez likvidlilikning yuqori koeffitsiyenti moliyaviy xatar kamligi va chetdan qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb etish uchun yaxshi istiqbollar mavjudligidan darak beradi. Agar bu ko'rsatkich 1,0 dan ortiq bo'lsa, ya'ni tez likvidlik aktivlar joriy majburiyatlar summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, normal hisoblanadi. Kredit berish chog'ida banklar va boshqa kredit muassasalarini ana shu ko'rsatkich qiziqtiradi.

**Absolut likvidlilik koeffitsiyenti (Abs. Lik.K.)** joriy majburiyatlardagi pul mablag'larining ulushini ko'rsatadi va u pul mablag'larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi. Pul mablag'lari — kassada, hisob-kitob schyotida, valuta hisob schyotida va boshqalarda mavjud bo'lgan puldir. U quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$Abs.\ Lik.\ K. = \frac{PM}{JM} \text{ yoki } \frac{1\text{ - shakl } 170 + 180 + 190 \text{ - satr}}{540 - (400 + 410) \text{ - satr}}.$$

Absolut likvidlilik koeffitsiyenti asosida muayyan paytda majburiyatlarni qoplash uchun pul mablag'lari mavjudligini aniqlash mumkin. Bu koeffitsiyent, eng avvalo, korxonaga yetkazib beruvchilarni qiziqtiradi. Ushbu koeffitsiyent qancha yuqori bo'lsa, korxonaning eng zarur majburiyatlar bo'yicha (soliqlar, ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash bo'yicha) hisob-kitob qilish imkoniyatlari shuncha ko'p bo'ladi. Mazkur koeffitsiyent 0,2 va undan yuqori bo'lganda normal hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan koeffitsiyentlar asosiy hisoblanadi hamda shularga tayangan holda korxonaning likvidliligi, to'lov qobiliyati va kreditdan qutilish

qobiliyati haqida ishonchli xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Biroq, korxonaning bu boradagi haqiqiy ahvolini yanada puxta o'rganish uchun yana bir qator ko'rsatkichlarni hisoblash tavsiya etiladi.

**Ishlatiladigan sarmoyaning o'zgaruvchanligi yoki o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (O'K):** zaxiralar va sarmoyaga, ya'ni muddati kechiktirilgan debitorlik qarzlarini chegirib tashlagandan keyin qolgan o'z aylanma mablag'lariga nisbati sifatida belgilanadi va u quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$O'K = \frac{Zax.xar}{O'MAyl.m} \text{ yoki } \frac{1\text{-}shakl,\ 120 + \ldots + 150\text{-}satr}{1\text{-}shakl,\ 390 + 400 - 110 - 2a\text{ - }shakl,\ 7\text{-}ustun},$$

bunda, *Zax.xar* — zaxiralar va xarajatlar; *O'MAyl.m* — o'z mablag'lari va uzoq muddatli passivlarning aylanma mablag'lardagi summasi.

Ushbu ko'rsatkich korxonaning erkin harakatlantirish imkonini bermaydigan shakldagi o'z sarmoyasining ulushini anglatadi. Chunki joriy qarzlardan uzilish uchun zaxiralar va xarajatlarni muomalaga kiritish, muddati o'tgan debitorlik qarzlarini qaytarish kerak bo'ladi.

Ishlatilayotgan sarmoya harakatchanligining yuqori koeffitsiyenti bankrotlik xavfi borligidan dalolat beradi. Bu koeffitsiyent 0,5 dan ortiq bo'lmasligi, ya'ni zaxira va xarajatlar summasi o'z aylanma mablag'lari jami summasining 50 %dan ortiq bo'lmasligi normal hisoblanadi.

**Umumiy sarmoyaning o'zgaruvchanligi (SO')** joriy aktivlarning (JA), ya'ni aylanma mablag'larning xo'jalik mablag'lari summasiga (sarmoya) nisbati sifatida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$SO' = \frac{JA}{Sarmoya}.$$

U harakatchanroq immobilizatsiyalangan (harakatsiz) aktivlardan farqli ravishda tez pul mablag'lariga aylantirish mumkin bo'lgan xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, korxonaning likvidlilik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich 0,6

dan yuqori bo'lganida, ya'ni aylanma mablag'lar xo'jalik mablag'lari umumiy summasida 60 %dan ko'proqni tashkil etganida normal hisoblanadi. Korxonaning likvidliligini baholash uchun buxgalteriya balansi asosida tahlil qilinayotgan yil boshi va oxiridagi bu koeffitsiyentlarni hisoblab chiqarish, yil davomida ularning o'zgarishini belgilash hamda tarkib topgan me'yorlar bilan taqqoslash zarur (4.3-jadval).

*4.3-jadval*

**«Turon» OTAJning hisobot yilidagi balansi likvidliligini baholash**

| Ko'rsatkichlar | Hisobot yili | | Me'yor bo'yicha | Yil boshidagiga nisbatan farqlanishi | Me'yorga nisbatan farqlanishi |
|---|---|---|---|---|---|
| | yil *boshida* | yil *oxirida* | | | |
| Qoplanish koeffitsiyenti | 1,90 | 2,10 | >2,00 | +0,20 | +0,10 |
| Tez likvidlilik koeffitsiyenti | 0,10 | 0,20 | >1,00 | +0,10 | – 0,80 |
| Absolut likvidlilik koeffitsiyenti | 0,50 | 0,40 | >0,20 | –0,01 | – 0,16 |
| Amal qiluvchi sarmoyaning o'zgarishi | 2,30 | 2,00 | ko'pi bilan *0,50* | –0,3 | +1,5 |
| Umumiy sarmoyaning o'zgarishi | 0,52 | 0,56 | >0,60 | +0,04 | – 0,04 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qoplash koeffitsiyenti, ya'ni aylanma mablag'larning joriy majburiyatlar summasiga nisbatan hisobot davrida 1,90 dan 2,10 ga qadar o'zgarganligini ko'rsatadi, bu esa me'yor darajasidadir. Aylanma aktivlar joriy aktivlardan 2 baravardan ortiqdir. Korxona oddiy sharoitlarda ishlaganda aylanma mablag'lar bilan joriy qarzlarning bunday nisbati me'yor darajasida deb hisoblanadi. Biroq, korxonaning katta mablag'lari immobilizatsiya qilinganligi, ya'ni tovar zaxiralari va xarajatlarda, shuningdek, muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarida turganligi munosabati bilan korxonaning yil oxiridagi balansi nolikvid deb hisoblanadi. Tez va absolut likvidlilik koeffitsiyentlari shundan darak beradi. Bu koeffitsiyentlar hisobot davrida yaxshilanmagan va u belgilangan

me'yorlardan ancha past bo'lib qolavergan. Ishlatilayotgan va umumiy sarmoyaning o'zgaruvchanlik koeffitsiyentlari ham hisobot davrida yomonlashib, me'yordan past darajada bo'ldi. Shunday qilib, korxona hisobot davrida qisqa muddatli qarzlarni o'z mablag'lari bilan to'lashga qodir emas.

**To'lov qobiliyati** xo'jalik yurituvchi subyektda belgilangan muddatlarda to'lashni talab qiluvchi kreditorlik qarzlari yuzasidan hisob-kitob qilish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari borligini anglatadi.

To'lov qobiliyatining asosiy belgilari quyidagilardir:

- kreditorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitob qilish uchun yetarli darajada pul hajmlari borligi;
- muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining yo'qligi.

Bu yerda likvidlilik bilan to'lov qobiliyati bir-biridan farq qiladi. Likvidlilik qarzlarni to'lash uchun mablag'lar mavjudligini ko'rsatsa, to'lov qobiliyati — qarzni uzish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Hisob-kitoblar likvidlilik yaxshi darajada ekanligini, moliyaviy ahvol ijobiy ekanligini ko'rsatishi mumkin. Aslida esa, korxona joriy aktivlardagi katta mablag'larini qarz to'lashga yo'naltira olmasligi mumkin. Bu tovar zaxiralariga talab yo'qligi, tayyor mahsulotni sotish qiyinligi, debitorlar to'lovga qobiliyatli emasligi, muddati o'tgan debitorlik qarzlari summasi kattaligi tufayli mazkur korxona to'lovga qobiliyatsiz bo'lib chiqishi mumkin. Shu sababli, korxonaning moliyaviy ahvoli tahlil qilinganda, uning likvidlilik darajasidan tashqari to'lovga qobiliyatliligi, ya'ni muayyan paytda qisqa muddatli qarzlarni uzish imkoniyatini aniqlash ham zarur.

Balansning to'lovga qobiliyatliligini tahlil qilgan vaqtda likvidlilik darajasiga qarab, guruhlarga birlashtirilgan aktiv mablag'lar to'lov muddatlari bo'yicha guruhlarga ajratilgan passiv majburiyatlari bilan taqqoslanadi. Shundan keyin korxonaning to'lov qobiliyati darajasini ko'rsatadigan koeffitsiyentlar hisoblab chiqiladi. Qarzni uzish darajasi jihatidan majburiyatlar: eng shoshilinch majburiyatlar, qisqa muddatli passivlar, uzoq muddatli passivlar va doimiy passivlarga bo'linadi.

**Eng shoshilinch majburiyatlar (EShM)** kreditorlik qarzlari (1-shakl, 2-bo'lim, 450–530-satrlar), shuningdek, muddatida to'lanmagan qarzlardir.

**Qisqa muddatli passivlar (QMP)** — qisqa muddatli kreditlar va qarzga olingan mablag'lar (balans passivining 2-bo'limi, 420, 430 va 440-satrlar).

**Uzoq muddatli passivlar (UMP)** — uzoq muddatli kreditlar va qarzga olingan mablag'lar (balans passivining 2-bo'limi, 400–410-satrlar).

**Doimiy passivlar** — balans passivi «O'z mablag'lari manbalari» birinchi bo'limining jami.

Xalqaro amaliyotda joriy majburiyatlarni bajarishning quyidagi nisbati nazarda tutilgan: to'lovga taqdim etilgan schyotlar, qisqa muddatli majburiyatlar, dividendlar, hisoblangan majburiyatlar (xarajatlar bilan bog'liq), olingan bo'naklar, kelajak davrlarning daromadlari (xizmat ko'rsatishdan oldin olingan pul mablag'lari, masalan, bo'nak to'langan ijara haqi, to'lovga qo'yilgan soliqlar, kafolat majburiyatlari, ishchi va xizmatchilarga qaytarilishi kerak bo'lgan qarzlar), muddati o'tkazilgan qarz majburiyatlari, to'lash muddati qayd etilmagan (talab qilib olinguncha) majburiyatlar.

Korxonaning to'lov qobiliyati eng shoshilinch majburiyatlarni to'lash qobiliyati, qisqa muddatli passivlar va uzoq muddatli passivlar koeffitsiyentlari yordamida baholanadi.

**Eng shoshilinch majburiyatlarning to'lov koeffitsiyenti (KE.sh.m.t.)** eng likvid aktivlarning (El.a) eng shoshilinch majburiyatlar (ShM) summasiga nisbati sifatida aniqlanadi va quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi:

$$KE.sh.m.t. = \frac{El.a}{ShM}.$$

**Qisqa muddatli passivlarning to'lov koeffitsiyenti (QMPK)** tez sotiladigan aktivlarning (TSA) qisqa muddatli passivlar (QMP) summasiga nisbati sifatida aniqlaniladi va quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$QMPK = \frac{TSA}{QMP}.$$

**Uzoq muddatli passivlarning to'lov koeffitsiyenti (UMPK)** sekin sotiladigan aktivlar (SSA)ning uzoq muddatli passivlar (UMP) summasiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$UMPK = \frac{SSA}{UMP}.$$

Balansning to'lovga qobiliyatliligi tahlil qilinganda yuqorida ko'rsatilgan guruhlar bo'yicha mablag'lar va qarzlarni aniqlash, uziladigan qarzlar darajasini hisoblash hamda ular yuzasidan xulosalar chiqarish kerak bo'ladi. Buning uchun 4.4-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Jadval ma'lumotlari korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi, ya'ni uning qisqa muddatli majburiyatlari yaqin orada qaytarilmasligini ko'rsatadi. Eng likvidli mablag'lar hamda tez sotiladigan aktivlarni eng shoshilinch majburiyatlar va qisqa muddatli passivlar bilan taqqoslab, «Turon» OTAJning yaqin vaqt ichidagi joriy to'lovga qobiliyatini aniqlaymiz. OTAJda hammadan tez sotiladigan aktivlar eng shoshilinch majburiyatlar va qisqa muddatli passivlar bo'yicha hisob-kitob qilish uchun yetarli emas.

*4.4-jadval*

**«Turon» OTAJning hisobot yilidagi balansi likvidliligini baholash**

(ming so'm)

| Pul mablag'larini aniqlash darajasi ko'rsatkichlari | Yil boshida | Yil oxirida | Qarzni uzishning shoshilinchlik darajasi | Yil boshida | Yil oxirida | Ortiqcha to'lash yoki kamayish darajasi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | Yil boshida | | Yil oxirida | |
| | | | | | | summa | darajasi | summa | darajasi |
| Eng likvid aktivlar | 351 | 304 | Eng shoshilinch majburiyatlar | 5929 | 6140 | −5578 | 5,9 | −5710 | 5,1 |
| Tez sotiladigan aktivlar | 399 | 1249 | Qisqa muddatli passivlar | 1241 | 1820 | −842 | 32,2 | −474 | 72,5 |
| Sekin sotiladigan aktivlar | 11559 | 12688 | Uzoq muddatli passivlar | 95 | – | 11464 | – | 12688 | – |
| Qiyin sotiladigan aktivlar | 14838 | 15296 | Doimiy passivlar | 19882 | 21708 | −5044 | 74,7 | −6407 | 70,5 |

Sekin sotiladigan aktivlarni uzoq muddatli passivlar bilan taqqoslash kelajakda likvidlilik mavjud bo'lishi, ya'ni kelajakdagi tushumlar va to'lovlar asosida to'lov qobiliyati taxmin qilinishini ko'rsatadi. Lekin bu to'lovlar to'liq bo'lmasligi mumkin. Sekin

sotiladigan va qiyin sotiladigan aktivlardan, odatda, korxona bankrot bo'lganida qarzlarni qoplash uchun foydalaniladi. Shunday qilib, «Turon» OTAJ yil oxiridagi buxgalteriya balansi ma'lumotlari bo'yicha umuman olganda likvid tashkilot, lekin to'lovga qobiliyatli emas. Korxona rahbari darhol uning moliyaviy ahvolini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rishi kerak.

Shu tariqa hisoblab chiqarilgan likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari korxonaning turli davrlardagi balanslarini, shuningdek, moliyaviy holatini baholash maqsadida turli korxonalarning balanslarini taqqoslash imkonini beradi. Likvidlilik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlardan past bo'lgan va yomonlashib borayotgan korxonalar bankrot deb topilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998-yil 28-avgustda qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, kreditorlarning pul mablag'lari bo'yicha talablarini to'liq hajmda qondirishga, shu jumladan soliqlar, yig'imlar, budjetga va budjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga qodir bo'lmagan korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi.

Korxonani bunday ahvolga olib bormaslik uchun uning likvidliligi va to'lov qobiliyati muntazam tahlil qilib borilishi hamda baholab turilishi kerak. Likvidlilik va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

- mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ko'paytirish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarini qisqartirish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish hamda ular yuzasidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;
- o'z majburiyatlari bo'yicha vaqtida hisob-kitob qilish hamda muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;
- joriy aktivlardagi o'z aylanma mablag'lari ulushini ko'paytirish;
- aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirish.

Likvidlilik va to'lov qobiliyati darajasi yaxshilanishi ko'p jihatdan korxonaning moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiy baquvvatligiga bog'liq bo'ladi.

# *5-bob.* KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATI TAHLILI

## 5.1. Iqtisodiy salohiyati tahlili

Mustaqillik davrida yangi iqtisodiy kategoriyalar, tushunchalar hayotimizga shu darajada tezlik bilan kirib kelmoqdaki, ularni idrok qilish, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, metodologik muammolarni hal qilishga ko'pincha ulgurish qiyin bo'lmoqda. Bunday yangi iqtisodiy tushunchalardan biri korxonaning iqtisodiy salohiyati tushunchasidir.

O'zbekistonda va boshqa hamdo'stlik mamlakatlarida chop etilayotgan adabiyotlarda korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda, asosan, uning tasarrufidagi aktivlarni o'rganish bilan cheklanib qolinmoqda[1]. Fikrimizcha, korxonaning iqtisodiy faoliyatini to'liq tahlil qilish nazariy va metodologik jihatdan yetarli emas. Chunki korxonaning iqtisodiy faoliyati bevosita unda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq.

Iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishida faqat korxonaning aktivlari emas, balki boshqa elementlari ham ishtirok etadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini olaylik. Uning sodir bo'lishi uchun, albatta, moddiy-texnik ta'minoti, ya'ni uskunalar, jihozlar, bino, xomashyo kabilar zarur. Ammo har qanday ilg'or texnika, yuqori sifatli xomashyo o'z-o'zidan iqtisodiy jarayonni sodir qilib, moddiy ne'mat ishlab chiqarmaydi. Unga, albatta, insonning aralashuvi, ya'ni jonli mehnatning mushtarakligi va ishtiroki zarur.

---

[1] I.T. Abdukarimov. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999; I.O. Voljin, V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1998; N. Hasanov, S. Najbitdinov. Korxona moliyaviy holatini baholash muammolari va ularni hal qilish. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999; Г.В. Савицкая. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Мн., ИП «Экоперспектива», 1997.

Shundagina ishlab chiqarish jarayoni sodir bo'lib, yangi mahsulot yaratilishiga erishish mumkin. Shu mahsulotning sotilishi esa korxonaning barcha xarajatlarini qoplab foyda olishini ta'minlaydi. Natijada ishlab chiqarishning pirovard maqsadi amalga oshadi.

Korxona iqtisodiy salohiyatining tahlilida faqatgina buxgalteriya balansining aktiv qismida joylashgan korxona tasarrufidagi moddiy boyliklar (aktivlar)ni tahlil qilish bilan chegaralanib qolish, uning iqtisodiy faoliyati to'g'risida to'liq xulosa qilish uchun yetarli emas. Bu esa o'z navbatida, korxonaning iqtisodiy ahvoliga to'liq va batafsil baho berish uchun uning aktivlari bilan birgalikda mehnat resurslarini ham qo'shgan holda tahlil qilishni taqozo qiladi.

Sho'rolar davridagi rejali iqtisodiyot tahliliga oid adabiyotlarda[1] korxonaning moddiy boyligi (resurslari)ni va mehnat resurslarini barcha resurslar majmuasi sifatida qaralishi ko'zda tutilgan edi. Ularning tahlili barcha boyliklar (resurslar) tahlili deb yuritilar edi. Ammo iqtisodiyotni erkinlashtirish tamoyiliga asoslangan bozor munosabatlari hukm surayotgan sharoitda iqtisodiy jarayonlar tarkibida moddiy va mehnat resurslari bilan birgalikda nomoddiy aktivlar (faollar) ham ishtirok etadi. Ularning tarkibiga mualliflik huquqi, patentlar, «nou-xau», savdo markasi, ruxsatnomalar (litsenziyalar) kabi tushunchalar qiymati kiradi. Bular moddiy bo'lmasa-da, korxonaga xuddi moddiy boyliklar singari ma'lum darajada foyda keltiradi. Ammo ularni korxonaning moddiy boyligiga (resursiga) kiritish mumkin emas, chunki ular shakli, mazmuni va mohiyati jihatidan nomoddiydir.

Endilikda korxonada iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi va unga ma'lum darajada foyda keltirishi uchun moddiy (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar) va mehnat resurslari bilan birgalikda nomoddiy faollar ham ishtirok etadi. Ularning jamlanmasini oldingidek moddiy va mehnat resurslari deb atash yetarli bo'lmaydi, chunki ularning tarkibiga nomoddiy aktivlar kirmaydi. Shu tufayli ularni korxonaning iqtisodiy salohiyati deb atashni maqsadga

---

[1] М.И. Баканов, А.Д. Шеремет. Теория анализа хозяйственной деятельности. М., «Финансы и статистика», 1994; Л.И. Кравченко. Экономичесий анализ деятельности предприятий торговли общественного питания. Мн., «Вышэйшая школа», 1997.

muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki bunda moddiy resurslar bilan birgalikda nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari to'liq o'z ifodasini topadi. Bularning tarkibiy tuzilishini 5.1-chizmada ko'rish mumkin.




*5.1-chizma.* Korxona iqtisodiy salohiyatining tuzilish tarkibi.

Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda, unda sodir etilgan iqtisodiy jarayonni to'liq ta'minlaydigan barcha moddiy va mehnat resurslari hamda nomoddiy faollar tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil aniq va amaliy fan bo'lganligi tufayli unda qo'llaniladigan barcha tushunchalar va ko'rsatkichlarning nomi, mazmuni va qiymati mavhum bo'lmasdan aniq, hisoblanadigan, ma'lum bir sohani o'zida ifoda etadigan bo'lishi lozim. Ushbu nazariy mulohaza bevosita korxonaning iqtisodiy salohiyatiga ham tegishli. Shu tufayli uni baholashning ba'zi nazariy va metodologik jihatlariga, iqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan, e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

## 5.2. Iqtisodiy salohiyatning tarkibi va uning umumiy hajmini baholash yo'llari

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini (Kis) baholashda, eng avvalo, iqtisodiy tahlilning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, uni qiymati va xarajati nuqtayi nazaridan aniqlash lozim. Ushbu ko'rsatkichning to'liq qiymatini baholashda, asosan, buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Buning uchun buxgalteriya balansidagi asosiy vosita (Av), aylanma mablag'lar (Ayl.m) va nomoddiy aktivlarning (Na) umumiy summalarini hamda hisob-kitob orqali aniqlangan ishchi va xizmatchilarning pulda ifodalangan qiymatini (Xq) olish mumkin.

Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy potensialini tahlil qilishda, xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonida ishtirok etadigan barcha moddiy resurslar (asosiy va aylanma mablag'lar), nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari birgalikda mushtarak holda o'rganiladi. Moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida ifodalanadi, ammo mehnat resurslari esa bu hisobot tarkibida ko'rsatilmaydi.

Buxgalteriya balansida, ayniqsa, korxona iqtisodiy salohiyatini baholashda moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar bilan birgalikda mehnat resurslari qiymatini ham inobatga olish lozim. Ammo bu ko'rsatkich buxgalteriya balansida ko'rsatilmaydi. Shu tufayli uning puldagi ifodasi topilishini taqozo qiladi.

Hozirgi paytda mehnat resursining bahosini aniqlash uchun qonuniy asos yaratilgan. Chunki respublikamizda oddiy ishchidan tortib, to yetuk mutaxassisgacha ularni tayyorlash xarajati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bu xarajatlar xodimning birinchi boshlang'ich «shartli bahosi» bo'lib hisoblanadi. So'ngra uning malakasini oshirish, qayta o'qitish uchun xarajat qilinsa, bular ham uning ushbu boshlang'ich bahosiga qo'shiladi. Buning zarurligi shundaki, hozirda ko'pchilik mutaxassislarni tayyorlash korxona hisobidan pul to'lash evaziga amalga oshirilmoqda. Korxona o'qishni bitirgan talabani ishga qabul qilsa, uning shu korxona uchun qiymati aniq. Masalan, xodim korxona hisobidan 4 yil o'qigan. Birinchi yilda uning o'qishi uchun 200 ming so'm, ikkinchi yilda 250 ming so'm, uchinchi yilda 280 ming so'm va nihoyat to'rtinchi yilda 300 ming so'm pul to'lagan deb faraz qilsak, uning «shartli bahosi» 1030 ming so'mni tashkil qiladi. Agar xodimning o'qishi davlat yoki shaxsiy hisobdan amalga oshirilsa, u holda korxona mazkur xodimni ishga qabul qilish bilan ushbu xarajatga tenglashtirgan miqdorda uning shartli qiymatini belgilash mumkin. Bundan tashqari har yili davlat tomonidan diplom berilgan bakalavr, mutaxassis yoki magistrning «narxini» ham markazlashgan tarzda aniqlab, e'lon qilib turishlari mumkin.

Xodimlarning umumiy qiymatini pulda ifodalash uchun quyidagi amalni bajarish lozim. Barcha xodimlar kategoriyalarga bo'lib chiqiladi. Har bir kategoriyadagi xodimlar tayyorlashga

ketgan qiymati aniqlanib, shu kategoriya bo'yicha ularning umumiy summasi topiladi. Ikkinchidan, har bir kategoriya bo'yicha aniqlangan summalarni qo'shib, xodimlarning «shartli bahosini» ifodalaydigan jami summasini topish mumkin. Buning uchun quyidagi matematik model qo'llaniladi:

$$Xq = \sum_{i=1}^{n} a_i + b_i,$$

bunda, $Xq$ — xodimlarni tayyorlashga ketgan xarajatlarning jami summasi; $i$ — xodimlar kategoriyasining tartib soni (i=1,n); $n$ — xodimlar kategoriyasining umumiy soni; $a_i$ — i — kategoriya xodimlarni tayyorlashga ketgan xarajatlar; $b_i$ — i — kategoriya xodimlarning malakasini oshirishga ketgan xarajatlar.

Endi korxonaning iqtisodiy salohiyatining umumiy qiymatini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$Kis = Av + Ayl.m + Nf + Xq,$$

bunda, $Av$ — asosiy vositalar (kapital)ning o'rtacha qiymati; $Ayl.m$ — aylanma mablag'lar (kapital)ning o'rtacha qiymati; $Nf$ — nomoddiy aktivlarning o'rtacha qiymati; $Xq$ — xodimlarning o'rtacha «shartli qiymati».

Agar ushbu formuladagi natijani «U» deb, omillarni Xi deb belgilasak, yuqoridagi formulaning matematik ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$U = \sum_{i=1}^{n} x_i = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \ldots . X_n.$$

Ushbu matematik modelga tahlilning an'anaviy usullarini qo'llab, amaliy ma'lumotlardan foydalangan holda natijaning o'zgarishini ta'minlovchi barcha omillar ta'sirini hisoblab chiqsa bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlar asosida korxona iqtisodiy potensialiga kiruvchi kategoriyalarni alohida elementlari bo'yicha ham aniqlash mumkin. Buning tarkibiy tuzilishi 5.2-chizmada keltirilgan.

Shunday qilib, 5.2-chizmadagi ko'rsatkichlar yig'indisi korxona iqtisodiy potentsiali summasining umumiy hajmini ifodalaydi. Ammo joriy yilda ularning qancha qismi ishlatilganligini, qay darajada




*5.2-chizma.* Korxona iqtisodiy salohiyatining tarkibiy tuzilishi.

samaradorlikka erishganligini bilish uchun shu tahlil qilinayotgan davrga to'g'ri keladigan qismini ham aniqlash lozim. Bu faqat nazariy jihatidan emas, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

## 5.3. Iqtisodiy salohiyatni xarajatlar nuqtayi nazaridan baholash usuli

Iqtisodiy tahlilning afzalligi shundaki, bitta iqtisodiy kategoriyani bir qancha o'lchamlarda (qiymatda, natural miqdorda, hajmda va h.k.) ifodalash mumkin. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini ham xarajatlar nuqtayi nazaridan joriy va keltirilgan xarajatlari bo'yicha baholash mumkin. Ammo bir qator adabiyotlarda bu xarajatlar farqlanmay ishlatilgan. Xarajatlar masalasi qaralganda, birinchisi yoki faqat ikkinchisi bilan cheklanib qolinadi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini keltirilgan xarajatlar ($Kp^{kx}$) nuqtayi nazaridan hisoblash uning qancha qismi shu hisobot davrida yangidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymatiga kirishini aniqlash uchun zarur bo'ladi. Bunda aylanma mablag'larning to'liq summasi, asosiy vositalar va nomoddiy faollarning joriy yil davomida eskirish summasini, ishchi va xizmatchilarga to'lanadigan mehnat haqi (Mh) summasini olish mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$Kp^{kx} = (Av \cdot An) + Ayl.m + (Nf \cdot En) + Mh,$$

bunda, *An* — asosiy vositalarning eskirishi (amortizatsiya) normasi; *En* — nomoddiy faollarning eskirish normasi; *Mh* — mehnatga to'lanadigan haq summasi.

Bu korxona iqtisodiy salohiyatining joriy davrda ishlatilishi mumkin bo'lgan qiymatini ifodalaydi. Uni korxona iqtisodiy salohiyatining keltirilgan xarajatlari deb ham atash mumkin.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini joriy xarajatda ifodalash ham muhim ahamiyatga ega. Bu uning joriy yilda ishlatilishi evaziga qancha xarajat ketganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich umuman olganda xarajatlar tarkibida ifodalanadi. Masalan, savdo korxonasini oladigan bo'lsak, ushbu xarajatlar muomala xarajatlarida o'z ifodasini topadi. Biroq, muomala xarajatlari tarkibida faqat iqtisodiy potensialdan foydalanish uchun emas, balki butun xo'jalik faoliyatini yurgizish

uchun ketgan xarajatlar yig'indisi ifodalangan. Shu tufayli iqtisodiy potensialdan foydalanish uchun sarf qilingan joriy xarajatlar miqdorini aniqlash ham ularning samaradorligini baholash, tahlil qilish va boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Biroq shuni e'tirof etish kerakki, muomala xarajatlari tarkibida iqtisodiy mazmuni jihatidan unga kirmaydigan juda ko'p xarajatlar mavjud. Muomala xarajatlari bevosita tovar muomalasi bilan bog'liq xarajatlardir. Bunga tovarlarni ishlab chiqarishdan iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq barcha xarajatlar kirishi lozim. Ammo hozirgi paytda uning tarkibiga «Fan va texnika taraqqiyoti fondiga ajratmalar», «Savdo tavakkali fondiga ajratmalar», «Yer va qurilish solig'i» kabi bir qancha muomala xarajatlariga dahli yo'q ajratmalar kiritilgan.

Nazariy jihatdan to'g'ri bo'lishi uchun ushbu xarajat va ajratmalarni alohida ifodalash lozim. Bu esa savdo tashkilotlarida «Muomala xarajatlari to'g'risidagi hisobot»ni o'zgartirishni taqozo qiladi. Uni «Xarajatlar to'g'risidagi hisobot» deb atash maqsadga muvofiq. Bu hisobotni ikki qismga bo'lish mumkin: muomala xarajatlari va boshqa xarajatlar. Ikkinchisi ham alohida moddalari bo'yicha ifodalansa, xarajatlar iqtisodiy mazmuni jihatidan to'g'ri ifodalangan bo'ladi. Xarajatlarning bunday guruhlarga bo'linishi, hozirgi savdo korxonalarining davlat tasarrufidan chiqib, asosan, xususiylashtirilgan paytida, nima uchun kerak, savolining tug'ilishi tabiiy. Har bir iqtisodiy kategoriya yoki uni ifodalovchi ko'rsatkich qachonki, mikroiqtisodiyotda to'g'ri hisobga olib borilsagina, jamiyat miqyosidagi makroiqtisodiyotning taraqqiyotini to'g'ri aniqlash va uning ustuvorligini ta'minlash imkonini beradi. Bu esa har bir ko'rsatkich va hodisalarni to'g'ri baholash yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Asosiy vositalar (kapital) uchun sarf qilingan joriy xarajatlarga (Avx) asosiy vositalar amortizatsiyasi; binolar, jihozlar va yengil mashinalarni ta'mirlash, ijaraga berish xarajatlari; ta'mirlashga ketgan xarajatlar; moddiy ne'matlarni sug'urta qilishga ketgan xarajatlar kiradi. Nomoddiy faollardan foydalanganlik uchun sarf qilinadigan xarajatlar (Nfx) tarkibiga nomoddiy faollarning tahlil qilinayotgan davrda ajratilgan eskirish qiymati va boshqa shu

kategoriya bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Aylanma mablag'lar uchun sarf qilingan joriy xarajatlarga (Ayl.m.x.) mahsulotlar, xomashyo va tovarlarni tashishga ketgan xarajatlar, bank muassasalariga to'lanadigan foiz summasi, tovarlarni saralash; o'rash va saqlash hamda sovitkichlarni ta'mirlash xarajatlari, kam baholi va tez yemiriluvchi narsalar, maxsus kiyimlar va idish tovoqlarning eskirishi, nobud bo'lishi, tara xarajatlari kabilar kiradi. Mehnat potensialidan foydalanganlik uchun sarf qilingan joriy xarajatlarga (Xmx) mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, kadrlar tayyorlash, pensiya fondlariga ajratmalar kiradi. Korxona iqtisodiy potensialni joriy xarajatlar miqdori bilan baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Ip^{jx} = Ayl.m. \cdot Ayl.m.x + Nfx + Xmx.$$

Korxona iqtisodiy salohiyatni baholashda qo'llaniladigan, keltirilgan va joriy xarajatlar summasi ularning ishlatilishi va qoplanish muddatlarini aniqlash uchun foydalaniladi. Iqtisodiy potensialning qoplanish muddatini ($Ip_{qm}$) aniqlash uchun iqtisodiy potensial summasini ($Ip^k$) keltirilgan xarajatlar ($Ip^{kx}$) summasiga bo'lish mumkin:

$$Ip_{qm} = Ip^{k} : Ip^{kx}.$$

Misol tariqasida savdo aksiyadorlik jamiyatlaridan birining ma'lumotlarini keltirish mumkin. Undagi iqtisodiy potensialning jami summasi 74032,2 ming so'mni, keltirilgan xarajatlar summasi 8510,0 ming so'mni tashkil qiladi. Bu holda korxona iqtisodiy potensialning qoplanish muddati haqiqatda 8,7 yilga (74032,2 : 8510,0) teng bo'ladi. Kapital qo'yilmalarning samaradorlik koeffitsiyenti me'yori O'zbekiston Respublikasida 0,12 holicha saqlanib qoladigan bo'lsa, uni iqtisodiy potensialga ham tatbiq etilsa, u holda uning qoplanish muddati 8,3 yilni (1:0,12) tashkil qilishi lozim. Demak, tahlil qilinayotgan obyektda iqtisodiy potensialning haqiqatda qoplanish muddati me'yorga nisbatan 0,4 yilga (8,7—8,3) ko'p ekanligi aniqlandi.

Iqtisodiy salohiyatning ishlatilish muddatini aniqlash uchun shartli ravishda, uning umumiy summasini joriy xarajatlari ($Ip^{jx}$) summasiga bo'lamiz, ya'ni:

$$Ipim = Ip^k : Ip^{\alpha}.$$

[3] Tahlil qilinayotgan aksiyadorlik jamiyatida iqtisodiy potensialdan foydalanganlikning joriy xarajatlar summasi haqiqatda 4246,3 ming so'mni tashkil qildi. U holda iqtisodiy potensialning ishlatilish muddati 17,4 yilga (74032,2 : 4246,3) teng bo'ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tahlil qilinayotgan obyekt iqtisodiy potensialning qiymati 17,4 yilga yangi yaratilgan mahsulotga o'z qiymatini to'liq o'tkazib bo'lar ekan.

## 5.4. Iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni tasniflash va aniqlash

Iqtisodiy tahlilning maqsadi hamda asosiy vazifalaridan biri — tahlil qilinayotgan obyekt yoki kategoriyani to'g'ri va batafsil baholash uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan hamda ularni nazariy va metodologik jihatdan asoslashdan iboratdir. Korxonaning iqtisodiy salohiyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Ammo ko'rsatkichlar sonining ko'pligi yoki ozligiga qarab, o'rganilayotgan obyekt yoki kategoriyani baholash uchun yetarli yoki kam, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shu tufayli ko'rsatkichlardan to'g'ri va oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, eng avvalo, ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash lozim. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar juda ko'p belgilari bilan tasniflanadi. Korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning faqat iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifi iqtisodiy xulosa chiqarish uchun yetarli bo'ladi. Ularni guruhlarga bo'lish mumkin:

- iqtisodiy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy salohiyat bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi 5.3-chizmada keltirilgan. 5.3-chizmadan ko'rinib turibdiki, korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar talaygina. Ularning har biri ma'lum miqdorga ega bo'lmog'i va tahlil qilinayotgan kategoriyaning u yoki bu jihatini ifodalamog'i lozim. Buning uchun esa, albatta, aniq




*5.3-chizma.* Korxonaning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi:

*Av* — Asosiy vositalar; *Ayl.m.* — Aylanma mablag'lar; *Na* — Nomoddiy faollar (aktivlar); *Ms* — Mehnat salohiyati.

axborot ma'lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumotlarni shakllantirishda, to'plashda va ulardan foydalanishda iqtisodiy tahlilning SAHTXOB tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Ushbu tamoyilning mazmuni tegishli adabiyotlarda[1] o'z aksini topgan. Ushbu maqolalarda SAHTXOB tamoyilining zarurligi, uning nazariy va amaliy ahamiyati tegishli dalillar bilan asoslangan.

Tahlilning eng muhim vazifalaridan biri — ko'rsatkichlarni aniqlash usullari ishlab chiqilishidan iboratdir. Hozirgi paytda bu borada ancha takomillashgan tavsiyalar mavjud. Xususan, I.T.Abdukarimov[2], I.O.Voljin, V.V.Ergashboyevlar[3] har bir ko'rsatkichni aniqlashning nazariy jihatdan formulalarini keltirish bilan birga ularning ma'lumotlarini qaysi axborot manbalaridan olish lozimligini ham ko'rsatib berishgan. Ushbu usulni amaliy va uslubiy qo'llanmalarda qo'llash ishning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Ushbu o'quv qo'llanmada hozirgi takomillashgan tavsiyalarga amal qilgan holda taklif qilingan barcha ko'rsatkichlarni aniq ma'lumotlarga asoslanib baholash yo'llarini ko'rsatib berishga harakat qilingan. Chunki, iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan biror ko'rsatkich mavhum, noaniq, hisoblanishi qiyin bo'lmasligi lozim. Ushbu xulosalardan kelib chiqib, korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning nimani ifodalashi, aniqlanish yo'llari va axborot manbalarini guruhlar bo'yicha ko'rib chiqiladi (5.1-jadval).

Keltirilgan ko'rsatkichlar uchun axborotlar, asosan, buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlardan olinadi. Ammo shuni e'tirof etish kerakki, iqtisodiy tahlilga

---

[1] M.Q. Pardayev. Korxona iqtisodiy salohiyati rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. № 2, 2000; I. Axmatov, M.Q. Pardayev. Iqtisodiy tahlilda «SAHTXOB» tamoyili. Iqtidorli yoshlar — salohiyatimiz asosi. Samarqand, 1999.

[2] И.Т. Абдукаримов. Как читать и анализировать финансовую отчётность. Т., Изд. дом «Мир экономики и право», 1998; I. T. Abdukarimov. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999.

[3] I.O. Voljin , V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1998; Г.В. Савицкая. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. Мн., ИП «Экоперспектива», 1997 ва ҳ. к.

*5.1-jadval*

**Korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning mazmuni va aniqlanish yo'llari**

| Korsatkichlar | Nimani ifodalashi (mazmuni) | Aniqlanish formulasi | Axborot manbalarida ifodalanishi |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| **1. Is. holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 1.1. Is. umumiy va o'rtacha qiymati | Tahlil davrida Is. summasining o'rtacha necha so'm ekanligini ifodalaydi | $\frac{Is.yb + Is.yo}{2}$ | |
| 1.2. Is.ning tarkibiy tuzilishi | Is.har bir moddasining (Isi) umumiy summadagi ulushini ifodalaydi | $\frac{Isi}{Is} \cdot 100$ | |
| 1.2.1. Av.ning Is. umumiy summasidagi ulushi | Av.ning Is.umumiy summasida necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Av}{Is} \cdot 100$ | |
| 1.2.2. Ayl.m.ning Is. umumiy summasidagi ulushi | Ayl.m.ning Is. umumiy hajmida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi | $\frac{Ayl.м}{Is} \cdot 100$ | |
| 1.2.3. Na.ning Is. umumiy summasidagi ulushi | Na.ning Is.umumiy summasida necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Na}{Is} \cdot 100$ | |
| 1.2.4. Ms.ning Is. umumiy summasidagi ulushi | Mehnat salohiyatining Is.umumiy summasida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi | $\frac{Ms}{Is} \cdot 100$ | |
| 1.3. Is. tarkibiga kiruvchi moddalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar | Is. tarkibiga kiruchi har bir moddasi (Av.Ayl.m.Na.Ms.) bo'yicha ularning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi tegishli moddalar tahlil qilinganda alohida tasvirlanadi | Ushbu ko'rsatkichlar tegishli moddalarni tahlil qilganda aniqlanadi | |

| 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|
| **2. Is. bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 2.1. Korxona aktivlarining Is.bilan ta'minlanganligi | 1 so'm korxona aktivlari summasiga qancha Is. summasiga to'g'ri kelganligini ko'rsatadi | $\frac{Is}{B}$ | |
| 2.2. Ms.ning Is.bilan ta'minlanganligi | 1 so'm mehnat salohiyati qiymatiga qancha Is. summasi to'g'ri kelganligini ifodalaydi | $\frac{Is}{Ms}$ | |
| 2.3. Is. tarkibiga kiruvchi moddalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar | Is.ning tarkibiga kiruvchi har bir moddasi bilan ta'minlanganlikni ifoda etadigan ko'rsatkichlar tizimi Av. Ayl.m. Na. Ms. ko'rsatkichlar o'rganilganda alohida tasvirlanadi | Ushbu ko'rsatkichlar tegishli moddalarni tahlil qilganda aniqlanadi | |
| **3. Korxona Is. samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 3.1. Is. rentabelligi | 100 so'm iqtisodiy salohiyat qiymatiga necha so'm foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi | $\frac{F}{Is} \cdot 100$ | |
| 3.2. Is. daromadliligi | 100 сўм Is.qiymatiga necha so'm daromad to'g'ri kelishini ifodalaydi | $\frac{D}{Is} \cdot 100$ | |
| 3.3.Is. natijaviyligi | 1 so'm Is. qiymatiga necha so'm natijaviy ko'rsatkich (sotilgan mahsulot, tovar mahsulot, tovar mahsuloti va h.k.) to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{Q}{Is.}$ | |
| 3.4. Is.tarkibiga kiruvchi moddalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar | Is. tarkibiga kiruvchi moddalar (Av.Ayl.m. Na.Ms.) samaradorligini o'rganishda ko'rsatkichlar tizimi shaklida foydalaniladi | Ushbu ko'rsatkichlar tegishli moddalarni tahlil qilganda aniqlanadi | |

bag'ishlangan adabiyotlarda korxonaning iqtisodiy salohiyatiga va uni ifodalovchi ko'rsatkichlarga yetarli darajada ahamiyat berilmagan. Tahlilga bag'ishlangan deyarli barcha adabiyotlarda korxona iqtisodiy salohiyatining aktivlari (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar va nomoddiy faollar) buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan tahlil qilingan, xolos.

Korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini asoslash va ularni tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki xo'jalik yurituvchi subyektlarga daromad (foyda) keltirishda, uning faoliyatini ta'minlashda korxonaning aktivlari bilan birga unda band bo'lgan mehnat salohiyatlari ham ishtirok etadi. Iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi uchun, ta'kidlanganidek, asosiy va aylanma mablag'lar bilan ish kuchining ishtiroki lozim. Hozirgi paytda ushbu ko'rsatkichlar bilan birgalikda nomoddiy faollar ham korxonaga ma'lum darajada daromad (foyda) keltirishda ishtirok etadi. Shu tufayli tahlil jarayonida ushbu holatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

## 5.5. Iqtisodiy salohiyatning asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlari, ularning tasnifi va aniqlash yo'llari

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'satkichlar iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari ichida ma'lum darajada o'z o'rniga ega. Ushbu vositalarga xo'jalik yurituvchi subyektlarning ancha mablag'i jalb qilingan bo'ladi. Mazkur mablag'larning qaytimi asosiy vositalardan samarali foydalanish evaziga amalga oshiriladi. Shu bois ushbu vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga olimlar ham alohida ahamiyat berib kelgan va kelmoqda. Bu borada olimlardan I.T. Abdukarimov[1], D.Q. Qutbiyev[2], I.O.Voljin, V.V.Ergashboyev[3] kabilar o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan.

---

[1] I.T. Abdukarimov. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1998. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri, 1999.

[2] Д.К.Кутбиев. Проблемы анализа использования основных фондов в кооперативной торговле. Т., «Ўзбекистон», 1990. Д.К.Кутбиев. Современые проблемы бухгалтерского учёта основных средств. Самарканд, СамКИ, 1995.

[3] I.O.Voljin, V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1998.

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va uni tahlil qilish yo'llari xususida Samarqandning tahlil maktabi uzoq yillardan buyon tadqiqot olib bormoqda va bu borada ma'lum qarashlarga ega. Ushbu maktab a'zolari sifatida asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'lishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar; asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar; asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruh ko'rsatkichlarining tasnifi 5.4-chizmada ifodalangan.




*5.4-chizma.* Asosiy vositalarni (Av) ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.

*5.2-jadval*

**Korxonada asosiy vositalarni (Av) ifodalovchi ko'rsatkichlar mazmuni va aniqlanish yo'llari**

| Ko'rsatkichlar | Nimani ifodalashi (mazmuni) | Aniqlash formulasi | Axborot manbalarida ifodalanishi |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| **I. Asosiy vositalar (Av) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 1.1.Av.umumiy mablag'lardagi hissasi | Av.ning umumiy mablag'larda necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Av}{B} \cdot 100$ | |
| 1.2. Av.faol qismining (Avf) tarkibiy tuzilishi | Av. faol qismining umumiy Av. summasida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi | $\frac{Avf}{Av} \cdot 100$ | |
| 1.3. Av.ning eskirish koeffitsiyenti | Umumiy Av. qiymatining qancha qismi eskirish summasiga tengligini ko'rsatadi | $\frac{Av.es}{Av.ib}$ | |
| 1.4. Av.ning yangilanish koeffitsiyenti | Shu hisobot davrida yangidan ishga tushirilgan Av. qismining umumiy yil oxiridagi Av.dagi hissasini ifodalaydi | $\frac{Av.yang}{Av.yo}$ | |
| 1.5. Av.ning yaroqlilik koeffitsiyenti | Umumiy Av. qiymatining qancha qismi qoldiq qiymatda ekanligini ifodalaydi | $\frac{Av - Av.es}{Av}$ | |
| 1.6.Av.ning chiqarilish koeffitsiyenti | Av. ning qancha qismi hisobdan chiqarilganligini ifodalaydi | $\frac{Av.\ chiq.}{Av}$ | |
| **II. Av. bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 2.1. Fond bilan qurollanganlik darajasi | Bir xodimga to'g'ri keladigan faol Av. qiymatini ifodalaydi | $\frac{Avf}{X}$ | |
| 2.2. Natijaning fondlilik darajasi | 1 so'm natija ko'rsatkichiga qancha Av. summasi to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{Av}{Q}$ | |
| 2.3. O'z mablag'larining (O'm) Av. bilan ta'minlanganligi | 1 so'm o'z mablag'lariga qancha Av. summasi to'g'ri kelishini yoki o'z mablag'larining kapitallashganlik darajasini ifodalaydi | $\frac{Av}{O'm}$ | |

| III. Av.samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar | | | |
|---|---|---|---|
| 3.1. Av. rentabelligi | Av. o'rtacha qiymatiga nisbatan foyda summasi qancha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{F}{Av} \cdot 100$ | |
| 3.2. Av. daromadliligi | Av. o'rtacha qiymatiga necha foiz daromad to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{D}{Av} \cdot 100$ | |
| 3.3. Av. natijaviyligi | 1 so'm Av. o'rtacha qiymatiga qancha miqdorda natijaviy ko'rsatkichning (sotilgan mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti va h. k.) to'g'ri kelganligini ifodalaydi | $\frac{Q}{Av}$ | |

## 5.6. Iqtisodiy salohiyatning aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni aniqlash yo'llari

Korxona iqtisodiy salohiyati tarkibida yetakchi o'rinlarni aylanma mablag'lar hissasi tashkil qiladi. Uning miqdori turli sohalarda turlicha. Tahlil jarayonida aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu muammo borasida olimlar bir to'xtamga kelishgan. Xususan, mablag'larni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilinmoqda. Ammo qanday ko'rsatkichlardan foydalanish va ularni tasniflash bo'yicha yagona fikrga kelingan emas. Ayrim darsliklarda[1] alohida aylanma mablag'lar tahlili ko'rsatilmagan. Faqat uning ayrim qismlari «Korxona aktivlari tahlili»da qisqagina qarab chiqilgan. Bunday yondashuv korxona egasini korxonaning iqtisodiy salohiyati samaradorligini nazorat qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Bu esa bozor munosabatlari sharoitida kutilmagan xavf-xatar va bankrotlik vaziyatlarini tug'dirishi mumkin.

---

[1] Г.В. Савицкая. Анализ хозяйственный деятельности предприятия. Мн., ИП «Эколерслектива», 1997.

Ayrim olimlar aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uchga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi. Masalan, «Moliyaviy tahlil»[1] kitobida aylanma mablag'larni baholovchi ko'rsatkichlarni uning holati, harakati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga bo'lingan. Ammo ushbu ko'rsatkichlar tizimining aniq tasnifi berilmagan. Shuningdek, aylanma mablag'larning harakati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan aralashib ketgan. Agar ushbu yondashuvga nazariy jihatdan qaraydigan bo'lsak, aylanma mablag'larning mohiyati uning harakatdaligida. Ammo harakati esa uning samaradorligida ifodalanadi. Shu tufayli bunday yondashuv nazariy jihatdan chuqur tadqiqotni talab qilsa, amaliy jihatdan noaniqliklarni tug'diradi. Bevosita korxonaning moliyaviy holatini baholashga qaratilgan kitobda[2] ham ushbu masala nazardan chetda qolingan. Aylanma mablag'larga tegishli faqat uch ko'rsatkich tavsiya qilingan. Tabiiyki, bunday yondashish qo'yilgan muammoning to'liq hal bo'lishi uchun yetarli emas.

Bevosita moliyaviy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlarda ham aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarga kam e'tibor berilgan[3], xuddi shu holatni V.V.Petrov va V.V.Kovalyovlarning tadqiqotlaridan ham kuzatish mumkin[4]. Aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning ilmiy asoslangan tasnifi bo'yicha olimlar o'rtasida bir xil qarash shakllangan emas. Bizningcha, aylanma mablag'lar ham iqtisodiy mazmuni jihatidan asosiy vositalarga o'xshash. Ular ham korxonaning aktivlarini tashkil qiladi, ham moddiy resurslar guruhiga kiradi. Shu jihatdan aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'lish mumkin: aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mazkur ko'rsatkichlarning tasnifi 5.5-chizmada keltirilgan.

---

[1] I.O. Voljin, V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1998.

[2] N. Hasanov, S. Najbitdinov. Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999.

[3] A.T. Ibrohimov. Moliyaviy tahlil. T., «Mehnat», 1995.

[4] В.В. Петров, В.В. Ковалёв. Как читать баланс. М., «Финансы и статистика», 1993.




*5.5-chizma.* Korxona aylanma mablag'larini (Ayl.m.) ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi

Tahlil jarayonida u yoki bu ko'rsatkichning nimani ifodalashi, ularni baholash yo'llari va ma'lumot manbalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli har bir ko'rsatkichning nomi, nimani ifodalashi, aniqlanish yo'llari keltirilgan guruhlar bo'yicha ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik. Ushbu masalalarni hal qilish uchun 5.3-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz.

*5.3-jadval*

**Aylanma mablag'larni (Ayl.m.) ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning mazmuni va aniqlanish yo'llari**

| Ko'rsatkichlar | Nimani ifodalashi (mazmuni) | Aniqlash formulasi | Axborot manbalarida ifodalanishi |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| **I. Aylanma mablag'lar (Ayl.m.) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 1.1. Ayl.m.ning umumiy mablag'lardagi hissasi | Ayl.m.ning umumiy mablag'larda necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.}{B}$ | |
| 1.2. Ayl.m.tarkibida pul mablag'lari (Pm) hissasi | Ayl.m. tarkibida qancha foiz pul mablag'lari mavjudligini ifodalaydi | $\frac{Pm}{Ayl.m.}$ | |
| 1.3. Ayl.m.tarkibida zaxiralar va xarajatlar (Zx) hissasi | Ayl.m.tarkibida qancha foiz zaxiralar borligini ko'rsatadi | $\frac{Zx}{Ayl.m.}$ | |
| 1.4. Ayl.m. tarkibida debitorlar (Deb) hissasi | Ayl.m.tarkibida debitorlarning necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Deb}{Ayl.m.}$ | |
| 1.5. Muddati o'tib ketgan debitorlarning (Dmud) umumiy Deb.dagi hissasi | Muddati o'tib ketgan debitorlarning umumiy debitorlardagi necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi | $\frac{Dmud}{D}$ | |
| 1.6. Ayl.m.tarkibida o'z mablag'lari hissasi | Barcha Ayl.m. ning qancha qismi o'z mablag'lari hisobidan qoplanishini ko'rsatadi | $\frac{(O'm = Ump) - As}{Ayl.m.}$ | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **II. Aylanma mablag'lar (Ayl.m.) bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 2.1. Ayl.m. sigi'mi, ya'ni 1 so'm natijaga (Q) to'g'ri keladigan Ayl.m. | 1 so'm natija ko'rsatkichiga qancha Ayl.m. to'g'ri kelishini (natijaning fondliligini ifodalaydi) | $\frac{Ayl.m.}{Q}$ | |
| 2.2. Ayl.m. me'yorining (Ayl.m.) haqiqiy miqdori (Ayl.m.h) bilan ta'minlanishi | Ayl.m. haqiqiy summasining me'yorga nisbatini, ya'ni 1 so'm Ayl.m.ga to'g'ri keladigan haqiqiy Ayl.m. summasini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.h.}{Ayl.m.}$ | |
| 2.3. 1 so'm asosiy vositalarga (Av) to'g'ri keladigan Ayl.m. | 1 so'm Av.ga to'g'ri keladigan Ayl.m.summasini, ya'ni Av.ning Ayl.m. bilan ta'minlanganligini ifodalaydi | $\frac{Ayl.m.}{Av}$ | |
| 2.4. Bir xodimga (X) to'g'ri keladigan Ayl.m. | 1 xodimga to'g'ri keladigan Ayl.m. summasi, ya'ni X.larning Ayl.m. bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.}{X}$ | |
| **III. Aylanma mablag'lar (Ayl.m.) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari** | | | |
| 3.1. Ayl.m.ning aylanuvchanligi, kunlarda | Ayl.m. bir aylanish davrining necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.\ Ks}{Q}$ <br> *Ks – kunlar soni* | |
| 3.2. Ayl.m.ning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, martada | Tahlil davrida Ayl.m.ga qo'yilgan mablag'ning necha marta aylanishini ifodalaydi | $\frac{Q}{Ayl.m.}$ | |
| 3.3. Ayl.m.ning rentabelligi | 100 so'm Ayl.m. summasiga to'g'ri keladigan foydani ko'rsatadi | $\frac{F \cdot 100}{Ayl.m.}$ | |
| 3.4. Ayl.m.ning daromadliligi | 100 so'm Ayl.m. summasiga to'g'ri keladigan daromadni (D) ifodalaydi | $\frac{D \cdot 100}{Ayl.m.}$ | |
| 3.5. Debitorlarning aylanuvchanligi (kunlarda) | Debitorlarning (Deb) bir aylanish davri necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{Deb \cdot Ks}{Q}$ | |

## 5.7. Iqtisodiy salohiyatning nomoddiy aktivlar bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni aniqlash yo'llari

Nomoddiy aktivlar, moddiy bo'lmasa-da, korxonaga moddiy resurslar singari foyda keltirishi mumkin. Shu bilan birgalikda nomoddiy aktivlarga ham korxonaning ancha mablag'lari qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida har bir so'm qo'yilgan mablag' mulk egasiga qaysi sohaga yoki qaysi obyektga qo'yishidan qat'i nazar, ma'lum darajada foyda keltirishi kerak. Bu holat esa korxonaning ushbu aktivlarini ham tahlil qilishni taqozo qiladi.

Nomoddiy aktivlar hisobi to'g'risida respublikamizda milliy standart qabul qilindi. Ko'plab korxonalarda ular buxgalteriya balansida o'z aksini topmoqda. Bunday sharoitda nomoddiy aktivlar nafaqat buxgalteriya hisobi, balki iqtisodiy tahlilning ham obyektiga aylanishi lozim. Buni inobatga olib, nomoddiy aktivlarni tahlil qilish bo'yicha ayrim tavsiyalarni ishlab chiqdik. Ushbu tavsiyalarning ayrim jihatlari chop etilgan[1].

Nomoddiy aktivlarga quyidagilar kiradi:

- yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining qiymati;
- bino, inshoot, uskuna va jihoz kabi mulklardan foydalanish huquqining qiymati;
- ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari, «nou-xau» kabilardan foydalanish huquqlarining qiymati;
- tovar belgilari va boshqa intellektual mulkdan foydalanish kabi huquqlarni beruvchi ruxsatnomalar qiymati.

Bularning hammasi buxgalteriya balansining aktiv qismidagi «Nomoddiy aktivlar» moddasida ifodalanadi. Ularni tahlil qilish uchun ham ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ular iqtisodiy mazmuni bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: nomoddiy aktivlarning holati va ularning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ularning tasnifi 5.6-chizmada keltirilgan.

---

[1] M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999, 95—102-betlar; M.Q. Pardayev. Moliyaviy tahlil muammolari. «Iqtisod va hisobot» jurnali, № 1, 1997; M.Q. Pardayev. Moliyaviy tahlil metodologiyasi. Samarqand, SamKI, 1997, 59—61-betlar; M.Q. Pardayev. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini tahlil qilish. Samarqand, SamKI, 1998 va h. k.




*5.6-chizma.* Nomoddiy aktivlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.

Tahlil jarayonida har bir guruh ko'rsatkichlarining tarkibi va ularni hisoblash yo'llarini aniqlash maqsadga muvofiq. Nomoddiy aktivlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: nomoddiy aktivlarning umumiy hajmi; ularning o'rtacha yillik qiymati; umumiy aktivlardagi ulushi; eskirish koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilishi 5.7-chizmada ifodalangan.




*5.7-chizma.* Nomoddiy aktivlarning *(Na)* holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash.

Nomoddiy aktivlarga qo'yilgan mablag' ham ma'lum darajada foyda keltirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida uning samaradorligini baholashni taqozo qiladi. Nomoddiy aktivlarning samaradorligini ifodalash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tavsiya qilinadi: nomoddiy aktivlarning daromadliligi; nomoddiy aktivlarning

rentabelligi va nomoddiy aktivlarni aylanuvchanligi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari va har birining qisqacha tavsifi 5.8-chizmada keltirilgan.

*5.8-chizma.* Nomoddiy aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.

Agar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotida nomoddiy aktivlardan foydalanish evaziga olinadigan daromad, foyda yoki boshqa natija ko'rsatkichini aniqlash mumkin bo'lsa, u holda ushbu ko'rsatkichlarning umumiy hajmi emas, balki faqat shu nomoddiy aktivlarga tegishli qismi aniqlanadi. Bunday sharoitda nomoddiy aktivlarning haqiqiy samaradorligini aniqlash va tahlil qilish imkoni tug'iladi. Ammo hozircha bunday imkoniyat yetarli bo'lmaganligi tufayli natijaviy ko'rsatkichlar sifatida daromad, foyda va mahsulot (ish, xizmat) hajmining umumiy miqdori olinmoqda.

Tahlil jarayonida korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning har birini o'rganish, ularning farqini aniqlab har birining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash orqali korxona iqtisodiy salohiyatining samaradorligini oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni izlab topish lozim.

## 5.8. Iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar omilli tahlilining metodologik jihatlari

Korxonaning iqtisodiy salohiyati samaradorligini aniqlashda, samaradorlikning mumtoz ta'rifidan kelib chiqqan holda natijaviy ko'rsatkichlarni iqtisodiy salohiyatining qiymatiga nisbatan olinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonaning natijaviy ko'rsatkichlari bir qancha ko'rsatkichlar tizimidan iboratdir. Ularga ish natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlar (sanoatda ishlab chiqarilgan yoki sotilgan mahsulot hajmi, qurilishda — bajarilgan qurilish-montaj ishlarining hajmi, transportda — tashilgan yuk hajmi — tonna km.da, savdoda — tovar aylanmasi (oboroti)ning hajmi va h. k.), daromadlar, foyda kabi ko'rsatkichlari kiradi.

Ish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlarga korxonaning yalpi natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlarga daromadning turli xillari (yalpi daromad, soliqqa tortiladigan daromad, asosiy faoliyat daromadi, tasodifiy daromad kabilar) kiradi. Ulardan qaysi ko'rsatkichni tanlab olish bevosita tahlilning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Foyda xususida ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin. Chunki uning ham turlari ko'p. Masalan, bular tarkibiga yalpi foyda, marjinal foyda, sof foyda, taqsimlanmagan foyda, moliyaviy faoliyat foydasi, umumxo'jalik foydasi, tasodifiy foyda kabilarni kiritish mumkin. Tahlil jarayonida qaysi ko'rsatkichdan qay holatda foydalanish ham uning maqsad va vazifalariga bevosita bog'liq. Shu tufayli, biz ushbu ko'rsatkichlar tahlili uchun metodologik asos tariqasida korxona iqtisodiy salohiyati umumiy qiymatining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga, quyidagilar kiradi:

— iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi (Isa);
— iqtisodiy salohiyatning daromadligi (Isd);
— iqtisodiy salohiyatning foydaliligi (rentabelligi) (Isr).

Ushbu ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda. Shu tufayli tahlil jarayonida ularni birgalikda o'rganish maqsadga muvofiq. Buning uchun esa 5.4-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz. 5.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan ancha oshgan. Uning rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 126,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, daromadligi 130,5 %ni, natijaviyligi esa 116,4 %ni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Ammo bu umumiy yaxlit xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Shuning

*5.4-jadval*

**Korxona iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi holati**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | I.Hajm ko'rsatkichlari | | | | |
| 1. | Foyda | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 2. | Daromad | 511,0 | 711,7 | + 200,7 | 139,3 |
| 3. | Sotilgan mahsulot hajmi | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,2 |
| 4. | Iqtisodiy salohiyat (potensial) qiymati | 1179,0 | 12590,0 | + 795,0 | 106,7 |
| | II. Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 5. | Iqtisodiy salohiyat rentabelligi (Isr), % (1 q : 4q) 001. | 3,12 | 3,94 | + 0,82 | 126,3 |
| 6. | Iqtisodiy salohiyat daromadliligi (Isd), so'm (2 q : 4 q). | 4,33 | 5,65 | + 1,32 | 130,5 |
| 7. | Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi (Isn), so'm (3 q : 4 q). | 38,86 | 45,23 | + 6,37 | 116,4 |
| 8. | Iqtisodiy salohiyat samaradorligining kompleks ko'rsatkichi (5q · 10 + 6q · 5 + 7 q · 1) | 91,71 | 112,88 | + 21,17 | 123,1 |

uchun ushbu ko'rsatkichlar tizimiga asosan kompleks ko'rsatkich hajmini aniqlashni tavsiya qilamiz. Buning uchun quyidagi formulani qo'llash mumkin:

$$Iskk = (Isr \cdot Kmr) + (Isd \cdot Kmd) + (Isa \cdot Kma),$$

bunda, *Iskk* — iqtisodiy salohiyat kompleks ko'rsatkichi; *Kmr* — iqtisodiy salohiyat rentabelligining mohiyatlilik koeffitsiyentidir (Kmr=10); *Kma* — iqtisodiy salohiyat daromadliligining mohiyatlilik koeffitsiyenti (Kma=5); *Kmd* — iqtisodiy salohiyat natijaviyligining mohiyatlilik koeffitsiyenti (Kmd=1).

Ushbu formulani jadval ma'lumotlariga qo'llash uchun har bir ko'rsatkichning mutlaq miqdorini uning mohiyatlilik koeffitsiyentiga ko'paytirilib, chiqqan natija jamlanadi. U holda korxona

iqtisodiy salohiyati samaradorligining kompleks ko'rsatkichi o'tgan yilda 91,71 ga (3,12 · 10 + 4,33 · 5+ 38,86 · 1) va hisobot yilida 112,88 ga (3,94 · 10 + 5,65 + 45,23 · 1) teng ekanligini ko'ramiz. Kompleks ko'rsatkichining miqdori o'tgan yilga nisbatan 21,17 ga yoki 123,1 %ga o'sgan. Demak, barcha ko'rsatkich bo'yicha natija hisobot yilida, o'tgan yilga nisbatan o'rta hisobda 23,1 %ga ko'p o'sgan.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim bosqichi va asosiy maqsadi natija o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Natijaviy ko'rsatkich sifatida iqtisodiy salohiyat samaradorligining har bir ko'rsatkichini olish va ularni alohida tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish mumkin. Metodologik asos sifatida iqtisodiy salohiyat rentabelligi ko'rsatkichining omilli tahliliga to'xtalish maqsadga muvofiq. Chunki bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida har bir ko'rsatkichning foydaliligi ko'rsatkichlar tizimida muhim o'rinni egallaydi.

Korxona iqtisodiy salohiyati rentabelligi o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

— foydaning daromaddagi hissasi (Fd) — $X_1$;
— daromadning mahsulot hajmidagi hissasi (Dm) — $X_2$;
— iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi (Isa) — $X_3$.

Ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Isr = Fd \cdot Dm \cdot Isn = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 = \sum_{i=1}^{3} X_1.$$

Ularning bir-biri bilan bog'liqligi 5.9-chizmada tasvirlangan.




*5.9-chizma.* Iqtisodiy salohiyat samaradorligi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'liqligi.

Chizmada keltirilgan omillarning ta'sirini tahlilning turli usullari bilan aniqlash mumkin. Biz tahlilning an'anaviy usullaridan biri bo'lgan zanjirli almashtirish usulini qo'llab yechish yo'lini ishlab chiqdik.

Yuqoridagi formulaga asosan iqtisodiy salohiyat rentabelligining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi. Ularning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

1. Iqtisodiy salohiyat rentabelligining o'zgarishiga foyda summasi daromaddagi hissasi o'zgarishining ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Ux_1 = (X_1^h \cdot X_2^r \cdot X_3^r) - (X_1^r \cdot X_2^r \cdot X_3^r).$$

2. Tahlil qilinayotgan natijaviy ko'rsatkichga daromadning mahsulot hajmidagi hissasi o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Ux_2 = (X_1^h \cdot X_2^h \cdot X_3^r) - (X_1^h \cdot X_2^r \cdot X_3^r).$$

3. Iqtisodiy salohiyat rentabelligiga uning natijaviyligi o'zgarishining ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Ux_3 = (X_1^h \cdot X_2^h \cdot X_3^h) - (X_1^h \cdot X_2^h \cdot X_3^r).$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \pm \Delta Ux_2 \pm \Delta Ux_3.$$

Ushbu omillarning natijaga ta'sirini aniqlash uchun oldin omillarning miqdori aniqlanadi. Bu 5.5-jadvalda keltirilgan.

*5.5-jadval*

**Iqtisodiy salohiyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning miqdorini aniqlash hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | Hajm ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. | Foyda | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 134,8 |
| 2. | Daromadlar | 511,0 | 711,7 | +200,7 | 139,3 |
| 3. | Sotilgan mahsulot hajmi | 4583,3 | 5694,5 | +1111,2 | 124,3 |
| 4. | Iqtisodiy salohiyat qiymati | 11795,0 | 1259,0 | +795,0 | 106,7 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | | |
| 5. | Foydaning daromaddagi hissasi, % ($X_1$) (1 : 2) | 72,02 | 69,72 | −2,30 | 96,8 |
| 6. | Daromadning mahsulot hajmidagi hissasi, % ($X_2$) (2 : 3). | 11,15 | 12,50 | +1,35 | 112,1 |
| 7. | Iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi, % ($X_3$) (3:4). | 38,86 | 45,23 | +6,37 | 116,4 |
| 8. | Iqtisodiy salohiyatning rentabelligi, % (U) (1 : 4) | 3,12 | 3,94 | +0,82 | 126,3 |

Mehnat salohiyatining qiymati o'tgan yilda 2450 ming so'mni, hisobot yilida 2890 ming so'mni tashkil qilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy salohiyat rentabelligi tahlil davrida 0,82 bandga yoki 126,3 %ga ko'paygan. Bunga ta'sir qiluvchi barcha omillar (foydaning daromaddagi hissasidan tashqari) miqdori ortgan. Ularning natijaga ta'siri qanday bo'lganligi 5.6-jadvalda keltirilgan.

*5.6-jadval*

**Iqtisodiy salohiyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini aniqlash hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Zanjirli almashtirishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III |
| 1. | Foydaning daromaddagi ulushi | 72,02 | 69,72 | − 2,30 | 69,72 | 69,72 | 69,72 |
| 2. | Daromadning sotilgan mahsulotdagi hissasi, koeffitsiyent | 0,1115 | 0,1250 | + 0,0135 | 0,1115 | 0,1250 | 0,1250 |
| 3. | Iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi, koeffitsiyent | 0,3886 | 0,4523 | + 0,0637 | 0,3886 | 0,3886 | 0,4523 |
| 4. | Iqtisodiy salohiyat rentabelligi, % | 3,12 | 3,94 | +0,82 | 3,02 | 3,39 | 3,94 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning iqtisodiy salohiyat rentabelligi ortgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan:

1. Foydaning daromaddagi ulushi 2,30 % kamayganligi korxona iqtisodiy potensiali rentabellik darajasini 0,10 % (3,02—3,12) kamaytirgan.

2. Daromadning mahsulotdagi hissasi 1,35 % ko'payganligi iqtisodiy potensial rentabelligini 0,37 % (3,39—3,02) ga orttirgan.

3. Iqtisodiy potensial natijaviyligining 6,37 % ortganligi uning rentabellik darajasini 0,55 % (3,94—3,39)ga ko'paytirgan.

Barcha omillar ta'siri iqtisodiy potensial rentabelligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng: −0,10+0,37+0,55=+0,82.

Omilli tahlil korxonada mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni izlab topish imkonini beradi. Bizning misolimizda tahlil qilingan natijaviy ko'rsatkich — korxona iqtisodiy salohiyati rentabelligining miqdori 0,82 %ga ortgan. Ammo uning yanada ortish imkoniyati bo'lgan. Masalan, foydaning daromaddagi ulushi 2,30 % kamayganligi natija ko'rsatkichini 0,10 % kamaytirib yuborgan. Agarda ushbu ko'rsatkichning miqdori o'tgan yilgi hajmda saqlanib qolganida, iqtisodiy salohiyat rentabelligi yana 0,10 % ortgan bo'lar edi. U holda uning haqiqiy miqdori 3,94 % emas, balki 4,04 bo'lar edi (3,94+0,10). Uning o'tgan yilga nisbatan farqi 0,82 % emas, balki 0,92 %ga (0,82+0,10) teng bo'lardi. U holda mazkur ko'rsatkichning o'sish sur'ati 126,3 % emas, balki 129,5 %.

$$\left(\frac{4,04}{3,12} \cdot 100 = 129,5\right)$$ ni tashkil qilgan bo'lar edi.

Ko'rinib turibdiki, omilli tahlilning amaliyotda qo'llanilishi hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega. Korxona iqtisodiy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli uning samaradorlik darajasi ham ana shu ko'rsatkichlar ta'sirida shakllanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning iqtisodiy potensiali samaradorligini aniqlash uchun foyda summasini (F) uning to'la qiymatiga (Ip) bo'linadi. Agar uning qiymatini boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liq holda qaralsa, iqtisodiy potensial rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar soni ko'payishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichga shu aniqlangan omillar ta'sirni hisoblash uchun, eng avvalo, uning to'liq qiymatini keltirilgan va joriy xarajatlar summasining o'zgarishi bilan bog'liq omillarni olish ham mumkin.

Iqtisodiy potensialning samaradorligiga yuqorida qayd etilgan omillarning ta'sirini hisoblash uchun quyidagi bog'liqlikdan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$\frac{F}{Ip^k} = \frac{F}{Ip^{jx}} \cdot \frac{Ip^{jx}}{Ip^{kx}} \cdot \frac{Ip^{kx}}{Ip^k},$$

bunda, $F$ — foyda summasi; $Ip^{jx}$ — joriy xarajatlar summasi; $F / Ip^{jx}$ — iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining samaradorligi; $Ip^{kx}$ — keltirilgan xarajatlar summasi; $Ip^{jx} / Ip^{kx}$ — iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining keltirilgan xarajatlardagi hissasi; $Ip^q$ — iqtisodiy potensialning umumiy qiymati; $Ip^x / Ip^k$ — iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlarning umumiy qiymatidagi hissasi.

Ushbu formuladagi natijani «U» va omillarni mos ravishda $X_1$, $X_2$ va $X_3$ deb belgilasak, u quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 = \sum_{i=1}^{3} X_i. \quad (i = 1,3)$$

Formulaga tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullar va amaliy ma'lumotlarni qo'llab yechilsa, iqtisodiy potensial samaradorligining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash mumkin. Iqtisodiy potensial samaradorligining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash uchun zanjirli almashtirish usulini tavsiya qilamiz:

1.Iqtisodiy potensial samaradorligining o'zgarishiga joriy xarajatlar samaradorligining ta'sirini (($\Delta Ux_1$) topish uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta Ux_1 = (X_1^h \cdot X_2^r \cdot X_3^r) - Ur,$$

bunda, $r$ indeksi — ko'rsatkichning rejasi; $h$ indeksi — ko'rsatkichning haqiqiy miqdori.

2. Iqtisodiy potensial samaradorligi o'zgarishiga joriy xarajatlarning keltirilgan xarajatlardagi hissasi o'zgarishning ta'sirini ($\Delta Ux_2$) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Ux_2 = (X_1^h \cdot X_2^h \cdot X_3^r) - (X_1^x \cdot X_2^r \cdot X_3^r).$$

3. Iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining keltirilgan xarajatlardagi hissasi o'zgarishining ($\Delta Ux_3$) ta'sirini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux_3 = U_1 - (X_1^h - X_2^h \cdot X_3^r).$$

Barcha omillar ta'siri samaradorligining umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi:

$$U = \Delta Ux_1 + \Delta Ux_2 + \Delta Ux_3.$$

Ushbu usulning amaliy jihatidan qulayligi va amaliyotda foydalanish mumkinligini isbotlash uchun 5.7-jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi.

*5.7-jadval*

**Tahlil qilinayotgan obyektda hisobot davrida iqtisodiy potensial rentabelligi va u bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | I. Hajm ko'rsatkichlari | | | | |
| 1. | Foyda summasi, ming so'm | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 2. | Iqtisodiy potensialning umumiy qiymati, ming so'm | 11745,0 | 12590,0 | + 795,0 | 107,2 |
| 3. | Iqtisodiy potensialga to'g'ri keladigan xarajatlar, ming so'm | 1468,9 | 1429,5 | + 39,4 | 97,3 |
| 4. | Iqtisodiy potensialning joriy xarajatlari, ming so'm | 356,2 | 377,4 | + 21,2 | 106,0 |
| | II. Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 5. | Iqtisodiy potensialning rentabelligi, % (1q: 2q) ·100 | 3,12 | 3,94 | + 0,82 | 126,3 |
| 6. | Iqtisodiy potensial joriy xarajatlari samaradorligi, % (1q : 4q · 100) | 103,30 | 131,47 | + 28,17 | 127,3 |
| 7. | Iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining keltirilgan xarajatlardagi hissasi, koeff. (4q : 3q) | 0,2425 | 0,2640 | + 0,0215 | 108,9 |
| 8. | Iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlarning umumiy qiymatidagi hissasi, koeff. (3q : 2q) | 0,1245 | 0,1135 | + 0,0110 | 91,2 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida foyda summasi 134,8 % yoki 128,2 ming so'mga ortgan. Iqtisodiy potensialining umumiy qiymati esa o'tgan yilga nisbatan 795,0 ming so'mga yoki 7,2 %ga ko'paygan. Ammo iqtisodiy potensialga to'g'ri keladigan keltirilgan xarajatlar summasi 39,4 ming so'mga yoki 2,7 %ga kamaygan. Joriy xarajatlar summasi esa 21,2 ming so'mga yoki 6,0 %ga ortgan. Oqibatda iqtisodiy potensialning rentabelligi 0,82 punktga va boshqa shu bilan bog'liq bir qancha ko'rsatkichlarning ham ortganligi ko'rinib turibdi. Faqat keltirilgan

xarajatlarning umumiy qiymatidagi hissasi 8,8 % kamaygan. Biroq ushbu jadval ma'lumotlari iqtisodiy potensial rentabelligining o'zgarishiga qaysi omillar qay darajada ta'sir qilganligini tasvirlay olmaydi. Shu tufayli omilli tahlil uchun 5.8-jadvaldan foydalanish mumkin.

*5.8-jadval*

**Iqtisodiy potensial samaradorligiga alohida omillar ta'sirini hisoblash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Zanjirli almashtirishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III |
| 1. | Iqtisodiy potensial joriy xarajatlari samaradorligi, % | 103,30 | 131,47 | +28,17 | 131,47 | 131,47 | 131,47 |
| 2. | Iqtisodiy potensial joriy xarajatlarning keltirilgan xarajatlardagi hissasi | 0,2425 | 0,2640 | + 0,0215 | 0,2425 | 0,2640 | 0,2640 |
| 3. | Iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlarning umumiy qiymatdagi hissasi | 0,1245 | 0,1135 | − 0,0110 | 0,1245 | 0,1245 | 0,1135 |
| 4. | Iqtisodiy potensialning rentabelligi, % | 3,12 | 3,94 | + 0,82 | 3,97 | 4,32 | 3,94 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy potensial rentabelligining ortishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Iqtisodiy potensial joriy xarajatlar samaradorligining 28,17 punktga ortganligi iqtisodiy potensial umumiy rentabelligi 0,85 punktga (3,97—3,12) ortishiga muvofiq bo'lindi.

2. Iqtisodiy potensial joriy xarajatlarining keltirilgan xarajatlardagi hissasi ham 0,0215 punktga ortgan. Bu esa iqtisodiy potensial rentabelligining 0,35 punktga (4,32—3,97) ko'paytirgan.

3. Iqtisodiy potensialning keltirilgan xarajatlarining umumiy qiymatidagi hissasi 0,0110 punktga kamaygan. Bu omil iqtisodiy potensial rentabelligini 0,38 punktga (3,94—4,32) kamaytirgan.

Barcha omillar ta'siri evaziga iqtisodiy potensial rentabelligi 0,82 punktga (0,85 +0,35—0,38) ortgan.

Ushbu hisob-kitob natijasi korxona iqtisodiy potensiali rentabelligini oshirishning ichki imkoniyatlari mavjudligini

ko'rsatmoqda. Bu bevosita iqtisodiy potensial keltirilgan xarajatlar umumiy qiymatning kamayishida namoyon bo'lmoqda. Keltirilgan xarajatlar yuzaki qaraganda, ko'payishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkindek ko'rinadi. Ammo keltirilgan xarajatlarning ko'payishi iqtisodiy potensial qiymatining yangi yaratilayotgan mahsulot (ish, xizmat)ga tezroq ko'chayotganligi va uning qoplanish muddatini tezlashtirayotganligidan dalolat beradi.

Bizning misolimizda iqtisodiy potensiali keltirilgan xarajatlarining umumiy qiymatidagi hissasi o'tgan yilgi darajada qolganida, rentabellik darajasi yana 0,38 % ortgan bo'lur edi. U holda rentabellik darajasining haqiqiy miqdori 3,94 % emas, balki, 4,32 %ni (3,94+ 0,38) tashkil qilardi. O'tgan yilga nisbatan uning farqi 0,82 % emas, balki, 1,20 %ga (4,32— 3,12) teng bo'lardi. Demak, omilli tahlil hozirgi sharoitda ichki imkoniyatlarni izlab topish uchun muhim iqtisodiy dastaklardan biridir. Shu tufayli uning nazariy va metodologik asosini yaratish muhim ahamiyatga ega.

# *6-bob.* KORXONADA ASOSIY VOSITALARNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR, ULARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH YO'LLARI[1]

## 6.1. Asosiy vositalarni baholash turlari

Bozor munosabatlari sharoitida har bir tadbirkor, korxona rahbari va investor korxona moliyaviy holati ko'rsatkichlarini baholash hamda tahlil qilish usullarini egallagan bo'lishi, ular asosida maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishni bilishi lozim.

Asosiy vositalarning ahamiyati shundan iboratki, ular mehnat jarayonida mulkiy shaklini saqlab qolib, har bir bosqichdan keyin ishlab chiqarish sohasini tark etmaydi. Ularning qiymati mahsulotga darhol emas, qismlarga bo'lingan holda bosqichma-bosqich o'tib boradi. Xo'jalik subyekti aniq baholangan aktivdan iqtisodiy foyda olishiga ishonchi bo'lgan taqdirdagina asosiy vositalarni aktiv sifatida tan oladi. Buxgalteriya hisobining milliy standartiga ko'ra, asosiy vositalar sotib olingan, o'rnatilgan, amaliyotda sinab ko'rilgan va ishga tushirish ishlari bajarilgandan so'ng OS–1 shakldagi ishga tushirish dalolatnomasi tuzilgan hamda uskunalarni ishlash holatiga kelishi uchun mas'ul komissiya a'zolari tomonidan imzolanganidan keyingina xo'jalik subyektining balansiga uning aktivi sifatida hisobga olinishi mumkin.

Asosiy vositalar hisobi OS–7 (uskunalar uchun) va OS–6 (binolar uchun) hisob kartochkalaridagi inventar raqamlari bo'yicha yuritilishi zarur. Asosiy vositalar OS–1 shakl bo'yicha kirim dalolatnomasi asosida kirim qilinadi. Ko'chirish OS–2 qaydnomasi bo'yicha rasmiylashtiriladi, tugatish esa, OS–4 tugatish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi. Umumlashtirilgan hisob blankalari Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va

[1] Ushbu bobni yozishda N. Suvonova ishtirok etdi.

tasdiqlangan. Asosiy vositalarni baholashning boshlang'ich, tiklash va qoldiq qiymatida ifodalash usullari mavjud.

**Boshlang'ich qiymat** tarkibiga ularni xarid qilish (qurish), yetkazish va o'rnatish yoki xarid qilish paytidagi qiymati kiradi. Bino va inshootlarni xo'jalik usulida qurishda boshlang'ich qiymatga qurilish bilan bog'liq barcha xarajatlar: xomashyo, me'morlar va huquqshunoslar xizmati uchun haq to'lash; qaydnoma xarajatlari; loyihalash-tadqiqot ishlari; qurilish paytida sug'urtalash xarajatlari; obyekt qurilishiga berilgan kreditlar bo'yicha foizlar; qurilish ruxsatnomasi qiymati va boshqa xarajatlar kiritiladi.

Uskunalar qiymatiga xarid qilish va ishga tayyorlash bilan bog'liq barcha xarajatlar (hisob varaq-faktura bo'yicha qiymati, naqd to'lashdagi chegirmani hisobga olmaganda; fraxt, shu jumladan, sug'urtalash, aksiz yig'imlari va bojlari; xarid qilish xarajatlari; montaj qilish va uskunalarning foydalanishga yaroqliligini tekshirish maqsadida sinash uchun qilingan xarajatlar; to'langan QQS, bojxona bojlari) kiradi.

Xizmatlar va aktivlarga almashtirishda asosiy vositalar qiymati bitimning joriy narxlarida belgilanishini hisobga olish lozim. Ular kreditga olinadigan bo'lsa, to'langan foizlar joriy xarajatlar hisoblanadi va boshlang'ich qiymatga kiritilmaydi. «Davr xarajatlari», ya'ni zarur bo'lmagan xarajatlar, masalan, yuklash, tashish, tushirish vaqtida yetkazilgan xarajatlarni tiklash xarajatlarini, shuningdek, bojxona xarajatlari qiymati ham boshlang'ich qiymatga kiritilmaydi.

Turli davrlarda amalga oshirilgan yoki xarid qilingan asosiy vositalar hajmi korxona balansida shu davr narxlarida hisobga olinadi. Bu turli korxonalar asosiy vositalarini taqqoslash, asosiy vositalardan foydalanishni tahlil qilish va hokazolarda noqulayliklar yaratadi[1]. Asosiy vositalarni tiklash qiymati milliy valutada amaldagi

---

[1] Asosiy fondlar qiymatini solishtirish imkoniyati ularni «adolatli qiymat»ga qayta hisoblanganda aniqlanadi. Xalqaro moliya hisoboti standartlari (XMHS) taklif etadigan asosiy vositalarni qayta baholash qoidalariga muvofiq «Qayta baholashni o'tkazish ketma-ketligi asosiy vositalar adolatli o'zgarishiga bog'liq. Aktivlarni qayta baholash adolatli qiymati ular balans qiymatidan jiddiy ravishda farq qilsa, qayta baholash talab etiladi. Ba'zi toifadagi asosiy vositalar adolatli qiymati o'z-o'zidan jiddiy sur'atda o'zgarib turishi mumkin. Shuning uchun ularni har yili qayta baholash adolatli qiymati kam o'zgaradigan asosiy vositalar uchun talab qilinmaydi. Mazkur asosiy vositalar har uch-besh qayta baholanishi mumkin».

narxlar va tariflar darajasidan kelib chiqib, xarid qilish (qurish), yetkazib berish hamda montaj qilish sharti bilan ularni tiklash chiqimlarini o'z ichiga oladi.

**Tiklash qiymati** O'zbekiston Respublikasi hukumatining korxonalar va tashkilotlar asosiy vositalarini qayta baholash to'g'risidagi qarori asosida belgilanadi. Xalqaro standartlarda moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar boshlang'ich qiymatini aks ettirish uchun moliya yili oxirida yoki hukumat taklifi bilan qayta baholashni o'tkazishni taqozo etadi. Respublikamizda asosiy vositalarni qayta baholash hukumat qarori bilan, shuningdek, davlat korxonalarini aksiyadorlashtirish, aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tuzishda amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillarida asosiy vositalarni qayta baholash uch marta o'tkazildi:

- 1992-yil 1-apreldagi holatiga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 18-iyundagi 293-sonli qarori);
- 1993-yil 1-apreldagi holatiga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-iyundagi 261-sonli qarori);
- 1995-yil 1-yanvardagi holatiga ko'ra (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 28-noyabrdagi 572-sonli qarori).

Asosiy vositalar qo'llanish jarayonida ham, ishlatilmagan holda ham ma'naviy va jismonan eskiradi. Eskirish hajmini hisoblangan amortizatsiya summasiga teng deb hisoblash qabul qilingan.

**Qoldiq qiymati** asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan eskirish summasini chegirish natijasida olingan farqni tashkil etadi. U asosiy vositalar muayyan vaqt ishlaganidan keyin shu paytdagi ularning qoplanmagan qiymatining miqdorini aks ettiradi. Moliyaviy hisobotda asosiy vositalarning boshlang'ich va qoldiq qiymati, eskirish summasi buxgalteriya balansi aktivining 1-bo'limida ko'rsatiladi.

Amaldagi buxgalteriya hisoboti to'g'risidagi Nizomga muvofiq asosiy vositalar boshlang'ich qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Agar tiklash qiymati bo'yicha aks ettirilib, tiklash qiymati boshlang'ich qiymat sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, asosiy vositalarning aktiv va passiv qismlarini ajratish lozim.

**Vositalarning aktiv qismi** bevosita mehnat predmetiga ta'sir qiladi. Bularga: kuchlanish, ish mashinalari va uskunalari, o'lchash, sozlash asboblari va qurilmalari, laboratoriya uskunalari, hisoblash texnikasi, boshqa mashina va uskunalar, shuningdek, transport

vositalari kiradi. Asosiy vositalar aktiv qismini aniqlashda ularning mahsulotni ko'paytirishiga, mehnat samaradorligining ortishiga bevosita ta'sir qilishini hisobga olish lozim.

**Passiv qismi** ishlab chiqarishni amalga oshirish shartlarini, ya'ni ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etadigan vositalardir. Ularga binolar va inshootlar kiradi. Korxona moddiy-texnik bazasidan foydalanishni yaxshilash mahsulot chiqishi va sotilishining ko'payishi, sifatining yaxshilanishi, tannarxining kamayishi hamda foyda va rentabellikning ortishiga olib keladi. Shuning uchun asosiy vositalar holatini chuqur o'rganib, ulardan foydalanishni ta'minlash va samaradorligini oshirishni puxta tahlil qilish zarur.

«Buxgalteriya balansi» va «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» asosiy vositalarni tahlil qilishning asosiy axborot manbai hisoblanadi. Buxgalteriya balansida asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlar «Uzoq muddatli aktivlar»ning birinchi bo'limida quyidagi satrlarda ko'rsatilgan:

010 – boshlang'ich qiymat;
011 – eskirish;
012 – qoldiq qiymati.

Asosiy vositalar holati, ulardan foydalanishni ta'minlash va samaradorligini oshirishni batafsil tahlil qilish 3-shakl asosida to'liq va turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Shunday qilib, hisobotning bu shaklida asosiy vositalar har bir turining yil boshi va oxiridagi boshlang'ich qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati, shuningdek, yangi kelgan va hisobdan o'chirilganlar (chiqarilganlar) miqdori ko'rsatiladi. Mazkur hisobot oxirida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy vositalari ham ajratilgan holda ko'rsatiladi. Ma'lumotda barcha turdagi asosiy vositalar nima hisobiga xarid qilinganligi, ulardan qanchasi ijaraga olingani va ijaraga berilgani aks ettiriladi. Asosiy vositalar to'g'risida tegishli axborotlar to'plangach, ularni tahlil qilishga kirishish mumkin. Buning uchun esa, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlab olish lozim.

## 6.2. Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari ichida ma'lum darajada o'z o'rniga ega. Ushbu vositalarga xo'jalik yurituvchi subyektlarning ancha mablag'i jalb

qilingan bo'ladi. Mazkur mablag'larning qaytimi asosiy vositalardan samarali foydalanish evaziga amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiq: asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar; asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar; asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu guruh ko'rsatkichlarining tasnifi quyidagi chizmada ifodalangan (6.1-chizma):




*6.1-chizma.* Asosiy vositalarni (Av) ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va tasnifi.

6.1-jadval ma'lumotlari asosiy vositalarni ifodalovchi har bir ko'rsatkichning nomini, nimani ifodalashi, aniqlanish yo'llari va axborot manbalarini ko'rsatadi.

*6.1-jadval*

**Korxonada asosiy vositalarni (Av) ifodalovchi ko'rsatkichlar mazmuni va aniqlanishi**

| Ko'rsatkichlar | Nimani ifodalashi (mazmuni) | Aniqlanish formulasi | Axborot manbalarida ifodalanishi |
|---|---|---|---|
| **I. Asosiy vositalar (Av) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 1.1. Av.umumiy mablag'lardagi hissasi | Av.ning mablag'larda necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Av}{B} \cdot 100$ | 010 / (310 · 100) |
| 1.2. Av. faol qismining (Avf) tarkibiy tuzilishi | Av. faol qismining umumiy Av. summasida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi | $\frac{Avf}{Av} \cdot 100$ | 131 3 sh / (010 · 100) |
| 1.3. Av. eskirish koeffitsiyenti | Umumiy Av. qiymatining qancha qismi eskirish summasiga tengligini ko'rsatadi | $\frac{Av.\ es.}{Av.\ ib}$ | 011/010 |
| 1.4. Av.ning yangilanish koeffitsiyenti | Shu hisobot davrida yangidan ishga tushirilgan Av.qismining umumiy yil oxiridagi Av. dagi hissasini ifodalaydi | $\frac{Av.\ yang.}{Av.\ yo}$ | 130 3 sh 4 us / 130 3 sh 6 us |
| 1.5. Av.ning yaroqlilik koeffitsiyenti | Umumiy Av. qiymatining qancha qismi qoldiq qiymatda ekanligini ifodalaydi | $\frac{Av - Av.\ es.}{Av}$ | (010–011) / 010 |
| 1.6. Av.ning chiqarilish koeffitsiyenti | Av.ning qancha qismi hisobdan chiqarilganligini ifodalaydi | $\frac{Av.chiq.}{Av}$ | 130 3 sh 5 us / 130 3 sh 6 us |
| **II. Av. bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 2.1. Fond bilan qurollanganlik darajasi | Bir xodimga to'g'ri keladigan faol Av. qiymatini ifodalaydi | $\frac{Avf}{X}$ | 131 3 sh / 020 f 2 b |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2.2. Natijaning fondlilik darajasi | 1 so'm natija ko'rsatkichiga qancha Av. summasi to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{Av}{Q}$ | 010 /010 2 sh |
| 2.3. O'z mablag'larining (Um) Av. bilan ta'minlanganligi | 1 so'm o'z mablag'lariga qancha Av. summasi to'g'ri kelishini yoki o'z mablag'larining kapitallashganlik darajasini ifodalaydi | $\frac{Av}{Um}$ | 010 / 390 |
| **III. Av. samaradorligini ifodalovchi ko'rsakichlar** | | | |
| 3.1. Av.rentabelligi | Av. o'rtacha qiymatiga nisbatan foyda summasi qancha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{F}{Av} \cdot 100$ | 200 2 sh / $(010_{yb}+010_{yo})/2$ |
| 3.2. Av. daromadliligi | Av. o'rtacha qiymatiga necha foiz daromad to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{D}{Av} \cdot 100$ | 050 2 sh / $(010_{yb}+010_{yo})/2$ |
| 3.3. Av. natijaviyligi | 1so'm Av. o'rtacha qiymatiga qancha miqdorda natijaviy ko'rsatkichning (sotilgan mahsulot, tovar oboroti va h. k.) to'g'ri kelganligini ifodalaydi | $\frac{Q}{Av}$ | 010 2 sh / $(010_{yo}+010_{yo})$ /2 |

## 6.3. Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Asosiy vositalar holatini tahlil qilishda ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash lozim. Uni tahlil qilish uchun biznes-reja hisobi va hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi. Unda bazis davri ma'lumotlari haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslanib, o'zgarishlarning yaxshilanganligi yoki yomonlashish sabablari aniqlanadi, ko'rsatkichlarni yaxshilanishi uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Asosiy vositalar iqtisodiy tuzilishini va holatini ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

**Eskirish koeffitsiyenti (Kesk.)** eskirish summasining asosiy vositalar boshlang'ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kesk = \frac{Ave}{Avbq.} = \frac{F_1 011 - satr}{F_1 010 - satr},$$

bunda, *Ave* — asosiy vositalar eskirish summasi; *Avbq* — asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati; $F_1$ — «Buxgalteriya balansi», 010 va 011-satrlar.

Asosiy vositalar **yaroqsizlik koeffitsiyenti (Kyar)** qoldiq qiymatining (eskirish chegirilgan holdagi boshlang'ich qiymat) boshlang'ich qiymatga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kyar = \frac{Avq.k.}{Avbq.} = \frac{F_1 012 - satr}{F_1 010 - satr},$$

bunda, *Avq.k.* — asosiy vositalarning qoldiq qiymati.

**Yangilanish koeffitsiyenti (Kyang)** yil mobaynida yangi kelgan asosiy vositalarning yil oxiridagi ular qoldig'iga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kyang = \frac{Avya.k.}{Avdo.\ b.q.} = \frac{F_3 4\text{-}ustun,\ 130 - satr}{F_3\ 6\text{-}ustun,\ 130 - satr},$$

bunda, *Avya.k.* — yangi kelgan asosiy vositalar summasi; *Avdo.b.q.* — asosiy vositalarning davr oxiridagi boshlang'ich qiymati; $F_3$ — «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot», 4-ustun va 6-ustun — 3-shakl ustunlari; 130-satr — 3-shakl satri.

**Hisobdan chiqarish koeffitsiyenti (Khch)** yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning yil boshidagi qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kyar = \frac{Avh.ch.}{Avdb.\ b\ q.} = \frac{F_3\ 5\text{-}ustun,\ 130 - satr}{F_3\ 3\text{-}ustun,\ 130 - satr},$$

bunda, *Avdb.b.k.* — asosiy vositalarning davr boshidagi boshlang'ich qiymati; *Avh.ch.* — hisobot davrida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar.

Mazkur koeffitsiyentlar barcha asosiy vositalar hamda ularning alohida turlari va guruhlari bo'yicha hisoblanadi, qator yillar mobaynidagi o'zgarishi ko'rib chiqiladi va tegishli xulosalarga kelinadi.

**Asosiy vositalar tuzilmasi** tarmoq ixtisosligidan kelib chiqib aniqlanadi va korxonaning ishlab chiqarish hamda texnik ta'minoti

xususiyatlarini aks ettiradi. U korxona asosiy vositalari umumiy summasida va noishlab chiqarish, aktiv va passiv qismining hajmiga hamda ularning yil mobaynidagi o'zgarishlari va dinamikasiga bog'liqdir.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida korxona tuzilmalari bo'yicha asosiy vositalar samaradorligi, texnik jihozlanishining darajasi, qo'l mehnati kamayishi va ishlab chiqarish samaradorligi oshishi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Asosiy vositalar tuzilmasini hisob-kitob qilish uchun «Asosiy vositalar harakati to'g'risida» hisobot ma'lumotlari qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlarni asosiy vositalar holatining yaxshilanish (yomonlashish) sabablarini aniqlagan holda dinamikasini o'rganib hisob-kitob qilish zarur. Asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining qoldiq qiymatiga nisbatan keskin o'sishi koeffitsiyentlarda eskirish ko'payganligi va ular yaroqliligi kamayganligini, ya'ni holati yomonlashganini ko'rsatadi.

Qoldiq qiymatining boshlang'ich qiymatga nisbatan keskin o'sishi asosiy vositalar yangilangan, ularning eskirishi qisqarganidan dalolat beradi. Eskirishni kamaytirish, ya'ni asosiy vositalar holatini yaxshilash usullaridan biri o'z vaqtida kapital ta'mirlash, yangilarini xarid qilish, shuningdek, ma'naviy va jismoniy eskirgan uskunalarni hisobdan chiqarishdan iboratdir. Bu tadbirga bozor munosabatlari sharoitida alohida ahamiyat berish kerak.

## 6.4. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik korxonaning texnik jihatdan ta'minlanganligi, mehnat va ishlarning mexanizatsiyalashganligini koeffitsiyentlar orqali ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar orqali har bir korxonaning **moddiy-texnika bazasi bilan** ta'minlanganlik darajasini aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

**Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti** asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining (boshlang'ich baholanishi bo'yicha) smenadagi ishchilar soniga nisbatidir. U ishchilarning mehnat qurollari (asosiy vositalar) bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettirib, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kf.t. = \frac{Av}{Is},$$

bunda, *Kf.t.* — fond ta'minlanganligi koeffitsiyenti; *Av* — asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati; *Is* — smenadagi ishchilar soni.

Tahlil qilish uchun 3-shakl, (moliyaviy hisobot) va 1-T shakl (statistik hisobot)dan ma'lumotlar olinadi. Korxonada ish bir necha smenada tashkil etilsa, eng kattasidagi ishchilar soni buxgalteriya yoki ish haqi oluvchilari ro'yxatlaridan olinadi, chunki hisobotda ular bo'lmasligi mumkin. Ish bir smenada tashkil qilingan bo'lsa, barcha asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar olinadi.

**Texnik ta'minlanganlik koeffitsiyenti (Kt.t.)** ishlab chiqarish uskunalari summasi (ya'ni, asosiy vositalar aktiv qismi)ning eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbati sifatida hisoblanib, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Kt.t. \frac{I.us.}{Is},$$

bunda, *Kt.t.* — texnik ta'minlanganlik koeffitsiyenti; *I.us.* — ishlab chiqarish uskunalari summasi.

Bu koeffitsiyentlar yil uchun va muayyan sanaga hisoblanishi mumkin. Yil uchun hisoblanganda asosiy vositalar va ishchilar soni haqidagi o'rtacha yillik ma'lumotlar olinadi. Masalan, «Madaniyat» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida hisobot ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarish fondlari qiymati hisobot yili boshida 13736 ming so'mni, yil oxirida 15007 ming so'mni tashkil etgan. Ishlab chiqarish uskunalari qiymati (asosiy vositalar aktiv qismi):

yil boshida — 8945 ming so'm;
yil oxirida — 9579 ming so'm.

Asosiy ishlab chiqarish xodimlari soni:
yil boshida — 1065 kishi;
yil oxirida — 962 kishi.

Shu tariqa, «Madaniyat» OTAJda asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti:

yil boshida — 13736 : 1065 = 12,90;
yil oxirida — 15007 : 962 = 15,60.

Texnik ta'minlanganlik koeffitsiyenti:
yil boshida — 8945 : 1065 = 8,4;
yil oxirida — 9579 : 962 = 10,0 bo'ladi.

Ushbu hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida asosiy vositalar va texnik ta'minlanganlik koeffitsiyentlari ortgan. Bu ma'lum darajada ishlab chiqarish samaradorligi ortganligi va qo'l mehnatining kamayganligidan dalolat beradi.

**Mehnatning mexanizatsiyalanganlik koeffitsiyenti** — bu ko'rsatkich jonli mehnatning 50 %dan ortiq qismi mexanizatsiyalashganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Masalan, tahlil qilinayotgan korxonada mehnat 50 %dan ortiq mexanizatsiyalashgan. Bu ishlab chiqarish xodimlari ulushi bilan ifodalanadi:
yil boshida — 765 kishi;
yil oxirida — 750 kishi bo'ldi.
Mehnat mexanizatsiyasi koeffitsiyenti:
yil boshida 765 : 1065 = 0,718 yoki 71,8 %;
yil oxirida 750 : 962 = 0,781 ga yoki 78,1 %ga tengdir.

Agar mehnati mexanizatsiyalashgan xodimlarning ulushi 50 % dan kam bo'lsa, bu yerda xodimlar mehnatining mexanizatsiyalashganlik darajasini aniqlashga hojat yo'q. Unda qo'l mehnati ham ustuvordir. Shu tariqa, «Madaniyat» OTAJda mehnat mexanizatsiyasi darajasi 6,3 %ga (78,1—71,8) ortdi. Shu bilan birga, hali qo'l mehnati darajasi ham yuqori, ya'ni 21,9 %ni (100,0—78,1) tashkil qiladi.

**Ishlarning mexanizatsiyalashganlik koeffitsiyenti** mexanizatsiya orqali bajarilgan ishlarga sarflangan vaqtning umumiy sarflangan vaqtga nisbati sifatida aniqlanadi. Mavjud hisobotda hozircha mexanizatsiya yo'li bilan bajarilgan ishlarga sarflangan vaqt, mehnati mexanizatsiyalashgan yoki qisman mexanizatsiyalashgan xodimlar soni haqidagi ma'lumotlar keltirilmagan. Shuning uchun mehnat mexanizatsiyasi koeffitsiyentlarini hisoblash uchun ma'lumotlar tanlanib kuzatish yordamida yoki uni ekspertlar orqali aniqlash mumkin.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini o'tgan yil va bir necha yil bilan taqqoslab, o'zgarishlar qonuniyatlari, ishlab chiqarish dasturining bajarilishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va qo'l mehnati yengillashishiga ta'siri haqida tegishli xulosa chiqarish mumkin.

## 6.5. Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

**Asosiy vositalardan (Av) foydalanish samaradorligi** darajasidan umuman ishlab chiqarish samaradorligi kelib chiqadi. Asosiy vositalardan qanchalik ko'p foydalanilsa, shunchalik ko'p mahsulot chiqariladi, uning tannarxi arzonlashadi, mehnat samaradorligi, foyda va rentabellik yuqori bo'ladi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga: Av mahsuldorligi, Av rentabelligi, mashina va uskunalar quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti kiradi.

**Asosiy vositalar fond mahsuldorligi** tahlil qilinayotgan davrda (odatda, bir yilda) ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulotning o'rtacha yillik qiymatiga nisbati shaklida quyidagi formula orqali topiladi:

$$Avm = \frac{M}{Av_{O'r.}},$$

bunda, $Avm$ — fond mahsuldorligi; $M$ — tahlil qilingan davrda ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulot hajmi; $Av_{O'r.}$ — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.

Bozor munosabatlari sharoitida sotilgan mahsulot hajmi xo'jalik faoliyatini to'la hajmda aks ettiradi. Foyda va rentabellik kabi korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham ushbu ko'rsatkichlarga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun asosiy vositalar mahsuldorligini ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha emas, sotilgan mahsulot hajmi bo'yicha aniqlash to'g'ri bo'ladi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Avm = \frac{S}{Av_{O'r}},$$

bunda, $S$ — sotilgan mahsulot hajmi.

Asosiy vositalarning o'rtacha yillik summasi o'rtacha xronologik ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi (Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 1995-yil 2-oktyabrdagi 99/54-sonli «Korxonalarda mulk solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasi).

$$Av = \frac{Av_1/2 + Av_2 + ... + Av_{12} + Av_{13}/2}{12},$$

bunda, $Av_1$ va $Av_{13}$ — yil boshi va oxiridagi asosiy vositalar summasi; $Av_2$, $Av_3$ ... $Av_{12}$ — har oy boshi va oxiridagi asosiy vositalar summasi.

Shuni ham hisobga olish lozimki, asosiy vositalar oyning 15-kunigacha kiritilsa yoki hisobdan chiqarilsa, bu oy o'rtacha yillik summasi hisob-kitobiga kiradi; agar 15-kundan keyin xarid qilingan yoki sotilgan bo'lsa, bu oy hisob-kitobiga kirmaydi. Av. rentabelligi asosiy vositalarning 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi. U sof foydaning asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan quyidagicha aniqlanadi:

$$Raf = \frac{SF \cdot 100}{Av_{O'r}},$$

bunda, *Raf* — asosiy fondlar rentabelligi; *SF* — sof foyda.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligiga turli omillar ta'sir qiladi. Ularga:

- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi;
- asosiy vositalar o'rtacha yillik summasi;
- ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar mehnatining samaradorligi;
- asosiy vositalar samaradorligi;
- asosiy vositalar alohida turlaridan foydalanish samaradorligi kabilar kiradi.

Tahlil qilishda ushbu omillar ta'sirini hisoblash, o'tgan yil ishlab chiqarish dasturi ma'lumotlari bilan taqqoslash va dinamikasini o'rganish lozim. Asosiy vositalarning alohida turlari, avvalambor, ularning aktiv qismi (mashina va uskunalar)dan foydalanish ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli bu sohani ham yaxshi o'rganish lozim. Barcha uskunalar mavjud, o'rnatilgan va ishlayotganlarga ajratiladi.

**Mavjudlariga** korxona ixtiyorida bo'lgan, qayerdaligi (sex, ombor) va qanday holatdagidan qat'i nazar, barcha uskunalar kiradi.

**O'rnatilgan uskunalar** — bu montaj qilingan va ishga tayyorlangan ish joyidagi uskunalardir.

**Ishlayotgan uskunalar** — bu qancha vaqt turganligidan qat'i nazar, (hisobot davrida) amalda ishlayotgan uskunalardir.

Asosiy vositalar samaradorligini tahlil qilishda muayyan sanadagi amalda mavjud uskunalarga nisbatan o'rnatilgan uskunalar darajasini aniqlash, ya'ni o'rnatilgan uskunalar koeffitsiyentini quyidagi formula bo'yicha hisoblash lozim:

$$Ko'r.us. = \frac{O'rn.\ usk.}{Amal.\ mav.},$$

bunda, *Ko'r.us.* — o'rnatilgan uskunalar koeffitsiyenti; *Amal.mav.* — amalda mavjud uskunalar; *O'rn.usk.* — muayyan sanadagi amalda o'rnatilgan uskunalar.

So'ngra quyidagi formula asosida o'rnatilgan uskunalarga nisbatan ishlayotgan uskunalar koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$Kishl. = \frac{Ishl.\ usk.}{O'rn.usk.},$$

bunda, *Kishl.* — ishlayotgan uskunalar koeffitsiyenti; *Ishl.usk.* — amalda ishlayotgan uskunalar.

O'rnatilmagan uskunalarning barcha turlari va sabablarini ham aniqlash lozim. O'rnatilmagan uskunalar — «harakatsiz» sarmoyadir. Uni joriy qilish chiqarilayotgan mahsulotning ko'payishiga olib keladi va undan foydalanish samaradorligini oshiradi. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishda ekstensiv va intensiv omillarning ishlab chiqarish dasturi bajarilishiga ta'sirini topish ham zarurdir. Uskunalardan ekstensiv foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarga: uskunalar miqdori, jumladan, ishlatilmayotgan mehnat vositalari ulushi; uskunalarning ishlamagan vaqti (dastgoh, soatlar); uskuna ishlashining smenadorlik koeffitsiyenti; mashina va dastgohlar saroyi tuzilishi kabilar kiradi.

Bir uskunadan **ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti** ishlangan mashina va dastgoh-soat amaldagi miqdorini ularning reja va bazis miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. **Intensiv foydalanish koeffitsiyenti** bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi bilan o'lchanadi. Uni aniqlash uchun bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini rejadagi mahsulot bilan aniqlanadi.

# *7-bob.* KORXONADA NOMODDIY AKTIVLAR MAZMUNI, KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA TAHLIL QILISH YO'LLARI

## 7.1. Nomoddiy aktivlarning mazmuni va turlari

Hozirgi paytda respublikamizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan yangi schyotlar rejasiga o'tkazish amalga oshirilyapti. Natijada, hisob sohasida yangi tushuncha va atamalar paydo bo'lmoqda: nomoddiy aktivlar, investitsiyalarning uzoq muddatli turlari, gudvil, lizing, qimmatli qog'ozlar bozori, ish faolligi, bozor faolligi va boshqalar. Korxona rahbarlari, buxgalterlar va moliyaviy menejerlari ushbu tushuncha va atamalar haqida tasavvurga ega bo'libgina qolmay, balki o'zlarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida ularni faol qo'llashlari, o'z vaqtida ularga nisbatan zarur boshqaruv qarorlari chiqarishlari shart.

Nomoddiy yoki «ushlab ko'rish mumkin bo'lmagan» aktivlar — bu huquqlar va nomoddiy resurslar bo'lib, ular bozorda korxona (firma)ga ustunlik beradi. Bunday aktivlarga mualliflik huquqlari, patentlar,, savdo belgilari, firma nufuzi, kompyuter dasturlari, reklamaga ajratiladigan sarmoya xarajatlari, tashkiliy xarajatlar, litsenziyalar, ijara shartnomalari, franshizalar kiradi.

Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish tartibi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 20-sentyabrda ro'yxatga olingan 7-sonli buxgalterlik hisobi milliy standartida aks ettirilgan. Litsenziya shartnomalarining qat'iy belgilangan huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 4-bo'limi, 59-bobi, 1036-moddasida aks etgan.

Amaliyotda nomoddiy aktivlar xo'jalik oborotida turli maqsadlarda qo'llaniladi:

• **tijorat maqsadida** — ustav sarmoyasiga badal sifatida qo'yishda, ularning oldi-sotdi jarayonida foyda olishda, noqonuniy foydalanilganida ehtimoliy zararlarni qoplash maqsadida;

• **korxona balansini hisobga olishda** — o'z mablag'lari, buyurtmachi mablag'lari hisobiga tashkil etilgan, uchinchi shaxslardan xarid qilingan nomoddiy aktivlarning barcha turlarini hisobga olishda;

• **kompleks foydalanilganida** — korxonani xususiylashtirishda, sug'urta qilishda, garovga qo'yishda;

• **foydada ishtirok etganda** — mualliflik qalam haqini to'laganda, foydadagi hissasini aniqlaganda;

• **mahsulot tannarxida aks ettirilganida;**

• **soliqqa tortish bazasini aniqlaganda.**

Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar asosiy vositalar singari hisobga olinadi. Chunki ular uzoq vaqt foydalanish uchun xarid qilinadi va sotish uchun mo'ljallanmagan hamda foydalanish muddati jihatidan asosiy vositalarga o'xshaydi. Nomoddiy aktivlar jismoniy ko'rinishga ega emas. Buxgalteriya balansining 1-bo'limidagi «Uzoq muddatli aktivlar»da boshlang'ich qiymati (020-satr), eskirish (021-satr) va qoldiq qiymati (022-satr)da aks ettiriladi. Korxonaning mol-mulki solig'ini hisoblash va to'lash jarayonida ular asosiy vositalarga kiritiladi.

**Nomoddiy aktivlar** xo'jalik faoliyatida uzoq muddat davomida foydalaniladigan va daromad keltiradigan aktivlardir. Korxonada buning uchun sarflangan xarajatlar ularning qo'yilmalari sifatida namoyon bo'ladi. Eng keng tarqalgan nomoddiy aktivlar orasida: patentlar, nou-xau, mualliflik huquqlari, franshizalar, savdo belgilari, tashkiliy va muddati uzaytirilgan xarajatlar, gudvil kabilarni ko'rsatish mumkin.

**Patent** — egasining o'z aqliy (intellektual) faoliyati natijalariga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan va himoyalaydigan hujjatdir. U egasiga patentlangan buyum, jarayon yoki faoliyatni qo'llash, ishlab chiqarish, sotish va nazorat qilish huquqini beradi. Patentni tegishli organlar tomonidan ro'yxatga olinishi uning himoyasini kafolatlamaydi. Chunki u sudda muvaffaqiyatli himoya qilinmagunga qadar raqobatbardosh hisoblanmaydi. Patentni sudda muvaffaqiyatli himoya qilish bilan bog'liq xarajatlar sarmoyaga aylantirilishi zarur. Chunki ushbu xarajatlar uning qiymatiga kiritiladi, ya'ni patentning balans qiymati muayyan summaga kamayadi.

Nou-xau — bu ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnik, to'plangan tajriba, ishlab chiqarish siri kabi

bilimlar majmuasidir. Nou-xau shakllari turli-tuman bo'lib, ularning barcha turlari nomoddiy aktivlar hisoblanadi. Nou-xauni tijorat maqsadida berish, almashtirish va tarqatish, avvalambor, litsenziya shartnomalari tuzish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Nou-xaudan daromad (foyda) olish maqsadida foydalaniladi. Nou-xauni xarid qilish ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni yengillashtiradi va arzonlashtiradi, ishlab chiqarish sirlarini to'liq saqlanishi, sotuvchi firma mutaxassislarining ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish va nazorat qilishda ishtirok etishini ta'minlaydi.

**Mualliflik huquqlari** — qonun tomonidan fan va adabiyot, musiqa, tasviriy san'at va hokazo asarlari mualliflariga beriladigan himoyalanish shaklidir. Mualliflik huquqlari ular egalariga o'z ishlarini nashr ettirish, qayta nashr ettirish, ko'paytirish, sotish, nusxalarini tarqatish, o'z asarlarini ijro etish va tasmaga yozish bo'yicha tegishli huquqlarni beradilar.

Mualliflik huquqi qiymati, uning tannarxiga tegishli ravishda o'lchanishi nazarda tutiladi. Mualliflik huquqi, odatda, amal qilish muddati davomida iqtisodiy qiymatga ega bo'lmaydi. Uning qiymati undan daromad olish kutilayotganida amortizatsiya qilishi mumkin. Biroq bu muddatning amal qilish vaqti muallif hayot bo'lgan yillar va undan keyin esa 50 yildan oshmasligi lozim.

**Savdo belgilari va savdo nomlari** — muayyan kompaniya mahsulotlari yoki xizmatlarini identifikatsiya qiladigan belgi, ramz yoki nomlardir. Masalan, «Coca-Cola», «Sino» va boshqalar. Ular egalik qilishni asoslash va yuridik himoyalanish uchun ro'yxatga olinadi. Savdo belgisini xarid qilish, tayyorlash, himoyalash, ro'yxatga olish, sarmoyaga aylantirilishi, ya'ni uning qiymatga kiritilishini ta'minlash kerak. Savdo belgisining foydali xizmat qilish muddati 40 yil mobaynida amortizatsiyalanadi. Bu muddatlarda qaysi biri qisqaroqligi e'tiborga olinadi.

**Franshizalar** — hukumat organlari tomonidan xo'jalik subyektlariga davlat mulki, kommunal xizmatlari (elektr energiyasi) yoki yakka holdagi nomdan (masalan, «Makdonalds») foydalanish huquqi uchun imtiyozlardir. Franshiza kontrakti amal qilish muddati, shuningdek, franshiza beruvchi va oluvchi huquqi hamda majburiyatlarini belgilaydi.

Franshizaning boshlang'ich qiymati ham sarmoyaga aylantirilishi, so'ngra u amal qilgan muddat davomida xarajatlarga kiritilishi kerak. Bu davr alohida kelishilmagan bo'lsa, amortizatsiya aniq belgilangan xizmat muddatidan kelib chiqib aniqlanadi. U avvalgi narxni qayta ko'rib chiqish uchun muntazam baholanadi. To'liq amortizatsiya davri 40 yildan oshmasligi lozim. Franshiza imtiyozdan foydalanadigan subyekt tomonidan uni xizmatlar, masalan, rag'batlantirish kompaniyalarida, buxgalteriya hisobi va tashkiliy masalalarda ko'maklashganligi uchun taqdim etgan subyektga yillik va joriy to'lovlar amalga oshirilgan xarajatlar hisobiga chiqarilishi lozim, chunki istiqbolda foyda keltirmasligi ayon. Franshiza qadrini yo'qotsa yoki qonun bilan bekor qilinsa, amortizatsiyalanmagan summa zarar sifatida hisobdan chiqariladi.

**Ijara** — ijara beruvchi tomonidan ijaraga oluvchiga aktivdan foydalanish uchun berilgan huquq. Ko'pincha korxona yollash to'g'risidagi xo'jalik shartnomasiga muvofiq boshqa tomonning mol-mulkini ijaraga oladi va oldindan haq to'laydi. Oldindan to'langan ijara haqi, masalan, majburiyatlarni kamaytirish to'lovlari odatda, butun ijara davrini qamrab oladi. Bunday oldindan to'lash dastlab «Bo'nak bilan to'langan ijara» schyotiga o'tkazilishi zarur. Bunday aktivlar qiymati «Ijara bo'yicha xarajatlar» schyotining debitiga yoziladi.

**Muddati uzaytirilgan xarajatlar** — bo'nak daromadlar vujudga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xizmatlar xarajatlari. Ular uzoq muddatli va oldindan to'langan xarajatlar sifatida balansda aks ettiriladi hamda uzoq muddatli aktivlar sifatida tasniflanadi. Chunki joriy aktivlar amal qilish muddati tugaganidan keyin ham daromadlarga ta'sir qiladi. Muddati uzaytirilgan xarajatlar jismoniy mohiyatga ega bo'lmaydi. Bunday xarajatlarga sug'urtalash bo'yicha uzoq muddatli oldindan to'langan badallar yoki ijara to'lovlari kiritilishi mumkin. Muddati uzaytirilgan xarajatlar daromad kelishi mo'ljallangan kelgusi davrlarda amortizatsiyalanadi.

**Tashkiliy xarajatlar** — tashkiliy faoliyat paytidagi yuridik, buxgalterlik, kanselyariya xarajatlaridir. Ular sarmoyaga aylantirilishi mumkin. Chunki kelajakda foyda keltiradi. Biroq, bu xarajatlarni korxona faoliyatining birinchi yilida xarajatlarga kiritish daromadlar

bilan muvofiqlikka olib keladi. Tashkiliy xarajatlarni amortizatsiyalash muddati tadbirkorlikning aniq turidan kelib chiqib, rahbariyat tomonidan aniqlanadi.

**Gudvil** — firma nufuzining shartli qiymati. Uning nomoddiy mulkchiligi tijorat korxonasiga boshqa xuddi shunday korxonalar oladigan me'yoriy yoki ko'zda tutilgan foydadan ortiqcha daromad olish imkonini beradi.

Kompaniya xarid qilinganida yuritilayotgan kompaniya qiymatining, uning aktivlari qiymatidan ortiqcha qismi «gudvil» — «erkin xohish», nufuz, obro' deb nomlangan nomoddiy aktiv hisoblanadi. Umuman, gudvil yaxshi tanish bo'lgan savdo belgisi, iste'molchilar bilan samimiy munosabatlar, kompaniya xizmatchilarining yuqori axloqiy fazilatlari va shunga o'xshash boshqa jihatlarni o'z ichiga oladi. Ular kompaniyaga odatdagidan ko'ra ortiqcha foyda olish imkonini beradi.

Firma ikkinchi firmani xarid qilgan identifikatsiya aktivlari bozor qiymatidan ortiqcha narxga sotib olgandagina gudvilni muayyan summada tan oladi.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| *Gudvil* | = | *firmani xarid qilishning amaldagi narxi* | — | *xuddi shunday aktivlarning haqqoniy bozor qiymati* |

Gudvil tan olinganidan keyin uni amortizatsiya ko'rinishida xarajatlarga kiritish masalasini hal etish joiz. Buning uchun aktiv foydali amal qilish muddatini aniqlash va gudvil summasini ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish, ya'ni amortizatsiya qiymatini aniqlash zarur. Bunday aniqlash muddati ma'lum bir yildan oshmasligi shart.

## 7.2. Nomoddiy aktivlarni baholash

Nomoddiy aktivlarni boshqarish va ularni hisobga olish jarayonida quyidagi baholash ko'rsatkichlari qo'llaniladi: amortizatsiya, amortizatsiyalanadigan qiymat, foydali xizmat muddati, boshlang'ich va tugatish qiymati, sotish va qoplash qiymati, qoldiq qiymati.

**Amortizatsiya** — nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati davomida teng taqsimlash va amortizatsiya qiymatini o'tkazish ko'rinishida aks ettirishdir.

**Amortizatsiyalanadigan qiymat** — moliya hisobotida ko'rsatilgan, ehtimoliy tugatish qiymati chegirilgan holdagi aktivning boshlang'ich qiymati yoki boshlang'ich qiymat o'rnini bosuvchi boshqa qiymat summasidir.

**Foydali xizmat muddati** deganda, xo'jalik subyekti tomonidan aktivlardan foydalanish muddati yoki bu aktivdan foydalanib, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish davri tushuniladi.

**Boshlang'ich qiymat** — aktivni xarid qilishda amalda sarflangan pul mablag'lari yoki uning ekvivalentlari qiymati yoki ishlab chiqarishning amaldagi xarajatlarda ifodalangan tannarxi hisoblanadi.

Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati eskirishini hisoblash va uni ishlab chiqarish yoki muomala xarajatlariga kiritish yo'li bilan kamaytiriladi. Nomoddiy aktivlarning har oylik eskirishi summasi korxona rahbariyati tomonidan, uning boshlang'ich qiymati va foydali amal qilish muddatiga qarab korxonaga daromad keltirgan vaqtdan kelib chiqib aniqlanadi. Foydali muddatini aniqlash mumkin bo'lmagan hollarda nomoddiy aktiv uchun eskirish me'yorlari 10 yil hisobida, lekin korxona amal qilish muddatidan ko'p bo'lmagan davrga belgilanadi.

**Tugatish qiymati** — aktiv foydali xizmat muddati so'nggida vujudga keladigan hamda chiqarib yuborish xarajatlari chegirilgan taxminiy qiymat.

**Sotish qiymati** — nomoddiy aktivlarni sotishdan tuzilgan bitim vaqtida manfaatdor tomonlar o'rtasida kelishilgan qiymati.

**Qoldiq balans qiymati** — akkumulatsiyalangan (jamlangan) amortizatsiya chegirilgandan keyingi nomoddiy aktivlarning boshlang'ich yoki joriy qiymati. Bu qiymatda nomoddiy aktiv hisob va hisobotda aks ettiriladi.

**Qoplash qiymati** — xo'jalik subyekti aktivdan keyinchalik foydalangan holda qoplashni nazarda tutgan summa. Bunga tugatish qiymati ham kiradi. Nomoddiy aktivlarning biron holatini tavsiflaydigan mazkur baholash ko'rsatkichlari korxona asosiy mablag'larini baholashda ham qo'llaniladi. Nomoddiy aktivlar pulsiz

almashishish (barter) tartibida olinsa, ularning qiymati o'rniga beriladigan mol-mulk bozor narxi bo'yicha aniqlanadi. Nomoddiy aktivlar pul mablag'lariga xarid qilinsa, ular qiymati shartnomada bozor narxi bo'yicha kelishiladi. Nomoddiy aktivlar xo'jalik subyektining o'zi tomonidan yaratilsa, ular amaldagi tannarxi bo'yicha baholanadi. Bepul berilganida ular avvalgi amortizatsiyalar summasini chegirgan holda qiymati bo'yicha baholanadi. Qiymatini aniqlash iloji bo'lmagan taqdirda, ular aktivga kiritilmaydi.

Aqliy mulk va umuman nomoddiy aktivlarni baholashda «universal» uslubning yo'qligi ularni baholashni qiyinlashtiradi. Nomoddiy aktivlar subyektlarning har biri (mohiyati bo'yicha) o'ziga xos bo'lganligi tufayli ularni ishlab chiqarish jarayonida qo'llash shartlari ham, odatda, bir-biridan farqlanadi. Masalan, aqliy mulk qiymati, yangilik jihati, keyinchalik tijorat maqsadida qo'llash imkoniyati va boshqalarga bog'liq bo'ladi. 1998-yil 20-oktyabrda 506-sonli «Nomoddiy aktivlar», shu yil 28 dekabrda 581-sonli «Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqarishlarga xarajatlar» nomli O'zRning BHMS qabul qilindi. Ular aqliy mulk obyektlari va boshqa nomoddiy aktivlar obyektlarini bozor qiymatida baholash va ularni hisobga olish uchun me'yoriy-uslubiy asos bo'lib hisoblanadi.

Barcha nomoddiy aktivlar boshlang'ich qiymati, ya'ni xarid qilish, huquqlarni himoya qilish bilan bog'liq maslahatlar olish, marketing tadqiqotlarini o'z ichiga olgan amaldagi hujjatlar bo'yicha buxgalterlik hisobida baholanadi. Nomoddiy aktivlarni hisobga olish tegishli hujjatlar patentdan foydalanish huquqini beruvchi guvohnoma, dasturiy ta'minot ishlanmalarini qabul qilish dalolatnomalari, aktivlarni kiritish va ular qiymatini kelishish bayonnomalari va boshqa hujjatlar bo'yicha amalga oshiriladi. Ular obyekt bayoni, uning boshlang'ich qiymati, foydalanish tartibi, foydalanish muddatini o'z ichiga olishi zarur.

Nomoddiy aktivlar:

- ular shartnomaviy, kelishilgan qiymatda sotilganida;
- boshqa korxonalarga bepul berilganida;
- to'liq eskirganida yoki daromad xususiyatlari yo'qolganligi uchun chiqarilganida;

• qo'shma va shu'ba firmalari, aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondlariga kiritilganida hisobdan chiqariladi.

Berish va chiqarish dalolatnomalari, aksiyadorlar yig'ilishi bayonnomalari hamda boshqa hujjatlar chiqarilgan nomoddiy aktivlarni hisobdan o'chirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Nomoddiy aktivlarni chiqarishdan olingan daromad yoki ko'rilgan zarar aktivlarni sotishdan kelgan tushum va balans (qoldiq) qiymati orasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ular moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda daromad yoki xarajat sifatida ko'rsatiladi.

Nomoddiy aktivlarni o'rganayotganida ularni xarid qilishning amaldagi samaradorligiga e'tibor berish lozim: ular haqiqatan ham korxonaga kutilgan foyda keltirayaptimi, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini ko'paytirayaptimi? Bu savollarga aniq javob olish lozim. Moliyaviy hisobotda nomoddiy aktivlar turlari, ularni xarid qilish va qo'llash muddatlari haqida ma'lumotlar berilmagan. Shuning uchun ularni buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan olish lozim. Bu ma'lumotlardan foydalanib:

• boshlang'ich va qoldiq qiymati bo'yicha nomoddiy aktivlar umumiy qiymati;

• nomoddiy aktivlar eskirish darajasi va qoldiq summasi;

• nomoddiy aktivlar turlari tuzilmasini aniqlash zarur.

Hisob-kitoblar orqali nomoddiy aktivlarni oydinlashtirish, ya'ni holati va foydalanish samaradorligi, maqsadga muvofiqligini bayon etish hamda keyinchalik samarali foydalanish uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish lozim. Nomoddiy aktivlar holati ularning umumiy summasi, turlari bo'yicha tuzilmasi, nomoddiy aktivlar umumiy summasining uzoq muddatli aktivlar summasi hamda xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushi kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligi ular rentabelligi, xarid qilish xarajatlarini qoplashi, mehnat unumdorligi darajasi ortishi, ulardan foydalanish natijasida mahsulot sifati oshishi bilan aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar nomoddiy aktivlarning har bir turi tavsifida aks etishi kerak. Korxona rahbarlari, tahlilchilar nomoddiy aktivlardan foydalanishni o'rganayotganida amaldagi ko'rsatkichlarni haqiqiy ma'lumotlar bilan taqqoslashlari

lozim. Nomoddiy aktivlar rentabelligi ular keltirayotgan foyda (daromad) summasining boshlang'ich qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

O'zini-o'zi qoplashi xarid qilish uchun sarflangan mablag'larning qaytishini ko'rsatadi. U nomoddiy aktivlarning qo'llash natijasida olinayotgan foyda summasiga nisbati sifatida hisoblanadi. Bu foyda summasini tanlash (hisob-kitob qilish) yo'li bilan olinishi mumkin. Nomoddiy aktivlarni xarid qilishdan avval, korxona rahbarlari ularning barcha xususiyatlarini puxta o'rganib chiqishlari, ishlab chiqarishda foydalanish zarurati borligiga amin bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz korxonalarida nomoddiy aktivlardan hozircha kam foydalanilmoqda. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot sifatini, korxona faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan tobora ko'proq foydalanishni talab etadi. Nomoddiy aktivlar hisobini to'g'ri yuritish, baholash va samarali foydalanish korxona iqtisodiyoti va umuman respublika xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

## 7.3. Nomoddiy aktivlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va tasnifi

Bozor munosabatlarining shakllanishi korxona iqtisodiy salohiyati tarkibiga yangi nomoddiy aktivlar tushunchasini kiritishni taqozo qilmoqda. Nomoddiy aktivlar moddiy bo'lmasa-da, korxonaga moddiy resurslar singari foyda keltirishi mumkin. Shu bilan birgalikda nomoddiy aktivlarga ham korxonaning muayyan mablag'lari qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir so'm qo'yilgan mablag', mulk egasiga qaysi sohaga yoki qaysi obyektga qo'yishidan qat'i nazar, ma'lum darajada foyda keltirishi kerak. Bu holat esa, korxonaning nomoddiy aktivlarini ham tahlil qilishni taqozo qiladi.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarning ayrimlarida ushbu masala deyarli yoritilmagan. Nomoddiy aktivlarning hisobi va mazmuni haqida bir qator adabiyotlar mavjud. Lekin uni ifodalovchi ko'rsatkichlar, baholash va tahlil qilish yo'llari yetarli darajada tadqiq qilingan emas. Masalan, iqtisodiy va moliyaviy tahlil bo'yicha keyingi

yillarda chop qilingan G.V.Saviskayaning darsligida[1], I.O.Voljin va V.V. Ergashboyev[2], A.T.Ibrohimov[3], V.V.Patrov va V.V. Kovalyovlar[4] hamda N.Hasanov va S.Najbitdinovlarning[5] kitoblarida ushbu masala atroflicha tadqiq qilinmagan.

Nomoddiy aktivlar hisobi to'g'risida respublikamizda milliy standart qabul qilingan. Ko'plab korxonalarda ular buxgalteriya balansida o'z aksini topmoqda. Bunday sharoitda nomoddiy aktivlar nafaqat buxgalteriya hisobi, balki iqtisodiy tahlilning ham obyektiga aylanishi lozim. Buni inobatga olib nomoddiy aktivlarni tahlil qilish bo'yicha ayrim tavsiyalarni ishlab chiqdik[6].

Nomoddiy aktivlarga, ta'kidlanganidek, quyidagilar kiradi:

- yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining qiymati;
- bino, inshoot, uskuna va jihoz kabi mulklardan foydalanish huquqining qiymati;
- ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari, «nou-xau» kabilardan foydalanish huquqlarining qiymati;
- tovar belgilari va boshqa intellektual mulkdan foydalanish kabi huquqlarni beruvchi ruxsatnomalar qiymati.

Bular buxgalteriya balansining aktiv qismidagi «Nomoddiy aktivlar» moddasida ifodalanadi. Ularni tahlil qilish uchun ham ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy mazmuni bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: nomoddiy aktivlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning samaradorligini

---

[1] Г.В.Савицкая. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Мн., ИП «Экоперспектива», 1997.

[2] I.O. Voljin , V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1998.

[3] A.T. Ibrohimov. Moliyaviy tahlil. T., «Mehnat», 1995.

[4] В.В. Патров, В.В. Ковалёв. Как читать баланс. М., «Финансы и статистика», 1993.

[5] N. Hasanov, S. Najbitdinov. Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999.

[6] M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999, 95—102-betlar; M.Q. Pardayev. Moliyaviy tahlil muammolari. «Iqtisod va hisobot» jurnali, 1997, № 1, 43—45-betlar; M.Q. Pardayev. Moliyaviy tahlil metodologiyasi. Samarqand, SamKI, 1997; M.Q. Pardayev. Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini tahlil qilish. Samarqand, SamKI, 1998.

ifodalovchi ko'rsatkichlar. Har bir guruh ko'rsatkichlar o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Masalan, nomoddiy aktivlarning holatini ifodalash uchun to'rt, uning samaradorligini baholash uchun esa uch ko'rsatkichdan foydalaniladi. Ularning tasnifi 7.1-chizmada keltirilgan.

*7.1-chizma.* Nomoddiy aktivlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.

Tahlil jarayonida har bir guruh ko'rsatkichining tarkibi va ularni hisoblash yo'llarini aniqlash maqsadga muvofiq. Nomoddiy aktivlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: nomoddiy aktivlarning umumiy hajmi; ularning o'rtacha yillik qiymati; umumiy aktivlardagi ulushi; eskirish koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilishi 7.2-chizmada ifodalangan.




*7.2-chizma.* Nomoddiy aktivlarning (Na) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari.

Nomoddiy aktivlarga qo'yilgan mablag' ham ma'lum darajada foyda keltirishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida uning samaradorligini baholashni taqozo qiladi. Nomoddiy aktivlarning samaradorligini ifodalash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tavsiya qilinadi: nomoddiy aktivlarning daromadliligi; nomoddiy aktivlarning rentabelligi va nomoddiy aktivlarning aylanuvchanligi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari va har birining qisqacha tavsifi 7.3-chizmada keltirilgan.




*7.3-chizma.* Nomoddiy aktivlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari.

Agar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda nomoddiy aktivlardan foydalanish evaziga olinadigan daromad, foyda yoki boshqa natija ko'rsatkichini aniqlash mumkin bo'lsa, u holda ushbu ko'rsatkichlarning umumiy hajmi emas, balki faqat shu nomoddiy aktivlarga tegishli qismi aniqlanadi. Bunday sharoitda nomoddiy aktivlarning haqiqiy samaradorligini aniqlash va tahlil qilish imkoni tug'iladi. Ammo hozircha bunday imkoniyat yetarli bo'lmaganligi tufayli natijaviy ko'rsatkichlar sifatida daromad, foyda va mahsulot (ish, xizmat) hajmining umumiy miqdori olinmoqda.

Tahlil jarayonida korxona iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganish, ularning farqini aniqlab, har birining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash orqali korxona iqtisodiy salohiyatining samaradorligini oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni axtarib topish lozim.

## 7.4. Nomoddiy aktivlar tahlili

Nomoddiy aktivlarni tahlil qilish uchun, asosan, buxgalteriya balansi va hisobi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Tahlil ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchidan, uning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganilsa, ikkinchidan, samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Nomoddiy aktivlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilinganda uning dinamikasini boshqa ko'rsatkichlar bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun 7.1-jadvaldan foydalaniladi.

*7.1-jadval*

**Nomoddiy aktivlarning dinamikasidagi o'zgarishlarni hisob-kitob qilish**

| Yillar | Barcha aktivlar | | Nomoddiy aktivlar | | Nomoddiy aktivlarning barcha aktivlardagi ulushi |
|---|---|---|---|---|---|
| | summasi, ming so'm | o'zgarish sur'ati, % | summasi, ming so'm | o'zgarish sur'ati, % | |
| 1997 | 8917,2 | 100,0 | 156,1 | 100,0 | 1,75 |
| 1998 | 9380,9 | 105,2 | 162,8 | 104,3 | 1,74 |
| 1999 | 9657,3 | 108,3 | 191,2 | 122,5 | 1,98 |
| 2000 | 10031,9 | 112,5 | 205,6 | 131,7 | 2,05 |
| 2001 | 10659,4 | 119,3 | 218,3 | 139,8 | 2,05 |
| 2002 | 11200,0 | 125,6 | 222,5 | 142,5 | 1,99 |

**Ko'rsatkichlar yil boshiga olingan.*

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil davrida nomoddiy aktivlar 142,5 % oshgan bir paytda, barcha aktivlarning o'sish sur'ati 125,6 %ni tashkil qilgan. Ya'ni, nomoddiy aktivlarning summasi barcha aktivlarga nisbatan tez sur'atlar bilan o'smoqda. Natijada, ularning ulushi ham o'sish tendensiyasiga ega. Ushbu korxonada nomoddiy aktivlarning ulushi 1997-yilning boshida 1,75 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2002-yilning 1-yanvari kelib, bu ko'rsatkich 1,99 %ni tashkil qilmoqda. Nomoddiy aktivlarning o'sish sur'ati o'tish davri iqtisodiyotida saqlanib qoladi. Negaki, ularga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Tahlilning navbatdagi bosqichida nomoddiy faollarning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash lozim. Buning uchun 7.2-jadval tavsiya qilinadi.

**Korxonada nomoddiy aktivlar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Nomoddiy aktivlarning (Na) umumiy hajmi, ming so'm | 218,3 | 222,5 | +4,2 | 101,9 |
| 2. | Barcha aktivlar qiymati, ming so'm | 10659,4 | 11200,0 | + 540,6 | 105,1 |
| 3. | Na. eskirish summasi | 54,6 | 69,0 | +14,4 | 126,4 |
| 4. | Na.ning barcha aktivlardagi ulushi, % (1q : 2q · 100) | 2,05 | 1,99 | −0,06 | 97,1 |
| 5. | Na.ning eskirish koeffitsiyenti (3q : 1q) | 0,25 | 0,31 | + 0,06 | 124,0 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada nomoddiy aktivlarning umumiy hajmi shu davrda atigi 1,9 % ko'paygan. Ammo uning eskirish summasi 26,4 %ga ortgan. Natijada nomoddiy aktivlarning eskirish koeffitsiyenti yil boshidagi 0,25 dan 0,31 gacha yoki 24,0 %ga ko'paygan. Nomoddiy aktivlarning barcha aktivlardagi ulushida hisobot davrida 2,9 %ga (100,0—97,1) kamaygan.

7.1-jadval bo'yicha nomoddiy aktivlarning dinamikasi tahlil qilinganda, uning barcha aktivlardagi ulushi ko'payish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. 7.2-jadvalda uning aksi. Demak, umumiy xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlarni tahlil qilganda, ularning dinamikasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki nomoddiy aktivlarning holati yaxshilanib borayotgan bir paytda hisobot yilida uning aksi bo'lgan. Agar shu yil ma'lumoti bilan cheklanib qolinganda, xulosa ijobiy bo'lmas edi.

Tahlilning navbatdagi bosqichida nomoddiy aktivlarning tarkibiy tuzilishi va ularning o'zgarishini o'rganish lozim. Chunki, mazkur ko'rsatkichning holatini tahlil qilganda tarkibiy tuzilishdagi o'zgarishlarni o'rganmasdan turib, nomoddiy aktivlar to'g'risida to'laqonli xulosa chiqarish qiyin. Shu tufayli ushbu holatni tahlil qilish uchun 7.3-jadvalni tavsiya qilamiz. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar tarkibida intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqi asosiy o'rinni egallaydi. Uning

*7.3-jadval*

**Korxonada nomoddiy aktivlar tarkibiy tuzilishining hisob-kitobi**

| Ko'rsatkichlar | Yil boshida | | Йил охирида | | Ўзгариши | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | summasi, ming so'm | ulushi, % | summasi, ming so'm | ulushi, % | summasi, ming so'm | ulushi, % |
| 1. Intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqi | 6939,3 | 65,1 | 7190,4 | 64,2 | +251,1 | – 0,9 |
| Shu jumladan: | | | | | | |
| 1.1. Mualliflik huquqi | 3037,9 | 28,5 | 3057,6 | 27,3 | –19,7 | – 1,2 |
| 1.2. Ixtiro uchun olingan patentlar | 3325,8 | 31,2 | 3561,6 | 31,8 | +235,8 | + 0,6 |
| 1.3. Nou-xau huquqi | 575,6 | 5,4 | 571,2 | 5,1 | – 4,4 | – 0,3 |
| 2. Savdo belgisi va savdo nomi | 767,5 | 7,2 | 795,2 | 7,1 | + 27,7 | – 0,1 |
| 3. Yer va tabiiy obyektlardan foydalanish huquqi | 1428,4 | 13,4 | 1601,6 | 14,3 | +173,2 | + 0,9 |
| 4. Tashkiliy xarajatlar | 927,4 | 8,7 | 929,6 | 8,3 | + 2,2 | – 0,4 |
| 5. Tashkilotning ishchanlik nufuzi | 159,8 | 1,5 | 179,2 | 1,6 | + 19,4 | + 0,1 |
| 6. Boshqa nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqi | 437,0 | 4,1 | 504,0 | 4,5 | + 67,0 | + 0,4 |
| JAMI: | 10659,4 | 100,0 | 11200,0 | 100,0 | + 4,2 | – |

ulushi yil boshida 65,1 %ni, yil oxiriga kelib esa 64,2 %ni tashkil qilgan, ya'ni 0,9 % bandga kamaygan. Uning tarkibida ixtiro uchun olingan patentlarning ulushi yuqori. Bundan tashqari mazkur tur nomoddiy aktivlarning ulushi ko'payish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Yil boshida uning ulushi 31,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 31,8 %ga, ya'ni 0,6 % bandga o'sdi. Mualliflik huquqi va nou-xau huquqi kamayib bormoqda.

Nomoddiy aktivlar tarkibida yer va boshqa tabiiy obyektlardan foydalanish huquqi salmoqli o'rinni egallaydi. Uning ulushi ham ko'payish tendensiyasiga ega. Yil boshidagi 13,4 % o'rniga yil oxirida 14,3 %ga oshgan. Mazkur korxonada savdo belgisi va savdo

nomining qiymati ham anchagina. Uning yil boshidagi ulushi 7,2 %ni tashkil qilgan edi, yil oxiriga kelib esa 7,1 %ga, ya'ni 0,1 % bandga kamaydi. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, uning ulushi kamaygani bilan summasi ko'paymoqda. Xuddi shunday holatni tashkiliy xarajatlar bo'yicha ham aytish mumkin. Nomoddiy aktivlar tarkibida tashkilotning ishchanlik nufuzi va boshqa nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqi ham o'sish tendensiyasiga egadir. Ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar tarkibida turli o'zgarishlar ro'y bergan. Korxona rahbariyati va mulkdor uchun ushbu o'zgarishlar qanday samara berganligi muhim.

## 7.5. Nomoddiy aktivlar samaradorligini tahlil qilish

Nomoddiy aktivlarning samaradorligi ko'rsatkichlar tizimida ifodalanadi. Bularga nomoddiy aktivlarning natijaviyligi (aylanuvchanligi), daromadliligi va rentabelligini kiritish mumkin. Ularni tahlil qilish uchun tegishli ma'lumotlarni korxonaning buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan olingan holda 7.4-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*7.4-jadval*

**Nomoddiy aktivlar samaradorligini aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. | Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,3 |
| 2. | Daromadlar, ming so'm | 511,0 | 711,7 | + 200,7 | 139,3 |
| 3. | Sof foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 4. | Nomoddiy aktivlarning (Na) o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 193,4 | 222,5 | + 29,1 | 115,0 |
| | Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 5. | Na. natijaviyligi, so'm (1q : 4q) | 23,70 | 25,59 | + 1,89 | 108,0 |
| 6. | Na. daromadliligi, so'm (2q : 4q) | 2,64 | 3,20 | + 0,56 | 121,2 |
| 7. | Na. rentabelligi, % (3q : 4q · 100) | 190,3 | 223,0 | + 32,7 | 117,2 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning samaradorligini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar miqdori, umuman olganda, o'sgan. Uning natijaviyligi 8,0 % o'sgan bo'lsa, daromadliligi 21,2 %, rentabellik ko'rsatkichi esa 17,2 %ga ortgan.

Bu ijobiy holat. Nomoddiy aktivlardan mazkur korxona samarali foydalanmoqda. Nomoddiy aktivlarning samaradorligini to'g'ri baholash uchun natija ko'rsatkichi yoki foydaning umumiy hajmi emas, balki faqat nomoddiy aktivlardan foydalanish evaziga olingan natijaviy ko'rsatkichlardan foydalanilganda ularning samaradorligini aniq baholash mumkin. Ammo ushbu ma'lumotlar hisob va hisobotlarda yetarli darajada aniq bo'lmaganligi tufayli, hozircha mazkur natijaviy ko'rsatkichlarning umumiy hajmidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tahlilning muhim vazifalaridan biri o'rganilayotgan har bir ko'rsatkichning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini hisoblab topishdan iboratdir. Mazkur holatda eng muhim ko'rsatkichlardan biri nomoddiy aktivlarning rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash usullarini ko'rib chiqamiz. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, nomoddiy aktivlar rentabelligi (Rna) o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qilar ekan:

- foydaning daromaddagi ulushi (Fd);
- mahsulotning daromadlilik darajasi (Dm);
- nomoddiy aktivlarning natijaviyligi (Mna).

Natija bilan ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Rna = Fd \cdot Dm \cdot Mna.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, natijaning o'zgarishi shu uch omilning o'zgarishiga bevosita bog'liq. Ularning ko'payishi natija ko'rsatkichi miqdorini ko'paytiradi, kamayishi esa, aksincha, kamaytiradi. Har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan biri bo'lgan zanjirli almashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Buning uchun quyidagi amalni bajarishni tavsiya qilamiz:

1. Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'sirini, ya'ni foydaning daromaddagi ulushi evaziga o'zgarishini quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Rna.fd = (Fd^h \cdot Dm^r \cdot Mna^r) - Rna^r,$$

bunda, $\Delta Rna.fd$ — nomoddiy aktivlar rentabelligi foydasining daromaddagi ulushi ta'sirida o'zgargan summasi; $Fd^h$ — foydaning daromaddagi ulushining haqiqiy miqdori; $Dm^r$ — mahsulot

daromadlilik darajasining rejadagi (asos davridagi) miqdori; $Mna^r$ — nomoddiy aktivlar natijaviyligining rejadagi miqdori; $Rna^r$ — nomoddiy aktivlar rentabelligining rejadagi miqdori.

2. Nomoddiy aktivlarning (Na) ikkinchi omil, ya'ni mahsulotning daromadlilik darajasi evaziga o'zgarishini (ΔRna.dm) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Rna.dm = (Fd^h \cdot Dm^h \cdot Mna^r) - (Fd^h \cdot Dm^r \cdot Mna^r),$$

bunda, $Dm^h$ — mahsulot daromadlilik darajasining haqiqiy miqdori.

3. Na.ning uchinchi omil, ya'ni uning natijaviyligi evaziga o'zgarishini *(ΔRna.mna)* aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Rna.mna = Rna^h - (Fd^h \cdot Dm^h \cdot Mna^r),$$

bunda, $Rna^h$ — nomoddiy aktivlar rentabelligining haqiqiy miqdori.

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng bo'lishi lozim.

$$\Delta Rna = \Delta Rna.fd \pm \Delta Rna.dm \pm \Delta Rna.mna.$$

Ushbu nazariy tavsiyalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, natija o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Buning uchun, eng avvalo, omillarni aniqlab olamiz. Ularni aniqlash uchun 7.5-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*7.5-jadval*

**Nomoddiy aktivlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Sof foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 2. | Daromadlar, ming so'm | 511,0 | 711,7 | + 200,7 | 139,3 |
| 3. | Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,3 |
| 4. | Nomoddiy aktivlarning (Na) o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 193,4 | 222,5 | + 29,1 | 115,0 |
| 5. | Natija va omillar: foydaning daromaddagi ulushi, % (1q : 2q · 100) | 72,02 | 69,72 | − 2,30 | 96,8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 6. | Mahsulotning daromadlilik darajasi, % (2к : 3к · 100) | 11,15 | 12,49 | + 1,34 | 112,0 |
| 7. | Nomoddiy aktivlarning natijaviyligi (3q : 4q) | 23,70 | 25,59 | +1,89 | 108,0 |
| 8. | Na. rentabelligi, % (1q : 4q · 100) | 190,3 | 223,0 | + 32,7 | 117,2 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlar rentabelligi 17,2 %ga ortgan. Unga ta'sir qiluvchi uch omildan biri foydaning daromaddagi ulushi 3,2 % (100,0—96,8) kamaygan. Qolgan ikki omilda o'sish ro'y bergan. Xususan, mahsulotning daromadlilik darajasi 12,0 % o'sgan bo'lsa, nomoddiy aktivlarning natijaviyligi 8,0 % o'sgan. Bu omillarning natija o'zgarishiga qay darajada ta'sir qilganligini aniqlash iqtisodiy tahlilning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu omillarning nomoddiy aktivlar rentabelligi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun 7.6-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz.

*7.6-jadval*

**Nomoddiy aktivlar samaradorligi o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini hisoblash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Zanjirli almashtirish | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III |
| 1. | Foydaning daromaddagi ulushi, % | 72,02 | 69,72 | − 2,30 | 69,72 | 69,72 | 69,72 |
| 2. | Mahsulotning daromadlilik darajasi, % | 11,15 | 12,49 | + 1,34 | 11,15 | 12,49 | 12,49 |
| 3. | Na.ning natijaviyligi, so'm | 23,70 | 25,59 | + 1,89 | 23,70 | 23,70 | 25,59 |
| 4. | Na.ning rentabelligi, % (1q : 2q : 3q) | 190,3 | 223,0 | + 32,7 | 184,2 | 206,4 | 223,0 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nomoddiy aktivlarning rentabelligi 32,7 % bandga o'sgan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning daromaddagi ulushi hisobot davrida 2,3 % bandga kamaygan. Natijada, nomoddiy aktivlarning rentabelligi 6,1 % bandga kamaygan:

$$184,2 - 190,3 = -6;1\ \%.$$

2. Mahsulotning daromadlilik darajasi 1,34 % ko'paygan. Ushbu omil natijasida nomoddiy aktivlarning rentabellik darajasi 22,2 % bandga ortgan:

$$206,4 - 184,2 = +22,2\ \%.$$

3. Nomoddiy aktivlarning natijaviyligi ham 1,89 so'mga ortgan. Bu omil ham natijaning o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, ya'ni nomoddiy aktivlarning rentabelligi 16,6 % bandga ortgan:

$$223,0 - 206,4 = +16,6\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$-6,1 + 22,2 + 16,6 = +32,7\ \%.$$

Omilli tahlil ichki imkoniyatlarni ham axtarib topishga yo'l ochadi. Bizning misolimizda nomoddiy aktivlar rentabelligini oshirishning ichki imkoniyati mavjud. Bu foydaning daromaddagi ulushini ko'paytirishda namoyon bo'ladi. Jumladan, ushbu ko'rsatkichning miqdori hech bo'lmaganda o'tgan yil darajasida saqlanib qolinganda edi, nomoddiy aktivlarning rentabellik darajasi yana 6,1 % bandga ortgan bo'lar edi. U holda mazkur ko'rsatkichning haqiqiy miqdori 223,0 % emas, balki 229,1 ni (223,0 + 6,1), ko'rsatkichining o'tgan yilga nisbatan farqi esa 32,7 % emas, balki 38,8 %ni (229,1—190,3) tashkil qilgan bo'lur edi.

Demak, omilli tahlil o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning ichki imkoniyatlarini topish uchun asosiy dastaklardan biri sifatida namoyon bo'lar ekan.

# *8-bob.* AYLANMA MABLAG'LAR MAZMUNI, KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA TAHLIL QILISH USULLARI

## 8.1. Aylanma mablag'lar va ularni tahlil qilish

**Korxonaning aylanma mablag'lari** — uning aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. Ular asosiy fondlardan farqli o'laroq, to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Chunki bir ishlab chiqarish sikli mobaynida to'liq iste'mol qilinib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazgan holda ham buyum-natura ko'rinishida, ham qiymat tarzida tiklanadi.

Mablag'larning ulushi korxonaning umumiy xo'jalik mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 60 %dan 90 %gacha bo'ladi. Korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli ko'p jihatdan ana shu mablag'lardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1997-yil 9-iyuldagi «Aylanma mablag'larning saqlanishi va o'z vaqtida to'ldirib turilishi uchun mas'uliyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida respublikamizdagi ayrim vazirliklar, idoralar va korxonalarda moliyaviy ahvol qoniqarsiz bo'lib qolayotganligi, o'z aylanma mablag'larini saqlashga e'tiborsiz bo'lish, shuningdek, katta miqdordagi mablag'lar debitorlik qarzlariga jalb qilinib qolinayotganligi tayyor mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldiqlari tarzida harakatsiz holga keltirilayotganligi qayd etilgan.

Aylanma mablag'lar haqidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida hamda «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnomada» ko'rsatiladi. Buxgalteriya balansida ular «Aylanma aktivlar»ning 2-bo'limida qayd etiladi. Ushbu bo'limning yakuni korxonaning muayyan sanada aylanma mablag'larda turgan mablag'lari summasini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda ushbu mablag'lar: *joriy aktivlar, harakatdagi aktivlar, aylanma aktivlar* deb yuritiladi.

Korxona rahbari buxgalteriya balansini o'rganar ekan, quyidagi uch jihatga e'tibor berishi kerak:

1. Balans aktividagi 1-bo'lim yakunlarining o'zgarishiga nisbatan 2-bo'lim yakunining o'zgarishi. Balans aktividagi 2 va 1- bo'limlari yakunlarini taqqoslash xo'jalik mablag'lari umumiy summasida aylanma mablag'lar ulushi ko'payganligini (kamayganligini), harakatchan vositalar ulushi o'zgarganligini ko'rsatadi. Xo'jalik mablag'lari umumiy summasida aylanma aktivlar ulushining ko'payishi korxona ixtiyorida harakatchan mablag'lar ko'payganligini, ularni osonroq ishlatish va kreditorlik qarzlarini tezroq to'lash mumkinligini, korxona yanada likvidli va to'lovga qobiliyatli bo'lib qolganligini ko'rsatadi. Mablag'lar aylanishi tezlashuvi korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun ham juda muhimdir.

2. Balans aktivi 2-bo'limi yakuni summasining qisqa muddatli qarz summasiga nisbatan o'zgarishi (balans passivi 2-bo'limining yakuni minus uzoq muddatli qarz). Qisqa muddatli qarzning aylanma aktivlarga nisbatan o'sishi ko'proq aylanma aktivlar tarkibida jalb qilingan mablag'lar ulushi ko'payganligini, ya'ni aylanma mablag'lar qarz mablag'lar hisobiga ko'payganligini ko'rsatadi. Bunday ko'payish mablag'lar aylanishining sekinlashuviga, likvidlilik va to'lovga qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin (agar bu pasayish mablag'larni debitorlik qarzlariga ishlatish natijasi bo'lmasa).

3. Agar aylanma aktivlar (balans aktivi 2-bo'limining yakuni) qisqa muddatli qarzlardan kam bo'lsa, bu hol hamma aylanma mablag'lar qarz mablag'lar hisobidan tashkil topganligini bildirib, korxonaning to'lovga mutlaqo qobiliyatsizligini ko'rsatadi. Bu jarayonlar korxonada aylanma mablag'lar tahliliga muhim vazifalarni yuklaydi. Xususan, aylanma mablag'larni tahlil qilganda ularning umumiy o'zgarishini aniqlash bilan cheklanib qolmaslik lozim. Eng muhimi uning tarkibiy tuzilishi, harakatchanligi, debitorlik qarzlariga jalb qilinishi, tez likvid bo'ladigan mablag'lar tarkibi kabi juda ko'p jihatlariga ahamiyat berish lozim.

## 8.2. Aylanma mablag'lar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi

Korxona iqtisodiy salohiyati tarkibida yetakchi o'rinni aylanma mablag'lar hissasi tashkil qiladi. Uning miqdori, turli sohalarda turlicha. Tahlil jarayonida aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoning hal qilinishida olimlar bir

to'xtamga kelishgan. Ya'ni, aylanma mablag'larni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilinmoqda.

Ammo qanday ko'rsatkichlardan foydalanish va ularni tasniflash bo'yicha olimlar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Ayrim darsliklarda[1] ba'zi qismlarigina «Korxona aktivlari tahlili» qisqa qarab chiqilgan. Ayrim tadqiqotchilar aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uchga bo'lib o'rganishni tavsiya qilishadi. Masalan, «Moliyaviy tahlil»[2] kitobida aylanma mablag'larni baholovchi ko'rsatkichlar uning holatini, harakatini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga bo'lingan. Ammo ko'rsatkichlar tizimining aniq tasnifi berilmagan. Buning ustiga aylanma mablag'larning harakati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan aralashib ketgan.

Agar ushbu yondashuvga nazariy jihatdan qaralsa, aylanma mablag'larning mohiyati uning harakatdaligidadir. Aylanma mablag'larning harakatdaligi esa uning samaradorligida ifodalanadi. Shu tufayli bunday yondashuv nazariy jihatdan chuqur tadqiqotni talab qilsa, amaliy jihatdan noaniqliklarni tug'diradi.

Keyingi yillarda chop qilingan, bevosita korxonaning moliyaviy holatini baholashga bag'ishlangan kitobda[3] ham ushbu masala nazardan chetda qolgan. Aylanma mablag'larga tegishli faqat uch ko'rsatkich tavsiya qilingan. Tabiiyki, bunday yondashish qo'yilgan muammoning to'liq hal bo'lishi uchun yetarli emas.

Bevosita moliyaviy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlarda ham aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarga kam e'tibor berilgan[4], xuddi shu holatni V.V. Petrov va V.V. Kovalyovlarning tadqiqotlarida ham kuzatish mumkin[5].

Nazarimizda aylanma mablag'lar iqtisodiy mazmuni bo'yicha ayrim jihatlari asosiy vositalarga o'xshash. Har ikki korxonaning aktivlarini tashkil qilib, moddiy resurslar guruhiga kiradi. Shu jihatdan aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ham uch guruhga bo'lish

---

[1] Г.В. Савицкая. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Мн., ИП «Экоперспектива», 1997.

[2] I.O. Voljin, V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1998.

[3] N. Hasanov, S. Najbitdinov. Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr. uyi, 1999.

[4] A. T. Ibrohimov. Moliyaviy tahlil. T., «Mehnat», 1995.

[5] В.В. Петров, В.В. Ковалёв. Как читать баланс. М., «Финансы и статистика», 1993.

mumkin: aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu ko'rsatkichlarning tasnifi 8.1-chizmada keltirilgan.




*8.1-chizma.* Korxona aylanma mablag'larini (Ayl.m.) ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Tahlil jarayonida u yoki bu ko'rsatkichning nimani ifodalashi, ularni baholash yo'llari va ma'lumot manbalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli har bir ko'rsatkichning nomi, nimani ifodalashini aniqlanish yo'llari keltirilgan guruhlar bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu 8.1-jadvalda keltirilgan.

*8.1-jadval*

**Aylanma mablag'larni (Ayl.m.) ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning mazmuni va aniqlanish yo'llari**

| Ko'rsatkichlar | Nimani ifodalashi (mazmuni) | Aniqlash formulasi | Axborot manbalarida ifodalanishi |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| **I. Aylanma mablag'lar (Ayl. m.) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 1.1. Ayl.m. umumiy mablag'lardagi hissasi | Ayl.m.ning umumiy mablag'larda necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.}{B}$ | 300 / 310 |
| 1.2. Ayl.m.tarkibida pul mablag'lari (Pm) hissasi | Ayl.m. tarkibida qancha foiz pul mablag'lari mavjudligini ifodalaydi | $\frac{Pm}{Ayl.m.}$ | (170+180+190)/ /300 |
| 1.3. Ayl.m.tarkibida pul zaxiralari va xarajatlar (Zx) hissasi | Ayl.m. tarkibida qancha foiz zaxiralar borligini ko'rsatadi | $\frac{Zx}{Ayl.m.}$ | 120 /300 |
| 1.4. Ayl.m.tarkibida debitorlar (Deb) hissasi | Ayl.m. tarkibida debitorlarning necha foiz tashkil qilishini ko'rsatadi | $\frac{Deb}{Ayl.m.}$ | 220 – 290 / 300 |
| 1.5. Muddati o'tib ketgan debitorlarning (Dmud) umumiy Deb.dagi hissasi | Muddati o'tib ketgan debitorlarning umumiy debitorlardagi necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi | $\frac{Dmud}{D}$ | 2 a-sh ma'lumot 7= us / 220 –290 |
| 1.6.Ayl.m.tarkibida o'z mablag'lari hissasi | Barcha Ayl.m.ning qancha qismi o'z mablag'lari hisobidan qoplanishini ko'rsatadi | $\frac{(O'm + Ump) - As}{Ayl.m.}$ | (390+400+410) – 010/300 |
| **II. Aylanma mablag'lar (Ayl. m.) bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar** | | | |
| 2.1. Ayl.m.sig'imi, ya'ni 1 so'm natijaga (Q) to'g'ri keladigan Ayl.m. | 1 so'm natija ko'rsatkichiga qancha Ayl.m. to'g'ri kelishini (natijaning fondliligini ifodalaydi) | $\frac{Ayl.m}{Q}$ | 300 /010 2sh |

| 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|
| 2.2. Ayl.m. me'yorining (Ayl.m.) haqiqiy miqdori (Ayl.m.h) bilan ta'minlanishi | Ayl.m. haiqiy summasining me'yorga nisbatini, ya'ni 1 so'm Ayl.m. ga to'g'ri keladigan haqiqiy Ayl.m. summasini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.h}{Ayl.m.}$ | 300 h /300 me'yor |
| 2.3. 1so'm asosiy vositalarga (Av) to'g'ri keladigan Ayl.m. | 1 so'm Av.ga to'g'ri keladigan Ayl.m. summasini, ya'ni Av.ning Ayl.m. bilan ta'minlanganligini ifodalaydi | $\frac{Ayl.m.}{Av}$ | 300/010 |
| 2.4. Bir xodimga (X) to'g'ri keladigan Ayl.m. | 1 xodimga to'g'ri keladigan Ayl.m. summasi, ya'ni X.larning Ayl.m. bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.}{X}$ | 300 /020 2 b-sh |
| **III. Aylanma mablag'lar (Ayl.m.) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari** | | | |
| 3.1. Ayl.m. ning aylanuvchanligi, kunlarda | Ayl.m. bir aylanish davrining necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{Ayl.m.\ Ks}{Q}$ <br> *Ks – kunlar soni* | $(300_{yb}+300_{yo}/2)\cdot$ <br> $\cdot 360/0102$ sh |
| 3.2.Ayl.m.ning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, martada | Tahlil davrida Ayl.m.ga qo'yilgan mablag'ning necha marta aylanishini ifodalaydi | $\frac{Q}{Ayl.m.}$ | 010 2 sh / <br> $(300_{yb}+300_{yo}/2)$ |
| 3.3. Ayl.m.ning rentabelligi | 100 so'm Ayl.m. summasiga to'g'ri keladigan foydani (D) ifodalaydi | $\frac{F\cdot 100}{Ayl.m.}$ | 200 2 sh / <br> $(300_{yb}+300_{yo}/2)$ |
| 3.4.Ayl.m.ning daromadliligi | 100 so'm Ayl.m. summasiga to'g'ri keladigan daromadni (D) ifodalaydi | $\frac{D\cdot 100}{Ayl.m.}$ | 050 2 sh / <br> $(300_{yb}+300_{yo}/2)$ |
| 3.5. Debitorlarning aylanuvchanligi (kunlarda) | Debitorlarning (Deb) bir aylanish davri necha kunga to'g'ri kelishini ko'rsatadi | $\frac{Deb\cdot Ks}{Q}$ | 220 – 290 · <br> $\cdot 360/010$ 2 sh |

Jadval ma'lumotlari korxonaning aylanma mablag'larini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, tasnifi, aniqlanish yo'llar, nimani ifodalashi va har birining axborot manbaini ko'rsatib turibdi. Bu esa mazkur ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish nazariy va uslubiy asos bo'ladi.

## 8.3. Aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Korxonaning aylanma mablag'larini o'rganib va tahlil qilib, ularning ko'rsatkichlarini, yuqorida ta'kidlanganidek, uch guruhga birlashtirish mumkin. Bu guruhlar:

- aylanma mablag'larning holatini;
- aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni;
- aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni bildiradi.

Aylanma mablag'larning holatini bildiruvchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: aylanma mablag'lar summasi, uning o'rtacha qiymati, umumiy mablag'lardagi hissasi, aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi, aylanma mablag'larda o'z mablag'lari summasi; aylanma mablag'lar dinamikasi va h.k. Aylanma mablag'larning muayyan sanadagi summasi buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqariladi hamda balansning aktiv qismidagi 2-bo'limi yakunida (300-satr) ko'rsatiladi.

Aylanma mablag'larning pulda ifodalangan summasi ularning hajmini ko'rsatib, sifatini ifodalamaydi. Sifat ko'rsatkichiga ega bo'lish uchun aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan miqdoridan foydalaniladi. Buning uchun korxona aylanma mablag'larining umumiy summasini bir kunlik ishlab chiqarish xarajatlariga, savdo korxonalarida esa tovarning tannarxi bo'yicha bir kunlik tovar aylanmasiga taqsimlash kerak.

Aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan miqdorini hisoblash, buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkich korxonaning ishlab chiqarish dasturini bajarish chog'ida aylanma mablag'lar necha kunga yetishini ko'rsatadi. Biroq, ushbu aylanma mablag'lardan hisobot davrida emas, balki keyingi davrda foydalaniladi. Shu sababli, aylanma mablag'larning asl summasini keyingi chorakda mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlarga taqsimlash kerak bo'ladi. Bu ko'rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Kaylm.m = \frac{Ayl.m \cdot 90}{Ixarajat},$$

bunda, *Kayl.m.* — kunlarda ifodalangan aylanma mablag'lar; *Ayl.m.* — aylanma mablag'lar summasi; *Ixarajat* — keyingi chorakdagi ishlab chiqarish xarajatlarining bir kunlik miqdori.

Ushbu ko'rsatkich kunlar va summada ifodalangan amaldagi aylanma mablag'lar me'yorlari bilan taqqoslash uchun kerak. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasi o'rtacha xronologik formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$Ayl.mo' = \frac{Ayl.m.1/2 + Ayl.m.2 + Ayl.m.3 + Ayl.m.4 + Ayl.m.5/2}{4},$$

bunda, *Ayl.mo'* — aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasi; *Ayl.m.1,... Ayl.m.5* — choraklar boshi va oxiridagi aylanma mablag'lar summasi.

Bu ko'rsatkich biznes-reja tuzish va aylanma mablag'larning samaradorligini aniqlash uchun ham keng qo'llaniladi. Korxonada aylanma mablag'lar holati qanday ekanligini bilish uchun uning dinamikasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Aylanma mablag'lar dinamikasini barcha aktivlar dinamikasi bilan solishtirish va barcha aktivlarda ularning ulushi qanday o'zgarayotganligini kuzatish masalaga oydinlik kiritadi. Ushbu holatni tahlil qilish uchun 8.2-jadvaldan foydalaniladi.

*8.2-jadval*

**Korxonada aylanma mablag'lar dinamikasi va ularning tarkibi o'zgarishi hisob-kitobi**

| Yillar | Aylanma mablag'lar | | Barcha aktivlar | | Aylanma mablag'larning barcha aktivlardagi ulushi, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | summasi, ming so'm | o'zgarish sur'ati, % | summasi, ming so'm | o'zgarish sur'ati, % | |
| 1997 | 4767,0 | 100,0 | 8917,2 | 100,0 | 53,5 |
| 1998 | 5086,4 | 106,7 | 9380,9 | 105,2 | 54,2 |
| 1999 | 5191,3 | 108,9 | 9657,3 | 108,3 | 53,8 |
| 2000 | 5353,3 | 112,3 | 10031,9 | 112,5 | 53,4 |
| 2001 | 5562,0 | 116,7 | 10659,4 | 119,3 | 52,2 |
| 2002 | 5830,0 | 122,3 | 11200,4 | 125,6 | 52,1 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada 1997—2002-yillar mobaynida aylanma mablag'larning

o'sish sur'ati barcha aktivlarning o'sish sur'atiga nisbatan biroz sust. Aktivlar shu davrda 125,6 % o'sgan bir paytda aylanma mablag'lar 122,3 % o'sgan. Aylanma mablag'larning aktivlarga nisbatan o'sish sur'ati koeffitsiyenti 0,97 ni (122,3 : 125,6) tashkil qiladi. Hozirgi paytda korxonaning aylanma mablag'lari jadalroq o'sishi lozim. Chunki, aylanma mablag'lar yetarli bo'lmasa, takomillashgan asosiy vositalar va malakali xodimlardan kutilgan darajada samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Aylanma mablag'lar holatini tahlil qilganda, uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarga alohida ahamiyat berish lozim. Shu maqsadda aylanma mablag'lar tarkibiga kiruvchi har bir moddaning ulushi aniqlanadi va ularning summasi hamda ulushidagi o'zgarishi hisoblanadi. Buning uchun 8.3-jadvaldan foydalaniladi.

*8.3-jadval*

**Korxonada aylanma mablag'lar tarkibi hisob-kitobi**

| Aylanma mablag'lar turlari | Yil boshida | | Yil oxirida | | Farqi (+, −) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | summasi, ming so'm | ulushi, % | summasi, ming so'm | ulushi, % | summasi, ming so'm | ulushi, % |
| Ishlab chiqarish zaxiralari | 2781,0 | 50,0 | 2670,4 | 45,8 | − 110,6 | − 4,2 |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | 556,2 | 10,0 | 340,0 | 5,8 | −216,2 | − 4,2 |
| Tayyor mahsulot | 618,0 | 11,1 | 1432,0 | 24,6 | + 814,0 | + 13,5 |
| Qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar | 123,0 | 2,2 | 2,8 | 0,1 | − 120,2 | − 2,1 |
| Pul mablag'lari | 618,0 | 11,1 | 107,0 | 1,8 | − 511,0 | − 9,3 |
| Debitorlar | 865,2 | 15,6 | 1277,8 | 21,9 | + 412,6 | + 6,3 |
| JAMI: | 5562,0 | 100,0 | 5830,0 | 100,0 | + 268,0 | − |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'lar tarkibi yil boshida va oxirida keskin o'zgargan. Masalan, ishlab chiqarish zaxiralarining ulushi yil boshida 50,0 %ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 45,8 %ga teng bo'lmoqda, ya'ni 4,2 % bandga kamaygan. Xuddi shunday tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha ham 4,2 % bandga, qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar 2,1 % bandga, pul mablag'lari esa 9,3 % bandga kamaygan. Bu, ayniqsa, pul mablag'lari va tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha keskin kamayib ketgan. Ayni holatni ijobiy baholash qiyin. Chunki,

pul mablag'larining kamayib ketishi korxonada tez likvid bo'ladigan mablag'larning kamayishini bildiradi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligi yomonlashganligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur korxonada, tayyor mahsulotning summasi va ulushi keskin ortgan. Bu bozor sharoitida ijobiy ko'rsatkich bo'lmasdan ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati pasayganligi yoki marketing xizmatining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan yoxud reklamadan to'g'ri foydalanilmayotganligidan dalolat beradi.

## 8.4. Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda aylanma mablag'larning summasi va aylanish tezligini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash; o'zining va qarz mablag'larining muomaladagi ishtirokini aniqlash; aylanma mablag'larning umumiy hajmi va turlari bo'yicha shakllari va manbalarini o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni tahlil qilish uning umumiy summasi turlari bo'yicha haqiqiy miqdorini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslashdan boshlanadi (8.4-jadval).

*8.4-jadval*

**Korxonada aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikning holati va tarkibi**

(ming so'm)

| Aylanma mablag'lar turlari | Keyingi yil 1-choragiga me'yor | | Yil oxiridagi haqiqiy qoldiq | | Meyordan farqi (+, −) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | summada | kunlarda | summada | kunlarda | summada | kunlarda |
| Ishlab chiqarish zaxiralari | 2469,2 | 45 | 2670,4 | 43,2 | + 201,2 | − 1,8 |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | 493,8 | 9 | 340,0 | 5,5 | − 153,8 | − 3,5 |
| Tayyor mahsulot | 548,7 | 10 | 1432,0 | 23,2 | + 883,3 | + 13,2 |
| Qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar | 109,7 | 2 | 2,8 | 0,1 | − 106,9 | − 1,9 |
| Pul mablag'lari | 548,7 | 10 | 107,0 | 1,7 | − 441,7 | − 8,3 |
| Debitorlar | 726,2 | 14 | 1277,8 | 20,7 | + 551,6 | + 5,3 |
| JAMI: | 4938,3 | 90 | 5830,0 | 94,3 | +891,7 | + 4,3 |

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni aniqlash uchun ma'lumotlar moliyaviy hisobotdan, balansning aktiv qismidagi 2-bo'limdan olinadi. Har bir muayyan korxona bo'yicha aylanma mablag'lar me'yori yuqori turgan tashkilot tomonidan Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldagi 108-sonli qarori asosida belgilanadi.

Ammo hozircha aylanma mablag'lar me'yorlarini aniqlash uslubi hamda aylanma mablag'larning umumiy hajmi va turlari bo'yicha summasini belgilangan me'yorlarga qiyoslash tartibi ishlab chiqilmagan. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash yo'llarini aniq ma'lumotlar asosida ko'rsatib berishga harakat qilindi. Realizatsiya summasi 2002-yil 1-choragida 4938,3 ming so'mni, bir kunlik mahsulot realizatsiyasi — 54,87 ming so'mni tashkil qilgan.

Aylanma mablag'lar me'yorlari aylanish kunlarida, necha marta aylanishi yoki xarajatning 1 so'miga nisbatan tiyinda belgilanishi mumkin. Aylanma mablag'larning summadagi me'yorini belgilash uchun keyingi chorakdagi (1-chorak) mahsulotning rejadagi bir kunlik realizatsiyasini kunlardagi me'yorlarga ko'paytirish kerak. Kunlardagi haqiqiy mavjud aylanma mablag'lar: aylanma mablag'lar haqiqiy summasini keyingi chorakdagi rejada ko'zda tutilgan bir kunlik mahsulot realizatsiyasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

8.4-jadval ma'lumotlari me'yordan ortiqcha katta aylanma mablag'lar umuman va uning ayrim turlari bo'yicha mavjudligini ko'rsatib turibdi. Korxona uchun aylanma mablag'lar normativi 90 kunga belgilangan. Hisobot davridan keyingi 1-chorakda mahsulot realizatsiya summasi — 4938,3 ming so'm. Rejadagi bir kunlik mahsulot realizatsiyasi 4938,3 : 90 = 54,87 ming so'm. Aylanma mablag'larning summadagi me'yori 54,87 · 90 = 4938,3 ming so'm. Aylanma mablag'larning har bir turi bo'yicha me'yori shu yo'sinda aniqlanadi.

Aylanma mablag'lar miqdorini yil oxirida kunlarda aniqlash uchun aylanma mablag'lar summasini keyingi yil 1-choragi rejasida ko'zda tutilgan bir kunlik mahsulot realizatsiyasiga bo'lish kerak. Tahlil qilinayotgan korxona bo'yicha yil oxirida kunlarda bo'lgan aylanma mablag'lar 94,3 kunni tashkil qiladi (5830 : 54,87). Aylanma mablag'larning barcha turlari bo'yicha kunlardagi aylanma mablag'lar xuddi shu tartibda aniqlanadi.

8.4-jadvalda me'yordan ortiqcha aylanma mablag'lar 891,7 ming so'mni, aylanish kunlarida 4,3 kunni tashkil qilgan. Aylanma mablag'larning eng ko'p me'yordan ortiqcha qoldig'i tayyor

mahsulot bo'yicha — 883,3 ming so'mni yoki 13,2 aylanish kunini tashkil qiladi. Debitorlik bo'yicha muvofiq ravishda 551,6 ming so'mni yoki 5,3 kunni tashkil qiladi. Pul mablag'lari bo'yicha aylanma mablag'lardan 441,7 ming so'm, aylanma kunlarda esa 8,3 kun yetishmovchilik bor. Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikdagi bunday holati ijobiy emas, u uskunalardan foydalanish samaradorligiga, korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bankrotlik va korxonalar sanatsiyasi bo'yicha hukumat komissiyasining 1997-yil 17-apreldagi 4-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Korxonalarni moliyaviy tahlil qilishga oid uslubiy tavsiyalar»da moliyaviy barqarorlikni aniqlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Buni biz o'rganayotgan korxona misolida ko'rib chiqamiz (8.5-jadval).

*8.5-jadval*

**Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi (+, −) |
|---|---|---|---|
| 1.O'z mablag'lari manbalari (balans passivi, 1-bo'lim yakuni — P1) | 19882 | 21703 | + 1821 |
| 2. Asosiy vositalar va boshqa noaylanma aktivlar (balans aktivi, 1-bo'limi yakuni — A1) | 13027 | 12971 | + 11736 |
| 3. Mavjud o'z aylanma mablag'lari (P1− A1) | 6855 | 8732 | + 1877 |
| 4.Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar (balans aktivi, 2-bo'limi) (P2, 400 va 410-satrlar) | 95 | — | − 95 |
| 5.Zaxiralar va xarajatlarni shakllantirishning mavjud o'z va uzoq muddatli qarzlari manbalari (P1−A1+400-satr+410-satr yoki mazkur jadval P3+P4) | 6950 | 8732 | + 1782 |
| 6. Qisqa muddatli kreditlar va qarz mablag'lari (P2, 400-satr—410-satr) | 7170 | 7834 | + 664 |
| 7. Zaxiralar va xarajatlarni shakllantirish asosiy manbalarining umumiy miqdori (P5+P6) | 14120 | 16566 | + 2446 |
| 8. Zaxiralar va xarajatlarning umumiy miqdori (balans aktivi 2-bo'limi) (A2) 120, 130, 140, 150, 160-satrlar | 11520 | 12631 | + 1111 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9. O'z aylanma mablag'lari ortiqchasi (+); kamomadi (–) (P3–P8)-O'aym | – 4665 | – 3899 | + 766 |
| 10. Zaxiralar va xarajatlarni shakllantirishning o'z va uzoq muddatli qarzlari manbalari ortiqchasi (+), kamomad (–) (P5–P8) Mem | – 4570 | – 3899 | + 671 |
| 11. Zaxira va xarajatlarni shakllantirish asosiy manbalarining umumiy miqdori ortiqchasi (+) yoki kamomadi (–) (P7–P8) Azk | 2600 | 3935 | + 1335 |

Moliyaviy tahlilga oid uslubiy tavsiyalarga ko'ra, korxonalarda quyidagi tengsizliklar bo'lishi mumkin:

• **mutlaq barqarorlik** — zaxiralar va xarajatlarni shakllantirish manbalari ortiqcha bo'lishi mumkin, ya'ni:

$$O'aym >= 0;\ Mem >= 0;\ Azk = 0;$$

• **normal barqarorlik** — zaxiralar va xarajatlar o'z mablag'lari summasi bilan ta'minlanadi, ya'ni:

$$O'aym <= 0;\quad Mem >= 0;\quad Azk >= 0;$$

• **beqaror** — zaxiralar va xarajatlar o'z va qarz mablag'lari hisobiga ta'minlanadi, ya'ni:

$$O'aym <= 0;\quad Mem <= 0;\quad Azk >= 0;$$

• **taqchil** — zaxiralar va xarajatlar ularni shakllantirish manbalari tomonidan ta'minlanmaydi, ya'ni:

$$O'aym <= 0;\quad Mem <= 0;\quad Azk <= 0,$$

demak, korxona to'lovga qodir bo'lmay qoladi. Bunda, *O'aym* — o'z aylanma mablag'larining ortiqchaligi yoki kamomadi; *Mem* — zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalarining ortiqchaligi yoki kamomadi; *Azk* — zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalari umumiy miqdorining ortiqchaligi yoki kamomadi.

Bu ko'rsatkichlarning manbai qiymatlari korxonaning berilgan davrda iqtisodiy layoqatsizligidan dalolat beradi. 8.5-jadvalda keltirilgan hisob-kitob ma'lumotlari korxonada hisobot yili boshida va oxirida o'z aylanma mablag'lari (O'aym)da kamomad va zaxiralar hamda xarajatlarni shakllantirishning o'z uzoq muddatli qarz manbalarida kamomad (Mzm), zaxiralar va xarajatlarni shakllantirish asosiy manbalari umumiy miqdori (Azk) bo'yicha — mablag'lar ortiqchasi borligini ko'rsatadi.

Ushbu usulga ko'ra tahlil qilinayotgan korxonaning moliyaviy ahvoli beqaror hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy tahlili bo'yicha bunday uslubiy tavsiyalar dolzarbligiga qaramay, unda qator nuqson va kamchiliklar bor. Masalan, «O'z aylanma mablag'lari ortiqchaligi yoki kamomadi» ko'rsatkichi nomini to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki unda ikki muhim kamchilik mavjud.

1. O'z aylanma mablag'lari tovar zaxiralari va xarajatlar summasi bilan taqqoslanar ekan, bunda o'z aylanma mablag'lari ortiqchaligi yoki kamomadi to'g'risida so'z yuritib bo'lmaydi. Ortiqchalik yoki kamomad o'z aylanma mablag'larini belgilangan me'yorlari bilan qiyoslab aniqlanadi.

2. O'z aylanma mablag'lari faqat zaxiralar yoki xarajatlar miqdori bilan qiyoslanadi. O'z aylanma mablag'lari pul mablag'larida va debitorlik qarzlarida bo'lishi mumkin va bo'lishi kerak. Buning ustiga o'z aylanma mablag'lari immobilizatsiyasi muddati o'tgan debitorlik qarzlarida bo'lishi mumkin. O'z aylanma mablag'lari va ularni shakllantirishning boshqa manbalarini aylanma mablag'lar summasi bilan, o'z aylanma mablag'larini qisqa muddatli qarzlari bilan qiyoslash to'g'riroq bo'ladi.

Moliya vazirligi tavsiya etgan va Markaziy bankka yo'llagan aylanma mablag'lar ahvolini tahlil qilish uslubiy ko'rsatmasida ham, fikrimizcha, qator kamchilik hamda bahsli jihatlar bor. Masalan, 1-bo'lim, 6-bandda aylanma mablag'lar me'yori ishlab chiqarish xarajatlari yillik miqdorini (5-shakl bo'yicha) 360 kunga bo'lish va kunlardagi me'yorga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Ammo Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldagi 108-sonli qaroriga ko'ra, aylanma mablag'lar me'yorini aniqlash usullaridan biri bir kunlik ishlab chiqarish xarajatlarini, xarajatlar 1 so'miga tiyinda belgilangan me'yorga ko'paytirish hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar me'yorini aniqlashning boshqa usuli bir kunlik realizatsiya summasini me'yor bo'yicha belgilangan kunlarga ko'paytirish hisoblanadi. Xuddi shu bo'limning 7-bandida aylanma mablag'lar ortiqchaligi yoki kamomadi me'yorni aylanma mablag'larni shakllantirishning o'z manbalari bilan qiyoslash orqali aniqlanadiki, buni xato deb hisoblash mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldagi 108-sonli qarori, 3-bandida «...aylanma mablag'larni .me'yor darajasigacha jamg'arish manbalari korxonaning o'z mablag'lari, banklar kreditlari va budjet mablag'lari hisoblanadi», deb yozib qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, aylanma mablag'larning ortiqchaligi yoki kamomadini aniqlash

uchun me'yorni ilgari qilinganidek, aylanma mablag'larning butun summasi bilan qiyoslash kerak.

3-bo'limning 12-bandida moddiy aylanma mablag'lar o'rtacha qoldig'ini o'rtacha arifmetik miqdorda aniqlash tavsiya etilgan. Shu kunga qadar aylanma mablag'larning o'rtacha summasi o'rtacha xronologik tarzda aniqlab kelingandi. 3-bo'limning 13 va 14-bandlarida aylanma mablag'larning aylanuvchanligini faqat moddiy aylanma mablag'lar bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi. Aylanma mablag'larning barcha summasi hisobga olinmagan. Aylanma mablag'larda, moddiydan tashqari, pul mablag'lari, debitorlar va boshqa aktivlar ham bor. Bu mablag'larning hammasi muomalada ishtirok etadi, shuning uchun aylanma mablag'larning aylanuvchanligini yaxlitiga hisoblash kerak. Shuningdek, aylanma mablag'larning aylanuvchanlik usuli va aylanma mablag'lar me'yorlari ularning turlari bo'yicha ishlab chiqilishi kerak.

## 8.5. Aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligi, daromadliligi va rentabelligi bilan, ya'ni aylanma mablag'larning 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi. Aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan aylanish tezligi aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasining bir kunlik sotilgan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ayl.ma = Ayl.mo's \cdot K : S$$

bunda, *Ayl.ma* — aylanma mablag'lar aylanuvchanligi; *Ayl.mo's* — aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasi; *S* — mahsulot sotish summasi; *K* — davrdagi kunlar soni (odatda, bir yilda 360, yarim yilda 180, 1 chorakda 90, 1 oyda 30 kun).

Aylanma mablag'larning aylanish kunlarini hisoblab chiqish usulini «kunlarda ifodalangan aylanma mablag'lar» ko'rsatkichi bilan aralashtirib yubormasligi kerak (aylanma mablag'lar holatining ko'rsatkichlariga qaralsin).

Aylanma mablag'larning necha marta aylanishi (aylanish koeffitsiyenti — Ak) sotilgan mahsulot summasining aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasiga nisbati sifatida aniqlanadi yoki davrdagi kunlar soni (360) aylanma mablag'larning aylanish kunlariga bo'linadi. Bu quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ak = S : Ayl.mo's \text{ yoki } Ak = 360 : Ayl.ma$$

Aylanma mablag'lar rentabelligi sof foydaning aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ayl.mr = \frac{SF \cdot 100}{Ayl.mo's}$$

bunda, *Ayl.mr* — aylanma mablag'lar rentabelligi; *SF* — sof foyda. Bu ko'rsatkich korxona aylanma mablag'larning 1 so'miga qancha foyda olinayotganligini bildiradi.

Aylanma mablag'lar daromadliligi (Ayl.m.d.) daromad (D) summasini aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$Ayl.md = \frac{D \cdot 100}{Ayl.m.}.$$

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilganda ularga doir ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish, bu ko'rsatkichlarni o'tgan yil va biznes-reja ma'lumotlari bilan taqqoslash kerak. Shundan keyin bu ko'rsatkichlarning o'zgarish darajasiga turli omillar ta'siri aniqlanadi. Mazkur omillarni o'rganish asosida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash va tavsiya etish kerak bo'ladi. Aylanma mablag'lar aylanishining tezlashuvi (sekinlashuvi) ishlab chiqarish dasturini bajarish uchun mablag'larni bo'shatib beradi (qo'shimcha jalb etadi). Masalan, tahlil qilinayotgan korxona bo'yicha mahsulot sotishdan olingan tushum 2000-yilda 11939 ming so'mni, 2001-yilda 19433 ming so'mni tashkil qildi; mablag'lar aylanishining o'rtacha yillik summasi: 2000 yilda 13179 ming so'm, 2001-yilda 15246 ming so'm bo'ldi. Aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan aylanishini hisoblab chiqamiz:

$$2000 - \text{yilda} = \frac{13179 \cdot 360}{11939} = 397,0 \text{ kun.}$$

$$2001 - \text{yilda} = \frac{15246 \cdot 360}{19433} = 282,3 \text{ kun.}$$

2001-yilda aylanma mablag'larning aylanishi 2000-yildagiga qaraganda 114,7 kunga tezlashgan, natijada

$$\frac{19133 \cdot 114,7}{360} = 6193,8 \text{ ming so'm}$$

miqdorida aylanma mablag'lar oborotdan ozod qilib olingan.

Shunday qilib, aylanma mablag'lar aylanishining tezlashuvi (sekinlashuvi) natijasida oborotdan ozod qilib olingan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'larni aniqlash uchun sotuvdan kelgan bir kunlik tushumni aylanma mablag'lar aylanishining tezlashish (sekinlashish) kunlari soniga quyidagi formula bo'yicha ko'paytirish kerak bo'ladi:

$$Ayl.m = \frac{S1 \cdot (Ayl.ma - Ayl.mas)}{K},$$

bunda, *Ayl.m* — bo'shatib olingan (qo'shimcha jalb etilgan) aylanma mablag'lar summasi; *S1* — hisobot davrida sotilgan mahsulot summasi; *K* — tahlil qilinayotgan davrdagi kunlar soni; *Ayl.ma* — aylanma mablag'larning hisobot davri kunlaridagi aylanishi; *Ayl. mas* — aylanma mablag'larning asos davri kunlaridagi aylanishi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlariga ko'p sonli omillar ta'sir etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- mahsulot hajmining ko'payishi;
- aylanma mablag'lar tuzilishining yaxshilanishi;
- aylanma mablag'larni belgilangan me'yorlar darajasiga yetkazish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish;
- chiqarilayotgan mahsulotga talabni o'rganishning yaxshilanishi;
- xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning yaxshilanishi kabilar.

Tahlil chog'ida ushbu omillarni o'rganish va ularning aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga ko'rsatadigan ta'sirni hisoblab chiqish kerak bo'ladi. Aylanma mablag'lar aylanish tezligiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bularga mahsulot hajmi, aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ularning tarkibiy tuzilishi kabilar kiradi. Biz bu yerda sotilgan mahsulot hajmi va aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining o'zgarishi aylanma mablag'lar o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishini aniqlash usulini ko'rib chiqamiz. Buning uchun aylanma mablag'lar aylanishining kunlarda ifodalangan formulasidan foydalanish zarur.

$$Ayl.m.ayl = \frac{Ayl.m.o's \cdot K}{T},$$

bunda, *Ayl.m.ayl* — aylanma mablag'lar summasi aylanishi; *Ayl.m.o's* — aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasi; *T* — mahsulot sotishdan keladigan tushum; *K* — davrdagi kunlar soni (360).

Ushbu holatda aylanma mablag'lar aylanishiga ikki omil (Ayl.m.o's va T) ta'sir ko'rsatishi munosabati bilan ularning ta'sirini tuzatish kiritilgan ko'rsatkichlar usuli bilan aniqlash mumkin (8.6-jadval).

*8.6-jadval*

**Korxonada aylanma mablag'lar aylanishiga turli omillarning ta'sirini hisoblash**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Omillar ta'siri | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Sotilgan mahsulot evaziga | Aylanma mablag'lar qiymati o'zgarishi |
| Sotilgan mahsulot hajmi | 11939 | 19433 | + 7494 | X | X |
| Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasi | 13179 | 15246 | + 2067 | X | X |
| Aylanma mablag'larning aylanishi, kun hisobida | 397,0 | 282,3 | − 114,7 | − 152,9 | + 38,2 |
| Hisobot yili mahsulot hajmi sotilgan aylanma mablag'larning asos yilidagi qiymati bo'yicha Ayl.m.aylanishi, kunlarda | X | 244,1 | — | — | — |

O'rganilayotgan omillarning ta'sirini aniqlash uchun dastlab qayta hisoblangan ko'rsatkichni — mahsulot amalda sotilganda va o'tgan yilgi mablag'larida aylanma mablag'larning aylanish muddatini quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqarish kerak:

$$Ayl.m.ayl.qh = \frac{Ayl.mo's.as \cdot 360}{Th} = \frac{13179 \cdot 360}{19433} = 244{,}1 \text{ kun},$$

bunda, *Ayl.mo's.as* — asos yilida aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati; *Th* — hisobot yilida sotilgan mahsulot hajmi.

Ushbu qayta hisoblangan ko'rsatkichni o'tgan yilning aylanish muddati bilan taqqoslab, mahsulot sotishdan kelgan tushum o'zgarishining aylanish muddatiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlaymiz. Bizning misolimizda sotish hajmi ko'payishi aylanishni 152,9 kunga tezlashtirgan (244,1—397,0).

Aylanma mablag'lar summasi ko'payishi natijasida uning aylanuvchanligi 38,2 kunga sekinlashgan (282,3—244,1). Shunday qilib, aylanma mablag'lar aylanishining o'tgan yilga nisbatan tezlashuvi, asosan, mahsulot sotish hajmining o'sishi hisobiga yuz bergan. Holbuki, aylanma mablag'lar summasi ko'payishi aylanishni 38,2 kunga sekinlashtirgan. Mana shu ikki omilning ta'siri aylanma mablag'lar aylanishining o'tgan yilga nisbatan umumiy farqini keltirib chiqargan (−114,7 = −152,9 + 38,2).

Mahsulot sotish hajmiga va aylanma mablag'lar summasiga ta'sir ko'rsatadigan barcha omillar hamda sabablar aylanma mablag'larning aylanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Aylanishning sekinlashuvini keltirib chiqaradigan asosiy sabablar korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti pastligidan; korxona mahsulotiga talab kamligidan; ko'p miqdorda muddati o'tgan debitorlik qarzi hosil bo'lganligidan iboratdir.

Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish xo'jalik dasturini bajarish uchun ushbu mablag'larga bo'lgan ehtiyojning kamayishi barobarida korxonaning moliyaviy ahvoli mustahkamlanishiga, majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun pul mablag'lari o'z vaqtida jamg'arilishiga, tannarx pasayishi va rentabellik ortishiga ham olib keladi.

## 8.6. Aylanma mablag'larda joylashgan o'z mablag'larining tahlili

Aylanib turgan o'z mablag'lari summasi (Ayl.o'm) o'z mablag'larning qancha qismi aylanib turganligini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda uni, odatda, «ishchi sarmoya» deb atashadi.

Uni aniqlash uchun o'z mablag'larining butun summasidan uzoq muddatli aktivlarda, ya'ni asosiy aktivlarda turgan o'z mablag'lari summasini ayirib tashlash kerak. Biroq, asosiy mablag'lar va qo'yilgan sarmoyalarda uzoq muddatli qarzlar va kreditlar bo'lishi mumkinligi tufayli, hisoblash chog'ida ularni

ham nazarda tutish lozim. Shunday qilib, aylanib turgan o'z mablag'lar summasini aniqlash uchun «O'z mablag'lari manbalari» balans passivining 1-bo'limi yakunidan (390-satr) «Uzoq muddatli aktivlar» balans aktivining 1-bo'limi yakunini (110-satr) ayirib tashlash hamda uzoq muddatli aktivlardagi «Uzoq muddatli kreditlar» summasini qo'shish kerak. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

*Ayl.o'm = O'MM − Uzoq mud. akt + Uzoq mud.qarz+Uzoq mud.kr*

bunda, *Ayl.o'm* — o'z mablag'lari manbalari (passiv 1-bo'limining yakuni); *Uzoq mud.akt.* — uzoq muddatli aktivlar (aktiv 1-bo'limining yakuni); *Uzoq mud.qarz.* — uzoq muddatli qarzlar; *Uzoq mud.kr.* — uzoq muddatli kreditlar.

Bu ko'rsatkichni aylanma mablag'lar umumiy summasidan aylanma mablag'larda foydalanilgan qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlarning aylanma aktivlarini chiqarib tashlash bilan aniqlash mumkin:

*Ayl.MS =AylM — Aylanma mablag'lardagi*
*Qisqa mud.qarz — Uzoq mud.qarz*

Amal qiluvchi sarmoya aylanib turgan o'z sarmoyasi summasini bildiradi. Xalqaro amaliyotga muvofiq bu ko'rsatkich aylanib turgan o'z mablag'lari summasiga teng deb hisoblanadi. Biroq, aylanma mablag'lar tarkibida ayni paytda muomaladan chiqarilgan va ishlab chiqarishda amal qilmayotgan muddati o'tgan debitorlik qarzlari ham bo'lishi mumkin. Bunday holda amal qilib turgan sarmoyani aniqlash uchun aylanib turgan o'z mablag'lari umumiy summasidan muddati o'tgan debitorlik qarzlari summasini chiqarib tashlash kerak. Bu summa 2-shaklda ko'rsatiladi.

Aylanma mablag'lar tarkibini quyidagilar ifodalaydi:

- o'z mablag'lari ulushi, ya'ni aylanma mablag'lardagi o'z mablag'lari summasining foizi. Uni hosil qilish uchun o'z mablag'lari summasini 100 ga ko'paytirish va aylanma mablag'lar summasiga taqsimlash kerak;
- qarz mablag'lar ulushi, ya'ni aylanma mablag'lardagi jalb qilingan mablag'lar salmog'i;
- debitorlik qarzlari ulushi;
- zaxiralar va xarajatlar ulushi;
- pul mablag'lari ulushi.

Aylanma mablag'lar tarkibini tahlil qilganda muayyan paytdagi ularga doir amaliy ma'lumotlarni o'tgan yil ma'lumotlari bilan hamda oxirgi bir necha yil mobaynidagi o'zgarishlari bilan taqqoslash kerak.

Agar aylanma mablag'larda:

- o'z mablag'lari ulushi ko'paysa;
- qarz mablag'lari ulushi kamaysa;
- debitorlik qarzlari ulushi kamaysa;
- zaxiralar va xarajatlar ulushi kamaysa;
- pul mablag'larining ulushi ko'paysa, aylanma mablag'larning tarkibi yaxshilanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari summasining o'sishi yoki kamayishi korxonadagi ishlab chiqarish hajmining o'sib borayotganligi yoki uning xomashyo va materiallar me'yordan ortiqcha zaxiralarini to'plab borayotganligini ko'rsatishi mumkin. Tayyor mahsulotga talabning pasayishi, noto'g'ri marketing siyosati olib borish xaridorlar yo'qligi yoki mahsulot sifati yomonlashuvi natijasida ham tayyor mahsulot ortiqcha ishlab chiqarilishi mumkin. Debitorlik qarzining, ayniqsa, muddati o'tgan qarzning ko'payishi xaridorlar va buyurtmachilarning to'lov qobiliyati yetarli darajada o'rganilmaganligidan darak beradi.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasi ularning me'yordan qanchalik farqlanishida ko'rinadi. Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 27-fevraldagi «Vazirliklar, idoralar va korxonalar aylanma mablag'larining me'yorlari to'g'risida»gi 108-sonli qaroriga muvofiq, korxonalar moliyaviy ahvolini mustahkamlash, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish maqsadida faoliyat turlarini hisobga olib, aylanma mablag'larning tabaqalashtirilgan me'yorlari tasdiqlangan.

Qarorda aylanma mablag'lar me'yorlari idoralarga qarab, kunlar va bir so'm xarajatga to'g'ri keladigan tiyinlarda belgilangan. Ushbu qarorga muvofiq aylanma mablag'lar me'yorini aniqlash uchun mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar summasini kunlarda belgilangan me'yorga quyidagi formula bo'yicha ko'paytirish kerak:

$$Ayl.m = \frac{UXFAXQ \cdot Ayl.mMkun}{K},$$

bunda, *Ayl.m* — aylanma mablag'larning me'yordagi summasi; *UXFAXQ* — hisobot davrida umumxo'jalik faoliyatining amaldagi

jami xarajatalari qiymati (5s-shakl bo'yicha); *K* — davrdagi kunlar soni; *Ayl.mMkun* — belgilangan aylanma mablag'larning kunlardagi me'yori.

Tugallanmagan ishlab chiqarish dinamikasi ham ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'ladi. Bu hajmning haddan tashqari ko'payishi butlanmagan mahsulot chiqarish yoki ishlab chiqarishni tugallash uchun zarur xomashyo materiallar yo'qligi natijasida yuz berishi mumkin. Marketing xizmati yomonligi, xaridorlar yo'qligi yoki mahsulot sifati pasayganligi tufayli tayyor mahsulotga talab ko'pligi natijasida bu mahsulot to'planib qolishi mumkin. Debitorlik qarzi, ayniqsa, uning muddati o'tgan qismi o'sishi xaridorlar va buyurtmachilarning talabi yetarli o'rganilmayotganligini ko'rsatadi.

Pul mablag'larining haddan tashqari ko'payishi ham nomaqbul hodisadir. Chunki, bu mablag'lar korxonaning hisob raqamlarida harakatsiz yotmasdan, aylanib turishi va daromad keltirishi kerak. Ikkinchi tomondan, mablag'lar yo'qligi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligini ko'rsatadi. Shu sababli, aylanma mablag'lar turlari korxonaning barqaror ishlashini ta'minlaydigan miqdorda bo'lishi lozim.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasi ularning me'yordan farq qilishi bilan belgilanadi. Korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish maqsadida, faoliyat turlarini hisobga olgan holda aylanma mablag'larning tabaqalashtirilgan me'yorlari tasdiqlangan.

Moliyaviy hisobotni o'rganish korxonalarda aylanma mablag'lardan maqsadga muvofiq foydalanilmayotganligini ko'rsatmoqda. Katta debitorlik qarzlari, aylanma mablag'larning sekin aylanishi, ishlab chiqarishga doimo qo'shimcha mablag'lar jalb etishni talab qiladi. Aylanma mablag'larni tahlil qilgan vaqtda amaldagi va me'yoriy aylanma mablag'larni taqqoslash hamda ular o'rtasidagi farqni hisoblab chiqish kerak bo'ladi. Aylanma mablag'lar me'yorini aniqlash uchun yuqoridagi qarorga muvofiq, mahsulot ishlab chiqarishga bir kunda qilingan xarajatlar summasini quyidagi formula bo'yicha kunlarda ifodalangan belgilangan me'yorga ko'paytirish kerak:

$$Ayl.mm = \frac{Edk \cdot Nkn}{K}.$$

bunda, *Ayl.mm.* — aylanma mablag'lar me'yori summasi; *Edk* — davrdagi kunlarning jami miqdori; *K* — davrdagi kunlar soni; *Nkn* — aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan (belgilangan) me'yori.

Agar aylanma mablag'lar normativi 1 so'mga qilingan xarajatlarni hisobga olgan holda belgilansa, ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar umumiy summasini quyidagi formula bo'yicha xarajatlarning 1 so'miga tiyinlarda belgilangan normativga ko'paytirish kerak bo'ladi:

$$Ayl.mm = Xish \cdot 1\ so'mga\ M,$$

bunda, *Xish* — ishlab chiqarish xarajatlari; 1 so'mga *M* — 1 so'm xarajatga to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar me'yori.

Ushbu ko'rsatkichlarni amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlash va bir necha yil bilan taqqoslash tahlil qilinayotgan obyekt bo'yicha yetarli xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi.

## *9-bob.* TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR VA ULARNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI

### 9.1. Tovar-moddiy zaxiralarning turlari

Tovar-moddiy zaxiralar aylanma aktivlarining bir qismi hisoblanadi. Ular haqidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotda: «Buxgalteriya balansi» 2-bo'limining «Aylanma aktivlari»da ko'rsatiladi. Ularga:

- ishlab chiqarish zaxiralari, ya'ni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan xomashyo va materiallar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- sotish uchun mo'ljallangan, shu jumladan, yo'ldagi tovarlar (tayyor mahsulot va qayta sotish uchun tovarlar, konsignatsiyalar) kiradi.

**Ishlab chiqarish zaxiralariga:** omborlar va ishlab chiqarishdagi xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i chiqindilari, xarid qilinadigan yarim tayyor va butlovchi buyumlar, zaxiradagi ehtiyot qismlar, idishlar, arzon va tez eskiradigan narsalar zaxiralarining amaldagi tannarxi kiradi. Ular korxonaning uzluksiz ishlashini ta'minlashi darkor. Ishlab chiqarish zaxiralari kamomadi ishlab chiqarish uzilishiga, tugallanmagan ishlab chiqarishning ko'payishiga, xaridorlar oldidagi majburiyatlar bajarilmasligi va oxir-oqibatda korxona moliyaviy holatining yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Ularning ortiqchaligi me'yordan ortiq qoldiqlar paydo bo'lishiga, saqlash xarajatlarining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Korxona rahbarlari buxgalteriya balansi bilan tanishayotganda ishlab chiqarish zaxiralarining yillik summasi o'zgarishiga e'tibor berishlari kerak. Agar ular ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sotilishi bilan o'zgarsa, ayni muddao. Chunki ishlab chiqarish hajmlari kamayib, ishlab chiqarish zaxiralari ko'paysa, bu me'yordan ortiqcha zaxiralar paydo bo'lishidan dalolat beradi. Bu

mablag'lar aylanishi qisqarayotganligi va ishlab chiqarish xarajatlari ko'payayotganligini anglatadi. Bularning sababini aniqlab, ishlab chiqarish zaxiralarini me'yorga keltirishga qaratilgan tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinishi lozim.

**Tugallanmagan ishlab chiqarish** — tugallanmagan ishlab chiqarish va ishlar (xizmatlar) uchun qilingan xarajatlardir. Ular hajmi ishlab chiqarish jarayoni davomiyligi, ya'ni barcha butlovchilar bilan ta'minlangan mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan vaqtga bog'liq. Bunda tugallanmagan ishlab chiqarish hisobga olinadi hamda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevralda tasdiqlagan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan tannarx bo'yicha hisobotda aks ettiriladi.

Rahbarlar hisobotni tahlil etib, tugallanmagan ishlab chiqarish summasi ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulot o'zgarishiga nisbatan kamayganligi yoki ko'payganligiga e'tibor qaratishi kerak. Agar to'lanmagan ishlab chiqarishning o'sishi tayyor mahsulot o'sishiga qaraganda jadalroq ro'y berayotgan bo'lsa, bu muayyan turdagi ishlab chiqarish zaxiralari va mahsulot to'liq yig'ilmasligiga olib kelishi mumkin. Bunday paytda, imkon boricha tezroq zarur xomashyo va materiallar bilan ta'minlash choralarini ko'rish lozim.

**Tayyor mahsulot** ishlab chiqarishi tugallangan, sinovdan o'tgan va qabul qilingan, buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq barcha qismlar bilan butlangan hamda tegishli texnik shartlar va andozalarga mos buyumlar qoldig'i. Ko'rsatilgan talablarga mos bo'lmagan mahsulot va topshirilmagan ishlar hisobga olinadi va tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobotda ko'rsatiladi. Tayyor mahsulot buxgalteriya balansida amaldagi tannarxi bo'yicha hisobga olinadi.

Tayyor mahsulot qoldig'ining ko'payishiga turlicha sabablar sifatida ishlab chiqarish hajmlari ortishi, sifati yomonlashganligi yoki marketing xizmati yetarlicha olib borilmaganligi tufayli sotilmagan mahsulot o'sishini ko'rsatish mumkin. So'nggisi moliyaviy resurslar chetga jalb qilinishi, budjetga qo'shimcha badallar to'lanishi hamda korxona moliyaviy holati yomonlashishiga olib keladi. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 31-dekabrdagi 554-sonli qaroriga muvofiq, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi «Sotilmagan mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldiqlari uchun

haqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomani ishlab chiqdi. Unda belgilangan me'yordan ortiqcha sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'iga ega sanoat korxonalari mazkur haqni to'lovchilar deb tan olingan. Me'yorlar korxona qaysi idoraga tegishliligidan kelib chiqib, sotish kunlari belgilanadi va yuqorida ko'rsatilgan Yo'riqnomaning ilovasida keltiriladi. To'lov stavkasi me'yordan ortiqcha qoldiqlar ishlab chiqarish tannarxining 2 % miqdorida belgilangan. Bu tannarx quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$STMQ = STMQt - (SKO \cdot MQ),$$

bunda, *STMQ* — me'yordan ortiq sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlari tannarxi; *STMQt* — hisobot davridagi sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining hisob-kitob qilingan tannarxi; *SKO* — mahsulotni sotish bo'yicha kunlik oborot; *MQ* — sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining kunlarda belgilangan me'yori.

STMQt balans (140-satr) bo'yicha sotilmagan tayyor mahsulotning amaldagi qoldiqlarini 12 ga bo'lish va hisobot davri oylari miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. SKO hisobot («Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot», 050-satr) bo'yicha hisobot davrida sotilgan mahsulot hajmini hisobot davridagi kunlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Sotilmagan tayyor mahsulotning me'yordagi summasi mahsulotni sotish bo'yicha kundalik oborotni sotilmagan mahsulot qoldiqlarining kunlarda belgilangan me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.

Me'yordan ortiqcha sotilgan tayyor mahsulot qoldig'i uchun to'lov har chorakda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Doimiy ishlab chiqarish va mavsumiy sotishga mo'ljallangan korxonalar hisob-kitoblar va to'lovni yiliga bir marta (yillik hisobot ma'lumotlariga ko'ra) taqdim etadi. Bu to'lovni hisob-kitob qilish usulini ko'rib chiqish iqtisodiy tahlilda muhim hisoblanadi.

### 9.2. Me'yordan ortiqcha sotilgan tayyor mahsulot qoldiqlarini baholash va ularni aniqlash usullari

1. Sotilmagan tayyor mahsulotning amaldagi qoldig'i tannarxi (1-shakl, 140-satr) — 4089 ming so'm.

2. Hisobot davrida sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlari hisob-kitob tannarxi (sotilmagan tayyor mahsulot qoldiqlarining amaldagi tannarxi: 12 oyga hisobot davridagi yilning oylar miqdoriga) — 4089 ming so'm.

3. Hisobot davrida sotilgan mahsulotning amaldagi hajmi (2-shakl, 050-satr) — 16428 ming so'm.

4. Sotish bo'yicha kundalik tovar aylanma (360-satr) — 45,63 ming so'm.

5. Kunlardagi ustav me'yori — 20 kun.

6. Me'yorlarda belgilangan chegarada sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'i qiymati (4-satr · 5-satr) — 913 ming so'm.

7. Sotilmagan tayyor mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldig'i qiymati (2-satr — 6-satr) — 3176 ming so'm.

8. Sotilmagan mahsulotning me'yordan ortiqcha qoldig'i uchun to'lov stavkasi — 2 %.

9. Sotilmagan tayyor mahsulotlarning me'yordan ortiqcha qoldig'i uchun budjetga to'lanadigan to'lov summasi (7-satr · 8-satr : 100) — 63,5 ming so'm.

Korxona rahbarlari moliyaviy hisobot bilan tanishayotganda tayyor mahsulot qoldig'i o'sishini ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sotilishi dinamikasi bilan taqqoslashi lozim. Tayyor mahsulot bilan ta'minlanganlikni o'rganish asosida uning qoldig'ini me'yorgacha keltirish va xaridorlar tomonidan talab qilinmaydigan tovarlarni ishlab chiqarishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, korxonada marketingni yaxshilash bo'yicha boshqaruv qarorlarini chiqarish zarur.

**Sotishga mo'ljallangan tovarlar** — ustav faoliyatini savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish sohasida amalga oshiriladigan korxona tomonidan xarid qilingan tovarlar qoldig'i qiymatidir. Umumiy ovqatlanishda bu moddada bufetdagi tovarlar qoldig'i ham aks ettiriladi. Ishlab chiqarish korxonalarida bu moddada, maxsus sotish uchun xarid qilingan buyumlar, materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, sanoat korxonalarida butlash uchun xarid qilingan, lekin ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan va xaridorlarga alohida qaytariladigan tayyor buyumlar qiymati kiritiladi. Bu tovarlar miqdori zarurat miqdorida bo'lib, belgilangan me'yordan oshmasligi kerak.

**Barcha turdagi tovar-moddiy zaxiralarni baholash** eng kam tannarx yoki sof sotish qiymati bo'yicha amalga oshiriladi. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi ularni xarid qilish, mahsulot ishlab chiqarish, qo'shimcha ishlab chiqarish va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish xarajatlari xarid qilish (schyot-faktura summasidan xarid qilish chegirmalari ayriladi), olib kirishda to'lanadigan bojxona boji va boshqa soliqlar, fraxt qiymati, sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan tarkib topadi.

**Fraxt qiymati** — oziq-ovqatlar va xomashyoni yetkazish bo'yicha xarajatlar, shu jumladan, ortish-tushirish ishlari va yo'lda tovarlarni sug'urtalash.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, xususan, ishlab chiqarish-moddiy xarajatlar, asosiy ishchilarga maosh to'lash xarajatlari, ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urtalashga ajratmalardan tarkib topgan. Bu xarajatlar bevosita hisoblanadi.

**Qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari** — ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qilish bilan bog'liq ishlab chiqarish xarajatlari: ishlab chiqarish binolari va uskunalari amortizatsiyasi; ulardan foydalanish qiymati; ustalar, ta'mirchilar, yordamchi ishchilar ish haqi va ijtimoiy sug'urtalash ajratmalari; ishlab chiqarish binolari va asboblari uchun ijara haqi; ishlab chiqarish bo'linmalari kommunal xizmatlari xarajatlaridan iborat. Boshqa xarajatlar faqat tovar-moddiy zaxiralarni joyiga yetkazib berish yoki ularni soz holatga keltirish jarayonida vujudga kelgan taqdirdagina tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritiladi.

Korxona rahbari, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga kirmaydigan narsalarni ham bilishi shart. Inventarizatsiyani o'tkazish paytida kompaniya egalik qilish huquqiga ega bo'lmagan obyektlar aniqlanishi mumkin. Bu mijoz buyurtmasi bo'yicha yasalgan va u haqini to'lagan, unga tegishli bo'lmagan va yetkazilishini kutib turgan tovarlar, shuningdek, konsignatsiyadagi, ya'ni mazkur korxona omborida turgan, lekin boshqa korxonalar mulki hisoblangan tovarlardir. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga «Davr xarajatlari» guruhiga kiritilgan chiqimlar kirmaydi.

**Sof sotish qiymati** — tovar-moddiy zaxiralarining hisob-kitob qilingan sotish narxi, bundan ishlab chiqarishni tugatish va mahsulot sotish bilan bog'liq butlash chiqimlari chegiriladi. Zaxiralarni sotish narxi kamayganida, zaxiralarga zarar yetkazilganida, zaxiralar to'liq yoki qisman eskirganida sof sotish qiymati bo'yicha zaxiralarni baholash (amaldagi narxidan past) amalga oshiriladi.

«Moliyaviy natijalar to'g'ridagi hisobot»da «Sotilgan mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi» ko'rsatiladi. Uni olish uchun sotishga tayyor mahsulot tannarxidan davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar tannarxi ayriladi. «Tovar-moddiy zaxiralar» bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy standartiga ko'ra tovar-moddiy zaxirasi birligi qiymati:

• ular aniq qiymatini alohida aniqlash usuli;
• FIFO (FIFO) usuli;
• AVEKO (AVECO) — o'rtacha hisoblangan qiymat usuli bo'yicha topiladi.

Xalqaro amaliyotda, shuningdek, LIFO usuli ham qo'llaniladi.

Teng qiymatga ega bo'lmagan tovar-moddiy zaxiralar birligi, shuningdek, alohida loyihalar uchun ishlab chiqarilgan va ajratilgan tovarlar yoki xizmatlar qiymati ularning aniq qiymatini aniqlash yo'li bilan hisob-kitob qilinishi zarur.

**FIFO — birinchi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli** («birinchi bo'lib keldi — birinchi sotildi») birinchi navbatda xarid qilingan tovarlar tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlar qiymatiga muvofiqlashtirilishi lozim, faraziga asoslandi. Birinchi xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar birinchi sotiladi, tegishli ravishda davr oxiriga qolgan tovar-moddiy zaxiralar — bu oxirida sotib olingan yoki ishlab chiqarilganlaridir. FIFO usuli tovarlar amalda qanday harakatlanishidan qat'i nazar, har qanday tarmoq korxonalari tomonidan qo'llanilishi mumkin. Chunki tovarlar emas, ular qiymati harakatlanishini hisobga oladi. Inflyatsiya davrida FIFO usuli yuqori darajali sof foyda olish imkonini beradi. Bu tovarlarning xorijiy narxlari o'sganida kompaniya ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulotlar narxini ko'tarishga intiladi. Bunda moddiy zaxiralar narxlari o'sishiga qadar sotib olinganligiga e'tibor berilmaydi.

**AVECO (o'rtacha hisoblangan qiymat) usuli** — tovar-moddiy zaxirasi birligi qiymati davr boshidagi yoki hisobot davrida ishlab chiqarilgan bir turga mansub birlikning o'rtacha hisoblangan qiymatidir. Tovar zaxiralari birligining o'rtacha qiymati tovar zaxiralari butun qiymatini bu zaxiralar birligiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu hisobot davrida xarid qilingan tovar zaxiralari barcha narxlarini hisobga olgan holda narx o'zgarishini sezdirmaydi. O'rtacha qiymat muayyan davr bo'yicha yoki har bir yetkazish jarayonida hisob-kitob qilinishi mumkin. Bunda mazkur korxonada mavjud vaziyatdan kelib chiqiladi.

**LIFO — so'nggi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli** («so'nggi bo'lib keldi — birinchi sotildi») birinchi navbatda sotilgan tovarlar qiymatini aniqlash uchun so'nggi xarid qilingan tovarlar tannarxi qo'llaniladi, hisobot davri oxirida zaxiralar tannarxi birinchi bo'lib xarid qilingan tovarlar tannarxi bo'yicha hisob-kitob qilinadi. LIFO

usulini qo'llash inflyatsiya davrida eng kam sof foyda, deflyatsiya jarayonlari davrida esa eng katta sof foydani beradi. Mazkur usullarning qo'llanilishini muayyan misolda ko'rib chiqish mumkin (9.1-jadval).

*9.1-jadval*

**«Madaniyat» aksiyadorlik jamiyati yil mobaynida quyidagi tovar zaxiralarini xarid qildi**

| Xarid sanasi | Miqdori | Bahosi | Umumiy qiymati |
|---|---|---|---|
| 15-yanvar | 600 | 60,0 | 36000 |
| 22-aprel | 800 | 70,0 | 56000 |
| 10-sentabr | 600 | 80,0 | 48000 |
| 6-noyabr | 400 | 90,0 | 36000 |
| Jami: | 2400 | | 176000 |

Yil oxirida omborda mahsulotning 500 birligi qolgan. Sotishdan tushgan daromad 150000 ming so'mni tashkil etgan. Yil oxirida sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash kerak.

**Birinchi qaror — FIFO, birinchi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli:**

Mahsulot sotishdan tushgan daromad — 150000.

Barcha tayyor mahsulot tannarxi — 176000.

Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500 · 90,0) — 45000.

Sotilgan mahsulot tannarxi (176000—45000) — 135000.

Mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda (150000 — 135000) — 15000.

**Ikkinchi qaror — AVICO, o'rtacha hisoblangan qiymat usuli:**

Mahsulot sotishdan tushgan daromad — 150000.

Barcha tayyor mahsulot tannarxi — 176000.

Tovar birligining o'rtacha hisoblangan qiymati (176000/2400) — 73,33.

Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500 · 73,33) — 36665.

Sotilgan mahsulot tannarxi (176000 — 36665) — 139335.

Mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda (150000—139335) — 10665.

**Uchinchi qaror — LIFO, so'nggi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli:**

Mahsulot sotishdan tushgan daromad — 150000.

Barcha tayyor mahsulot tannarxi — 176000.

Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi (500 · 60,0) — 30000.

Sotilgan mahsulot tannarxi (176000—30000) — 146000.

Mahsulot sotishdan tushgan yalpi foyda (150000—146000)— 4000.

Yuqorida bayon etilgan qarorlarning ko'rsatishicha, baholashning uch ko'rinishida yakuniy ma'lumotlar farqlanadi. Yil oxiridagi mahsulot qoldig'i tannarxi va foyda LIFO usuli bo'yicha eng kam, sotilgan mahsulot tannarxi FIFO usuli bo'yicha eng kamdir. O'rtacha hisoblangan qiymat usuli bo'yicha mahsulot qoldig'i tannarxi va yalpi foyda FIFO usuliga qaraganda past, sotilgan mahsulot tannarxi esa aksincha, yuqori.

## 9.3. Tovar-moddiy zaxiralar tahlili

Tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilayotganda tovar-moddiy zaxiralarga qo'yilgan mablag'lar holati, ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarni aniqlash va o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq buning uchun, birinchi navbatda, ularning ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishni bilish talab etiladi. Tovar-moddiy zaxiralar holatini aniqlaydigan ko'rsatkichlarga:

- tovar-moddiy zaxiralar summasi, umuman va turlari bo'yicha;
- tovar-moddiy zaxiralar tuzilishi;
- tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish, kunlar;
- tovar-moddiy zaxiralarning aylanma mablag'lar umumiy summasidagi ulushi;
- alohidagi turlari tovar-moddiy zaxiralar o'sishi sur'atining ishlab chiqarish va sotish hajmi o'sishiga taqqoslash kabi omillar kiradi.

Tovar-moddiy zaxiralar summasi asosida ular miqdori va muayyan davrdagi o'zgarishi aniqlanadi, ular muayyan turlarining o'sishi ishlab chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishiga taqqoslanadi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar holati, ta'minlanganligi va foydalanish samaradorligi topiladi.

**Tovar-moddiy zaxiralar tuzilishi** har bir turning ular umumiy summasidagi ulushini hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi va ularni pul mablag'lariga aylantirish yo'llari topiladi. Mablag'larning katta ulushi ishlab chiqarish zaxiralari yoki tugallanmagan mahsulotda bo'lsa, korxona mablag'lari faqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish tugaganidan keyingina qaytariladi. Tayyor mahsulot ulushining o'sishi ham rahbariyatni tashvishlantirishi lozim. Chunki bu korxona mahsulotiga talab kamligidan dalolat berishi mumkin. Tovar-moddiy zaxiralar tuzilishini aniqlash va tahlil qilish usulini aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda 9.2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

*9.2-jadval*

**Korxonada tovar-moddiy zaxiralar tarkibini aniqlash hisob-kitobi**

| Ko'rsatkichlar | Yil boshida | | Yil oxirida | | Farqi (+, −) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | summasi, ming so'm | ulushi, % | summasi, ming so'm | ulushi, % | summasi, ming so'm | ulushi, % |
| Ishlab chiqarish zaxiralari | 8925 | 77,5 | 7568 | 59,9 | − 1407 | − 17,6 |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | 909 | 7,9 | 966 | 7,6 | + 57 | − 0,3 |
| Tayyor mahsulot | 1611 | 14,0 | 4089 | 32,4 | + 2478 | + 18,4 |
| Sotish uchun tovarlar | 75 | 0,6 | 8 | 0,1 | + 67 | − 0,5 |
| Jami: | 11520 | 100 | 12631 | 100 | + 1111 | − |

Mazkur jadval ma'lumotlari tovar-moddiy zaxiralar tuzilishida o'zgarishlar ro'y berganligini ko'rsatmoqda: ishlab chiqarish zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish pasayganida tayyor mahsulot qoldiqlari summasi va ulushi ko'paygan. Bu ma'lumotlar mahsulot chiqarish va sotish hajmlari o'zgarishi sur'atlari bilan solishtiriladi (9.3-jadval).

*9.3-jadval*

**Ikki yil mobaynida mahsulot chiqarish va sotish hajmining o'zgarishi**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| Amaldagi narxlarda mahsulot chiqarish | 13282 | 17239 | 129,8 |
| Sotilgan mahsulot hajmi | 9951 | 16428 | 165,1 |
| Ishlab chiqarish zaxiralari | 8925 | 7568 | 84,8 |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish | 909 | 966 | 106,3 |
| Tayyor mahsulot | 1611 | 4089 | 253,8 |

Ma'lumotlar tayyor mahsulot qoldiqlari o'sishi sur'atlari mahsulotni sotish hajmi o'sishidan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, mazkur korxona mahsuloti hisobot yilida xaridorlar talabini qondirmayapti yoki iste'molchilar uni biror sababga ko'ra sotib olishni istamayapti. Ishlab chiqarish zaxiralarini kamaytirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini keskin oshirish

keyingi yilda ishlab chiqarishda jiddiy uzilishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun korxona rahbari tovarlarni sotishni tashkil etish, ishlab chiqarish zaxiralarini butlash va tovar-moddiy zaxiralar tuzilishini yaxshilashga qaratilgan tezkor choralarni ko'rishi zarur.

**Tovar zaxiralaridan foydalanish kunlari** korxona mavjud zaxiralar bilan qancha muddatga ta'minlanganligini ko'rsatadi. Har bir zaxira turi o'z aniqlash usuliga ega. Ishlab chiqarish zaxiralari bilan ta'minlashni kunlarda aniqlash uchun ishlab chiqarish xarajatlari summasini (1-shakl, 120-satr) kundalik ishlab chiqarish xarajatlariga (5-shakl, 013+042-satr/365) bo'lish joiz. Bunday hisob-kitoblarni qilish shart. Chunki ishlab chiqarish zaxiralari qoldig'i ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi hajmiga bog'liqdir.

Sotishga mo'ljallangan tayyor mahsulot kunlarda tayyor mahsulot qoldiqlarini kundalik mahsulot sotish summasiga bo'lish yo'li bilan topiladi. Tayyor mahsulot qoldiqlari summasi haqidagi ma'lumotlar «Buxgalteriya balansi»dan, mahsulotni sotish summasi haqidagi ma'lumotlar esa «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»dan olinadi. Tayyor mahsulot qoldig'i sotish uchun mo'ljallangan bo'lib, uning uzluksizligini ta'minlash darkor.

Tovarlar belgilangan kunlarda sotish shu maqsad uchun mo'ljallangan tovarlar summasini xarid tovarlarining kundalik sotilishiga, savdo-sotiqda va umumiy ovqatlanishda esa, tovar aylanmasiga bo'linadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishning kunlardagi qoldig'i ishlab chiqarish jarayoni, ya'ni tayyor mahsulotni ishlab chiqarish davomiyligiga bog'liq.

**Tovar-moddiy zaxiralar bilan ta'minlanganlik** darajasi ularning kunlardagi summasini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash yo'li orqali aniqlanadi.

**Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lardan foydalanish samaradorligi** ular aylanishi, rentabelligi va mablag'lar aylanishi tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasi bo'yicha topiladi.

Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar aylanishi kunlar va necha martaligiga ko'ra hisob-kitob qilinadi. Aylanish kunlaridagi tovar zaxiralari mablag'ning bir marta aylanishi uchun ketgan kun miqdorini aks ettiradi. Tovar zaxiralari mablag'ining o'rtacha yillik

summasini sof sotilgan mahsulotning bir kunlik qiymatiga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Tovar zaxiralarining aylanish koeffitsiyentini martada aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini (sof sotilgan mahsulotni) tovarlar qoldig'ining o'rtacha summasiga (TMZo'r.) bo'linadi. Bu ko'rsatkich tovar zaxiralariga qo'yilgan mablag'lar aylanishi miqdorini ko'rsatadi. Tovar zaxiralarining o'rtacha yillik summasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$TMZo'r = \frac{1/2TMZ-1 + TMZ-2 + TMZ-3 + TMZ-4 + 1/2TMZ-5}{4},$$

bunda, *TMZ-1, TMZ-2, TMZ-3, TMZ-4, TMZ-5* — chorak boshi va oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar summasi.

Tovar zaxiralarining kunlardagi aylanish tezligi qancha past va aylanish koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, tovar zaxiralariga qo'yilgan mablag'lar shuncha tez bo'ladi va aksincha.

Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar rentabelligi (Rtmz) sof foydani (SF) tovar-moddiy zaxiralar mablag'lar o'rtacha summasi (TMZo'r)ga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'larning aylanishi tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida qo'shimcha jalb qilingan mablag'lar summasini topish zarur zaxiralaridagi mablag'dan foydalanish samaradorligini aniqlashning muhim jihatlaridan biridir (9.4-jadval).

*9.4-jadval*

**Korxona bo'yicha o'tgan yilga nisbatan tovar-moddiy zaxiralardagi qo'shimcha jalb qilingan mablag'lar hisob-kitobi**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) |
|---|---|---|---|
| Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar o'rtacha yillik summasi | 11400 | 12350 | + 950 |
| Mahsulot sotishdan kelgan sof tushum | 9951 | 16428 | + 6477 |
| Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lar aylanishi, kun hisobida | 418,1 | 274,4 | − 143,7 |
| Mahsulot sotishdan kundalik tushum | 27,26 | 45,01 | + 17,75 |
| Tovar-moddiy zaxiralardagi ozod bo'lgan (+), qo'shimcha jalb qilingan (−) mablag'lari | — | — | 6468 |

Bajarilgan hisob-kitoblar asosida tovar zaxiralaridagi mablag'lar aylanishi o'tgan yilda:

$$Aytmzk = \frac{11400 \cdot 365}{9951} = 418{,}1 \text{ kun hisobot yilida.}$$

$$Aytmzk = \frac{12350 \cdot 365}{16428} = 274{,}4 \text{ kunni tashkil etganligini ko'ramiz.}$$

Boshqacha aytganda, hisobot yilida u 143,7 kunga tezlashdi.

Tovar-moddiy zaxiralar aylanishining tezlashishi (sekinlashishi) oqibatida ozod bo'lgan (qo'shimcha jalb qilingan) mablag'lar summasini aniqlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan kelgan kundalik tushumni ular aylanishi tezlashgan (sekinlashgan) kunlar miqdoriga ko'paytirish kerak. Mazkur jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada tovar-moddiy zaxiralar aylanishi tezlashganligi natijasida o'tgan yilga qaraganda 6468 ming so'm (45,01 · 143,7) mablag'ni aylanishdan ozod etgan.

Korxona rahbarlari tovar-moddiy zaxiralar aylanishini tezlashtirish uchun barcha choralarni ko'rishi lozim. Bu o'z navbatida, umuman aylanma mablag'lar harakatini tezlashtiradi va boshqa xo'jalik ehtiyojlariga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan mablag'larni tejab qoladi.

Tovar-moddiy zaxiralardagi mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini ko'paytirish;
- chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va turlarini ko'paytirish;
- tovar-moddiy zaxiralar tuzilishini maqbullashtirish;
- me'yordan ortiqcha ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zaxiralarini, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish;
- chiqarilayotgan mahsulot talabi va taklifini o'rganishni yaxshilash;
- tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, saqlash va yetkazishni to'g'ri tashkil etish lozim.

Tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq sanab o'tilgan vazifalarni hal etish korxona ishi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir. Shu tufayli tovar-moddiy zaxiralar tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi bo'lib qolmog'i lozim.

# *10-bob.* KORXONANING MEHNAT SALOHIYATI TAHLILI

## 10.1. Mehnat va uning xarakteri, salohiyati hamda samaradorligini baholash mezonlari

### 10.1.1. Mehnat tushunchasi

**Mehnat** — odamlarning tabiat va jamiyat ne'matlarini o'z ehtiyojiga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladigan ongli faoliyat jarayonidir. Masalan, odamzot iste'mol qiladigan qiymatli ne'matlardan biri nonni olaylik. Non tabiatda tayyor holda uchramaydi. Uni iste'mol holatiga keltirish uchun avval bug'doy ekiladi, parvarish qilinadi, bug'doyi o'rib olinadi. Bug'doydan un, undan esa non tayyorlanadi. Ko'rinib turibdiki, har kuni iste'mol qiladigan nonni yaratish uchun inson ko'p mehnat sarflaydi. Shu orqali tabiat ne'matini, ya'ni bug'doyni inson o'zining ongli faoliyati natijasida o'z ehtiyojini qondiradigan tayyor mahsulotga, ya'ni nonga aylantiradi.

Odamzot boshqa mavjudotlardan ongli ravishda mehnat qilishi bilan farq qiladi. Bu xususiyat unga Alloh tomonidan berilgan buyuk ne'matdir. Inson tabiat boyliklarini o'z ehtiyojiga moslashtirish uchun mehnatdan foydalanadi. Ammo mehnati bilan hamisha tabiatga ta'sir qilish qudratiga ega emas, chunki bunga u jismoniy jihatdan ojizlik qiladi. Shuning uchun mehnat qurollaridan foydalanishga majbur.

Mehnat qurollaridan foydalanish inson bilimi va aqlini takomillashuviga olib keladi. Masalan, bug'doy yetishtirishni olaylik. Ilgari odamlar oddiy omochdan foydalanishgan bo'lsa, vaqtlar o'tishi bilan kuchli quvvatga ega bo'lgan traktorlar yaratildi. Yoki un tayyorlashda oldin oddiy suv va havo tegirmonidan foydalangan, hozir esa butun yirik sanoat asosida qurilgan tegirmonlardan foydalanilmoqda. Demak, mehnat qurollari muntazam ravishda takomillashib borish qonuniyatiga ega ekan.

Faraz qilaylik, mehnat qilish qobiliyatiga ega odam, qolaversa, mehnat quroli ham bor. Bu har ikkisining mavjudligi hali hech narsa emas. Mehnatning sodir bo'lishi uchun mehnat jarayoni bo'lishi kerak.

**Mehnat jarayoni** tabiatga mehnat, mehnat predmeti va mehnat vositasining birgalikda ta'siri tufayli sodir bo'ladi. Non ishlab chiqarish jarayoniga qaytadigan bo'lsak, u yerdagi ishlayotgan novvoylarning ongli harakatini mehnat deyish mumkin. Non ishlab chiqarishga mo'ljallangan sex (tandir) **mehnat vositasi** va un, tuz, suv kabi qorishmalar (xamir) esa **mehnat predmeti** bo'lib hisoblanadi. Novvoyning tandirga xamirni yopib, non tayyorlash jarayoni **mehnat jarayonidir.** Bu uch jarayon birdaniga harakatga keltirilsa, bizning ehtiyojimizni qondiradigan tayyor mahsulot, ya'ni non ishlab chiqariladi. **Tayyor mahsulot** bu tabiat ne'matlarini inson ehtiyojini qondirish uchun iste'molga tayyor holga keltirilgan mahsulotdir.

Non ishlab chiqargan odam kiyim kiyishi kerak, kiyim ishlab chiqargan odam non yeydi va h.k. Jamiyatda yashash jarayonida odamlar bir-biri bilan munosabatda, bo'ladilar. Bu ishlab chiqarish munosabatlari deb yuritiladi. Demak, **ishlab chiqarish munosabatlari** odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlaridir.

Jamiyat taraqqiyoti mehnatning takomillashuvini talab qilsa, mehnatning takomillashuvi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Bular bir-biri bilan uzviy bog'liq va doimiy ravishda takomillashib borish qonuniyatiga ega bo'lgan tushunchalardir.

### 10.1.2. Bozor munosabatlari sharoitida mehnatning xarakteri va manfaatlar mushtarakligi

Har qanday jamiyatning iqtisodiy asosini yaratuvchi kuch — mehnatdir. Shu tufayli uning xarakterini o'rganish hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Mehnatning xarakterini nazariy jihatdan tahlil qilganda, uning unumli yoki unumsiz ekanligini isbotlash asosiy o'rinni egallaydi. Unumli va unumsiz mehnat muammosi bilan juda ko'p yirik olimlar, jumladan S.G.Strumilin, A.Sh. Rumyansev, V.S.Nemchinov, E.S.Varga, G.S.Xachaturov, N.A.Kronrot, A.I.Notkin, A.S.Kudryavsev, M.M.Gatovskiy, V.V.Novojilov, G.A.Prudenskiy, P.A.Xromov, E.L.Manevichlarning ilmiy tadqiqotlari bor. Bu muammoning bevosita muomala sohasida, xususan

savdoda qanday hal bo'lish masalasi bilan M.I.Bakanov, V.I.Ivaniskiy, L.I.Kravchenko, N.P.Pisarenko, A.M.Fridman, S.V. Sapov, M.V.Sladkov, D.Timoshevskiy, V.X.Zadorojniy, V.D.Xorin kabi olimlar shug'ullanishgan. Respublikamiz olimlaridan I.T. Abdukarimov, N.B.Bozorov, J.S.Sirojiddinov, R.X.Shodiyev, M.M.Muhammedov, A.O'lmasov, Y.Abdullayevlarning bir qator ishlari bor.

Bozor iqtisodiyot sharoitida mehnatning xarakterini tadqiq qilish faqatgina nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatga ega. Har bir sohada band bo'lgan xodimlar mehnatining xarakterini o'rganmasdan shu sohaning xalq xo'jaligida tutgan o'rnini, davlatimizning ichki yalpi mahsulotiga va yalpi milliy — mahsulotiga qo'shgan hissasini aniqlash qiyin. Negaki, bu ko'rsatkichlar shu davlatning iqtisodiy qudratini, aholining ijtimoiy ahvolini, iqtisodiy o'sish darajasini, boshqa davlatlar o'rtasida tutgan o'rnini ifodalovchi ko'rsatkichlardir.

Masalaning muhimligi ushbu muammoning bir qancha nazariy jihatlarini hozirgi davr nuqtayi nazaridan o'rganish va talqin qilishni talab qiladi. Bular jumlasiga ko'p mulkchilik sharoitida savdodagi mehnatning xarakterini (uning unumli yoki unumsizligini), uning qaysi sohaga mansubligini (ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish), mehnat natijasini qanday baholashni (mehnat unumdorligi yoki mehnat samaradorligini) aniqlash kabi muammolar kiradi. Bu muammolarning hal qilinishi o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan respublikamiz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, bular mavjud mehnat potensialining qancha qismini shu sohaga jalb qilish zarurligini ulardan qanday samarali foydalanish mumkinligini ko'p mulkchilikka asoslangan ushbu sohaning jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatiga qanday hissa qo'shayotganligini aniqlashda metodologik asos bo'ladi.

**Mehnatning xarakteri** deganda mazkur jamiyatning iqtisodiy va siyosiy qurilishiga to'g'ri keladigan mehnat tabiati tushuniladi. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti shakllanmoqda. **Buning iqtisodiy asoslari,** eng avvvlo, ko'p mulkchilik, erkin raqobat va erkin narxlardan iboratdir. Ushbu tushunchalar bozor iqtisodiyotida amal qiladigan bir qancha boshqa qonuniyatlar bilan bevosita bog'liq. Xususan, narxning o'zgarishi talab va taklif qonuniga amal qiladi. Talab ko'paysa narx ortadi, taklif ko'paysa kamayadi. Talab va taklifning muvozanati narxning barqarorligini ta'minlaydi.

Ko'p mulkchilik o'z navbatida yagona markazlashgan boshqaruvdan xoli erkin tadbirkorlikning shakllanishi uchun obyektiv zamin yaratadi. Raqobat esa har bir xo'jalik yurituvchi subyektdan samarali ishlashni talab qiladi. Mehnatning xarakteri xuddi shu jarayonda shakllanadi. Bunda, eng avvalo, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishning turli shakllarini, ya'ni ko'p mulkchilikni e'tirof etish lozim. Ko'p mulkchilik birinchi galda mulkdorlarning manfaatiga xizmat qiladi.

Mulkdorlar o'zining iqtisodiy faoliyatida, eng avvalo, mulkni ko'paytirishdan manfaatdordir. Mulkni ko'paytirish uchun faoliyat ko'rsatish kerak. Bu faoliyat jamiyat ehtiyojidan kelib chiqmog'i lozim, chunki har qanday faoliyat shunchaki sodir bo'lmaydi. Undan kimdir manfaatdor bo'lish lozim. Shu jihatdan mulkdorning manfaati jamiyat manfaatiga mos kelishi darkor. Bu masalaning birinchi jihati.

Ikkinchidan, mulkdor o'z faoliyati natijasida olgan daromadi (foydasi) va mulkidan soliq to'lash yo'li bilan davlat orqali jamiyatning manfaatiga yana mos keladigan ishni qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, mulkdor mulkining ko'payishi davlat va jamiyat uchun ham foydali. Demak, fuqarosi boy mamlakat iqtisodiy jihatdan qudratli bo'lishi muqarrardir. Bu holda mehnat bevosita mulkdor va jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan, ularning mushtarakligini ta'minlaydigan xarakterga ega bo'ladi.

Ammo mehnatni mehnatkash qiladi. Bularning manfaati ham manfaatlar tizimida muhim o'rinni egallaydi. Shu tufayli mehnatkash mehnat qilganda, eng avvalo, o'z manfaati nuqtayi nazaridan qaraydi. Shu tufayli ham ko'p, yaxshi va sifatli mehnat qilsa, u mulkdordan shunchalik ko'p mehnat haqi olishi lozim. Buning uchun mehnat qiluvchi o'zining mehnat unumdorligini oshirib boradi. Bunda barcha manfaatlarning muvofiqligi ta'minlanadi. Birinchidan, mulkdorning mulki, daromadi ko'payadi. Ikkinchidan, davlatning ushbu obyektlardan oladigan solig'i ortadi. Uchinchidan, mehnatkashning mehnat haqi ko'payadi va shunga mos ravishda davlatga to'laydigan solig'i ham ortadi. Demak, barcha manfaatlarning bir-biriga muvofiqligi ta'minlanadi.

Jamiyatdagi barcha moddiy va ma'naviy ne'mat, shu jamiyatda mavjud bo'lgan mehnat bilan yaratilgan. Mehnat jamiyat, tabiat va inson tafakkurida sodir bo'ladigan jarayonlarni takomillashtirib boradi. Demak, har qanday taraqqiyot zamirida mehnatning takomillashuvi yotadi. Biroq, mehnatning xarakteri, uning insonga

va ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri har xil tarixiy davrda bir xil bo'la olmaydi, chunki inson mehnati uning aql-zakovati bilan boshqariladi, mehnat qilish jarayoni esa bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Mehnat muammosi keng qamrovli, juda katta tadqiqot ko'lamini talab qiladigan muammodir. Biz esa bu muammoning faqat bir qismiga, bozor iqtisodiyot sharoitida savdo sohasidagi mehnatning xarakterida rejali iqtisodiyotga nisbatan qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligiga va jamiyat taraqqiyotining shu bosqichida uning o'ziga xos xususiyatlari vujudga kelganligiga to'xtalamiz.

Ijtimoiy mulkka asoslangan sobiq sho'rolar davrida mehnatning xarakteri deyilganda uning milliy daromadni yaratishga qo'shgan hissasi tushunilar edi. Buning uchun nazariy jihatdan savdodagi mehnatning unumli yoki unumsiz mehnat ekanligini asoslash talab qilinardi. Endilikda, ko'p mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyot sharoitida savdodagi mehnatning xarakteri jamiyatning yalpi milliy mahsulotini yaratishga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Milliy daromad va yalpi milliy mahsulot bir-biridan mohiyati va mazmuni jihatidan farq qiladi. Nazariy jihatdan tadqiq qilishda ushbu mehnatning xarakteriga unumli yoki unumsiz mehnat nuqtayi nazaridan emas, balki mehnatning manfaatga xizmat qilishi kerak, deb yondashish maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, hozirgi sharoitda unumli mehnatga moddiy ne'mat ishlab chiqarishgina emas, balki milliy mahsulot ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan qarash lozim. Chunki sotsialistik tuzumda ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy ne'mat ishlab chiqaradi va ishlab chiqarmaydigan sohalarga bo'linar edi. Bozor iqtisodiyot sharoitida milliy daromad ko'rsatkichi o'rniga yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichi kiritilib, uni yaratishda moddiy ne'mat ishlab chiqarish sohasi bilan birga daromad keltiruvchi barcha xizmatlar ham kiradi. Ushbu muammoga shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, hozirgi bozor iqtisodiyot sharoitida unumli va unumsiz mehnatni aniqlashga yangicha metodologik usul bilan yondashish lozim bo'ladi.

Unumli mehnatga mehnatkash nuqtayi nazaridan ham yondashish lozim. Agar u sarf qilgan mehnati evaziga oladigan ish haqi bilan o'zi va oilasini ta'minlasa, ish kuchini takror ishlab chiqara olsa, bu mehnat uning uchun unumlidir. Mehnatkashni u moddiy ne'mat ishlab chiqarayaptimi yoki chiqarmayaptimi yoki

xizmat sohasida bandmi qiziqtirmaydi. Uni qiziqtirgan narsa o'z mehnati uchun (unumlimi yoki unumsizligidan qat'iy nazar) oladigan maoshdir.

Umuman, mehnatning xarakterini tadqiq qilishda bozor iqtisodiyoti sharoitida, unga asosan mulk egasi, sohibkor nuqtayi nazaridan yondashish lozim. Ammo har qanday sohibkor o'zi yashab turgan jamiyat a'zosi. Shuni nazarda tutib uning mehnatiga faqat shaxsiy manfaatdan kelib chiqmasdan, balki jamiyat manfaatini ham hisobga olish lozim. Jamiyat a'zosi sifatida har bir shaxsning o'z manfaati bor. Shu tufayli mehnat xarakteri tadqiq qilinganda, insonning manfaati chetda qolib ketmasligi lozim. Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatning natijasini baholashda sho'rolar davridagidek, faqat nuqtayi nazardan qaralmasdan, balki mulk egasi, sohibkor, jamiyat va mehnatkash manfaatlarining mushtarakligini ta'minlash nuqtayi nazaridan qarash lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim muammolardan biri savdoning qaysi sohaga mansubligini aniqlashdan iboratdir. Rejali iqtisod milliy daromadning yaratilishi nuqtayi nazaridan ijtimoiy ishlab chiqarish — ikki yirik moddiy ne'mat ishlab chiqaruvchi, unumli va moddiy ne'mat ishlab chiqarmaydigan, unumsiz sohaga bo'linar edi. Bu tabaqalanish jamiyat nuqtayi nazaridan to'g'ri, chunki jamiyatning boyligi, asosan, moddiy ishlab chiqarish orqali ko'payadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati shundaki, milliy hisob tizimini xalqaro andozalar darajasida qabul qilsak-da, bizda bu ikki sohaning saqlanib qolishi muqarrar. Prezidentimiz I.A.Karimov har qanday islohotdan maqsad xalq farovonligini oshirish, uning ahvolini yaxshilashdan iboratdir, degan edi. Demak, bizda ijtimoiy manfaatlar hukmron (gegemon) bo'lmasdan o'z ustuvorligini yo'qotgan emas. Bunday sharoitda, albatta, moddiy ne'mat ishlab chiqaruvchi unumli soha alohida saqlanib qolishi obyektiv zaruratdir. Bu esa O'zbekistonda shakllanayotgan bozor iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Endi iqtisodiy jarayonning sodir bo'lishi davlatning boshqaruvdagi roli, umuman, xo'jalik yuritish sohasida vaziyat tubdan o'zgardi.

Ko'p mulkchilikka asoslangan savdo tashkilotlari mustaqil faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning aksariyat qismi davlat tasarrufidan chiqarildi. Ammo, davlat bu subyektlarni o'z tasarrufida qonun yo'li bilan ushlab turibdi, chunki ular davlatning qonunlari doirasida faoliyat ko'rsatishmoqda. Xo'jalik subyektlari, shu jumladan, savdo korxonalari ham har qanday iqtisodiy faoliyat natijasidan

(agar u imtiyozga ega bo'lmasa) davlatga soliq to'laydi. Davlat soliq mexanizmi orqali o'z nazoratini amalga oshiradi. Savdo korxonalari ham daromad (foyda) keltiradigan faoliyati natijasidan ma'lum me'yor asosida soliq to'laydi. Agar savdoning ko'rsatadigan pullik xizmatiga ana shu davlat nuqtayi nazaridan qaralsa, u jamiyat uchun ham unumli sohaga aylanadi. Savdoda band bo'lgan xodim o'z mehnati evaziga ish haqi oladi va sarf qilgan kuchini takror tiklaydi. Bu esa uning uchun unumli mehnatdir. Shu tufayli bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoni davlat (jamiyat), mulk egasi (sohibkor), mehnatkash (ishchi kuchi) manfaatlarining mushtarakligini ta'minlovchi unumli va naf keltiruvchi soha deb hisoblash lozim. Tom ma'noda savdo bozor iqtisodiyoti sharoitida servis xizmatiga kiradi.

Savdoda mehnatning xarakteri o'rganilganda, albatta, uning natijasini qanday baholanishi ko'rib chiqilmasa, fikrimizcha, bu boradagi tadqiqot oxiriga yetmagan hisoblanadi. Sho'ro davridagi ishlab chiqarish sharoitida savdoda unumli mehnat ulushining ko'pligidan kelib chiqib, bu sohadagi ish yakuni baholanishida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi qo'llanilar edi. Bu ko'rsatkichni hisoblash uchun asos qilib tovar oboroti joriy va solishtirma bahoda olinardi. Endilikda ham savdo korxonasining asosiy ko'rsatkichi tovar oboroti bo'lib qolishi kerak, chunki moliyaviy xo'jalik faoliyatini ifodalovchi deyarli barcha ko'rsatkichlar (yalpi daromad, foyda, muomala xarajatlari) shu ko'rsatkichning hajmiga bog'liq.

Shu tufayli bozor iqtisodiyoti sharoitida ham mehnat unumdorligi ko'rsatkichini bir savdo xodimiga to'g'ri keladigan tovar oborotining hajmi (joriy va solishtirma bahoda) bilan baholash usulini saqlab qolish maqsadga muvofiq. Biroq, mulk egasi uchun, u davlatmi, jamoami yoki xususiy sohibkormi qat'iy nazar, tovar oborotidan ko'ra foyda ko'rsatkichi muhimdir. Bu, albatta, uning iqtisodiy manfaatidan kelib chiqadi. Shu tufayli mehnat natijasini baholash uchun uning unumdorligi bilan birga foydalilik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichi ham qo'llashni maqsadga muvofiq deb uylaymiz. Bu har bir xodimga to'g'ri keladigan foyda summasi bilan ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkichning afzalligi shundaki, har bir xodimning va shu korxona moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan qiziquvchi subyektlarning mehnat samarasi to'g'risida xulosa qilish uchun aniqroq ma'lumotni beradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mehnat xarakterini tubdan o'zgartirdi. Ular o'rtasidagi ziddiyat va qarama-

qarshiliklarni susaytiradi. Mehnat qachon to'g'ri rag'batlantirilsagina o'shanda maqsadga erishiladi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlik ham mehnatning to'g'ri rag'batlantirilishiga bevosita bog'liq. Mehnat bunday sharoitda ijodiy xarakterga va u oddiy mehnatdan murakkab shakliga qarab o'zgarish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Mehnatning iqtisodiy xarakterga ega bo'lishi, uning to'g'ri rag'batlantirilishi, kishilarni boqimandalik ruhiyatidan qutilishiga olib keladi. «Ishlamagan tishlamaydi» tamoyilining amal qilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning har bir mehnatga layoqatli a'zosini ishlashga, mehnat qilishga da'vat etadi.

Mehnat insonni ulug'laydi. Har bir mamlakatda ijobiy natijaga, xuddi shu holatga erishish lozim. Qaysi davlat samarali mehnatni qadrlasa, ulug'lasa shu yerda katta muvaffaqiyatga erishildi. Mehnat esa uzluksiz takomillashib boradi, uning samaradorligi va unumdorligi ortadi.

O'zbekistonda sifat jihatidan yangi jamiyat shakllanmoqda. Bu mehnatning xarakterini ham shunga mos ravishda o'zgarishini talab qiladi. Ammo hozirgi o'tish davrida mehnatni tashkil qilish, uni to'g'ri rag'batlantirish, uning ijodiy mehnatga aylanishini ta'minlashini o'z holiga qo'ymaslik lozim. Bunga davlatning doimiy nazorati va bu boradagi islohotlarga yetakchilik qilish lozimligini taqozo qiladi.

### 10.1.3. Mehnat salohiyati tushunchasi

Rejali iqtisodiyot sharoitida mehnat resursi, mehnatning o'zi, ishchi kuchi, mehnat unumdorligi, mehnat samaradorligi kabi tushunchalar qo'llanilar edi. Endilikda jamiyatning ko'p sohalarda yangilanish jarayoni davom etmoqda. Kundalik hayotimizga yangicha mazmundagi iqtisodiy iboralar, atamalar kirib kelmoqda. Shulardan biri mehnat salohiyati tushunchasidir. Mehnat salohiyati nima, degan savolga javob berish uchun, eng avvalo, uning amal qilish sohasi va turlarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Mehnat salohiyati tushunchasini bir kishi, mehnat jamoasi va butun jamiyat miqyosida aniqlash, baholash lozim. Buni to'g'ri aniqlamoq uchun, avval, mehnat resursi tushunchasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat resursi mehnat qilishga layoqatli yoshdagi aholi (ayollar 16—55 yoshda, erkaklar 16—60 yoshda) sonida o'z ifodasini topadi. Bu yoshdagi nogironlik va boshqa sabablar bilan ishla-

maydiganlar mehnat resursiga kirmaydi. Demak, mehnat resursi deganda aholining ma'lum cheklangan yoshdagi ishlay oladigan faol qismi tushuniladi.

Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat qiluvchilar yoshidan qat'iy nazar, mehnat qilish qobiliyati bo'lsa, moddiy ne'mat ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ish bajarish bilan mashg'ul bo'lishmoqda. Bundan mulkdor ham, ish beruvchi ham odamlarning yoshini cheklamasdan, balki ularning mehnat qila olish layoqatidan kelib chiqadi. Masalan, xususiy korxonada 100 kishi ishlaydi. Shundan 8 kishi nafaqa (pensiya) yoshida, 2 kishi hali 16 yoshga to'lmagan. Bularni mehnat resursi deb bo'lmaydi. Mehnat resursi atigi 90 kishi, 10 kishi mehnat resursiga kirmaydi. Lekin korxonaning mehnat salohiyati son jihatidan ushbu korxonada 100 nafar xodimdan iborat bo'ladi.

Mehnat resursi aholining yoshiga qarab, son jihatidan ma'lum chegara doirasida qaraladi. Mehnat salohiyati esa xodimlarning yoshini cheklamaydi. Uning turli holatlarda qo'llaniladigan ta'rifini ko'rib chiqamiz. Bir kishining mehnat salohiyati deganda, shu xodimning muayyan bir vaqtda ma'lum bir ishni bajarishi mumkin bo'lgan jismoniy va intellektual qobiliyati tushuniladi. Odamlar har xil bo'lganligi tufayli ularning mehnat salohiyati ham turlicha. Bir kishi ma'lum bir vaqt ichida juda ko'p moddiy ne'mat yaratadi yoki boshqa mehnat natijasiga erishishi mumkin, ikkinchi shaxs shu vaqtda unga nisbatan juda oz yoki ko'p narsa yaratishi mumkin. Shu tufayli mehnat salohiyati ularning turli hajmda yaratuvchanlik qobiliyatini belgilaydi. Mehnat resursi mehnatning borligi, mavjudligini ifodalasa, mehnat salohiyati uning yaratuvchanlik qobiliyatini ifodalaydi.

Jamoaning mehnat potensiali deganda, shu jamoa bajarishi lozim bo'lgan biror ishni (xizmatni) uddalashga qodir turli yoshdagi, malaka va jinsdagi xodimlar jamoasi tushuniladi. Uning mehnat salohiyati son va sifat jihatidan mehnat resursidan farq qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jamoada mehnat salohiyati 100 kishi, ammo undan 90 nafari shu jamoaning mehnat resursini tashkil qiladi. Xuddi shunday holatni hudud va butun jamiyat miqyosida ham ko'rish mumkin. Masalan, viloyat aholisi 3,0 million kishi. Shulardan mehnatga qobiliyatli yoshdagi ayollar va erkaklar 1,8 millionni tashkil qiladi. 0,5 millioni vaqtincha ishlamaydi.

Yosh bolalar va nafaqa yoshidagilar bilan birga ishlayotganlar soni 1,9 million kishini tashkil qiladi. Endi shularni tegishli kategoriyalarga bo'lish mumkin:

1. Aholining soni — 3,0 million.
2. Mehnat resurslari — 1,8 million.
3. Xodimlar soni — 1,9 million.
4. Mehnat salohiyati — 2,4 million (1,8 + 0,6).

Ushbu tenglamada 0,6 million kishi ishlayotgan nafaqaxo'rlar va yoshlardir. Bu quyidagicha aniqlandi: (1,9 + 0,5–1,8 = 0,6). Ushbu ko'rsatkichlarga asosan mehnat salohiyatidan foydalanish darajasini ham aniqlash mumkin. Viloyatda mehnat salohiyati 2,4 millionni tashkil qilgan bir paytda ish bilan band aholi, ya'ni xodimlar soni 1,9 kishini tashkil qiladi. Mehnat salohiyatining foydalanish koeffitsiyenti 0,792 ga yoki 79,2 %ga (1,9:2,4 · 100) teng. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat ko'rsatkichlariga yana bir muhim ko'rsatkich mehnat salohiyati tushunchasi kirib keldi. Bu obyektiv zaruriyat. Mutaxassislar ushbu tushunchaning mazmunini, farqini yaxshi anglab olishlari lozim, chunki bu ko'rsatkichlar boshqarish va tegishli rejalarni tuzishda o'ta muhimdir. Zero, har bir xodim shunchaki subyekt bo'lib qolmasdan, balki jonli ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Chunki uning oilasi bor, shu bois mehnat qilib ro'zg'orini moddiy jihatdan ta'minlash kerak. U mehnati uchun ish beruvchidan haq talab qiladi. Bu mulkdor uchun xarajat. Har bir sarf-xarajat naf keltirishi lozim. Shunday qilib, hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan paytda ushbu ko'rsatkichlarning faqat tarkibi emas, balki mazmuni ham tubdan o'zgardi.

Mehnat potensiali tushunchasiga jamiyat nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, uning mazmuni bir xodim mehnat potensialidan farq qiladi, chunki mehnat jarayonida hamisha uning yakka o'zi emas, balki mehnat jamoasi ishtirok etadi. Bu jamiyat miqyosigacha ko'tariladi. Shunday qilib, ushbu tushunchaga jamiyat nuqtayi nazaridan quyidagicha ta'rif berish mumkin.

**Mehnat potensiali** — bu biror ko'zda tutilgan ish (faoliyat)ni ma'lum bir vaqtda bajarishga qodir bo'lgan va turli malakaga ega ishchi va xizmatchilardir. Tahlil qilish uchun uni natural va qiymat ko'rsatkichlarida ifodalash lozim. Bu uning tarkibida namoyon bo'ladi.

### 10.1.4. Mehnat salohiyati tarkibi

Mehnat potensiali tarkibini natural va qiymat jihatidan ifodalash mumkin. Natural jihatidan uning tarkibiga quyidagilar kiradi: oliy ma'lumotli; o'rta maxsus ma'lumotli; umumiy o'rta ma'lumotli; to'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar (bular tarkibiga boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lganlar ham kiradi). Har bir guruh o'z navbatida mutaxassisliklari bo'yicha ham turkumlanadi, chunki barcha oliy ma'lumotli xodimlarga bir xil talab qo'yib, ulardan bir xil samara kutib bo'lmaydi. Masalan, agronom kerak bo'lgan joyga yuqori malakali matematika o'qituvchisini o'tqazib qo'ysangiz, o'qituvchining yuqori malakasidan hech qanaqa naf yo'q. Shu tufayli har bir guruhning bajarayotgan ishiga malakalari to'g'ri kelishini aniqlash lozim.

Bunday holat hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat uchun ham, mulkdor uchun ham, mehnat qiluvchi uchun ham muhimdir. Xizmatchi ishlagan joyida o'z malakasiga to'g'ri keladigan vazifani bajaradi va vaqt o'tishi bilan malakali mutaxassisga aylanib boradi. Mulkdor bunday xodimlarni ishlatib samarali va sifatli ko'rsatkichlarga erishadi, to'lagan mehnat haqi besamara ketmaydi. Jamiyat uchun bu holatning foydasi shundaki, birinchidan, mulkdorning mulkiga mulk qo'shiladi, ishchi-xizmatchining daromadi ko'payadi va ulardan olinadigan soliq miqdori mos ravishda ortadi. Ikkinchidan, jamiyatda sifatli mahsulot (ish, xizmat) ko'payadi, bozor to'ladi, farovonlik yaratiladi.

Shunday qilib, mehnat potensiali har bir guruhining ma'lum darajada yana guruhlanishi muhim ahamiyatga ega. Xuddi shunday holatda boshqa guruhlarga ham yondashish mumkin. Mehnat potensiali guruhlari 10.1-chizmada o'z aksini topgan.




*10.1-chizma.* Mehnat salohiyati tarkibi.

Mehnat potensiali tarkibini iqtisodiy mazmuni jihatidan to'g'ri aniqlash uchun mehnat resurslari va xodimlar soni kabi tushunchalarni ham aniqlab olishni taqozo qiladi.

**Mehnat resurslari** — bu korxonada band bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi ishchi va xizmatchilar tushuniladi. Bu asosan natural ko'rsatkichda, ya'ni xodimlar sonida ifodalanadi. Ularning tarkibini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Mr = I + Mtx + Xz + Bx,$$

bunda, *Mr* — mehnat resursi; *I* — ishchi; *Mtx* — muhandis-texnik xodimlar; *Xz* — xizmatchilar; *Bx* — boshqaruv xodimlari.

Bunda shuni inobatga olish lozimki, barcha ko'rsatkichlar tarkibida nafaqaxo'rlar va o'smirlar ifoda etilmaydi. Xodimlar soni ta'kidlanganidek, mehnat resurslaridan miqdori va mazmuni jihatidan ham farq qiladi.

**Xodimlar soni deganda** — korxonada band bo'lgan (yoshidan qat'iy nazar) barcha ishchi va xizmatchilar yig'indisi tushuniladi. Bu ham faqat natural miqdorda ifodalanadi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = (I + Mtx + Xz + Bx) + (P + O'),$$

bunda, *P* — ishlayotgan pensionerlar; *O'* — ishlayotgan o'smirlar.

Ammo shuni e'tirof etish kerakki, xodimlar soni mehnat resurslarida ishlayotgan pensioner va o'smirlar sonidan ko'p bo'ladi. Masalan, Mr = 200, X = 220 kishi bo'lishi mumkin. Bunda ishlayotgan pensionerlar va o'smirlar soni 20 kishiga (220—200=20) teng bo'ladi. Ushbu tushunchalarning amaliyotda qo'llanilishini ko'rish uchun ularning har birini aniqlash yo'llarini ma'lumotlar asosida hisoblab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat potensialiga oid ko'rsatkichlarni aniqlash uchun quyidagi misolni keltiramiz. Bir korxonada quyidagi tarkibda ishchi va xizmatchilar faoliyat ko'rsatadi:

1. Oliy ma'lumotlilar — 22;
   shu jumladan, pensioner va o'smirlar — 3;
2. O'rta maxsus ma'lumotlilar — 31;
   shu jumladan, pensioner va o'smirlar — 4;
3. O'rta ma'lumotlilar — 50;
   shu jumladan, pensioner va o'smirlar — 12;
4. To'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar — 18;
   shu jumladan, pensioner va o'smirlar — 1;
5. Jami ishda band bo'lgan xodimlar — 121.

Ushbu ma'lumotlarga asosan, mehnat potensiali tarkibi bilan bog'liq ko'rsatkichlarni quyidagicha aniqlash mumkin, ya'ni mehnat resurslari 101 kishiga teng:

$$(22 - 3) - (31 - 4) + (50 - 12) + (18 - 1) = 101,$$

xodimlar soni 121 kishiga teng:

$$22 + 31 + 50 + 18 = 121,$$

ishlayotgan pensionerlar va o'smirlar soni 20 kishiga teng:

$$3 + 4 + 12 + 1 = 20,$$

mehnat potensiali 121 kishiga teng:

$$22 + 31 + 50 + 18 = 121 \text{ yoki } 101 + 20.$$

Shunday qilib, mehnat potensiali va u bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari, ularning miqdori va mazmuni jihatidan bir-biridan farqini aniqlab olish mumkin ekan. Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyat miqyosida mehnat resursi va mehnat potensiali bir-biridan miqdor jihatidan farq qiladi. Ammo korxona miqyosida ushbu ikki tushuncha o'rtasida miqdor jihatidan aks holda tenglikni ko'ramiz.

### 10.1.5. Mehnat samaradorligi tushunchasi

**Samara** — iqtisodiyot nuqtayi nazaridan biror ishlab chiqarish jarayonida erishilgan natijadir. Yoki biror iqtisodiy faoliyat natijasini ham samara sifatida qabul qilish, shuningdek, asosiy vositalar, aylanma mablag'lar yoki mehnatning ishlatilishidan olinadigan natijani ham samara sifatida ifodalash mumkin. Masalan, ishlab chiqarishda erishilgan natija tayyor mahsulot hajmini ishlab chiqarish, savdoda tovar aylanmasi hajmiga erishish, xizmat sohasida erishilgan natija — ma'lum nafar odamlarga xizmat qilish, ishning natijasi — shuncha ishni bajarish va h.k. Demak, biror ongli faoliyat tufayli ma'lum natijaga erishish samara, deb yuritilar ekan.

«Samarador» atamasi biror faoliyat yoki predmetni ishlatishning serunumliligini anglatadi. Masalan, oliy ma'lumotli malakali xodimning mehnati oddiy malakasizning ishiga nisbatan samarador, serunum. Biroq u «samaradorlik» atamasining sinonimi emas. Samarador so'zi, ko'p hollarda kelgusi zamon ma'nosida ishlatiladi. Samaradorlik esa sodir bo'lgan jarayonni ifodalaydi, ya'ni o'tgan zamon ma'nosida ishlatiladi.

«Samaradorlik» — bu tom ma'noda natijaviylikdir. Biror sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonning qanday natija bilan yakunlanganligini ifodalaydigan tushuncha. Samara va samarador so'zlari iqtisodiyotda, asosan, mutlaq ko'rsatkichlar bilan ifodalansa, sama-

radorlik esa nisbiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Masalan, non ishlab chiqarish sohasini olaylik. Bir oyda 600,0 ming non ishlab chiqarildi, deb faraz qilamiz. Bu — ko'rsatkich non ishlab chiqaruvchi korxonaning samarasi. Lekin shu miqdordagi nonni necha kishi ishlab chiqardi? 10 kishi mehnat qilgan, deylik. Demak, har bir kishi bir oyda 60,0 ming (600,0 : 10) donadan non ishlab chiqaribdi. Bu yerda 60,0 ming ushbu korxonadagi bir kishining mehnat samaradorligi yoki mehnatning natijaviyligini ifodalaydi.

Ushbu korxonada oddiy uchta tandir bilan 600,0 mingta non ishlab chiqargan, ikkinchi bir shunday korxonada bitta elektr quvvatiga moslashtirilgan pech bilan 700,0 mingta non ishlab chiqilgan, deb faraz qilamiz. Birinchisida, ta'kidlanganidek, o'n kishi ishlagan bo'lsa, ikkinchisida to'rt kishi ishlashi mo'ljallangan. Savol tug'iladi, qaysi korxona samarador? Albatta, elektr quvvatiga moslashtirilgan pechga ega bo'lgan korxona har tomonlama samarador. Chunki unda birinchidan, odam soni kam, ikkinchidan esa, ko'p mahsulot yetishtirib beradi. Endi ushbu tushunchalarni bevosita mehnatga, mehnat potensiali va resurslariga tatbiq qiladigan bo'lsak, quyidagicha xulosalarni qilish mumkin.

Mehnat samarasi, deganda ma'lum vaqtda (kun, oy, chorak, yil) erishilgan natija bilan ifodalangan ko'rsatkich tushuniladi. Masalan, mehnatning samarasi ishlab chiqarish sohasida yaratilgan tayyor mahsulot, daromadlar yoki foyda ko'rsatkichlarida ifodalanishi mumkin. Savdo sohasida tovar aylanmasi (oboroti), yalpi daromad va foyda bilan ifodalansa, naqliyotda yuk aylanmasi (oboroti) kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Mehnat samaradorligi, deganda uning natijaviyligi, ya'ni ma'lum vaqtda bir xodimga (bir mehnat potensialiga) to'g'ri keladigan natija bilan o'lchanadi. Masalan, ishlab chiqarishda bir kishiga to'g'ri keladigan tayyor mahsulot hajmi, bir kishiga to'g'ri keladigan daromad yoki foyda kabi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin. Savdo sohasida ham xuddi shunday holatni ko'rish mumkin. Masalan, tayyor mahsulot o'rniga bu yerda tovar aylanmasi (oboroti) olinadi. Qolgan ko'rsatkichlar bir-biriga to'g'ri keladi.

Tahlil jarayonida shuni inobatga olish lozimki, mehnat ham uning natijasi ham turli ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Masalan, mehnat natijasi mahsulot hajmida, daromad yoki foyda summasida ifodalanishi mumkin. Tahlilning maqsadiga qarab, ushbu

ko'rsatkichlardan birini yoki hammasini natija sifatida qabul qilish mumkin. Xuddi shunday mehnat ham turli ko'rinishda ifodalanadi. Masalan, korxonada band bo'lgan umumiy xodimlar soni, ya'ni ishchilar, mutaxassislar, boshqaruv xodimlari, xizmatchilarni olish mumkin. Shu tufayli mehnat samaradorligi to'g'risida to'liq va batafsil xulosa chiqarish uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi (sistemasi)dan foydalanish maqsadga muvofiq. Ammo ko'rsatkichlar tizimiga taqriban yondashish, ular tarkibiga nima to'g'ri kelsa kiritaverish mumkin emas. Shu tufayli mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash va aniqlash mezonini ishlab chiqish lozim. Bunda mehnat, mehnat resurslari bilan birga ulardan foydalanishda ketadigan xarajatlar, ish kuchining qiymati, ish haqi kabi tushunchalarni ham inobatga olish lozim, chunki bozor iqtisodiyoti ko'p va sifatli mahsulot yaratish bilan birga uning tejamli bo'lishini taqozo qiladi.

### 10.1.6. Mehnat salohiyati samaradorligini baholash mezonlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat potensialidan samarali foydalanish davr talabi. Bu hech eskirmaydigan muammodir, chunki undan samarali foydalanish mulkning yoki ijtimoiy tuzumning qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, hamisha dolzarbdir. Shu boisdan ham bu masala hamisha olimlar va mutaxassislar diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda va bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ham mehnat potensialidan samarali foydalanish respublikamiz uchun, ayniqsa, muhimdir.

Bu muammoni hal qilish uchun uning ba'zi nazariy tomonlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Mehnat potensiali ishchi kuchi bilan bir xil kategoriya sifatida ifodalanadi. Ularning samaradorligini aniqlash mezoni va ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq xususida iqtisodiy adabiyotlarda aniq tushuncha yo'q. Demak, mehnat potensiali samaradorligini aniqlash mezoniga, uni bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqqan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Samaradorlik mezonini uning ko'rsatkichlaridan farq qilmoq lozim. Samaradorlik mezoni — bu mohiyati jihatidan ishlab chiqaruvchi, mulk egasi va davlatning moddiy manfaatdorligini ifodalovchi obyektiv baho beradigan o'lchov birligidan iborat bo'lgan iqtisodiy kategoriyadir.

Har bir obyekt yoki jarayonning, jumladan, mehnat potensiali samaradorligining mezonini aniqlashda, hozirgi bozor iqtisodiyoti

sharoitida, eng avvalo, mulk egasining moddiy manfaatdorligi nuqtayi nazaridan qarash lozim. Mulkdor o'zida mavjud mehnat potensialidan ishlab chiqarishda yoki boshqa sohalarda foydalanishi, shunchaki ularning ishlatilishi zaruriyatidan emas, balki qanday manfaatdor ekanligidan kelib chiqadi. Agar shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, mehnat potensialining samaradorligi mezoni mulkdorga qancha moddiy manfaat (foyda) keltirishi bilan ifodalanishi lozim.

Mabodo, mehnat potensiali samaradorligi mezonini ishlab chiqaruvchilar (ishchilar) nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, unda ishlovchiga qanday manfaat berayotganligi yoki keltirayotganligi bilan aniqlash mumkin. Unda samaradorlik mezoni ish vaqtida xodimga qanday manfaat keltirishi bilan ifodalanadi. Shu sababli ham mehnat potensiali samaradorligini oshirishda manfaatdorlikning mushtarakligini ta'minlash lozim. Agar ularning ishlatilishidan faqat mulkdor manfaatdor bo'lsa, ishlovchining mehnat qilishga qiziqishi bo'lmaydi. Boz ustiga, mehnat potensialidan foydalanishga faqat ishchining manfaati ko'zda tutilgan bo'lsa, mulk egasi undan foydalanmaydi.

Hozirgi paytda respublikamizda juda ko'p sohalarda korxonalarning asosiy qismi davlat tasarrufidan chiqarilgan. Ishchi va xizmatchilar oldingidek faqat mulk egasi — davlat nuqtayi nazaridan emas, balki o'zlarining shaxsiy manfaati nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'ldi. Zero, endi mehnatkash bir vaqtning o'zida ham mulk, ham ish kuchi va uning natijasiga egalik qiladigan bo'ldi. Natijada, mavjud moddiy-texnika bazasini tez va ayovsiz ishlatilishi, muddatidan oldin ishdan chiqishi hamda barbod bo'lishining oldi olinadigan bo'ldi. Endi samaradorlikning shunday mezonini topish kerakki, u bir vaqtning o'zida ham mulkdor, ham mehnatkash, ham davlat manfaatini to'liq ifoda qilsin.

Bugungi kunda respublikamizda ko'plab xususiy korxonalar, jamoat mulkiga asoslangan aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday korxonalarning ish hajmi qisqa, faqat shu mulk egalarining ish kuchiga asoslangan. Bu holda mulk va ish kuchi egasi — mehnatkashning manfaati birbiri bilan uzviy va bevosita bog'liq. Bu shakldagi ishlab chiqarish korxonasining mehnat potensiali samaradorligidan manfaatdorlik mulk egasi uchun muhimdir. U holda mehnat potensialidan uzoq muddat samarali foydalanishni ko'zlab, ko'plab foyda olishga intilgan holda ish ko'radi. Bunda mehnat potensiali samaradorligi

mezonini uning egasiga ma'lum vaqtdan qancha foyda keltirishi bilan ifodalash mumkin. Biroq davlat mulkiga asoslangan korxonalarda mulk egasi va mehnatkashning moddiy qiziqishi har xil. Davlat mavjud mehnat potensialidan samarali foydalanib, ko'proq manfaatdor bo'lishni maqsad qilsa, xizmatchilar esa davlat korxonasidagi moddiy-texnika bazasini ishlatib, ko'proq foyda olishni ko'zlab ishlashadi.

Bunday sharoitda, har ikki tomonning manfaatini ifodalaydigan samaradorlik mezonini topish juda mushkul. Mehnat potensiali samaradorligi mezonini aniqlashda uning shaklidan kelib chiqish lozim. Bu esa o'z navbatida global va lokal shakllarga bo'linadi. Samaradorlikning global mezonini aniqlashda mamlakat manfaati nuqtayi nazaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Davlatimizning hozirgi siyosati manfaatlar mushtarakligini ta'minlashga qaratilgan. Har bir bajarilgan ish jamiyatimiz uchun ham, mulkdor uchun ham, mehnatkash uchun ham foydali bo'lishi lozim.

Respublikamizda mehnat potensialidan samarali foydalanishda faqat ko'proq foyda olishni ko'zlab emas, balki mehnatkashlarning farovonligi, turmush darajasini yaxshilash borasida ish ko'rilmoqda. O'zbekiston rahbariyatining hozirgi siyosati davlatni boyitish bilan birgalikda har bir mehnat qilgan mehnatkashning ham farovonligini ta'minlashdan iboratdir. Shunday qilib, mehnat potensiali samaradorligi mezonini aniqlashda davlat, jamiyat nuqtayi nazaridan ham qarash lozim. Bundan har bir mehnat potensiali, eng avvalo, shu ish kuchi sohibiga va ikkinchidan davlatga foyda keltirishi kerak tushunchasi anglanadi.

Mehnat potensiali samaradorligining lokal mezoni bevosita mulk egasi va ishlab chiqaruvchilar manfaatining mushtarakligidan kelib chiqadi. Samaradorlikning global mezonida ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulotning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi orqali maqsadga erishilsa, bu lokal mezonda milliy daromadning quyi bo'g'inlaridagi taqsimlanishi orqali erishiladi. Bu bevosita ishchi-xizmatchilarning ma'lum vaqt birligida sarf qilingan mehnati va shu davrda oladigan ish haqining hajmida o'z ifodasini topadi. Bunda mehnat potensialining samaradorligini oshirish evaziga ish haqini ko'paytirish lozim.

Mehnat potensiali samaradorligining ortishi moddiy-texnika bazasining qaysi mulkka mansub bo'lishidan qat'iy nazar, uning ham samaradorligi ta'minlanadi. Demak, bu yerda mulk egasining manfaatdorligi ham o'z ifodasini topadi. Ish haqining ortishi esa

ish kuchi egasi, ishchi va xizmatchilar manfaatdorligini ta'minlaydi. Bu yerda davlatning manfaatdorligi ham bor. Mehnat potensialining samaradorligini oshirish evaziga korxonaning daromadi (foydasi) ko'payadi, ishchi va xizmatchilarning ish haqi ortadi. Bu har ikki ko'rsatkich qancha ko'p bo'lsa, davlatga to'lanadigan soliq ham shuncha ko'p bo'ladi. Bundan manfaatlar mushtarakligi ta'minlanadi. Bu mushtaraklik mehnat potensiali samaradorligini oshirishning obyektiv iqtisodiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

## 10.2. Mehnat salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning tasnifi, aniqlash yo'llari va tahlili

### 10.2.1. Mehnat salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi

Mehnat potensialini baholash va tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy jihatdan turli guruhlarga mansub bo'lib, mehnat potensialining u yoki bu jihatlarini ifodalaydi. Mehnat potensialini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar iqtisodiy mazmuniga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Mehnat potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
2. Mehnat potensiali bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar.
3. Mehnat potensiali samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi va ularning mazmuni 10.2-chizmada keltirilgan.




*10.2-chizma.* Mehnat potensialini (Mp) ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

### 10.2.2. Mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash va tahlil qilish

Mehnat potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar uning qanday ahvolda ekanligini anglatadi. Bu ko'rsatkichlarni o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki shu ko'rsatkichlar orqali mehnat potensiali qanday ahvolda ekanligini bilish bilan birga, ularning o'zgarish dinamikasi, oboroti va qo'nimsizligi kabi muhim ko'rsatkichlarni ham bilish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimlarning oboroti va qo'nimsizliklari ham muhim ahamiyatga ega, chunki ular ishsizlikning oldini olish, samaradorlikni oshirish, xodimlar tajribasining ortishini ta'minlash kabi muhim jihatlarni o'zida aks ettiradi. Mehnat potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mehnat potensialining o'rtacha soni.
2. Mehnat potensialining tarkibi.
3. Mehnat potensialining oboroti.
4. Mehnat potensialining qo'nimsizligi.
5. Mehnat potensialining turg'unligi.

Mehnat potensialining o'rtacha soni tahlil qilinayotgan hisobot davrida aniqlanadi. Buni hisoblash uchun mehnat potensialining davr boshidagi (Mp. db.) va oxiridagi (Mp. do.) soni qo'shilib, ikkiga bo'linadi:

$$Mp = \frac{Mp.\ db + Mp.\ do}{2}.$$

Agar hisobot davrida mehnat potensiali to'g'risidagi ma'lumot bir qancha vaqtlarda ifodalangan bo'lsa, u holda barcha ko'rsatkichlar qo'shilib, uning soniga bo'linadi:

$$Mp = \frac{1}{p} \sum_{i=1}^{p} Mpi.$$

Mehnat potensiali tarkibini tahlil qilganda xodimlarni alohida kategoriyalari bo'yicha aniqlash lozim. Masalan, umumiy mehnat potensialida oliy ma'lumotli xodimlar (Omx) ulushini yoki o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar (O'MX) ulushi kabi ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin.

$$Mp.t = \frac{O'MX}{Mp} \cdot 100; \qquad Mp.t = \frac{Omx}{Mp}.$$

Bulardan tashqari, umumiy mehnat potensialida boshqaruv xodimlari ulushi, muhandis-texnik xodimlar ulushi, mutaxassislar ulushi kabi ko'rsatkichlarni ham aniqlash mumkin.

$$Mp.t = \frac{Mpi}{Mp},$$

bunda, *Mpi* — mehnat potensialining alohida guruhlari.

Mehnat potensiali oborotini (Mp.ob.) tahlil qilish ham hozirgi davrda katta ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun barcha ishga qabul qilingan xodimlarga (Mp.k) ishdan bo'shatilgan xodimlarni (Mp.b) qo'shib umumiy mehnat potensiali soniga bo'lamiz.

$$Mp.ob = \frac{Mp.k + Mp.b}{Mp}.$$

Ushbu ko'rsatkichni alohida ishga qabul qilingan (Mp.ob.) va ishdan bo'shatilgan (Mpob.b) xodimlar bo'yicha ham aniqlash mumkin:

$$Mp.obk = \frac{Mp.k}{Mp}; \qquad Mp.ob.b = \frac{Mp.b}{Mp}.$$

Mehnat potensialining qo'nimsizligi umumiy mehnat potensialida salbiy oqibatlar natijasida ishdan bo'shatilgan xodimlarning ulushini ifodalaydi. Salbiy sabablar bilan ishdan bo'shaganlar (Mp.salb) tarkibiga o'z arizasi bilan bo'shaganlar ham kiradi. Chunki ko'pincha o'z ixtiyori bilan ishdan bo'shaganlar biror nimadan norozi bo'lgan hisoblanadilar. Lekin buni hammaga aytib o'tirishni o'zlariga ep ko'rishmaydi. Shu tufayli bunday xodimlar ham xodimlarning qo'nimsizligini aniqlashda qo'shiladi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Mp.qo'n = \frac{Mp.salb}{Mp}.$$

Mehnat potensialining turg'unligi ham uning holatini ifodallovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Buni aniqlash uchun shu korxona (firma, kompaniya)da uch yildan ko'p ishlagan xodimlar sonini mehnat potensialining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$Mp.tur = \frac{Mp.\ 3\ yildan\ ko'p\ ishlaganlar}{Mp}.$$

Ushbu ko'rsatkichlar, ularni aniqlanish yo'llari va nimani ifodalashi 10.3-chizmada keltirilgan.




*10.3-chizma.* Mehnat salohiyati (Mp) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash.

Ushbu ko'rsatkichlarni amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlab, tegishli tahliliy xulosalar chiqarish lozim. Buning uchun quyidagi jadval tuzilishini tavsiya qilamiz (10.1-jadval):

*10.1-jadval*

**Mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Mehnat potentsialining o'rtacha yillik soni, kishi | 112 | 121 | + 9 | 108,0 |
| 2. | Shu jumladan, oliy ma'lumotli mutaxassislar, kishi | 20 | 22 | + 2 | 110,0 |
| 3. | Ularning ulushi, % (2 q · 100 : 1 q) | 17,86 | 18,18 | + 0,32 | 101,8 |
| 4. | Ishchilar soni, kishi | 98 | 106 | + 8 | 108,2 |
| 5. | Ishchilarning ulushi, % (4 q · 100 : 1 q) | 87,5 | 87,6 | + 0,1 | 100,1 |
| 6. | Ishga qabul qilinganlar, kishi | 10 | 17 | + 7 | 170,0 |
| 7. | Ishdan bo'shatilganlar, kishi | 5 | 8 | + 3 | 160,0 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 8. | Shu jumladan, salbiy asoslar bilan bo'-shatilganlar, kishi | 3 | 5 | + 2 | 166,7 |
| 9. | Mp.oboroti, koeffitsiyenti ((6 q + 7 q) : 1 q) | 0,134 | 0,207 | + 0,073 | 154,5 |
| 10. | Mp qo'nimsizligi, koeffitsiyenti (8 q : 1 q) | 0,027 | 0,041 | + 0,014 | 151,9 |
| 11. | Shu korxonada 3 yildan ko'p ishlagan xodimlar soni, kishi | 101 | 105 | + 4 | 104,0 |
| 12. | Mp.turg'unligi, koeffitsiyentda (11 q · 1 q) | 0,90 | 0,87 | – 0,03 | 96,7 |

IZOH: jadvaldagi ko'rsatkichlar soni ancha qisqartirib olindi. Masalan, mehnat potensiali tarkibini xodimlar malakasi bo'yicha oladigan bo'lsak, uni to'rtga bo'lish kerak. Ammo biz faqat oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushini aniqlash bilan cheklandik. Bu uslubiy asos bo'lish uchun shunday qilindi, chunki qolgan ko'rsatkichlar ham xuddi shu tarzda aniqlanadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat potensiali holatini ifodalovchi va u bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlar hisobot davrida o'tgan davrga nisbatan ortgan. Ammo ular turli darajaga ega. Masalan, mehnat potensialining o'rtacha yillik sonining o'sish sur'ati 108 %ni tashkil qilgan bir paytda, oliy ma'lumotli mutaxassislar soni 110,0 %ni tashkil qiladi. Demak, ushbu korxonada xodimlarning malaka darajasi ortganligidan dalolat beradi. Haqiqatda ushbu ko'rsatkich o'tgan yilda 17,86 %ni tashkil qilgan bo'lsa, bu yil 18,18 %ga yetdi, ya'ni 1,8 % ortdi. Ishchilar soni mehnat potensialiga mos ravishda o'sgan. Uning o'sish sur'ati 108,2 %ni tashkil qiladi. Natijada, ularning ulushi deyarli o'zgarmasdan qolgan.

Xodimlarning oboroti va qo'nimsizligining o'sish sur'ati mos ravishda 154,5 va 151,9 %ni tashkil qiladi. Natijada mehnat potensialining turg'unligi kamaygan. O'tgan yili 3 yildan ortiq ishlayotganlarning ulushi barcha xodimlarning 90 %, hisobot yilida ushbu ko'rsatkich 87 %ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich, albatta, salbiy holatdan dalolat beradi. Lekin ishga qabul qilinganlarni chuqurroq o'rganish lozim. Balki, yangi xodimlar ilg'or texnologiyaning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Shunday qilib, har bir tahlil qilinayotgan obyektda mehnat potensiali va holatini o'rganish bu boradagi xulosani oydinlashtiradi.

### 10.2.3. Mehnat salohiyati bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish

Mehnat potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimida ular bilan ta'minlanganlikni xarakterlovchi ko'rsatkichlarning alohida o'rni bor, chunki mehnat potensiali bilan yetarli darajada

ta'minlanmasa, har qanday jarayon ham me'yordagidek sodir bo'lmasligi mumkin. Agar keragidan ortiq ta'minlangan bo'lsa, korxona uchun behuda sarf-xarajatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu tufayli ushbu guruh ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni baholash va tahlil qilish bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega. Mehnat potensiali bilan ta'minlanganlikni ifodalash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni tavsiya qilamiz:

1. Mehnat potensiali bilan shtat jadvalining ta'minlanganligi.
2. Mehnat potensiali sig'imi.
3. Mehnat potensialining qurollanganligi.
4. Aylanma mablag'larning mehnat potensiali bilan ta'minlanganligi.

Mehnat potensiali bilan shtat jadvalining ta'minlanganligini aniqlash uchun bir qancha hisob-kitoblar qilish mumkin. Eng avvalo, bu bo'yicha umumiy ko'rsatkichni aniqlash lozim. Buning uchun mehnat potentsialining haqiqiy miqdorini (Mp.h) uning shtat jadvalidagi miqdoriga (Mp.shj) bo'linadi:

$$Mp.shjt = \frac{Mp.h}{Mp.shj}.$$

Xuddi shunday ko'rsatkichni uning alohida guruhlari bo'yicha ham aniqlash mumkin. Masalan, oliy ma'lumotli xodimlarning haqiqiy sonini shtat jadvali bo'yicha shunday xodimlarga bo'lish mumkin. Yoki korxonada band bo'lgan muhandis-texniklarning haqiqiy sonini shtat jadvalidagi shunday mutaxassislar miqdoriga bo'lish yo'llari bilan ham aniqlash mumkin. Bu ham shu soha bo'yicha nimani tahlil qilinishiga bog'liq.

Mehnat potentsialining sig'imi (Mp.sg') ham ushbu guruhga kiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri. Uni aniqlash uchun mehnat potensiali miqdorini (Mp) yaratilgan (sotilgan) mahsulot (ish, xizmat) hajmining (Q) miqdoriga bo'linadi:

$$Mp.sg' = \frac{Mp}{Q}.$$

Ushbu ko'rsatkich reja bo'yicha va haqiqatda bir qancha davrlarga aniqlanib, taqqoslanishi orqali tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi.

Mehnat potensialining qurollanganligi yoki asosiy vositalar faol qismining mehnat potensiali bilan ta'minlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichni aniqlash va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Hozir

jahonda ilmiy-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi mehnatning eng ilg‘or texnika va texnologiya bilan qurollanishini taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu ko‘rsatkichni har bir korxonada aniqlash va tahlil qilish lozim. Buni aniqlash uchun asosiy vositalarning faol qismini (Av.f) mehnat potensiali miqdoriga (Mp) bo‘linadi yoki teskarisi:

$$Mp.k = \frac{Av.f}{Mp} \text{ yoki } Mp.t = \frac{Mp}{Av.f}.$$

Aylanma mablag‘larning mehnat potensiali bilan ta’minlanganligi (Ayl.m.mp) ham mehnat potensialini tahlil qilishda va boshqa ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga shu bilan bog‘liq omillarning ta’sirini aniqlashda qo‘llaniladi. Buni aniqlash uchun mehnat potensiali miqdorini (Mp) aylanma mablag‘lar hajmiga (Ayl.m) bo‘lish lozim:

$$Ayl.m.mp = \frac{Mp}{Ayl.m}.$$

Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi, ularni aniqlash yo‘llari va nimani ifodalaydigan mazmuni 10.4-chizmada keltirilgan.




*10.4-chizma.* Mehnat potensiali (Mp) bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo‘llari.

Chizmadagi nazariy tavsiyalar bevosita amaliyot talabidan kelib chiqqan va ular amaliyotda qo'llanilishi lozim. Shu maqsadda ushbu formulalarning amaliyotda foydalanilishini aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda tahlil qilish usullarini ko'rib chiqamiz. Buning uchun 10.2-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*10.2-jadval*

**Mehnat salohiyati bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Mehnat potentsiali soni shtat jadvali bo'yicha, tegishli yil boshida, kishi | 107 | 109 | + 2 | 101,9 |
| 2. | Haqiqiy mehnat potentsiali soni, tegishli yil boshida, kishi | 110 | 114 | + 4 | 103,6 |
| 3. | Mp. bilan shtat jadvalining ta'minlanganlik darajasi, % (1q : 2q · 100) | 97,3 | 95,6 | − 1,7 | 98,3 |
| 4. | Mahsulot hajmi, ming so'm | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,2 |
| 5. | Mp.o'rtacha yillik miqdori kishi | 112 | 121 | + 9 | 108,0 |
| 6. | Mehnat sig'imi, bir million so'm mahsulotga to'g'ri keladigan xodimlar soni, kishi (5q : 4q) | 24,4 | 21,2 | − 3,2 | 86,9 |
| 7. | Asosiy vositalar faol qismining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 3726 | 3938 | + 212 | 105,7 |
| 8. | Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 5660 | 6000 | + 340 | 106,0 |
| 9. | Mp.ning qurollanganligi, ming so'm (7q : 5 q) | 33,27 | 32,55 | − 0,72 | 97,8 |
| 10. | Ayl.m.ning Mp.bilan ta'minlanganligi, bir million so'm Ayl.m.ga to'g'ri keladigan Mp., kishi (5 q : 8 q) | 19,8 | 20,2 | + 0,4 | 102,0 |

Shtat jadvalining ta'minlanganlik darajasi hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan 1,7 % bandga kamaygan, ya'ni o'tgan yilida ushbu ko'rsatkichning miqdori 97,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yilida 95,6 %ga teng bo'ldi. Qaysiki, shu hududda ish so'rab mehnat birjasiga murojaat qilganlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday sharoitda korxona birinchi galda shtat jadvali bo'yicha kadrlar bilan o'z ehtiyojini ta'minlab olgani ma'qul. Hisobot davrida o'tgan yilga

nisbatan mehnat sig'imi ham 3,2 bandga, ya'ni 24,4 kishidan 21,2 kishigacha kamaygan. Bu yaxshi ko'rsatkich. Lekin u shtat jadvalining to'liq ta'minlangan paytiga to'g'ri kelsa ayni muddao. Xuddi shunday holatni mehnat potensialining qurollanganligi bo'yicha ham qayd qilish mumkin. Chunki ushbu ko'rsatkichning miqdori o'tgan yildagi 33,3 ming so'mdan hisobot yilida 32,6 ming so'mgacha, ya'ni 2,2 % kamaygan (100—97,8). Bu holatni hozirgi paytda oqlab bo'lmaydi. Mehnatning qurollanganlik darajasi muntazam ravishda ortib borishi lozim. Shundagina har bir xo'jalik yurituvchi subyekt yuqori unumdorlikka erishishi mumkin. Ushbu korxonada aylanma mablag'larning mehnat potensiali bilan ta'minlanganlik darajasi ortgan. Ushbu ko'rsatkichning miqdori o'tgan yilda 19,8 kishini tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yilida 20,2 kishiga yetgan yoki 2,0 % ko'p bo'lgan. Bu ko'rsatkich ham yetarli darajada ijobiy holatdan darak bermaydi. Chunki hisobot yilida buyumlashgan mehnatning miqdoriga nisbatan jonli mehnatning hajmi ortib borgan. Bular esa mehnat potensiali samaradorligining pasayishiga ta'sir etmasdan iloji yo'q.

### 10.2.4. Mehnat salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish

Mehnat salohiyatidan samarali foydalanish mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun o'ta muhimdir. Chunki mehnat qancha samarali bo'lsa, iqtisodiy ko'rsatkichlar shuncha yuqori bo'ladi. Shu tufayli ushbu guruh ko'rsatkichlarni alohida baholash va tahlil qilish lozim.

Mehnat salohiyati samaradorligi ham samaradorlikning umumiy tamoyiliga asoslangandir, ya'ni uni aniqlash uchun natijani (Q) mehnat salohiyati (Mp) nisbatiga bo'lish lozim. Ammo turli sohalarda natija ham har xil ko'rsatkichlar bilan o'lchanishi mumkin. Bu tahlilning vazifasi va ahamiyatidan kelib chiqadi. Bunda barcha sohaga umumiy bo'lgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish ma'qul. Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Mehnat potensialining natijaviyligi.
2. Mehnat potensialining rentabelligi.
3. Mehnat potensialining daromadliligi.

Ushbu ko'rsatkichlarning har birini aniqlash yo'llarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Mehnat potensialining natijaviyligi** (Mp.n) natijaning mehnat potensialiga nisbati bilan aniqlanadi. Natijada qanday ko'rsatkichlar

bo'lishi mumkin? Bu o'rganilayotgan sohasiga, tahlilning maqsadiga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish sohasida asosiy natijaviy ko'rsatkich ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, tayyor mahsulot hajmi bo'lishi mumkin. Bu tahlilning qaysi ko'rsatkichni qaysi maqsadlar uchun o'tkazilayotganligiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalari uchun mahsulotning sotilishi muhim. Shu jihatdan ko'p hollarda sotilgan mahsulot hajmi olinadi. Savdo sohasida natijaviy ko'rsatkich tovar oboroti, transport korxonalarida yuk oboroti, qurilishda bajarilgan ishlar hajmi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Agar natijani «Q» deb belgilasak, uning mehnat potensialiga (Mp) nisbati, ya'ni mehnat potensialining natijaviyligi quyidagicha aniqlanadi:

$$Mp.n = \frac{Q}{Mp}.$$

Ushbu ko'rsatkich 1 so'm mehnat potensialiga qancha so'm miqdorida natija (mahsulot, tovar oboroti, yuk oboroti kabilar) to'g'ri kelganligini ifodalaydi. Buni boshqacha so'z bilan mehnat unumdorligi deb ham atash mumkin. Ushbu ko'rsatkich qancha ko'p bo'lsa, mehnat potensialining samaradorligi shuncha yuqori ekanligidan dalolat beradi.

**Mehnat potensiali rentabelligi** (Mp.r) har bir mehnat potensiali birligiga to'g'ri keladigan foyda (F) miqdorini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun foyda summasini mehnat potensialiga (Mp) nisbati olinadi:

$$Mp.r = \frac{F}{Mp}.$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori qancha ko'p bo'lishi, samaradorlik shuncha yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Mehnat potensiali daromadliligi (Mp.d) ham uning samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Uni aniqlash uchun yalpi daromad summasini (D) mehnat potensiali miqdoriga (Mp) bo'linadi:

$$Mp.d = \frac{D}{Mp}.$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori qancha ko'p bo'lsa, samaradorlik shuncha yuqori, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki

har bir mehnat potensialiga to'g'ri keladigan daromad miqdori yuqori bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi, ularni aniqlash yo'llari va mazmuni 10.5-chizmada ifodalangan.

**Mehnat salohiyati samaradorligi**

$$Mp.s = \frac{Natija\ (Q), (F), (D)}{Mehnat\ potensiali\ (Mp)}$$

| Mp. natijaviyligi | Mp. rentabelligi | Mp. daromadliligi |
|---|---|---|
| $Mp.n = \frac{Q}{Mp}$ | $Mp.r = \frac{F}{Mp}$ | $Mn.\partial = \frac{Д}{Mn}$ |
| 1 Mp. miqdoriga necha so'm mahsulot to'g'ri kelishini ifodalaydi | 1 Mp. miqdoriga qancha foyda summasi to'g'ri kelishini ifodalaydi | 1 Mp. miqdoriga qancha daromad summasi to'g'ri kelishini ifodalaydi |

*10.5-chizma.* Mehnat potensiali samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari.

Chizmada keltirilgan ko'rsatkichlar tizimiga amaliy ma'lumotlarni qo'llab mehnat potensiali samaradorligini tahlil qilish mumkin. Buning uchun 10.3-jadval tuziladi.

*10.3-jadval*

**Mehnat potensiali samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Mehnat hajmi, ming so'm | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,2 |
| 2. | Yalpi daromad, ming so'm | 511,0 | 711,7 | + 200,7 | 139,3 |
| 3. | Sof foyda, ming so'm | 368 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 4. | Mehnat potensiali o'rtacha yillik miqdori, kishi | 112 | 121 | + 9 | 108,0 |
| 5. | Mp. natijaviyligi, ya'ni mehnat unumdorligi, ming so'm (1q : 4 q) | 40,02 | 47,06 | + 6,14 | 115,0 |
| 6. | Mp. daromadliligi, ming so'm (2q : 4q) | 4,56 | 5,88 | + 1,32 | 128,9 |
| 7. | Mp. foydaliligi, ming so'm (3q :4q) | 3,29 | 4,10 | + 0,81 | 124,6 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot hajmi yalpi daromad va foyda miqdori hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan anchaga o'sgan. Ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati mos ravishda 124,2, 139,3 va 134,8 %ni tashkil qiladi. Biroq mehnat potensialining o'sish sur'ati ushbu natijaviy ko'rsatkichlarga nisbatan ancha past. Uning miqdori tahlil davrida atiga 108,0 %ni tashkil qiladi. Oqibatda samaradorlikning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori natijaga erishilgan. Masalan, mehnatning natijaviyligi bo'yicha o'sish sur'ati 115,0 %ni tashkil qilgan bo'lsa, uning daromadliligi 128,9 %ga teng bo'ldi. Mehnat potensialining rentabelligi esa 124,6 % ortgan. Demak, mehnatning samaradorligini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilinayotgan obyekt yuqori ko'rsatkichlarga erishgan. Albatta, bu o'z-o'zidan sodir bo'lgan emas. Bunga bir qancha omillar ta'sir qilgan. Tahlil jarayonida qanday omillar qaysi ko'rsatkichga qay darajada ta'sir qilganligini aniqlash muhimdir.

### 10.2.5. Mehnat salohiyati samaradorligining omilli tahlili

Mehnat potensiali samaradorligini ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi. Biroq har bir ko'rsatkich ham u yoki bu jihati bilan muhimdir. Shu tufayli ularning har biriga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning boshqa ko'satkichlarga qanday ta'sir qilganligini hisoblash katta ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy jarayonlar va ularning in'ikosi bo'lgan ko'rsatkichlar ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga bir ko'rsatkich tahlil jarayonida birinchi galda natija deb qaralsa, ikkinchi holda omil, deb qaralishi mumkin. Masalan, mehnat unumdorligini olaylik. Bu mehnat potensiali samaradorligini ifoda etuvchi muhim natijaviy ko'rsatkich. Omilli tahlilning birinchi bosqichida shunga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash mumkin. Shu bilan birga aynan ushbu ko'rsatkich bir qancha boshqa ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omil hamdir. Bu esa omilli tahlilda har bir ko'rsatkichni, avvalo, natijaviy ko'rsatkich sifatida va so'ngra omil sifatida qarash lozimligini taqozo qiladi.

### Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash yo'llari

Mehnat unumdorligi mehnat potensiali samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning

moliyaviy faoliyati aynan shu ko'rsatkich miqdoriga bog'liq. Mehnat unumdorligi ma'lum vaqtda (kun, oy, chorak, yil) bir xodim tomonidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi bilan o'lchanadi. Bu ko'rsatkich natijani xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi yillik soniga (vaqt birligiga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$\text{Mehnat unumdorligi} = \frac{\text{Faoliyat natijasi (Q)}}{\text{Mehnat potensiali yoki xodimlar soni (X)}}.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligiga ikki omil ta'sir qilmoqda. Ularning natija o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Bu yerda qayta hisoblash usulini qo'llagan holda aniqlash yo'llari ko'rsatilgan. Eng avvalo, natija, ya'ni mehnat unumdorligi qayta hisoblanib olinadi. Qayta hisoblangan mehnat unumdorligi (Mu.qh) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Mu.qh = \frac{Q^x}{X^r}.$$

Endi mehnat unumdorligi o'zgarishiga natijaning ta'sirini ($Mu_q$) aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta\, Mu_q = Mu^{qh} - Mu^r = \left(\frac{Q^x}{X^r}\right) - \left(\frac{Q^r}{X^r}\right),$$

bunda, $Mu^{qh}$ — qayta hisoblangan mehnat unumdorligi; $Mu^r$ — rejadagi mehnat unumdorligi.

Mehnat unumdorligining o'zgarishiga xodimlar soni ta'sirini ($Mu_x$) aniqlash uchun esa quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta\, Mu_x = Mu^h - Mu^{qh} = \left(\frac{Q^x}{X^x}\right) - \left(\frac{Q^x}{X^r}\right),$$

bunda, $Mu^h$ — mehnat unumdorligining haqiqiy miqdori. Shu ikki omil ta'siri $Mu$ — ning umumiy farqiga teng ($\Delta$Mu):

$$\Delta\, Mu = \Delta\, Mu_Q \pm \Delta\, Mu_h.$$

Ushbu formulalarga aniq ma'lumotlarni qo'llab, mehnat unumdorligining o'zgarishiga yuqorida qayd etilgan omillar ta'sirini hisoblash yo'llarini ko'rib chiqish mumkin (10.4-jadval).

*10.4-jadval*

**Mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Mahsulot hajmi, ming so'm | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,2 |
| 2. | Xodimlar soni, kishi | 112 | 121 | + 9 | 108,0 |
| 3. | Mehnat unumdorligi, ming so'm (1q : 2q) | 40,92 | 47,06 | + 6,14 | 115,0 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligi hisobot davrida 6,14 ming so'mga yoki 115,0 %ga ortgan. Bunga ikki omil ta'sir qilgan. Ularning ta'sirini aniqlash uchun qayta hisoblash usulidan foydalaniladi. Qayta hisoblangan mehnat unumdorligini aniqlash uchun esa mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini ($Q^x$) xodimlar sonining o'tgan yilgi miqdoriga ($X^r$) bo'linadi:

$$\Delta My^{кз} = (\frac{Q^x}{X^p}) = \frac{5694,5}{112} = 50,84 \text{ минг сўм}.$$

Endi mehnat unumdorligi o'zgarishiga mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash mumkin. Bizning misolimizda mahsulot hajmining 1111,2 ming so'mga ortganligi mehnat unumdorligi miqdorini 9,92 ming so'mga ko'paytirdi:

$$50,84 - 40,92 = + 9,92 \text{ ming so'm.}$$

Xodimlar sonining 9 kishiga ko'payishi esa mehnat unumdorligini 3,78 ming so'mga kamaytirdi:

$$47,06 - 50,84 = - 3,78 \text{ ming so'm.}$$

Ana shu ikki omilning ta'siri natija o'zgarishi umumiy farqiga teng:

$$9,92 - 3,78 = + 6,14 \text{ ming so'm.}$$

Endi omilli tahlilni ikkinchi yo'nalish bo'yicha ko'rib chiqamiz. Bunda mehnat unumdorligiga omil sifatida qaraladi. Mehnat unumdorligi, eng avvalo, mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Endi natija sifatida mahsulot hajmi (Q) olinadi. Mehnat unumdorligi, asosan, ishchilarning mehnati evaziga oshadi. Shu tufayli ularning ta'sirini alohida o'rganish amaliyot nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi, natijaga, ya'ni mahsulot hajmining o'zgarishiga (ΔQ) xodimlar soni (X) ishchilarning

umumiy xodimlardagi hissasi (Ui) va ularning mehnat unumdorligi (Mui) ta'sirini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$Q = X \cdot Ui \cdot Mui.$$

*Q* ning xodimlar soni o'zgarishi evaziga o'zgarganligini farqli usul bilan ham aniqlash ($\Delta Q_x$) mumkin. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_x = (X^x - X^p) \cdot Ui^r \cdot Mui^r.$$

*Q* ning Ui ta'siri evaziga o'zgarishini aniqlash ($\Delta Qui$) uchun esa quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta Qui = X^x \cdot (Ui^x - Ui^r) \cdot Mun^r.$$

*Q* ning Mui ta'siri evaziga o'zgarishini aniqlash ($\Delta Qmui$) uchun ushbu formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Qmui = X^x \cdot Ui^x \cdot (Mui^x - Mui^r).$$

*Q* ning o'zgarishiga barcha omillarning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Q = \Delta Q_x \pm \Delta Q_{ui} \pm \Delta Q_{mui}.$$

Ushbu formulalar farqli usulni qo'llagan holda foydalaniladi. Bundan tashqari, natijaga omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli bilan ham aniqlash mumkin. U holda birinchi omilning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Q_x = (X^x \cdot Ui^r \cdot Mui^r) - Q^r.$$

Ikkinchi omil ta'sirini aniqlashda ushbu formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Q_{ui} = (X^x \cdot Ui^x \cdot Mui^r) - (X^x \cdot Ui^r \cdot Mui^r).$$

Natija o'zgarishiga uchinchi omil ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Q_{mui} = Q^x - (X^x \cdot Ui^x \cdot Mui^r).$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$\Delta Q = \Delta Q_x \pm \Delta Q_{ui} \pm \Delta Q_{mui}.$$

Ushbu usulga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, natijaga alohida omillar ta'sirini aniqlash mumkin (10.5-jadval).

*10.5-jadval*

**Mahsulot hajmining o'zgarishiga xodimlar soni ishchilarning umumiy xodimlardagi ulushi va ular mehnat unumdorligining ta'sirini aniqlash hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Zanjirli almashtirishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 1 | 2 | 3 |
| 1. | Xodimlar soni, kishi | 112 | 121 | + 9 | 121 | 121 | 121 |
| 2. | Shu jumladan, ishchilar soni | 98 | 106 | + 8 | x | x | x |
| 3. | Ishchilarning umumiy hodimlar sonidagi ulushi, % (2q : 1q · 100) | 87,5 | 87,6 | + 0,1 | 87,5 | 87,6 | 87,6 |
| 4. | Ishchilarning mehnat unumdorligi, ming so'm (5q : 2q) | 46,77 | 53,72 | + 6,95 | 46,77 | 46,77 | 53,72 |
| 5. | Mahsulot hajmi, ming so'm (1q · 3q · 4q) | 4583,3 | 5694,5 | +1111,2 | 4951,8 | 4957,4 | 5694,5 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulotning hajmi hisobot yilida 1111,2 ming so'mga ko'paygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Xodimlar sonining 9 kishiga ortganligi mahsulot hajmini 368,5 ming so'mga ko'paytirgan:

$$4951,8 - 4583,3 = + \ 368,5 \text{ ming so'm.}$$

2. Ishchilarning umumiy xodimlardagi ulushining 0,1 % ko'payganligi mahsulot hajmini 5,6 ming so'mga oshirgan:

$$4957,4 - 4951,8 = + \ 5,6 \text{ ming so'm.}$$

3. Ishchilar mehnat unumdorligining 6,95 ming so'mga ortganligi mahsulot hajmini 737,1 ming so'mga ko'paytirgan:

$$5694,5 - 4957,4 = + \ 737,1 \text{ ming so'm.}$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$368,5 + 5,6 + 737,1 = + \ 1111,2 \text{ ming so'm.}$$

Omilli tahlil natijasida mehnat unumdorligini, ya'ni potentsialining natijaviyligini ikki tomonlama ko'rib chiqdik. Birinchidan,

ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni, ikkinchidan esa ushbu ko'rsatkichlarning boshqa natija ko'rsatkichlarga ta'sirini. U va bu holda ham mavjud ichki imkoniyatlar o'rganildi, aniqlandi va tegishli qarorlar qabul qilish uchun asosiy axborotlarga ega bo'lindi.

### 10.2.6. Mehnat salohiyati rentabelligi va unga ta'sir qiluvchi omillar

Mehnat potensiali rentabelligi foydani yuzga ko'paytirib, uning miqdori yoki qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$\text{Mehnat potensiali rentabelligi (Mpr)} = \frac{\text{Foyda (F)} \cdot 100}{\text{Mehnat potensiali (Mp)}}.$$

Ushbu ko'rsatkich o'zgarishiga foyda va mehnat potensiali miqdori ta'sir qiladi. Bularning natijaga ta'sirini aniqlash uchun qayta hisoblash usulidan foydalaniladi. Qayta hisoblangan mehnat potensiali rentabelligi ($Mpr^{qh}$) quyidagicha aniqlanadi:

$$Mpr^{qh} = \frac{F^x}{Mp^r}.$$

Mehnat potensiali rentabelligining foyda evaziga o'zgarishini (Mpr.f) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Mpr.f = Mpr^{qh} - Mpr^r = (\frac{F^x}{Mp^r}) - (\frac{F^r}{Mp^r}).$$

Mehnat potensiali rentabelligining mehnat potensiali hajmi o'zgarishi evaziga o'zgarganligini (Mpr.mp) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Mpr.mp = Mpr^x - Mpr^{qh} = (\frac{F^x}{Mp^x}) - (\frac{F^x}{Mp^r}).$$

Odatdagidek, natijaning umumiy o'zgarishi shu ikki omil ta'siriga teng. Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Mpr = \Delta Mpr.f + -\Delta Mpr.mp.$$

Ushbu formulalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, tavsiya qilingan nazariy usulning amaliyotda foydalanish mumkinligini asoslash uchun 10.6-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*10.6-jadval*

**Mehnat potensiali samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Sof foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 2. | Mehnat potensiali, kishi | 112 | 121 | + 9 | 108,0 |
| 3. | Mehnat potensiali rentabelligi, ming so'm (1 q : 2 q) | 3286 | 4101 | + 815 | 124,8 |

Jadval ma'lumotlariga asosan, mehnat potensiali rentabelligining qayta hisoblangan miqdori haqiqiy foydani o'tgan yilgi mehnat potensialiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Mpr^{qh} = \frac{496,2\ ming\ so'm}{112} = 4430\ so'm.$$

Mehnat potensiali rentabelligi sof foyda summasining 128,2 ming so'mga ko'payganligi evaziga 1144 so'mga ortgan:

$$\Delta Mpr.f = 4430 - 3286 = + 1144 \text{ so'm}.$$

Mehnat potensiali miqdorining 9 kishiga ko'payganligi uning rentabelligini 329 so'mga kamaytirgan:

$$\Delta Mpr.mp = 4101 - 4430 = - 329 \text{ so'm}.$$

Shu ikki omil ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$1144 - 329 = + 815 \text{ so'm}.$$

Shunday qilib, mehnat potensiali rentabelligi o'zgarishiga ikki omil ta'sirini aniqlash usuli ko'rib chiqildi. Bu usul mehnat potensiali samaradorligini tahlil qilish uchun metodologik asos sifatida keltirildi. Ushbu ko'rsatkichga boshqa omillar ta'siri ham shu tariqa aniqlanishi mumkin. Tahlilning navbatdagi bosqichida uni yanada chuqurlashtirish mumkin. Xususan, mehnat potensiali (Mp) rentabelligiga (Mpr) uning alohida elementlari o'zgarishi ta'sirini aniqlash ham mumkin. Buning uchun odatdagi formuladan foydalaniladi:

$$Mpr = \frac{Foyda\ (F)}{Mp}.$$

Bu yerda, Mp.ni kengaytirib olinadi. Ta'kidlanganidek, mehnat potensiali quyidagi elementlardan tashkil topadi:

$$Mp = Omx + O'mmx + O'mx + To'mx,$$

bunda, *Omx* — oliy ma'lumotli xodimlar soni; *O'mmx* — o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar soni; *O'mx* — o'rta ma'lumotli xodimlar soni; *To'mx* — to'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar soni.

Oldingi formuladagi mehnat potensiali o'rniga uning elementlari qo'yilsa, formula quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$Mp.f = \frac{F}{Omx + O'mmx + O'mx + To'mx}.$$

Tahlilda, eng avvalo, mehnat potensiali rentabelligining farqi aniqlanadi:

$$\Delta Mpr = Mpr^x - Mpr^r.$$

Bu formulaga tegishli elementlarini qo'ysak, quyidagi shaklga ega bo'linadi:

$$\Delta Mpr = \left(\frac{F^x}{Omx^x + O'mm^x + O'mx^x + To'mx^x}\right) - \left(\frac{F^r}{Omx^r + O'mmx^r + O'mx^r + To'mx^r}\right).$$

Natijaga, ya'ni mehnat potensiali rentabelligi o'zgarishiga besh omil ta'sir qiladi. Tahlil jarayonida natija o'zgarishiga barcha omillar ta'sirini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tahlilning an'anaviy usullaridan biri — zanjirli almashtirish usulidan foydalanish mumkin. U holda mehnat potensiali rentabelligi o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

Natijaga foyda summasi o'zgarishining ta'sirini (ΔMpr.f) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\Delta Mpr.f = Mpr^f - Mpr^r = \frac{F^x}{Omx^r + O'mmx^r + O'mx^r + To'mx^r}) - Mpr^r.$$

Natijaga oliy ma'lumotli xodimlar soni (Omx) o'zgarishining ta'siri (ΔMpromx) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\Delta Mpromx = Mpr^{omx} - Mp.f^f = \frac{F^x}{Omx^x + O'mmx^r + O'mx^r + To'mx^r}) - Mpr^f.$$

Natijaga o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar soni (O'mmx) o'zgarishining ta'siri ($\Delta Mpr_{o'mmx}$) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\Delta Mpr_{o'mmx} = Mpr^{o'mmx} - Mpr^{omx} = \frac{F^x}{Omx^x + O'mmx^x + O'mx^r + To'mx^r}) - Mpr^{omx}.$$

Natijaga o'rta ma'lumotli xodimlar soni (O'mx) o'zgarishining ta'siri ($\Delta$Mpf.o'mx) quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Mpr.o'mx = Mpr^{o'mx} - Mpr^{o'mmx} = \frac{F^x}{Omx^x + O'mmx^x + O'mx^x + To'mx^r}) - Mpr^{o'mmx}.$$

Natijaga to'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar soni (To'mx) o'zgarishining ta'siri ($\Delta$Mpr.to'mx) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Mpr.to'mx = Mpr^{to'mx} - Mpr^{o'mx} = \frac{F^x}{Omx^x + O'mmx^x + O'mx^x + To'mx^r}) - Mpr^{o'mmx}.$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$\Delta Mpr = \Delta Mpr.f \pm \Delta Mpr_{omx} \pm \Delta Mpr_{ummx} \pm \Delta Mpr_{umx} \pm \Delta Mpr.tumx.$$

Ushbu formulaga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, mehnat potensiali rentabelligiga ta'sir etuvchi yuqorida aniqlangan besh omilning ta'sirini hisoblash mumkin. Buning uchun 10.7-jadvaldan foydalanamiz.

*10.7-jadval*

**Mehnat salohiyati rentabelligi o'zgarishiga uning alohida elementlari o'zgarishi ta'sirining hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Zanjirli almashtirishlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. | Sof foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 496,2 | 496,2 | 496,2 | 496,2 |
| 2. | Oliy ma'lumotli xodimlar, kishi | 20 | 22 | + 2 | 20 | 22 | 22 | 22 |
| 3. | O'rta maxsus ma'lumotli xodimlar, kishi | 27 | 31 | + 4 | 27 | 27 | 31 | 31 |
| 4. | O'rta ma'lumotli xodimlar, kishi | 46 | 50 | + 4 | 46 | 46 | 46 | 50 |
| 5. | To'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar, kishi | 19 | 18 | − 1 | 19 | 19 | 19 | 19 |
| 6. | Mehnat potensiali, kishi | 112 | 121 | + 9 | 112 | 114 | 118 | 122 |
| 7. | Mehnat potensiali rentabelligi, so'm (1q : 6q) | 3286 | 4101 | + 815 | 4430 | 4353 | 4205 | 4067 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat potensiali rentabelligi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 815 so'mga ortgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning 128,2 ming so'mga ko'payganligi ta'kidlanganidek, natijani 1144 so'mga oshirgan:

$$4430 - 3286 = + 1144 \text{ so'm.}$$

2. Oliy ma'lumotli xodimlar sonining 2 kishiga ko'payganligi natija o'zgarishiga 77 so'mga salbiy ta'sir qilgan:

$$4353 - 4430 = - 77 \text{ so'm.}$$

3. O'rta maxsus ma'lumotli xodimlarning 4 kishiga ko'payganligi mehnat potensiali rentabelligini 148 so'mga kamaytirgan:

$$4205 - 4353 = - 148 \text{ so'm.}$$

4. O'rta ma'lumotli kishilarning 4 kishiga ko'payganligi natijani 138 so'mga kamaytirgan:

$$4067 - 4205 = - 138 \text{ so'm.}$$

5. To'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlarning bir kishiga kamayishi mehnat salohiyati rentabelligini 34 so'mga oshirgan:

$$4101 - 4067 = + 34 \text{ so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$1144 - 77 - 148 - 138 + 34 = + 815 \text{ so'm.}$$

## 10.3. Mehnat motivatsiyasi va uning tahlili

### 10.3.1. Mehnat motivatsiyasi tushunchasi

Ma'lumki, mehnat bu insonning biror ehtiyojini qondirishga qaratilgan maqsadiga muvofiq faoliyatidir. Motivatsiya ingliz tilidan olingan bo'lib, eng avvalo, o'zini va so'ngra butun jamoani umumiy maqsadlarini bajarishga da'vat etuvchi faoliyatni rag'batlantirish jarayonidir. Mehnat motivatsiyasi deganda esa, insonning maqsadga muvofiq faoliyatini turli rag'batlantirish yo'llari bilan yuqori samaradorlikka erishishga yo'naltirish, uni unumli mehnat qilishga undash, ichki tuyg'ularini qo'zg'atish tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir inson mehnatni majburan emas,

balki o'z xohishi ixtiyori bilan qilishi lozim. Shundagina bu borada yuqori natijalarga erishiladi. Lekin hamma ham doimo ixtiyori bilan samarali mehnat qilavermaydi. Buning uchun kishida, eng avvalo, shunday mehnat qilishga da'vat etuvchi tuyg'u uyg'otilishi kerak. Bunga turli rag'batlantirishlar bilan erishsa bo'ladi.

Rag'batlantirish, asosan, ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi moddiy rag'batlantirish, ikkinchisi ma'naviy. Mehnatning rag'batlantirilishi deganda, mehnatning sodir bo'lishini ta'minlovchi va uning faolligini oshiruvchi moddiy, ma'naviy va huquqiy manfaatlar majmuasi tushuniladi. Kishilar mehnatni shunchaki qilishmaydi, balki uning zamirida biror manfaatli maqsad yotadi. Mehnat qilishdan manfaat, eng avvalo, moddiy rag'batlantirishni talab qiladi, chunki inson mehnati evaziga o'zi va oila a'zolarining yashashi, ya'ni yetarli darajada moddiy ne'matlar bilan ta'minlanishiga erishishi lozim.

Mehnatning rag'batlantirilishi nimalarda namoyon bo'ladi? Bu, eng avvalo, olingan maosh o'zi va oila a'zolarining yashashi uchun bemalol yetishi lozim. Shundagina mehnatning bir qismi bo'lgan ishchi kuchining qiymati to'liq to'langan, mehnatkash esa yetarli rag'batlantirilgan bo'ladi. Endi mehnatning o'lchami nima, savoliga javob berish lozim, chunki hamma bir xil mehnat qila olmaydi va bir xil rag'batlantirilmaydi. Mehnatning birlamchi o'lchami mehnatkashning sarf qilgan vaqti, ya'ni ish vaqti bilan o'lchanadi.

Mehnatni rag'batlantirishda, eng avvalo, kimning qancha vaqt ishlagani inobatga olinadi. Hamma bir xil ish vaqti sarf qilib ishlashi mumkin. Lekin hammaga bir xil ish haqi to'lanmaydi. Chunki ular bir xil ish vaqtida turli natijalarga erishishlari mumkin. Rag'batlantirishning ikkinchi o'lchovi ishning natijasidir. Mehnatkash bir vaqt birligida 10 ta ish bajarsa, 10 so'm, 30 ta ish bajarsa, 30 so'm ish haqi olishi mumkin. Ammo ishchilar bir xil ish bajardi, deb ham faraz qilamiz. Lekin ular oladigan ish haqi yana bir xil bo'lishi mumkin. Bu holda rag'batlantirishning uchinchi o'lchovi ishga tushadi va rag'batlantirish ish natijasining sifatiga bog'liq bo'ladi. Demak, mehnatni rag'batlantirishning o'lchovi uchta, ya'ni ish vaqti, ish natijasi va sifatidan iborat ekan. Rag'batlantirish qancha ko'p bo'lsa, mehnatning ham samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Mehnatni moddiy rag'batlantirish bilan birga ma'naviy rag'batlantirish ham mavjudki, buning ta'sir kuchi ham moddiy

rag'batlantirishdan kam emas. Ma'naviy rag'batlantirishga quyidagilar kiradi:

1. Mehnatkashni moddiy rag'batlantirish bilan birga uni bevosita ma'naviy rag'batlantiriladi, chunki uning qanday ishlayotganligi e'tirof etilganligi namoyon bo'ladi.

2. Jamoa oldida yaxshi ishlayotganligini qayd etish, ma'muriyat buyrug'i bilan rahmatnoma va tashakkur e'lon qilish.

3. Faxriylar taxtasiga, kitobiga yozish, faxriy yorliqlar bilan taqdirlash.

4. Unvonlar berish, shu sohada xizmat ko'rsatilganligini qayd qilish. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi fan arbobi», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi xodimi», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi» kabilar.

5. Orden va medallar bilan taqdirlash.

6. «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga loyiq topish kabi tadbirlar mehnatkashlarni ma'naviy rag'batlantirishga kiradi.

Shu o'rinda ta'kidlamoqchimizki, manfaatlar, ular o'rtasidagi qarama-qarshilik va ziddiyatlarni muvofiqlashtiruvchi, ularga barham beruvchi omil bu ma'naviyatdir. Ma'naviyat kuchli bo'lgan joyda manfaatlar o'rtasida nomuvofiqlik bo'lmaydi, bunday vaziyatda qarama-qarshilik va ziddiyat ham kelib chiqmaydi. Shu tufayli Prezidentimiz tomonidan ma'naviyat masalasiga juda katta e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Ma'naviyati boy mamlakatda tinchlik, barqarorlik, ahillik hukm suradi. Bunday holatda iqtisodiy yuksalish, farovonlik va manfaatlar mushtarakligi ta'minlanadi.

### 10.3.2. Mehnat motivatsiyasining tiplari va omillari

Mehnat motivatsiyasi tiplari haqida turli fikrlar mavjud. Lekin uning barchasi mehnat qiluvchining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish va his-tuyg'ularni uyg'otish yo'lini axtarishga qaratilgan. Shu boisdan mehnat motivatsiyasining ikki tipi alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, his-tuyg'uni uyg'otuvchi tadbirlar majmuasi, ikkinchidan, aql-idrok bilan qilinadigan ishlardir.

Yaxshi mehnat qilishi uchun har ikkisi ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zi tadbirlar borki, aql-idrok tufayli yaxshi mehnat qilish uchun kuchli his-tuyg'u uyg'otadi. Masalan, millatparvar, fidoiy, jonkuyar inson uchun barakali mehnat qilish his-tuyg'usini uyg'otishda O'zbekistonning mustaqillikka erishganligi juda katta omil bo'ldi. Ahil bo'lgan jamoaning bir tan, bir jon bo'lib mehnat qilishiga insonlardagi aql-idrok, his-tuyg'u hamohangdir.

Mehnat qiluvchining yaxshi ishlashi uchun bir qancha motivlar borki, bularsiz samarali mehnatning sodir bo'lishi mumkin emas. Bularga quyidagilar kiradi:

**1. Mehnatga ko'proq haq to'lanishi.** Bu O'zbekiston uchun juda muhim. Chunki o'tish davrida ko'pgina korxona va xo'jaliklar ish haqini o'z vaqtida bermasligi ko'pchilikni jon kuydirib mehnat qilishdan sovitib qo'yadi. Masalan, terilgan paxta uchun har kuni hisob-kitob qilib borilsa, mehnat unumdorligi odatdagidan 2—2,5 baravar yuqori bo'ladi. Mehnatning natijasi qancha tez rag'batlantirilib borilsa, u shuncha unumli bo'ladi.

Tahlil jarayonida mehnat samaradorligi va unga ish haqini to'lash muddatining bog'liqligini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu bog'liqlikni tahlilning an'anaviy usullari bilan birga statistik va matematik usullaridan xususan, korrelatsion, regression tahlillardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**2. Yaxshi mehnat sharoitining yaratilishi.** Bu mehnatkash uchun katta ahamiyatga ega. Mehnat sharoiti xodimlarni ishga olib kelish, ish bilan ta'minlash va ishdan so'ng uygacha kuzatib qo'yishni o'z ichiga oladi. Hozir transport xarajatlari qimmat. Xodimlarning ishga borib-kelishi uchun oylik maoshning asosiy qismi sarflanmoqda. Shu tufayli odamlar kam ish haqi olishsa ham yashash joyiga yaqinroq korxonalarda ishlashni xohlashadi. Albatta, bu xodimning malakasiga ham, mutaxassisligiga ham to'g'ri kelmasligi mumkin. Lekin u yo'l haqini tejash evaziga ko'proq moddiy manfaatdor. Ammo bundan mehnatkash ham, uzoqroqda joylashgan korxona ham, jamiyat ham katta zarar ko'radi. Shu tufayli har bir korxona o'z xodimini ishlatish bilan birga uni ishga olib kelish va ishdan uyigacha kuzatib qo'yish chorasini ko'rishi ayni muddaodir.

Hozirgi paytda ko'p korxonalar o'z xodimlari uchun korxona hisobidan transportda yurish uchun oylik chiptalari bermoqda. Bu juda yaxshi. Ammo buning o'rniga xizmat avtobusi tashkil qilinsa, undan ham yaxshi bo'lar edi. Agar ishlab chiqarilayotgan mahsulot bozori chaqqon bo'lsa, jami xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilishi yoki foydadan bir qismini ajratish evaziga yo'lga qo'yilishi mumkin. Bunda korxona yutqazmaydi, balki yutadi. Unchalik ahamiyatsiz xarajat mehnat samaradorligi ortganligi evaziga qoplanishi tabiiy.

Har bir xodimning ish joyi har tomonlama qulay, yorug', ozoda bo'lishi lozim, mehnat ergonomikasi talablariga javob berishi

kerak. Bu ham yaxshi va samarali ishlash uchun asosiy motivlardan biridir. Korxona jug'rofiy jihatdan ham qulay joylashishi ishlovchilar uchun ahamiyatlidir.

**3. Xodimning malakasiga mos ish bilan ta'minlanishi.** Bu ham mehnatning muhim motivlaridan biridir. Xodim malakali bo'lsa-yu, u oddiy, malaka talab qilmaydigan ishga qo'yilsa yoki aksincha bo'lsa, uning mehnatida samara bo'lmaydi. Masalan, yuqori malakali kompyuter operatorini oddiy kalkulyator bilan ishlashga yoki kalkulyatorda ishlovchini kompyuterga o'tqazib qo'yish ham samarasizdir. Har ikki holda ham korxona yutqazadi. Shuning uchun har bir xodimni yaxshi o'rganib, uning qobiliyati va malakasiga yarasha ish bilan ta'minlash lozim. Korxonada shunday muhit yaratilishi lozimki, qaysi bir xodim malakasini muntazam oshirib borsa, shunga yarasha u moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishi lozim. Unga loyiq ish topib berilib, kerak bo'lsa lavozimini ko'tarib qo'yish lozim. Bu birinchidan, xodim uchun alohida rag'bat bo'lsa, ikkinchidan, korxonada texnologik jarayon takomillashib boradi. Malaka talab qiladigan ilg'or dastgohlar ishlab chiqarishga, boshqarishga joriy qilinishning intellektual asosi yaratiladi.

**4. Korxonada yaxshi ma'naviy-ruhiy muhitning yaratilishi.** Bu ham mehnat samaradorligini oshirish uchun muhim omillardan biridir. Har bir shaxs mehnat jamoasida, jamiyatda o'z o'rniga, mavqeiga ega bo'lishni xohlaydi. Shu tufayli har bir shaxs yetarli darajada obyektiv ravishda baholanib, obro'yi o'z o'rniga qo'yilishi kerak. Korxonaning umumiy muvaffaqiyati uchun shu korxonada ishlayotgan biror kishi o'zini ortiqcha yoki jamoadan chetda his qilmasligi kerak. Jamoa a'zolari, mehnati natijasiga qarab munosib baholanishi lozim.

Sobiq sho'rolar davridagi ma'muriy buyruqbozlik usullari bozor iqtisodiyoti uchun yot. Endi kishilar tazyiq bilan majbur bo'lib ishlamasdan, balki mehnat qilish ixtiyoriy ehtiyojga aylanishi lozim. Har bir mehnat qiluvchi, eng avvalo, o'zi uchun o'z manfaati uchun mehnat qilayotganligini his qilishi kerak. Shundagina uning mehnati ehtiyojga aylanadi. U o'zi uchun mehnat qilayotganligini doim his qilib tursin. Shu bois jamoada ma'naviy-ruhiy muhit yaratish hozirgi rahbarlardan o'ta tadbirkorlikni, aql-zakovatni talab qiladi.

**5. Har bir shaxsning o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlash.** Har bir odam o'z mehnati bilan jamoaning umumiy muvaffaqiyatiga u yoki bu darajada ozmi-ko'pmi hissa qo'shadi. Shu

jihatdan u o'zi ishlayotgan mehnat jamoasida o'z o'rnim bor, deb his qiladi. Aynan odamlarda shakllangan shu tuyg'uni poymol qilmaslik kerak. Shuningdek, jamoaning muvaffaqiyati bevosita unga bog'liq ekanligi va o'zining jamiyatga, jamoaga kerakligini his qiladi. Bunday his-tuyg'u bilan bog'liq mehnat motivatsiyasi uning samarali, unumli ishlashi uchun asos va omil bo'ladi.

**6. Har bir shaxsni shu korxona egasi, xo'jayini va uning jamoada o'z o'rni borligini his qilishini ta'minlash.** Har kim o'zi ishlagan joyning xo'jayini yoki egasi ekanligini his qilishi lozim. Bunga ishiga qarab, ya'ni ish natijasining hajmini hisobga olib, ish haqini oshirib borish, yil oxirida olingan foydaning bir qismini dividend tariqasida bo'lib berish orqali erishiladi. Bu tuyg'u har bir ishchida o'zi daxldor mol-mulkni saqlashga, tejamli bo'lishga, yilni ko'proq foyda bilan yakunlashga da'vat etadi. Shu tufayli, har bir xodim samarali mehnat qilishga harakat qiladi.

Shunday qilib, xodimning mehnat motivatsiyasi shakli, tiplari va omillari bisyor ekanligiga amin bo'ldik. Biz bu yerda uning ba'zilariga, ya'ni muhim hisoblanganlarigagina to'xtaldik. Uning juda ko'p omillari borki, ularning sonini aniq vaziyatdan kelib chiqib ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin.

### 10.3.3. Mehnat bozorida ish kuchi va uning tovarga aylanishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori vujudga keldi. Mehnat bozorida savdo qilinadigan obyekt bu mehnatning o'zi. Boshqacharoq qilib aytganda — ish kuchidir. Demak, uning qiymati va bahosi bo'lishi kerak. Ammo bu o'ta murakkab va aniqlanishi qiyin tushunchalardir. Iqtisodda ish kuchini, ya'ni mehnatni tovar deb qabul qilingan. Ammo bunga tovarning mumtoz ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, mehnat to'liq tovarga mazmun jihatidan to'g'ri kelmaydi.

**Tovar** — birinchidan, sotishga mo'ljallangan va biror-bir iste'molni qondiradigan bo'lishi lozim. Ma'lumki, oldi-sotdi natijasida tovarning egasi, unga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlari o'zgaradi. Ish kuchida esa mazmun boshqacha. Bu haqiqatda sotishga mo'ljallangan, birorta ehtiyojni qondiradigan bo'lishi mumkin. Lekin ish kuchini oldi-sotdi jarayonida uning egasi, egalik qilish huquqi o'zgarmaydi. Shu jihatdan u oddiy tovardan farq qiladi.

Bundan tashqari, tovarni oldi-sotdi jarayonida uning narxi kelishilgan miqdorda to'liq to'lanadi. Bu haqiqatda tovarning to'liq

narxi bo'lib hisoblanadi. Ammo ish kuchi (mehnat)ning narxi hech mahal to'liq to'lanmaydi, chunki mehnat jarayonida uning qiymati va qo'shimcha qiymati yaratiladi. Uning qiymati sifatida ish kuchi sohibiga ish haqi to'lanadi. Lekin bu faqat zaruriy mehnatning qiymati. Qo'shimcha mehnatning qiymati qo'shimcha qiymat ish beruvchida yoki mulk egasida (mulkdor, davlat, jamoa, aksiyadorlik korxonalari kabilarda) qoladi. Shu tufayli mehnatning qiymati sifatida, shartli ravishda, uning bir qismi bo'lgan, ish haqini qabul qilish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda «ish kuchi» va «mehnat» qiymati nuqtayi nazaridan bir xil mazmunga ega sifatida qaraladi. Ammo ular bir-biri bilan juda yaqin bo'lsa-da, mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

**Mehnat** kishilarning o'z ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan ongli faoliyat jarayonidir. **Ish kuchi** — kishining jismoniy va intellektual mehnat qilish qobiliyatidir.

Demak, mehnat bu kishining sodir bo'lgan ongli faoliyati, ish kuchi esa uning hali sodir bo'lmagan mehnat qilish qobiliyati ekan. Demak, bu tushunchalar bir-biri bilan mazmun jihatidan, sodir bo'lish vaqti, ya'ni zamon jihatidan ham farq qiladi. Albatta, mehnat va ish kuchining qiymati deganda ham bu tushunchalarni farqlash lozim.

**Mehnatning qiymati,** ya'ni unga to'lanadigan ish haqi har xil miqdorda tabaqalangan bo'lishi mumkin, chunki bir vaqtda sarf qilingan mehnat uning malakasiga qarab, turli hajmda mahsulot yaratishi, turli natijaga erishishi mumkin. Bunday natijaga erishish shu mehnatkashning ish quroliga ham bog'liq. Masalan, yer haydovchini olaylik. U omoch bilan bir kunda 0,5 gektar, traktor bilan esa 10 gektar yerni haydashi mumkin. Xulosa qilib aytganda, mehnatning qiymati uning bir qismi bo'lgan, ish haqining hajmi bilan belgilanadi.

Ish kuchi deganda insonning moddiy va ma'naviy ne'mat ishlab chiqarish jarayonida jismoniy va aqliy (intellektual) kuchi majmuasidan iborat bo'lgan mehnat qilish qobiliyati tushuniladi. Ish kuchi har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. U orqali inson tabiat ne'matlarini tayyor iste'mol qiladigan holga keltiradi.

Tovar pul munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan ish kuchi ham tovarga aylanadi. Bu kishilik jamiyati taraqqiyotining kapitalistik formatsiyasi bosqichiga kelib, yaqqol namoyon bo'ldi,

chunki bu davrga kelib kishilar, birinchidan, shaxs sifatida o'z erkinliklarini ta'minlab o'z ish kuchlariga egalik qiladigan bo'ldi. Ammo, ikkinchidan, ularda ishlab chiqarish vositalari yo'q edi. Natijada, ular o'z ish kuchlarini sotishga majbur bo'lishdi. Shu tariqa ish kuchi tovarga aylandi.

Ish kuchi ham boshqa tovarlar kabi qiymati va iste'mol qiymatiga ega. Ish kuchining iste'mol qiymati ishchining yollangan joyida o'z ish kuchi qiymatiga nisbatan ko'proq qiymat yaratishi, ya'ni qo'shimcha qiymat keltirilishi tushuniladi. Shuning uchun mulkdor, ish beruvchi ish kuchini sotib oladi va undan foydalanadi. Ish kuchining qiymati deganda shu ish kuchi egasi va uning oilasi normal faoliyatini, yashashini ta'minlaydigan xarajatlarni qoplay oladigan qiymati, ya'ni oladigan mehnat haqi tushuniladi. Shu tufayli ish kuchining qiymatini ish beruvchi uning egasiga mehnat haqi tarzida to'laydi. Shu tufayli mehnat haqi inson mehnatining to'liq qiymatini belgilamaydi, balki faqat ish kuchi qiymatiga teng bo'ladi. Ish kuchining egasi hamisha ish kuchi qiymatidan tashqari qo'shimcha qiymat ham yaratadi. Bu esa mulkdor, ish beruvchi ixtiyorida qoladi.

Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti bilan ish kuchining qiymati ham ortib boradi, chunki ishchi o'z kuchini takror ishlab chiqadi va oilasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ne'matlar qiymati bilan nisbiylashtiradi. Shu jihatdan turli mamlakatlarda, ularning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga qarab, ish kuchining qiymati har xil bo'ladi. Lekin ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi ziddiyat ish kuchi qiymatining ortib borishiga sabab bo'ladi.

Ish beruvchi ish kuchining iste'mol qiymatidan, ishchi esa uning qiymatidan manfaatdor. Bu yerda manfaatlar o'rtasida ziddiyat mavjud. Ish beruvchi ko'proq ish kuchi iste'mol qiymatining ortishiga intilsa, ishchi o'z mehnati qiymatining ortishidan manfaatdor.

### 10.3.4. Mehnat motivatsiyasida ish kuchining qiymati va uni baholash bo'yicha muammolarni yechishdagi ayrim tavsiyalar

Bozor iqtisodiyoti deyarli barcha sohalarda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Oldin ishlab chiqarish vositalari va iste'mol tovarlari bozori mavjud bo'lgan bo'lsa, endilikda kapital (qimmatbaho qog'ozlar) bozori, mehnat bozori kabi yangi tushunchalar ham kundalik hayotimizga kirib keldi.

Bugungi bozor tizimida mehnat bozori o'z o'rni, mazmuni va mohiyatiga ega. Bu bozorning obyekti nima, ya'ni unda nima sotiladi, savolining tug'ilishi tabiiy. Mehnat bozorida quldorlik davrida qullar sotilgan. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda ish kuchi sotiladigan bo'ldi. Demak, ish kuchi endilikda tovarga aylandi, uning qiymati va iste'mol qiymati mavjud. Bu nimada va qanday baholanishi, uning bahosi qanday aniqlanishining nazariy asosi hamon iqtisodiy adabiyotlarda yetarli yoritilmagan.

Shu bois ish kuchining qiymati va bahosi haqida har xil qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar bu ikki tushunchani farqlashmaydi. Ba'zilari ish kuchining qiymatini uning bahosi bilan, bahosini esa qiymati bilan almashtirib, chalkashtirib izohlashadi. Bunga obyektiv sabablar mavjud. Chunonchi, ish kuchi rejali iqtisodiyot sharoitida tovar sifatida qaralmas edi. Uning bahosi, ya'ni ish haqi markazlashgan tarzda aniqlanar, u esa ish kuchining real qiymatini belgilamasdi, chunki ish haqining miqdoriga ish kuchining bahosi sifatida qaralmagan. Oqibatda unga to'lanadigan ish haqi uning qiymatini umuman belgilamagan, undan juda uzoqda edi. Masalan, savdo korxonalarida ish haqi fondining tashkil bo'lishini olib qaraylik.

Birinchidan, uzoq vaqt ish haqi fondi tovar oborotiga nisbatan foiz hisobida belgilanib keldi. Bu, albatta, rejali iqtisodiyot talabiga javob berar edi, chunki u paytlarda savdo korxonalari uchun tovar oboroti asosiy ko'rsatkich sifatida qo'llanilar edi. Bu usul xodimlarning ish sifatini, mehnat unumdorligi, savdo xizmati sifatining darajasini inobatga olmagan. Faqat miqdor, hajm ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, ko'payishi rag'batlantirilgan. Savdo xodimlarini rag'batlantirish uchun moddiy rag'batlantirish fondi tashkil qilinar edi. Ammo bu fondning miqdori ham tovar oboroti va foyda hajmiga nisbatan tashkil qilinib, juda kam miqdorda edi. Bu fonddan rag'batlantirish ish haqining umumiy miqdoriga nisbatan 40 %dan ortmaydigan qilib cheklangan edi. Bu ham faqat tovar oboroti va foyda rejasining bajarilganligi uchun to'langan. Boshqa sifat ko'rsatkichlari inobatga olinmagan.

Ikkinchidan, sobiq ittifoq davrida boshlangan qayta qurish jarayoni iqtisodiy dastaklarning eng muhimlaridan biri bo'lib, mehnatni rag'batlantirish usulini takomillashtirish zaruratini tug'dirdi. Natijada, ish haqi fondi va moddiy rag'batlantirish fondlari birlashtirilib, yagona mehnat haqi fondi tashkil qilindi. U tovar oboroti hajmiga nisbatan emas, balki korxonaning daromadiga

nisbatan belgilangan normativda (me'yorda) tashkil qilinadigan bo'ldi. Bu, albatta, ko'p jihatdan korxonaning mustaqilligi, to'liq xo'jalik hisobining joriy qilinishini ta'minladi. O'z navbatida har bir korxona daromadining o'sishini, xarajatlarning kamayishini rag'batlantirdi. Ammo belgilanadigan me'yor o'ta markazlashtirilganligi tufayli quyi xo'jalik bo'g'inlarining xususiyatlari, ularning real ahvoli inobatga olinmas edi. Markazlashtirilgan ushbu usul ham o'zini oqlamadi. Xullas, har bir korxonaning o'z xususiyatlaridan kelib chiqish lozim bo'ldi.

Uchinchidan, mehnat haqi fondi iste'mol fondiga almashtirildi. Uning tashkil bo'lishi, aynan, shu maqsad uchun o'tgan yilgi hajmni tovar oboroti o'sish sur'atiga nisbatan ma'lum foizda o'stirish orqali belgilaydigan bo'ldi. Bu usul mikro iqtisodiy o'sishni rag'batlantirdi. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitiga bu ham unchalik to'g'ri kelmasdan qoldi, chunki uning hajmi moliyaviy ko'rsatkichlarining birortasi bilan bog'liq bo'lmay, ularning yaxshilanishini rag'batlantirmadi. Ammo ushbu usul hamon saqlanib qolmoqda. Davlat va tijorat banklari korxonaning mehnat haqi fondining o'sishini shu tamoyilga asosan nazorat qilishyapti.

Hozir ko'pgina ishlab chiqarish korxonalarida mehnat haqi fondi xarajatlar tarkibida belgilangan me'yorga asosan tashkil qilinayotir. Savdoda esa hamon o'tgan yilgi hajmini tovar oboroti o'sishiga mos ravishda ma'lum foizga o'stirish yo'li bilan aniqlanmoqda. Fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar, mulk shaklidan qat'iy nazar, mehnat haqi fondini ikki xil yo'nalishda aniqlashsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Birinchidan, mehnatga haq to'lashda ishbay usuli qo'llaniladigan bo'lsa, qaysi ko'rsatkich uchun haq to'lansa (masalan, savdoda tovar oboroti), o'sha ko'rsatkichning o'sish sur'atiga mos ravishda ushbu fond miqdorini ham ko'paytirish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta MXF_{o'z} = \frac{MXFo't \cdot ((\Delta\ Q\ \% \cdot Z_i) + 100)}{100},$$

bunda, $MXF_{o'z}$ — joriy yildagi o'zgaruvchi (ishbay) mehnat fondi; $\Delta Q\ \%$ — mehnat haqi fondini tashkil qilishda inobatga olinadigan ko'rsatkichning o'sish sur'ati (savdoda tovar oboroti); $MXF_{o't}$ — o'tgan davrdagi mehnat haqi fondining haqiqiy miqdori; $Z_i$ — har bir foiz o'sishga to'g'ri keladigan MXF o'sishning miqdori.

Mehnat haqining ikkinchi qismi lavozimiga qarab qat'iy belgilangan yagona tarif koeffitsiyentlari asosida oladigan oyliklardir. Mehnat haqining bu qismini aniqlashda tasdiqlangan shtat jadvalidagi xodimlar va ularga to'lanadigan oylik miqdori olinishi maqsadga muvofiq. Bu hajmni quyidagi formula orqali hisoblashni tavsiya qilamiz:

$$MXF_{um} = X_i \cdot S_{Ti\,t} \cdot t_i ,$$

bunda, $MXF_{um}$ — mehnat haqi fondining o'zgarmas (vaqtbay) qismi; $X_i$ — xodim lavozimlari tartib soni; $S_{Ti\,t}$ — lavozimdagi xodimning t — davrda (odatda bir oyda) oladigan oylik maoshi; $t_i$ — mehnat haqi fondining t — davridagi miqdori (t = 1,12).

Masalan, firmaning 1996-yilga mo'ljallangan mehnat haqi fondining miqdorini aniqlashi lozim. O'tgan yili ushbu fondning o'zgaruvchi miqdori 2340 ming so'mni tashkil qilgan. Bu yil ish hajmi (tovar oboroti) shu davr mobaynida 5,4 %ga ortishi, har bir foiz iqtisodiy o'sish sur'ati uchun 0,7 % mehnat haqining o'sishi ko'zda tutilgan. Bu holda mehnat haqining o'zgaruvchi qismi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{2340 \cdot ((5,4 \cdot 0,7) + 100)}{100} = 2428,5 \text{ ming so'm.}$$

Mehnat haqining o'zgarmas qismini hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan. Firma raisi (1 kishi) — maoshi 3000 so'm, 5 nafar yetakchi mutaxassis — 2500 so'mdan, 4 nafar mutaxassis — 2200 so'mdan, 3 nafar xizmat ko'rsatuvchi xodim — 1800 so'mdan oylik maoshi olishi ko'zda tutilgan. U holda firmada mehnat haqi fondining bir yillik miqdori 356,4 ming so'mni tashkil qiladi:

$$((3000 \cdot 1)+(2500 \cdot 5)+(2200 \cdot 4)+(1800 \cdot 3) \cdot 12) = 356,4 \text{ ming so'm.}$$

Firmaning bir yillik ish haqi fondining rejadagi miqdori 2784,9 ming so'mni tashkil qiladi:

$$2428,5 + 356,4 = 2784,9 \text{ ming so'm.}$$

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqining juda ko'p jihatlarini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Birinchidan, u ishlab chiqarish (muomala) xarajatlarining bir moddasi, elementi sifatida namoyon

bo'ladi. Bu bilan u bevosita ishlab chiqarish hajmi va foyda summasiga ta'sir qiladi. Ish haqini o'zgartirmasdan turib ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish evaziga yoki o'sha ishlab chiqarish hajmi o'zgarmagan holda ish haqiga ketgan xarajatlarni kamaytirish yo'li bilan ham foyda summasini ko'paytirish mumkin. Ikkinchidan, mehnat haqi fondi mehnat qilayotgan aholining ish kuchi bahosini, ya'ni ularning yashash darajasini belgilaydi. Teng sharoitda narx o'zgarmasdan ish haqining o'zgarishi, ya'ni ko'payishi aholi farovonligining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Shu tufayli barcha mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda ham ish haqi va uning darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida asosiy o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Uchinchidan, ish haqi tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan talab darajasini belgilaydi. Ish haqining darajasi qancha past bo'lsa, tovarga bo'lgan talab tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ustuvor bo'ladi. Aholi o'zi eplay olmaydigan eng zarur xizmat turlaridangina foydalanadi, xolos. Aksariyat xizmatni o'zi bajaradi.

To'rtinchidan, aholining ish bilan bandlik darajasi ham ish haqi hajmiga bog'liq. Mehnat unumdorligi past bo'lgan mamlakatlarda ish kuchining qiymati, shunga bog'liq ravishda mehnatkashlarning turmush darajasi ham past bo'ladi. Bunday joylarda ish kuchining qiymati arzon bo'ladi, ya'ni ish haqi jahon darajasiga nisbatan past bo'ladi. Demak, mehnat unumdorligi, turmush darajasi va ish haqi bir-biri bilan dialektik bog'liq kategoriyalardir. Bu kategoriyalarning birini ikkinchisidan holi ravishda tahlil qilib bo'lmaydi. Mehnatkashlarning turmush darajasini ko'tarish uchun, eng avvalo, ularning mehnat unumdorligini oshirishga erishmoq lozim. Busiz ish haqini ham va shundan kelib chiqqan holda mehnatkashlarning turmush darajasini ham oshirib bo'lmaydi. Ish haqi mehnat unumdorligi o'sishiga muvofiq ravishda oshirib borilsa, uning darajasi ham o'sishdan to'xtaydi. O'zbekistonda aholining kam ta'minlangan qismi kuchli ijtimoiy himoya qilinadi. Hozirgi sharoitda ish haqining darajasi ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasiga nisbatan tez o'smoqda. Lekin bunday holatda uzoqqa borib bo'lmaydi. Ijtimoiy mehnat unumdorligining oshishiga erishmoq — davr taqozosi.

Shunday qilib, ish haqi mazmun jihatidan tubdan o'zgarib, bozorning muhim kategoriyalaridan biriga aylanib qoldi. Demak,

endi uni bozor konsepsiyasiga mos tamoyillar asosida o'zgartirishga, yangidan shakllantirishga va rivojlantirishga to'g'ri keladi. Ammo bu borada ham nazariya amaliyotdan orqada qolib ketganligini e'tirof etish lozim.

O'zbekistonda mehnatga haq to'lashning yagona tarif jadvali (sistemasi) joriy qilingan. Bu juda chuqur o'ylangan tadbirdir. Unda mehnat haqini 23 ta razryad bo'yicha (0 dan 22 gacha) tabaqalash koeffitsiyenti belgilangan bo'lib, nolinchi razryadga 1,000 tarif koeffitsiyenti, 22-chi razryadga esa 7,198 tarif koeffitsiyenti berilishi ko'zda tutilgan. Mehnat haqining boshlang'ich miqdoridan oxirgi eng ko'p miqdori 7,2 martaga ortiqdir.

Yagona tarif jadvali bo'yicha oklad belgilashning yana bir kamchiligi shundaki, u xodimlarni mehnat unumdorligini oshirishga, ish sifatini yaxshilanishiga qiziqtirmaydi. Chunki bor kuchini sarflab, kuyib-yonib mehnat qilgan ham, ishyoqmas, jon kuydirmaydigan xodim ham bir xil maosh oladi. Bu esa xodimlarni malakasini oshirish va shu orqali mehnat unumdorligini ko'paytirishga emas, balki biror-bir lavozimni egallashga rag'batlantiradi. Oxir-oqibatda ish kuchining bahosi noto'g'ri belgilanadi.

Yagona tarif jadvalida mutaxassis xodimlarning tabaqalangan holda razryadlararo joylanishini yana bir bor ilmiy asoslab, ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, shu jadval bo'yicha belgilangan ish haqi berilishi mumkin, ammo unga to'liq amal qilinsin, deya xulosa chiqarmaslik kerak. Bu miqdor ish haqining mo'ljallangan me'yoriy hajmi bo'lmog'i lozim. Shunga asosan xodim o'z vazifasini halol, ko'zda tutilgan mehnat unumdorligi va ish sifatiga erishgan holda bajarsa, shu tarif jadvalida belgilangan koeffitsiyentga asosan ish haqini olishi mumkin. O'z-o'zidan xodim tadbir va aql bilan ish tutib, mehnat unumdorligi, ish samarasi va sifatini oshirsa, albatta, u o'rtacha ishlayotgan kasbdoshiga nisbatan ko'p maosh olishi shart. Ammo buni yagona tarif jadvali rag'batlantirmaydi. Buning uchun shunday yo'lni topish kerakki, kim ko'p va sifatli mehnat qilsa, marhamat ish haqini shunga yarasha olsin. Shundagina har bir xodim mehnat unumdorligi, ish sifati va samaradorligini oshirishga harakat qiladi.

Bunga qanday erishish mumkin, savolining tug'ilishi tabi Har bir korxona o'z mehnat me'yorlariga (normativlariga)

bo'lishi lozim. Shu me'yorni bajarsa, o'ziga belgilangan ish haqini oladi, agar undan oshirsa, shunga mos ravishda oylik miqdori ham ortishi shart. U holda oylik maoshning ortishi quyidagicha ikki usul bilan hisoblanishi mumkin. Birinchidan, mehnat unumdorligi, ishining sifati va samaradorligi ortgan paytda oladigan rag'batlantiruvchi oylik maoshi, ikkinchidan, mehnat unumdorligi, ish sifati va samaradorligi pasaygan paytda oladigan jazolovchi oylik maoshidir. Rag'batlantiruvchi oylik maoshni hisoblash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$I_{hr} = I_{htj} + (K_i \cdot S_{ti}),$$

bunda, $I_{hr}$ — ish haqining rag'batlantiruvchi miqdori; $I_{htj}$ — ish haqining tarif jadvali bo'yicha oladigan miqdori (okladi); $K_i$ — mehnat unumdorligi, ish sifati va samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti ($K_m$ = 1); $S_{ti}$ — xodim mehnat unumdorligi yoki ish sifatining 0,01 koeffitsiyent oshirishiga (kamayishiga) to'lanadigan ish haqining miqdori.

Gap mehnat unumdorligining ortishi, ish sifatining yaxshilanishi haqida bormoqda. Ammo amaliyotda mehnat unumdorligi hamisha o'sib, ish sifati doimo yaxshilanavermaydi. Bunday holda ish haqining tarif jadvali bo'yicha oladigan miqdori (okladi) qisqarishi, ya'ni jazolovchi bo'lmog'i lozim. U holda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$I_{hj} = I_{htj} + (-K_i \cdot S_{ti}),$$

bunda, $I_{htj}$ — ish haqining jazolantiruvchi miqdori; $K_i$ — i — xodim mehnat unumdorligi, $S_{ti}$ — ish sifati va samaradorligining me'yordan kam koeffitsiyenti.

Masalan, firmada yetakchi mutaxassisga to'lanadigan ish haqining rag'batlantirilgan miqdorini topish lozim bo'lsa, unga to'lanadigan ish haqining tarif jadvali bo'yicha oladigan qismini 2500 so'm deb faraz qilamiz. Shu xodimning mehnat unumdorligi, ish sifati va samaradorligining me'yorga nisbatan darajasi 1,071 koeffitsiyentga teng va ushbu ko'rsatkichning har 0,01 miqdoriga to'lanadigan mukofot, ya'ni mehnatni rag'batlantiruvchi miqdori 200 so'mni tashkil qilsa, u holda ushbu xodim ish haqining rag'batlantiruvchi miqdori 3920 so'mga teng bo'ladi:

$$(2500 + ((0{,}071 \cdot 200) \cdot 100) = 3920 \text{ so'm}.$$

Ushbu formulaning qo'llanilishi ham biz o'rganayotgan xodimning faoliyatiga tatbiq qiladigan bo'lsak, shu xodimning ikkinchi oyda mehnat unumdorligi, ish sifati va samaradorligi pasaydi va uni belgilovchi koeffitsiyent 0,983 ni tashkil qildi, deb faraz qilsak (1 − 0,983 = 0,017), u holda unga hisoblanadigan oylik maoshning miqdori 2160 so'mni tashkil qiladi:

$$2500 + ((-0{,}017 \cdot 200) \cdot 100) = 2500 - 340 = 2160 \text{ so'm.}$$

Ko'rinib turibdiki, yetakchi xodimning mehnat unumdorligi, ish sifati va samaradorligi ortgan paytda unga belgilangan oylik maoshga nisbatan 56,8 % ko'p to'landi (3920 · 100 :2500) − 100. Ish sifati va samaradorligi pasayganda esa 13,6 %ga 100 − (2160 · 100 : 2500) kam oladi. Bu tavsiyalar hayotga tatbiq qilinsa, ijtimoiy mehnat unumdorligining ortishi, ish sifatining yaxshilanishi, natijada jamiyatda iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga erishiladi. Eng muhimi ish kuchi qiymati va bahosini aniqlashda adolat qaror topadi.

Ushbu nazariy xulosalarni umumlashtiradigan bo'lsak, ish kuchining qiymati va bahosini aniqlash mumkin bo'ladi. Chunki iqtisodiy kategoriyalarning miqdorini aniqlash tahlil uchun juda muhimdir. Ish kuchining qiymati unga sarf qilgan xarajatlarda, uning bahosi esa unga to'lanadigan mehnat haqida namoyon bo'ladi.

**Ish kuchining qiymatini** amaliy jihatdan shu xodim (mutaxassis)ning shakllanishiga ketgan xarajatlar bilan ifodalash (Ikk) mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi formulani qo'llashni tavsiya qilamiz:

| | | | |
|---|---|---|---|
| Ikk = | O'rta ma'lumot olishga ketgan xarajatlar ($O'_m$) | + | O'rta maxsus ma'lumot olishga ketgan xarajatlar ($O'_{mm}$) |
| + | Oliy ma'lumot olishga ketgan xarajatlar ($O_{lm}$) | + | Malaka oshirishga ketgan xarajatlar ($M_o$) |

$$Ikk = O'_m + O'_{mm} + O_{lm} + M_o.$$

Ushu formulaning matematik modelini quyidagi additiv model bilan ifodalash mumkin:

$$Uj = \sum_{i=1}^{p} Xi; \quad (i = 1, n; n = 4).$$

Ish kuchining bahosi, xodimga (mutaxassisga) to'lanadigan asosiy va qo'shimcha mehnat haqi miqdori bilan ifodalanadi (Ikb). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Ikb = | Asosiy mehnat haqi ($A_{mh}$) | + | Qo'shimcha mehnat haqi ($Q_{mh}$) | + | Har xil rag'batlantirish yo'li bilan to'lovlar ($R_t$). |

$$Ikb = A_{mh} + K_{mh} + R_t.$$

Ushbu formulani additiv modelda quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$Uj = \sum_{i=1}^{n} Xi; \quad (i = 1, n; n = 3).$$

Tahlilda ko'rsatkichlarni aniqlash uchun uslubiy tavsiya sifatida ish kuchining qiymati va bahosini aniqlashning hisob-kitobini keltiramiz. Ushbu ko'rsatkichlar miqdori o'rta hisobda bir kishi misolida bir yilga aniqlanadi. Bu 1996-yil bahosida raqamlar taqriban olingan.

1. O'rta ma'lumot olish uchun ketgan xarajatlar miqdori (10 yilda 15 mingdan) — 150,0 ming so'm.
2. O'rta maxsus ma'lumot olish uchun ketgan xarajatlar (2 yilda 50 mingdan) — 100,0 ming so'm.
3. Oliy ma'lumot olishga ketgan xarajatlar (4 yilda 80 mingdan) — 320,0 ming so'm.
4. Malaka oshirishga ketgan xarajatlar — 35,0 ming so'm.
5. 16 yil ma'lumot olish uchun ketgan jami xarajatlar, ya'ni ish kuchining qiymati (1q + 2q + 3q + 4q) — 605,0 ming so'm.
6. Xodimga to'lanadigan bir oylik asosiy mehnat haqi — 3,5 ming so'm.
7. Barcha qo'shimcha mehnat haqi — 1,0 ming so'm.
8. Har xil rag'batlantirish yo'li bilan beriladigan to'lovlar — 0,8 ming so'm.
9. Ish kuchining bahosi (6q + 7q + 8q) — 5,3 ming so'm.

Hozirgi paytda har bir xodimning ma'lumot olishi uchun o'rta hisobda bir kishiga qancha mablag' sarf qilinishi aniqlangan va u o'qitish jarayonida qo'llanilmoqda. Ushbu misolda taxminiy raqamlardan foydalanildi. Bu usul shaxsiy kuzatuvlar oqibatida chiqarilgan xulosamiz natijasidir. Bunday usullar oldin iqtisodiy adabiyotlarda bayon etilmaganligi tufayli tavsiya tariqasida berilmoqda va kelajakda takomillashishiga ishonchimiz komil.

### 10.3.5. Mehnat haqining rejadagi va haqiqiy miqdorini aniqlash

Tahlilning asosiy tamoyillari va usullaridan biri solishtirishdir. Ish haqi bo'yicha haqiqiy erishilgan natijani reja bilan solishtirishda, eng avvalo, uning rejadagi miqdorini to'g'ri hisoblab olish lozim, chunki bu ko'rsatkich ish haqi bo'yicha biznes-rejani tuzishda, uning strategiyasini aniqlashda qo'llaniladi.

Ish haqining rejadagi miqdorini aniqlash uchun kompaniya (korxona)ning shtat jadvali bo'yicha xodimlar va ularning O'zbekistonda amal qilayotgan yagona tarif setkasidagi razryadlar koeffitsiyentlari olinadi. Bu ko'rsatkichlar minimal ish haqi miqdoriga nisbatan hisoblanadi. Buni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$U_h^r = \sum_{i=1}^{n} (U_{hm} \cdot T_{pi} \cdot Xj),$$

bunda, $U_h^r$ — ish haqining rejadagi miqdori; $i$ — xodimlar soni (i=1,p); $T_{pi}$ — yagona tarif setkasida $i$ xodimga to'g'ri keladigan tarif razryadi; $U_{hm}$ — minimal ish haqining miqdori; $X_j$ — $j$ guruhdagi xodimlar soni.

Ushbu formulada keltirilgan ish haqining rejadagi miqdorini ($I_h^r$) aniqlash usulini kengaytirilgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$I_h^r = (I_{hm} \cdot T_{r1} \cdot X_1) + (I_{hm} \cdot T_{r2} \cdot X_2) + \ldots + (I_{hm} \cdot T_{rn} \cdot X_n),$$

bunda, $I_{hm}$ — respublikamizda joriy qilingan minimal ish haqining miqdori; $T_{rj}$ — yagona tarif setkasidagi tarif razryadi; $X_j$ — shu tarif razryadiga to'g'ri keladigan xodimlar soni.

Ish haqining rejadagi umumiy miqdori aniqlangach, uni shtat jadvali bo'yicha band bo'lgan xodimlar soniga bo'lib, o'rtacha ish haqi ($I_h$) miqdorini hisoblash mumkin. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$I_h = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n} (H_{xmi} \cdot T_{pi} \cdot X_i)_i \quad (i = 1, n),$$

bunda, $p$ — umumiy xodimlar soni.

Tahlil jarayonida ish haqining o'zgarishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun uning haqiqiy miqdorini aniqlash lozim. Ish haqining haqiqiy miqdori ishbay va vaqtbay ish haqidan iborat bo'ladi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$I_h = I_{shih} + V_{ih},$$

bunda, $I_{shih}$ — ishbay ish haqi; $V_{ih}$ — vaqtbay ish haqi. Ishbay ish haqining haqiqatdagi hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{shih} = Q_1^x \cdot I_{x1Q},$$

bunda, $Q_1^x$ — bajarilgan ish hajmi; $I_{x1Q}$ — bir bajarilgan ish uchun to'lanadigan ish haqi.

Vaqtbay ish haqining miqdorini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$V_{ih} = I_{hm}^{\ x} \cdot T_{ri}^{\ x} \cdot X_i^x,$$

bunda, $I_{hm}^{\ x}$ — minimal ish haqining amaldagi miqdori; $T_{ri}^x$ — $i$ — xodimga to'g'ri keladigan tarif razryadi; $X_i^x$ — $i$ — tarif razryadiga to'g'ri keladigan xodimlar soni.

Tahlil qilinayotgan obyektni o'rganish uchun tegishli rejadagi va haqiqatdagi ma'lumotlar taxt bo'lgach, uni tahlil qilish mumkin bo'ladi.

### 10.3.6. Mehnat haqi umumiy hajmining tahlili

Ish haqini tahlil qilish bevosita uning summasi, darajasi va xarajatlardagi ulushi hamda ularning o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Ish haqining umumiy summasi buxgalteriya va statistik hisobotlarda ifodalanadi. Uning darajasi ($U_{hd}$) ish haqi summasini ($U_h$) yuzga ko'paytirib, ish hajmining miqdoriga (Q) bo'linadi:

$$U_{hd} = \frac{U_h \cdot 100}{Q}.$$

Ish haqining barcha xarajatlardagi ulushini topish uchun ish haqining miqdorini barcha xarajatlar (XA) hajmiga bo'lib, yuzga ko'paytiriladi:

$$U_{x.yu} = \frac{U_x \cdot 100}{XA}.$$

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish uchun 10.8-jadvaldan foydalaniladi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha xarajatlar, shu jumladan mehnat haqi miqdori ham tahlil qilinayotgan davrda ko'paygan. Ammo ularning darajasi shu davrda kamaygan. Xarajatlar darajasi rejadagi 16,63 %dan haqiqatda 16,53 %gacha, mehnat haqi darajasi esa, mos ravishda, 6,32 %dan

*10.8-jadval*

**Ish haqi umumiy hajmi va darajasining hisobot yilidagi hisob-kitobi**

| T/p | Ko'rsatkichlar | Rejada | Haqiqatda | Farqi (+, −) | Rejaning bajarilishi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Natija (mahsulot hajmi), ming so'm | 5542,4 | 5694,5 | + 152,1 | 102,7 |
| 2. | Xarajatlar, ming so'm | 921,8 | 941,2 | + 19,4 | 102,1 |
| 3. | Xarajatlar darajasi, % (2q : 1q · 100) | 16,63 | 16,53 | − 0,10 | 99,4 |
| 4. | Mehnat haqi, ming so'm | 350,3 | 356,7 | + 6,4 | 101,8 |
| 5. | Mehnat haqi darajasi, % (4q : 1q · 100) | 6,32 | 6,26 | − 0,06 | 99,1 |
| 6. | Mehnat haqining barcha xarajatlardagi ulushi, % (4q : 2q · 100) | 38,0 | 37,9 | − 0,1 | 99,7 |

6,26 %gacha kamaygan. Xarajatlar darajasining kamayishi xodimlar mehnatining samaradorligidan dalolat beradi. Tahlilning navbatdagi bosqichida mehnat haqi miqdorining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash muhim ahamiyatga ega, chunki shu yo'l bilan mehnat haqiga to'lanadigan xarajatni nisbiy jihatdan kamaytirish va uning samaradorligini oshirishga erishiladi.

Tadqiqotlar ko'rsatib turibdiki, mehnat haqi hajmining o'zgarishiga besh omil ta'sir qiladi. Bularni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$U_h = (Q_i \cdot U_{hi})\, j + (U_{hm} \cdot Tr_i \cdot X_i)\, j,$$

bunda, $Q_i$ — ish haqi; $U_{hi}$ — bir bajarilgan ish uchun to'lanadigan mehnat haqi; $U_{hm}$ — minimal ish haqining miqdori; $Tr$ — tarif razryadi; $X_i$ — xodimlar soni.

Keltirilgan formulaga asosan mehnat haqi hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagicha hisoblash mumkin:

1. Ish hajmi o'zgarishining mehnat haqi o'zgarishiga ta'siri ($\Delta U_{hQ}$)

$$U_{h.Q} = (Q^h - Q^p) \cdot U_{h1Q}.$$

2. Bir ish hajmiga to'lanadigan mehnat haqi (rassenkasi) o'zgarishining mehnat haqi umumiy summasiga ta'siri ($\Delta U_{h1Q}$):

$$\Delta U_{h1\,Q} = Q^h \cdot (U^h{}_{h\,1Q} - U^r{}_{h1Q}).$$

3. Minimal ish haqi miqdori o'zgarishining mehnat haqi hajmi o'zgarishiga ta'siri ($\Delta U_{h.ihm}$):

$$\Delta U_{h.ihm} = (U^h_{hm} - U^r_{hm}) \cdot Tr^r \cdot X^r.$$

4. Yagona tarif setkasida tarif razryadi o'zgarishining mehnat haqi hajmi o'zgarishiga ta'siri ($\Delta U_{h.tr}$):

$$\Delta U_{h.tr} = U^h_{hm} \cdot (Tr^h - Tr^r) \cdot X^r .$$

5. Xodimlar soni o'zgarishining mehnat haqi hajmi o'zgarishiga ta'siri ($\Delta U_{x.x}$):

$$\Delta U_{x.x} = U^h_{hm} \cdot Tr^h \cdot (X^x - X^r).$$

Barcha omillar ta'siri, odatdagidek, natijaning, ya'ni mehnat haqi hajmining umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$\Delta U_x = \Delta U_{x.Q} \pm \Delta U_{x1Q} \pm \Delta U_{x.ixm} \Delta U_{x.tr} \pm \Delta U_{x.x} .$$

Ushbu nazariy tavsiyalar amaliyot talabidan kelib chiqqan va unga mos ravishda yaratilgan. Buni isbotlash uchun ushbu formulalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda natija o'zgarishiga har bir omilning ta'sirini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi 10.9-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*10.9-jadval*

**Mehnat haqi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning hisob-kitobi**

| Ko'rsatkichlar | Rejada | Haqiqatda | Farqi (+, −) | Mehnat haqi o'zgarishiga ta'siri (+, −) |
|---|---|---|---|---|
| 1. Mahsulot hajmi, ming so'm | 5542,4 | 5694,5 | +152,1 | + 5,6 |
| 2. Mehnat haqi jami, ming so'm | 350,3 | 356,7 | + 6,4 | x |
| Shu jumladan:<br>2.1. Vaqtbay mehnat haqi, ming so'm | 145,5 | 158,3 | + 12,8 | x |
| 2.2. Ishbay mehnat haqi, ming so'm | 204,8 | 198,4 | − 6,4 | x |
| 3. Ishbay ish haqining, o'rtacha stavkasi 100 so'mga, so'm | 3,695 | 3,484 | − 0,211 | − 12,0 |
| 4. Minimal ish haqining miqdori, so'm | 2450 | 2450 | — | 0 |
| 5. Tarif razryadining o'rtacha miqdori, koeffitsiyenti | 2,456 | 2,513 | + 0,057 | + 3,4 |
| 6. Xodimlar soni, kishi | 79 | 84 | + 5 | + 9,4 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat haqining umumiy miqdori rejaga nisbatan 6,4 ming so'mga oshgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

1. Mahsulot hajmining 152,1 ming so'mga ortganligi mehnat haqini 5,6 ming so'mga oshirgan:

$$152,1 \cdot 3,695 = + 5,6 \text{ ming so'm.}$$

2. Ishbay ish haqining o'rtacha stavkasi 0,211 so'mga kamaygan. Bu esa o'z navbatida mehnat haqi hajmini ming so'mga kamaytirgan.

$$5694,5 \cdot 0,211 = - 12,0 \text{ ming so'm.}$$

3. Minimal ish haqi miqdori hisobot davrida o'zgarmasdan qoldi va uning natijaga ta'siri nolga teng bo'ladi:

$$0 \cdot 2,456 \cdot 79 = 0.$$

4. O'rtacha tarif razryadining miqdori hisobot yilida 0,057 koeffitsiyentiga ko'payganligi umumiy mehnat haqi miqdorini 3,4 ming so'mga oshirdi:

$$750 \cdot 0,057 \cdot 79 = + 3,4 \text{ ming so'm.}$$

5. Xodimlar sonining 5 kishiga ko'payishi mehnat haqi miqdorini 9,4 ming so'mga oshirgan.

$$750 \cdot 2,513 \cdot 5 = + 9,4 \text{ ming so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$5,6 - 12,0 + 0 + 3,4 + 9,4 = + 6,4$$

Natijaga ta'sir etuvchi omillarning umumiy hajmini kengaytirilgan holda va jamlangan tarzda hisoblash mumkin. Masalan, mehnat haqining umumiy hajmiga xodimlar soni va o'rtacha ish haqi ham ta'sir qilishi mumkin. Mehnat haqi (MH) o'zgarishiga yuqorida qayd etilgan omillar ta'sirini hisoblash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$MH = X \cdot U_{mh},$$

bunda, $X$ — xodimlar soni; $U_{mh}$ — o'rtacha mehnat haqi.

Ushbu formulaga qayta hisoblash usulini qo'llab, natijaga omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Qayta hisoblangan mehnat haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$MH^{kh} = X^x \cdot U^r_{mh}.$$

Natijaga omillar ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

1. MH o'zgarishiga xodimlar sonining ta'sirini ($MH_x$) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta MH_x = MH^{kh} - MH^r = (H^x \cdot U^r_{mh}) - (H^r \cdot U^r_{mh}).$$

2. MH o'zgarishiga $U_{mh}$ o'zgarishining ta'sirini ($MH_{umx}$) aniqlash uchun esa quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta MH_{umx} = MH^x - MH^{kh} = (H^x \cdot U^x_{mh}) - (H^x \cdot U^r_{mh}).$$

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natijaning umumiy farqiga teng bo'ladi.

$$\Delta MH = \Delta MH_x \pm \Delta MH_{umx}.$$

Ushbu formulaga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, natijaga omillar ta'sirini aniqlash mumkin (10.10-jadval).

*10.10-jadval*

**Mehnat haqi hajmining o'zgarishiga xodimlar soni va o'rtacha mehnat haqi o'zgarishi ta'sirining hisob-kitobi**

| T/p | Ko'rsatkichlar | Rejada | Haqiqatda | Qayta hisoblangan | Farqi (+, −) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Jami | shu jumladan | |
| | | | | | | xodimlar soni | o'rtacha mehnat haqi evaziga |
| 1. | Xodimlar soni, kishi | 79 | 84 | 84 | + 5 | x | x |
| 2. | O'rtacha mehnat haqi, so'm | 4434 | 4246 | 4434 | − 188 | x | x |
| 3. | Mehnat haqining umumiy hajmi, ming so'm (1q · 2q) | 350,3 | 356,7 | 372,5 | + 6,4 | + 22,2 | − 15,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat haqining umumiy hajmi hisobot yilida 6,4 ming so'mga ortgan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir qilgan.

1. Xodimlar sonining 5 kishiga ko'payganligi mehnat haqi umumiy miqdorini 22,2 ming so'mga ko'paytirdi:

$$372,5 - 350,3 = + 22,2 \text{ ming so'm.}$$

O'rtacha mehnat haqining 188 so'mga kamayishi umumiy mehnat haqining hajmini 15,8 ming so'mga kamaytirdi:

$$356{,}7 - 372{,}5 = -15{,}8 \text{ ming so'm.}$$

Odatdagidek, ushbu ikki omil ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng:

$$22{,}2 - 15{,}8 = +6{,}4 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu omillarni tegishli qoidalar asosida kengaytirish ham mumkin. Masalan, xodimlar soni (X) ish hajmining (Q) mehnat unumdorligiga (MU) nisbati bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{Q}{MU}.$$

Agar oldingi formuladagi xodimlar soni o'rniga uning aniqlovchisini qo'ysak, u quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$MH = \frac{Q}{MU} \cdot U_m = \frac{Q \cdot U_m}{MU}.$$

Ushbu bog'liqlik chizmada quyidagicha ifoda etilishi mumkin (5.6-chizma):




*5.6-chizma.* Mehnat haqi hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.

Ushbu bog'liqlikka amaliy ma'lumotlarni va iqtisodiy tahlilning zanjirli almashtirish usulini qo'llab, mehnat haqi o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash mumkin (10.11-jadval).

*10.11-jadval*

**Mehnat haqi o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | sh.b. | Rejada | Haqiqatda | Farqi | Zanjirli almashtirishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | 1-omil o'zgarishi bilan (Q) | 2-omil o'zgarishi bilan (Mh) | 3-omil o'zgarishi bilan (Mh) |
| 1. | Ish hajmi (tovar oboroti, tayyor mahsulot), ming so'm | Q | 5542,4 | 5694,5 | +152,1 | 5694,5 | 5694,5 | 694,5 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. | Mehnat unumdorligi, ming so'm | MU | 70,16 | 67,79 | – 2,37 | 70,16 | 67,79 | 67,79 |
| 3. | O'rtacha mehnat haqi, so'm | MH | 4434 | 4246 | –188 | 4434 | 4434 | 4246 |
| 4. | Mehnat haqi hajmi, ming so'm | MH | 530,3 | 356,7 | + 6,4 | 359,9 | 372,5 | 356,7 |

Ushbu jadval ma'lumotidan ko'rinib turibdiki, mehnat haqining umumiy hajmi 6,4 ming so'mga ko'paygan. Bu quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

1. Tayyor mahsulot hajmining 152,1 ming so'mga ortganligi mehnat haqi hajmini ming so'mga ko'paytirgan:

$$359,9 - 350,3 = + 9,6 \text{ ming so'm.}$$

2. Mehnat unumdorligining 2,37 ming so'mga kamayishi mehnat haqi hajmini 12,6 ming so'mga oshirib yuborishiga sabab bo'ldi:

$$372,5 - 359,0 = + 12,6 \text{ ming so'm.}$$

3. O'rtacha mehnat haqining 188 so'mga kamayishi mehnat haqi umumiy hajmini 15,8 ming so'mga kamaytirdi:

$$356,7 - 372,5 = - 15,8 \text{ ming so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$9,6 + 12,6 - 15,8 = + 6,4 \text{ ming so'm.}$$

## 10.4. Korxonada band bo'lgan xodimlar soni tahlili

### 10.4.1. Xodimlar soni tushunchasi

Xodimlar soni deganda, korxonada band bo'lgan barcha ishchi va xizmatchilarning umumiy soni tushuniladi. Bu ikki ko'rinishda bo'ladi.

1. Ro'yxatdagi xodimlar soni.
2. Ishga kelgan xodimlar soni.

Ro'yxatdagi xodimlar soni deganda, korxona ro'yxatiga kiritilgan doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlaydigan hamda shu korxonadan maosh oladigan barcha xodimlar tushuniladi. Bularning tarkibiga:

1) haqiqatda ishlayotganlar;

2) vaqtincha xizmat safarida, navbatdagi mehnat ta'tilida, dekret ta'tilida yurganlar;

3) kasalligi tufayli ishga kelmaganlar, davlat va ijtimoiy tashkilotlar topshiriqlarini bajarish maqsadida boshqa ishni qilayotganlar; ma'muriyat ruxsati bilan kelmaganlar, bayram va dam olish kunlari ishlaganligi uchun ta'tilda yurganlar, sababsiz ishga kelmaganlar ham kiradi.

Bulardan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlariga vaqtincha jalb qilinganlar, malaka oshirishda o'qiyotganlar, o'qish uchun ta'tilga chiqib navbatdagi sessiyasini topshirayotganlar ham shu korxonada vaqtincha ishlamasa-da, uning ro'yxatdagi xodimlar soniga kiradi. Shunday xodimlar borki, ular shu korxonada ma'lum darajada faoliyat ko'rsatadi, ammo ro'yxatdagi xodimlar soniga kirmaydi. Bular jumlasiga shu korxonada ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan, lekin ishga qabul qilinmagan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarini, korxonaning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishni bajarishga 5 kungacha qabul qilingan xodimlarni, shu korxonada o'rindoshlikda ishlayotganlarni va boshqa shunga o'xshash toifadagi xodimlarni kiritish mumkin.

Amaliyotda o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni ko'rsatkichi ham ishlatiladi. Bu bir oyga, bir chorakka, yarim yilga, to'qqiz oyga va bir yilga hisoblanishi mumkin. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun korxonadagi ro'yxatdagi xodimlar sonining har bir kunligini qo'shib hisoblanayotgan davrdagi taqvim kunlari soniga bo'lamiz. Masalan, bir oylik o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar sonini topmoqchi bo'lsak, shu oy mobaynida dam olish va bayram kunlarini ham qo'shgan holda ro'yxatdagi xodimlarning har kunligini jamlab chiqamiz va chiqqan natijani shu oydagi taqvim kunlari soniga bo'lamiz. O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar sonini bir chorak muddatga aniqlash uchun uch oylik o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar sonini qo'shib uchga bo'lish kifoya. Olti oylikni topish uchun olti oylik o'rtachani qo'shib, oltiga bo'linadi va h.k. Ushbu ko'rsatkich korxonada tahlil qilinayotgan davrda mehnat unumdorligining darajasi va boshqa samaradorlik bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash uchun qo'llaniladi.

**Ishga kelgan xodimlar soni** bir taqvim kunida faqat ishga kelgan xodimlardan iboratdir. Agar shu korxonaning ro'yxatida bo'lsa-da, u yoki bu sababga ko'ra ishga kelmasa, ishga kelgan xodimlar soniga qo'shilmaydi. Bu ko'rsatkichlar ham o'rtacha bir oy, bir chorak, yarim yil, to'qqiz oy va bir yilga hisoblanishi mumkin.

Bir oylik o'rtacha ishga kelgan xodimlar sonini topish uchun har ish kunida ishga kelgan xodimlar sonini qo'shib, shu oydagi ish kunlariga bo'lish kifoya. Agar ushbu ko'rsatkichni bir chorakka topish lozim bo'lsa, o'rtacha arifmetik usuldan foydalanib, uch oylik o'rtacha ishga kelgan xodimlar sonini qo'shib uchga bo'linadi.

Ushbu ko'rsatkich ham korxonaning mehnat unumdorligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Lekin shu ko'rsatkich bilan aniqlangan mehnat unumdorligi mehnat samaradorligining haqiqiy miqdorini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona ishining haqiqiy natijasini aniqlash uchun ushbu ko'rsatkich muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli har bir tadbirkor, ishbilarmon yoki menejer keltirilgan ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llarini, ularning hisoblanish usullarini, qo'llanilish doirasini, asil mohiyatini bilishlari lozim. Shundagina u korxonada band bo'lgan xodimlar soni, ularning o'zgarishi hamda ulardan samarali foydalanish yo'llarini to'g'ri tahlil qilishi mumkin.

**Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini aniqlash usuli.** Uni aniqlash usuli statistika fanida to'liq o'rganiladi. Ammo ushbu holatda o'rganilayotgan ko'rsatkichni aniqlash usulini keltirish obyektiv zaruratdan kelib chiqmoqda, chunki mehnat muammosi bilan shug'ullanadigan ayrim mutaxassislar, ayniqsa, shu soha bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar statistika fanini o'rganmagan bo'lishi mumkin. Ta'kidlanganidek, xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini (U) aniqlash uchun barcha xodimlarga ma'lum bir davrda to'g'ri keladigan odam (kishi) kunini shu davrdagi taqvim kunlariga (30, 90, 180, 360) bo'lamiz. Buning uchun quyidagi o'rtacha salmoqli statistik formuladan foydalanish mumkin:

$$U = \frac{\Sigma Ut}{\Sigma t},$$

bunda, $U$ — bir davr bo'lagiga to'g'ri keladigan xodimlarning kishi kunlari; $t$ — taqvim kunlari.

Ushbu formulaning amaliyotda qo'llanilishini aniqlash uchun quyidagi misolni keltirish mumkin. Masalan, tahlil qilinayotgan korxonada may oyining boshida 30 kishi ishlar edi. 10 may kuni 2 kishi o'z arizasiga binoan ishdan bo'shadi. 14 may kuni 3 kishi ishga qabul qilindi. 25 mayda yana bir kishi ishga qabul qilindi. Ushbu holatda may oyi uchun xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha sonini aniqlash lozim. U holda quyidagi jadvalni tuzish mumkin (10.12-jadval):

*10.12-jadval*

**Korxonada band bo'lgan xodimlar soni, ular ish va taqvim kunlari hajmining hisob-kitobi**

| May oyida hodimlar soni o'zgargan davrning oralig'i | Xodimlar soni, kishi | Davrdagi taqvim kunlari, kun | Kishi/kun hajmi, kunlarda (2-us. · 3-us) |
|---|---|---|---|
| 1—9 | 30 | 9 | 270 |
| 10—13 | 28 | 4 | 112 |
| 14—24 | 31 | 11 | 341 |
| 25—31 | 32 | 7 | 224 |
| Jami: | x | 31 | 947 |

Ushbu ko'rsatkichlardan xodimlarning may oyidagi o'rtacha ro'yxatdagi sonini aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkich ushbu tahlil qilayotgan korxonada 30,5 kishiga teng (947:31) ekan. Agar bunga ikkinchi chorak uchun xodimlarning o'rtacha sonini aniqlash lozim bo'lsa, xuddi shu usul bilan aprel va iyun oylariga aniqlangan ko'rsatkichni olamiz. Masalan, aprel oyida ushbu ko'rsatkichning miqdori 29 kishi bo'lsa, iyun oyida 32,5 kishiga teng deb, faraz qilamiz. U holda shu ikkinchi chorak uchun xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni 30,7 kishiga [(29+30,5+32,5):3] teng bo'ladi.

Xuddi shu tarzda ushbu ko'rsatkichning yillik miqdorini ham aniqlasa bo'ladi. Buning uchun quyidagi misolni keltirish mumkin. Ushbu korxonada xodimlarning o'rtacha soni birinchi chorakda 28 kishini, uchinchi chorakda 36,3 kishini, to'rtinchi chorakda 39,0 kishini tashkil qildi deb faraz qilamiz. U holda xodimlarning ro'yxatdagi yillik soni 33,5 kishini tashkil qiladi:

$$\frac{28,0 + 30,7 + 36,3 + 38,0}{4} = \frac{134}{4} = 33,5.$$

Ushbu ko'rsatkichlar statistik hisobotning 1-T-shakli — «Mehnat hisoboti»da ifodalaniladi. Ushbu hisobot oyda, chorakda, yarim yilda, to'qqiz oyda va bir yilda tuziladi hamda tegishli tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to'g'risida»gi Qonuniga binoan taqdim etiladi.

**Xodimlarning o'rtacha ish stajini aniqlash usuli.** Xodimlarning ish staji qancha katta bo'lsa shuncha yaxshi deb hisoblanadi, chunki uning tajribasi, malakasi ortadi. Shu tufayli ularning o'rtacha ish stajini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkich ikki usulda aniqlanadi.

Birinchisi, xodimlar kam bo'lgan joyda har bir xodimning ish stajini qo'shib (Ist) xodimlar soniga (X) bo'lish mumkin. Masalan, O'zbekiston Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan savdo, xizmat ko'rsatish hamda boshqa ishlab chiqarishdan tashqari sohalarda yiliga o'rta hisobda 5 nafargacha ish bilan band bo'lgan firmalar kichik biznes subyektlari bo'lib hisoblanadi. Bunday korxonalarda xodimlarning o'rtacha ish staji quyidagicha aniqlanishi mumkin (10.13-jadval).

*10.13-jadval*

**Xodimlarning o'rtacha ish stajini aniqlash**

| Ish staji (U) | Xodimlar soni (X) | Aniq ish staji (t) | Xodimlarning umumiy ish staji, kishi kun (xt) | Ushbu kichik korxonada xodimlarning o'rtacha ish staji |
|---|---|---|---|---|
| 1 yilgacha | 1 | 1 | 1 | $U = \frac{\Sigma x t}{x} = \frac{59}{5} = 11,8$ yil |
| 3 yilgacha | — | — | | |
| 5 yilgacha | 1 | 4 | 4 | |
| 10 yilgacha | — | — | | |
| 20 yilgacha | 2 | 16 | 32 | |
| 20 yildan ortiq | 1 | 22 | 22 | |
| Jami: | 5 | x | 59 | |

Agar xodimlar soni ko'p bo'lsa, aniq ish staji o'rniga har bir guruh bo'yicha uning o'rtacha miqdori aniqlanadi. U holda xodimlarning o'rtacha ish stajini aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish maqsadga muvofiqdir (10.14-jadval):

*10.14-jadval*

**Xodimlarning o'rtacha ish stajini aniqlash**

| Ish staji, yil | O'rtacha ish staji (t) | Xodimlar soni (x) | Xodimlarning umumiy ish staji, kishi/kun (xt) | Korxonada xodimlarning o'rtacha ish staji |
|---|---|---|---|---|
| 1 yilgacha | 0,5 | 4 | 2 | $U = \frac{669}{57} = 11,7$ yil |
| 1–3 | 2 | 4 | 8 | |
| 3–5 | 4 | 11 | 44 | |
| 5–10 | 7,5 | 14 | 105 | |
| 10–20 | 15 | 9 | 135 | |
| 20 va undan ko'p | 25 | 15 | 375 | |
| Jami: | — | 57 | 669 | |

Jadval ma'lumotlarida korxona xodimlarining o'rtacha ish staji 11,7 yilni tashkil qiladi. Shulardan 8 kishi yoki umumiy xodimlarning 14,0 %ning staji uch yilgacha. Ushbu korxonada xodimlarning turg'unlilik darajasi, ya'ni 3 yildan ko'p ishlagan xodimlarning ulushi 86,0 %ni tashkil qiladi.

$$\frac{(11 + 14 + 9 + 15) \cdot 100}{57} = 86,0\ \%.$$

Korxonada o'n yildan ortiq ishlayotganlar ulushi 45,6 %ni tashkil qilsa, [(9+15) · 100):57)], 20 yildan ortiq ishlaganlar, ya'ni o'ta tajribali xodimlar ulushi 26,3 %ni (15 : 57 · 100) tashkil qiladi. Bu umuman olganda, yaxshi ko'rsatkich. Lekin ushbu tahlilni yanada chuqurlashtirish uchun ularni bir qancha yillar bo'yicha solishtirish lozim.

### 10.4.2. Xodimlar soni o'zgarishining tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada band bo'lgan xodimlar sonini tahlil qilish iqtisodiy ishlarning eng muhim sohalaridan biridir. Chunki xodimlar soni, birinchidan, har bir korxonaning mehnat potensiali va malakali ish kuchi bilan ta'minlanganligini ifodalasa, ikkinchidan, katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Zero, har bir xodimning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli oladigan oylik maoshi, mehnat haqi va boshqa rag'batlantirish mexanizmlarining qanday tashkil qilinganligi bilan ifodalanadi. Oxir-oqibatda korxonaning ishi, uning samaradorligi shu yerdagi band bo'lgan xodimlar soniga, ularning malakasiga, mehnat qilish sharoiti va ular o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy muhitga bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan xodimlar sonini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Xodimlar sonini tahlil qilishning vazifasi uning ahamiyatidan kelib chiqadi. Bunga bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mavjud xodimlar sonini va ularning shtat jadvaliga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlash.
2. Xodimlarning malakasi, ma'lumoti bo'yicha tarkibini aniqlash va ularning o'zgarishiga baho berish.
3. Xodimlarning dinamikasini korxonaning asosiy ko'rsatkichlari bilan solishtirgan holda o'rganish va ularning o'zgarish tendensiyasiga baho berish.

4. Xodimlarning oboroti, qo'nimsizligi, mustahkamligi kabi ko'rsatkichlarni aniqlash, ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni belgilash kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish.

Tahlilning vazifasi bu bilan cheklanib qolmaydi, balki har safar tahlilning maqsadi va aniq vaziyatdan kelib chiqib, o'zgarib turishi tabiiy. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida vaziyatlar tez o'zgarib turishi mumkin. Bu o'zgarish jarayonini tahlil etib, tegishli qarorlar qabul qilgan holda, amaliy chora-tadbirlarni qo'llab, boshqarish va ish yuritish usullarini vaziyatga qarab moslab borish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, xodimlar sonini tahlil qilish kelajakda iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga aylanishi tabiiy. Xodimlar sonini tahlil qilish bevosita ularning umumiy sonini, tarkibini va farqini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.15-jadval):

*10.15-jadval*

**Korxonada band bo'lgan xodimlar soni va uning tarkibidagi o'zgarishlar**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | | Farqi (+,−) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | shtat jadvalida | haqiqatda | rejaga nisbatan | o'tgan yilga nisbatan |
| 1. | Korxonada band bo'lgan barcha xodimlar, kishi | 112 | 108 | 121 | + 13 | + 9 |
| 2. | Ishlab chiqarish bilan band bo'lgan asosiy xodimlar, kishi | 104 | 102 | 109 | + 7 | + 5 |
| 3. | Asosiy xodimlarning umumiy xodimlardagi ulushi, % (2q : 1q · 100) | 92,9 | 94,4 | 90,1 | − 4,3 | − 2,8 |

Jadval ma'lumotlarida xodimlar soni hisobot yilida rejaga va o'tgan yilga nisbatan, mos ravishda 13 va 9 kishiga ko'paygan. Shu bilan birga asosiy xodimlar soni ham ko'paygan. Bu ko'rsatkich rejaga nisbatan 7 kishini tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilga nisbatan 5 kishiga ko'paygan. Ammo asosiy xodimlarning ulushi o'tgan yildagi 92,9 %dan hisobot yilida 90,1 %gacha, ya'ni 2,8 % bandga kamaygan. Asosiy xodimlar ulushini hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan ko'paytirib 94,4 %ga yetkazish ko'zda tutilgan edi. Ammo hisobot yilida, ta'kidlanganidek, bu ko'rsatkich 90,1 %ni tashkil qildi va uning miqdori 4,3 %ga kamaydi. Bunday holatni bozor iqtisodiyoti sharoitida oqlash qiyin. Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar ulushining ko'payishi maqsadga muvofiq.

Agar ushbu ko'rsatkichlarning dinamikasini o'rganadigan bo'lsak, korxonaning barcha xodimlari 108,0 % (121 : 112 · 100) ga ortgan bir paytda, asosiy xodimlar soni atigi 104,8 % (109 : 104 · 100) ko'paygan. Asosiy xodimlarning o'sish sur'ati umumiy xodimlar o'sish sur'atiga nisbatan kam. Bu ko'rsatkich 0,97 koeffitsiyentni (104,8 : 108,0) tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu ko'rsatkichning miqdori birdan katta bo'lganda natijani ijobiy baholash mumkin edi.

Tahlilning navbatdagi bosqichida xodimlar soni asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyasini aniqlash lozim. Bu esa ularning dinamikasini tahlil qilishni taqozo qiladi. Xodimlar sonining dinamikasini aniqlashda hajm ko'rsatkichlari, foyda kabi ko'rsatkichlar dinamikasi bilan solishtirgan holda tahlil qilish lozim. Bu uchun quyidagicha jadval tuziladi (10.16-jadval):

*10.16-jadval*

**Xodimlar soni, mahsulot hajmi va foyda ko'rsatkichlarining 1998–2001-yillardagi dinamikasi**

| Yillar | Xodimlar soni | | Mahsulot hajmi | | Sof foyda | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | kishi | o'zgarish sur'ati,% | summasi, ming so'm | o'zgarish sur'ati,% | summasi, ming so'm | o'zgarish sur'ati,% |
| 1998 | 96 | 100,0 | 4291,2 | 100,0 | 350,7 | 100,0 |
| 1999 | 103 | 107,3 | 4334,8 | 101,0 | 359,4 | 102,5 |
| 2000 | 112 | 116,7 | 4583,3 | 106,8 | 368,0 | 104,9 |
| 2001 | 121 | 126,0 | 5694,5 | 132,7 | 496,2 | 141,5 |

Xodimlar soni shu to'rt yil mobaynida 126,0 %ga o'sgan. Ammo mahsulot hajmi va foydaning o'sish sur'ati shu yillarda xodimlar soniga nisbatan yuqori. Masalan, mahsulot hajmi shu to'rt yilda 32,7 %ga ortgan bo'lsa, korxonaning sof foydasi 41,5 %ga ortgan. Bu ko'rsatkichlar mehnat samaradorligining o'sganligidan dalolat beradi. Buni aniq bilish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (10.17-jadval):

Mehnat unumdorligi ham, mehnat rentabelligi ham oldingi ikki yil, ya'ni 1999–2000-yillar mobaynida kamayib kelgan, ammo 2001-yilda 1998-yilga nisbatan o'sish sur'ati har ikki ko'rsatkich bo'yicha ham ortgan. Masalan, mehnat unumdorligi 1998-yilda 44,7 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2000-yilda atigi 40,9 ming so'mga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich shu uch yilda 8,5 % kamaydi (100,0–91,5). Mehnat rentabelligida ham xuddi shunday holatni

*10.17-jadval*

**Mehnat unumdorligi va rentabelligining o'zgarish dinamikasi**

| Yillar | Mehnat unumdorligi (4u : 2u) | | Mehnat rentabelligi (6u : 2u) | |
|---|---|---|---|---|
| | summasi, ming so'm | o'zgarish sur'ati, % | 1 xodimga to'g'ri keladigan foyda, so'm | o'zgarish sur'ati, % |
| 1998 | 44,7 | 100,0 | 3653 | 100,0 |
| 1999 | 42,1 | 94,2 | 3489 | 95,5 |
| 2000 | 40,9 | 91,5 | 3285 | 89,9 |
| 2001 | 47,1 | 105,4 | 4101 | 112,3 |

ko'rish mumkin. Uning miqdori 1995-yildagi 3653 so'mdan 2000-yilda 3285 so'mgacha yoki 10,1 % (100,0–89,9) kamaydi. Lekin 2001-yilda shu ikki ko'rsatkich bo'yicha ham o'sish sur'ati keskin ortdi. 2001-yilda 2000-yilga nisbatan mehnat unumdorligi 105,4 %ni tashkil qilgan bo'lsa, mehnat rentabelligi 112,3 %ni tashkil etadi. Korxonada 2001-yildan boshlab ko'rsatkichlar bo'yicha o'sishga erishildi. Demak, bu iqtisodiyotda yaxshilanish, o'nglanish jarayoni boshlanganligidan dalolat berib turibdi.

Xodimlar sonining o'zgarishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, balki ish hajmining o'zgarishi xodimlar sonining miqdoriga katta ta'sir qiladi, ya'ni ish hajmining qisqarishi xodimlar sonini qisqartirsa, uning kengayishi xodimlar sonini ko'paytiradi. Shu tufayli xodimlar soni o'zgarishini ish hajmi o'zgarishiga qay darajada bog'liqligini ifoda etish lozim. Bu uchun xodimlar sonining nisbiy farqini aniqlash kifoya. Bu quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\Delta X_{nis} = X_x - (X_r \cdot \Delta Q_{\%}),$$

bunda, $\Delta X_{nis}$ — xodimlar sonining nisbiy farqi; $X_h$ — xodimlarning haqiqiy soni; $X_r$ — xodimlarning rejadagi soni; $\Delta Q_{\%}$ — mahsulot hajmi o'zgarish sur'ati.

Ushbu usulni amaliy ma'lumotlarni qo'llab aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.18-jadval). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xodimlar soni hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan ortgan. Umumiy xodimlar mutlaq farqi bo'yicha 9 kishiga, asosiy xodimlar 5 kishiga ko'paygan. Ammo ularning ko'payishini ma'lum darajada oqlash mumkin, chunki xodimlarning nisbiy farqi ancha

*10.18-jadval*

**Korxonada band bo'lgan xodimlar sonining nisbiy farqini aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | O'zgarish sur'ati, % | Xodimlarning mahsulot o'zgarishi bilan hisoblangan rejadagi miqdori, kishi | Farqi (+,–) | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | mutlaq | nisbiy |
| 1. | Mahsulot hajmi, ming so'm | 4583,3 | 5694,5 | 124,2 | x | 1111,2 | x |
| 2. | Korxonada band bo'lgan barcha xodimlar soni, kishi | 112 | 121 | 108,0 | 139 | + 9 | – 18 |
| 3. | Ishlab chiqarish bilan band bo'lgan asosiy xodimlar soni, kishi | 104 | 109 | 104,8 | 129 | + 5 | – 20 |

kamayganlikdan dalolat beradi. Agar xodimlar ham mahsulot hajmiga mos ravishda ko'payganda edi, uning umumiy rejadagi miqdori 139 taga (112 · 124,2), asosiy xodimlarning esa 129 taga (104 · 124,2) yetgan bo'lar edi. U holda haqiqiy ishlayotganlar soni bu raqamdan ancha past ekanligini ko'ramiz. Xodimlarning nisbiy farqi barchasi bo'yicha 18 kishiga, asosiy ishlab chiqarish bilan band bo'lganlari bo'yicha esa 20 kishiga kam. Demak, to'liq xulosa qilish uchun xodimlarning o'zgarishini aniqlashda mutlaq ko'rsatkichlar bilan birga nisbiy ko'rsatkichlarni ham aniqlash lozim. Shundagina bu boradagi asosiy ko'rsatkichlar haqida to'g'ri va to'liq xulosaga kelinadi.

### 10.4.3. Qo'shimcha ish o'rinlarni ochishning samaradorligi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida **qo'shimcha ish o'rinlarini ochish** muhim ahamiyatga ega. Bu, birinchidan, ishsiz yurganlarni ish bilan ta'minlash imkonini bersa, ikkinchidan qo'shimcha mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, aholini mahsulot (ish, xizmat) bilan ta'minlaydi.

Tahlil jarayonida qo'shimcha ish o'rinlari ochish bilan qancha ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishganlikni aniqlash lozim. Bu ko'rsatkichni korxona, hudud, tuman, viloyat, mamlakat miqyosida ham aniqlash mumkin. Masalan, bir tadbirkor o'z faoliyatini

kengaytirish maqsadida ishlab topgan ortiqcha mablag'ini jalb qilib qo'shimcha ish o'rnini ochishga qaror qildi. Bu bo'yicha tuzilgan biznes-rejada hisob-kitob qilinganda 15 ta yangi ish o'rnini ochish mumkinligi aniqlandi. Bu tadbirning ijtimoiy samarasi shundaki, u 15 kishini ishga joylashtirish imkonini berdi. Uning iqtisodiy samarasi ham mavjud. Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$IO'is = Yaio' \cdot Mu_x,$$

bunda, *IUis* — yangi ochilgan o'rinning iqtisodiy samarasi; *Yaio'* — yangi ish o'rnining soni; $Mu_x$ — shu korxonada ishlayotgan xodimlar mehnat unumdorligining haqiqiy miqdori.

Faraz qilamiz, korxonada mehnat unumdorligining bir yillik haqiqiy darajasi 100,0 ming so'mni tashkil qiladi. U holda ushbu korxona qo'shimcha ish o'rnini tashkil qilib yana qo'shimcha 1500,0 ming so'mlik (15 · 100,0) mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa aholini yana shuncha qo'shimcha mahsulot bilan ta'minladi, degan gap. Agar uning mahsuloti xalqaro bozorda sotiladigan bo'lsa, davlatimizga shunga teng bo'lgan qo'shimcha chet el valutasini yoki eng zarur mahsulotni (texnologiyani) olib kelish imkoniyati yaratiladi.

Xuddi shunday hisob-kitobni bir chorakka, bir oyga va bir tuman, viloyat va mamlakat miqyosida ham hisoblash mumkin. Masalan, bir tumanda 2000 kishilik yangi ish o'rni ochildi, deb faraz qilamiz. Uning har biri bir yilda o'rtacha 60,0 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarsa, shu tumanda qo'shimcha 120,0 million so'mlik (2000 · 60,0) mahsulot yaratiladi. Eng muhimi 2000 kishi tumanda ish bilan ta'minlanadi. Mahsulotning ko'p ishlab chiqarilishi, ish bilan ta'minlanganlikning ortishi evaziga aholining farovonligi o'sadi. Chunki shu ikki ming kishi oilasiga har oyda qo'shimcha maosh olib kelish imkoniyatiga ega bo'ladi.

## 10.5. Ish vaqti va undan foydalanishning tahlili

### 10.5.1. Ish vaqti tushunchasi

**Ish vaqti** — xodimning o'z vazifasini bajarishi lozim bo'lgan vaqti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 11-bobi ish vaqtiga bag'ishlangan. Bu masala ushbu kodeksning 114—115-moddalarida o'z ifodasini topgan. Xodim uchun ish vaqtining normal muddati O'zbekistonda bir haftada 40 soatdan

ortiq bo'lmaslik kerak, deb belgilangan. Bunda olti kunlik ish haftasida har kuniga ishning muddati 7 soatdan, besh kunlik ish haftasida esa 8 soatdan ortib ketmasligi nazarda tutilgan.

Ish vaqti quyidagi kishilar uchun qisqartirilgan holda belgilanadi:

— o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarga;

— 1 va 2 guruh nogironi bo'lgan xodimlarga;

— noqulay mehnat sharoitida band bo'lgan xodimlarga;

— alohida turga ega bo'lgan ishlardagi xodimlarga.

16—18 yoshgacha bo'lgan xodimlarga ish vaqtining muddati haftasiga 36 soatdan, 15—16 yoshgacha bo'lgan shaxslarga, ta'til davrida ishlayotgan 14—16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga esa haftasiga 24 soatdan qilib belgilanadi.

Birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga mehnat haqi kamaytirilmagan holda ish vaqti haftasiga 36 soat qilib belgilangan. Noqulay mehnat sharoitida ishlayotgan, xususan, mehnat jarayonida sog'lig'iga fizika, kimyo, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta'sir etadigan xodimlar uchun haftasiga 36 soatdan oshmaydigan muddat belgilangan. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ish vaqtining muddati chegarasi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi.

Alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlarga yuqori darajadagi his-hayajon, aqliy zo'riqish, asablanish bilan bog'liq ishlarda ishlaydigan shaxslar kiradi. Bularga tibbiyot xodimlari, pedagoglar va boshqa shunga tenglashtiriladigan xodimlarni kiritish mumkin. Bunday xodimlarga ham ish vaqti haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qilib belgilangan (118-modda). Bunday xodimlarning ro'yxati va aniq ish vaqti respublika hukumati tomonidan belgilanadi. Tomonlar kelishilgan holda qisqartirilgan ish vaqtini ham belgilash mumkin.

**Tungi vaqtdagi ishning** muddati bir soatga, ish haftasi shunga muvofiq ravishda qisqaradi. Soat $22^{00}$ dan to soat $6^{00}$ gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt deb hisoblanadi. Xodimlar ish vaqtidan tashqari ishlarga ham jalb qilinishi mumkin. Ish vaqtidan tashqari ish deb xodim uchun belgilangan kundalik ish (smena) muddatidan tashqari bajarilgan ishga aytiladi. Bunga dam olish va bayram kunlari kiradi. Bu kunlarda ishlagan xodimlarga kamida ikki hissa ish haqi to'lanadi. Ish vaqtidan tashqari ishning muddati har bir xodim uchun surunkasiga ikki kun davomida 4 soatdan va yiliga 20 soatdan ortiq bo'lmasligi lozim.

Ko'rinib turibdiki, ish vaqti oldingi davrlarga nisbatan haftasiga 1 soatga qisqartirilgan, shuningdek, ba'zi xodimlarga qisqartirilgan

ish kuni joriy qilinib, ularning mehnati muhofaza qilingan. Belgilangan ish vaqtidan ortiqcha ishlaganlik uchun unga to'lanadigan haq ham ko'paytirilgan. Demak, O'zbekistonda ish vaqti va undan foydalanishda inson manfaatlari ko'zda tutilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish vaqtidan samarali foydalanishni taqozo qiladi. Bu uchun korxonaning ish vaqti hajmini, aniqlash va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Korxonaning ish vaqti hajmi deb barcha xodimlarning bir yillik ish kunida bajarishi lozim bo'lgan ish soatlari yig'indisiga aytiladi. Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichni chuqur o'rganish lozim, chunki har bir daqiqa korxona va jamiyat uchun qimmatlidir.

### 10.5.2. Ish vaqti hajmining tahlili

Tahlil qilish uchun ish vaqtining umumiy hajmini (UXIV) aniqlab olish lozim. Ushbu ko'rsatkich barcha xodimlar sonini (X) har bir xodimning o'rtacha ishlagan kunlari (IK) va bir kundagi ish vaqti (Vx) muddatiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Bu uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$UXIV = X \cdot IK \cdot Vx. \qquad (10.1)$$

Ish vaqti hajmini bevosita asosiy ish bilan band bo'lgan xodimlar bo'yicha ham aniqlash mumkin. Asosiy ish bilan band bo'lgan xodimlarni (AX) aniqlash uchun barcha xodimlar sonidan (X) boshqaruvda band bo'lgan xodimlar va xizmatchilar (BX) ayriladi.

$$AX = X - BX. \qquad (10.2)$$

Ushbu xodimlar ish vaqti hajmini ham barcha xodimlar ish vaqti hajmi singari aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkich asosiy ishda band bo'lgan xodimlarning mehnat unumdorligini aniqlashda, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Ish vaqti hajmining tahlili ushbu ko'rsatkichlar farqini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun 10.19-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada ish vaqti umumiy hajmining o'sish sur'ati 112,4 %ni tashkil qilgan. Asosiy xodimlar bo'yicha esa ushbu ko'rsatkich 106,9 %dir. Bunga o'z-o'zidan erishilgan emas. Eng avvalo, umumiy xodimlar soni o'tgan yilga nisbatan 9 kishiga yoki 108 %ga o'sgan. Bir xodimning o'rtacha ish kuni ham mos ravishda, 5 kishi va 104,8 %ni tashkil qiladi. Bu xodimlarning har

*10.19-jadval*

**Korxona ish vaqti hajmining hisob davrida o'zgarishini aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Barcha xodimlarning yillik o'rtacha soni, kishi | 112 | 121 | + 9 | 108,0 |
| 2. | Shu jumladan, asosiy xodimlar, kishi | 104 | 109 | + 5 | 104,8 |
| 2.1. | Asosiy xodimlarning umumiy xodimlardagi ulushi, % | 92,86 | 90,08 | − 2,78 | 97,0 |
| 3. | Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kuni, kun (besh kunlik ish haftasida) | 232 | 238 | + 6 | 102,6 |
| 4. | Asosiy xodimning bir yillik o'rtacha ish kuni, kun | 234 | 237 | + 3 | 101,3 |
| 5. | Bir xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish vaqti, soat | 7,61 | 7,72 | + 0,11 | 101,4 |
| 6. | Bir asosiy xodimning bir kunlik o'rtacha ish vaqti, soat | 7,57 | 7,62 | + 0,04 | 100,7 |
| 7. | Ish vaqtining umumiy hajmi, soatda (1q · 3q · 5q) | 197738 | 222321 | + 24583 | 112,4 |
| 8. | Ish vaqti hajmining asosiy xodimlar bo'yicha hajmi, soatda (2q · 4q · 6q) | 184224 | 196847 | + 12623 | 106,9 |

biri o'tgan yilda o'rta hisobda 8 soatdan ishlashi kerak edi. Ammo 7,61 soat ishlagan. Demak, har bir kishi o'rta hisobda 36,6 minut ((60 · 61):100) me'yorga nisbatan kam ishlagan. Chunki xodimlar turli sabablarga ko'ra (kasalligi tufayli, mehnat intizomi buzilganligi kabilar), ishga kelmagan bo'lishi mumkin. Bu barcha xodimlar bo'yicha ish vaqtining yo'qolishiga olib keladi. O'tgan yilda ushbu ko'rsatkichning hajmi 10140 soatni (112 · 232 · 8,0) − 197738) tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yilida uning miqdori 8063 soatga (121 · 238 · 8,0) − 222321) teng bo'ldi. Tahlil qilinayotgan vaqtda ushbu korxona bo'yicha ish vaqti hajmining yo'qolishi 20,5 %ga (100 − (8063 · 100 : 10140)) kamaygan. Bu esa ish kuniga hisoblansa, o'tgan yilda 1268 kunni (10140:8) hisobot yilida 10008 kunni (8063:8) tashkil qiladi. Agar ushbu ko'rsatkichlarni odam

soniga aylantiradigan bo'lsa, o'tgan yilda 112 kishidan 11,3 kishi (1268:112) umuman ishga chiqmagan. Ushbu ko'rsatkichning miqdori hisobot yilida 8,3 kishini (1008 · 121) tashkil qiladi. Xuddi shunday tahlilni korxonada band bo'lgan asosiy xodimlar bo'yicha ham qilish mumkin.

Tahlilning navbatdagi bosqichida ish vaqti hajmining o'zgarishiga qanday omillar qay darajada ta'sir qilganligini aniqlash lozim. Buning uchun natija bilan omillar o'rtasidagi funksional bog'liqlikdan kelib chiqiladi. Agar shunday qiladigan bo'lsak, biz ushbu bobdagi 10.1-formulani asos qilib olamiz. Bu holda ish vaqti hajmiga quyidagi omillarning ta'sir qilishini ko'ramiz:

- barcha xodimlarning yillik o'rtacha soni (X);
- har bir xodimning shu bir yilda o'rtacha ishlagan kunlari (IK);
- har bir xodimning o'rtacha bir kunlik ish vaqti (Vx).

Natijaga, ya'ni ish vaqti hajmiga ushbu omillar ta'sirini aniqlash uchun tahlilning bir qancha an'anaviy usullaridan foydalanish mumkin. Biz tahlil uchun zanjirli almashtirish usulidan foydalanishni tavsiya qilamiz. U holda 10.1-formulaga asosan qaraydigan bo'lsak, natija o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha hisoblanadi.

1. Ish vaqti hajmining barcha xodimlarning o'rtacha yillik soni ta'sirida o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta UXIVx = (X^x \cdot IK^r \cdot V_x^r) - (X^r \cdot IK^r \cdot V_x^r). \qquad (10.3)$$

2. Ish vaqti hajmining ikkinchi omil, ya'ni har bir xodimning bir yilda o'rtacha ishlagan kunlari ta'sirida o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta UXIVik = (X^x \cdot IK^x \cdot V_x^r) - (X^x \cdot IK^r \cdot V_x^r). \qquad (10.4)$$

3. Har bir xodimning o'rtacha bir kunlik ish vaqti, ya'ni uchinchi omil evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta UXIVvx = (X^x \cdot IK^x \cdot V_x^x) - (X^x \cdot IK^x \cdot V_x^r). \qquad (10.5)$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta UXIV = \Delta UXIVx \pm \Delta UXIVik \pm \Delta UXIVvx. \qquad (10.6.)$$

Keltirilgan usulni 10.19-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi jadvalni tuzish mumkin (10.20-jadval):

*10.20-jadval*

**Korxona ish vaqti hajmiga alohida omillar ta'sirining hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,–) | Zanjirli almashtirishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III |
| 1. | Xodimlarning yillik o'rtacha soni, kishi | 112 | 121 | + 9 | 121 | 121 | 121 |
| 2. | Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kuni, kun | 232 | 238 | + 6 | 232 | 238 | 238 |
| 3. | Bir xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish vaqti, soat | 7,61 | 7,72 | + 0,11 | 7,61 | 7,61 | 7,72 |
| 4. | Ish vaqtining umumiy hajmi, ming soatda (1q · 2q · 3q) | 197,7 | 222,3 | + 24,6 | 213,6 | 219,2 | 22,3 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada ish vaqtining umumiy hajmi 24,6 ming soatga ortgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan.

1. Xodimlar o'rtacha yillik sonining 9 kishiga ortganligi korxona ish vaqti umumiy hajmini 15,9 ming soatga ko'paytirgan:

$$213,6 - 197,7 = + 15,9 \text{ ming soat.}$$

2. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kunining 6 kunga ortganligi korxona ish vaqti umumiy hajmini 5,6 ming soatga oshirgan:

$$219,2 - 213,6 = + 5,6 \text{ ming soat.}$$

3. Bir xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish vaqti umumiy hajmini 3,1 ming soatga oshirishga olib kelgan:

$$222,3 - 219,2 = + 3,1 \text{ ming soat.}$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$15,9 + 5,6 + 3,1 = 24,6 \text{ ming soat.}$$

Xuddi shunday tahlilni korxonada band bo'lgan asosiy xodimlar ish vaqti bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Ammo ularga ta'sir etuvchi omillar birmuncha o'zgaradi. Bunda umumiy

xodimlar o'rniga asosiy xodimlarga tegishli ko'rsatkichlar aniqlanadi. Asosiy xodimlar ish vaqti hajmiga ta'sir etuvchi omillar sonini 10.1-formulani o'zgartirish evaziga ko'paytirish mumkin. Masalan, asosiy ish bilan band bo'lgan xodimlar soni (AX) umumiy xodimlar sonini (X) asosiy xodimlar sonining ulushiga (Uax) ko'paytirish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$AX = X \cdot Uax. \qquad (10.7)$$

U holda asosiy xodimlar ish vaqtini (AXIV) quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$AXIV = X \cdot Uax \cdot IKax \cdot VXax, \qquad (10.8)$$

bunda, *IKax* — bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kunlari; *VXax* — bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish vaqti.

Ushbu formulaga asosiy ma'lumotlarni qo'llab, natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydigan bo'lsak, asosiy xodimlar ish vaqti hajmiga to'rt omil ta'sirini ko'ramiz. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- barcha xodimlarning o'rtacha yillik soni (X);
- asosiy xodimlarning umumiy xodimlardagi hissasi yoki ulushi (Uax);
- bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kunlari (IKax);
- bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish vaqti (VXax).

Ushbu omillarning natija bilan bog'liqligini aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.21-jadval):

*10.21-jadval*

**Korxonada asosiy xodimlar ish vaqti hajmining o'zgarishiga alohida omillar ta'sirini hisoblash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | Ko'r-satkich-lar indeksi | Natijaga ta'siri: ijobiy (+), salbiy (−) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Barcha xodimlarning yillik o'rtacha soni, kishi | 112 | 121 | + 9 | 1,0803 | + 14,8 |
| 2. | Asosiy xodimlarning umumiy xodimlardagi ulushi, % | 92,86 | 90,08 | − 2,78 | 0,9701 | − 6,0 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kunlari, kun | 234 | 237 | + 3 | 1,0128 | + 2,5 |
| 4. | Bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha bir kunlik o'rtacha ish vaqti, soat | 7,57 | 7,62 | + 0,04 | 1,0066 | + 1,3 |
| 5. | Asosiy xodimlar ish vaqtining umumiy hajmi, ming soat % (1q · 2q · 3q · 4q) | 184,2 | 196,8 | + 12,6 | 1,0684 | x |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, asosiy xodimlar ish vaqti umumiy hajmi 12,6 ming soatga ortgan. Ushbu o'zgarishga bir qancha omillar ta'sir qilgan. Ularning ta'sirini indeks usuli qo'llanilgan holda aniqlash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

1. Barcha xodimlar yillik o'rtacha sonining 9 kishiga o'zgarishi natijasi, ya'ni asosiy xodimlar ish vaqtining umumiy hajmini 14,8 ming soatga ko'paytirgan:

$$(184,6 \cdot 1,0803) - 184,2 = 199,0 - 184,2 = + 14,8 \text{ ming soat.}$$

2. Asosiy xodimlarning umumiy ishlovchilardagi ulushi 2,78 band %ga kamayganligi ularning shu vaqti hajmini 6,0 ming soatga kamaytirgan:

$$(184,2 \cdot 1,0803 \cdot 0,9701) - (184,2 \cdot 1,0803) = 193,0 - 199,0 = - 6,0 \text{ ming soat.}$$

3. Bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish kunining uch kunga ortganligi asosiy xodimlar ish vaqti hajmining ming soatga ko'payishiga olib kelgan:

$$(184,2 \cdot 1,0803 \cdot 0,9701 \cdot 1,0128) - (184,2 \cdot 1,0803 \cdot 0,9701) = + 2,5 \text{ ming soat.}$$

4. Bir asosiy xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish vaqtini 0,04 soatga ortganligi ular ish vaqti hajmini ming soatga ko'paytirgan:

$$(184,2 \cdot 1,0803 \cdot 0,9701 \cdot 1,0128 \cdot 1,0066) - (184,2 \cdot 1,0803 \cdot 0,9701 \cdot 1,0128 = 196,8 - 195,5 = + 1,3 \text{ ming soat.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$14,8 - 6,0 + 2,5 + 1,3 = 12,6 \text{ ming soat.}$$

## 10.6. Mehnat salohiyati va xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'yicha korxona reytingini aniqlash

### 10.6.1. Mehnat salohiyati va xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash yo'llari

Tahlilning asosiy va eng muhim vazifalaridan biri — har bir iqtisodiy kategoriya yoki jarayonni tegishli ko'rsatkichlar bilan baholash va uning aniqlanish yo'llarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Korxonaning mehnat samaradorligi bo'yicha reytingini aniqlash uchun faqat mehnat potensiali samaradorligi yetarli emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud potensialdan qanday foydalanayotganligi bilan cheklanib qolmasdan, balki u qancha xarajat sarflayotganligini ham hisobga olish lozim. Shu boisdan korxonaning mehnat bo'yicha reytingini aniqlash uchun mehnat potensiali samaradorlik ko'rsatkichlari bilan birga mehnat xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ham olish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnat haqi xarajatlari darajasi;
- bir so'm mehnat haqiga to'g'ri keladigan daromad;
- bir so'm mehnat haqiga to'g'ri keladigan foyda.

Bu ko'rsatkichlarni iqtisodiyotning barcha sohalari bo'yicha ham qo'llash mumkin. Biz bu yerda ularning aniqlanish va tahlil qilish yo'llarini savdo korxonalari misolida ko'rib chiqamiz. Savdo korxonalari mehnat potensiali va xarajatlari samaradorligini to'liq ifodalash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin:

1. Mehnat unumdorligi (natijaviyligi);
2. Mehnat potensiali daromadliligini;
3. Mehnat potensiali rentabelligi;
4. Tovar oborotining mehnat unumdorligi evaziga ortgan qismi;
5. Mehnat haqi xarajatlari darajasi;
6. Mehnat haqi daromadliligi (bir so'm mehnat haqiga to'g'ri keladigan daromadlar summasi);
7. Mehnat haqi rentabelligi (bir so'm mehnat haqiga to'g'ri keladigan foyda summasi).

**Tovar oborotining mehnat unumdorligi evaziga** ortgan qismini aniqlash uchun tahlilning nisbiy ko'rsatkichli usulidan foydalanish mumkin. U holda ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta T_{mu} = 100 - \frac{\Delta X \cdot 100}{\Delta T},$$

bunda, $\Delta T_{mu}$ — tovar oborotining mehnat unumdorligi ortganligi evaziga o'zgargan qismi, %; $\Delta X$ — xodimlar sonining o'sish sur'ati, %; $\Delta T$ — tovar oborotining o'sish sur'ati, %.

**Mehnat haqi xarajatlari darajasini** aniqlash uchun mehnat haqi summasini (MH) yuzga ko'paytirib tovar oborotining umumiy hajmiga (T) bo'linadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$D_{mx} = \frac{MH \cdot 100}{T}.$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori yuz so'm tovar oborotining necha so'mi mehnat haqiga ketishini ko'rsatadi. Masalan, ushbu ko'rsatkich hajmi haqiqatda 3,0 %ni tashkil qilsa, bu degani 100 so'mlik tovar oborotining 3 so'mi mehnat haqidan iborat ekanligidan dalolat beradi.

**Mehnat haqi daromadliligini (MHd)** hisoblash uchun daromadlar summasini (D) mehnat haqi summasiga bo'lish kifoya:

$$MHd = \frac{D}{MH}.$$

Ushbu ko'rsatkich bir so'm mehnat haqiga qancha daromad to'g'ri kelganligini ifodalaydi. Masalan, shu ko'rsatkichning miqdori 20 kelib chiqdi, deb faraz qilamiz. Bu degani bir so'm mehnat haqiga yigirma so'm daromad to'g'ri kelganligidan dalolatdir.

**Mehnat haqi rentabelligini (MHr)** aniqlash uchun sof foyda summasini (F) mehnat haqi (MH) summasiga bo'linadi:

$$MHr = \frac{F}{MH}.$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori bir so'm mehnat haqiga qancha foyda summasi to'g'ri kelganligini ifodalaydi. Masalan, ushbu ko'rsatkich hajmi 4 ga teng bo'ldi, deb faraz qilamiz. Bu degani bir so'm mehnat haqi summasiga 4 so'm foyda summasining to'g'ri

kelganligidan dalolat beradi. Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlarning haqiqiy miqdori reja va o'tgan davr miqdorlari bilan solishtiriladi, o'zgarish farqi summada hamda foizda aniqlanadi. Ammo bu bilan tahlilni but va mukammal deb bo'lmaydi. Shu tufayli, bozor iqtisodiyoti sharoitida ana shu ko'rsatkichlar bo'yicha korxonaning reytingini aniqlash lozim bo'ladi. Buning uchun esa ko'rsatkichlar tizimidan kompleks umumlashgan ko'rsatkichni aniqlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Korxonaning reytingini to'liq aniqlash uchun tizimdagi barcha ko'rsatkichlarni inobatga olish yaxshi natija beradi. Ammo biz korxonaning reytingini aniqlash usulini ko'rsatish maqsadida shu keltirilgan yetti ko'rsatkichning ba'zilarini olib hisoblash yo'llarini keltiramiz.

### 10.6.2. Mehnat salohiyati va xarajatlari samaradorligi bo'yicha korxona reytingini aniqlash metodologiyasi

Mehnat potensiali samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi jonli mehnatdan samarali foydalanishning hamma jihatlarini qamrab oladi. Ammo bu ko'rsatkichlar sonining ko'pligi va ularning har xil yo'nalishga egaligi mehnat samaradorligini real baholash hamda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha korxona reytingini aniqlash imkonini bermaydi. Shu tufayli, bu tizimga kiruvchi barcha ko'rsatkichlarni umumlashtiruvchi ko'rsatkichga ehtiyoj tug'iladi. Lekin bu ko'rsatkich hajmini mavjud ko'rsatkichlarni jamlash yo'li bilan aniqlab bo'lmaydi, chunki har bir ko'rsatkich mazmuni va o'lchov birligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ularni jamlash uchun ko'rsatkichlar tizimini solishtirma holatga keltirish lozim.

Alohida olingan ko'rsatkichlarni solishtiriladigan holatga keltirish uchun ularni bir xil o'lchov birligida ifodalash lozim, chunki mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar har xil o'lchovga ega bo'ladi. Shuning uchun ularni bir xil o'lchovga keltirish maqsadga muvofiqdir. Bunday holatga ko'rsatkichlarning bir xil nisbiy miqdorini aniqlash orqali erishish mumkin. Bu uchun har bir ko'rsatkichning etalon miqdorini aniqlab olish lozim. Bu ilmiy-ekspert yo'li bilan aniqlanadi. Ko'rsatkichlarning etalon miqdori sifatida tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning shu hududdagi o'rtacha miqdorini olishni tavsiya qilamiz. Ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdori doimo statistik haqqoniy va davr mobayniga nisbatan turg'un. Shuning uchun vaqt nuqtayi nazaridan hisoblangan ko'rsatkich, aniq iqtisodiy mazmunga ega bo'ladi.

Nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblashda har bir ko'rsatkichning o'lchovi va mohiyati bir xil emasligini inobatga olish lozim. Masalan, mehnat haqi xarajatining darajasi, tovar oborotiga nisbatan foiz hisobida ifodalanadi. Korxona bu ko'rsatkichning kamayishidan manfaatdor. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichini oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich so'mda ifodalanadi, korxona esa uning hajmi oshishidan manfaatdor. Shuning uchun bu ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni jihatdan ham bir xil o'lchovga keltirishimiz lozim. Buning uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir ko'rsatkichni nisbiy holatga (indeks, koeffitsiyent kabi) keltirishimiz lozim. Ko'rsatkichning miqdori ortsa, xo'jalik faoliyati natijasi ijobiy ifodalanishi mumkin. Bunday ko'rsatkichlar uchun nisbiy miqdorlarni hisoblashda quyidagi formula tavsiya etiladi:

$$Aij = \frac{Q\ ij}{Q\ eti},$$

bunda, $Aij$ — $i$ — ko'rsatkichning $j$ — obyektdagi nisbiy ko'rsatkichi; $Qij$ — $i$ — ko'rsatkichning $j$ — korxonadagi mutlaq miqdori; $Q\ eti$ — ko'rsatkichning etalon miqdori; $i$ — ko'rsatkichlar tartib soni (i = 1, p ); $j$ — obyektning tartib soni (j = 1,m).

Masalan, Jizzax viloyat matlubot aksiyadorlik jamiyatlari uyushmasida 2000-yilda savdo xodimlari mehnat unumdorligi o'rtacha 45,5 ming so'mni tashkil etgan. G'allaorol tuman aksiyadorlik jamiyatida bu ko'rsatkich 40,4 ming so'mga teng. Baxmal tuman aksiyadorlik jamiyatida esa 46,2 ming so'mni tashkil etgan. Bu holda mehnat unumdorligining nisbiy ko'rsatkichi quyidagicha bo'ladi:

$$\text{G'allaorol tuman aksiyadorlik jamiyatida} = \frac{40,4}{45,5} = 0,89.$$

$$\text{Baxmal tuman aksiyadorlik jamiyatida} = \frac{46,2}{45,5} = 1,06.$$

Ushbu usulning miqdori ortganligi korxona uchun ijobiy bo'lgan barcha ko'rsatkichlarga (MP daromadliligi, MP rentabelligi kabilarga) qo'llash mumkin. Ba'zi ko'rsatkichlar miqdorining oshishi xo'jalik faoliyati samaradorligi pasayishidan dalolat beradi. Masalan, muomala xarajatlari darajasi qancha ko'p bo'lsa, savdo korxonasi xo'jalik faoliyati uchun shuncha yomon.

Bunday holda ko'rsatkichlarning nisbiy miqdorlari quyidagi formula asosida hisoblashni tavsiya qilamiz:

$$Ajij = \frac{Qeti}{Qij}.$$

Masalan, Jizzax viloyat matlubot aksiyadorlik jamiyatlari uyushmasida 2000-yilda mehnat haqi xarajatlari darajasi tovar oborotiga nisbatan 2,47 %ni tashkil etgan. Bu G'allaorol tuman aksiyadorlik jamiyati bo'yicha 2,47 %ga, Baxmal tuman aksiyadorlik jamiyati bo'yicha 2,49 %ga teng. Bundan kelib chiqqan holda mehnat haqi xarajatlari darajasining nisbiy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{G'allaorol tuman aksiyadorlik jamiyatida} = \frac{2,47}{2,42} = 1,02.$$

$$\text{Baxmal tuman aksiyadorlik jamiyatida} = \frac{2,47}{2,49} = 0,99.$$

Ushbu ko'rsatkichlar tizimiga kiruvchi boshqa korxonalar bo'yicha ham ularning nisbiy miqdorlarni hisoblash mumkin. Bu hisob-kitoblardan so'ng barcha ko'rsatkichlar miqdori bir xil o'lchamga va solishtiriladigan yo'nalishga ega bo'ladi. Endi bu ko'rsatkichlarni qo'shish mumkin bo'ladi va kompleks ko'rsatkichni aniqlash imkoni tug'iladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$Ej = \sum_{i=1}^{n} Aij,$$

bunda, $Ej$ — $j$ — obyektda (korxonada) mehnat samaradorligining kompleks (umumlashgan) reyting ko'rsatkichi; $j$ — korxonalar tartib soni (j — 1,m).

Bu usulni Jizzax viloyat matlubot aksiyadorlik jamiyatlari uyushmasi misolida 2000-yil uchun ko'rib chiqamiz (10.22-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, birinchi ko'rsatkich, ya'ni mehnat unumdorligi bo'yicha oldingi o'rinni Jizzax tuman aksiyadorlik jamiyati egallab turibdi. Oxirgi o'rinni esa Sanzar aksiyadorlik jamiyati, ikkinchi ko'rsatkich mehnat unumdorligi evaziga tovar oboroti hajmi o'sishining hissasi bo'yicha — birinchi o'rin Baxmal tuman aksiyadorlik jamiyatiga berilishi mumkin. Ish haqi fondi darajasini qaraydigan bo'lsak, eng yaxshi ko'rsatkich

*10.22-jadval*

**Jizzax viloyat matlubot aksiyadorlik jamiyatlari uyushmasi tizimida savdo xodimlari mehnat samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimining 2000-yildagi holati**

| T/r | Tashkilotlar | Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Mehnat unumdorligi, ming so'm | Mehnat unumdorligi evaziga tovar oboroti hajmi o'sishining hissasi, % | Mehnat haqi xarajatlari darajasi, % | Bir savdo xodimiga to'g'ri keladigan foyda, ming so'm | 1 so'mlik ish haqi fondiga to'g'ri keladigan foyda, ming so'm |
| 1. | Arnasoy TAJ | 43,2 | 75,1 | 2,29 | 1,01 | 1,18 |
| 2. | Baxmal TAJ | 46,2 | 79,2 | 2,49 | 1,17 | 1,12 |
| 3. | Sanzar TAJ | 39,7 | 72,1 | 2,50 | 1,16 | 1,10 |
| 4. | G'allaorol TAJ | 40,4 | 74,0 | 2,42 | 1,14 | 1,17 |
| 5. | Lalmikor TAJ | 41,9 | 71,3 | 2,32 | 1,09 | 1,11 |
| 6. | Jizzax TAJ | 49,3 | 78,3 | 2,25 | 1,14 | 1,18 |
| 7. | Do'stlik TAJ | 46,3 | 69,1 | 2,48 | 1,17 | 1,11 |
| 8. | Zarbdor TAJ | 45,0 | 76,1 | 2,50 | 1,16 | 1,12 |
| 9. | Zomin TAJ | 45,5 | 76,1 | 2,13 | 1,14 | 1,15 |
| 10. | Mirzacho'l TAJ | 46,3 | 71,1 | 2,34 | 1,11 | 1,19 |
| 11. | Zafarobod TAJ | 47,1 | 73,4 | 2,57 | 1,18 | 1,20 |
| 12. | Paxtakor TAJ | 46,3 | 76,3 | 2,51 | 1,20 | 1,10 |
| 13. | Forish TAJ | 45,3 | 74,3 | 2,56 | 1,12 | 1,13 |
| Jami viloyat bo'yicha (shu hudud bo'yicha o'rtacha) | | 45,5 | 75,0 | 2,47 | 1,15 | 1,13 |

Zomin tuman aksiyadorlik jamiyatida, eng past ko'rsatkich esa Zafarobod tuman aksiyadorlik jamiyatida va hokazo. Besh ko'rsatkichga asosan aksiyador jamiyatlar reytingini aniqlab, ularga ilg'or yoki qoloq deb baho berish mumkin. Shu maqsadda bu ko'rsatkichlar tizimi asosida umumiy ko'rsatkichni hisoblash lozim. Mehnat samaradorligining yagona umumiy ko'rsatkichini hisoblash maqsadida mutlaq va ulush ko'rsatkichlar asosida ularning nisbiy miqdorini hisoblaymiz. Ko'rsatkichlarning nisbiy miqdorini hisoblashda 10.22-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, 10.23-jadvalni tuzamiz. Ko'rinib turibdiki, bu besh ko'rsatkichga asosan aksiyador jamiyatlar reytingini aniqlab, ularga ilg'or yoki qoloq deb baho

*10.23-jadval*

**Jizzax viloyat matlubot aksiyadorlik jamiyatlari uyushmasida savdo xodimlari mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari nisbiy miqdorining 2000-yildagi holati**

| T/p | $a_1$ | $a_2$ | $a_3$ | $a_4$ | $a_5$ | $\Sigma Ai$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | 0,95 | 0,95 | 1,08 | 0,88 | 1,04 | 4,90 |
| 2. | 1,02 | 1,06 | 0,99 | 1,02 | 0,99 | 5,08 |
| 3. | 0,87 | 0,96 | 0,99 | 1,01 | 0,97 | 4,80 |
| 4. | 0,89 | 0,99 | 1,02 | 0,99 | 1,04 | 4,93 |
| 5. | 0,92 | 0,95 | 1,06 | 0,95 | 0,98 | 4,86 |
| 6. | 1,08 | 1,04 | 1,10 | 0,99 | 1,04 | 5,25 |
| 7. | 1,02 | 0,92 | 0,99 | 1,02 | 0,98 | 4,93 |
| 8. | 0,99 | 1,01 | 0,99 | 1,01 | 0,99 | 4,99 |
| 9. | 1,00 | 1,01 | 1,16 | 0,99 | 1,02 | 5,18 |
| 10. | 1,02 | 0,95 | 1,06 | 0,96 | 1,05 | 5,04 |
| 11. | 1,04 | 0,98 | 0,98 | 0,03 | 1,06 | 5,07 |
| 12. | 1,02 | 1,02 | 0,98 | 1,04 | 0,97 | 5,03 |
| 13. | 1,00 | 0,99 | 0,96 | 0,97 | 1,00 | 4,92 |
| Jami | 1,0 | 1,0 | 1,0 | 1,0 | 1,0 | 5,0 |

berish mumkin. Shu maqsadda bu ko'rsatkichlar tizimi asosida umumiy ko'rsatkichni hisoblash lozim. Keltirilgan mehnat samaradorligini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarni mohiyati jihatidan teng deb faraz qilamiz, ya'ni uning mohiyatlilik koeffitsiyenti 1-ga tengdir, (Km=1).

Bu hisob-kitobdan so'ng, barcha ko'rsatkichlar bir xil ko'rinish va bir o'lchamga keltiriladi. Shuning uchun ularni endi qo'shish (jamlash) mumkin. Bu besh ko'rsatkichning nisbiy miqdorini jamlab, mehnat samaradorligining umumiy ko'rsatkichini hisoblaymiz. Mehnat samaradorligining kompleks ko'rsatkichi asosida ularning reytingi jamlanib, har birini ilg'or yoki qoloq korxona qatoriga kiritish mumkin bo'ladi. Masalan, 13 aksiyadorlik jamiyatidan, eng yaxshi natijaga erishgani Jizzax tuman aksiyadorlik jamiyati bo'lib, uning reytingi 5,25 koeffitsiyentlar yig'indisiga teng, ikkinchi o'rinda Zomin tuman aksiyadorlik jamiyati 5,18, uchinchi o'rinda Baxmal tuman aksiyadorlik jamiyati 5,08 va hokazo. Eng oxirgi o'rinda Sanzar aksiyadorlik jamiyati. Uning reytingi 4,80 koeffitsiyentlar yig'indisiga teng.

Kompleks reyting ko'rsatkichi alohida ko'rsatkichlar nisbiy miqdorining jamlangan hajmidan iborat. Ushbu ko'rsatkich mehnat

samaradorligining hisobot yilidagi holatini oldingi davr ko'rsatkichlari miqdori bilan solishtirib o'zgarish sur'atlarini ham aniqlash imkonini beradi. Umumlashtiruvchi ko'rsatkichning iqtisodiy mohiyatini ochib berish uchun samaradorlik koeffitsiyentini (Kej) aniqlash lozim. Agar bu ko'rsatkich birga teng bo'lsa, unda bu korxonada mehnat samaradorligi, ijtimoiy zaruriy xarajatlar darajasiga mos keladi. Agarda uning miqdori birdan ko'p bo'lsa, unda mehnat samaradorligi mazkur korxonada yuqori va aksincha. Mazkur ko'rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formulani taklif etamiz:

$$Kej = \frac{1}{\sum_{i=1}^{n} mi} \qquad Ej = \frac{1}{\sum_{i=1}^{n} mi} \cdot \sum_{i=1}^{n} Aij,$$

bunda, $\sum_{i=1}^{n} mi$ — ko'rsatkichning etalonda ifodalangan nisbiy miqdorining i =1 soni (m=1). Ko'rsatkichlar tizimiga necha ko'rsatkich kiritilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich miqdori shunga teng bo'ladi.

10.24-jadval ma'lumotlari asosida, aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha mehnat samaradorligi koeffitsiyentini hisoblaymiz. Masalan, Arnasoy tuman aksiyadorlik jamiyatida mehnat samaradorligi koeffitsiyenti 0,980 (4,90 : 5,0)ni, Baxmal tuman aksiyadorlik jamiyatida — 1,016 (5,08 : 5,0)ni, Sanzar aksiyadorlik jamiyatida — 0,96 (4,80 : 5)ni va hokazo miqdorlarni tashkil etadi. Shu tarzda boshqa aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha ham hisoblab, natijani 10.24-jadvalda ifodalash mumkin.

*10.24-jadval*

**Jizzax viloyat matlubot aksiyadorlik jamiyatlarida mehnat samaradorligi reytingini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichining 2000-yilgi hisobi**

| T/r | Tashkilotlar | Mehnat samaradorligi reytingining kompleks ko'rsakichi | Mehnat samaradorligi koeffitsiyenti | Mehnat samaradorligi reytingining kompleks ko'rsatkichiga asosan egallagan o'rni |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Arnasoy TAJ | 4,90 | 0,980 | 11 |
| 2. | Baxmal TAJ | 5,08 | 1,016 | 3 |
| 3. | Sanzar TAJ | 4,80 | 0,960 | 13 |
| 4. | G'allaorol TAJ | 4,93 | 0,986 | 8–9 |
| 5. | Lalmikor TAJ | 4,86 | 0,972 | 12 |
| 6. | Jizzax TAJ | 5,25 | 1,050 | 1 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7. | Do'stlik TAJ | 4,93 | 0,986 | 8–9 |
| 8. | Zarbdor TAJ | 4,99 | 0,998 | 7 |
| 9. | Zomin TAJ | 5,18 | 1,036 | 2 |
| 10. | Mirzacho'l TAJ | 5,04 | 1,008 | 5 |
| 11. | Oktabr TAJ | 5,07 | 1,014 | 4 |
| 12. | Paxtakor TAJ | 5,03 | 1,006 | 6 |
| 13. | Forish TAJ | 4,92 | 0,984 | 10 |
| Viloyat bo'yicha jami | | 5,0 | 1,0 | x |

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 13 aksiyadorlik jamiyatidan 6 tasida mehnat samaradorligi yuqori, chunki bu tashkilotlarda mehnat samaradorligi bo'yicha reyting koeffitsiyenti birdan yuqori. Uch aksiyadorlik jamiyatida mehnat samaradorligi namunaviy (etalon) atrofida, chunki bu tashkilotlarda samaradorlik koeffitsiyenti birga yaqin. Qolgan tashkilotlarda esa mehnat samaradorligi past hisoblanadi. Hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatdiki, Jizzax viloyat matlubot aksiyadorlik jamiyatlari uyushmasi tizimida, mehnat samaradorligi ko'rsatkichi bo'yicha birinchi o'rinda Jizzax tuman aksiyadorlik jamiyati turadi, ikkinchi o'rinda Zomin tuman aksiyadorlik jamiyati va h.k. Yuqorida bayon etilgan kompleks ko'rsatkichlar orqali reyting usulini samaradorlikning boshqa ko'rsatkichlarini aniqlashda ham qo'llash mumkin. Bu usul yordamida nafaqat ilg'or va qoloq tashkilotlarni aniqlash, balki samaradorlikni oshirishning yangi zaxiralarini izlab topish ham mumkin.

# *11-bob.* KORXONALAR MOLIYAVIY SALOHIYATI TAHLILI

## 11.1. Moliyaviy salohiyat tushunchasi va tarkibi

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning asosiy tamoyillaridan biri iqtisodiyotni erkinlashtirishdir. Chunki bozor mexanizmi birinchi galda iqtisodiyotni erkinlashtirishni talab qiladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish uchun, eng avvalo, davlat mulkini xususiylashtirish lozim. Bu jarayon O'zbekistonda 1992-yilda boshlanib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni bugungi kungacha o'tgan davrda to'rt bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich 1992—1994-yillar, ikkinchi bosqich 1995—1996-yillar, 1997-yil uchinchi bosqich, 1998—2000-yillar esa xususiylashtirishning to'rtinchi bosqichi sanaladi. Bu bosqichlarning mohiyati shundaki, iqtisodiyot asta-sekinlik bilan erkinlashib, davlat tasarrufidan xususiy va jamoa sektoriga o'tmoqda, iqtisodiyotga davlatning aralashuvi barham topmoqda. Natijada, erkin raqobat muhiti qaror topishi uchun zamin yaratilayotir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni ketayotgan bir paytda har bir korxonaning mustaqilligi ta'minlanishi bilan birga, uning mas'uliyati ham oshyapti. Bunday sharoitda har bir korxona o'zining mablag'iga, o'zining boshqarish usuliga, mulkiga, hamjihat mehnat jamoasiga, mulk egalariga ega bo'lishi kerak. Bu barcha mavjud mulkning asosiy manbai korxonaning moliyaviy salohiyatini tashkil qiladi.

Moliyaviy salohiyat har bir xo'jalik yurituvchi subyektda yetarli bo'lishi mumkin. Ular ikki manbadan tarkib topadi. Birinchidan, har bir korxonaning o'z mablag'i bo'lsa, ikkinchidan o'z faoliyatini ta'minlash uchun chetdan ham qarz, ssuda tariqasida jalb qilingan mablag'laridir.

**Korxonaning moliyaviy salohiyati** deb uning faoliyatini to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy mablag'lar majmuasiga aytiladi.

Har qanday firma yoki korxona faoliyat yuritish uchun, eng avvalo, mehnat vositalari, mehnat predmetlari va jonli mehnat sohibiga (xodimlarga) ega bo'lishi shart. Bu esa o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buni tashkil qilish uchun moliyaviy mablag'lar zarur. Masalan, biror shaxs kichik biznes bilan shug'ullanishga qaror qildi, deb faraz qilamiz. U kichik non zavodini qurishni mo'ljallaydi. Zavodni tashkil qilish uchun unga 700,0 ming so'm, un va boshqa xomashyo hamda yordamchi materiallar xarid qilish uchun 100,0 ming so'm, xodimlarni yollab zavodini ishga tushirish uchun 50,0 ming so'm kerak bo'ldi, deb shartli ravishda qabul qilamiz. Sohibkorga ushbu holda 850,0 ming so'm pul kerak. Ammo unda mavjud bo'lgan pul mablag'i 600,0 ming so'mni tashkil qiladi. Demak, unga yana 250,0 ming so'm qo'shimcha pul lozim. Uni qayerdan oladi? Buning manbalari hozirgi sharoitda turli bo'lishi mumkin.

Sohibkor yetishmagan pulni bankdan uzoq muddatli qarz shaklida yoki «Biznes-fond»dan kredit, yuridik va jismoniy shaxslardan investitsiya yoki xorijiy firma va davlatlardan qo'shma korxona shaklida olishi va o'z faoliyatiga jalb qilishi mumkin. Yetishmagan mablag'ning qaysi manbadan olinishidan qat'iy nazar, u chetdan jalb qilingan mablag' hisoblanadi.

Demak, sohibkor o'z faoliyatini yurgizishi uchun ma'lum darajada moliyaviy salohiyatga ega bo'lishi kerak. Bu salohiyat iqtisodiy mazmuni jihatdan o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'lardan iborat ekanligi ayon bo'ldi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar moliyaviy potensialining tarkibi va tuzilishi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Chunki rejali iqtisodiyot sharoitida korxonaning barcha moliyaviy salohiyati davlat tomonidan shakllantirilar edi. Hatto banklardan olingan kreditlar ham davlatniki edi. Vaziyat tubdan o'zgaradi. Davlatning moliyaviy ta'minoti barham topmoqda. Endigi moliyaviy salohiyatning egasi bor. U «bizniki»dan «meniki» degan tushuncha bilan almashtirildi. Bunday sharoitda korxona uchun moliyaviy salohiyatning shakllanishi ham, uning ishlatilishi va taqsimlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli bu salohiyatni har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha baholash, ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda.

Ammo shuni ta'kidlash joizki, korxona moliyaviy salohiyati nazariy va amaliy jihatdan ham o'rganilgan, lekin u o'ta dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi. Bunga ehtiyoj, ayniqsa, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida yanada kuchaymoqda. Chunki har bir korxona o'zining moliyaviy salohiyatidan qanday foydalanayotganligini bilish uchun uni doimiy ravishda tahlil qilib turmog'i lozim. Korxonaning moliyaviy salohiyati deganda, soddaroq qilib ifodalansa, moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanish manbalari majmuasini tushunish mumkin. Bu ta'minlanish o'z o'rnida ta'kidlanganidek, ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. O'z mablag'lari.
2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar.

Yana bir misolga murojaat qilamiz. Ishbilarmonning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun 1,0 million so'mi bor, deb faraz qilamiz. Unga faoliyatni boshlash uchun asosiy va aylanma mablag'larni xarid qilishga, xodimlarni yollashga 1,5 million so'm darkor. Demak, u chetdan yana 0,5 million so'm qarz olishi lozim. Bu ta'kidlanganidek, chetdan jalb qilingan mablag'lar, deb aytiladi.

Birinchi qo'yilgan o'z mablag'i, ya'ni 1,0 million so'm iqtisodiy mazmuni bo'yicha qo'yilgan kapitalni tashkil qiladi. Lekin korxona o'z faoliyati davomida foyda olib, bir qismini o'zining nizom jamg'armasiga o'tkazib boradi. Bunday mablag'lar to'plangan kapital deb aytiladi. Demak, korxonaning o'z mablag'i ikki guruhdan, ya'ni qo'yilgan va to'plangan kapitaldan iborat. Chetdan jalb qilingan mablag'lar esa, o'z navbatida, qaytarilish muddatiga qarab ikki guruhga bo'linadi: *uzoq va qisqa muddatli.* Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga 1 yilgacha olingan qarzlar va ssudalar, uzoq muddatlilariga 1 yildan ortiq muddatga olingan qarzlar va ssudalar kiradi. Bu 11.1-chizmada o'z aksini topgan.




*11.1-chizma.* Korxonaning moliyaviy salohiyati tarkibi.

Korxona moliyaviy salohiyatining tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi bo'lmog'i lozim. Chunki har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy salohiyatini o'rganmay turib, uning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga odilona va to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Bundan tashqari, boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usulidan iqtisodiy jihatdan boshqaruv usuliga o'tilishi ham har bir korxona faoliyatini chuqur va har tomonlama, atroflicha tahlil qilish zarurligini tug'dirmoqda. Ammo ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish usuli ham iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan. Shularni inobatga olib, uni tahlil qilishni boshlashdan avval uning tushunchasi va tarkibini izohlash maqsadga muvofiq.

## 11.2. Moliyaviy salohiyatni tahlil qilish vazifalari va axborotlar manbai

Korxona iqtisodiyotini sifat jihatidan yuqori pog'onaga ko'tarish uchun hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish lozim. Korxona moliyaviy potensiali tahlilining vazifalari turlicha. Bularning aniq yo'nalishlari va soni moliyaviy potensialni kimlar hamda qaysi maqsadda tahlil qilishiga bog'liq. Masalan, mulk egasi tahlil qilsa, unga moliyaviy potensial holati, tarkibi va samaradorligi muhim; banklar tahlil qilsa, o'zlari bergan ssudaning moliyaviy potensialdagi ulushi, uning o'z vaqtida ma'lum bir foiz bilan qaytishini ta'minlay olishi muhim; statistika va istiqbolni belgilash organlari tahlil qilsa, haqiqiy erishilgan natija muhim; aksiyadorlar tahlil qiladigan bo'lsa, ularning ham o'ziga yarasha manfaatlari bor. Shu nuqtayi nazardan tahlilning vazifasi aynan shu deb uni chegaralab bo'lmaydi. Shuning uchun uning vazifasini aniqlashda tahlilning maqsadi va o'sha sharoitdagi real iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqish lozim.

Korxona moliyaviy salohiyatini tahlil qilishning umumiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy potensial umumiy hajmini va yil davomida uning o'zgarishini aniqlash.
2. Moliyaviy potensial tarkibini, undagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash.
3. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash, baholash va tahlil qilish.
4. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni baholash va tahlil qilish.

5. Moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va ularni tahlil qilish.

6. Moliyaviy potensial samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish.

7. Moliyaviy potensialdan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va shu bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlarni tayyorlash.

Korxona moliyaviy potensialini tahlil qilishda quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:

*1. Buxgalteriya balansi* (OKUD bo'yicha 1-shakl). Ushbu hujjatning passiv qismidagi barcha bo'lim va moddalar qo'llaniladi. Bundagi birinchi bo'lim «O'z mablag'larining manbalari» 330-qatordan 390-qatorgacha. 390-qatorda esa shu bo'limning jami summasi joylashgan. Ikkinchi bo'lim «Majburiyatlar» deb ataladi. Bular balansning 410-qatoridan 550-qatorigacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi. 550-qatorda ikkinchi bo'limning jami joylashgan. Moliyaviy potensialning umumiy summasi 560-qatorda joylashgan bo'lib, bu korxona balansining umumiy summasiga teng bo'ladi.

*2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot* (OKUD bo'yicha 2-shakl). Ushbu hisobotda korxonaning ish hajmi, daromadlari, xarajatlari, foydasi alohida turlari bo'yicha ham ko'rsatiladi. Bundagi ko'rsatkichlar moliyaviy potensial samaradorligini, rentabelligi kabi ko'rsatkichlarni aniqlashda qo'llaniladi. Ushbu hisobotning ikkinchi qismi «Budjetga to'lanmalar to'g'risida ma'lumot» deb ataladi va bunda korxonaning davlat va mahalliy budjetiga to'laydigan soliqlar summasi hisoblangan miqdorda hamda haqiqatda to'langan hajmda ifodalanadi.

*3. Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma* (2a-shakl.) Ushbu axborot manbaida debitor va kreditorlarning aniq nomlari, umumiy qarzlar, shu jumladan, respublikadan tashqaridagi debitor va kreditorlar, muddati o'tgan kreditorlar ko'rsatiladi. Shu tufayli moliyaviy holatni tahlil qilishda ushbu hisobot ma'lumotlaridan ham keng foydalanishni taqozo qiladi.

*4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot* (OKUD bo'yicha 4-shakl). Ushbu axborot manbaida tahlil uchun juda zarur ko'rsatkichlar ifodalanadi. Xususan, birinchi bo'limda «Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining harakati» o'z aksini topadi. Ikkinchi bo'lim «Investitsiya foydasi va moliyaviy xizmat ko'rsatish» bilan bog'liq

pul harakatlariga bag'ishlangan. Uchinchi bo'limda «Soliq to'lovlari» ko'rsatilsa, to'rtinchi bo'limda «Investitsiya faoliyati» o'z ifodasini topgan. Ushbu bo'limda moddiy va nomoddiy uzoq muddatli aktivlarni sotish va sotib olish bilan bog'liq operatsiyalar ko'rsatilgan. Hisobotning beshinchi bo'limi «Moliyaviy faoliyat» deb nomlanadi. Unda aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarning kelib tushishi, ijara majburiyatlari bo'yicha tushum va to'lovlar o'z aksini topgan.

Ushbu hisobotning ikkinchi qismida «Valuta mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot» berilgan. Ushbu ma'lumotda korxona valutasining yil boshidagi qoldig'i, jami yil davomidagi tushum alohida turlari bo'yicha ko'rsatiladi. Shuningdek, ushbu hisobotda jami sarflangan valuta mablag'larini aniq yo'nalishlar bo'yicha ham ko'rish mumkin. Ushbu hisobotning yakunida yil oxiridagi valuta qoldig'i ko'rsatiladi.

Bulardan tashqari, bir qancha statistik hisobotlar ham borki, ulardan ham tahlilning u yoki bu sohasini o'rganishda foydalanish mumkin. Masalan, bularga statistik hisobotning CHPJ-shakli «Pensiya mablag'lari bo'yicha hisob-kitob vedomosti», 1-T shakli «Mehnat hisoboti», «Korxona, muassasa, tashkilot va kooperativlarning bandlik jamg'armasiga mablag'lar o'tkazganligi to'g'risidagi hisobot» kabilarni kiritish mumkin.

Shuningdek, bir qancha O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar, uslubiy tavsiya va ko'rgazmalardan, vaqtli matbuot materiallaridan ham foydalanish mumkin. Tahlil uchun qo'llaniladigan axborotlar manbai qancha aniq va haqqoniy bo'lsa, tahlil natijasi ham shuncha yaxshi va ta'sirchan bo'ladi. Bunda SAHTXOB tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir: (S — soflik, AH — axborotlarning haqqoniyligi, TX — to'g'ri xulosa, OB — oqilona boshqarish).

## 11.3. Moliyaviy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi

Har bir jarayonni, iqtisodiy kategoriya yoki tushunchani iqtisodiy jihatdan tahlil qilish uchun ularni ko'rsatkichlarda ifodalab olish lozim. Shu tufayli moliyaviy potensialni tahlil qilish uchun ham uni ifodalovchi ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur. Moliyaviy potensial bu ancha keng qamrovli tushuncha. Shu tufayli uni bir

yoki bir qancha ko'rsatkichlar bilan ifodalab bo'lmaydi. Uni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biroq ko'rsatkichlar tizimi bu bir qancha ko'rsatkichlar to'plami, degan gap emas. Ko'rsatkichlar tizimi deganda, bir kategoriyaga mansub bir qancha ko'rsatkichlarni ma'lum belgilari bo'yicha aniq guruhlarga bo'lingan ko'rsatkichlar turkumi tushuniladi.

Moliyaviy potensialni ifodalovchi ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni jihatidan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi ko'rsatikichlar.
2. Moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Ushbu guruh ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ammo har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Moliyaviy potensial (Mp) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga ma'lum bir davrda ular qay ahvolda ekanligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar kiradi. Uning umumiy hajmi, tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni aynan shu holatini tahlil qilib aniqlash mumkin. Ushbu guruh ko'rsatkichlar moliyaviy potensialining tarkibiga qarab, yana ikki guruhga bo'linadi:

1. Mp holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari.
2. Mp holatning chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari.

Har ikki guruh ko'rsatkichlariga ham bir qancha ko'rsatkichlar kiradi va ularning majmuasi ko'rsatkichlar tizimini tashkil qiladi. Moliyaviy potensial samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, asosan, uning qanday foydalanayotganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkichlar asosida natija bilan moliyaviy potensial o'rtasidagi nisbat yotadi. Bular ham bir qancha guruhlarga bo'linadi:

1. Mp samaradorligini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar.
2. Mp samaradorligini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
3. Mp samaradorligini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Har uch guruh ko'rsatkichlar ham o'z navbatida bir qancha alohida guruhlarni jamlaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, korxonalar moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar hali iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masalaga oid muammolar yechimi yetarlicha yoritilgan emas. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichlar tizimida munozarali va takomillashishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar ham bo'lishi mumkin. Ko'rsatkichlar tizimi quyidagi chizmada o'z aksini topgan (11.2-chizma):




*11.2-chizma.* Korxonaning moliyaviy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxona moliyaviy potensiali haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun ushbu ko'rsatkichlar guruhining har birini alohida-alohida qarab chiqish maqsadga muvofiq. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar 11.3-chizmada o'z ifodasini topgan. Undan ko'rinib turibdiki, Mp.ning holatini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar bir qancha. Ammo ularning soni faqat chizmadagi ko'rsatkichlar bilan ham cheklanib qolmaydi. Masalan, O'm. ning chetdan jalb qilingan mablag'lar Chjqm bilan bog'liq ko'rsatkichlari yana ikki ko'rsatkichga: O'm uzoq muddatli va qisqa muddatli Chjqm.ga bo'linadi. Xuddi shunday boshqa ko'rsatkichlarni ham aniqlash mumkin. Navbatdagi guruh ko'rsatkichlar korxona moliyaviy holatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan ko'rsatkichlardir. Bu ham o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, 11.4-chizmada o'z aksini topgan.

## 11.4. Moliyaviy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni baholash va tahlil qilish

### 11.4.1. Moliyaviy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi

Bozor munosabati sharoitida korxonaning moliyaviy potensialini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu shu korxona rahbarlariga o'z faoliyatini to'g'ri baholash, moliyaviy ahvolini bilish imkonini bersa, investorlarga o'z mablag'ini qo'yish,




*11.3-chizma.* Mp holatini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.




*11.4-chizma.* Korxona moliyaviy salohiyati holatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar (Chjqm) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

qimmatbaho qog'ozlar bozorini tashkil qilish uchun biror qarorga kelishga asos bo'ladi. Moliyaviy potensial tahlili shu firma kreditorlarga pullarini to'lash mumkinligini ko'rsatib, ular bilan yana iqtisodiy aloqalarni davom ettirish uchun ishonch hosil qiladi. Nihoyat, ushbu ko'rsatkich tahlili auditorlarning to'g'ri xulosa chiqarishi uchun asosiy dastak bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlarni asoslashdan oldin uning iqtisodiy mohiyati va mazmunini ochish maqsadga muvofiqdir. Har qanday korxona, firma, tashkilot o'z faoliyatini tegishli mablag' bilan ta'minlab turishi uchun ma'lum darajada moliyaviy potensialga (salohiyatga) ega bo'lishi lozim. Korxona moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmasa, o'zining moddiy-texnika bazasini ham, aylanma mablag'larini ham shakllantirish imkoniga ega bo'lmaydi. Oqibatda, faoliyat ko'rsatishi ham qiyin bo'ladi. Demak, korxonalar, eng avvalo, ma'lum darajada moliyaviy salohiyatga ega bo'lishi kerak. Korxonaning moliyaviy salohiyati uning turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy mablag'lari majmuasidan iboratdir. Bu ta'kidlanganidek, iqtisodiy mohiyati jihatidan, eng avvalo, o'z mablag'lari hisobidan va chetdan jalb qilingan, qisqa va uzoq muddatli mablag'lardan tarkib topadi (11.5-chizma).




*11.5-chizma.* Korxonaning moliyaviy salohiyati tarkibi.

Bu ko'rsatkichlar buxgalteriya balansining passiv qismida joylashgan bo'lib, har biri alohida guruhda va moddalarda o'z ifodasini topadi. Korxonaning buxgalteriya balansi uning moliyaviy salohiyatining holatini baholash va tahlil qilish uchun asosiy ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy potensialiga, ta'kidlanganidek, o'zining buxgalteriya balansida ifodalangan o'z mablag'lari manbalari (O'm), uzoq muddatli passivlar (Ump) va hisob-kitoblar hamda boshqa passivlar; ya'ni chetdan jalb qilingan qisqa muddatli passivlar (Qmp) va kreditorlar (Kr) kiradi. Bularning qiymatini quyidagicha jamlash mumkin:

$$Mp = O'm + Ump + Qmp + Kr. \quad (11.1)$$

Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun 11.1-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*11.1-jadval*

**Buxgalteriya balansiga asosan moliyaviy salohiyatning tarkibi va o'zgarishini aniqlash**

| T/r | Balansning passiv moddalari | Yil boshida | | Yil oxirida | | Farqi (+, –) | | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | summasi, ming so'm | tarkibi, % | summasi, ming so'm | tarkibi, % | summasi, ming so'm | tarkibi, % | |
| 1. | O'z mablag'lari | 4115 | 44,0 | 4500 | 46,5 | + 385 | + 2,4 | 109,4 |
| 2. | Chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital) | 5230 | 56,0 | 5200 | 53,6 | – 30 | – 2,4 | 99,4 |
| 2.1. | Uzoq muddatli majburiyatlar | 2700 | 28,9 | 2700 | 27,8 | – | – 1,1 | 100,0 |
| 2.2 | Kreditor qarzlar | 940 | 10,1 | 1000 | 10,3 | + 60 | + 0,2 | 106,2 |
| | Korxona moliyaviy salohiyati barcha passivlar | 9345 | 100,0 | 9700 | 100,0 | + 355 | x | 103,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy salohiyati hisobot yilida 103,8 % ko'paygan. E'tiborli hususiyati shundaki, korxonaning o'z mablag'lari 109,4% ko'paygan bir paytda chetdan jalb qilingan mablag'lar esa 0,6 %ga kamaygan (100–99,4). Bu uning tarkibiy o'zgarishida ham o'z ifodasini topadi. Tahlil qilinayotgan davrda korxonaning o'z mablag'lari 2,4 % ko'paygan bo'lsa, shu miqdorga chetdan jalb qilingan mablag'lar kamaygan. Bu majburiyatlarning uzoq muddatli passivlar bo'yicha 1,1 % band, qisqa muddatli passivlarning esa 1,5 % band kamayishi evaziga sodir bo'lgan. Majburiyatlar tarkibida kreditor qarzlarning tarkibi 0,2 % bandga ortgan.

Ushbu korxonadagi tarkibiy holat tahlili korxona moliyaviy salohiyatining ijobiy tomonga o'zgarganligidan dalolat berib turibdi, chunki korxonaning o'z mablag'lari qancha ko'p bo'lsa, uning moliyaviy qaramligi shuncha kamayadi. Shu jihatdan ushbu holat

bo'yicha dastlabki xulosa ijobiy natijaga erishganligidan dalolat beradi. Tahlil jarayonida korxonaning moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash, baholash va tahlil qilish lozim. Iqtisodiy mohiyati jihatidan korxonaning moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir qancha guruhlarga bo'linadi. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi: qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar, uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar. Bularning kengaytirilgan holati quyidagi chizmada ifodalangan (11.6-chizma):




*11.6-chizma.* Korxona moliyaviy salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxona moliyaviy potensialining holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada. Masalan, birinchi turkumga kirgan ba'zi ko'rsatkichlar ikkinchi va uchinchi turkumlarga kirmoqda. Boshqa turkumdagi ko'rsatkichlar birinchi turkum ko'rsatkichlaridan kelib chiqadi.

### 11.4.2. Moliyaviy salohiyat holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari

Har qanday korxonaning o'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy potensialini ifodalovchi ko'rsatkichlar turkumiga to'rt ko'rsatkich kiradi. Bu ko'rsatkichlardan biri o'z mablag'larining to'planish koeffitsiyentidir. O'z mablag'ining to'planish darajasi (konsentratsiyasi) koeffitsiyentini (Ko'mk) topish uchun o'z mablag'lari (O'm) summasini buxgalteriya balansining jami summasiga (B), ya'ni barcha mablag'lar hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Ko'mk = \frac{O'm}{B}. \qquad (11.2)$$

Ushbu ko'rsatkichning hajmi o'z mablag'larining umumiy mablag'laridagi hissasini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu ko'rsatkich qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi, chunki mablag'larni chetdan jalb qilishga zarurat kamayadi. Bu ko'rsatkich miqdorining o'sishi ham korxona uchun ayni muddao. Chunki chetdan jalb qilingan mablag'lar uchun to'laydigan foizlar miqdori hamon yuqoriligicha saqlanib turgan paytda kredit olish zarurati ham kamayadi. Bu esa ortiqcha xarajatni qisqartiradi.

Korxonada moliyaviy potensialning umumiy moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti ham muhim ko'rsatkichlardan biridir. Buni aniqlash uchun buxgalteriya balansi jami summasini (B) xususiy kapitalning (o'z mablag'ining) summasiga (O'm) bo'lish lozim. Buning uchun quyidagi formulani qo'llash mumkin:

$$Kmq = \frac{B}{O'm}, \qquad (11.3)$$

bunda, *Kmq* — moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti.

Ushbu ko'rsatkich o'z mablag'ining qay darajada qaram ekanligi, ya'ni uning 1 so'miga necha so'm xo'jalik mablag'i to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Agar bu ko'rsatkichning miqdori 2 so'mga teng bo'lsa, korxonaning xususiy va chetdan jalb qilingan mablag'i

bir-biriga teng ekanligidan dalolat beradi. Mabodo, ko'rsatkichning hajmi 2 so'mdan kam bo'lsa, xo'jalik mablag'larining asosiy qismi xususiy, ya'ni o'z mablag'laridan iborat ekanligidan dalolat beradi. Agar u 2 so'mdan ko'p bo'lsa, korxonaning xususiy mablag'i chetdan jalb qilingan mablag'larga o'ta qaram ekanligini ko'rsatadi.

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri o'z mablag'larining umumiy chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsiyenti (Ko'chjm)dir. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun barcha chetdan jalb qilingan mablag'lar umumiy summasini (Chjqm) o'z mablag'lari summasiga (O'm) bo'lish lozim. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Ko'chjm = \frac{Chjqm}{O'm}. \qquad (11.4)$$

Korxona o'z mablag'larining qaramlik koeffitsiyentini chuqurroq o'rganish uchun uni alohida uzoq muddatli (Ump) va qisqa muddatli chetdan jalb qilingan (Qmp) mablag'larga ham bo'lib o'rganishni taqozo qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$Ko'um = \frac{Ump}{O'm}, \qquad (11.5)$$

bunda, *Ko'um* — o'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga qarashlik koeffitsiyenti; *Ump* — uzoq muddatli passivlar; *O'm* — o'z mablag'lari.

$$Ko'qm = \frac{Qmp}{O'm}, \qquad (11.6)$$

bunda, *Ko'qm* — o'z mablag'ining qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qarashli koeffitsiyenti; *Qmp* — chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lar.

Ushbu ko'rsatkichlar ham chetdan jalb qilingan mablag'larning o'z mablag'laridagi hissasini ifodalaydi. Ko'rsatkichlar hajmi odatda, birdan kichik bo'lsa yaxshi, chunki bunday holat korxona o'z mablag'ining qaramligi uncha katta emasligidan dalolat beradi. Ularni tahlil qilish uchun korxona balansidan foydalaniladi. Uning qisqartirilgan hajmi 11.2-jadvalda ifodalangan.

Moliyaviy potensialning o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari haqida to'g'ri xulosa chiqarish lozim. Bunda moliyaviy

*11.2-jadval*

**Hisobot yili 1-yanvarigacha korxona buxgalteriya balansining qisqartirilgan holati**

| T/r | Aktiv | Yil boshida | Yil oxirida | Passiv | Yil boshida | Yil oxirida |
|---|---|---|---|---|---|---|
| I. | Uzoq muddatli aktivlar | | | 1. O'z mablag'lari manbalari | | |
| 1.1 | Asossiy vositalar (kapital) | 4995 | 5300 | 1.1. O'z mablag'lari | 2300 | 2200 |
| | a) eskirishi | 1500 | 1800 | 1.3.Taqsimlangan foyda | 1315 | 1700 |
| | b) qoldiq qiymati | 3495 | 3500 | Jami: I bo'lim | 4115 | 4500 |
| 1.2 | Nomoddiy faollar | 215 | 230 | 2.1.Uzoq muddatli majburiyatlar | 2700 | 2700 |
| | a) eskirishi | 25 | 30 | 2.2.Qisqa muddatli majburiyatlar | | |
| | b)qoldiq qiymati | 190 | 200 | bank krediti va boshqa qarzlar | | 850 |
| | Jami: I bo'lim | 3685 | 3700 | 2.3. Kreditorlar | 1000 | |
| II. | Oborot aktivlari | | | | | |
| 2.-1. | Moddiy aylanma mablag'lar | 3000 | 2700 | | | |
| 2.-2. | Pul mablag'lari va boshqa aktivlar | 2600 | 3300 | 2.4. Ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar | 300 | 330 |
| | a) pul mablag'lari | 300 | 450 | 2.5. Budjet bilan hisob-kitoblar | 290 | 320 |
| | b) debitorlar | 1900 | 2000 | | | |
| | d) qimmatbaho qog'ozlar | 460 | 850 | | | |
| | Jami: II bo'lim | 5660 | 6000 | Jami: II bo'lim | 5230 | 5200 |
| | Barcha aktivlar | 9345 | 9700 | Barcha passivlar | 9345 | 9700 |

potensialning shu guruhi bo'yicha kompleks ko'rsatkichni aniqlash lozim. Buning uchun quyidagi formulani tavsiya qilish mumkin:

$$Kkmp = Ko'mk + Kmq + Ko'chjm + Ko'um + Ko'qm. \quad (11.7)$$

Bu formulada barcha ko'rsatkichlar koeffitsiyentlari jamlangan. Lekin bu koeffitsiyentlarning yo'nalishlari har xil. Masalan, o'z mablag'larining to'planish koeffitsiyenti (Ko'mk) qancha yuqori bo'lishi ayni muddao, o'z navbatida korxonaning moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti qancha kam bo'lishi ham yaxshi yuqori bo'lsa yomon. Buni o'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga

va qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsiyentida ham qiyoslash mumkin. Shu tufayli ularni bir xil yo'nalishga keltirib olish lozim. Buning uchun miqdori ko'paysa, salbiy natija beradigan ko'rsatkichlarni birga bo'lib olish lozim. U holda 11.7-formula quyidagi holatga keladi:

$$Kkmp = Ko'mk + \frac{1}{Kmq} + \frac{1}{Ko'chjm} + \frac{1}{Ko'um} + \frac{1}{Ko'qm}. \quad (11.8)$$

Endi barcha ko'rsatkich bir xil yo'nalishga ega bo'lgani bois hamma qo'shiladigan miqdorlarning ko'payishi korxona moliyaviy potensiali holatining yaxshilanishidan dalolat beradi. Buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan, korxona moliyaviy potensialining umumiy holati bo'yicha xulosa chiqarish uchun 11.3-umumlashgan jadvalni tuzish mumkin.

*11.3-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyatining umumiy hajmidagi o'zgarishlarning hisobot yilidagi hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati (+, −) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O'z mablag'lari | 4115 | 4500 | + 385 | 109,4 |
| 2. | Uzoq muddatli passivlar | 2700 | 2700 | | 100,0 |
| 3. | Hisob-kitoblar va boshqa passivlar (chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lar) | 1590 | 1500 | − 90 | 94,3 |
| 4. | Kreditor qarzlar | 950 | 1000 | + 60 | 106,2 |
| 5. | Barcha chetdan jalb qilingan mablag'lar (2q+ 3q+ 4q) | 5230 | 5200 | − 30 | 99,4 |
| 6. | Jami moliyaviy potensial (1q + 5q) | 9345 | 9700 | + 355 | 103,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy potensiali bir yilning ichida 103,8 % ko'paygan. Bu asosiy o'z mablag'lari evaziga amalga oshgan. Bu ko'rsatkich tahlil davrida 109,4 % ortgan. Uzoq muddatli passivlar bir yilda o'zgarmasdan qolgan. Barcha chetdan jalb qilingan mablag'lar hajmi 0,6 % kamaygan. Bu, albatta, shu yil davomida bir qancha omillar evaziga amalga oshgan. Korxonaning moliyaviy potensiali holati yuzasidan to'g'ri xulosa qilish uchun tahlil jarayonida ko'rsatkichlarni aniqlash lozim. Buning uchun 11.4-jadval tuziladi.

*11.4-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarining hisobot yilidagi hisob-kitobi***

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O'z mablag'larining to'planish koeffitsiyenti (1q : 6q) (Ko'mk) | 0,440 | 0,464 | + 0,024 | 105,5 |
| 2. | O'z mablag'larining umumiy qaramlik koeffitsiyenti (6q : 1q) (Kmq) | 2,271 | 2,156 | − 0,115 | 94,9 |
| 3. | O'z mablag'larining chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlilik koeffitsiyenti (5q : 1q) (Ko'chjm) | 1,271 | 1,156 | − 0,115 | 91,0 |
| 4. | O'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga qaramlik koeffitsiyenti (2q : 1q) (Ko'um) | 0,656 | 0,600 | − 0,056 | 91,5 |
| 5. | O'z mablag'larining qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsiyenti (3q+ 4q : 1q) (Kuqm) | 0,615 | 0,556 | − 0,059 | 90,4 |
| 6. | Moliyaviy salohiyati kompleks ko'rsatkichi | 4,817 | 5,259 | + 0,442 | 109,2 |

*Ushbu jadval 4.3-jadval asosida tuzildi.

Demak, o'z mablag'larining to'planish koeffitsiyenti hisobot yili davomida 105,5 % ga ko'paygan. Bu xo'jalik faoliyatida moliyaviy potensial holatining yaxshilanganligidan dalolat beradi. Buni korxonaning qaramlik koeffitsiyenti kamayib ketganligidan ham ko'rish mumkin. Uning qaramligi yil boshida 2,271 koeffitsiyentga teng bo'lgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 2,156 gacha kamaydi. Bu korxona qaramligining bir yilda 5,1 % (100—94,9) kamayganligidan dalolat beradi.

Korxonaning chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsiyenti ham kamaygan. Bu ko'rsatkichning hajmi 1,271 koeffitsiyentdan 1,156 gacha kamaygan. Bu, asosan, qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar evaziga amalga oshgan. Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga qaramlik koeffitsiyenti 91,5 %ni tashkil qilgan bir paytda qisqa muddatli shunday mablag'larga qaramlik koeffitsiyenti 90,4 %ni tashkil qilgan, xolos.

Umuman olganda, ushbu tahlil natijasi mazkur korxonaning moliyaviy potensiali holati yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Keltirilgan jadval va formulalarga asosan korxona moliyaviy potensial holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan kompleks ko'rsatkichni aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkichning miqdori yil boshida:

$$Кўмк.йб = 0,440 + \frac{1}{2,271} + \frac{1}{1,271} + \frac{1}{0,656} + \frac{1}{0,615} =$$
$$= 0,440 + 0,440 + 0,787 + 1,524 + 1,626 = 4,817.$$

Ushbu ko'rsatkich miqdori yil oxirida:

$$Кўмк.йо = 0,464 + \frac{1}{2,156} + \frac{1}{1,156} + \frac{1}{0,600} + \frac{1}{0,556} =$$
$$= 0,464 + 0,464 + 0,865 + 1,667 + 1,799 = 5,259.$$

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy potensial holati hisobot yilida keskin o'zgargan. Uning kompleks ko'rsatkich hajmi yil boshidagi 4,817 koeffitsiyentdan yil oxirida 5,259 koeffitsiyentgacha ko'paygan. Bu, asosan, o'z mablag'larining uzoq va qisqa muddatli passivlarga nisbatan tez o'sganligi uchun sodir bo'lgan. Natijada o'z mablag'ining chetdan jalb qilingan passivlarga qaramlik koeffitsiyenti keskin qisqargan.

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarni jamlab, ularning aniqlanish yo'llarini formulada va balansning satrlari bo'yicha ko'rsatib chiqish lozim. Buning uchun 11.5-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*11.5-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati holatini ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlarning hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Aniqlanish yo'llari | Balansdagi qatorlar bo'yicha |
|---|---|---|---|
| 1. | O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati (O'm) | $\frac{O'myb + O'myo}{2}$ | $\frac{390yb + 390yo}{2}$ |
| 2. | O'z mablag'larining to'planish koeffitsiyenti (Ko'mt) | $\frac{O'm}{B}$ | $\frac{390}{550}$ |
| 3. | O'z mablag'ining umumiy qaramlik koeffitsiyenti (Qk) | $\frac{B}{O'm}$ | $\frac{550}{390}$ |
| 4. | O'z mablag'ining chetdan jalb qilingan mablag'larga (Chjqm) qaramlik koeffitsiyenti (Ko'chjm) | $\frac{Chjqm}{O'm}$ | $\frac{540}{390}$ |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | O'z mablag'larining uzoq muddatli Chjqm.ga qaramlik koeffitsiyenti (Ko'um) | $\frac{Ump}{O'm}$ | $\frac{400 + 410}{390}$ |
| 6. | O'z mablag'larining qisqa muddatli Chjqm.ga qaramlik koeffitsiyenti (Ko'qm) | $\frac{Qmchjqm}{O'm}$ | $\frac{420 + 430}{390}$ |
| 7. | O'z mablag'larining kapitallashganlik (Ko'mk) darajasi | $\frac{Av - O'mp}{O'm}$ | $\frac{400 + 410}{390}$ |
| 8. | O'z mablag'ining uzoq muddatli aktivlardagi summasi (O'm.umak) | $O'ma - O'mm$ | 110–(400+410) |
| 9. | O'z mablag'larining uzoq muddatli aktivlardagi koeffitsiyenti ishtiroki (Kumuak) | $\frac{O'm.umak}{O'm}$ | $\frac{110 - (400 + 410)}{390}$ |
| 10. | O'z mablag'ining aylanma mablag'lardagi ishtirok etayotgan faol qismi (O'zam) | $O'm - (O'ma - O'mp)$ | 390–(110 –400+410) |
| 11. | O'z mablag'ining faollik koeffitsiyenti (Ko'zam) | $\frac{O'zam}{O'm}$ | $\frac{6\ k}{300}$ |

Ushbu ko'rsatkichlarning ko'pi alohida guruhlarda 2.3 va 2.4-jadvallarda tahlil qilindi. Ammo bu ko'rsatkichlar bilan korxonaning moliyaviy potensiali to'g'risida to'liq xulosa qilish qiyin. Buning uchun har bir obyekt yoki jarayonni ifodalovchi ko'rsatkichlarni to'liq o'rganish lozim. Shundagina tahlil natijasida ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar, qabul qilinadigan qarorlar aniq va hayotiy bo'ladi. Tahlilning navbatdagi bosqichida korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi bir qancha boshqa ko'rsatkichlarni ham aniqlashni taqozo qiladi. Buning uchun 11.6-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada o'z mablag'larining kapitallashganlik darajasi yuqori. Ushbu ko'rsatkich yil boshida 55,8 %ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 57,8 %ga yetgan, ya'ni 20 % bandga ko'paygan. Korxona mablag'ining kapitallashganlik darajasi ilg'or texnologiyani qo'llab ishlayotgan korxonalarda yuqori bo'lishi tabiiy. Ammo savdo korxonalarida o'z mablag'larining kapitallashganlik darajasi ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan ancha past bo'ladi. Shu tufayli ushbu

*11.6-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati holatini ifodalovchi ayrim ko'rsatkichlar hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | O'zgarishi (+, −) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. | Asosiy vositalar boshlang'ich qiymatida (010) | 4995 | 5300 | + 305 | 106,1 |
| 2. | Uzoq muddatli passivlar (400 + 410) | 2700 | 2700 | — | 100,0 |
| 3. | O'z mablag'lari (390) | 4115 | 4500 | + 385 | 109,4 |
| 4. | Uzoq muddatli aktivlar (110) | 3685 | 3700 | + 15 | 100,4 |
| 5. | O'z mablag'ining uzoq muddatli aktivlardagi summasi (110−(400+410)) | 985 | 1000 | + 15 | 101,5 |
| | Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 6. | O'z mablag'ining kapitallashganlik darajasi((1q−2q) : 3q) | 0,558 | 0,578 | + 0,020 | 103,6 |
| 7. | Uzoq muddatli aktivlardagi o'z mablag'ining o'z mablag'idagi hissasi koeffitsiyenti (5q : 3q) | 0,239 | 0,222 | + 0,017 | 92,0 |
| 8. | O'z mablag'ining aylanma mablag'lardagi ishtirok etayotgan faol qismi (3q − 5q) | 3130 | 3500 | + 370 | 111,8 |
| 9. | Oborot aktivlari (300) | 5660 | 6000 | + 340 | 106,0 |
| 10. | O'z mablag'ining faollik koeffitsiyenti (8q : 9q) | 0,553 | 0,583 | + 0,030 | 105,4 |

ko'rsatkichni hamisha aniq vaziyat va soha turidan kelib chiqqan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bozor munosabatlari sharoitida ham korxonaning uzoq muddatli aktivlarida o'z mablag'lari ishtirok etadi. Bu ko'rsatkich tahlil davrida 0,239 koeffitsiyentdan 0,222 koeffitsiyentgacha kamaygan. Korxonada o'z mablag'larining faollik koeffitsiyenti ham yaxshi, chunki yil boshida uning miqdori 55,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 58,3 %ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxona o'z mablag'ining yarmidan ko'p qismi oborotda ishtirok etmoqda. Bular o'z navbatida korxona moliyaviy potensiali samaradorligini oshirishni taqozo qiladi.

### 11.4.3. Moliyaviy salohiyat holatining chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari, ularni aniqlash va tahlil qilish usullari

Korxonaning moliyaviy salohiyatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlarga, eng avvalo, uning umumiy to'planish darajasi (konsentratsiyasi) kiradi. Bu ko'rsatkich chetdan jalb qilingan mablag'larning umumiy mablag'lardagi ulushini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun chetdan jalb qilingan umumiy mablag'larni (Chjqm) buxgalteriya balansi umumiy summasiga (B) bo'linadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Kchjmk = \frac{Chjqm}{B}. \qquad (11.9)$$

Ushbu ko'rsatkich hajmini tahlil qilganda, uning miqdori yildan-yilga qisqarib borsa, natija yaxshi hisoblanadi. Chunki buning qisqarishi korxonaning umumiy mablag'ida xususiy kapitalning hissasi ortib borayotganligidan dalolat beradi. Masalan, ushbu ko'rsatkich hajmi 0,35 bo'lsa, demak barcha mablag'larning 35 % chetdan jalb qilingan mablag'lardan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa, hozirgi banklarning krediti uchun foiz to'lovlari yuqori bo'lib turgan sharoitda korxonaning umumiy mablag'ida chetdan jalb qilingan mablag'larning kamayish tendensiyasiga ega bo'lganligi ijobiy hol hisoblanadi. Tahlil jarayonida chetdan jalb qilingan mablag'larni alohida uzoq muddatli va qisqa muddatli guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir, chunki ularning oborotdagi ishtiroki hamda iqtisodiy mohiyati jihatidan turlicha.

Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarga o'z mablag'ining qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'iga qaramlik koeffitsiyenti, qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning tovar va boshqa zaxiralardagi hissasi kabi ko'rsatkichlar kiradi. Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar to'planish koeffitsiyentini aniqlash uchun chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lar summasini (Chjqqm) buxgalteriya balansining umumiy summasiga (B), ya'ni xo'jalik mablag'larining qiymatiga bo'lish kifoya. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Kchjqqm = \frac{Chjqqm}{B}. \qquad (11.10)$$

Bu ko'rsatkich chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning umumiy mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Masalan, ushbu ko'rsatkich hajmi 0,25 deb faraz qilamiz. Bu umumiy mablag'larning 25 % chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'lardan iborat deganidir. Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivlaridagi hissasining miqdori va moliyaviy potensialining holatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar, asosan, oborot aktivlarini qoplash uchun jalb qilingan bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichni (Koba) aniqlash uchun qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar summasini (Chjqqm) oborot aktivlari summasiga (Oba) bo'lish kifoya:

$$Koba = \frac{Chjqqm}{Oba}. \qquad (11.11)$$

Hozirgi o'tish davrida ushbu ko'rsatkichning miqdori teng holda qanchalik kamayib borsa, korxona uchun yaxshi, chunki zaxiralar va xarajatlarni qoplashda korxonaning o'z mablag'lari hissasi ko'payib borishini ko'rsatadi. Masalan, ushbu ko'rsatkichning miqdori 0,456 koeffitsiyentga teng deb faraz qilsak, bu zaxiralarda qisqa muddatli qarzlarning ulushi 45,6 % ekanligidan dalolat beradi. Demak, o'z mablag'larining hissasi zaxiralarda 54,4 %ni tashkil qiladi.

Moliyaviy potensialning holatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlardir. Xususan, uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar to'planish koeffitsiyenti (Kump) ham moliyaviy potensialning tarkibiy tuzilishini ifodalaydi. Uning miqdori barcha moliyaviy potensialning qancha qismi uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun uzoq muddatli chetdan jalb qilingan passivlar summasini (Ump) buxgalteriya balansi jami summasiga (B) bo'lish kifoya. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Kump = \frac{Ump}{B}. \qquad (11.12)$$

Tahlil natijasida ushbu ko'rsatkichning miqdori ko'payishi tendensiyasiga ega bo'lsa yaxshi, chunki uzoq muddatli passivlar qisqa muddatli qarzlarga nisbatan korxona uchun ancha imtiyozlidir. Masalan, ushbu koeffitsiyent miqdori 0,15 ga teng bo'lsa, bu barcha mablag'larning 15 % uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lardan iborat ekanligini anglatadi. Moliyaviy potensial holatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning uzoq muddatli aktivlardagi hissasining tarkibiy koeffitsiyentidir. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun uzoq muddatli chetdan jalb qilingan passivlar (Ump) summasini uzoq muddatli aktivlarning (Uma) qiymatiga bo'linadi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Kuav = \frac{Ump}{Uma}. \qquad (11.13)$$

Ushbu ko'rsatkich miqdori ko'paygani korxona uchun yaxshi, chunki korxonaning o'z mablag'i yetishmay turgan bir paytda moddiy-texnika bazasini uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar evaziga shakllantirish ijobiy holdir. Masalan, ushbu koeffitsiyentning miqdori 0,70 ga teng deb faraz qilamiz. Bu degani, barcha asosiy vositalar qiymati qoplanish manbaining 70 % uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobidan shakllanganligidan dalolat beradi.

Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning (Umchjqm) tarkibiy koeffitsiyenti (Kumchjqm) ham kiradi. Bu ko'rsatkich Umchjqm.ning barcha chetdan jalb qilingan mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun Umchjqm summasini umumiy Chjqm summasiga bo'lish lozim. Buning uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$Kumchjqm = \frac{Umchjqm}{Chjqm} \qquad (11.14)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori 0,25 koeffitsiyent bo'lsa, u barcha Chjqm.ning 25 % uzoq muddatli Chjqm ekanligidan dalolat beradi. Korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri qisqa muddatli Chjqm.ning tarkibiy koeffitsiyentidir (Kkmchjkm). Ushbu ko'rsatkich barcha chetdan jalb qilingan mablag'larda qisqa muddatli Chjqm hissasi qanchaligini

ifodalaydi. Buni aniqlash uchun qisqa muddatli Chjqm summasini barcha Chjqm summasiga bo'linadi:

$$Kumchjqm = \frac{Kkmchjqm}{Chjqm} \qquad (11.15)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori 0,75 bo'ldi, deb faraz qilsak, u holda qisqa muddatli Chjqm.ning barcha Chjqm.dagi ulushi 75 %ni tashkil qilishidan dalolat beradi. Kreditor qarzlar ham korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli ularning ham tarkibiy koeffitsiyenti (Kkr) aniqlanadi va tahlil qilinadi. Ushbu ko'rsatkich barcha chetdan jalb qilingan mablag'larda kreditorlarning hissasi qancha ekanligidan dalolat beradi. Buni aniqlash uchun kreditor qarzlarni (Kr) jamlab barcha chetdan jalb qilingan mablag'larga (Chjqm) bo'linadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Kkr = \frac{Kr}{Chjqm} \qquad (11.16)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori 0,225 koeffitsiyentga teng, deb faraz qilsak, bu barcha Chjqm tarkibida kreditor qarzlarning ulushi 22,5 %ni tashkil qiladi, degani. Ma'lumki, Chjqm.ning bir qismi uzoq muddatli aktivlarni qoplashga jalb qilinadi. Ammo bu ko'rsatkichlar buxgalteriya balansida tayyor holda uchramaydi. Ularni hisoblab topish lozim.

Chetdan jalb qilingan mablag'larning uzoq muddatli aktivlarda ishtirok etayotgan summasini (Chjqm.uma) aniqlash uchun buxgalteriya hisobotiga qo'shimcha yana buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalaniladi. «Uzoq muddatli qarzlar» (400 k) va «Uzoq muddatli kreditorlar»ni (410 k) to'liq uzoq muddatli aktivlarga jalb qilingan deb faraz qilsak, izlanayotgan ko'rsatkich quyidagiga teng bo'ladi:

$$Chjqm.uma = Umq + Umkr \text{ yoki } 400\ k + 410\ k. \qquad (11.17)$$

Endi chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivida ishtirok etayotgan summasini aniqlash mumkin. Buning uchun barcha majburiyatlar summasidan (540 k) uzoq muddatli Chjqm summasini (400+410) ayirib tashlaymiz. Chiqqan natija chetdan jalb qilingan mablag'larning qancha qismi oborot aktivlarida ishtirok etayotganligini ifodalaydi:

$Chjqm.oak = Oba - (Umq + Umkr)$ yoki $540k - (400k + 410k)$. (11.18)

Agar korxonada muddati o'tgan kreditorlar bo'lsa, natija ushbu summa miqdoriga kamaytiriladi:

$Chjqm = (540 - (400\ k + 410\ k)) - 2$; 7-ustun jami. (11.19)

Aniqlangan summaga asosan Chjqm.ning oborot aktivlaridagi hissasini ifodalovchi koeffitsiyentni (Kchjqm.oak) ham aniqlash mumkin. Buning uchun oborot aktivlarida ishtirok etayotgan Chjqm summasini (Chjqm.oba) oborot aktivlari (Oba) summasiga bo'lish kifoya:

$$Kchjqm.oak = \frac{Chjqm.oba}{Oba}. \qquad (11.20)$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori korxona oborot aktivlarida qancha chetdan jalb qilingan mablag'lar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Masalan, ushbu ko'rsatkich 0,655 koeffitsiyentga teng bo'lsa, bu barcha oborot aktivlarining 65,5 % chetdan jalb qilingan mablag'larning summasidan iborat degani. Ushbu ko'rsatkichlarni jamlab, yagona jadval shaklida berish mumkin (11.7-jadval).

*11.7-jadval*

**Moliyaviy salohiyat holatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni aniqlash yo'llari**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Aniqlanish yo'llari | Balansdagi qatorlar bo'yicha |
|---|---|---|---|
| 1. | Chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati (Chjqm) | $\frac{Chjqm.yb + Chjqm.yo}{2}$ | $\frac{540\ yb + 540\ yo}{2}$ |
| 2. | Chetdan jalb qilingan mablag'larning umumiy to'planish koeffitsiyenti (Kchjmk) | $\frac{Chjqm}{B} \cdot 100$ | $\frac{540}{550}$ |
| 3. | Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning to'planish koeffitsiyenti (Kchjqm) | $\frac{Chjqm}{B}$ | $\frac{420 + 430 + 440}{550}$ |
| 4. | Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar oborot aktivlardagi (Oba) hissasining koeffitsiyenti (Koba) | $\frac{Chjqm}{Oba}$ | $\frac{420 + 430 + 440}{300}$ |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning to'planish koeffitsiyenti (Kump) | $\frac{Ump}{B}$ | $\frac{400 + 410}{550}$ |
| 6. | Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning uzoq muddatli aktivlardagi hissasining koeffitsiyenti (Kuav) | $\frac{Ump}{Uma}$ | $\frac{400 + 410}{110}$ |
| 7. | Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning Chjqm.dagi hissasi (tarkibiy koeffitsiyenti) (Umchjqm) | $\frac{Umchjqm}{Chjqm}$ | $\frac{400 + 410}{540}$ |
| 8. | Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning Chjqm.dagi hissasi (tarkibiy koeffitsiyenti) (Kumchjqm.) | $\frac{Kumchjqm}{Chjqm}$ | $\frac{420 + 430}{540}$ |
| 9. | Kreditorlarning tarkibiy koeffitsiyenti (Kkr) | $\frac{Kr}{Chjqm}$ | $\frac{450 + ... + 530}{540}$ |
| 10. | Chjqm.ning oborot aktivlaridagi summasi (Kchjm.oak) | Oba−(Umk + Umkr) | 540q −(400q+410q) |
| 11. | Chjqm.ning oborot aktivlaridagi summasi (Kchjm.oak) hissasining koeffitsiyenti | $\frac{Chjqm.oba}{Oba}$ | $\frac{540q-(400q+410q)}{300}$ |

Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi buxgalteriya balansida ifodalanadi. Ammo tahlil uchun u yoki bu jarayonni qanday ko'rsatkichlar bilan ifodalash hali yetarli emas. Shu tufayli eng muhimi ko'rsatkichlar miqdorini aniqlab, ularni bir-biri bilan va bir qancha davrlarga solishtirib, tegishli xulosa chiqarish lozim. Xulosalar esa korxona moliyaviy potensiali holatini ifodalashga xizmat qilishi darkor. Buning uchun 11.8-jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz.Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning umumiy mulki (mablag'i) yil oxirida yil boshiga nisbatan 355 ming so'mga yoki 0,8 %ga ko'paygan. Ammo chetdan jalb qilingan mablag'lar 30 ming so'mga yoki 0,6 %ga kamaygan. Demak, korxonaning o'z mablag'lari ko'paygan. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, uzoq muddatli passivlar o'zgarmasdan qolgan bir paytdan qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar 150 ming so'mga yoki 15 % (100—85)ga kamaygan. Lekin kreditorlar shu davr mobaynida 120 ming so'mga yoki yil boshiga nisbatan 7,8 % ko'paygan. Bu, albatta, chetdan jalb qilingan mablag'lar ichida sezilarli

*11.8-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati holatini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarining hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | O'zgarishi (+, −) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. | Balansning passivi bo'yicha (550) . | 9345 | 9700 | + 355 | 103,8 |
| 2. | Uzoq muddatli passivlar (400+410) | 2700 | 2700 | — | 100,0 |
| 3. | Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar (420+430+440) | 1000 | 850 | − 150 | 85,0 |
| 4. | Kreditorlar (450+...+530) | 1530 | 1650 | + 120 | 107,8 |
| 5. | Barcha chetdan jalb qilingan mablag'lar (majburiyatlar) (540) | 5230 | 5200 | − 30 | 99,4 |
| 6. | Uzoq muddatli aktivlar (110) | 3685 | 3700 | + 15 | 100,4 |
| 7. | Oborot aktivlari (300) | 5660 | 6000 | + 340 | 106,0 |
| | Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 8. | Chetdan jalb qilingan mablag'larning (Chjqm) umumiy to'planish koeffitsiyenti (5q : 1q) | 0,560 | 0,536 | − 0,024 | 95,8 |
| 9. | Qisqa muddatli Chjqm.ning to'planish koeffitsiyenti (3q : 1q) | 0,107 | 0,088 | − 0,019 | 82,2 |
| 10. | Uzoq muddatli Chjqm.ning to'planish koeffitsiyenti (2q : 1q) | 0,289 | 0,278 | − 0,011 | 96,2 |
| 11. | Qisqa muddatli Chjqm.ning oborot aktivlaridagi hissasining koeffitsiyenti (3q : 7q) | 0,177 | 0,142 | − 0,035 | 80,2 |
| 12. | Uzoq muddatli Chjqm.ning uzoq muddatli aktivlardagi hissasining koeffitsiyenti (2q : 6q) | 0,733 | 0,730 | − 0,003 | 99,6 |
| 13. | Uzoq muddatli Chjqm.ning tarkibiy koeffitsiyenti(2q : 5q) | 0,516 | 0,519 | + 0,003 | 100,6 |
| 14. | Qisqa muddatli Chjqm.ning tarkibiy koeffitsiyenti (4q : 5q) | 0,191 | 0,163 | − 0,028 | 85,3 |
| 15. | Kreditorlarning tarkibiy koeffitsiyenti (4q : 5q) | 0,293 | 0,317 | + 0,024 | 108,2 |
| 16. | Chjqm.ning oborot aktivlaridagi summasi (540q−(400q+410)) | 2530 | 2500 | − 30 | 98,8 |
| 17. | Chjqm.ning oborot aktivlaridagi hissasining koeffitsiyenti (16q : 7q) | 0,447 | 0,417 | − 0,030 | 93,3 |

tarkibiy o'zgarishlarga olib kelgan. Buni ushbu turkum ko'rsatkichlar bo'yicha koeffitsiyentlarni aniqlaganda ko'rish mumkin.

Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar summasi o'zgarmasa-da, uning hissasi umumiy chetdan jalb qilingan mablag'lar tarkibida 0,6 % ortgan, qisqa muddatli passivlarning tarkibi yil boshidagi 19,3 %dan yil oxirida 16,3 %gacha kamaygan. Ammo kreditorlarning tarkibiy koeffitsiyenti shu davr mobaynida 29,3 %dan 31,7 %gacha oshgan.

Iqtisodiyotning hozirgi bosqichida chetdan jalb qilingan mablag'lar hissasining kamayganligi yaxshi ko'rsatkich. Ammo uning oborot aktivlaridagi hissasining oshganligi yil boshidagi 0,553 koeffitsiyentdan to yil oxirida 0,583 koeffitsiyentgacha o'sganligini ijobiy baholash qiyin. Korxonaning o'z mablag'lari o'sgan. Ammo bular, asosan, uzoq muddatli aktivlarga jalb etilganligidan dalolat beradi. Hozirgi paytda korxona oborot aktivlarida imkon qadar o'z mablag'lari hissasini ko'paytirishi lozimdir.

Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar umumiy hajmining oborot aktivlaridagi hissasi yil boshida 0,177 koeffitsiyentdan yil oxirida 0,142 koeffitsiyentgacha yoki 19,8 % (100—80,2) kamaygan. Bu holat ijobiydek tuyiladi. Ammo tahlil jarayonida shuni inobatga olish lozimki, chetdan jalb qilingan mablag'larning hammasi ham oborotda ishtirok etavermaydi. Shu tufayli amaliyotda chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivlardagi summasi va hissasini aniqlashni taqozo qiladi. Bu bizning misolimizda boshqacha holatda ekanligini ko'rsatadi. Haqiqatda chetdan jalb qilingan mablag'larning oborot aktivlaridagi summasi 1,2 %ga, ulushi esa 6,7 %ga kamaygan. Xullas, korxona moliyaviy salohiyatining tahlili korxona rahbarining, egasining, menejerini uning faoliyatiga yanada chuqurroq yondashish va ahvolini o'nglash lozimligini anglash uchun tegishli xulosalar chiqarishga yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

## 11.5. Moliyaviy salohiyat samaradorligining tahlili

### 11.5.1. Moliyaviy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari

Moliyaviy salohiyatning (Mp) samaradorligi deganda, uning natijaviyligi tushuniladi. Uni aniqlash uchun mahsulot (ish, xizmat) hajmini (M) (daromad, foyda) Mp o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kifoya. Bu ta'kidlanganidek, quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Mp samaradorligini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar.

2. Mp samaradorligining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari.

3. Mp samaradorligining chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Har bir guruh ko'rsatkichlar o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Birinchi guruhga Mp umumiy hajmining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bular quyidagilardan iborat:

1. 1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan mahsulot (M) (ish, xizmat) hajmi.

2. 1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan daromad (D) hajmi.

3. 1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan foyda (F) hajmi.

Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumot manbalarida ifodalanadi (11.9-jadval).

*11.9-jadval*

**Mp. umumiy hajmining samaradorligini aniqlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarning axborotlarda ifodalanishi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Moliyaviy hisobot shakli | Satr kodi | Hisobotning nomlanishi |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Moliyaviy potensial umumiy hajmi (Mp) | 1-shakl | 550 | Buxgalteriya balansi |
| 2. | Mp.ning o'rtacha yillik qiymati | 1-shakl | $\frac{550yb + 550yox}{2}$ | Buxgalteriya balansi |
| 3. | Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum (M) | 2-shakl | 010 | Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot |
| 4. | Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi | 2-shakl | 110 | Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot |
| 5. | Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi | 2-shakl | 150 | Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot |
| 6. | Yalpi daromad (soliq to'laganga qadar umumiy moliyaviy natija) (D) | 2-shakl | 170 | Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7. | Sof foyda (F) | 2-shakl | 200 | Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot |
| 8. | O'z mablag'lari (O'm) | 1-shakl | 390 | Buxgalteriya balansi |
| 9. | Chetdan jalb qilingan mablag'lar (Chjqm) | 1-shakl | 540 | Buxgalteriya balansi |

Xuddi shunday ko'rsatkichlar tizimi Mp.ning alohida guruhlari bo'yicha ham aniqlanadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. 1 so'm o'z mablag'lariga (O'm) to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmi.
2. 1 so'm O'm.ga to'g'ri keladigan daromad hajmi.
3. 1 so'm O'm.ga to'g'ri keladigan sof foyda.

Chetdan jalb qilingan mablag'larning ham samaradorlik ko'rsatkichlarini xuddi shunday ko'rsatkichlarda ifodalash mumkin.

1. 1 so'm chetdan jalb qilingan mablag'larga (Chjqm) to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmi.
2. 1 so'm Chjqm.ga to'g'ri keladigan daromadlar summasi.
3. 1 so'm Chjqm.ga to'g'ri keladigan sof foyda summasi.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimini 11.7-chizma orqali ifodalash mumkin.




*11.7-chizma.* Korxona moliyaviy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi.

Chizmada uch guruh ko'rsatkichlar o'z ifodasini topgan. Bunda to'qqizta ko'rsatkich keltirilgan. Birinchi guruhda umumiy ko'rsatkichlar, ikkinchi va uchinchi guruhlarda ularning alohida guruhlari bo'yicha turkumlari keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlarning aniqlanish yo'llarini batafsil ko'rib chiqamiz (11.10-jadval).

*11.10-jadval*

**Korxona Mp samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Aniqlanish formulasi | Axborot manbai |
|---|---|---|---|
| 1. | Mp samaradorligi (1 so'm Mp. ga to'g'ri keladigan mahsulot (ish, xizmat) hajmi) | $Mps = \frac{M}{Mp}$ | $\frac{010q \cdot 2 - sh}{550q \cdot 1 - sh}$ |
| 2. | Mp daromadliligi (1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan yalpi daromad hajmi) | $Mpd = \frac{D}{Mp}$ | $\frac{170q \cdot 2 - sh}{550q \cdot 1 - sh}$ |
| 3. | Mp foydaliligi (1 so'm Mp.ga to'g'ri keladigan foyda summasi | $Mpf = \frac{F}{Mp}$ | $\frac{260q \cdot 2 - sh}{550q \cdot 1 - sh}$ |
| 4. | O'm samaradorligi | $O'ms = \frac{M}{O'm}$ | $\frac{010q \cdot 2 - sh}{390q \cdot 1 - sh}$ |
| 5. | O'm daromadliligi | $O'm.d = \frac{D}{O'm}$ | $\frac{170q \cdot 2 - sh}{390q \cdot 1 - sh}$ |
| 6. | O'm foydaliligi | $O'm.f = \frac{F}{O'm}$ | $\frac{200q \cdot 2 - sh}{390q \cdot 1 - sh}$ |
| 7. | Chjqm samaradorligi | $Chjqm.s = \frac{M}{Chjqm}$ | $\frac{010q \cdot 2 - sh}{540q \cdot 2 - sh}$ |
| 8. | Chjqm daromadliligi | $Chjqm.d = \frac{D}{Chjqm}$ | $\frac{170q \cdot 2 - sh}{540q \cdot 1 - sh}$ |
| 9. | Chjqm foydaliligi | $Chjqm.f = \frac{F}{Chjqm.}$ | $\frac{200q \cdot 2 - sh}{540q \cdot 1 - sh}$ |

Mp samaradorligi bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlar aniqlangach, tahlilning navbatdagi bosqichida ularga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirib, ularning holatini, dinamikasini va o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

### 11.5.2. Moliyaviy salohiyat samaradorligining tahlili

Korxona moliyaviy salohiyati samaradorligining tahlili keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- samaradorlikni ifodalovchi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarning o'tgan va hisobot yilidagi miqdori aniqlanadi;
- shu ko'rsatkichlar bir-biri bilan solishtirilib, ularning farqi hisoblanadi;
- o'zgarish sur'atlari aniqlanadi;
- hamma hisob-kitoblar natijasida jadval tuziladi;
- jadvalga asosan tegishli xulosa qilinadi.

Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun 11.11-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*11.11-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm | 4583,3 | 5694,5 | +1111,2 | 124,2 |
| 2. | Daromadlar, ming so'm | 511,0 | 711,7 | + 200,7 | 139,3 |
| 3. | Foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 4. | Moliyaviy potensialning (Mp) o'rtacha qiymati, ming so'm | 9256,8 | 9522,5 | + 265,7 | 102,9 |
| 5. | O'z mablag'larining o'rtacha qiymati (O'm), ming so'm | 4272,1 | 4307,5 | + 35,4 | 100,8 |
| 6. | Chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha qiymati, (Chjqm) ming so'm | 4984,7 | 5215,0 | + 230,3 | 104,6 |
| 7. | Mp natijaviyligi, tiyin | 49,5 | 59,8 | + 10,3 | 120,8 |
| 8. | Mp daromadliligi, tiyin | 5,52 | 7,47 | + 1,95 | 135,3 |
| 9. | Mp foydaliligi, % | 3,98 | 5,21 | + 1,23 | 130,9 |
| 10. | O'm natijaviyligi, so'm | 1,07 | 1,32 | + 0,25 | 123,4 |
| 11. | O'm daromadliligi, tiyin | 12,0 | 16,5 | + 4,5 | 137,5 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 12. | O'm foydaliligi, % | 8,61 | 11,52 | + 2,91 | 133,8 |
| 13. | Chjqm natijaviyligi, tiyin | 91,9 | 109,19 | + 17,23 | 118,8 |
| 14. | Chjqm daromadliligi, tiyin | 10,3 | 13,6 | + 3,3 | 132,0 |
| 15. | Chjqm foydaliligi, % | 7,38 | 9,51 | + 2,13 | 128,9 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, natijaviy ko'rsatkichlarning deyarli hammasi sezilarli darajada o'sgan. Masalan, sotilgan mahsulot hajmining o'sish sur'ati 124,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, daromadlarning o'sish sur'ati 139,3 %ni, foyda summasining o'sish sur'ati 134,8 %ni tashkil qilgan. Ammo shu davrda moliyaviy potensialning o'rtacha yillik qiymati va uning tarkibiga kiruvchi alohida elementlari juda sekinlik bilan o'zgargan. Masalan, moliyaviy potensial umumiy hajmining o'sish sur'ati 102,9 %ni tashkil qilgan bir paytda, korxonaning o'z mablag'lari atiga 100,8 %ga o'zgargan. Tahlil qilinayotgan davrda chetdan jalb qilingan mablag'larning o'zgarish sur'ati nisbatan yuqori va uning miqdori 104,6 %ni tashkil qiladi.

Agar moliyaviy potensialning tarkibiy o'zgarishini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda quyidagi holat ko'zga tashlanadi (11.12-jadval):

*11.12-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati tarkibining o'zgarishi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Tarkibi | | Farqi (+, −) |
|---|---|---|---|---|
| | | o'tgan yilda | hisobot yilda | |
| 1. | O'z mablag'lari o'rtacha yillik miqdorining ulushi, % | 46,2 | 45,2 | − 1,0 |
| 2. | Chetdan jalb qilingan mablag'lar o'rtacha yillik miqdorining ulushi, % | 53,8 | 54,8 | + 1,0 |
| 3. | Jami Mp hajmi, % | 100,0 | 100,0 | — |

Haqiqatda, tahlil qilinayotgan davrda chetdan jalb qilinayotgan mablag'larning umumiy Mp.dagi ulushi 1,0 %ga oshgan. Shunga mos ravishda o'z mablag'larining ulushi 1,0 % kamaygan. Bu holat Mp samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan. Masalan, Mp umumiy miqdorining natijaviyligi, ya'ni uning 1 so'mga to'g'ri keladigan sotilgan mahsulot hajmi hisobot davrida 54,8 tiyinni tashkil qilgan bir paytda o'tgan yili uning miqdori 49,5 tiyinga teng edi. Ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 120,8 %ni tashkil qiladi. Ammo o'z mablag'larining natijaviyligi

123,4 % ni tashkil qilgan bir paytda chetdan jalb qilingan mablag'larning natijaviyligi 118,8 %ga teng. Ko'rinib turibdiki, jalb qilingan mablag'larning samaradorligiga nisbatan ancha yuqori. Mp samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri ularning daromadliligidir. Tahlil qilinayotgan obyektda ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 135,3 %ni tashkil qiladi. Ammo o'z mablag'larining daromadliligi bundan yuqori, ya'ni 137,5 ni tashkil qilsa, chetdan jalb qilingan mablag'larning daromadliligi 132,0 %ga teng. Ushbu ko'rsatkich daromadliligining o'sish sur'ati o'z mablag'lari daromadliligining o'sish sur'atiga nisbatan 5,5 bandga (137,5–132,0) kam ekanligini ko'ramiz. Xuddi shunday holatni Mp foydaliligini tahlil qilganda ham kuzatish mumkin. Mp foydaliligining o'sish sur'ati, tahlil qilinayotgan davrda 130,9 %ni tashkil qilgan bir paytda, o'z mablag'lari foydalilik darajasining o'sish sur'ati 133,8 %ni tashkil qiladi, ya'ni 2,9 band (133,8–130,9) unga nisbatan ortiq. Lekin chetdan jalb qilingan mablag'larning foydalilik darajasidagi o'zgarish sur'ati 128,9 %ni tashkil qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tahlilni ko'rsatkichlarning farqini va o'zgarish sur'atini aniqlab, shular orqali xulosa qilib qo'yish hali uning tugallanganligidan dalolat bermaydi. Natija ko'rsatkichlari miqdorining o'zgarishlariga ta'sir qiluvchi omillarni, uning sabablarini to'liq aniqlasa, shunga asosan tegishli xulosalar chiqarilib, kamchiliklarni tugatish chora-tadbirlari ishlab chiqilsa, tahlil to'la amalga oshirilgan hisoblanadi. Mp samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sirini hisoblash va tahlil qilish lozim. Bu ancha katta va keng qamrovli ish. Shu tufayli metodologik asos sifatida Mp samaradorligini ifodalovchi 9 ko'rsatkichning bittasi misolida omilli tahlilni o'tkazish yo'li ko'rsatib beriladi. Chunki qolgan ko'rsatkichlarning ham omilli tahlilini shu tariqa o'tkazish mumkin. Bunda umumiy usul saqlanib qolishi mumkin, ammo ba'zi ta'sir etuvchi omillar va ularning soni o'zgaradi. Bu o'z navbatida tahlilning vazifasi va maqsadidan kelib chiqadi.

Moliyaviy potensial samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun tahlilning bir qancha usullaridan, ayniqsa, an'anaviy usullaridan foydalanadi. Bu usullarning qaysi birini olish natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlikka, omillar soniga bog'liq. Masalan, natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalanib, omillar ta'siri ikkita bo'lsa, qayta hisoblash yoki

farqli usuldan foydalanish qulay. Agar shunday bog'liqlik bo'lib, omillar ta'siri 3 va undan ko'p bo'lsa, zanjirli almashtirish yoki indeks usullaridan foydalanish ma'qul.

### 11.5.3. Moliyaviy salohiyat samaradorligining omilli tahlili

Korxona moliyaviy potensialining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar talaygina. Ularning ta'sirini aniqlash tahlilning muhim vazifalaridan biridir. Ko'rsatkichlar o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash uchun shu ko'rsatkichning hisoblanish yo'lini bilishni taqozo qiladi. Masalan, Mp foydaliligini (Mpf) aniqlash uchun sof foyda summasini (F) uning moliyaviy potensialiga (Mp) bo'lish mumkin:

$$Mpf = \frac{F}{Mp}. \qquad (11.21)$$

Ushbu formula bo'yicha tahlil qilinsa, Mpf o'zgarishiga ikki omil ta'sir qilganligini ko'ramiz, ya'ni foydaning ko'payishi Mpf.ni oshiradi, Mp.ning ko'payishi esa uni pasaytiradi.

Agar Mp.ning o'rniga uni ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan almashtirsak, quyidagi formula kelib chiqadi:

$$Mpf = \frac{F}{O'm + Ump + Chjqm}, \qquad (11.22)$$

bunda, *O'm* — o'z mablag'lari; *Ump* — uzoq muddatli passivlar; *Chjqqm* — chetdan jalb qilingan qisqa muddatli passivlar.

Ushbu formulaga zanjirli almashtirish usulini qo'llab, korxona moliyaviy potensialiga ta'sir qiluvchi omillarning miqdorini hisoblash mumkin.

1. Mpf.ning F summasi evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$\Delta Mpff = \frac{F_1}{O'm_0 + Ump_0 + Chjqqm_0} - Mpf_0. \qquad (11.23)$$

2. Mpf.ning O'm summasi evaziga o'zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$\Delta Mpf.um = \left(\frac{f_1}{O'm_1 + Ump_0 + Chjqqm_0}\right) - \left(\frac{f_1}{O'm_0 + Ump_0 + Chjqqm_0}\right). \qquad (11.24)$$

3. Mpf.ning Ump summasi ta'sirida o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta Mpf.Ump = \left(\frac{f_1}{O'm_1 + Ump_1 + Chjqqm_0}\right) - \left(\frac{f_1}{O'm_1 + Ump_0 + Chjqqm_0}\right). \quad (11.25)$$

4. Mpf.ning Chjqqm.ning ta'siri evaziga o'zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$\Delta Mpf.\ Chjqqm = Mpf - \left(\frac{f_1}{O'm_1 + Ump_1 + Chjqqm_0}\right). \quad (11.26)$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijasining umumiy farqiga (ΔMpf) teng bo'ladi:

$$\Delta Mpf = \Delta Mpf \pm \Delta\ Mpf.O'm. \pm \Delta Mpf.O'mp. \pm \Delta Mpf.Chjqqm. \quad (11.27)$$

Ushbu formulalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, Mpf o'zgarishiga barcha omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Bu ushbu nazariy tavsiyaning amaliyotda qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi (11.13-jadval).

*11.13-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati samaradorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisobot davrida aniqlash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Zanjirli almashtirishlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III | IV |
| 1. | Foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 496,2 | 496,2 | 496,2 | 496,2 |
| 2. | O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 4272,1 | 4307,5 | + 35,4 | 4272,1 | 4307,5 | 4307,5 | 4307,5 |
| 3. | Uzoq muddatli passivlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 2598,6 | 2700,0 | + 101,4 | 2598,6 | 2598,6 | 2700,0 | 2700,0 |
| 4. | Chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 2386,1 | 2515,0 | + 128,9 | 2386,1 | 2386,1 | 2386,1 | 2115,0 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Moliyaviy potensialning umumiy summasi, ming so'm (2+3+4) | 9256,8 | 9522,5 | + 265,7 | 9256,8 | 9292,2 | 9393,6 | 9522,5 |
| 6. | Moliyaviy potensialning, foydaliligi, % [(1:5) · 100] | 3,98 | 5,21 | + 1,23 | 5,36 | 5,34 | 5,28 | 5,21 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxona moliyaviy potensialining samaradorligi hisobot yilida 1,23 %ga ortgan. Bu quyidagi omillar ta'sirida vujudga kelgan.

1. Foyda summasining 128,2 ming so'mga ko'payganligi korxona moliyaviy potensiali foydaliligini 1,38 %ga oshirgan.

$$5,36 - 3,98 = -1,38\ \%.$$

2. O'z mablag'ining o'rtacha yillik qiymati ham hisobot yilida 35,4 ming so'mga ko'paygan. Bu esa moliyaviy potensial foydaliligini 0,02 %ga kamaytirishga olib kelgan.

$$5,34 - 3,36 = -\ 0,02\ \%.$$

Odatda, o'z mablag'ining ko'payishi moliyaviy potensialning foydaliligini oshirishi lozim. Shu tufayli mablag'ining moliyaviy potensial foydaliligiga ta'sirini shu hisob-kitob bilan chegaralab bo'lmaydi. Ushbu ko'rsatkichning umumiy mablag'lardagi hissasining undagi tarkibiy o'zgarishlarni ham tahlil qilish lozim.

3. Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati ham keskin ortgan (101,4 ming so'm). Bu ham moliyaviy potensial foydaliligini 0,06 % kamaytirishga olib kelgan.

$$5,28 - 5,34 = -\ 0,06\ \%.$$

4. Chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning o'rtacha yillik qiymati 128,9 ming so'mga ko'paygan. Bu omil ta'sirida tahlil qilinayotgan ko'rsatkich 0,07 % kamaygan.

$$5,21 - 5,28 = -\ 0,07\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$1,38 + 0,02 - 0,06 - 0,07 = +1,28\ \%.$$

Bu hisob-kitob tahlilining juda sodda usuli bo'lib, u korxona rahbariyatiga umumiy, hali unchalik chuqur va mukammal

bo'lmagan xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda tahlil qilinayotgan ko'rsatkichni yaxshilash borasida ba'zi chora-tadbirlarni ishlab chiqish, kelgusida asosiy e'tiborni nimaga qaratish lozimligini ham ko'rsatib beradi. Tahlil natijasidan ko'rinib turibdiki, hisoblangan 4 omildan 3 tasining ta'siri salbiy bo'lgan. Agarda ushbu omillar o'tgan yilgi darajada saqlanib qolganda edi, moliyaviy potensialning foydaliligi 0,15 % (0,02 + 0,06 + 0,07) ortgan bo'lar edi. U holda natijaning umumiy hajmi 5,21 emas, balki 5,36 %ni (5,21 + 0,15) tashkil qilardi. Agar shu darajaga erishilganda, foydalilik darajasi o'tgan yilga nisbatan 1,23 %ga emas, balki 1,38 %ga ortgan bo'lar edi.

$$5{,}36 - 3{,}98 = +1{,}38.$$

Demak, kelgusi yilda ushbu korxona rahbariyati foydalilik darajasini oshirish uchun moliyaviy potensialning tarkibiy tuzilishini yaxshilashi, shu orqali foyda summasini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqarishi lozim. Samaradorlikni tahlil qilganda unga faqat hajm ko'rsatkichlarining ta'sirini hisoblash bilan cheklanib bo'lmaydi, chunki iqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy jarayonlar in'ikosi sifatida bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shu tufayli barcha iqtisodiy jarayonlar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini o'rganish, ularning natijaga ta'sirini hisoblash hozirgi paytda tahlil oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Korxonaning moliyaviy potensiali samaradorligi ham yana bir qancha nisbiy ko'rsatkichlar, ya'ni omillar ta'sirida o'zgarishini aniqlasa bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi (U) korxona o'z mablag'lari rentabelligiga ($X_1$), o'z mablag'ining uzoq muddatli passivlardagi hissasiga ($X_2$), uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lardagi hissasiga ($X_3$) va chetdan jalb qilingan qisqa muddatli mablag'larning moliyaviy potensialdagi hissasiga ($X_4$) bog'liq ekan. Ushbu bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 = \sum_{i=1}^{4} Xi \quad (i = \overline{1,4}). \qquad (11.28)$$

Bu ko'rsatkichlarning iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liqligini aniqlash uchun 11.14-jadvalni tuzish maqsadga muvofiq. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona moliyaviy potensiali bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlarning miqdori

*11.14-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati foydaliligi bilan bog'liq mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi holati**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi summada (+, −) | Indeksi |
|---|---|---|---|---|---|
| | Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. | Foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 1,3484 |
| 2. | O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 4272,1 | 4307,5 | + 35,4 | 1,0083 |
| 3. | Chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 4984,7 | 5315,0 | + 330,3 | 1,0663 |
| 4. | Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 2598,6 | 2700,0 | + 101,4 | 4,0390 |
| 5. | Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 2386,1 | 2515,0 | + 128,9 | 1,0540 |
| 6. | Moliyaviy potensial jami summasining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 9256,8 | 9522,5 | + 265,7 | 1,0287 |
| 7. | Asosiy vositalar boshlang'ichning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 5079,0 | 5177,5 | + 68,5 | 1,0135 |
| 8. | Oborot aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 5624,9 | 5830,0 | + 205,1 | 1,0365 |
| | Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 9. | O'z mablag'i foydaliligi, ming so'm ($X_1$) (1 : 2) | 8,614 | 11,5194 | + 2,905 | 1,3372 |
| 10. | Uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanishi, ming so'm ($X_2$) (2:4) | 1,6440 | 1,5954 | + 0,0486 | 0,9704 |
| 11. | Uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbati ($X_3$) (4:5) | 1,0891 | 1,0736 | − 0,0155 | 0,9858 |
| 12. | Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning moliyaviy potensialdagi hissasi, ($X_4$) (5:6) | 0,2578 | 0,2641 | + 0,0063 | 1,0244 |
| 13. | Korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi, % (U) (1:6 · 100) | 3,0398 | 5,2108 | + 2,1710 | 1,7142 |

hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan ko'paygan. Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar summasi 3,9 %ga, korxonaning o'z mablag'lari esa 0,83 %ga ortgan. Xuddi shu holat boshqa ko'rsatkichlarda har xil yo'nalishlarga ega bo'lgan. Masalan, uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbati o'tgan yilga nisbatan 98,6 %ni tashkil qilgan bir paytda o'z mablag'lari foydaliligi 132,7 %ga ko'paygan. Xuddi shunday turli holat boshqa nisbiy ko'rsatkichlarda ham namoyon bo'ladi. Albatta, bu o'zgarishlar natija ko'rsatkichiga, xususan, korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Bu omillar ta'sirini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan matematik bog'lanishdan foydalanish mumkin. Ushbu matematik bog'lanishdagi ko'rsatkichlarning individual indeksini qo'llab yechadigan bo'lsak, quyidagi hisob-kitobni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Natijaning birinchi omil evaziga o'zgarganligini ($\Delta Ux_1$) topish uchun natijaning rejadagi miqdorini ($Uo$) birinchi omilning individual indeksiga ($i_{x1}$) ko'paytirib ($Uo_{xix1}$) chiqqan miqdordan natijaning rejadagi miqdori ayriladi:

$$\Delta Ux_1 = (Uo \cdot i_{x1}) - Uo_{xix1}. \qquad (11.29)$$

2. Natija o'zgarishiga ikkinchi omil ta'sirini ($\Delta Ux_2$) aniqlash uchun natijaning birinchi omil indeksi bilan hisoblangan miqdorini ($Uo \cdot i_{x1}$) ikkinchi omilning individual indeksi bilan ko'paytiriladi ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}$) va chiqqan miqdordan natijaning birinchi omil individual indeksi bilan hisoblangan miqdori ($Uo \cdot i_{x2}$) ayriladi:

$$\Delta Ux_2 = (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}) - (Uo \cdot i_{x2}). \qquad (11.30)$$

3. Natija o'zgarishiga uchinchi omil ta'sirini ($\Delta Ux_3$) aniqlash uchun natijaning birinchi va ikkinchi omil individual indeksi bilan qayta hisoblangan miqdorini ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}$) uchinchi omilning individual indeksi bilan ko'paytiriladi ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}$) va aniqlangan miqdordan natijaning birinchi va ikkinchi omil evaziga ko'paytirilgan miqdori ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}$) ayriladi:

$$\Delta Ux_3 = (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}) - (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}). \qquad (11.31)$$

4. Natija o'zgarishining to'rtinchi omil evaziga o'zgarishini ($\Delta U_{x4}$) aniqlash uchun natijaning haqiqiy miqdoridan ($U_1$) uning uch omil individual indeksi bilan qayta hisoblangan miqdori ($Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}$) ayriladi:

$$\Delta Ux_4 = U_1 - (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}) \text{ yoki} \quad (11.32)$$
$$\Delta Ux_4 = (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3} \cdot i_{x4}) - (Uo \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}). \quad (11.33)$$

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natijaning umumiy miqdoriga teng bo'ladi:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \pm \Delta Ux_2 \pm \Delta Ux_3 \pm \Delta Ux_4. \quad (11.34)$$

Ushbu nazariy hisob-kitoblarga amaliy ma'lumotlarni qo'llab yechadigan bo'lsak, moliyaviy potensial o'zgarishiga ta'sir qiluvchi keltirilgan barcha omillar ta'sirini aniqlash va hisoblash mumkin (11.15-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligining o'zgarganligiga to'rt omil ta'sir ko'rsatgan.

1. Korxona o'z mablag'larining foydaliligi 2,905 % bandga ortgan. Bu omil ta'sirida tahlil qilinayotgan ko'rsatkichning hajmi 2,2762 % ko'paygan.

$$5{,}3160 - 3{,}0398 = -2{,}2762\ \%.$$

2. Uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanish darajasi 0,0486 ming so'mga kamaygan. Bu omil korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligini 0,1573 %ga kamaytirib yuborgan.

$$5{,}1587 - 5{,}3160 = 0{,}1573\ \%.$$

3. Uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbatan 0,0155 koeffitsiyentga kamaygan. Bu omil ta'sirida tahlil qilinayotgan natija ko'rsatkichiga 0,0733 %ga kamaygan.

$$5{,}0854 - 5{,}1587 = -0{,}0733\ \%.$$

4. Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning moliyaviy potensialidagi hissasi 0,0063 koeffitsiyentga ortgan. Bu omil moliyaviy potensial foydaliligini 0,1254 %ga ko'paytirishga muvofiq bo'lgan.

$$5{,}2108 - 5{,}0854 = +0{,}1254\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natija ko'rsatkichining umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$2{,}2762 - 0{,}1573 - 0{,}0733 + 0{,}1254 = +2{,}1710\ \%.$$

*11.15-jadval*

**Korxona moliyaviy salohiyati foydaliligi darajasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi ba'zi omillarning hisobot yilidagi hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | Indekslar | Natijani indeks o'zgarishi bilan hisoblab chiqish |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O'z mablag'lari foydaliligi, % ($X_1$) | 8,614 | 11,519 | +2,905 | 1,3372 | 3,9755 · 1,3372=5,3160 |
| 2. | Uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanishi, ming so'm ($X_2$) | 1,6440 | 1,5954 | − 0,0486 | 0,9704 | 5,3160 · 0,9704=5,1587 |
| 3. | Uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbati, koeffitsiyenti ($X_3$) | 1,0891 | 1,0736 | − 0,0155 | 0,9858 | 5,1587 · 0,9858=5,0864 |
| 4. | Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning moliyaviy potensialidagi hissasi, koeffitsiyentda ($X_4$) | 0,2578 | 0,2641 | + 0,0063 | 1,0244 | 5,0854 · 1,0244=5,2108 |
| 5. | Korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi, % (U) | 3,0398 | 5,2108 | + 2,1710 | 1,3107 | X |

Ushbu omilli tahlil natijasi shuni ko'rsatdiki, korxonaning moliyaviy potensiali foydaliligi ortgan bo'lishiga qaramasdan uni ko'paytirishning ichki imkoniyatlari ham mavjud ekan. Agarda hisobot yilida uzoq muddatli passivlarning o'z mablag'i bilan ta'minlanish darajasi hech bo'lmaganda o'tgan yil darajasida qolib, tahlil qilinayotgan ko'rsatkich yana 0,1573 %ga, uzoq muddatli passivlarning qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbatan kamayganda edi ushbu omil natija ko'rsatkichi yana 0,0733 %ga ortgan bo'lardi. Shu imkoniyatlar safarbar qilinganda natija ko'rsatkichining umumiy hajmi hisobot yilida 5,2108 % emas balki 5,4414 %ni (5,2108 + 0,1573 + 0,0733) tashkil qilgan bo'lar edi. U holda moliyaviy potensial foydaliligining o'sish sur'ati 171,4 % emas, balki 179,0 %ni [(5,4414/3,0398) · 100] tashkil qilgan bo'lar edi. Demak, tahlil qilinayotgan obyektda samaradorlikni oshirishning ichki imkoniyatlari mavjud ekan. Korxona rahbari kelajakda ushbu aniqlangan ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, ularni amaliyotga safarbar qilish yo'llarini ishlab chiqmog'i lozim.

# *12-bob.* KORXONANING IQTISODIY VA MOLIYAVIY MUSTAHKAMLIGINI BAHOLASH HAMDA TAHLIL QILISH USULLARI

## 12.1. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikni baholash hamda tahlil qilishning zarurligi

O'zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bir tomondan jahon tajribasiga tayansa, ikkinchi tomondan o'ziga xosligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Chunki, mamlakatimiz aholisi o'ziga xos tarixga, an'ana va urf-odatlarga, siyosiy hamda mafkuraviy qarashlarga, boy ma'naviyatga ega. Har qanday iqtisod aholining talab va ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq. Zero, oxir-oqibatda ishlab chiqarilgan mahsulot ham, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar ham aholi tomonidan iste'mol qilinadi. Shu tufayli bu jarayon aholi manfaatlarini e'tiborga olmasdan, uning tub mohiyatidan kelib chiqmasdan iloji yo'q. Shunday ekan, o'ziga xos iqtisodiyot o'ziga mos iqtisodiy mexanizmlarni, dastaklarni, unsurlarni ishlab chiqarish va undan samarali foydalanishni talab qiladi. Iqtisodiyotni boshqarishda qo'llaniladigan eng muhim iqtisodiy dastaklardan biri mikroko'lamda korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdir. Bozor iqtisodiyoti davrida o'ziga xos iqtisodiy dastaklarni, xususan o'ziga xos tahlilni yangi usullarini, ko'rsatkichlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bularning eng muhimlaridan biri korxonalarning moliyaviy va iqtisodiy mustahkamligini baholash hamda tahlil qilishdir.

Hozirgi paytda korxonalarning asosiy qismi davlat tasarrufidan chiqarildi. Korxonalar o'rtasida erkin raqobat shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Buning qonuniy asosi ham yaratildi. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi davlat siyosatini faollashtirish, raqobatni va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida» va «Iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunlari qabul qilindi. Ularni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi huzurida monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni (1996-yil 15-may) e'lon qilindi. Ushbu Farmonga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi moliya boshqarmalari huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish hududiy boshqarmalari tashkil etildi.

Bu respublikamizda erkin raqobatning rivojiga keng yo'l ochib berdi. Endi har bir korxona egasi uning raqobatbardoshligini, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan mustahkamligini baholay olishi lozim. Ammo korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlashning nazariy yo'llari hamon ishlab chiqilmagan. Bu esa ularning amaliyotda qo'llanilishini qiyinlashtirmoqda. Shuning uchun ham korxonalar faoliyatining raqobatbardoshligini, bankrotlikdan saqlanish yo'llarini, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan mustahkamligini aniqlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash, ayniqsa, hozirgi auditorlik xulosasini chiqarish va xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy jihatdan tashxis qo'yish paytida o'ta muhimdir. Har qanday ko'rsatkich o'rganilayotgan iqtisodiy kategoriya yoki jarayonning mazmunidan kelib chiqmog'i, uni to'liq ifoda etmog'i lozim. Bu esa o'z navbatida korxona iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligining mohiyati va mazmunini qarab chiqishni talab qiladi.

## 12.2. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikning mohiyati hamda mazmuni

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona iqtisodiy va moliyaviy jihatdan mustaqil hamda mustahkam bo'lishi lozim. Bu esa har bir korxonaning faoliyatini moliyaviy jihatdan qaram holda tashqi omillar ta'siriga bog'liqlikda qoldirmaslikni talab qiladi. Bunday sharoitda ko'zda tutilgan muammolarni hal qilish uchun, eng avvalo, korxonaning moliyaviy va iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash, tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki korxona raqobatbardoshli bo'lishi, bankrotlikka uchramasligi uchun birinchi galda moliyaviy va iqtisodiy jihatdan mustahkamligini ta'minlash lozim.

Korxonaning iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lishi uchun u, eng avvalo, o'zining asosiy faoliyati natijasi bo'yicha tegishli yutuqlarni qo'lga kiritish lozimki, qaysiki erkin raqobat hukm

surib turgan davrda har qanday ichki va tashqi omillar ta'sirida sinmaydigan bo'lsin. Bunga erishish o'z-o'zidan tasodifan sodir bo'lib qolmaydi, balki izchil, samarali faoliyat yurgizishni talab qiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxona faoliyati natijasini baholash uchun asosiy ko'rsatkich bo'lib foyda hisoblanadi. Foyda miqdorida mulk egasining ham mehnatkashning ham korxona jamoasining ham davlatning ham investorlarning ham manfaatlari o'z ifodasini topadi. Korxonaning foydasi qancha ko'p bo'lsa, mulk egasi uni shuncha kengaytirish va boshqa iqtisodiy ahvolini yaxshilash imkoniga ega bo'ladi. Korxona jamoasi esa shuncha ko'p mukofot olishga, rag'batlantirilishiga erishadi. Aksiyador bo'lsa, o'zlarining oladigan dividend miqdori orqali manfaatdor bo'lsa, davlat soliqning ko'payishidan manfaatdor. Chunki foyda qancha ko'p bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq ham shuncha ko'p bo'ladi. Demak, bozor munosabatlari sharoitida foyda kategoriyasi eng muhim natijaviy ko'rsatkich darajasiga ko'tarilar ekan.

Bulardan ko'rinib turibdiki, korxona iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lishi uchun, eng avvalo, u tegishli foyda miqdorini ta'minlay olishi lozim. Demak, korxonaning iqtisodiy mustahkamligini baholashda ham aynan ana shu manfaatlarning mushtarakligini ta'minlovchi ilmiy konsepsiyadan, foyda kategoriyasidan kelib chiqishni taqozo qiladi. Shunday qilib, **korxonaning iqtisodiy mustahkamligi** deganda, tegishli foyda miqdori va rentabellik darajasini ta'minlay oladigan faoliyat natijasiga erishish tushuniladi.

Shuni e'tirof etish kerakki, hozirgi paytda korxona foydasining miqdori faqat asosiy faoliyatgagina bog'liq emas. Uni shakllanishida bir qancha qo'shimcha faoliyatlar ham mavjudki ularning ham korxona foydasining shakllanishidagi hissasi ancha. Bular qatoriga moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda miqdorini, tasodifiy foyda kabilarni kiritish mumkin. Ammo biz ushbu bobda korxonaning iqtisodiy mustahkamligini baholash va tahlil qilish uchun uslubiy (metodologik) asos sifatida ishlab chiqaruvchi korxonani va uning asosiy faoliyati bo'lgan ishlab chiqarish sohasining natijasini asos qilib oldik.

Korxonaning moliyaviy mustahkamligi deganda, eng avvalo, u o'z faoliyatini moliyaviy jihatdan muntazam ravishda ta'minlab borishini tushunmoq lozim, chunki xo'jalik faoliyati doimiy ravishda davom etib turishi uchun uni moliyaviy mablag' bilan ta'minlab turishni talab qiladi. Bu esa xo'jalik faoliyati natijasining,

ta'kidlanganidek, muntazam ravishda foyda olish bilan yakunlanib turishini talab qiladi. Demak, korxonaning moliyaviy mustahkamligini ta'minlash uchun uning barcha xarajatlarini (doimiy va o'zgaruvchi) qoplanishini, rentabellik darajasining ortib borishini, hech bo'lmaganda, uning kamayishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash lozim. Ushbu nazariy asosdan kelib chiqib, moliyaviy mustahkamlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin. Korxonaning moliyaviy mustahkamligi deganda, korxona faoliyati natijasining barcha xarajatlarini qoplab me'yordagi (rejadagi) rentabellik darajasiga erisha oladigan ish hajmiga va o'z istiqbolini ta'minlay oladigan foyda miqdoriga erishishi tushuniladi.

Ushbu qoidalardan kelib chiqib, korxonaning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llarini tavsiya qilish mumkin.

## 12.3. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni aniqlash

### 12.3.1. Iqtisodiy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar

Korxonaning iqtisodiy mustahkamligi keng qamrovli tushuncha. Shu tufayli uni to'liq ifodalash uchun yagona ko'rsatkich kamlik qiladi. Bundan kelib chiqib, korxona iqtisodiy mustahkamligini ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni tavsiya qilamiz. Ushbu ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Marjinal foyda miqdori.
2. Foydalilik nuqtasiga erishish uchun zarur bo'lgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi.
3. Biznes-rejada ko'zda tutilgan foydaga erishish uchun zarur bo'lgan mahsulot.
4. Iqtisodiy mustahkamlik miqdori.
5. Iqtisodiy mustahkamlik darajasi.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi, ularni aniqlash yo'llari 12.1-chizmada keltirilgan. Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalash uchun besh ko'rsatkichni o'z ichiga olgan yaxlit ko'rsatkichlar tizimi tavsiya qilingan. Bulardan biri korxonaning marjinal foydasidir (Mf). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun korxonaning barcha xarajatlarini ikki (doimiy va




*12.1-chizma.* Korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

o'zgaruvchi)ga bo'lish lozim. Doimiy xarajatlar ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun bevosita sarf qilinmasa-da, uning qiymatiga kiradi. Ammo o'zgaruvchi xarajatlar mahsulotning qiymatini bevosita shakllantiruvchi xarajatlar hisoblanadi. Marjinal foydani (Mf) aniqlash uchun bir mahsulotning qiymatidan (Mq) shu mahsulotga ketgan o'zgaruvchi xarajatlar miqdorini (O'zx I m) ayirish kifoya. Bu quyidagicha hisoblanadi:

$$Mf = Mq - O'zx\ I\ m. \qquad (12.1)$$

Korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri foydalilik nuqtasiga erishish uchun zarur bo'lgan mahsulot (ish, xizmat) miqdoridir. Har bir korxona, eng avvalo, barcha xarajatlarini qoplash uchun qancha mahsulot ishlab chiqishi, ish bajarishi yoki xizmat ko'rsatishi kerakligini bilishi lozim. Buning uchun foydalilik nuqtasiga erishish uchun qancha mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmini (Mfn) aniqlash maqsadga muvofiq. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$Mfn = \frac{Dx}{Mf}, \qquad (12.2)$$

bunda, $Dx$ — korxonaning doimiy xarajatlari; $Mf$ — bir mahsulotga to'g'ri keladigan marjinal foyda.

Korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi yana bir ko'rsatkich sifatida biznes-rejada ko'zda tutilgan foydaga erishish

uchun zarur bo'lgan mahsulot miqdorini olish mumkin. Chunki ushbu ko'rsatkich darajasi korxonaning nafaqat iqtisodiy quvvatini, balki uning iqtisodiy mustahkamligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichlar barcha mahsulot hajmini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$Mbrf = \frac{Dx + Fbr}{Mf} \qquad (12.3)$$

bunda, *Fbr* — biznes-rejada ko'zda tutilgan foyda.

Korxonaning iqtisodiy mustahkamlik ko'rsatkichining miqdorini (Imm) aniqlash uchun biznes-rejada ko'zda tutilgan umumiy foyda summasini (Fbr) bir mahsulotga to'g'ri keladigan marjinal foyda (Mf) summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$Imm = \frac{Fbr}{Mf}. \qquad (12.4)$$

Iqtisodiy mustahkamlikning darajasini (Imd) uning miqdorini (Imm) yuzga ko'paytirib, barcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga (M) bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$Imd = \frac{Imm \cdot 100}{M}. \qquad (12.5)$$

Ushbu ko'rsatkichlar korxona iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi eng muhim va asosiy ko'rsatkichlardir.

**Korxona iqtisodiy mustahkamligining miqdori** biznes-rejada ko'zda tutilgan foydaga erishish uchun foydalilik nuqtasiga erishgandan keyin qancha qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish zarurligini ko'rsatadi. Iqtisodiy mustahkamlikning darajasi esa foydalilik nuqtasiga erishgandan keyin necha foiz ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilganligini ifodalaydi. Masalan, ushbu ko'rsatkichning darajasini 20 % deb faraz qilamiz. U holda ushbu korxona ishlab chiqarish hajmini 20 % gacha qisqartirsa ham natijasi zarar bilan yakunlanmaydi. Undan ko'p kamaysa, korxona natijasi foydalilik nuqtasidan pasayib, faoliyati zarar bilan yakunlanadi.

Shunday qilib, korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq ekan. Ammo uning ba'zi kamchiliklari ham bor. Xususan, tahlil qilishda shu ko'rsatkichlarning dinamikasini aniqlashda, boshqa korxonalar ko'rsatkichlari bilan solishtirishda biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki bir ko'rsatkich birinchi korxonada

yaxshi bo'lsa, ikkinchidan yomon, ikkinchi ko'rsatkich bo'yicha uning aksi bo'lishi mumkin. U holda yaxshi ishlagan korxonani ajratib olish, aniqlash uchun ma'lumotlar yetarli bo'lmaydi. Chizmada keltirilgan barcha ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilib, korxonaning moliyaviy mustahkamligi to'g'risida umumiy xulosa qilish mumkin. Buning uchun ushbu ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib, bir kompleks ko'rsatkichni ham aniqlash lozim. Kompleks ko'rsatkichni aniqlashning bir qancha usullari mavjud[1].

Ushbu ko'rsatkichlar tizimining o'lchami har xil. Shu tufayli ulardan kompleks ko'rsatkichni aniqlashda nisbiy ko'rsatkichli usuldan foydalanamiz. U holda kompleks ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formulani qo'llash maqsadga muvofiq:

$$Kkj = \sum_{i=1}^{n} Aij \cdot Ksi, \qquad (12.6)$$

bunda, $Kkj$ — $j$ — korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkich; $Aij$ — $i$ — ko'rsatkichning $j$ — obyektdagi (korxonadagi) miqdori; $i$ — ko'rsatkichning tartib soni (i=1,n); $j$ — tahlil qilinayotgan obyektlarning (korxonalarning) tartib soni (j=1,n); $Ksi$ — ko'rsatkichning salmoqlilik koeffitsiyenti; $\Sigma$ — jamlash belgisi.

Korxona iqtisodiy mustahkamligining kompleks ko'rsatkichini aniqlab, shu bo'yicha o'zgarish tendensiyalarini hisoblagan holda biror xulosaga kelingach tahlilni umumiylikdan xususiylik sari davom ettiradi. Bunda har bir ko'rsatkichni alohida tahlil qilish lozim, chunki iqtisodiy mustahkamlikni ta'minlash uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlarning har biri bo'yicha ichki imkoniyatlarni izlab topish maqsadga muvofiqdir.

### 12.3.2. Moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar

Korxonaning iqtisodiy jihatdan mustahkamligi uning moliyaviy mustahkamligini aniqlash uchun asosdir. Har bir korxona, bozor munosabatlari sharoitida, moliyaviy jihatdan ta'minlangan va shu soha bo'yicha uning holati mustahkam bo'lishi lozim. Bu ko'rsatkichning moliyaviy manbai faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar uchun foyda bo'lib hisoblanadi. Shu tufayli korxonaning

[1] M. Q. Pardayev. Kompleks tahlilda kompleks baholash usullari. Samarqand, SamKI, 1997.

moliyaviy mustahkamligini ifodalash uchun foyda bilan bog'liq quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tavsiya qilinadi:

1. Biznes-rejada ko'zda tutilgan foyda summasi.
2. Me'yordagi rentabellik darajasini ta'minlovchi foyda summasi.
3. Moliyaviy mustahkamlik darajasi.
4. Mahsulot (ish, xizmat) rentabellik darajasi.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi va ularning aniqlanish yo'llari 12.2-chizmada ifoda etilgan.




*12.2-chizma.* Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Ko'rsatkich barcha faoliyat natijasi bo'yicha aniqlanishi shart. Ammo ushbu ishda metodologik asos sifatida faqat ishlab chiqarish sohasi olindi. Ushbu ko'rsatkich hajmini (Fbr) aniqlash uchun biznes-rejada ko'zda tutilgan mahsulotning qiymatidan (Mbr) doimiy (Dx) va o'zgaruvchi (O'x) xarajatlar chegirib tashlanadi:

$$Fbr = Mbr - (Dx + O'x). \qquad (12.7)$$

Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri **me'yordagi rentabellik darajasini ta'minlovchi foyda miqdoridir.** Ushbu ko'rsatkichning ahamiyati shundaki, har qanday rentabellik darajasi ham korxonaning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligini ta'minlay olmaydi. Shu tufayli rentabellik darajasi ba'zi tarmoqlarda me'yorlashtirilgan bo'lsa, ba'zilarda uning darajasi belgilanib qo'yiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi korxonasining rentabellik darajasi 40 %dan kam bo'lsa,

ular uchun 3 % soliq stavka belgilangan; agar ushbu ko'rsatkich darajasi 40 %dan oshsa, 20 % soliq stavkasi bilan to'lash ko'zda tutilgan. Chunki qishloq xo'jaligi korxonalarida rentabellik darajasi 40 %dan kam bo'lsa, ular o'zlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashi qiyin. Shu tufayli moliyaviy mustahkam bo'lmagan korxonada soliq olish ham kamaytirilgan. Demak, **moliyaviy mustahkamlikni ta'minlovchi rentabellik darajasiga erishish uchun tegishli foyda miqdorini** aniqlash hozirgi bozor munosabatlari sharoitida muhim ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Fr = \frac{Mbr \cdot Rme}{100}, \qquad (12.8)$$

bunda, *Fr* — belgilangan rentabellik darajasini ta'min etadigan foyda summasi (ushbu ko'rsatkich biznes-rejaga kiritilishi lozim); *Mbr* — biznes-reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi; *Rme* — erishish lozim bo'lgan (me'yorda ko'zda tutilgan) rentabellik darajasi.

**Korxona moliyaviy mustahkamligini** ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri uning **darajasidir** (Mmd). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun biznes-rejada ko'zda tutilgan foyda miqdorini (Fbr) me'yordagi rentabellikni ta'minlovchi foyda miqdoriga (Fmr) bo'lish kifoya.

$$Mmd = \frac{Fbr}{Fmr}. \qquad (12.9)$$

Agar ushbu ko'rsatkichning miqdori birdan kam bo'lishi (Mmd<1), korxonaning moliyaviy jihatdan mustahkam emasligidan dalolat beradi, chunki bu ko'rsatkich uning istiqbolini ta'minlay oladigan darajadagi foyda miqdoriga erishmaganligini ko'rsatadi. Agar Mmd>1 bo'lsa, unda korxona moliyaviy jihatdan mustahkam. Negaki, bu ko'rsatkich korxona me'yor darajasidagi rentabellikni ta'minlay oladigan foyda miqdoriga erishganligini ifodalaydi.

Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi yana bir ko'rsatkich ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) rentabelligidir (Rm). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun foyda summasi (F) yuzga ko'paytirilib, mahsulotning hajmiga (M) bo'linadi:

$$Rm = \frac{F \cdot 100}{M}. \qquad (12.10)$$

Bu an'anaviy ko'rsatkich. Ammo moliyaviy mustahkamlikni ifodalash uchun qo'shimcha ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi, chunki ushbu ko'rsatkich orqali korxona me'yordagi rentabellik darajasiga erisha olganmi yo'qmi bilish mumkin. Buning uchun korxonada me'yordagi rentabellik darajasi ta'minlanganligi aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichni (Rtd) aniqlash uchun korxona rentabelligini (Rm) me'yordagi rentabellik darajasiga (Rme) bo'lish kifoya:

$$Rt\partial = \frac{Rm}{Rme}. \qquad (12.11)$$

Bu ko'rsatkich ham bir bilan solishtiriladi. Agar uning miqdori Rtd<1 bo'lsa, hali korxona me'yordagi rentabellik darajasiga erisha olmagan, agar Rtd>1 bo'lsa, yaxshi natijaga erishganligidan dalolat beradi.

Tahlil jarayonida ko'rsatkichlarni kompleks ravishda, undan so'ng har birini alohida-alohida o'rganib, korxonada mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni aniqlash lozim. Ko'rsatkichlar tizimidan kompleks ko'rsatkichni aniqlash mumkin. Buning uchun bir qancha usullar mavjud. Ulardan biri 8.3.1-paragrafda keltirilgan. Bundan tashqari, kompleks ko'rsatkichni har bir ko'rsatkichning individual indekslarini ko'paytirish yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Bunda faqat ko'rsatkichlar darajasining bir xil yo'nalishiga ega bo'lishini ta'minlash lozim. U holda kompleks ko'rsatkichni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$Mmkd = ix_1 \cdot ix_2 \cdot ...ix_n = \prod_{i=1}^{n} ix_i. \qquad (12.12)$$

Ushbu ko'rsatkich moliyaviy mustahkamlikning tahlil davrida o'rta hisobda qancha o'sganligidan dalolat beradi. Buni boshqa korxonalarning ko'rsatkichlariga solishtirib, tegishli xulosa qilish, ko'rsatkichlar tizimi va undan kompleks ko'rsatkichni aniqlab bo'lgandan so'ng, ushbu kategoriyani batafsil tahlil qilish mumkin.

## 12.4. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikning tahlili

### 12.4.1. Iqtisodiy mustahkamlikning tahlili

Har qanday ko'rsatkich buxgalteriya va statistik hisobotlarda tayyor holda uchramaydi. Shu tufayli tegishli hisobotlardan, me'yoriy hujjatlardan foydalanib, avval tahlil qilinadigan

ko'rsatkichlarning mutlaq va nisbiy miqdorlarini aniqlab olish lozim. Bu jarayon tahlilning eng muhim bosqichlaridan biridir. Navbatdagi vazifa shu ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi o'zgarishi, o'tgan davrga nisbatan o'sish sur'atlarini aniqlashdan iboratdir. Agar ko'rsatkichlar bo'yicha reja tuzilsa, haqiqiy erishilgan natija birinchi galda reja bilan solishtiriladi. Agar reja tuzilmaydigan bo'lsa, o'tgan yilgi natija bilan solishtirilib tegishli xulosa qilinadi. Mabodo, ko'rsatkichlarning bir qancha yillarga o'sish sur'atlarini aniqlab, o'zgarish tendensiyasi o'rganiladigan bo'lsa, ularning kamida besh yillik dinamikasi tahlil qilinadi. Xullas, korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish uchun 12.1-jadvalni tuzish lozim.

*12.1-jadval*

**Korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'sish sur'ati |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Doimiy xarajatlar, ming so'm (Dx) | 1890,1 | 1960,2 | + 90,1 | 104,8 |
| 2. | Foyda, ming so'm (F) | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 3. | Bir mahsulotning qiymati, so'm | 3856 | 4829 | + 973 | 125,1 |
| 4. | Bir mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchi xarajatlar, so'm | 1956 | 2729 | + 0,773 | 139,3 |
| 5. | Marjinal foyda, so'm (Mf) (3q—4q) | 1900 | 2100 | + 200 | 110,5 |
| 6. | Iqtisodiy mustahkamlik miqdori, dona (Imm) (2q:5q) | 193,7 | 236,3 | + 42,6 | 122,0 |
| 7. | Barcha mahsulot hajmi, dona (Mm) | 1188,5 | 1179,3 | − 9,2 | 99,2 |
| 8. | Iqtisodiy mustahkamlik darajasi, % (Imd) (6q · 100 : 7) | 16,3 | 20,0 | 3,7 | 122,9 |
| 9. | Barcha mahsulotning qiymati, ming so'm (Mk) | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,3 |
| 10. | Foydalilik nuqtasiga erishish uchun zarur bo'lgan mahsulot (Mfn) (1q:5q) | 994,8 | 943,0 | − 51,8 | 84,8 |
| 11. | Biznes-rejada ko'zda tutilgan foydaga erishish uchun zarur bo'lgan mahsulot (Mbrf) (1q + 2q:5q) | 1188,5 | 1179,2 | − 9,3 | 99,2 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning iqtisodiy mustahkamlik miqdorining o'sish sur'ati 122,0 %ni tashkil qiladi. Uning darajasi esa o'tgan yildagi 16,3 %dan hisobot yilida 20,0 %gacha ko'tarilgan yoki o'sish sur'ati 122,9 %ni tashkil qilgan. Bu holatni nisbiy baholash mumkin. Shuni ta'kidlash

lozimki, doimiy xarajatlar summasi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 4,8 % o'sgan bir holatda, bir mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchi xarajatlar 39,3 % ortgan. Bu asosan ish haqi tariflarining ortganligi evaziga sodir bo'lgan. Yana shuni ta'kidlash joizki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining hajmi 0,8 % kamaygan. Ammo uning qiymatdagi hajmi 24,3 % ortgan. Demak, mahsulot qiymatining ortganligi asosan narxning o'zgarganligi, ya'ni uning o'sganligidan dalolat beradi. Haqiqatda bir mahsulotning qiymati o'tgan yilda 3856 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yiliga kelib uning hajmi 4829 so'mga yetdi yoki bu ko'rsatkich o'tgan yildagiga nisbatan 25,1 % ko'paydi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning iqtisodiy mustahkamligini aniqlash va tahlil qilishda foydalilik nuqtasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkich biz tahlil qilayotgan obyektda kamaygan. O'tgan yilda barcha sarflarni qoplash uchun 994,8 dona mahsulot ishlab chiqarish zarur bo'lgan bo'lsa, hisobot yilida ushbu ko'rsatkich 943,0 donani tashkil qiladi, ya'ni 25,2 % bandga kamaygan. Bu esa har bir mahsulotdan olinadigan marjinal foydaning o'sganligi evaziga erishilgan. Marjinal foyda hajmi hisobot davrida 10,5 %ga ortgan.

Korxona moliyaviy jihatdan mustahkam bo'lishi uchun faqat foydalilik nuqtasiga erishish yetarli emas, balki tegishli foyda summasini ta'min etadigan mahsulot (ish, xizmat) miqdoriga erishishni talab qiladi. Tahlil qilinayotgan obyekt o'tgan yilda ko'zda tutilgan foydaga erishish uchun 1188,5 dona mahsulot ishlab chiqarish zarur bo'lgan. Hisobot yilida esa ushbu ko'rsatkich 1179,2 donani tashkil qilmoqda, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 0,8 % kam. Bu natija ta'kidlanganidek, har bir mahsulotdan olinadigan marjinal foydaning ortganligi evaziga erishilgan. Demak, korxonaning iqtisodiy mustahkamligini tahlil qilish uchun uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini ifodalovchi ko'pgina eng muhim ko'rsatkichlarni tahlil qilish lozim. Bu esa tahlilning atroflicha keng qamrovda o'tkazilishini taqozo qiladi.

### 12.4.2. Iqtisodiy mustahkamlikka ta'sir etuvchi omillar

Har bir iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Ularga qandaydir omillar ta'sir qiladi. Shu tufayli tahlilning navbatdagi bosqichida tahlil qilinayotgan ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning natijaga

ta'sirini hisoblash lozim. Korxonaning iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning hammasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab, har biri bo'yicha tegishli ichki imkoniyatlarni izlab topish va shu yo'l bilan iqtisodiy mustahkamlikni yaxshilash lozim.

Korxona iqtisodiy mustahkamligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri iqtisodiy mustahkamlikning miqdoridir. Iqtisodiy mustahkamlik miqdori bir qancha omillar ta'sirida o'zgaradi. Xususan, korxonaning iqtisodiy mustahkamligining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. Mahsulot rentabelligi ($X_1$).
2. Doimiy xarajatlar samaradorligi ($X_2$).
3. Foydalilik nuqtasini ta'minlaydigan mahsulot miqdori ($X_3$).

Agar ushbu omillarga izoh beradigan bo'lsak, birinchi omil mahsulotning rentabelligini (F/M) ifodalaydi, ikkinchi omil esa doimiy xarajatlar mahsuldorligini, ya'ni samaradorligini (M/Dx) o'zida aks ettiradi, uchinchi omil esa foydalilik nuqtasiga erishish uchun zarur bo'lgan mahsul obyektda kamaygan. O'tgan yilda barcha sarflarni qoplash uchun 994,8 dona mahsulot (ish, xizmat) hajmini (Dx/Mf) bildiradi. Bu omillarning o'zaro bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Mmm = \frac{F}{Mf} = \frac{F}{M} \cdot \frac{M}{Dx} \cdot \frac{Dx}{Mf}. \qquad (12.13)$$

Natija, ya'ni iqtisodiy mustahkamlik va yuqorida nomlari qayd qilingan omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ixchamlashtirib, additiv modelni hosil qilish mumkin.

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 = \prod_{i=1}^{3} Xi. \qquad (i = \overline{1,3}) \qquad (12.14)$$

Ushbu formulaga iqtisodiy tahlilning bir qancha usullarini (zanjirli almashtirish, farqli, indeks, integral kabi) qo'llab, natija o'zgarishiga omillarning ta'sirini hisoblash mumkin. Masalan, indeks usulini qo'llab, omillar ta'sirini hisoblash uchun:

1. Natija o'zgarishiga birinchi omil ta'siri ($\Delta Ux_1$) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Ux_1 = (U^r \cdot i_{x1}) - U^r, \qquad (12.15)$$

bunda, $U^r$ — natijaning rejadagi miqdori; $i_{x1}$ — birinchi omilning individual indeksi.

2. Natija o'zgarishiga ikkinchi omil ta'siri ($\Delta Ux_2$) quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Ux_2 = (U^r \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}) - (U^p \cdot i_{x1}), \qquad (12.16)$$

$i_{x2}$ — ikkinchi omilning individual indeksi.

3. Natija o'zgarishiga uchinchi omil ta'sirini ($\Delta Ux_3$) hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta Ux_3 = (U^r \cdot i_{x1} \cdot i_{x2} \cdot i_{x3}) - (U^p \cdot i_{x1} \cdot i_{x2}), \qquad (12.17)$$

$i_{x3}$ — uchinchi omilning individual indeksi.

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga ($\Delta U$) teng bo'ladi:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \pm \Delta Ux_2 \pm \Delta Ux_3. \qquad (12.18)$$

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy mustahkamlik miqdoriga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Tahlilning asosiy vazifalaridan biri shu omillar ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy mustahkamlik miqdori o'zgarishiga uch omil ta'sir qilishi nazariy jihatdan isbotlandi. Endi ushbu nazariy tavsiyaning amalda qo'llanilishini aniq ma'lumotlar qo'llagan holda ko'rib chiqish uchun 12.2-jadvalni tuzish mumkin.

*12.2-jadval*

**Korxonaning iqtisodiy mustahkamligiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirining hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | Zanjirli almashtirish | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III |
| 1. | Mahsulot rentabelligi, % | 0,029 | 8,714 | + 0,685 | 8,714 | 8,714 | 8,714 |
| 2. | Doimiy xarajatlar samaradorligi, koeffitsiyentda | 2,425 | 2,876 | + 0,451 | 2,425 | 2,876 | 2,876 |
| 3. | Foydalilik nuqtasini ta'minlaydigan mahsulot miqdori, dona | 994,8 | 943,0 | 51,8 | 994,8 | 994,8 | 943,0 |
| 4. | Iqtisodiy mustahkamlik miqdori, dona | 193,7 | 236,3 | + 42,6 | 210,2 | 249,3 | 236,3 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida iqtisodiy mustahkamlik miqdori 42,6 donaga ortgan. Ushbu ko'rsatkichga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Mahsulot rentabelligining hisobot yilida 0,685 % ortganligi iqtisodiy mustahkamlik hajmini 16,5 donaga (210,2—193,7) ko'paytirgan.

2. Doimiy xarajatlar samaradorligi ham hisobot yilida 0,451 koeffitsiyentga ko'paygan. Ushbu omil ta'sirida korxonaning iqtisodiy mustahkamligi 39,1 donaga (249,3—210,2) ortgan.

3. Foydalilik nuqtasiga erishish uchun zarur bo'lgan mahsulot hajmining 51,8 donaga kamayganligi korxona iqtisodiy mustahkamlik miqdorini 13,0 donaga (236,3—349,3) kamaytirgan.

Barcha omillar ta'siri natija ko'rsatkichni umumiy farqiga teng:

$$42,6 = 16,5 + 39,1 - 13,0.$$

Ushbu tahlilni nazariy jihatdan tavsiya qilingan indeks usulini qo'llab ham amalga oshirish mumkin. Bunda natija o'zgarishiga omillar ta'sirini quyidagicha hisoblash mumkin:

1. Mahsulot rentabelligining o'zgarishini ifodalovchi individual indeksi 1,085 ni tashkil qiladi. Uning iqtisodiy mustahkamlik miqdoriga ta'siri 16,5 dona bo'ladi.

$$(193,7 \cdot 1,085) - 193,7 = + 16,5 \text{ dona.}$$

2. Doimiy xarajatlar samaradorligining individual indeksi 1,186 ga teng. Ushbu omilning natijaga ta'siri 39,1 donani tashkil qiladi.

$$(193,7 \cdot 1,085 \cdot 1,186) - (193,7 \cdot 1,085) = 249,3 - 210,2 = +39,1.$$

3. Foydalilik nuqtasining hisobot yilidagi individual indeksi 0,948 ni tashkil qildi. Bu omilning natijaga ta'siri salbiy bo'ldi, ya'ni iqtisodiy mustahkamlikni 13,0 donaga kamaytirib yubordi:

$$(193,7 \cdot 1,085 \cdot 1,186 \cdot 0,948) - (193,7 \cdot 1,085 \cdot 1,186) = 236,3 - 249,3 = -13,0.$$

Bu usulda barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$16,5 + 39,1 - 13,0 = 42,6 \text{ dona.}$$

Bunday hisob-kitoblarni iqtisodiy mustahkamlikning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirish mumkin. Ushbu tavsiya amaliyotga joriy qilinsa, korxonalarning erkin raqobat sharoitida ularning raqobatbardoshligini ta'minlash, bankrotlik holatning oldini olish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy jihatdan mustahkam faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun asos bo'ladi. Bu orqali korxona xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy tashxis qo'yish mumkin. Iqtisodiy tahlilni ham nazariy, ham amaliy jihatdan yanada boyitadi va nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega.

### 12.4.3. Moliyaviy mustahkamlikning tahlili

Korxonaning moliyaviy mustahkamligini tahlil qilishda uning faoliyatiga iqtisodiy tashxis qo'yish nuqtayi nazaridan yondashiladi. Har bir korxona faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki moliyaviy jihatdan ham mustahkam bo'lishi kerak. Tegishli ko'rsatkichlar belgilangach, shularga asosan ularning o'zgarish tendensiyalari aniqlanib biror xulosaga kelinadi.

Moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagi ketma-ketlikda tahlil qilinadi:

- moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarning holati o'rganiladi. Unda ko'rsatkichlar tegishli ma'lumotlar asosida aniqlanib, ularning rejadan, me'yordan, o'tgan davr hajmlaridan farqi va ularga nisbatan foizdagi o'zgarishlari aniqlanadi;
- har bir ko'rsatkichning nima evaziga o'zgarganligi aniqlanadi. Bunda ularga ta'sir etuvchi omillar belgilanib, shu omillarning bir-biri va natija bilan bog'liqligi aniqlanadi hamda shu bog'liqlik asosida tegishli hisob-kitoblar amalga oshiriladi;
- har bir ko'rsatkichni o'zgartiruvchi omillar ta'siri hisoblanadi. Bunda tahlilning tegishli usullaridan foydalangan holda natija o'zgarishiga qaysi omillar qay darajada ta'sir qilganligi hisoblanadi;
- tahlil natijalari bo'yicha tegishli hisob-kitoblarga asosan iqtisodiy jihatdan asoslangan xulosa qilinadi. Bunda qaysi omilning ijobiy, qaysisining salbiy ta'sir qilganligi aniqlanib, salbiy ta'sir qilgan omillarni bartaraf qilish, shu orqali korxona moliyaviy mustahkamligini yaxshilash chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Tahlil jarayonida ko'rsatkichlar solishtirma bahoda olinadi, chunki bahoning o'zgarib turishi iqtisodiyotda qiymat bilan belgilanadigan ko'rsatkichlar hajmini aniq ifodalash imkonini bermaydi. Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (12.3-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning rentabellik darajasi o'tgan yildagi 8,029 % o'rniga hisobot yilida 8,714 %gacha ortgan. Uning o'sish sur'ati 108,5 %ni tashkil qiladi.

Biz tahlil qilayotgan korxona bo'yicha me'yordagi rentabellik darajasini shartli ravishda taqriban 10,0 % deb qabul qilingan. Bu me'yor turli sohalarda, turli tarmoqlarda turlicha bo'ladi. Ammo tahlil metodologiyasini yoritish maqsadida misolda keltirilgan

*12.3-jadval*

**Korxonaning moliyaviy mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'sish sur'ati |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Doimiy xarajatlar, ming so'm (Dx) | 1890,1 | 1980,2 | + 90,1 | 104,8 |
| 2. | Foyda, ming so'm (F) | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 3. | Bir mahsulotning qiymati, so'm | 3856 | 4829 | + 973 | 125,1 |
| 4. | Bir mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchi xarajatlar, so'm | 1956 | 2729 | + 0,773 | 139,3 |
| 5. | Barcha mahsulotning miqdordagi hajmi, dona (Mm) | 1188,5 | 1179,3 | − 9,2 | 99,2 |
| 6. | Barcha mahsulotning qiymatdagi hajmi, ming so'm (Mbr) | 4583,3 | 5694,5 | + 1111,2 | 124,3 |
| 7. | Ushbu tarmoqning me'yordagi rentabellik darajasi, % | 10,0 | 10,0 | — | 100,0 |
| 8. | Me'yordagi rentabellik darajasini ta'minlovchi foyda summasi, ming so'm (Fr) (6q · 7q : 100) | 458,3 | 569,5 | + 111,2 | 124,3 |
| 9. | O'zgaruvchi xarajatlarning umumiy hajmi (Ux) (4q · 5q) | 2325,2 | 3218,1 | + 898,9 | 138,4 |
| 10. | Moliyaviy mustahkamlik darajasi koeffitsiyentda (Mmd) (2q: 8q) | 80,3 | 87,1 | + 6,8 | 108,5 |
| 11. | Rentabellik darajasi, % (R) (2q · 100 : 6q) | 8,029 | 8,714 | + 0,685 | 108,5 |
| 12. | Me'yordagi rentabellikning ta'minlanish darajasi (Rtd) (11q : 7q) | 80,3 | 87,1 | + 6,8 | 108,5 |

rentabellik darajasini yaqinroq qilib shu raqamni oldik. Ushbu ko'rsatkich bilan tahlil qilib ko'rilganda moliyaviy mustahkamlikning me'yorga nisbatan hali kamligini kuzatamiz. O'tgan yilda uning miqdori me'yorga nisbatan 80,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yilida 87,1 %gacha ko'tarilgan. Demak, me'yorga nisbatan o'tgan yili 19,7 % kam bo'lgan bo'lsa, bu yil ushbu ko'rsatkich 12,9 %gacha kamayib kelgan. Ushbu holatni ijobiy baholash mumkin. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, hamon moliyaviy mustahkamlik miqdori me'yordan kam. Odatda, me'yor darajasiga va undan yuqori natijalarga ham erishish mumkin.

Korxonaning moliyaviy mustahkamlik darajasini foyda summasida ham, me'yordagi rentabellik darajasiga ham solishtirib ko'rdik. Natija ikki holda ham bir xil chiqdi. Demak, moliyaviy mustahkamlik darajasini moliyaviy natijalarni ifodalovchi

ko'rsatkichlarning u yoki bu turi bo'yicha ham aniqlash mumkin ekan. Faqat eng muhim muammolardan biri me'yordagi rentabellik darajasini aniqlashdan iboratdir. Tahlilning navbatdagi eng muhim bosqichlaridan biri shu tahlil qilinayotgan natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblashdan iboratdir.

### 12.4.4. Moliyaviy mustahkamlik o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

Korxonaning moliyaviy mustahkamligiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Mahsulotning rentabelligi ($X_1$).
2. Doimiy xarajatlar samaradorligi ($X_2$).
3. Foydalilik nuqtasiga erishiladigan mahsulot miqdori ($X_3$).
4. Me'yordagi foyda summasining bir mahsulot qiymati bilan ta'minlanish darajasi ($X_4$).

Ushbu omillarning korxona moliyaviy mustahkamligi bilan bog'liqligini quyidagi multiplikativ model orqali ifodalash mumkin:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 = \prod_{i=1}^{4} Xi. \qquad (i = \overline{1,4}) \qquad (12.19)$$

Formulada keltirilgan omillarning bir-biriga bog'liqligini amaliy ma'lumotlarni qo'llab yechish mumkin. Buning uchun 12.4-jadvaldan foydalaniladi.

*12.4-jadval*

**Korxona moliyaviy mustahkamligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligi hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+, −) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| | Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. | Foyda, ming so'm (F) | 368,0 | 496,2 | + 128,2 | 134,8 |
| 2. | Mahsulot hajmining qiymati, ming so'm (M) | 4583,3 | 3614,5 | + 1111,2 | 124,3 |
| 3. | Doimiy xarajatlar, ming so'm (Dx) | 1890 | 1960,2 | + 90,1 | 104,8 |
| 4. | Bir mahsulot qiymati, so'm (Mq1) | 3856 | 4829 | + 975 | 125,1 |
| 5. | Me'yordagi rentabellik darajasini ta'minlovchi foyda summasi, ming so'm (Fr) | 458,3 | 569,5 | + 111,2 | 124,3 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 6. | Mahsulot rentabelligi, % ($X_1$) (1q · 100 : 2q) | 8,029 | 8,714 | + 0,635 | 108,5 |
| 7. | Doimiy xarajatlar samaradorligi, so'm ($X_2$) (2q : 3q) | 2,425 | 2,876 | + 0,451 | 118,6 |
| 8. | Foydalilik nuqtasi, dona ($X_3$) (3q : 4q) | 490,2 | 410,1 | − 80,1 | 83,7 |
| 9. | Me'yordagi foydaning bir mahsulot qiymati bilan ta'minlanishi, tiyin ($X_4$) (4q : 5q) | 8,41 | 8,48 | +0,01 | 101,2 |
| 10. | Moliyaviy mustahkamlik darajasi, % (1q : 5q) | 80,8 | 87,1 | + 6,8 | 108,5 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, omillarni shakllantiruvchi barcha hajm ko'rsatkichlari o'tgan yilga nisbatan u yoki bu darajada ko'paygan. Natijada, nisbiy ko'rsatkichlar, ya'ni bevosita omillar o'zgarishi turlicha bo'lgan. Masalan, mahsulot rentabelligi 8,5 %, doimiy xarajatlar samaradorligi 18,6 %, me'yordagi foydaning bir mahsulot qiymati bilan ta'minlanish darajasi 1,2 % oshgan bo'lsa, foydalilik nuqtasiga erishadigan mahsulot miqdoriga 16,3 % (100−83,7) kamaygan. Shunga tegishli ravishda ushbu omillarning korxona moliyaviy mustahkamlik darajasiga ta'siri ham turlicha bo'lgan. Ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun tahlilning bir qator usullardan foydalanish mumkin. Bu holatda eng qulay usullardan biri bo'lgan zanjirli almashtirish usulidan foydalanamiz. U holda omillar ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

1. Korxona moliyaviy mustahkamligi, ya'ni natijaning birinchi omil evaziga o'zgarishini ($\Delta Ux_1$) aniqlash uchun rejadagi natijaning hajmini shu birinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblanadi va natijani uning rejadagi miqdori ayriladi:

$$\Delta Ux_1 = (X_1^X \cdot X_2^R \cdot X_3^R \cdot X_4^R) - U^R, \qquad (12.20)$$

bunda, indeks $X$ — omilning haqiqiy miqdori; indeks $R$ — omilning rejadagi miqdori.

2. Natijaga ikkinchi omilning ta'sirini ($\Delta Ux_2$) aniqlash uchun birinchi qayta hisoblangan miqdorni ikkinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblanib, birinchi qayta hisoblangan miqdori ayriladi:

$$\Delta Ux_2 = (X_1^X \cdot X_2^X \cdot X_3^R \cdot X_4^R) - (X_1^X \cdot X_2^R \cdot X_3^R \cdot X_4^R). \qquad (12.21)$$

3. Natija o'zgarishiga uchinchi omil ta'sirini ($\Delta Ux_3$) aniqlash uchun ikkinchi qayta hisoblangan miqdorni uchinchi omil

o'zgarishi bilan qayta hisoblanadi, ya'ni uch omilning haqiqiy miqdori va bir oxirgi omilning rejadagi miqdori olinib ko'paytiriladi. Chiqqan natijada ikkinchi omil o'zgarishi bilan qayta hisoblangan miqdor ayriladi:

$$\Delta Ux_3 = (X_1^X \cdot X_2^X \cdot X_3^X \cdot X_4^R) - (X_1^X \cdot X_2^X \cdot X_3^R \cdot X_4^R). \quad (12.22)$$

4. Natija o'zgarishiga to'rtinchi omil ta'sirini ($\Delta Ux_4$) hisoblash uchun natijaning haqiqiy miqdoridan uning uchinchi omil ta'siri bilan qayta hisoblangan miqdori ayriladi:

$$\Delta Ux_4 = U^X - (X_1^X \cdot X_2^X \cdot X_3^X \cdot X_4^R) \quad \text{yoki}$$

$$\Delta Ux_4 = (X_1^X \cdot X_2^X \cdot X_3^X \cdot X_4^X) - (X_1^X \cdot X_2^X \cdot X_3^X \cdot X_4^R). \quad (12.23)$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga ($\Delta U$) teng bo'lishi kerak:

$$\Delta U = \Delta Ux_1 \pm \Delta Ux_2 \pm \Delta Ux_3 \pm \Delta Ux_4. \quad (12.24)$$

Ushbu nazariy tavsiyalarni amalda qo'llash mumkin. Buning uchun oldingi jadvallarda berilgan ma'lumotlardan foydalangan holda quyidagicha hisob-kitoblarni amalga oshirishni tavsiya qilamiz (12.5-jadval):

*12.5-jadval*

**Korxonaning moliyaviy mustahkamligiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | Zanjirli almashtirish | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III | IV |
| 1. | Mahsulot rentabelligi, % ($X_1$) | 8,029 | 8,714 | + 0,685 | 8,714 | 8,714 | 8,714 | 8,714 |
| 2. | Doimiy xarajatlar samaradorligi, so'm ($X_2$) (6q : 1q) | 2,425 | 2,876 | + 0,451 | 2,425 | 2,876 | 2,876 | 2,876 |
| 3. | Foydalilik nuqtasiga erishiladigan mahsulot miqdori, dona ($X_3$) (1-jadval 10q) | 490,2 | 410,1 | − 80,1 | 490,2 | 490,2 | 410,1 | 410,1 |
| 4. | Me'yordagi foydaning 1 mahsulot qiymati bilan ta'minlanishi, tiyin ($X_4$) (3q : 8q) | 8,41 | 8,43 | + 0,07 | 8,41 | 8,41 | 8,41 | 8,48 |
| 5. | Moliyaviy mustahkamlik darajasi, % (U) | 80,3 | 87,1 | + 6,8 | 87,1 | 103,3 | 86,4 | 87,1 |

Ushbu jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, moliyaviy mustahkamlik darajasi hisobot davrida 6,8 % bandga ko'paygan. Bu quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

1. Mahsulot rentabelligining 0,685 % ortganligi korxonaning moliyaviy mustahkamlik darajasini 6,8 % bandga oshirishga muvaffaq bo'lgan.

$$87,1 - 80,3 = + 6,8\ \%.$$

2. Doimiy xarajatlar samaradorligi hisobot davrida 0,451 so'mga ortgan. Bu omil ta'sirida korxonaning moliyaviy mustahkamlik darajasi 16,2 % bandga ko'paygan:

$$103,3 - 87,1 = + 16,2\ \%.$$

3. Korxonaning foydalilik nuqtasiga erishish uchun zarur bo'lgan mahsulot miqdorining tahlil qilinayotgan davrda 80,1 donaga kamayishi moliyaviy mustahkamlik darajasini 16,9 % bandga kamaytirib yuborgan.

$$86,4 - 103,3 = - 16,9.$$

4. Me'yordagi foydaning bir mahsulot qiymati bilan ta'minlanish darajasi 0,07 tiyin ko'paygan. Ushbu omil ta'sirida natijaning darajasi 0,7 % bandga ortgan:

$$87,1 - 86,4 = + 0,7.$$

Barcha omillar ta'siri, odatdagidek, natijaning umumiy farqiga teng:

$$6,8 + 16,2 - 16,9 + 0,7 = + 6,8\ \%.$$

Ushbu tahlil usulining amaliyotda qo'llanilishi, hozirgi sharoitda korxonaning xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy tashxis qo'yish, biznes-rejani asoslash, auditorlik xulosasini chiqarish, oxir-oqibatda korxonaning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini baholash va tahlil qilish orqali uni yaxshilash chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

## *13-bob.* PUL MABLAG'LARI OQIMINING TAHLILI

### 13.1. Pul mablag'lari oqimi tushunchasi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar

Korxona moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan pul mablag'lari mavjudligi va ularning harakatiga bog'liq bo'ladi. Pul bo'lmasa yoki yetishmasa, korxona sotib olingan tovarlar uchun, ularni yetkazib beruvchilar, soliqlar bo'yicha budjet, mehnat haqi to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitob qila olmaydi. Bularning barchasi kreditorlik qarzlarining ko'payishiga, jarimalarga, olingan kreditorlar uchun foizlar o'sishiga, har xil sanatsiyalarga, qisqasi, to'lov qobiliyati yomonlashuviga olib keladi.

Ko'pincha rahbarlar daromad va ko'p miqdorda foyda olinayotgan bo'lishiga qaramay, mahsulot yetkazib beruvchilar va kreditorlar bilan hisob-kitob qila olmasliklari yoki zarur uskunalarni sotib ololmasliklari sababini tushunmaydilar. Asosiy sabab shundaki, yozilgan va amalda kelib tushgan daromadlar bilan yozilgan va amalda qilingan xarajatlar o'rtasida farq bo'ladi. Foyda, rentabellik, to'lanayotgan soliqlarning katta qismi daromadlar hajmiga qarab hisoblab chiqariladi. Olingan foydadan esa faqat pul mablag'lari mavjud bo'lsagina, amalda foydalanish mumkin bo'ladi. Shu munosabat bilan, menejerlarni daromadlardan ko'ra, korxona hisob raqamiga qancha mablag' kelib tushganligi va uni sarflash mumkinligi, ya'ni pul mablag'lari oqimi ko'proq qiziqtiradi. Pul mablag'lari oqimini bilish uchun rahbar «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da keltirilgan ma'lumotlarni o'qiy olishi, pul tushadigan manbalarni belgilay olishi hamda ulardan qay tarzda samarali foydalanishni bilishi kerak.

Korxona rahbari «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da aks ettiriladigan pul oqimlari bilan korxonaning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da aks ettiriladigan daromadlar va xarajatlar hamda tayyor mahsulot qoldiqlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari aks ettiriladigan buxgalteriya balansi ma'lumotlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni bilishi zarur.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot — moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda pul mablag'larining tushishi, sarflanishi hamda yil boshi va oxiridagi qoldiqlari, shuningdek, investitsiya hamda moliya faoliyatidan keladigan pul mablag'lari aks ettiriladi. Ushbu oqimga pul mablag'lari so'mlarda va valutada kiritiladi. Shu sababli, «Pul oqimlari to'g'risdagi hisobot»da maxsus «Valuta mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumot» mavjud bo'lib, unda davr boshi va oxiridagi valuta mablag'lari qoldig'i hamda ularning kelib tushgan hamda sarflangan summasi ko'rsatiladi. Investorlar, kreditorlar, aksiyadorlar mana shu hisobot asosida korxonalar rahbarlarining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini generatsiyalash, ya'ni ishlab topish, to'plash, shuningdek, xo'jalik faoliyatida samarali ishlatish qobiliyatini aniqlashi mumkin.

Moliyaviy ahvol ko'p jihatdan korxonaning real pul aylanmasiga bog'liq. Korxona ishi samaradorligi, yaxshi moliyaviy ahvoli pul mablag'lari o'z vaqtida va to'liq hajmda tushishi hamda to'lanishining natijasi bo'lishi mumkin. Pul mablag'lari oqimini o'rganish chog'ida foydalaniladigan asosiy atamalar quyidagilardir:

- pul mablag'lari — kassadagi naqd pul va talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar, shuningdek, bank hisob-kitob, valuta va boshqa schyotlaridagi mablag'lardir;
- pul ekvivalentlari — qisqa muddatli likvidli investitsiyalar, pul mablag'lari qiymati o'zgarishidan iborat ozgina xatarga uchrashi mumkin bo'lgan erkin aylantiriladigan pul mablag'lari summalaridir;
- pul oqimlari — pulning va pul mablag'larining hamda so'mlar va valutadagi boshqa ekvivalentlarning qo'shilishi (tushumi) va chiqib ketishi (kamayishidir);
- operatsiya faoliyati — korxonaning daromad keltiradigan xo'jalik faoliyati bo'lib, investitsiya va moliya faoliyati bundan mustasnodir;
- investitsiya faoliyati — uzoq muddatli aktivlarni va pul ekvivalentlariga kiritilmagan boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotishdir;
- moliyaviy faoliyat — xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z sarmoyasi va qarzga olingan mablag'lar miqdori hamda tarkibi o'zgaradi.

Pul mablag'lari oqimini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardir:

- pul mablag'lari tushumi va xarajatlari summasi;

• tushgan va sarflangan pul mablag'lari tarkibi;
• tushgan va sarflangan pul mablag'lari o'rtasidagi saldo;
• tushgan va sarflangan pul mablag'larining nisbati koeffitsiyenti (pul mablag'lari oqimi koeffitsiyenti);
• daromadlar va pul mablag'lari tushumi, xarajatlar va ular bo'yicha amalda to'langan pul mablag'lari nisbati koeffitsiyenti.

Yuqorida qayd etilganidek, pul mablag'lari oqimini o'rganishning asosiy manbalari moliyaviy hisobot, ya'ni 4-shakldir. Ushbu hisobotda barcha pul oqimlari to'rt guruhga: xo'jalik, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyatdan keladigan va soliqqa tortishdan keladigan pul oqimlariga bo'linadi.

Xalqaro standartlarda pul oqimlari uch guruhga: asosiy xo'jalik (operatsiya) faoliyatidan, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyatdan tushadigan pul oqimlariga bo'lingan. To'langan soliqlar asosiy faoliyat xarajatlari sifatida kiritiladi. Asosiy xo'jalik (operatsiya) faoliyatidan tushadigan pul oqimlari jumlasiga quyidagilar kiradi: xaridorlardan olingan pullar; boshqa pul to'lovlari va tushumlari; mahsulot yetkazib beruvchilarga, xizmatchilarga va xizmatchilar nomidan to'langan pullar; to'langan foizlar; to'langan foyda (daromad) solig'i; to'langan boshqa soliqlar. Investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimlariga quyidagilar kiradi: nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish; uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish va sotish; uzoq muddatli va qisqa muddatli omonatlar va xaridlar; olingan va to'langan dividendlar. Moliyaviy faoliyatdan keladigan pul oqimlariga quyidagilar kiradi: sarmoyaga aksiyalar chiqarishdan keladigan tushumlar; uzoq muddatli va qisqa muddatli zayomlar (qarzlar)dan tushumlar; ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar va to'lovlar.

Pul mablag'lari oqimini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$PMQboshlang'ich + PMT = PMX + PMQoxir,$$

bunda, *PMQboshlang'ich* — boshlang'ich davrdagi pul mablag'lari qoldig'i; *PMT* — pul mablag'lari tushumi; *PMX* — pul mablag'lari xarajati (kamayishi); *PMQoxir* — davr oxiridagi pul mablag'lari qoldig'i.

Pul mablag'lari korxonada doimiy ravishda harakatda bo'ladi. Bir qismi uzluksiz tushib tursa, ikkinchidan doimiy ravishda sarf qilinib, ishlatilib turiladi. Bozor munosabatlari sharoitida bu harakatlarni tahlil qilish o'ta muhim hisoblanadi.

## 13.2. Pul mablag'lari tushumini tahlil qilish

Pul mablag'lari oqimlarida ularning tushumi alohida ahamiyatga ega. Bularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

**Xaridorlardan olingan pullar** — hisobot davrida korxonaning bank schyotlariga tushgan yoki jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar evaziga veksellar tarzida kelib tushgan mablag'lar summasidir. Bu summa moliyaviy hisobotda va 1-shaklning 048-satrida ko'rsatiladi.

**Boshqa pul tushumlari** — royaltidan olingan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, turlicha haq to'lashlardan, vositachilik yig'imlari va boshqa daromadlardan olingan pul mablag'lari summasidir (4-sh, 013-satr, 1-sh, 070-satr).

**Royalti** — yer osti boyliklarini qaziganlik, asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanganlik uchun ijara haqi sifatida olingan dividend turlaridan biridir. Bunga mualliflik qalam haqlari kabi tushumlar ham kiradi.

**Olingan foizlar** — berilgan va bank schyotiga, korxonalar kassasiga kelib tushgan kreditlar va qarzlar uchun olingan summadir. Bu kredit va qarzlar «Moliyaviy faoliyatdan ko'riladigan foyda va zararlar» schyotiga yozib qo'yiladi (4-sh, 020-satr, 1-sh, 065-satr).

**Olingan dividendlar** — pul mablag'lari tarzida ham, ularning qimmatli qog'ozlari shaklidagi ekvivalentlari tarzida ham olingan dividendlar summasidir (4-sh, 022-satr, 1-sh, 064-satr).

**Nomoddiy aktivlarni sotish** — materiallarni sotishdan emas, balki boshqa faoliyat turiga kiruvchi korxonaning nomoddiy aktivlarini sotishdan tushgan mablag'lar summasidir (shu jumladan, egri soliqlar summasi), (4-sh, 040-satr).

**Uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotish** — materiallarni sotish emas, balki korxonaning uzoq muddatli moddiy aktivlarini sotishdan tushgan mablag'lar summasidir (shu jumladan, egri soliqlar summasi) (4-sh, 041-satr).

**Uzoq muddatli va qisqa muddatga solingan mablag'lardan tushumlar** — korxonaning o'zi emissiya qilmagan qog'ozlarni sotganligi uchun tushgan mablag'lar summasi, shuningdek, banklar va boshqa yuridik shaxslarning qisqa va uzoq muddatli qarzlari hamda zayomlaridir (4-sh, 042-satr).

**Sarmoya ustidan aksiyalar chiqarishdan kelgan tushumlar** — hisobot davrida sotib olingan aksiyalar uchun aksiyadorlardan tushgan pul mablag'lari summasidir (4-sh, 050-satr).

**Uzoq muddatli va qisqa muddatli zayomlardan kelgan tushumlar** — hisobot davrida tushgan kreditlar va zayomlardan iborat pul mablag'laridir (4-sh, 051-satr).

**Ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar** — ijarachilardan tushgan pul mablag'lari va ekvivalentlari summasi (4-sh, 052-satr).

Yuqorida sanab o'tilgan tushumlar korxona ixtiyoriga amalda kelib tushgan mablag'larning summasidir. Ularni korxonaning daromad summasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Daromad summasi korxonaning daromadiga yozilgan bo'ladi. Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlar summasi va ulushining hisobot davridagi o'zgarishi hamda bu o'zgarishning sabablari aniqlanadi. Pul oqimlarining ijobiy yoki salbiy tarafga o'zgarganligini aniqlab, tegishli xulosa chiqarilgan holda ularni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi.

### 13.3. Pul mablag'lari chiqib ketishini tahlil qilish

Hisobot davrida turli operatsiyalarni qoplashga sarflanadigan pul mablag'lari pul mablag'larining chiqib ketishi deb yuritiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

**Mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan pul** — mahsulot yetkazib beruvchilarga moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'langan pul mablag'lari va berilgan veksellar summasi (nomoddiy va uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olganlik uchun to'lovlar bunga kirmaydi) bo'lib, uning to'lanishi 040 va 041-satrlarda aks ettiriladi (1-sh, 011-satr, 1-sh, 077-satr).

**Xizmatchilarga va xizmatchilar nomidan to'langan pullar** — ish haqi, mukofot, shuningdek, turli fondlar: pensiya, ish bilan bandlik, shaxsiy va ijtimoiy sug'urta hamda ta'minot fondlariga to'langan pul mablag'lari summasi, budjetga daromad solig'i, alimentlar, uy-joy fondiga, banklarning kreditlari uchun xodimlarga berilgan to'lovlar; korxonaning xodimlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar haqini to'lashi va kassadan hamda bank schyotlaridan xarajat qilingan boshqa pul mablag'lari.

**Boshqa pul to'lovlari** — royaltidan to'langan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, turlicha to'lovlar, savdo va dillerlik maqsadlari bo'yicha tuziladigan bitimlar yuzasidan to'lanadigan vositachilik haqlari, konvertatsiyalarni amalga oshirganlik uchun bankka to'lanadigan vositachilik haqi va shu kabilar (4-sh, 013-satr).

**To'langan foizlar** — banklarning kreditlaridan va zayomlardan

hamda boshqa yuridik shaxslar mablag'laridan foydalanganlik uchun to'langan foizlar summasi (4-sh, 021-satr, 1-sh, 110 va 111-satrlar).

**To'langan dividendlar** — ham pul mablag'lari tarzida, ham ekvivalentlar tarzida to'langan dividendlar summalaridir (4-sh, 023-satr, 1-sh, 108-satr).

**To'langan daromad (foyda) solig'i** — foyda (daromad)dan to'langan soliq summasi (4-sh, 030-satr, 1-sh, 124-satr).

**Boshqa to'langan soliqlar** — to'langan barcha soliqlar, poshlinalar va ularga tenglashtirilgan yig'im hamda ajratmalar summasi foyda va daromad solig'i bunga kirmaydi (4-sh, 031-satr, 1-sh, 139-satr—124-satr va 132-satr).

**Moddiy aktivlarni sotib olish** — nomoddiy aktivlarni sotib olganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to'langan (shu jumladan, oldindan haq to'lash tarzida) pul mablag'lari va ekvivalentlar summasi (4-sh, 040-satr, 1-sh, 086-satr).

**Uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish** — uzoq muddatli moddiy aktivlar — ko'chmasmulk, binolar, inshootlar va asosiy vositalarning boshqa turlarini sotib olganlik uchun to'langan pul mablag'lari va ekvivalentlar (shu jumladan, oldindan haq to'lash tarzida) summasi (4-sh, 041-satr).

**Uzoq muddatga va qisqa muddatga solingan mablag'lar** — qimmatli qog'ozlarni sotib olganlik uchun to'langan pul mablag'lari, shu jumladan, vositachilarga to'langan haq va birja foizlari, shuningdek, tajriba-konstruktorlik ishlari uchun kapitallashtirilgan xarajatlar bilan bog'liq to'lovlar (4-sh, 042-satr).

**Ijara majburiyatlari bo'yicha to'lovlar** — moddiy aktivlarni ijaraga olganlik uchun ijaraga beruvchiga to'langan pul mablag'lari va ekvivalentlari summasi (4-sh, 052-satr, 1-sh, 103-satr).

**Xorijiy valutadagi operatsiyalardan keladigan pul oqimlari** operatsiyalar amalga oshirilgan sanaga Markaziy bank tomonidan belgilangan almashuv kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi valutasida aks ettiriladi, valuta mablag'larining qoldig'i esa moliyaviy hisobot tuzilgan sanadagi almashuv kursi bo'yicha aks ettiriladi. Hisobot yilidagi pul mablag'larini tahlil qilish chog'ida pul mablag'larining tushumi va kamayish summasi hamda tuzilishini ularning turlari bo'yicha aniqlash zarur. Pul mablag'larining kirimi va xarajatini taqqoslash uchun 13.1-jadval tuziladi.

Kirimning chiqimlardan ortiq bo'lishi korxona barqaror ishlaganligini, to'lov qobiliyati yaxshilanganligini va uning pul mablag'lari ko'payganligini ko'rsatadi. Lekin keltirilgan misolda

*13.1-jadval*

**«Turon» OTAJning hisobot yilidagi pul mablag'lari oqimini baholash hisob-kitobi**

(ming so'm)

| Pul oqimi koeffitsiyenti | Pul oqimi | | | | | | Pul oqimi koeffitsiyenti miqdori |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Kirim | | Chiqim | | Farqi | | |
| | summasi | salmog'i | summasi | salmog'i | summasi | salmog'i | |
| Asosiy faoliyatdan | 19962,6 | 99,6 | 20026,9 | 99,7 | – 64,3 | – 0,1 | 0,99 |
| Investitsiya faoliyatdan | 38,7 | 0,2 | 35,4 | 0,2 | + 3,3 | — | 1,09 |
| Moliyaviy faoliyatdan | 35,7 | 0,2 | 21,7 | 0,1 | + 14,0 | 0,1 | 1,64 |
| Butun xo'jalik faoliyatdan | 20037,0 | 100 | 20084,0 | 100 | – 47,0 | — | 0,99 |

chiqim pul mablag'lari tushumi summasidan 47,0 ming so'm ortiq bo'lib, u pul qoldiqlarining kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. Buni buxgalteriya balansidan ko'rish mumkin. U yerda pul mablag'lari yil oxirida 47,0 ming so'mga kamaygan. Pul oqimi tarkibiga qarab, pul mablag'lari tushumi va chiqimining asosiy manbai: operatsiya, investitsiya, moliya faoliyati kabi yo'nalishlarda aniqlanadi. Keltirilgan misolda pul mablag'larining kelishi va sarflanishi, asosan, korxona operatsiya faoliyatiga, ya'ni asosiy faoliyatiga to'g'ri keladi. Uning ulushi 99,7 %ni tashkil qiladi. Pul mablag'lari oqimini baholash ham pul mablag'lari oqimi koeffitsiyentlari asosida: umuman xo'jalik faoliyati asosiy, investitsiya va moliya faoliyati tarzida amalga oshiriladi.

Pul mablag'lari oqimining koeffitsiyentlari har bir ko'rsatkich bo'yicha pul oqimlari to'lovlardan qanchalik ko'p yoki kamligini ko'rsatadi. Ular pul mablag'lari tushumi summasining xarajat summasiga nisbati sifatida hisoblanadi. Pul mablag'lari oqimini o'rganganda yozilgan daromadlar va xarajatlar summasini amalda tushgan hamda to'langan pul mablag'lari bilan taqqoslash zarur.

Korxonalar rahbarlari ishlab topilgan daromad ham real bo'lmasligini, yozilgan xarajat esa haqiqatan ham to'langan bo'lmasligini nazarda tutishlari kerak. Daromad ishlab topilgan vaqtda, ya'ni sotuvchi daromadni pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari egasiga aylanishidan oldin tan olganida hisobga olinadi.

Moliyaviy hisob konsepsiyalarida hisoblab yozish va muvofiqlik tamoyillari amal qiladi. Bu tamoyillarga ko'ra, daromadlar tovarlar

sotilgan yoki xizmatlar ko'rsatilgan paytda, pul mablag'larini olish vaqtidan qat'iy nazar, e'tirof etiladi. Xarajatlar, pul mablag'lari qachon to'lanishidan qat'iy nazar, xarajatlar bilan bog'liq daromad e'tirof etilgan paytda tan olinadi. Amalda daromadni yozish bilan pul mablag'larining tushumi o'rtasida, xarajat qilish bilan operatsiya uchun pulni o'tkazish (haqni to'lash) o'rtasida ko'pincha nomuvofiqlik bo'ladi.

Yozilgan daromad va xarajatga qarab, olingan foyda va to'lanadigan soliqlar miqdorlari aniqlanadi. Biroq mana shu daromad pul mablag'lari shaklida yaqin vaqt ichida amalda kelib tushmasligi ham mumkin. Mahsulot sotishdan keladigan sof tushumni (2-sh, 050-satr) xaridorlardan olingan pullar bilan (2-sh, 010-satr) taqqoslash asosida mahsulot sotishning debitorlik qarzi ko'payishi yoki kamayishiga ta'siri belgilanadi (1-sh, 220, 440 va 450-satrlar). Masalan, hisobot yilida tovarlarni sof holda sotish summasi hisobot bo'yicha 200 mln so'mni tashkil etgan. Aslida esa xaridorlardan 180 mln so'm pul mablag'i tushgan, ya'ni sotilgan tovarlar uchun xaridorlardan 20 mln so'm kam kelgan. Mana shuncha summaga debitorlik qarzi ko'paygan. Bunday holda daromadlar tushish koeffitsiyenti 0,90 (180/200) ni tashkil etadi.

«Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» 60-schyoti krediti bo'yicha «Bosh daftar» ma'lumotlarini, ya'ni sotib olingan tovarlar uchun mahsulot yetkazib beruvchilarga qarzning yozilgan summasi bilan mahsulot yetkazib beruvchilarga to'langan summani (4-sh, 011-satr) taqqoslash kreditorlik qarzi ko'paygani yoki kamayganini ko'rsatadi (1-sh, 450-satr).

«Shu'ba va assotsiatsiyalashgan korxonalardan olingan dividendlar», «Olingan boshqa dividendlar» ma'lumotlarining (2-sh, 120 va 125-satrlar) «Olingan dividendlar» ma'lumotlari bilan (4-sh, 022-satr) farq qilishi debitorlik (1-sh, 260, 270-satrlar) va kreditorlik (1-sh, 510—520-satrlar) qarzlari ko'payishi yoki kamayishni qayd etadi. «Olingan va shu'ba hamda uyushgan korxonalarga berilgan qarzlar bo'yicha foizlar», «To'langan va olingan boshqa foizlar» ma'lumotlarining (2-sh, 130 va 135-satrlar) «Olingan foizlar» (4-sh, 020-satr) va to'langan foizlar (4-sh, 021-satr) ma'lumotlari bilan farq qilishi debitorlik (1-sh, 260 va 270-satrlar) va kreditorlik (1-sh, 510 va 520-satrlar) qarzlari ko'payganligi yoki kamayganligini ko'rsatadi.

Pul oqimlari o'zgarishi tamoyillarini, ularning korxona moliyaviy ahvoliga ta'sirini aniqlash, shuningdek, pul mablag'lari oqimini oldindan bilish uchun oxirgi bir necha yil ichida pul mablag'lari oqimining summasi, tuzilishi va koeffitsiyenti o'zgarishini o'rganish zarur. Shunday qilib, pul mablag'larini ishlab chiqarishni kengaytirishga jalb etish, istiqbolini belgilash va kutilmaganda yuz berishi mumkin bo'lgan noqulay vaziyatlarni oldindan nazarda tutish imkonini beradi. Bu hol korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash sohasida rahbariyatni strategiya va taktika ishlab chiqishga hozirlaydi.

# *14-bob.* ISHLAB CHIQARILGAN VA SOTILGAN MAHSULOT TAHLILI

## 14.1. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotni ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni tahlil qilish

Korxona ishi, xususan, sotishdan kelgan tushum, xarajatlar hajmi, mahsulot tannarxi, asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari, debitorlik va kreditorlik qarziga miqdor hamda sifat jihatidan ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil — ishlab chiqariladigan mahsulot hajmidir. Bu korxona ish faolligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona mahsulot turlari va ularni sotish hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Korxona rahbarlari bunday qaror qabul qilayotganida bozorni marketing jihatdan puxta tadqiq qilishi, mahsulot miqdori, sifati va tannarxi jihatidan o'z imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, biznes-reja tuzishi zarur. Moliyaviy, statistik va operativ hisobotlar mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlarini o'rganishning asosiy manbai hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotda bu ma'lumotlar tegishli ravishda «Moliyaviy hisobotlar haqidagi hisobot», «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot», «Pul mablag'lari oqimlari to'g'risidagi hisobot», «Yil mobaynidagi mahsulotlar bo'yicha korxona (birlashma) hisoboti», «Mehnat hisoboti», «Tayyor mahsulot haqidagi hisobot», «Korxona (tashkilot)ning mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflangan xarajatlari to'g'risidagi hisobot» shakllarida taqdim etiladi. Ishlab chiqarish dasturining bajarilishi va mahsulot sotilishini batafsil o'rganish maqsadida, shuningdek, operativ hisobot, hisob registrlari va boshlang'ich hisob ma'lumotlaridan foydalanish lozim.

Mazkur korxonaning ishini solishtirma tahlili zarur bo'lsa, xuddi shunday korxonalar hisob materiallari qo'llaniladi. Hisobotning ehtimoliy shakllaridan bir-birini to'ldiruvchi sifatida foydalaniladi. Ishlab chiqarishni samarali boshqarish, o'z vaqtida

zarur choralarni ko'rishni istagan har bir rahbar ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari: yalpi tovar, tayyor va sotilgan mahsulot, natural ko'rinishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, sotishdan kelgan yalpi va sof foydani bemalol boshqarishi, shuningdek, ular haqidagi ma'lumotlarni tegishli hisobotlardan o'qib olishi lozim.

**Yalpi mahsulot hajmi** korxonaning solishtirma ulgurji narxlarida (QQS va aksiz solig'isiz) hisoblanadi. Yalpi mahsulot ko'rsatkichi korxonaning hisobot yilida amal qilinadigan ulgurji narxlarida aks etadi. Bu ma'lumotlar 1-shaklning 810 va 821-satrlari hamda 5-shaklning 011-satrida ko'rsatiladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha xodimlar soni, mehnat unumdorligi va uch turdagi xarajatlarni: ish haqi, umumishlab chiqarish va ma'lum bir davr xarajatlarini aniqlash mumkin.

**Tovar mahsuloti** sotishga tayyorlangan buyumlar qiymatida ko'riladi va u korxonaning amaldagi ulgurji narxlarida baholanadi. Reja bajarilishini kuzatish uchun tovar mahsulotining butun hajmi rejadagi narxlarda qayta hisoblanadi. Hisobotda bo'lmagan tovar mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni hisob-kitob qilish yo'li bilan olish mumkin.

Muayyan davr uchun **tayyor mahsulot** ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham hisobotda ko'rsatilmaydi. Biroq, hisobot davri boshi va oxiridagi qoldiqlar haqidagi ma'lumotlar «Buxgalteriya balansi»ning 140-satridan bilib olinadi. Tayyor mahsulotning jami summasi «Bosh daftar» bo'yicha «Tayyor mahsulot» bo'limining 40-schyotidan hisoblab topiladi.

**Tovarlar sotilishi** ko'rsatkichlari «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shaklining 010 va 050-satrlarida mavjud. Korxona rahbarlari hisobot bilan tanishayotganda yalpi tovar va sotilgan mahsulotning o'zgarish sur'atiga e'tibor qaratishlari darkor. Tayyor mahsulotdan ortiq yalpi mahsulot hajmlari tugallanmagan ishlab chiqarish ko'payganligini ko'rsatishi mumkin. Bu muayyan xomashyo va mahsulot turlari yetarli emasligi yoki yo'qligini aks ettiradi. Agar tayyor mahsulot sotilmasdan ko'payib ketsa, unga talab yo'qligi, tovar sifati pastlashganligi, marketing yomon tashkil etilganligini bildiradi.

Mahsulot sifati jahon andozalari va texnik shartlarga mosligi, xaridorlar bergan reklamatsiya va shikoyatlari, komplektliligi bilan tavsiflanadi.

Har bir korxona ishlab chiqarish hajmlariga mos ishlab chiqarish zaxiralariga ega bo'lishi joiz. Ularning kamomadi korxona

faoliyatidagi uzilishlarga, ortiqligi esa oborot mablag'larining sekin aylanishiga olib keladi. Bundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 1999-yil 3-martda 22-sonli «Me'yordan ortiqcha ishlab chiqarish zaxiralari uchun budjetga haq hisoblash va to'lash bo'yicha Yo'riqnoma»ni chiqardi. Ushbu Yo'riqnomaning asosiy maqsadi korxona va umuman, iqtisodiyot moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadigan me'yordan ortiqcha ishlab chiqarshi zaxiralarini kamaytirishdir.

Korxona rahbarlari, shuningdek, «Buxgalteriya balansi»ning 120-satr bo'yicha ishlab chiqarish zaxiralari qoldig'i o'zgarishini tahlil etishi zarur. Ishlab chiqarish zaxiralari summasining ko'payishi yoki kamayishi korxona xo'jalik faoliyatidagi jiddiy o'zgarishlardan dalolat bermaydi. Ishlab chiqarish zaxiralari o'zgarishi sur'atlarini tayyor mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va sotish summasi hajmining o'zgarish sur'atlari bilan taqqoslash zarur. Ishlab chiqarish zaxiralari sotilgan mahsulot hajmidan oshib ketsa, me'yordan ortiqcha zaxira to'plangan hisoblanadi. Bu oborot mablag'lari aylanishining qisqarishi, ishlab chiqarishdagi uzilishlar va budjetga soliqlar to'lanishining ko'payishiga olib keladi.

**Tugallanmagan ishlab chiqarish** haqidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansining 130-satrida yil boshi va oxiridagi qoldiqlar sifatida aks ettiriladi. Bu aylanma mablag'larning bir qismi hisoblanadi. Tayyor mahsulotga nisbatan tugallanmagan mahsulotlarning ko'payib ketishi ishlab chiqarish jarayonining zarur materiallar bilan yetarlicha ta'minlanmaganligini ko'rsatadi.

Korxona yoki tashkilotning **yalpi tushumi** — mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan kelgan butun tushum, bunda xaridorlar va buyurtmachilar to'laydigan soliqlar ham hisoblanadi, qaytarilgan tovarlar hamda tayyor mahsulot, xaridorlarga sotish narxlaridan berilgan chegirmalar ayriladi. U «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ning 010-satrida aks ettiriladi.

**Sotishdan kelgan sof tushum** — sotilgan mahsulot, tovarlar, ishlar, xizmatlar, shuningdek, korxonaning yordamchi, qo'shimcha va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari chetga sotgan xizmatlar; xo'jalik hisobida bo'lmagan hamda xo'jalik va boshqa tijorat faoliyatidan foyda ko'radigan tashkilotlar tomonidan olinadigan daromadlardan tashkil topadi. U shaklning 050-satrida ko'rsatiladi. Yalpi va sof tushum korxonaning asosiy faoliyatidan olingan daromad bo'lib, uning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy hisobotni tahlil qilayotganda sotishdan kelgan tushumni xaridorlardan olingan summa bilan solishtirilishi zarur

(«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»ning 010-satri). Sotishdan kelgan tushum summasi qanchalik yuqori bo'lsa, korxona schyotiga kelib tushadigan daromad ham shunchalik ko'p bo'ladi. Ular orasidagi farq debitorlik qarzdorligida ko'rsatiladi. Korxona olingan butun daromadni emas, balki kelib tushgan pul mablag'larini sarflashi mumkin, xolos.

**Xaridorlardan olingan pul** — hisobot davrida korxona bank hisob-varag'iga kelib tushgan pul mablag'lari summasi yoki ortilgan mahsulot, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun veksel ko'rinishidagi to'lovlardir.

Rejalashtirish va hisob yuritish maqsadida ko'rsatilganlardan tashqari natural va nisbiy-natural ko'rsatkichlar qo'llaniladi. So'nggilaridan turli faktura yoki hajmdagi mahsulotni o'lchashda foydalaniladi. Bunda o'tkazma koeffitsiyent yordamida shartli birliklarda chiqarilgan mahsulot qayta hisob-kitob qilinadi. Non mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida ularning og'irligi, alkogolsiz ichimliklar va vinochilikda — dekalitrlaridagi hajmi, konserva sanoatida — nisbiy konserva bankalari shunday o'lchov birligi bo'lishi mumkin.

Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun ularning hisobot yilidagi ma'lumotlarini o'tgan yil ma'lumotlari, rejadagi ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Tahlilning navbatdagi vazifasi esa ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va shu omillar ta'sirini hisoblashdan iboratdir. Ko'p hollarda bu, ayniqsa, amaliyotda faqat joriy baholarda aniqlanadi. Ammo haqiqiy vaziyatga to'g'ri baho berish uchun bu yetarli emas. Shu tufayli tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlarning taqqoslanadigan bahoda ifodalanishini ta'minlash lozim.

Tahlilning muhim vazifalaridan biri ushbu ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganishdan iboratdir. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulotning o'sishi biznesning istiqbolidan dalolat beradi. Bu esa shu ishlab chiqarish biznesini baholash imkonini tug'diradi.

## 14.2. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmining tahlili

Ushbu ko'rsatkichlar tahlili ishlab chiqarish dasturining bajarilishini o'rganishdan boshlanadi. Dastlab, yalpi va tayyor mahsulotning sotilgan mahsulot hajmiga nisbatan o'zgarishini hisoblash zarur. Buning uchun 14.1-jadval tavsiya qilinadi.

*14.1-jadval*

**«Turon» OTAJ bo'yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishi va sotilgan mahsulotlar hisob-kitobi**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yili | | Farqi (+, −) | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Reja-da | Haqi-qatda | rejaga ko'ra | | o'tgan yilga nisbatan | |
| | | | | summasi | o'zgarish sur'ati, % | summasi | o'zgarish sur'ati, % |
| Korxonaning ulgurji narxlarida yalpi mahsuloti | 13300 | 18500 | 17400 | − 1100 | − 6,0 | + 4100 | + 30,8 |
| Korxonaning ulgurji narxlaridagi tayyor mahsuloti | 13282 | 18000 | 17239 | − 761 | − 4,2 | + 3957 | + 29,8 |
| Sotilgan mahsulot hajmi, QQS va aksiz solig'isiz | 9951 | 15484 | 16428 | + 944 | + 9,5 | + 6477 | + 41,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yalpi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 6,0 %ga, tovar mahsuloti bo'yicha 4,2 %ga reja bajarilmaganligini ko'rsatadi. O'tgan yilga nisbatan yalpi mahsulot 30,8 %ga yoki 4100 ming so'mga, tovar mahsuloti esa 3957 ming so'mga yoki 29,8 %ga ko'paydi. Mahsulot hajmidagi bunday farqlar tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i kamayganligiga olib keladi («Buxgalteriya balansi», 130-satr).

Sotilgan mahsulot hajmi rejaga ham, o'tgan yilga nisbatan ham ko'paygan. Bu tayyor mahsulotning qoldig'i kamayishiga olib kelgan. Qator yillar ichidagi yalpi, tayyor va sotilgan mahsulot o'zgarishi dinamikasi mutlaq o'zgarishni hamda bazis davri va o'tgan yilga nisbatan nisbiy o'zgarish sur'atlarini aniqlashni taqozo qiladi. Besh yil uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini hisob-kitob qilish usuli 14.2-jadvalda keltirilgan.

Dinamikani hisob-kitob qilish uchun ma'lumotlar solishtirma narxlarda beriladi. Tayyor mahsulot hajmini narxlar indeksini hisobga olgan holda hisob-kitob qilish uchun mazkur yil tayyor mahsulotini narxlar indeksiga bo'lish zarur. Masalan, «Turon» OTAJ bo'yicha 2002-yil tayyor mahsulot hajmi ($RP_{98}$) 1998-yil solishtirma narxlarda 5070 ming so'mni tashkil etgan.

$$RP_{98} = 17239 : 3,4 = 5070.$$

*14.2-jadval*

**1998–2002-yillar uchun «Turon» OTAJning tayyor mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi**

(ming so'm)

| Yillar | Tayyor mahsulot narxi | | Narx indeksi | 1998-yilga nisbatan mutlaq farqi | | 1998-yilga nisbatan o'zgarish sur'ati | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | amaldagi narxlarda | taqqoslama narxlarida | | amaldagi narxlarda | 1998-yil narxlarida | amaldagi narxlarda | 1998-yil narxlarida |
| 1998 | 8350 | 8350 | 1 | — | — | 100 | 100 |
| 1999 | 9970 | 4532 | 2,2 | 1620 | – 3818 | 119,4 | 54,3 |
| 2000 | 11600 | 4461 | 2,6 | 3250 | – 3889 | 138,9 | 53,4 |
| 2001 | 13282 | 5108 | 2,6 | 4932 | – 3242 | 159,1 | 61,2 |
| 2002 | 17239 | 5070 | 3,4 | 8889 | – 3280 | 206,5 | 60,7 |

14.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «Turon» OTAJ bo'yicha tayyor mahsulot hajmi 5 yil ichida amaldagi narxlarda o'sish tamoyiliga ega. Lekin 2002-yil solishtirma narxlarida tayyor mahsulot ishlab chiqarish kamaygan va 60,7 % bo'lgan. Tayyor mahsulot mutlaq o'zgarishlarining amaldagi va solishtirma narxlardagi hisob-kitobi ishlab chiqarish hajmi narxlar jiddiy o'sishi oqibatida ortganligi, aslida esa ishlab chiqarish jismoniy hajmi kamayganligini ko'rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, shuningdek, xomashyo va materiallar bilan ta'minlanganlik, moddiy-texnika bazasi va mehnat resurslari holati va ulardan samarali foydalanish ham ta'sir ko'rsatadi.

Xomashyo va materiallar bilan ta'minlanganlik masalalarini o'rganayotganda yetkazib berish hajmi, sifati va belgilangan narxlarga mosligini aniqlash zarur. Xomashyo va materiallar mahsulot ishlab chiqarishga belgilangan me'yorlar bo'yicha sarflanadi. Odatda, me'yordan farq qilishi xomashyo sifati yomonligi, chiqimlar foizi kattaligi tufayli amalga oshadi. Amaldagi xomashyo va materiallar sarfini har bir mahsulot turi bo'yicha me'yor bilan taqqoslash, ularning farqlarini aniqlash va ular sababini o'rganish zarur. Korxona rahbarlari xomashyo va materiallar yetkazish shartnomalari to'g'ri tuzilganligiga: muddatlar, hajmlar, sifat va narx, shuningdek, shartnoma shartlari buzilganida qo'llaniladigan jazo choralarining muqarrarligiga e'tibor berishlari lozim.

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o'z navbatida korxonaning uni sotgandan olgan daromadiga ta'sir qiladi. Sotilgan mahsulot

hajmlarini o'rganish ko'p jihatdan mahsulot ishlab chiqarish rejasini tahlil etishga o'xshaydi. Uni sotishdan olingan daromadlar haqidagi ma'lumotlar «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»dan olinadi. Bunda 010 va 050-satrlarda mahsulot sotishdan kelgan tushum va sof tushum aks ettiriladi.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona tovarlarini shartnoma asosida (erkin) ulgurji narxlarda sotadi. Bunga mahsulot tannarxi, foyda, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va transport xarajatlari kiritiladi. Korxona rahbari mahsulot sotilishini o'rganayotganda olingan daromadlarni («Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot», 010 va 050-satrlar) sotilgan tovarlar uchun amaldagi pul tushumlari («Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot», 010-satr) ma'lumotlari bilan solishtirishi kerak. Agar farq katta bo'lsa, bu debitorlik qarzdorligida aks ettiriladi («Buxgalteriya balansi», 260 va 270-satri).

Sotilgan mahsulotdan kelgan tushum, uning o'zgarishi korxonaning amaliy faolligini tavsiflaydi. Sotish hajmi ishlab chiqarishga asoslangan korxonalar ishining barcha miqdor va sifat ko'rsatkichlari: foyda summasi, rentabellilik darajasi, asosiy hamda oborot mablag'laridan foydalanish samaradorligi, umuman, moliyaviy holatga ta'sir ko'rsatadi.

# *15-bob.* MOLIYAVIY BARQARORLIKNI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI

## 15.1. Moliyaviy barqarorlik mohiyati va uni tahlil qilish zarurligi

Bozor iqtisodiyoti korxona faoliyatini erkin va mustaqil boshqarishni taqozo qiladi. Endi boshqarish iqtisodiy dastaklar bilan amalga oshiriladi. Rejali iqtisodiyotda rahbarning asosiy funksiyasi korxonani reja dastagi orqali boshqarish edi. Barcha kuch va imkoniyat rejani bajarishga qaratilardi. Bugun rahbar boshqarish bilan birga mehnatkashlar bilan ham bevosita ishlaydigan bo'ldi. Uning mas'uliyati va javobgarligi ham ortdi. Ilgari rahbar korxona zarar bilan ishlasa ham xotirjam edi. Unga faqat davlat rejasi bajarilsa bas. Zarar davlat yoki yuqori tashkilot buyrug'i bilan boshqa korxonalar hisobidan qoplanar edi. Endi ahvol butunlay o'zgardi. Agar korxona zarar bilan ishlasa, uning faoliyati to'xtab qolishi muqarrar. Oldingidek rahbar bir tashkilotni moliyaviy inqirozga uchratib, ikkinchisiga bemalol o'tib ishlashi mutlaqo mumkin emas. Korxonalar aksariyat hollarda davlat tasarrufidan chiqarilib, jamoa va xususiy mulkka aylandi.

Shunday qilib, endilikda korxonani boshqarishda iqtisodiy dastaklarning mohiyati keskin o'zgardi. Shu bilan birga oldin rahbar bo'lish uchun ma'lum ma'muriy pog'onalardan o'tib kelar edi. Endi esa har bir tadbirkor mustaqil korxona ochib, rahbarlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Korxonani boshqarishda bugungi kunda axborotlar muhim ahamiyatga ega. Bu axborotlarning asosiy qismi moliyaviy hisobotlarda ifodalanadi. Demak, o'z-o'zidan ayonki, moliyaviy hisobotlar korxona faoliyati natijasini ifodalovchi ko'zgu. Hozir har bir mutaxassis, rahbar moliyaviy hisobotlarning iqtisodiy tomonini to'la bilishi, undan tegishli xulosa chiqarib, boshqarishda foydalana olishi lozim.

Oldin korxona moliyaviy hisobotining asosi bo'lgan buxgalteriya balansidagi ma'lumotlar boshqarishda deyarli ishtirok etmas edi. Oqibatda korxonaning real iqtisodiy ahvoliga to'g'ri baho berilmagan.

Endilikda boshqarish korxonaning moliyaviy hisobotiga asosan amalga oshiriladi. Bu esa har bir kishidan uni iqtisodiy jihatdan to'g'ri o'qiy olishni talab qiladi.

Moliyaviy hisobotlar juda katta axborotlar manbaiga egaligi tufayli u tahlil qiluvchi asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi. Malakali iqtisodchi uni shunchaki qarab chiqib, o'zi uchun korxonaning moliyaviy ahvoli qanday holatda ekanligi to'g'risidagi tegishli ma'lumotni oladi. Endilikda korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshi bilmasdan faoliyat ko'rsatish va uni boshqarishda korxona istiqbolidan mahrum etish yoki uni qorong'i yo'ldan yurishga majbur qilish demakdir. Shu tufayli korxona istiqbolini to'g'ri aniqlab olish uchun uning faoliyatini moliyaviy hisobotlar orqali chuqur o'rganib olish lozim.

Korxona moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muhimi uning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Ammo moliyaviy barqarorlikka tegishli ko'rsatkichlar, ularni hisoblash yo'llari va tahlili iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Shu tufayli bu ko'rsatkichlarni tahlil qilish hozirgi kunda juda muhim va dolzarb hisoblanadi.

## 15.2. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi

Moliviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni iqtisodiy mohiyati jihatidan besh guruhga bo'lish mumkin:

1. Xususiy mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
3. Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
4. Aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
5. Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlar turkumi 15.1-chizmada ifodalangan.




*15.1-chizma.* Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar turkumi o'z navbatida bir qancha alohida ko'rsatkichlardan iborat. Bu ko'rsatkichlar guruhi, hisoblash yo'llari va nimani ifodalashi 15.2-chizmada keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar tizimiga kiruvchi har bir guruh ko'rsatkichlar o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarga bo'linadi. Masalan, xususiy kapital bilan bog'liq ko'rsatkichlarga uchta, chetdan jalb qilingan mablag'larga to'rtta, harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarga to'rtta va aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarga beshta ko'rsatkichlar kiritilgan. Bunday ko'rsatkichlar tizimi amaliyotda foydalanish uchun juda qulaydir. Ammo har bir ko'rsatkich bo'yicha to'liq xulosaga kelish uchun ularning har bir guruhiga alohida to'xtalishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Bu esa o'z navbatida har bir ko'rsatkichni hisoblash yo'llari va ularning nimani ifodalashini ko'rsatib berish bilan birgalikda ularning amaliyotda qo'llanilishi uchun qulaylik tug'diradi va o'rganishni osonlashtiradi. Shu maqsadda moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni hisoblash yo'llari va nimani ifodalashini ko'rsatuvchi jamlangan jadvalni tuzishni lozim deb topdik (15.1-jadval). Ushbu jadval 15.2-chizmadagi barcha ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llarini izohlash uchun asos bo'ladi. Eng muhimi shu ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan oldin ular guruhlari nimani ifodalashi to'g'risidagi qisqacha ma'lumotga ega bo'linadi. Bundan tashqari, ushbu ko'rsatkichlar tizimi bo'yicha amaliy ma'lumotlarni qo'llash ham yechimni osonlashtiradi. Biroq tahlil qilish uchun ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish lozim. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichlarning har bir guruhi bo'yicha tahlil qilish usullarini ko'rib chiqamiz.

## 15.3. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli yuqorida tavsif qilingan ko'rsatkichlarning buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hisobot shakllarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga asosan hisoblash usullarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

### 15.3.1. O'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili

Bu guruh ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: o'z mablag'lari (xususiy kapital) ning to'planish (konsentratsiyasi) koeffitsiyenti;




*15.2-chizma.* Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti va o'z mablag'larining (xususiy kapital) harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyenti (15.3-chizma).




*15.3-chizma.* Korxona moliyaviy barqarorligining o'z mablag'lari (xususiy kapitali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

O'z mablag'i (xususiy kapital)ning to'planishini konsentratsiyasini ifodalovchi koeffitsiyent (Ko'mt). Mazkur ko'rsatkich ushbu mablag'larning umumiy mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichni xususiylik koeffitsiyenti ham deb atash mumkin hamda uni o'z mablag'larining (xususiy kapital) umumiy summasini (Um) buxgalteriya balansi umumiy summasiga (B) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Ko'mt = (Um / B)$$

Ushbu ko'rsatkich korxona umumiy mablag'larining qancha qismi xususiy mablag'larni tashkil qilishini ifodalaydi. Hozirgi sharoitda bu ko'rsatkich qancha ko'p bo'lsa, korxona uchun shunchalik yaxshi, chunki korxonaning moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishiga asos bo'ladi. Chetdan jalb qilingan mablag'lar uchun to'lanadigan foiz summasi tejaladi. Bizning misolimizda (15.2-jadval) ushbu ko'rsatkich hajmi 1999-yil oxirida 0,26 ni (531,1:2064,8) tashkil qiladi. Demak, ushbu miqdor korxonaning 26 % mablag'i o'zining xususiy mablag'i ekanligidan dalolat beradi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri moliyaviy qaramlik koeffitsiyentidir (Kmq). Bu ko'rsatkich

balansidagi umumiy summani (B) o'z mablag'lari (xususiy kapital) — O'm) summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Kmq = (B / O'm).$$

Bu ko'rsatkichning hajmi 1999-yil oxirida 3,89 ni (2064,8: 531,1) tashkil qilgan. Demak, ushbu ko'rsatkichning hajmi balansning umumiy summasi korxonaning o'z mablag'iga nisbatan 3,9 marta ko'p ekanligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich hajmini tahlil qilganda uning kamayishiga e'tibor berilishi lozim. Negaki, ko'rsatkich hajmi qancha kamayib borsa, korxonaning o'z mablag'i shuncha ko'payib borayotganligidan va uning moliyaviy qaramligi kamayganligidan, ya'ni yaxshilanayotganligidan dalolat beradi. Ko'rsatkichning hajmi qancha ko'paysa, shunchalik korxona moliyaviy qaram bo'layotganligini ifodalaydi. Bu uning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligidan dalolatdir.

O'z mablag'lari (xususiy kapitali)ning harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyentini (Khk) aniqlash uchun umumiy harakatdagi mablag'larning summasini (Uhm) o'z mablag'lari (O'm) summasiga bo'lish lozim.

$$Khk = \frac{Uhm}{O'm}.$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori qancha ko'p bo'lsa, korxona uchun shuncha yaxshi. Misolimizda ushbu ko'rsatkich hajmi yil oxirida 0,23 ni (124,5:531,1) tashkil qiladi. Demak, harakatdagi mablag'lar xususiy mablag'larning 23 %ni tashkil qilar ekan. Bu ko'rsatkich oborotda xususiy mablag'lardan tashqari chetdan jalb qilingan mablag'lar ham ishtirok etayotganligidan dalolat beradi. Umumiy harakatdagi mablag'lar summasi (Uhm) buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan korxonaning o'z mablag'lariga (xususiy kapitaliga) (O'm) uzoq muddatli passivlarni (Ump) qo'shib asosiy vositalar (kapital) va oborotda bo'lmagan faollar (Avot) ayirib tashlanadi:

$$Uhm = O'm + Ump - Avot.$$

Formulada ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblarning yarmi olinishi ko'rsatilgan. Agar korxona ishchi va xizmatchilarga avans bermaydigan bo'lsa, u holda ushbu ko'rsatkich miqdori to'liq olinadi. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun faoliyat

ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlaridan birining 1999-yilgi hisoboti ma'lumotlaridan foydalanildi hamda ba'zi ko'rsatkichlar tijorat siri hisoblanganligi tufayli korxonaning nomi keltirilmadi. Tahlil uchun 15.2-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*15.2-jadval*

**Korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlarning 1999-yilgi hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | O'zgarishi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | summada (+, −) | foizda |
| | **Hajm ko'rsatkichlari** | | | | |
| 1. | Balansdagi umumiy summa (B) | 1847,5 | 2064,8 | + 217,3 | 111,8 |
| 2. | O'z mablag'lari (xususiy kapital) O'm | 492,3 | 531,1 | + 38,8 | 107,9 |
| 3. | Asosiy vositalar (kapital) va oborotda bo'lmagan (Avot) | 382,4 | 427,1 | + 44,7 | 111,7 |
| 4. | Uzoq muddatli passivlar (Ump) | 13,7 | 20,8 | + 7,1 | 151,8 |
| 5. | Umumiy harakatdagi o'z mablag'lari (2+4−3) (Uhm) | 123,5 | 124,5 | + 1,0 | 100,8 |
| | **Nisbiy ko'rsatkichlar** | | | | |
| 6. | O'z mablag'i (xususiy kapital) top'lanish (kontsentratsiyasi) koeffitsiyenti (Khkk-2q:1q) | 0,266 | 0,257 | − 0,009 | 96,7 |
| 7. | Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti (Kmk=1q:2q) | 3,75 | 3,89 | + 0,14 | 103,7 |
| 8. | O'z mablag'lari (xususiy kapital)ning harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyenti (Khq-5q:2q). | 0,251 | 0,234 | − 0,017 | 93,2 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq bo'lgan to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar hajmi turli yo'nalishga egadir. Ularning hajmi butunlay o'zgargan. Jumladan, xususiy kapitalning to'planishini (konsentratsiyasini) ifodalovchi koeffitsiyent 0,009 ga yoki 3,3 %ga (100−96,7) kamaygan. Bu esa korxonaning o'z mablag'i o'sish sur'atining (107,9 %) umumiy mablag'i o'sish sur'atiga nisbatan (111,8 %) kam ekanligi evaziga sodir bo'lgan. Bu korxona mablag'i tarkibida chetdan jalb qilingan mablag'larning ko'payganligi va uning qaramligi ortganligidan dalolat beradi. Haqiqatda, korxonaning moliyaviy qaramligini ifodalovchi

koeffitsiyent 0,14 ga yoki 3,7 %ga ortgan. Xususiy kapitalning harakatchanlik koeffitsiyenti ham 0,017 ga yoki 6,8 %ga (100–93,2) kamaygan. Bu esa umumiy harakatdagi mablag'lar o'sish sur'atining (100,8 %) o'z mablag'lari o'sish sur'atiga nisbatan (107,9 %) kamligidandir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tahlil qilinayotgan korxonaning o'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy barqarorligi hisobot davrida ancha susaygan. Ushbu ko'rsatkichlar tizimidan umumiy kompleks ko'rsatkichni (Kk) aniqlash ham mumkin. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Kк = \prod_{i=1}^{n} A\,ij,$$

bunda, $A$ — moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar miqdori; $i$ — ko'rsatkichlarning tartib soni ($i$=1,$n$); $n$ — ko'rsatkichlarning umumiy soni; $\Pi$ — ko'paytirish belgisi; $ij$ — har bir $i$ — ko'rsatkichning individual indeksi.

Ushbu modulga moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarning uchtasi kiritilgan. Ular bir xil o'lchamga ega. Ammo yo'nalishi har xil. Ularni bir xil yo'nalishga ham keltirib olish lozim, chunki xususiy kapitalning konsentratsiyasi va uning harakatchanligi koeffitsiyentlari ko'payishi natijasida moliyaviy barqarorligi yaxshilanishidan dalolat bersa, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti esa, uning teskarisi. Shu uchun moliyaviy qaramlik koeffitsiyentini ham bir xil yo'nalishga keltirib olamiz. Buning uchun moliyaviy qaramlik koeffitsiyentini birga bo'lib olish lozim.

Agar birni shu ko'rsatkich indeksiga bo'lib olinsa, chiqqan natijaning ko'payishi moliyaviy barqarorlikning yaxshilanayotganligidan dalolat beradi va boshqa ko'rsatkichlar bilan bir xil yo'nalishga ega bo'ladi.

Bizning misolimizda kompleks ko'rsatkich 0,869 ni tashkil

$$0,967 \cdot \frac{1}{1,037} \cdot 0,932$$

qiladi yoki ushbu miqdorni 86,9 % deb ham qabul qilish mumkin. Kompleks ko'rsatkich hajmidan ko'rinib turibdiki, ushbu korxonaning xususiy kapital bilan bog'liq moliyaviy barqarorligi susaygan.

Moliyaviy barqarorlikning o'z mablag'lari bilan bog'liq guruhini yaxshilash uchun shu ko'rsatkichlarining har biriga

ta'sir qiluvchi omillarini aniqlash va ularni hisoblash lozim. Masalan, o'z mablag'larining harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyentiga (Khk) quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. Umumiy harakatdagi mablag'larning to'planish (konsentratsiyasi) koeffitsiyenti. Ushbu (Kuhm) ko'rsatkich (omil)ni aniqlash uchun umumiy harakatdagi mablag'larni (Uhm) korxonaning umumiy mulkiga (balans summasiga) (B) bo'lish lozim.

$$Kuhm = \frac{Uhm}{B}.$$

Ushbu omilni shartli ravishda «$X_1$», deb qabul qilamiz. Uning miqdori ko'payishi xususiy kapital harakatchanligiga ijobiy ta'sir qiladi.

2. Asosiy vositalar va oborotda bo'lmagan mablag'larning (Avot) barcha mablag'lar (B) bilan ta'minlanish koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkichni (Kavot) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$Kavot = \frac{B}{Avot}.$$

Ushbu omilni shartli ravishda «$X_2$» deb belgilab olamiz. Omilning miqdori qancha ko'p bo'lsa, korxonaning harakatchanlik koeffitsiyenti ham shuncha yaxshi bo'ladi, chunki bu umumiy mablag' tarkibida aylanma mablag'lar hissasining ko'pligidan dalolat beradi.

3. O'z mablag'larining (O'm) asosiy vositalar va oborotda bo'lmagan mablag'lari (Avot) bilan ta'minlanganligi yoki o'z mablag'ining kapitallashganlik darajasi. Ushbu omilning miqdorini (Umavt) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Umavt = \frac{Avot}{O'm}.$$

Bu omilni shartli ravishda «$X_3$» deb belgilab olamiz. Omil miqdori qancha ko'p bo'lsa, xususiy kapitalning harakatchanlik koeffitsiyenti shuncha yaxshi bo'ladi. Barcha omillar va natija (U) o'rtasida bog'liqlikni quyidagi formula, ya'ni multiplikativ model bilan ifodalash mumkin:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 = \prod_{i=1}^{3} Xi. \qquad i = \overline{1,3}$$

Keltirilgan formulaga aniq ma'lumotlarni va zanjirli almashtirish usulini qo'llab korxonaning o'z mablag'lari harakatchanlik koeffitsiyentiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash mumkin. Bu uchun 15.2-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda 15.3-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*15.3-jadval*

**Korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital) harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyentiga ta'sir qiluvchi omillarning 1999-yil natijasi bo'yicha hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | O'zgarishi (+, −) | Zanjirli almashtirish | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | I | II | III |
| 1. | Umumiy harakatdagi mablag'larning to'planish (kontsentratsiyasi) koeffitsiyenti (5q : 1q) | 0,0668 | 0,0603 | − 0,0065 | 0,0603 | 0,0603 | 0,0603 |
| 2. | Asosiy vositalar va oborotda bo'lmagan mablag'larning barcha mablag'lar bilan ta'minlanishi (1q:3q) | 4,831 | 4,834 | + 0,003 | 4,831 | 4,834 | 4,834 |
| 3. | O'z mablag'larining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi yoki Um.ning kapitallashganligi (3q:2q) | 0,777 | 0,804 | + 0,027 | 0,777 | 0,777 | 0,804 |
| 4. | O'z mablag'ining harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyenti (6q:2q) | 0,251 | 0,234 | − 0,017 | 0,226 | 0,227 | 0,234 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxona o'z mablag'larining harakatchanlik koeffitsiyenti hisobot davrida 0,017 ga kamaygan. Ushbu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Umumiy xarakatdagi mablag'larning to'planish (konsentratsiyasi) koeffitsiyenti hisobot yilida 0,0065 ga kamaygan. Ushbu omil korxona o'z mablag'larining harakatchanlik koeffitsiyentini 0,025 ga (0,226−0,251) kamaytirishga olib kelgan.

2. Korxona asosiy vositalarning barcha mablag'lar bilan ta'minlanish darajasi 0,003 koeffitsiyentga ortgan. Bu omil ta'sirida o'z mablag'larining harakatchanlik koeffitsiyenti 0,001 ga (0,927−0,226) ortgan.

3. Korxona o'z mablag'larining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi yoki o'z mablag'ining kapitallashganlik darajasi hisobot

davrida 0,027 koeffitsiyentga ortgan. Bu esa o'z navbatida tahlil qilinayotgan ko'rsatkichni 0,007 koeffitsiyentga (0,234–0,227) oshirishga olib kelgan.

Shunday qilib, barcha omillarning ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng bo'lgan:

$$-0{,}025 + 0{,}001 + 0{,}007 = -0{,}017.$$

Omilli tahlil korxona moliyaviy barqarorligini yaxshilashning ichki rezervlarini topish uchun imkoniyat yaratadi. Korxona moliyaviy barqarorligining yomonlashganligiga tahlil qilingan uch omildan biri salbiy ta'sir qilgan. Agar umumiy harakatdagi mablag'larning to'planish (konsentratsiyasi) koeffitsiyenti kamaymaganda, korxona o'z mablag'ining harakatchanlik koeffitsiyenti hisobot yilida 0,025 koeffitsiyentga ko'paygan bo'lar edi. Uning hisobot davri yil oxiridagi darajasi 0,234 emas, balki 0,259 (0,234 + 0,025) bo'lgan bo'lur edi. Ko'rinib turibdiki, omilli tahlil korxona moliyaviy barqarorligini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini topish uchun asosiy dastak bo'lib xizmat qilar ekan.

### 15.3.2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili

Bu guruh ko'rsatkichlari tizimiga chetdan jalb qilingan kapitalning to'planishi (konsentratsiyasini) ifodalovchi koeffitsiyent, chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital)ning tarkibiy koeffitsiyenti, xususiy kapitalning umumiy qaramlik koeffitsiyenti, o'z mablag'lari (xususiy kapital)ning uzoq muddatli passivlarga qaramlik koeffitsiyenti kabilar kiradi (15.4-chizma).

Chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital)ning to'planishi (konsentratsiyasini) ifodalovchi ko'rsatkich ularning umumiy mablag'lardagi hissasini (Kchjm) aniqlash uchun qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichni topish uchun chetdan jalb qilingan mablag'lar summasini (Chjm) umumiy mablag'lar summasiga (B) bo'lish mumkin:

$$Kchjm = \frac{Chjm}{B}.$$

Bu ko'rsatkichni begonalik koeffitsiyenti ham deb ataydilar. Uning hajmi qancha kam bo'lsa, korxona uchun shuncha yaxshi, chunki bu korxonaning o'z faoliyatini mablag'ni chetdan jalb




*15.4-chizma.* Korxona moliyaviy barqarorligining chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

qilmasdan amalga oshirayotganligidan dalolat beradi. Bu hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan davrda juda muhimdir, chunki chetdan, ayniqsa, banklardan qarzga mablag' olib ishlatish yuqori foiz hisobiga korxona uchun juda qimmatga tushib ketadi.

Chetdan jalb qilingan mablag'lar ichida uzoq muddatli qarzlar hissasining koeffitsiyenti ham moliyaviy barqarorlikni ifodalash uchun muhimdir. Chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital) ning tarkibiy koeffitsiyenti (Kujktk)ni aniqlash uchun uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital)ni (Umchjk) korxonaning umumiy chetdan jalb qilingan mablag'i (kapital)ga (Chjk) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Kujktk = \frac{Umchjk}{Chjk}.$$

Keltirilgan ko'rsatkich korxonaning uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'ining umumiy chetdan jalb qilingan mablag'dagi hissasini ko'rsatadi. O'z mablag'i yetarli bo'lmay turgan paytda uzoq muddatli qo'yilmalardan foydalanish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Shu tufayli ushbu ko'rsatkich hajmining ko'payishi korxona uchun ijobiy holatdir.

Chetdan jalb qilingan kapitalning xususiy kapitalga nisbati xususiy kapitalning umumiy qaramlik koeffitsiyentni (Kumq) moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda xususiy kapitalning uzoq muddatli passivlarga qaramlik koeffitsiyentini (Kxkumq) aniqlash va o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun uzoq muddatli chetdan jalb qilingan passivlarni (Ump) o'z mablag'lari (xususiy kapital)ning umumiy summasiga (O'm) bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$Kxkumq = \frac{Ump}{O'm}.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital)da chetdan jalb qilingan uzoq muddatli qo'yilmalar (passivlar)ning hissasi qanchani tashkil qilishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich hajmining yaxshi yoki yomonligi to'g'risida korxona faoliyatining holatiga qarab xulosa qilish mumkin.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun 15.4-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*15.4-jadval*

**Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarning 1999-yilgi hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | summada (+, −) | foizda |
| | **Hajm ko'rsatkichlari** | | | | |
| 1. | Balansdagi umumiy summa (B) | 1847,5 | 2064,8 | + 217,3 | 111,8 |
| 2. | Chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital)ning jami (Chjk) | 1355,2 | 1533,7 | + 178,5 | 113,2 |
| 3. | Shu jumladan, uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar (Umchjk) | 13,4 | 20,1 | + 6,7 | 150,0 |
| 4. | O'z mablag'lari (xususiy kapital) O'm | 492,3 | 531,1 | + 38,8 | 107,9 |
| 5. | Asosiy vositalar (kapital) va oborotda bo'lmagan faollar (Avot) | 382,4 | 427,1 | + 44,7 | 111,7 |
| | **Nisbiy ko'rsatkichlar** | | | | |
| 6. | Chetdan jalb qilingan kapitalning to'planish (konsentratsiyasi) koeffitsiyenti (Kchjk) (2q:1q) | 0,734 | 0,743 | + 0,009 | 101,2 |
| 7. | Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsiyenti (Kchjktk) (3q:2q) | 0,0010 | 0,0013 | + 0,0003 | 130,0 |
| 8. | Xususiy kapitalning umumiy qaramlilik koeffitsiyenti (Kxqk) (2q : 4q) | 2,752 | 2,888 | + 0,136 | 104,9 |
| 9. | Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital)ga qaramlilik koeffitsiyenti (Kxkumk) (3q:4q) | 0,027 | 0,038 | + 0,011 | 140,2 |

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, moliyaviy barqarorlikning chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari yil davomida ko'paygan. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligi susayganligidan dalolat beradi. Xususan, chetdan jalb qilingan mablag'lar to'planishi (konsentratsiyasi)ni ifodalovchi koeffitsiyent hisobot yilining oxirida 0,743 ni tashkil qiladi. Bu degani korxona umumiy moliyaviy potensialining 74,3 % chetdan jalb qilingan mablag'lardir. Ushbu ko'rsatkichning hissasi shu davrga nisbatan 0,009 punktga yoki 1,2 %ga ko'paygan. Demak, tahlil qilinayotgan

xususiy mablag'larning umumiy mablag'lardagi ulushi kamayib bormoqda. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy barqarorlik jihatidan ijobiy natijalarga olib kelmasligi mumkin.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda uzoq muddatli chetdan jalb qilingan kapitalning o'z mablag'lariga nisbatini tahlil qilish lozim, chunki ushbu ko'rsatkich o'z mohiyati jihatidan korxona uchun juda qulaydir. Uzoq muddatga chetdan mablag' olish, birinchidan, korxona faoliyatida uzoq muddat muhim ishtirok etishni ta'minlasa, ikkinchidan, unga to'lanadigan foiz miqdorining kamligi jihatidan korxonaga nisbatan ko'proq foyda keltiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning o'z mablag'laridagi ulushi ushbu korxonada yil oxirida atiga 3,8 %ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich yil boshidagiga nisbatan 0,011 band yoki 40,2 % ko'p. Ayni ko'rsatkich ko'p bo'lsa yaxshi. Ammo uning ulushi chetdan jalb qilingan barcha mablag'lar tarkibida ko'paygan bo'lishi mumkin. Ushbu ko'rsatkich hisobot yilining oxirida tahlil qilinayotgan obyektda 0,1 %dan 1,13 %gacha ortgan. Bu holni umuman olganda ijobiy baholash mumkin.

Tahlil qilinayotgan korxonada asosiy vositalarning uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar evaziga qoplanishi yil boshidagi 3,5 % (13,4:382,4 · 100) o'rniga yil oxirida 4,7 %ni (20,1: 427,1 · 100) tashkil qilgan. Bu 1,2 band (4,7−3,5) yoki 34,5 % (100−4,7:3,5 · 100) ko'payganligini ko'rsatadi. Biroq, shuni e'tirof etish kerakki, asosiy vositalar asosan xususiy kapital evaziga qoplanishi lozim. Lekin ko'pgina korxonalarda, ayniqsa, yangi tashkil bo'layotgan korxonalarda asosiy vositalarni qoplash uchun o'z mablag'laridan ko'ra chetdan jalb qilingan mablag'lari ko'proq bo'lishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tarkibiga xususiy kapitalning umumiy qaramlik koeffitsiyentini kiritish mumkin. Ushbu ko'rsatkich korxonaning umumiy moliyaviy qaramligini ifodalaydi. Tahlil qilinayotgan korxonada har bir so'm xususiy kapitalga yil boshida 2,75 so'm to'g'ri kelgan bo'lsa, ko'rsatkich yil oxiriga kelib 2,89 so'mni tashkil qildi. Bu shu davrda 4,9 % ko'p demakdir. Demak, bu xususiy kapitalning chetdan jalb qilingan mablag'iga qaramligi oshganligidan dalolat beradi.

Ko'rsatkichlar tahlili ham shuni ko'rsatadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi ancha susaygan. Bu birinchi guruhlar bo'yicha tahlil natijasida qilingan xulosani yana bir bor isbotlab turibdi.

Ushbu ko'rsatkichlardan 15.4-jadval ma'lumotlari asosida moliyaviy barqarorlikning umumlashgan ko'rsatkichini ham aniqlash mumkin. Bu uchun hamma ko'rsatkichlarni bir xil yo'nalishga keltirib olamiz. Barcha ko'rsatkichlarning ko'payishi korxonada moliyaviy barqarorlikning yomonlashuvini ifodalaydi. Ammo uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning tarkibiy koeffitsiyenti qancha yuqori bo'lsa, korxona moliyaviy barqarorligi shuncha yaxshi. Shu tufayli uning miqdorini ham boshqa ko'rsatkichlar bilan bir xil yo'nalishga keltirib olamiz. Buning uchun birni uning o'sish sur'atiga bo'lamiz. Bu holda umumlashgan ko'rsatkich 1,145 indeksni tashkil qiladi yoki uning foizdagi miqdori 114,5 %ga teng:

$$1,012 \cdot \frac{1}{1,300} \cdot 1,049 \cdot 1,402 = 1,145 = 114,5\ \%.$$

Korxonada moliyaviy barqarorlik chetdan jalb qilingan mablag'lar bo'yicha ham ancha susaygan, chunki chetdan jalb qilingan mablag'lar miqdori qancha ko'p bo'lsa, korxona xo'jalik faoliyatiga moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan shunchalik salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### 15.3.3. Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili

Korxonaning harakatdagi mablag'lariga uning aylanma mablag'larda ishtirok etayotgan xususiy kapitali kiradi. Ammo aylanma mablag'lari harakatchanligi jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Masalan, korxonaning hisob-kitob schyotidagi, kassasidagi naqd pullari tez harakatga keluvchi aylanma mablag'lari bo'lsa, tovar zaxiralari naqd pulga nisbatan harakatchanligi jihatidan sust aylanma mablag'ga kiradi. Debitor qarzlarning ko'p qismi hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida beqaror mablag'larga kiradi, chunki korxona qarz bergan, tovar jo'natgan, xizmat qilgan yuridik yoki jismoniy shaxs bankrotga uchragan bo'lib, to'lov qobiliyatiga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holda debitor qarzlarni tez harakatchan mablag'lar qatoriga kiritish qiyin. Hozirda har bir korxona imkoni boricha debitor qarzlarga yo'l qo'ymasligi lozim.

Korxonadagi debitorlarni to'g'ri tahlil qilish uchun uni ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, uning mavjudligi muqarrar bo'lgan debitorlar. Bunday debitorlarga korxona o'zining doimiy tovar oluvchilariga shartnoma asosida tovar jo'natsa (xizmat qilsa, ish bajarsa), ammo to'lov muddati hali kelmagan bo'lsa, kiritish mumkin. Agar korxona qarzining

to'lov muddati o'tib ketsa, u to'lov qobiliyatiga ega bo'lmasa, moliyaviy ahvoli beqaror bo'lsa bunday debitorlar ikkinchi umidsiz guruhga kiradi. Bunday debitorlar korxonaning mablag'ini asossiz ravishda oborotdan tashqarida ushlab turishga, uning moliya-xo'jalik faoliyatining esa yomonlashuviga olib keladi. Bu korxonaning xarajatdagi mablag'ini harakatsiz holatga keltiradi. Shu tufayli harakatdagi mablag'larni tahlil qilganda, uning harakatchanlik darajasini aniqlaganda bu omillarni inobatga olish lozim. Korxona mablag'larining harakatchanlik darajasini aniqlash uchun harakatdagi barcha mablag'larning turlarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi 15.5-chizmada keltirilgan.




*15.5-chizma.* Korxona moliyaviy barqarorligining harakatdagi mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

Umumiy aylanma mablag'larning tarkibiga buxgalteriya balansi aktiv qismining P bo'limidagi summa kiradi. Undan harakatdagi mablag'larni aniqlash uchun uning umumiy miqdoridan chetdan jalb qilingan mablag'larni ayirish kifoya. Tahlil uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri oborotda ishtirok etayotgan harakatdagi o'z mablag'lari summasidir (Hm). Bu ko'rsatkich buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan quyidagicha aniqlanadi:

$$Hm = O'm + Umchjm - Avot,$$

bunda, *O'm* — korxonaning o'z mablag'i; *Umchjm* — uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'lar summasi; *Avot* — asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar.

Tez harakatga keladigan mablag'lar, bu — bankdagi hisob-kitob schyotidagi mablag'lar, kassadagi naqd pul, cheklar va hokazolar. Tahlilni boshlashdan oldin esa buxgalteriya balansiga

asosan shu ko'rsatkichlarni tegishli guruhlarga bo'lish, ularni aniqlab olish lozim.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyenti; umumiy harakatchanlik koeffitsiyenti va sof harakatchanlik koeffitsiyenti.

Korxonaning umumiy harakatchanlik koeffitsiyenti (Kuh)ni topish uchun umumiy harakatdagi o'z mablag'lari summasi (Hm) barcha o'z mablag'lari summasiga (O'm) bo'linadi.

$$Kuh = \frac{Hm}{O'm} = \frac{(Um + Umchjm) - Avot}{O'm}.$$

Ushbu ko'rsatkich o'z mablag'larining qancha qismi harakatdagi mablag'dan iborat ekanligini ifodalaydi. Uning hajmi qancha ortib borsa, korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yaxshilanishi uchun shuncha qulay. Harakatdagi mablag'larning harakatchanlik koeffitsiyenti (Kuh) harakatdagi o'z mablag'larining umumiy mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichni aniqlashda harakatdagi o'z mablag'lari summasini (O'hm) umumiy mablag'lar summasiga (B) bo'linadi:

$$Kuh = \frac{O'hm}{B}$$

Bu ko'rsatkichning miqdori qancha ortib borsa, korxona uchun shuncha muhim hisoblanadi, chunki korxonaning harakatdagi o'z mablag'i umumiy mablag'i tarkibida ko'payib borayotganligidan dalolat beradi. Korxona moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri esa sof harakatchanlik koeffitsiyentidir. Buning asosida sof harakatdagi (tovar zaxiralari va pul mablag'laridagi) mablag'lar miqdori yotadi. Bu ko'rsatkichlarning hajmini aniqlash uchun umumiy harakatdagi mablag'lardan joriy majburiyatlar va muddati o'tgan debitorlarning miqdorini ayirish lozim. Joriy majburiyatlarga o'tgan va hisobot yilida ko'rilgan zararlar kiradi. Bular buxgalteriya balansining tegishli qatorlarida ko'rsatilgan bo'ladi. Shunday qilib, korxona moliyaviy barqarorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri undagi sof harakatchanlik koeffitsiyentidir (Ksh). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun harakatdagi mablag'lardan (Hm) joriy majburiyatlar (Jm) va muddati o'tgan umidsiz debitorlarni (Do'm) ayirib tashlash lozim. Natija korxonaning umumiy mablag'iga (B) bo'linadi:

$$Ksh = \frac{Hm - (Jм + Do'm)}{B} = \frac{Sxm}{B}.$$

Sof harakatchanlik koeffitsiyenti umumiy aylanma mablag'larning qancha qismi tez harakat qiladigan aylanma mablag'larga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlarning miqdori ham qancha yuqori bo'lsa, korxona moliya-xo'jalik faoliyatining yaxshilanayotganligidan, uning moliyaviy barqarorligi ta'minlanayotganligidan dalolat beradi. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq muhim ko'rsatkichlardan biri sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyentidir (Kf). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun tovar zaxiralari va pul mablag'larida ishtirok etayotgan sof harakatdagi xususiy mablag'lar summasini (Sxm) harakatdagi umumiy aylanma mablag'lar summasiga (O'hm) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Kf = Sxm \ / \ O'hm.$$

Ushbu ko'rsatkichning hajmi tovar zaxiralari va pul mablag'larida ishtirok etayotgan o'z mablag'ining umumiy harakatdagi mablag'laridagi hissasini ifodalaydi. Banklarning qarz uchun foizi yuqori bo'lib turgan sharoitida ushbu ko'rsatkich hajmi qancha yuqori bo'lsa, shuncha yaxshi. Bu ko'rsatkichning maksimal hajmi bir. Agar uning miqdori birga teng bo'lsa, korxonaning harakatdagi barcha mablag'lari o'z mablag'idan ekanligidan dalolat beradi. Endi bu ko'rsatkichlar orqali amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish usulini ko'rib chiqamiz (15.5-jadval).

*15.5-jadval*

**Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi harakatdagi mablag'lar bilan ko'rsatkichlarning 1999-yilgi hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | summada (+, −) | foizda |
| | **Hajm ko'rsatkichlari** | | | | |
| 1. | Balansning umumiy summasi (B) | 1847,5 | 2064,8 | + 217,3 | 111,8 |
| 2. | O'z mablag'lari (O'm) | 492,3 | 531,1 | + 38,8 | 107,9 |
| 3. | Aylanma mablag'lar (Ayl.m.) | 1465,1 | 1637,7 | + 172,6 | 111,8 |
| 4. | Umumiy harakatdagi o'z mablag'lari (Uhm) | 123,5 | 124,5 | + 1,0 | 100,8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Muddati o'tgan umidsiz debitorlar | 4,8 | 2,5 | – 2,3 | 52,1 |
| 6. | *Joriy majburiyatlar* | 0,2 | 0,3 | + 0,1 | 150,0 |
| 7. | Tovar zaxiralari va pul mablag'larida ishtirok etayotgan sof harakatdagi mablag'lari (Shm) (4q–5q–6q) | 118,5 | 121,7 | + 3,2 | 102,7 |
| | **Nisbiy ko'rsatkichlar** | | | | |
| 8. | Umumiy harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyenti (Kuh) (4q:2q) | 0,251 | 0,234 | – 0,017 | 93,2 |
| 9. | Harakatdagi mablag'larning harakatchanlik koeffitsiyenti (Kh) (4q:1q) | 0,067 | 0,060 | – 0,007 | 89,6 |
| 10. | Sof harakatchanlik koeffitsiyenti (Ksh) (7q:1q) | 0,64 | 0,059 | – 0,005 | 92,2 |
| 11. | Sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyenti (Kf) (7q:4q) | 0,960 | 0,978 | + 0,018 | 101,9 |

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonaning harakatdagi mablag'i bilan bog'liq moliyaviy barqarorligi uncha yaxshilangan emas. Umumiy harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyenti 0,017 ga yoki 6,8 %ga (100–93,2) kamaygan. Xuddi shunday harakatdagi mablag'larning harakatchanlik koeffitsiyenti ham kamaygan. Harakatdagi mablag'larning harakatchanlik koeffitsiyenti yilning boshida 0,067 dan yilning oxirida 0,060 gacha kamaygan. Demak, umumiy mablag'lar tarkibida harakatdagi o'z mablag'lari kamaygan. Ushbu guruhda sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyenti 0,018 koeffitsiyentga yoki 1,9 %ga oshgan. Bu esa harakatdagi mablag'lar faolligining ortganligidan dalolat beradi. Sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyenti tovar zaxiralari va pul mablag'larida ishtirok etayotgan sof harakatdagi mablag'lari umumiy harakatdagi mablag'larning qancha qismini tashkil qilganligini ko'rsatadi. Jadval ma'lumoti shuni ko'rsatmoqdaki, tahlil qilinayotgan korxonada yil boshida barcha umumiy harakatdagi mablag'larning 96,0 %ni tovar zaxiralari va pul mablag'larida ishtirok etayotgan xususiy kapital tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar yil oxiriga borib 97,8 %ga ko'paydi. Bu joriy yilda umidsiz debitorlarning 2,3 ming so'mga kamayganligi evaziga sodir bo'ldi. Xullas, bu holat hisobot yilida korxonaning moliyaviy barqarorligi yaxshilanib borayotganligidan dalolat berib turibdi.

Tahlil jarayonida harakatdagi aylanma mablag'larning faollik koeffitsiyentiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash lozim. Tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Xususan, sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyentiga (U) quyidagi omillar ta'sir qiladi: oborotda ishtirok

etayotgan xususiy kapitalning harakatdagi sof aylanma mablag'lardagi hissasi ($X_1$); harakatdagi sof aylanma mablag'larning umumiy xo'jalik mablag'lardagi hissasi ($H_2$); pul mablag'larining barcha aktivlar bilan ta'minlanishi ($H_3$) va pul mablag'larining harakatdagi umumiy aylanma mablag'lardagi ulushi ($X_4$). Bu bog'liqlikni quyidagi multiplikativ model bilan ifodalash mumkin.

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 = \prod_{i=1}^{4} X_i.$$

Ushbu matematik bog'liqlikka aniq ma'lumotlarni qo'llab, zanjirli almashtirish usulidan foydalangan holda har bir omilning natija ko'rsatkichini o'zgarishiga ta'sirini aniqlash mumkin. Buning uchun 15.6-jadvalni tuzish mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sof harakatdagi mablag'ning faollik koeffitsiyenti hisobot yilida 0,018 ga (0,978—0,960) ko'paygan. Bu quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

1. Sof harakatdagi o'z mablag'lari (xususiy kapital)ning umumiy o'z mablag'dagi hissasi 1,2 %ga (22,9—24,1) kamaygan. Bu omil sof harakatdagi mablag'ning faollik koeffitsiyentini 0,049 ga (0,911—0,960) kamaytirgan.

2. O'z mablag'larining umumiy xo'jalik mablag'dagi hissasi 0,9 %ga (25,7—26,6) kamayganligi tahlil qilinayotgan natija ko'rsatkichini 0,031 ga (0,880—0,911) kamaytirgan.

*15.6-jadval*

**Sof harakatdagi xususiy mablag'larning faollik koeffitsiyentiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Zanjirli almashtirishlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | I | II | III | IV |
| 1. | Sof harakatdagi o'z mablag'lari (xususiy kapital)ning umumiy o'z mablag'dagi hissasi (7q:2q) | 0,241 | 0,229 | 0,229 | 0,229 | 0,229 | 0,229 |
| 2. | O'z mablag'ining umumiy mablag'dagi hissasi (2q:1q) | 0,266 | 0,257 | 0,266 | 0,257 | 0,257 | 0,257 |
| 3. | Aylanma mabalag'ining barcha aktivlar bilan ta'minlanishi (1q:3q) | 1,261 | 1,261 | 1,261 | 1,261 | 1,261 | 1,261 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Umumiy harakatdagi o'z mablag'ining umumiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanishi (3q:4q) | 11,863 | 13,154 | 11,863 | 11,863 | 11,863 | 13,154 |
| 5. | Sof harakatdagi mablag'ning faollik koeffitsiyenti (7q:4q) | 0,960 | 0,978 | 0,911 | 0,880 | 0,880 | 0,978 |

3. Aylanma mablag'larning barcha aktivlar bilan ta'minlanganligi yil davomida o'zgarmasdan qolgan. Shu tufayli bu omil natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmagan.

4. Umumiy harakatdagi o'z mablag'larining umumiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasi 1,291 koeffitsiyentga (13,154—11,863) ko'paygan. Ushbu omil ta'sirida sof harakatdagi mablag'ning faollik koeffitsiyenti 0,098 ga (0,978—0,880) ortgan.

Barcha omillar ta'siri natija ko'rsatkichining o'zgarishiga teng: [(−0,049)−0,031 + 0,000 + 0,098 = +0,18].

Shunday qilib, tahlil natijasi ushbu korxonada sof harakatdagi mablag'ning faollik koeffitsiyenti oshishi uchun ichki imkoniyatlari mavjud ekanligidan dalolat berib turibdi. Agar tahlil qilgan davrda sof harakatdagi o'z mablag'lari (xususiy kapital)ning umumiy o'z mablag'laridagi hissasi va o'z mablag'larining umumiy mablag'lardagi hissasini hech bo'lmaganda yil boshidagi darajada ushlab turganda edi, tahlil qilinayotgan ko'rsatkich koeffitsiyenti yana 0,080 ga (0,049—0,031) ko'paygan bo'lur edi. U holda, ya'ni barcha ichki imkoniyatlardan foydalanilganda edi, sof harakatdagi mablag'ning faollik koeffitsiyenti yil oxirida 0,978 emas, balki 1,058 ni (0,978 + 0,040 + 0,031) tashkil qilgan bo'lardi. Demak, omilli tahlil natija ko'rsatkichini yaxshilanishining ichki imkoniyatlarini izlab topish yo'llarini aniqlab beradigan eng muhim iqtisodiy dastaklardan biridir.

### 15.3.4. Asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili

Bu guruh ko'rsatkichlar ham korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardir, chunki korxona faoliyatida asosiy vositalar faqat mehnat vositalari bo'libgina qolmasdan uning moddiy boyligi ham hisoblanadi. Uning qiymati korxona mulki sifatida garovga qo'yish uchun asos ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari korxona tugatiladigan bo'lsa, barcha qarzlarni to'lash uchun boshqa mablag'lari yetishmasa, ko'chmas mulkni sotish evaziga amalga oshirish mumkin. Asosiy vosita —

mulk egasining, korxonaning boyligi. Qolaversa, mulkdor ham korxona ham shu davlat hududida bo'lganligi tufayli ularning barchasi davlat boyligi, shu mamlakat boyligi bo'lib hisoblanadi. Shu tufayli asosiy vositalarni baholashni faqat mulk egasi nuqtayi nazaridan emas, balki jamiyat, ya'ni davlat nuqtayi nazaridan ham qarash lozim. Agar korxona to'lov qobiliyatiga ega bo'lsa, u qandaydir yuridik va jismoniy shaxslardan qarz bo'lishi mumkin. Bu shaxslar ham ushbu mamlakat hududida, shu davlat tasarrufida. Demak, bir korxona sinsa, ikkinchisiga ta'sir qilmasligi kerak. Shu tufayli ushbu korxona boshqalardan qarzini uning asosiy vositalarini kimoshdi savdosi orqali sotib bo'lsa ham to'lashi mumkin. Bu bilan yaxshi faoliyat ko'rsatayotgan korxona o'z mablag'iga ega bo'ladi. Davlat esa uning faoliyatidan bevosita manfaatdor, chunki bu korxona faoliyati natijasidan har xil soliqlar to'laydi.

Bu nazariy xulosalar shuni isbotlab turibdiki, korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilganda asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni ham o'rganish, ularni tahlil qilish zarur ekan. Moliyaviy barqarorlikning asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- asosiy vositalar jamg'arilishining jadalligi;
- asosiy vositalar jamg'arilishining umumiy koeffitsiyenti;
- xususiy kapitalning kapitallashganlik koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning korxona xo'jalik faoliyati umumiy mablag'lardagi hissasi.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi 15.6-chizmada keltirilgan.




*15.6-chizma.* Korxona moliyaviy barqarorligining asosiy vositalar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlardan biri — ularning butun mulkdagi hissasidir (Kah). Uni hisoblash uchun asosiy vositalar summasini (Av) barcha aktivlarga (B) bo'lish kifoya:

$$Kah = \frac{Av}{B}$$

Ushbu ko'rsatkichlar korxonaning barcha aktivlaridagi asosiy vositalarning ulushi qancha ekanligini ifodalaydi. Odatda, asosiy vositalar, asosan, o'z mablag'lari (xususiy kapital) evaziga qoplanishi lozim. Ammo korxonalarning moliyaviy ahvoli ancha tang bo'lib turgan paytda asosiy vositalar qiymati uzoq muddatli qarzlar evaziga ham qoplanadi. Bunday holatlarni o'tish davrida ijobiy baholash mumkin. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlardan biri xususiy kapitalning kapitallashganlik koeffitsiyentidir. Bu ko'rsatkichni (Kxkk) aniqlash uchun asosiy vositalar (Av) summasidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni (Ump) olib tashlab, o'z mablag'lari (xususiy kapital)ning (O'm) qiymatiga bo'lish lozim:

$$Kxkk = \frac{Av - Ump}{O'm}$$

Bu ko'rsatkichlar xususiy kapitalning qancha qismi asosiy vositaga sarf qilinganligi yoki asosiy vositalarning qancha qismi o'z mablag'lari evaziga shakllanganligidan dalolat beradi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun asosiy vositalar summasining ko'p bo'lishi yetarli emas. U hali hech narsadan dalolat bermaydi. Tahlilda amalga oshiriladigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri ularning tarkibini o'rganishdan iboratdir. Asosiy vositalarning aksariyati ularning faol qismiga to'g'ri kelishi, faol qismining asosiysini esa ilg'or jahon andozalariga mos keladigan texnologiya tashkil qilishi lozim. U holda asosiy vositalarning har biri turi bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlarini topib, tahlil qilish korxonaning umumiy samaradorligi ortishi va ichki imkoniyatlarni ijobiy ishga safarbar qilishga olib keladi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri, asosiy vositalarning umumiy kapitalidagi hissasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich hajmi juda ko'p bo'lsa ham, juda kam bo'lsa ham yomon. Har bir korxonada mulk shaklidan qat'iy nazar, uning menejerlari, buxgalterlari asosiy

vositalarning umumiy mablag'lardagi maqbul (optimal) darajasini aniqlashlari lozim. Bunda korxonaning zararsizlik yoki foydalilik nuqtasini aniqlashi, bu uchun qancha asosiy fond zarur va ularning qanday tarkibda bo'lish lozimligi ko'rsatilishi shart. Bu ko'rsatkich hisoblanmagan paytda maqbul ko'rsatkichning miqdori sifatida tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichni olish mumkin.

Masalan, savdo sohasi bo'yicha O'zbekistonda asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasi (jamlangan hisobot bo'yicha) 40 % deb faraz qilamiz. Ammo tahlil qilinayotgan «A» savdo korxonada 50 %, «B» savdo korxonasida esa 30 %. Bu holda xo'jalik mablag'larining taqsimoti har ikki korxonada ham yaxshi emas, chunki birinchisida oborotda mablag'lar kam, ikkinchidan esa moddiy-texnika bazasi yetarli emas, deya xulosa chiqarish mumkin. Lekin aniq xulosa uchun ularning tarkibini, zarurligini, umumiy hajmini, samaradorligini har bir korxona bo'yicha ham o'rganish lozim.

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlardan biri asosiy vositalar jamg'arilishining intensivligidir. Mazkur ko'rsatkichni (Kin) aniqlash uchun Av.larning joriy yildagi eskirish summasini (Avje) asosiy vositalarning umumiy summasiga (Av) bo'lish kifoya:

$$Kin = \frac{Avje}{Av}.$$

Bu ko'rsatkich umumiy asosiy vositalarning qancha qismi yilda jamg'arilganligini ko'rsatadi. Masalan, ko'rsatkichning hajmi 0,120 bo'lsa, asosiy vositalarning bir yilda jamg'arilishi 12 % ni tashkil qilganligidan dalolat beradi. Demak, mavjud asosiy vositalar miqdori 8,3 yilda (100:12) to'liq jamg'arilib bo'lar ekan. Mazkur guruhga kiruvchi yana bir muhim ko'rsatkich asosiy vositalar jamg'arilishining umumiy koeffitsiyentidir (Kju). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun asosiy vositalarning barcha eskirish summasini (Ave) umumiy asosiy vositalar qiymatiga bo'lishi mumkin:

$$Kju = \frac{Ave}{Av}.$$

Ushbu ko'rsatkichning miqdori asosiy vositalar umumiy qiymati qancha qismi jamg'arilganligini ifodalaydi. Masalan, mazkur ko'rsatkich miqdori 0,455 ga teng deb faraz qiladigan bo'lsak, bu barcha asosiy vositalar qiymatining 45,5 % yangi yaratilgan

mahsulotga qo'shilganligidan, uning qiymatining shuncha qismi qayfadan jamg'arilganligidan dalolat beradi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy vositalar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun 15.7-jadvaldan foydalaniladi.

*15.7-jadval*

**Korxona moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlarning 1999-yilgi hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | summada (+, −) | foizda |
| | **Hajm ko'rsatkichlari** | | | | |
| 1. | Asosiy vositalar (kapital) qiymati (Av) | 382,4 | 427,1 | + 44,1 | 111,7 |
| 2. | Uzoq muddatli kapital qo'yilmalari (Umkq) | 43,2 | 52,3 | + 10,1 | 121,1 |
| 3. | Uzoq muddatli majburiyatlar (Umm) | 13,4 | 20,1 | + 6,7 | 150,0 |
| 4. | Xususiy kapital (O'm) | 492,3 | 531,1 | + 38,8 | 107,9 |
| 5. | Xo'jalik mablag'lari umumiy summasi (B) | 1847,5 | 2064,8 | + 217,3 | 111,3 |
| 6. | Asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasi | 32,4 | 39,8 | + 7,4 | 122,8 |
| 7. | Asosiy vositalarning umumiy eskirish summasi | 186,2 | 193,4 | + 7,2 | 103,9 |
| | **Nisbiy ko'rsatkichlar** | | | | |
| 8. | Uzoq muddatli qo'yilmalarning tarkibiy koeffitsiyenti (2q:1q) | 0,113 | 0,122 | 0,009 | 108,0 |
| 9. | Xususiy kapitalning kapitallashganlik koeffitsiyenti [(1q-2q): 4q] | 0,777 | 0,804 | + 0,027 | 103,5 |
| 10. | Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasini ifodalovchi koeffitsiyent (1q:5q) | 0,2070 | 0,2018 | − 0,0002 | 99,09 |
| 11. | Asosiy vositalar jamg'arilishining intensivligi (Kin) (6q:1q) | 0,0847 | 0,0932 | + 0,0085 | 110,0 |
| 12. | Asosiy vositalar jamg'arilishining umumiy koeffitsiyenti (Kavj) (7q:1q) | 0,487 | 0,453 | 0,034 | 93,0 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, uzoq muddatli qo'yilmalar tarkibi umumiy asosiy vositalar ichida 0,009 ga ortgan. Bu ko'rsatkichni ijobiy baholash uchun korxonaning moliyaviy ahvolini kengroq tahlil qilish lozim. Agar korxona yetarli mablag'iga ega bo'lsa, asosiy vositalarni qoplashni o'z mablag'i, ya'ni xususiy kapital evaziga amalga oshirsa bo'ladi. Ammo iqtisodiy taraqqiyot uchun o'z mablag'i yetarli bo'lmagan korxona uchun asosiy vositalar ko'payishiga uzoq muddatli qo'yilma evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil qilinayotgan korxonada xususiy kapitalning kapitallashganlik koeffitsiyenti 0,027 ga o'sgan. Asosiy vositalarning umumiy xo'jalik mablag'laridagi hissasi 0,0002 ga kamaygan. Bu esa korxona aktivida aylanma mablag'lar hissasining ortganligidan dalolat beradi. Aylanma mablag'larning ko'payishiga baho berishda korxonaning qaysi soha bilan shug'ullanishiga ham ahamiyat berish lozim. Agar korxona savdo bilan shug'ullansa, u holda aylanma mablag'larning o'sishi asosiy vositalar o'sishiga nisbatan jadalroq bo'ladi. Mabodo, korxona ishlab chiqaruvchi soha bo'lsa, unda texnika va texnologiyaning ko'paygani, aylanma mablag'larning kamaygani, ishlab chiqarilgan mahsulotning tezlik bilan sotilib ketgani ma'qul. Shu tufayli tahlil jarayonida har bir obyektning sohasidan kelib chiqqan holda ularning xususiyatlarini to'laroq o'rganishni taqozo qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham asosiy vositalar tahliliga alohida ahamiyat beriladi. Uning tahlili xo'jalik faoliyati tahlilining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ammo asosiy vosita iqtisodiy jarayonning asosiy elementi sifatida boshqa ko'rsatkichlarni tahlil qilganda ham ular bilan qo'shib ko'p hollarda asosiy omil sifatida o'rganilishi lozim.

### 15.3.5. Aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili

Korxonadagi iqtisodiy jarayonlar sodir bo'lishida aylanma mablag'lar (kapital)ning roli katta. Aylanma mablag'lar qanchalik tez sur'atlar bilan aylansa, ular qancha samarali foydalanilsa, korxonaning moliyaviy barqarorligi shuncha yaxshi ta'minlanadi, to'lov qobiliyati yaxshilanadi, rentabelligi ortadi. Aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash, baholash va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Korxona moliyaviy barqarorligini ifodalovchi aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aylanma mablag'lar (kapital)ning o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan ta'minlanish koeffitsiyenti;
- aylanma mablag'ning (Ayl.m.) butun mulkdagi hissasi, Ayl.m. (kapital)ning qaramlik koeffitsiyenti;
- aylanma mablag'larning qaramlik koeffitsiyenti;
- aylanma mablag'lar (kapital)ning qisqa muddatli qarzlarga (bank kreditiga) qaramlik koeffitsiyenti;
- aylanma mablag'larning harakatdagi aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi 15.7-chizmada keltirilgan. Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxona moliyaviy barqarorligining aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimiga beshta ko'rsatkichlar kiradi. Ulardan biri aylanma mablag'larning o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan ta'minlanish koeffitsiyentidir (Kamo't). Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun korxonaning oborotda ishtirok etayotgan o'z mablag'larini (O'mo) aylanma mablag'lar summasiga (Ayl.m.) bo'lish kifoya:

$$Kamo't = \frac{O'mo}{Ayl.m.}.$$

Ushbu ko'rsatkichlar 1 so'm aylanma mablag'lar summasiga qancha oborotdagi o'z mablag'lari (xususiy kapital) summasi to'g'ri kelishini ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu ko'rsatkich o'zi alohida biror moliyaviy barqarorlik to'g'risida to'liq xulosa berishi qiyin. Ammo u ko'rsatkichlar tizimida bo'lishi shart, chunki aylanma mablag'larning harakatdagi (oborotdagi o'z mablag'lari) aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasini aniqlaganda ushbu ko'rsatkichlar bir-birini to'ldiradi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlardan biri aylanma mablag'larning (Ayl.m.) butun mulkdagi (B) hissasidir (Kamh). Ushbu ko'rsatkich barcha mulkda aylanma mablag'larning hissasi qancha ekanligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkichning korxonadagi miqdori ko'paysa yaxshi. Ammo shuni inobatga olish lozimki, agar korxona ilg'or texnologiya bilan ishlayotgan bo'lsa, unda asosiy vositalar hissasi oshib boradi, agar u texnologiya jarayoni bilan to'liq ta'minlangan barqaror korxona bo'lsa, unda ushbu ko'rsatkich hajmi oshadi. Shu tufayli tahlil qilinayotgan paytda qaysi obyekt o'rganilayotganligiga alohida e'tiborni qaratish lozim.




*15.7-chizma.* Korxona moliyaviy barqarorligining aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

Ushbu ko'rsatkich hajmini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Kamh = \frac{Ayl.m.}{B}.$$

Tahlil jarayonida ko'rsatkichlar tizimini qo'llashning qulayligi shundaki o'rganilayotgan ob'ektni har jihatdan atroflicha qamrab oladi. Shu boisdan ba'zi ko'rsatkichlar o'zi alohida unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmasa-da, ko'rsatkichlar tizimiga kiritilganki, ular shu obyektni o'rganishdan qaysidir jihatini to'liq baholash uchun zarur bo'ladi. Ushbu fikrni moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar uchun ham aytish mumkin. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichdan biri aylanma mablag'ning chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital)ga qaramlik koeffitsiyentidir (Kamq). Bu ko'rsatkichni topish uchun chetdan jalb qilingan barcha mablag'lar (kapital) summasini (Chjq) aylanma mablag'larning umumiy summasiga (Ayl.m.) bo'lish lozim:

$$Kamq = \frac{Chjq}{Ayl.m.}.$$

Bu ko'rsatkich aylanma mablag'larda chetdan jalb qilingan mablag'larning hissasi qancha ekanligidan dalolat beradi. Uning hajmi qancha kamaysa, korxona uchun shuncha yaxshi, chunki uning begonalarning mablag'iga qaramligi kamayadi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi aylanma mablag'lar bilan bog'liq bo'lgan muhim ko'rsatkichlardan biri aylanma mablag'larning qisqa muddatli bank kreditiga qaramlik koeffitsiyentidir. Ushbu ko'rsatkich qisqa muddatli bank kreditining umumiy aylanma mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Chetdan jalb qilingan mablag'lar ichida bank krediti muhim e'tiborni talab qiladigan ko'rsatkichdir, chunki chetdan jalb qilingan mablag'larning ko'piga bank krediti kabi yuqori foizda haq to'lanmasligi mumkin. Shu tufayli ushbu ko'rsatkichni o'rganish, baholash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Aylanma mablag'larning qisqa muddatli bank kreditiga qaramlik koeffitsiyentini (Qbk) aniqlash uchun qisqa muddatli bank krediti summasini (Qmbk) aylanma mablag'larning umumiy summasiga (Ayl.m.) bo'lish mumkin:

$$Qbk = \frac{Qmbk}{Ayl.m.}.$$

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri aylanma mablag'larning oborotdagi o'z mablag'lari (umumiy harakatdagi mablag'lar) bilan ta'minlanish koeffitsiyentidir (Khmt). Buni aniqlash uchun oborotdagi o'z mablag'lari (harakatdagi mablag'lar) summasini (Ham.) aylanma mablag'lar hajmiga (Ayl.m.) bo'linadi:

$$Khmt = \frac{Umumiy\ harakatdagi\ Ayl.m.\ (Ham.)}{Ayl.m.}$$

Ushbu ko'rsatkich oborotdagi o'z mablag'larining umumiy aylanma mablag'lar tarkibida qancha hissaga ega ekanligini ko'rsatadi. Har bir korxonada moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichni amaliy ma'lumotlarni qo'llab aniqlash va o'rganish lozim. Buning uchun 15.8-jadvaldan foydalaniladi.

*15.8-jadval*

**Moliyaviy barqarorlikning aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarining joriy yildagi hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkihlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | summada (+, −) | foizda |
| | **Hajm ko'rsatkichlari** | | | | |
| 1. | Korxonaning barcha mulki (B) | 1847,5 | 2064,8 | + 217,3 | 111,8 |
| 2. | Aylanma mablag'lar (Ayl.m.) | 1465,1 | 1637,7 | + 172,6 | 111,8 |
| 3. | Chetdan jalb qilingan kapital (Chjq) | 1355,2 | 1533,7 | + 178,5 | 113,2 |
| 4. | Umumiy bank krediti (Bk) | 1241,8 | 1413,6 | + 171,8 | 113,8 |
| 5. | Qisqa muddatli bank krediti (Qmbk) | 1228,4 | 1393,5 | + 165,1 | 113,4 |
| 6. | O'z mablag'lari (O'm) | 492,3 | 531,1 | + 38,8 | 107,9 |
| | **Nisbiy ko'rsatkichlari** | | | | |
| 7. | Aylanma mablag'larning xususiy kapital bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kamxt) (7q:2q) | 0,336 | 0,324 | − 0,012 | 96,4 |
| 8. | Ayl.m.ning butun mulkdagi hissasi (Kamh) (2q:1q) | 0,793 | 0,793 | — | 100,0 |
| 9. | Aylanma mablag'lar (kapital)ning, qaramlik koeffitsiyenti (Kchjq) (4q:2q) | 0,925 | 0,936 | + 0,011 | 101,2 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 10. | Aylanma mablag'larning, qisqacha muddatli bank kreditiga qaramlik koeffitsiyenti (Kbq) (6q:2q) | 0,838 | 0,851 | + 0,013 | 101,6 |
| 11. | Aylanma mablag'ning harakatdagi (oborotdagi) xususiy kapital bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kxmt) (3q:2q) | 0,084 | 0,076 | – 0,008 | 90,5 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'larning xususiy kapital bilan ta'minlanish koeffitsiyenti yil boshida 0,336 ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxirida 0,324 gacha kamaygan, ya'ni 3,6 %ni (100–96,4) tashkil qiladi. Demak, aylanma mablag'larning xususiy kapital bilan ta'minlanish darajasi hisobot davrida kamaygan. Bu esa aylanma mablag'larning qaramlik koeffitsiyentini 0,925 dan 0,936 gacha ortishga sabab bo'lgan. Demak, aylanma mablag'lar tarkibida chetdan jalb qilingan mablag'lar ulushi yil boshidagi 92,5 % o'rniga yil oxiriga kelib 93,6 %gacha ko'paygan. Tahlil qilayotgan korxonada aylanma mablag'lar tarkibida qisqa muddatli bank kreditining hissasi ancha. Ushbu ko'rsatkich miqdori yil boshida 83,8 %ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 85,1 %ni tashkil qilgan. Bu ham ko'rsatadiki tahlil qilinayotgan obyektda aylanma mablag'lar chetdan jalb qilingan mablag'larga, xususan bank kreditiga ancha qaram. Bu korxonaning moliyaviy barqaror emasligidan dalolat beradi.

Aylanma mablag'larning harakatdagi o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan ta'minlanish koeffitsiyentining hajmi yil boshida 0,084 ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 0,076 ni tashkil qilmoqda. Bu harakatdagi (oborotdagi) xususiy kapitalning aylanma mablag'lar tarkibida kamayganligidan dalolat beradi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun oborotdagi xususiy kapitalning qaramligini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish, ularni tahlil qilib, xo'jalik faoliyatining hamma qirralarini o'rganish lozimligini taqozo qiladi. Bu muammo omilli tahlilni qo'llash orqali hal bo'ladi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillarining ta'siri katta. Ularga zaxiralarning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti ($X_1$), zaxiralarning moddiy aylanma mablag'lardagi

hissasini ifodalovchi koeffitsiyenti ($X_2$), moddiy aylanma mablag'larning umumiy aktivlardagi hissasining koeffitsiyenti ($X_3$), chetdan jalb qilingan mablag'larning aktivlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti ($X_4$) kiradi. Ushbu omillarning natijaga ta'sirini hisoblash uchun 15.9-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*15.9-jadval*

**Moliyaviy barqarorlikning o'zgarishiga aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillar ta'sirining 1999-yildagi hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Asos davri | Hisobot davri | Farqi (+,−) | Indeksi (i) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Zaxiralarning o'z mablag'-lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti ($X_1$) | 1,372 | 1,667 | + 0,295 | 1,215 |
| 2. | Zaxiralarning moddiy aylanma mablag'lardagi hissasining koeffitsiyenti ($X_2$) | 0,530 | 0,450 | + 0,080 | 0,849 |
| 3. | Moddiy aylanma mablag'-larning umumiy aktivlardagi hissasining koeffitsiyenti ($X_3$) | 0,606 | 0,619 | + 0,013 | 1,021 |
| 4. | Chetdan jalb qilingan mablag'larning aktivlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti ($X_4$) | 1,787 | 1,865 | + 0,078 | 1,044 |
| 5. | Moliyaviy barqarorlik (U) | 0,787 | 0,865 | + 0,078 | 1,099 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, moliyaviy barqarorlikning umumlashgan ko'rsatkichi, ya'ni o'z mablag'larining chetdan jalb qilingan mablag'larga nisbati hisobot davrida o'tgan asos yiliga nisbatan 9,9 %ga ortgan yoki uning koeffitsiyenti 0,787 dan 0,865 gacha, ya'ni 0,078 ga ko'paygan. Natija (U) bilan ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi multiplikativ modelda o'z ifodasini topadi:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 = \prod_{i=1}^{4} X_i \quad i = \overline{1,4}$$

Ushbu bog'liqlikka tahlilning an'anaviy usullaridan bir qanchasini qo'llagan holda natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Mazkur jadval ma'lumotlariga indeks usuli qo'llagan holda aniqlash yo'llarini ko'rib chiqamiz. Bu o'zgarishga, ta'kidlanganidek bir qancha omillar ta'sir qilgan. Ularni indeks usuli bilan quyidagicha aniqlash mumkin.

1. Zaxiralarning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyentining 0,295 ga ortganligi moliyaviy barqarorlik darajasini 0,169 koeffitsiyentga oshirgan:

$$\Delta Ux = (U \cdot ix_1) - U = (0{,}787 \cdot 1{,}215) - 0{,}787 = +\ 0{,}169.$$

2. Zaxiralarning moddiy aylanma mablag'lardagi hissasi 0,080 koeffitsiyentga kamayishi moliyaviy barqarorlik darajasini 0,144 koeffitsiyentga kamaytirgan:

$$\Delta Ux = (U \cdot ix_1 \cdot ix_2) - (U \cdot ix_1) = (0{,}787 \cdot 1{,}215 \cdot 0{,}849) - (0{,}787 \cdot 1{,}215) = -\ 0{,}144.$$

3. Moddiy aylanma mablag'larning umumiy aktivlardagi hissasi koeffitsiyentining 0,013 ga ortganligi natija hajmini hisobot davrida 0,017 koeffitsiyentga oshirdi:

$$\Delta Ux = (U \cdot ix_1 \cdot ix_2 \cdot ix_3) - (U \cdot ix_1 \cdot ix_2) = (0{,}787 \cdot 1{,}215 \cdot 0{,}849 \cdot 1{,}021) - (0{,}787 \cdot 1{,}215 \cdot 0{,}849) = +\ 0{,}017.$$

4. Chetdan jalb qilingan mablag'larning barcha aktivlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti 0,078 ga ortgan. Bu omil natijasida moliyaviy barqarorlik 0,036 koeffitsiyentga ko'paygan:

$$\Delta Ux = U^x - (U \cdot ix_1 \cdot ix_2 \cdot ix_3) = 0{,}865 - (0{,}787 \cdot 1{,}215 \cdot 0{,}849 \cdot 1{,}021) = +\ 0{,}036.$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy fikriga teng bo'lishi kerak:

$$0{,}169 - 0{,}1444 + 0{,}017 + 0{,}036 = +\ 0{,}078.$$

Shunday qilib, moliyaviy barqarorlikni ta'mirlash uchun aylanma mablag'lar bilan bog'liq omillarni qaysi yo'nalishda yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish uchun tegishli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Bu uchun, eng avvalo, salbiy ta'sir qilgan omillarga e'tibor qaratilib, ularni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqiladi.

### 15.4. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari

Korxonaning moliyaviy barqarorligi deganda, uning faoliyatini moliyaviy jihatidan uzluksiz bir maromda ta'minlab turishni tushunmoq lozim. Moliyaviy jihatdan ta'minlanish faqatgina

moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish emas, balki uning juda ko'p qirralari, tomonlari mavjud. Chunki xo'jalik faoliyatining uzluksiz sodir bo'lib turishi uchun birgina moliyaviy resurslar etarli emas. Bu resurslarning ta'minlanishi uchun boshqa moddiy, mehnat kabi bir qancha resurslarning ham yetarli miqdorda bo'lishi lozim. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanganligi bejiz emas.

Korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun xususiy kapitalning ko'payishi, undan samarali foydalanish lozim. Korxona xususiy kapitalining ko'payishini birinchi marta ta'sischilar hisobidan tashkil topgan Nizom jamg'armasi orqali ta'minlasa, keyinchalik korxona faoliyati davomida olingan foydadan ajratmalar evaziga ko'paytirib borish mumkin. Shu tufayli xususiy kapitalni ko'paytirish uchun, eng avvalo, korxona foydasini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Korxonaning foydasi har qanday xo'jalik faoliyatining natijasi bo'lib qolmasdan, balki samarali faoliyat natijasidir. Masalan, savdo korxonasining faoliyati tovarni olib kelib, uning ustiga biror ustama qo'yib sotish bilan korxonaga hamisha foyda keltirmaydi, balki uning miqdori barcha xarajatlarini qoplaydigan bo'lishi lozim. Ammo savdo ustamasining ham chegarasi bor. Birinchidan, bu qonunlar bilan chegaralangan bo'lsa, ikkinchidan narxga ta'siri orqali iste'molchilar talabi bilan ham chegaralangandir. Shu tufayli faqat ustamani oshirish evaziga emas, balki tegishli muomala xarajatlarini kamaytirish va oborotni ko'paytirish evaziga ham foyda summasini oshirishga erishmoq lozim.

Korxonalarning juda ko'p xarajati banklardan olingan qarz uchun to'lanadigan foiz va transport xarajati tashkil etadi. Shu tufayli korxona imkoni boricha oborotdagi mablag'larda o'z mablag'ining ulushini ko'paytirishi va nihoyat barcha oborot mablag'larini o'zining hisobidan qoplashi lozim. Bunda bankka to'lanadigan foizdan xalos bo'ladi. Asosiy vositalarni shakllantirishda uning hissasida faol qismini ko'paytirish va jismoniy mehnatini yengillashtiruvchi uskunalarni sotib olish maqsadga muvofiqdir. Agar korxonaning transport vositasi bo'lsa, u faqat korxona zararini kamaytiribgina qolmasdan, balki foyda olishni ham ta'minlashi mumkin. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholaganda asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi tez o'zgarayotgan, fan-texnika taraqqiyoti jadallashayotgan paytda asosiy vositalarni zudlik bilan yangilanishini taqozo qiladi. Bu esa uning amortizatsiyasi me'yorini ko'paytirishni talab etadi. Shunday ekan, asosiy vositalarning ham yangilanishi, ilg'or texnologiyani uzluksiz ravishda joriy qilishni ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilishi lozim.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri korxona debitor qarzlarini ko'paytirmaslik chorasini ko'rishdir. Hozirgi paytda juda ko'p firmalar va korxonalar moliyaviy jihatdan barqaror emas. Bunday subyektlar bilan iqtisodiy munosabatda bo'lish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Ularga tovar berish, pul o'tkazish harakatdagi mablag'ni o'lik mablag'ga aylantirish bilan barobar. Shu tufayli bunday xo'jalik operatsiyalarini sodir qilishdan oldin hamkor subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatini ham chuqur o'rganishni talab qiladi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda chetdan jalb qilingan mablag'lar, xususan bank kreditining ham roli katta. Korxonaning moliyaviy potensiali tarkibida chetdan jalb qilingan mablag'lar hissasi kamayib borishi lozim. Bank krediti foiz yuqori bo'lib turgan hozirgi sharoitda har bir korxona imkoni boricha undan kam foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ish barqarorlashib, ishlab chiqarish yoki savdo faoliyati bir me'yorga tushgan paytdagina bank kreditidan foydalanish ma'lum darajada yaxshi natija berishi mumkin. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun bank kreditidan foydalanish vaqtini, uning hajmini ham bilishni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, korxonaning moliyaviy qaram bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Bu holat erkin raqobat sharoitida yanada muhimdir. Shu tufayli korxona rahbarlari korxonani moliyaviy qaramlikdan saqlash orqali uning barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishi maqsadga muvofiqdir. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bu — bir yoqlama yoki mavsumiy yumush emas. U doim amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng qamrovli, ko'p qirrali iqtisodiy ishdir.

# *16-bob.* KORXONADA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILI

## 16.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlari mazmuni

Barcha korxona va tashkilotlarning bozorda faoliyat ko'rsatishida zarur shart — hisob-kitob va moliya intizomiga qat'iy rioya qilishdir. Tovarlar va xizmatlar bo'yicha barcha hisob-kitoblar har ikki tomon tasdiqlagan shartnomalarga muvofiq belgilangan muddatlarda bajarilishi kerak. Majburiyatlarning buzilishi korxonalarda ishlab chiqarishda uzilishlarga olib keladi, to'lovlarni amalga oshirmaslik zanjiriga hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarining ko'payishiga, ularning moliyaviy ahvolining yomonlashuviga olib keladi.

Buxgalteriya hisobida «debitor» atamasi muayyan korxonadan qarzdor bo'lgan shaxsni anglatadi. «Kreditor» atamasi muayyan korxonani qarzdor qilgan shaxsni bildiradi. Ikki tomonlama shartnoma majburiyatlarida bir korxonaning o'zi ham debitor, ham kreditor bo'lishi mumkin. Masalan, tovar yetkazib berish shartnomasi bo'yicha tovarlar berilgan bo'lsa-yu, ularning puli to'lanmagan bo'lsa, mahsulot yetkazib beruvchida bu summa debitorlik qarzi deb ko'rsatiladi va u debitor, ya'ni xaridorga ma'lum summadagi tovarlarni qarzga bergan deb hisoblanadi. Shu korxonaning o'zi mazkur tovarlarni sotib olgan xaridor uchun kreditor bo'ladi. Xaridor sotib olingan tovarlar bo'yicha mana shu qarz summasini batamom to'lab bo'lguncha kreditorlik qarzi deb ko'rsatadi.

Me'yoriy iqtisodiy sharoitda debitorlik va kreditorlik qarzlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradigan zarur hodisadir. Lekin mikroiqtisodiyotda debitorlik va kreditorlik qarzlari me'yordan ortib ketib, muddatidan kechiktirilsa, iqtisodiyotning mikro va makro darajalarida jiddiy falokat sifatida bir qator korxonalarning likvidsizligini, to'lovga qobiliyatsizligini keltirib chiqaradi. Bular esa korxonalarni bankrot bo'lishga olib boradi, davlat budjetiga daromad tushishini kamaytiradi, iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotiga putur yet-

kazadi. Debitorlik qarzlari o'z mohyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: normal va normal bo'lmagan debitorlar.

Normal jarayon tufayli kelib chiqadigan qarzga quyidagilar kiradi: mahsulot yetkazib beruvchilarga shartnoma asosida beriladigan bo'naklar (gaz, elektr energiyasi, avtotransport va aloqa xizmatlari, materiallar xarid qilish), shuningdek, to'lovlarning tovar bilan qaytarilmagan qismi, hisobot berish sharti bilan pul olgan (berilgan bo'naklar bo'yicha) shaxslarning belgilangan hisobot topshirish muddatlari doirasidagi qarzlari. Normal bo'lmagan debitorlik qarzi: kamomadlar, talon-torojlar va o'g'riliklar bo'yicha qarzlarni, tovarlar (yoki xizmatlar) miqdori va sifati belgilangan assortimentga mos kelmasligi tufayli bildirilgan hamda javob beruvchilar tan olgan yoki hakamlar qaror qilgan qarzlardir.

Xo'jalik faoliyati jarayonida tugallanmagan hisob-kitoblar bo'yicha normal kreditorlik qarzlari qonuniy tarzda vujudga keladi. Bular quyidagilardan iborat:

- schyotlar bo'yicha belgilangan haq to'lash muddatlari doirasida mahsulot yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlik;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha ishchi va xizmatchilar oldidagi hamda ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari bo'yicha kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlari oldidagi qarzdorlik;
- moddiy boyliklarning haqini to'lash muddati hali kelmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan qarzdorlik;
- soliqlar bo'yicha davlat oldidagi qarzdorlik va boshqalar.

Kreditorlik qarzi moliyaviy intizom hamda belgilangan hisob-kitob tartibi buzilishi munosabati bilan ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, muddatida to'lanmagan to'lov hujjatlari bo'yicha va amalga oshirilmagan mahsulot yetkazib berishlar bo'yicha tovar yetkazib beruvchilarga qarzlar; olingan moddiy boyliklar qiymati to'langan schyotlar summasidan ortiq bo'lganida vujudga keladigan mahsulot yetkazib beruvchilarga qarzlar va hokazo.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari ham normal emas. 1999-yil 19-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «1995-yil 12-maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonini qisman o'zgartirish to'g'risida»gi Farmonida muddati 90 kundan ortib ketgan qarzlar muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari, deb hisoblanishi kerakligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 150-moddasiga

muvofiq qarzlar yuzasidan da'vo arizasi berish mumkin bo'lgan umumiy muddat uch yilni tashkil etadi.

*Debitorlik qarzi* — korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarda turgan mablag'laridir. Korxonaning o'z mablag'lari yoki boshqa korxonalarning mablag'lari bu qarzlarni qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi.

*Kreditorlik qarzi* — boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan vaqtincha jalb etilgan mablag'lardir. Ulardan shu korxonaning aylanmasida vaqtincha foydalaniladi. Ularni to'lash muddati kelganida bu mablag'lar aylanma mablag'lar summasidan olib berilishi kerak.

*Debitorlik qarzi* — mablag'larni aylanmadan immobilizatsiyalash, kreditorlik qarzi — boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini ishlab chiqarishga vaqtincha jalb etishdir.

Debitorlik qarzi qaytarilganida hisob-kitob schyotlari valuta schyotlaridagi, kassadagi pul mablag'lari yoki tovar-moddiy boyliklar ko'payadi. Balans yakuni o'zgarmaydi. Lekin agar korxona boshqa korxonalar yoki banklardan kreditlar olish hisobiga mablag' bergan bo'lsa, balans yakuni shu summaga ko'payadi, ya'ni debitorlik qarzi va olingan qarz summasi — boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlar summasi ko'payadi. Biroq, korxonaning o'zida bu mablag'lar bo'lmaydi.

Kreditorlik qarzi qaytarilganida majburiyatlar summasi kamayadi (qarz tugatiladi). Shuningdek, aylanma mablag'lar, ya'ni pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklar ham kamayadi. Bunday holatda buxgalteriya balansining yakuniy summasi kamayadi, qarz korxonaning mablag'lari hisobidan uziladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotlar «Buxgalteriya balansi» va «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma»da ko'rsatiladi.

Debitorlik qarzi aylanma aktivlarning bir qismi bo'lib, «Aylanma aktivlar» degan balans aktivining 2-bo'limida ko'rsatiladi. Unga balansning quyidagi moddalari kiradi:

- xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar (220-satr);
- bo'nak to'lovlari (230-satr);
- budjet bilan hisob-kitoblar (240-satr);
- xodimlar bilan hisob-kitoblar (250-satr);
- shu'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar (260-satr);
- uyushmaga kirgan korxonalar bilan hisob-kitoblar (270-satr);
- muassislar bilan hisob-kitoblar (280-satr);
- boshqa debitorlar (290-satr).

«Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» moddasida buyurtmachi (xaridor)larga berilgan tovarlar, topshirilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzni aks ettiradi. Bunda qarzning tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha to'lovlarni korxona hisob-kitob (yoki boshqa) schyotiga tushirish, o'zaro talablarni inobatga olish yoki olingan veksellar bilan ta'minlash orqali to'languncha bo'lgan paytdagi holati aks ettiriladi. Ushbu modda bo'yicha qarz mahsulot sotish hajmi o'sishi hisobiga ko'payishi mumkin. Korxona rahbari moliyaviy hisobot bilan tanishgan vaqtida ushbu moddaning o'sish sur'atini mahsulot sotish hajmining o'zgarish sur'ati bilan («Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot») hamda tayyor mahsulot qoldig'i (1-shakl, 140-satr) bilan taqqoslashi kerak. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitob summasining o'sish sur'ati sotishdan kelgan sof tushumning o'sishidan yuqori bo'lishi korxona rahbarini hushyor torttirishi kerak. Bu hol xaridorlar va buyurtmachilar o'zlariga jo'natilgan tovarlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar haqini turli sabablarga ko'ra, (xaridorning to'lovga qobiliyatsizligi, sifati boshqacharoq tovar yetkazib berilishi) kam to'lashi hisobiga yuz berishi mumkin.

«Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» moddasi summasining o'sish sur'ati «Tayyor mahsulot» moddasining o'sish sur'atidan yuqoriligi yaxshi marketing, xizmati korxona ishlab chiqarayotgan tovarlarga talab ortishi va aksincha, kamayishining natijasi bo'lishi mukin.

«Bo'nak to'lovlari» moddasi orqali bo'lajak hisob-kitoblar yuzasidan boshqa korxonalarga to'langan bo'naklar summasi: yetkazib berilgan moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar uchun, qisman tayyor buyurtmalar bo'yicha berilgan bo'naklar o'tadi. Bu modda bo'yicha summaning o'sishi tovar yetkazib beruvchilar yoki buyurtmachilarni bajaruvchilar buyurtmalarni bajarmasligi natijasida yuz berishi mumkin. Bunga esa berilgan bo'naklar olinmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

«Budjet bilan hisob-kitoblar» moddasida moliya va soliq idoralarining qarzlari, shu jumladan, soliqlar, yig'imlar va budjetga boshqa to'lovlar bo'yicha qarzlar ko'rsatiladi. Ushbu modda bo'yicha summaning asossiz ko'payishi soliqlar summasini aniqlash hisob-kitoblaridagi kamchiliklarni, Soliq kodeksini hamda budjetga soliqlar to'lash haqidagi qoidalarni yetarlicha bilmaslikni ko'rsatadi.

«Xodimlar bilan hisob-kitoblar» moddasi korxonaning o'z mablag'lari yoki bank krediti hisobiga o'ziga berilgan ssuda va

zayomlar bo'yicha korxonaga yetkazilgan moddiy zararni to'lash kabi qarzini aks ettiradi. Xususan, ushbu modda bo'yicha yakka yoki kooperativ qurilishga yoki dala uylari sotib olishga hamda dala hovlilarni obodonlashtirishga beriladigan qarzlar, yosh oilalarga uy-joy sharoitini yaxshilash yoki uy-ro'zg'or asboblarini sotib olishga beriladigan foizsiz qarzlar va boshqalar ko'rsatiladi. Korxonaning moliyaviy ahvoli yaxshi bo'lishi bilan bir qatorda, ushbu modda bo'yicha summaning ko'payishi korxona rahbariyatining xodimlarini ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash ustida ishlayotganligini ko'rsatadi.

«Shu'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar» moddasida shu'ba korxonalarga berilgan summalar aks ettiriladi (balanslararo hisob-kitoblar). Investitsiyaviy va moliyaviy faoliyat masalalarida strategik siyosatni belgilashda muayyan korxonaning rahbarligi ostida ishlaydigan yuridik shaxsni shu'ba korxona deb hisoblamoq kerak, ya'ni bu qaram korxona bo'ladi. Yig'ma balansni tuzgan vaqtda uning asosiy korxona bilan shu'ba korxonaga doir ma'lumotlari mos kelishi (saldolashuvi) kerak.

«Uyushmaga kirgan korxonalar bilan hisob-kitoblar» moddasida assosiatsiyalashgan korxonalar bilan joriy operatsiyalarga doir ma'lumotlar aks ettiriladi. «Muassislar bilan hisob-kitoblar» moddasida korxona muassislarining ustav sarmoyasiga mablag' solish bo'yicha qarzlari aks etadi. Bu qarzning ko'payishi ushbu korxona muassislarining to'lovga qobiliyatsizligi yoki ustav sarmoyasiga mablag' solish yuzasidan o'z zimmalariga olgan majburiyatlari ko'payganligini, biroq ayrim muassislar mablag'ni hali to'lamaganligini ko'rsatadi.

«Boshqa debitorlar» moddasida hisobdor shaxslarning qarzi, tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib olish chog'ida kamomad aniqlanmaganida mahsulot yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar yuzasidan qarzlar, qarzdor tan olgan yoki sud, arbitraj qarori bilan olingan jarimalar, penalar va neustoykalar (burdsizlik jarimalari) ko'rsatiladi.

Kreditorlik qarzi qisqa muddatli qarzning bir qismi bo'lib, u «Majburiyatlar» balans passivining 2-bo'limida ko'rsatiladi. U balansning quyidagi moddalari bo'yicha guruhlarga ajratilgan:

- mahsulot yetkazib beruvchilar (450-satr);
- budjetga qarzlar (460-satr);
- mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar (470-satr);
- ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlar (480-satr);

• mulkni sug'urtalash va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzlar (490-satr);
• budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlar (500-satr);
• shu'ba korxonalar bo'yicha qarzlar (510-satr);
• uyushmaga kirgan korxonalar bo'yicha qarzlar (520-satr);
• boshqa kreditorlar (530-satr).

«Mahsulot yetkazib beruvchilar» moddasida kelib tushgan moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzlar summasi ko'rsatiladi, shuningdek, yetkazib berilgan mahsulot bo'yicha ularga to'lanishi kerak bo'lgan qarz, yetkazib berilgan mahsulot bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni ta'minlash uchun korxona veksellar bergan pudratchilar va boshqa kreditorlarga qarzlar aks ettiriladi.

Korxona rahbari kreditorlik qarzining ahvolini baholaganida shu moddaga e'tibor berishi kerak. Chunki muddati o'tgan qarzlar aynan shu moddada aks etgan bo'ladi. Agar korxona qarzdor bo'lib qolgan paytdan boshlab 90 kun mobaynida uni to'lay olmasa, muddati o'tgan qarz shu summaga ko'payadi, natijada, muddati o'tgan summadan olinadigan foizlar, soliqlar ham ko'payadi. Mahsulot yetkazib beruvchilarga qarz summasining ko'payishi korxona to'lovga qobiliyatsizligi va uning moliyaviy ahvoli yomonlashganligini ko'rsatadi.

«Budjetga qarzlar» moddasida to'lovlarning hamma turlari, shu jumladan, korxona xodimlaridan olinadigan daromad solig'i bo'yicha budjetga qarzlar aks etadi. Budjetga soliqlarni o'z vaqtida to'lab turish bu modda bo'yicha qarzlarni kamaytiradi. Budjetga soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik belgilangan tartibda foizlar to'lashni, moliyaviy faoliyatda xarajatlar ko'payishini va foyda summasi ko'payishini keltirib chiqaradi. «Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar»da hisoblangan, biroq hali to'lamagan mehnat haqi summalari ko'rsatiladi. Bu moddadagi summaning ko'payishi o'z xodimlarining mehnatiga vaqtida haq to'lanmaganligini, ularning ijtimoiy ahvoli yomonlashayotganligini ko'rsatadi.

«Ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlar» moddasi korxona xodimlarini ijtimoiy sug'urtalash, pensiya bilan ta'minlash va tibbiy sug'urtalash bo'yicha qarz summasini aks ettiradi. Bu modda bo'yicha qarz summasining ko'payishi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida tuman, shahar aholisiga pensiya va nafaqalar to'lash uchun mahalliy budjetga mablag' tushishiga ta'sir ko'rsatadi.

«Mulkni sug'urtalash va shaxsiy sug'urtalash bo'yicha qarzlar» moddasida korxona mol-mulki va xodimlarni majburiy hamda ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha hamda korxona sug'urtalanuvchi bo'lgan boshqa sug'urta turlari bo'yicha qarzlar ko'rsatiladi. «Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlar» korxonaning davlat boshqaruvi idoralari budjetdan tashqari ajratmalar bo'yicha hamda qonunlarga muvofiq boshqa maxsus fondlar uchun davlat idoralariga o'tkazilishi lozim bo'lgan qarzlarini ko'rsatadi. «Shu'ba korxonalarga qarzlar» moddasida agar muayyan korxonaning qarzi shu'ba korxonalar qarzidan ortiq bo'lsa, uning shu'ba korxonalar bilan joriy operatsiyalariga doir ma'lumotlar (balanslararo hisob-kitoblar) aks ettiriladi. «Uyushmaga kirgan korxonalarga qarzlar» moddasi har xil joriy operatsiyalar bo'yicha shunday korxonalarga qarz summasini aks ettiradi. «Boshqa kreditorlar» moddasida «Kreditorlar bilan hisob-kitoblar» guruhiga kiruvchi boshqa moddalarda o'z aksini topmagan hisob-kitoblar bo'yicha korxona qarzlari ko'rsatiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini o'rganish debitorlik qarzi qoida tariqasida, pul va moddiy mablag'lar amalda chiqib ketishi hisobiga paydo bo'lishini, ularning kamayishi esa pul va moddiy mablag'lar qaytib kelishi yoki qayta baholanishi natijasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Kreditorlik qarzi tashqaridan mablag'lar kelishi (mahsulot yetkazib berilishi, shu'ba va uyushmaga kirgan korxonalarga qarzlar) hamda xo'jalik faoliyati jarayonida qarz paydo bo'lib, uning yozilishi natijasida vujudga keladi. Masalan, budjetga qarzlar soliqlar yozish natijasida, mehnatga haq to'lash qarzlari — ish haqi yozish natijasida paydo bo'ladi va hokazo. Bu qarzlar ushbu korxonada hosil qilingan qo'shimcha qiymat hisobiga yoki uning qayta taqsimlanishi hisobiga vujudga keladi. Kreditorlik qarzining ushbu guruhi bo'yicha qarz xo'jalik faoliyati jarayonida yozilganida paydo bo'ladi, qarzlar olingan daromadlar hisobiga to'lanadi. Korxona rahbarlari qarzni yozish davrining qisqarishiga va u korxona daromadlari hisobidan to'lanishlariga erishishlari kerak.

## 16.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hamda tahlil qilish

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini o'rganish hamda tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qilamiz:

- debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasi;

- debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibiy tuzilishi;
- sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsiyenti;
- aylanma mablag'larni immobilizatsiyalash koeffitsiyenti;
- jalb etilgan mablag'lar koeffitsiyenti;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari o'zaro nisbatining koeffitsiyenti;
- muddati o'tgan debitorlik qarzi koeffitsiyenti;
- muddati o'tgan kreditorlik qarzi koeffitsiyenti.

**Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasi.** Ushbu ma'lumotlar «Buxgalteriya balansi» va «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma»dan olinadi. Debitorlik qarzi balans aktivining 2-bo'limida, 220—290-satrlarida aks ettiriladi. Kreditorlik qarzi balans passivining 2-bo'limida, 450—530-satrlarida aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari summasiga qarab, ularning ma'lum davrdagi ko'payishi va kamayishi aniqlanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, har qanday ko'payish ham moliyaviy ahvolning yomonlashuvi bo'lavermaydi. Buning uchun debitorlik va kreditorlik qarzlarining o'sish sur'atini mahsulot sotish hajmining o'sish sur'ati bilan taqqoslash zarur. Agar debitorlik qarzining o'sish sur'ati mahsulot sotish hajmining o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, bu hol xaridorlar va buyurtmachilarning to'lovga qobiliyatsizligidan darak beradi, agar kreditorlik qarzining o'sish sur'ati mahsulot sotish hajmining o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, bu hol ushbu korxona to'lovga qobiliyatsizligiga, u mahsulot yetkazib beruvchilar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qila olmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

**Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tuzilishi** har bir tur qarzlarning umumiy summasida qancha foizni tashkil etishi bilan ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkich asosida debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasida har bir turning ulushi aniqlanadi. Bu ulush korxonaning hisob-kitob-to'lov intizomi va taraflardan har qaysisining shartnoma majburiyatlarini bajarish darajasiga bog'liq bo'ladi. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlariga alohida e'tibor berish kerak. Ularning o'sishi korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashib borayotganligini ko'rsatadi. Bu holatni aniqlash uchun 16.1-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, debitorlik qarzi bir yilda 1382 ming so'm ko'paygan, 3631 ming so'mni tashkil etgan kreditorlik qarzi esa 85 ming so'mga ko'payib, 6014 ming so'mni tashkil etgan. Kreditorlik qarzi debitorlik qarzdan 2383 ming so'm ko'p. Biroq, debitorlik qarzning o'sish sur'ati 161,4 %ga, kreditorlik qarzning o'sish sur'ati esa 101,4 %ga teng. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tuzilishida ham o'zgarishlar yuz bergan.

*16.1-jadval*

**Korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlari summasi hamda tuzilishidagi o'zgarishlarning hisob-kitobi**

(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | | Yil oxirida | | Farqi (+, −) | | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | summa | ulushi, % | summa | ulushi, % | summa | ulushi, % | |
| 1. | Debitorlar Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar | 1224 | 54,5 | 2123 | 58,5 | + 899 | + 4,1 | 173,4 |
| 2. | Budjet bilan hisob-kitoblar | 51 | 2,3 | 42 | 1,2 | − 9 | − 1,1 | 80,8 |
| 3. | Xodimlar bilan hisob-kitoblar | — | — | — | — | — | — | — |
| 4. | Boshqa debitorlar | 974 | 43,3 | 1465 | 40,3 | + 491 | − 3,0 | 150,9 |
| | Jami: | 2249 | 100 | 3631 | 100 | +1382 | — | 161,4 |
| 5. | Shu jumladan, muddati o'tgan debitorlar | 1850 | 82,3 | 2382 | 65,6 | + 532 | − 16,7 | 128,8 |
| 6. | Kreditorlar Mahsulot yetkazib beruvchilar | 2244 | 37,8 | 2511 | 41,8 | + 267 | + 4,0 | 111,9 |
| 7. | Budjetga qarz | 3342 | 56,4 | 2685 | 44,6 | − 657 | − 11,8 | 80,3 |
| 8. | Mehnat, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot bo'yicha qarzlar | 202 | 3,4 | 220 | 3,7 | + 18 | + 0,3 | 108,9 |
| 9. | Boshqa kreditorlar | 141 | 2,4 | 598 | 9,9 | + 457 | + 7,5 | 424,1 |
| | Jami: | 5929 | 100 | 6014 | 100 | + 85 | — | 101,4 |
| 10. | Shu jumladan, muddati o'tgan kreditorlar | 2650 | 44,7 | 2534 | 42,1 | − 116 | − 2,6 | 95,6 |
| 12. | Bir yildagi sof sotilgan mahsulot | 9951,0 | — | 16428 | — | + 6477 | — | 165,1 |
| 13. | Tayyor mahsulotning chiqib ketishi | 1611 | — | 4089 | — | + 2478 | — | 253,8 |

Debitorlik qarzda xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi 4,1 % ko'payib, boshqa debitorlar va budjetga qarzlar kamaygan. Kreditorlik qarzi tarkibida mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlarga qarz ko'payib, budjetga qarz esa ancha kamaygan — 11,8 %.

Yil davomida xaridorlar va buyurtmachilar hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik qarzining o'sish sur'ati (173,4 %) mahsulot sotish hajmining o'sish sur'atiga nisbatan yuqori (165,4 %) bo'lgan. Bu esa muddati o'tgan debitorlik qarzining o'sish sabablaridan biridir. Hisobot yilida debitorlik qarzi ozgina kamaygani holda muddati o'tgan debitorlik qarzi summasi o'sgan. Chunonchi, muddati o'tgan debitorlik qarzi butun qarz summasining 65,6 %ni, muddati o'tgan kreditorlik qarzi esa 42,1 %ni tashkil etadi. Bu hol korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi: likvidlilik, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik darajasi pasayadi, foyda summasi va rentabellik darajasi kamayadi.

**Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsiyenti ($K_{s.im.}$)** xo'jalik mablag'lari umumiy summasida debitorlik qarzining ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{s.im} = \frac{Deb.qarz}{S},$$

bunda, *Deb.qarz* — debitorlik qarzi; *S* — xo'jalik mablag'lari (sarmoya)ning umumiy summasi.

Ushbu koeffitsiyent qancha katta bo'lsa, umumiy sarmoya summasidan shuncha ko'p mablag' debitorlik qarziga jalb etiladi va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar qo'lida bo'ladi.

*Aylanma mablag'larni immobilizatsiyalash koeffitsiyenti* (Ayl.$K_{mab.im.}$) debitorlik qarzining aylanma mablag'lardagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Ayl.K_{mab.im} = \frac{Deb.qarz}{Ayl.m.},$$

bunda, *Ayl.m.* — aylanma mablag'lar summasi.

Ushbu koeffitsiyent qancha katta bo'lsa, shuncha ko'p aylanma mablag' aylanishdan debitorlik qarzlariga jalb etilgan bo'ladi va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'ladi.

*Jalb etilgan mablag'lar koeffitsiyenti ($K_{j.m.}$)* kreditorlik qarzining xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{j.m} = \frac{Kred.qarz}{S},$$

bunda, *Kred.qarz* — muayyan sanadagi kreditorlik qarzi summasi.

Koeffitsiyent ortib borgan sari kreditorlik qarzining korxona umumiy xo'jalik mablag'lari summasidagi salmog'i ham ortib boradi

va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarning aylanmaga jalb etilgan mablag'lari ko'payishidan dalolat beradi. Ushbu koeffitsiyentdan kreditorlik qarzni tahlil qilish chog'ida foydalaniladi. Agar mablag'lar manbalari tahlil qilinayotgan bo'lsa, jalb etilgan mablag'lar koeffitsiyentini quyidagi formula bo'yicha hisoblash zarur:

$$K_{j.m.} = \frac{P2B}{S},$$

bunda, *P2B* — balans passivi, 2-bo'limining jami.

Bu jalb etilgan mablag'larning xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi ulushini ko'rsatadi.

*Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsiyenti.* ($K_{kr.deb.n.}$) kreditorlik qarzining debitorlik qarzidagi ulushini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{kr.deb.n.} = \frac{Kred.qarz}{Deb.qarz}.$$

Agar ushbu koeffitsiyent 1,0 dan ko'p bo'lsa, u kreditorlik qarzi debitorlik qarzdan oshib ketganligini, ya'ni xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi jalb etilgan mablag'lar boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qo'lidagi mablag'lardan ortiq ekanligini ko'rsatadi yoki aksincha. Agar bu koeffitsiyent 1,0 dan kam bo'lsa, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan mablag'lar jalb etilgan mablag'lardan ortiq ekanligidan dalolat beradi.

*Muddati o'tgan debitorlik qarzi koeffitsiyenti* ($K_{mud.d.q.}$) debitorlik qarzida uning muddati o'tgan qismi qanday ulushga egaligini ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$K_{mud.d.q} = \frac{Mud.deb.q.}{Deb.qarz},$$

bunda, *Mud.deb.q.* — muddati o'tgan debitorlik qarzi summasi.

Ushbu koeffitsiyentning ortib borishi qarzlarni undirishdagi mavjud kamchiliklarni, moliyaviy ahvol, buyurtmachilar, xaridorlar tomonidan hisob-kitob-to'lov intizomi buzilayotganligi kabi salbiy jarayonlarni ko'rsatadi.

*Muddati o'tgan kreditorlik qarzi koeffitsiyenti* ($K_{mud.kr.q.}$) kreditorlik qarzida uning muddati o'tgan qismi qanday ulushga egaligini ko'rsatadi va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{муд.кр.q.} = \frac{Myд.kred.q.}{Kred.qarz},$$

bunda, *Mud.kred.q* — muddati o'tgan kreditorlik qarzi summasi.

Bu koeffitsiyentning ortishi hisob-kitob-to'lov intizomida kamchiliklar mavjudligini, korxonaning moliyaviy ahvoli yomonligini, uning nolikvidliligi va to'lovga qobiliyatsizligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlarning holatini tahlil qilish uchun 16.2-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*16.2-jadval*

**Korxonadagi debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini baholash**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil boshida | Yil oxirida | Farqi (+,−) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsiyenti | 0,08 | 0,12 | + 0,04 |
| 2. | Aylanma mablag'larni immobilizatsiyalash koeffitsiyenti | 0,16 | 0,22 | + 0,06 |
| 3. | O'z mablag'ini immobilizatsiyalash koeffitsiyenti | 0,11 | 0,17 | + 0,06 |
| 4. | Jalb etilgan mablag'lar koeffitsiyenti | 0,22 | 0,20 | − 0,02 |
| 5. | Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsiyenti | 2,64 | 1,66 | − 0,98 |
| 6. | Muddati o'tgan debitorlik qarzining koeffitsiyenti | 0,82 | 0,66 | − 0,16 |
| 7. | Muddati o'tgan kreditorlik qarzining koeffitsiyenti | 0,45 | 0,42 | − 0,03 |
| 8. | Debitorlik qarzi, ming so'm | 2249 | 3631 | + 1382 |
| 9. | Shu jumladan, muddati o'tgan qarz | 1850 | 2382 | + 532 |
| 10. | Kreditorlik qarzi, ming so'm | 5929 | 6014 | + 85 |
| 12. | Shu jumladan, muddati o'tgan qarz | 2650 | 2534 | − 116 |

Jadvaldan ko'rinib turganidek, hisobot yilida o'z mablag'lar aylanishidan chiqarib olingan, ya'ni mablag'lar immobilizatsiyasi o'sgan. Sarmoya, aylanma mablag'lar va o'z sarmoyasining immobilizatsiyalanish koeffitsiyentlari ortgan. Jalb etilgan mablag'lar koeffitsiyenti pasaygan, ya'ni korxona xo'jalik mablag'lari umumiy summasidagi kreditorlik qarzi ulushini kamaytirgan. Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsiyenti ham shundan dalolat beradi. Yil boshida kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan 2,64 barobar, yil oxirida 1,66 barobar ortiq bo'lgan, ya'ni 0,98 barobar pasaygan. Bundan tashqari, debitorlik va

kreditorlik qarzlarining umumiy summalarida muddati o'tgan debitorlik (66 %) va kreditorlik (42 %) qarzlarining ulushi yuqoriligi qayd etiladi.

Bularning barchasi korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korxona rahbarlari muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini tugatish, shuningdek, mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitob-to'lov intizomini yaxshilash uchun hamma choralarni ko'rishi, budjetga soliqlarni o'z vaqtida va to'la hajmda to'lashi kerak. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining har bir turi bo'yicha ularning kelib chiqish sabablarini, bu mablag'larni qaytarish imkoniyatini aniqlash, ularni kamaytirish yuzasidan aniq tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining ahvolini yaxshilashning asosiy yo'llari quyidagilardir:

- zarur mahsulotni yetkazib berish va xarid qilish shartnomalarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzish;
- hisob-kitob-to'lov hujjatlarini o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish;
- mahsulot yetkazib berish va sotishni vaqtida hisob-kitob qilib borish;
- mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridor korxonalarining moliyaviy ahvolini o'rganish;
- mahsulot hajmini oshirish va sifatini yaxshilash;
- mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish;
- korxona buxgalterlari, iqtisodchilari va moliya xizmati xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish;
- korxonalarning moliyaviy ahvolini o'z vaqtida tahlil qilish hamda ularning natijalarini menejerlarga taqdim etish.

Har bir korxona rahbari debitorlik va kreditorlik qarzlari holati faqat shu korxonaning emas, balki unga hamkor bo'lgan va umuman butun respublika iqtisodiyotining moliyaviy ahvoliga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri ekanligini doimo esda tutishlari lozim.

# *17-bob.* KORXONADA FOYDALILIK NUQTASINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

## 17.1. Korxona daromadlari tarkibi

Bozor munosabatlari shakllanayotgan davrda faoliyat ko'rsatayotgan har qanday korxona erkin raqobat natijasida sinib ketmasligi hamda xatarsiz ishlashishni ta'minlash uchun, eng avvalo, zararsiz faoliyat ko'rsatishi mumkinligini oldindan aniqlash va tahlil qilish yo'llarini bilishi lozim.

Har bir korxona o'z faoliyati davomida ma'lum darajada daromad *(D)* oladi. Bu o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki tegishli xarajatlarni *(X)* sarf qilishni talab qiladi. Maqsad korxonaning oladigan daromadi uning qilgan xarajatlarini qoplab foyda olishdir. Agar olingan daromad faqat xarajatni qoplasa $(D=X)$ bu korxonaning zararsiz ishlaganligini ko'rsatadi. Agar $D>X$ bo'lsa, bunda korxona foyda bilan ishlayotganligini, agar $D<X$ bo'lsa, zarar bilan ishlayotganligini bildiradi. Bu oddiy haqiqat. Biroq, korxona rahbari (egasi) ma'lum muddatda qancha mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishni, shunga qancha xarajat bo'lishini va bu xarajatni qoplash uchun qancha daromad olish zarurligini oldindan bilishi kerak. Buni baholash va tahlil qilish uchun korxonaning zararsizlik darajasini aniqlashni taqozo qiladi.

Korxonaning zararsizlik darajasini aniqlash uchun daromadning tarkibi belgilab olinadi. Korxona daromadi quyidagi elementlarga bo'linadi: korxona xarajatlarini qoplashga, davlat budjetiga to'lovlarni *(S)* amalga oshirishga va foydani *(F)* tashkil qilishga. Bu holda quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$D = X + S + F$$

Ushbu formuladan korxonaning daromadi uning xarajati, to'lanadigan solig'i va olinadigan foydasiga to'g'ri proporsionalligi aks etgan. Bularning qaysi biri ko'paysa (kamaysa), *D* ning hajmi ham shunga mos ravishda ko'payishi (kamayishi) mumkin.

## 17.2. O'zgaruvchi va o'zgarmas xarajatlarni aniqlash

Tahlil jarayonida shuni ko'zda tutish kerakki, xarajatlar va soliqlarning bir qismi o'zgaruvchi va bir qismi o'zgarmasdir. Demak, formulada ifodalangan natija va omil ko'rsatkichlarining hisobot yillaridagi haqiqiy hajmi 1-formulada ko'rsatilgan nazariyadan farq qilishi ham mumkin. Buni aniqlash uchun xarajatlarni va soliqlarni ikkiga: o'zgaruvchi va o'zgarmas qismlariga bo'lib olinadi. U holda 1-formula quyidagicha ifodalanadi:

$$D = (Xo'z + Xo'm) + (So'z + So'm) + F,$$

bunda, *Xo'z* — o'zgaruvchi xarajatlar; *Xo'm* — o'zgarmas xarajatlar; *So'z* — soliqlarning o'zgaruvchi qismi; *So'm* — soliqlarning o'zgarmas qismi.

Bu formuladagi o'zgaruvchi *(Xo'z, So'z)* va o'zgarmas *(Xo'm, So'm)* miqdorlarni alohida qo'shib birgalikda ifodalasak quyidagi 2-formula kelib chiqadi:

$$D = Mo'z + Mo'm + F,$$

bunda, *Mo'z = Xo'z + So'z.ga, Mo'm = Xo'm + So'm.*ga teng.

Ushbu ifodalangan omillarning daromad hajmi bilan bog'liqligi quyidagicha: daromadning ko'payishi o'zgaruvchi xarajatlarni ko'paytiradi; o'zgaruvchi xarajatlarning ko'payishi esa pirovard natijada, daromadlarni ko'paytiradi.

## 17.3. Muvofiqlik (proporsionallik) koeffitsiyentini aniqlash

Xarajatlarning tarkibini to'g'ri ifodalash uchun muvofiqlik (proporsionallik) koeffitsiyentidan (Km) foydalanish mumkin. Muvofiqlik (proporsionallik) koeffitsiyentini aniqlash uchun mahsulotning o'zgaruvchi xarajatlarini soliqning o'zgaruvchi qismi bilan birgalikda qo'shib (Mo'z), uning qiymatiga (R) bo'linadi:

$$Km = \frac{Mo'z}{R}.$$

Muvofiqlik koeffitsiyenti inobatga olingan holda 3-formula quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$D = Km \cdot Mo'z + Mo'm + F.$$

Ushbu formulaga asosan korxonaning barcha xarajatlarini qoplash, ya'ni uning zararsizlik darajasini ta'minlash uchun qancha daromad zarurligini hisoblash mumkin.

## 17.4. Korxonaning zararsizlik (tenglik) nuqtasini aniqlash

Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun dastlab daromadning «tenglik nuqtasi» aniqlanadi ($D^m$), ya'ni daromad hajmi barcha xarajatlarni qoplashga yetarli bo'lishi kerak. Bunda foyda olish ko'zda tutilmaydi. U holda 4-formula quyidagicha ifodalanadi:

$$D^m = Km \cdot Mo'z + Mo'm.$$

Natija bilan omil o'rtasidagi muvofiqlik (proporsionallik) koeffitsiyentini to'g'ri ifodalash uchun 5-formulani quyidagicha yozish ham mumkin[1].

$$D^m = \frac{Mo'm}{1 - Km}.$$

Ushbu formulaga asosan barcha xarajatlarni qoplash va soliqlarni to'lash uchun korxonaga qancha daromad kerakligini aniqlash mumkin. Masalan, «Turon» korxonasi o'zi ishlab chiqargan sandiqni sotadi deb faraz qilaylik. Bir dona sandiqning bahosi 20,0 ming so'mni tashkil qiladi. Bu narx hisobot yilida ham o'zgarmasdan saqlanib qoladi. Buning 14 ming so'mi o'zgaruvchi xarajatlardir. Bunda muvofiqlik (proporsionallik) koeffitsiyenti 0,7 (14 : 20)ga teng bo'ladi.

Endi «Turon» korxonasining zararsiz ishlashi uchun hisobot davrida qancha sandiq ishlab chiqarib sotishi lozimligini aniqlash mumkin. Korxonaning doimiy xarajatlari 450,0 ming so'mni tashkil qilganda, ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$D^m = \frac{450,0}{1 - 0,7} = 1500,0 \text{ ming so'm.}$$

«Turon» korxonasi barcha xarajatlarini qoplashi va soliqlarni to'la to'lashi uchun 1500,0 ming so'mlik sandiq ishlab chiqib sotishi lozim ekan. Buning uchun 75 ta (1500,0 : 20,0) sandiq ishlab chiqarilib sotilishi kerak. Bu holda har bir sandiqni ishlab chiqarish va sotishga ketgan umumiy xarajat 14 + (450 : 75) =20 ming so'mni tashkil qiladi.

«Turon» korxonasi bir yilda sandiqni 75 tadan kam ishlab chiqarsa, u zarar bilan ishlaydi va tabiiyki, foyda ololmaydi. Oxir-

---

[1] О.В. Ефимова. Анализ безубыточности предприятия. Журнал «Бухгалтерский учёт», 1993, № 6.

oqibatda sinishi mumkin. Agarda 75 tadan ko'p ishlab chiqarib sotadigan bo'lsa, korxona foyda olishi muqarrar. Shu tufayli yil boshida korxonaning «tenglik nuqtasini» aniqlab olishi lozim. Korxona xizmat qiladigan hududda shuncha sandiqning sotilish imkoni bo'lmasa, unda yangi bozorni topish, agar uning ham iloji bo'lmasa, boshqa mahsulotni ishlab chiqarib sotishga ixtisoslashishi lozim.

### 17.5. Foydalilik nuqtasini aniqlashning bevosita usuli

Ushbu ko'rsatkichlarni boshqacharoq yo'l bilan ham yechish mumkin. Eng avvalo, xarajatlarning ikkiga bo'linishini inobatga olish lozim.

1. Doimiy o'zgarmas xarajatlar — 100,0 ming so'm.
2. O'zgaruvchi xarajatlar — 140,0 ming so'm.

Ikkinchidan, marjinal foyda (Mf) aniqlanadi. Buning uchun mahsulotning sotilish qiymatidan (Q) uning o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha tannarxi (Tn) ayriladi:

$$Mf = Q - Tn.$$

Mahsulot (ish, xizmat)ning sotilish qiymati 3,0 ming so'm, uning o'zgaruvchi xarajatlar bo'yicha 2,0 ming so'm. U holda har bir mahsulot (ish, xizmat)dan olinadigan marjinal foydaning miqdori 1,0 ming so'mni (3,0—2,0) tashkil qiladi. Uchinchidan, barcha xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi (Q) aniqlanadi. Buning uchun doimiy o'zgarmas xarajatlar summasini (Dx) marjinal foyda summasiga (Mf) bo'linadi:

$$Q = \frac{Dx}{Mf}.$$

Misolimizda barcha xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi 100 doimiy (birlikni) tashkil qiladi.

$$Q = \frac{100,0}{1,0} = 100 \text{ dona (birlikda)}.$$

Demak, mazkur tadbirkor bir oy muddatda barcha xarajatlarni qoplash uchun 100 dona mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarib, sotishi lozim ekan. Ammo tadbirkorning maqsadi o'z faoliyati natijasidan foyda olishdir. Foyda summasi ham biznes-rejada oldindan aniqlanib, ko'zda tutiladi. U holda mazkur tadbirkor barcha

xarajatlarini qoplab, ko'zda tutilgan foydaga erishish lozim bo'lgan mahsulot (ish, xizmat) hajmini (Qkt) aniqlash uchun o'zgarmas xarajatlarga *(Dx)* biznes-rejada ko'zda tutilgan foyda summasini *(Fbr)* qo'shib, marjinal foyda summasiga *(Mf)* bo'linadi:

$$Qkt = \frac{Dx + Fbr}{Mf}.$$

Faraz qilamiz, mazkur tadbirkorning bir oyda oladigan foydasi 25,0 ming so'mni tashkil qiladi. U holda ushbu ko'zlangan foydaga erishishi uchun u shu oyda 125 dona mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarib sotishi lozim ekan.

$$Fkt = \frac{100,0 + 25,0}{1,0} = 125 \text{ dona.}$$

Ushbu hisob-kitoblarning chizmasi quyidagicha bo'ladi:




Shuni e'tirof etish kerakki, foyda summasini ish hajmini oshirmasdan ham ko'paytirish mumkin. Buning uchun 3-formuladagi Mf o'rniga 1-formuladagi miqdori qo'yilsa, quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$Qkt = \frac{Dx + Fbr}{Q - Tn}.$$

Ushbu formuladan biznes-rejada ko'zda tutilgan foyda *(Fbr)* miqdorini aniqlash mumkin:

$$Fbr = \frac{Q - Dx}{Q - Tn}.$$

Mazkur formuladan ko'rinib turibdiki, biznes-rejada ko'zda tutilgan foydani ko'paytirish uchun ish hajmini *(Q)* oshirish, doimiy o'zgarmas xarajatlarni *(Dx)* kamaytirish, bir dona mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarib sotish qiymatini *(Q)*

arzonlashtirish va unga nisbatan shu mahsulot (ish, xizmat) tannarxini *(Tn)* kamaytirish orqali erishish mumkin.

Ushbu omillar ta'sirini aniqlash uchun 17.1-jadvaldan foydalaniladi.

*17.1-jadval*

**Biznes-rejada ko'zda tutilgan foydani aniqlash hisob-kitobi**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Biznes-rejada | Haqiqatda | Farqi (+,–) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, miqdori, qiymati, ming so'm | 125<br>125,0 | 140<br>130,0 | + 15<br>+ 5,0 | 112,0<br>104,0 |
| 2. | Doimiy o'zgarmas xarajatlar, ming so'm | 200,0 | 100,0 | – | 100,0 |
| 3. | Bir dona mahsulotning sotish qiymati, ming so'm | 3,0 | 3,5 | + 0,5 | 116,7 |
| 4. | Bir dona mahsulotning tannarxi, ming so'm | 2,0 | 2,2 | + 0,1 | 105,0 |
| 5. | Marjinal foyda, ming so'm (3q–4q) | 1,0 | 1,4 | + 0,4 | 140,0 |
| 6. | Biznes-rejada ko'zda tutilgan foyda, ming so'm | 25,0 | 21,4 | – 3,6 | 85,6 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sishga erishilgan. Ammo biznes-rejada ko'zda tutilgan foyda miqdori 14,4 % yoki 3,6 ming so'mga kamaygan. Bu o'zgarishga bir qancha omillar ta'sir qilgan. Tahlilning eng muhim vazifalaridan biri shu ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

## 17.6. Bir qancha faoliyat turi bilan shug'ullanilganda zararsizlik nuqtasini aniqlash usuli

Amaliyotda korxonalar o'z faoliyati davomida bir vaqtning o'zida bir qancha tovarlarni ishlab chiqarib sotish bilan ham shug'ullanishi mumkin. Bunday sharoitda korxonaning zararsiz ishlash darajasi barcha tovarlarni ishlab chiqarib sotish bilan bog'liq faoliyat natijasi bo'yicha aniqlanadi. Bu holda quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$D^{IN} = \sum_{i=1}^{n}(D_i - M_{o'zi}) - M_{o'mi},$$

bunda, $D_i$ — $i$ — tovar bo'yicha olinadigan daromad; $M_{o'zi}$ — $i$ — tovarni ishlab chiqarib sotish uchun ketadigan o'zgaruvchi xarajat; $M_{o'mi}$ — barcha doimiy o'zgarmas xarajatlarning haqiqiy miqdori; $i$ — tovar guruhi tartib soni ($i = 1,n$); $n$ — ishlab chiqarilib sotiladigan tovar guruhining umumiy soni.

Amaliyotda har bir tovar bo'yicha daromadlar va xarajatlarni hisoblash qiyin. Shu tufayli daromad va xarajatlar umumiy summasidan foydalaniladi. U holda moliyaviy natijani *(F)* hisoblash yo'li ancha soddalashtiriladi va quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$F = D - (\frac{Mo'm \cdot O'z}{100} + M_{o'mi}),$$

bunda, $D$ — yilning $t$ — choragida olingan daromadning haqiqiy summasi; $Mo'm$ — o'zgarmas xarajatlarning yillik summasi; $O'z$ — o'zgarmas xarajatlarning $t$ — chorakdagi ulushi; $M_{o'mi}$ — o'zgaruvchi xarajatlarning $t$ — chorakdagi haqiqiy summasi.

Keltirilgan formulalardan amaliyotda foydalanish uchun quyidagi amaliy ma'lumotlarni qo'llaymiz. Bunda haqiqiy o'zgarmas yillik xarajatlarni 15200,0 ming so'm miqdorida qabul qilamiz. Uni shartli ravishda to'rt chorakka teng 25 %dan bo'lamiz. U holda moliyaviy natija quyidagicha bo'ladi (17.2-jadval):

*17.2-jadval*

**«Turon» OTAJning butun faoliyati bo'yicha moliyaviy natijalarning yillik hisoboti**

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yil choraklari | | | | Yil bo'yicha |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | I | II | III | IV | |
| 1. | Barcha tovarlarni sotishdan olingan daromad, ming so'm | 9280,0 | 9940,0 | 11551,0 | 11940,0 | 42711,0 |
| 2. | O'zgaruvchi xarajatlar, ming so'm | 5310,0 | 6240,0 | 7151,0 | 6830,0 | 25531,0 |
| 3. | O'zgarmas xarajatlar, ming so'm | | | | | 15200,0 |
| JAMI: | | | | | | 40731,0 |
| 4. | Moliyaviy natija (foyda), ming so'm | 170,0 | – 100,0 | 600,0 | 1310,0 | 1980,0 |

Jadval ma'lumotidan ko'rinib turibdiki, «Turon» korxonasi hisobot yili natijasi bo'yicha 1980,0 ming so'm foyda olishga erishgan. Ammo uni alohida choraklar bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, birinchi chorak natijasi ijobiy, ya'ni 170,0 ming so'm foyda olgan.

$$[9280,0 - (5310,0 + \frac{15200 \cdot 25\,\%}{100}) = +\,170,0 \text{ ming so'm}].$$

Ikkinchi chorak natijasi ushbu korxonaning 100,0 ming so'mlik zarar bilan ishlaganligini ko'rsatadi.

$$[9940 - (6240,0 + \frac{15200 \cdot 25\,\%}{100}) = -\,100,0 \text{ ming so'm}].$$

Uchinchi va to'rtinchi chorak natijalari esa ijobiy bo'lgan, ya'ni III chorakda 600,0 ming so'm foyda olgan bo'lsa, bu ko'rsatkich IV chorakda 1310,0 ming so'mni tashkil qilgan. Tahlil natijasidan shunday xulosa qilish mumkinki, hisobot davrida «Turon» korxonasi umumiy natija bo'yicha zararsiz ishlagan. Ammo ikkinchi chorakda 100,0 ming so'm zarar ko'rgan. Agar ushbu zarar bo'lmaganda edi, uning yillik foydasi 1980,0 ming so'm emas, balki 2080,0 ming so'mni (1980,0 + 100,0) tashkil qilgan bo'lar edi. Korxonaning zararsiz ishlash darajasini tahlil qilishni uning haqiqiy natijasini o'tgan davr natijalari bilan solishtirgan holda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bilan davom ettirish mumkin.

# *18-bob.* KORXONANING MOLIYAVIY NATIJALARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI

## 18.1. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning vazifalari va ma'lumotlar manbai

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini, ularning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da ifodalanishini, har bir ko'rsatkichning aniqlanish yo'llarini, moliyaviy natijalarning umumlashgan ko'rsatkichlari tahlilini yoritishdan iborat. Moliyaviy natijalar tahlili moliyaviy tahlilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mavzuni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlari o'rganiladi. Ammo ushbu ko'rsatkichlar bozor munosabatlari sharoitida bir qancha omillar ta'sirida, ko'pgina manbalar hisobidan shakllanadi. Shu tufayli, korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ko'lami ancha kengaygan.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilish, eng avvalo, sotilgan mahsulotni o'rganishdan boshlanadi. Barcha xarajatlarni qoplab daromad olishni ta'minlaydigan ko'rsatkich, bu — sotilgan mahsulot uchun tushgan pul tushumidir. Undan qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlarni to'lab sof tushumni aniqlash mumkin. Demak, moliyaviy natijalarning asosiy manbai, bu — sotishdan tushgan tushumdir. Shu tufayli ushbu ko'rsatkich moliyaviy natijalar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida qaralishi lozim.

Navbatdagi bajariladigan amal sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijani aniqlashdan iboratdir. Buning uchun sotishdan olingan sof tushumdan uning ishlab chiqarish tannarxini ayirish kifoya. Demak, moliyaviy natijalar tarkibida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari ham ifodalanadi. Lekin ushbu ko'rsatkich tahlilda moliyaviy natijalarga ta'sir qiluvchi omillar sifatida qaraladi. Korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibida sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olinadigan daromadlari va qilinadigan xarajatlarini

ifodalovchi ko'rsatkichlari ham mavjud. Ushbu xarajat (daromad)lar sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijadan chegirilib, asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasini keltirib chiqarish mumkin. Ko'rsatkichlarning ko'lami kengayishi bilan ularga ta'sir qiluvchi omillar ham kengayadi. Demak, moliyaviy natijalarning shakllanishidagi o'zaro bog'liqlik ham murakkablashib bormoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy natijasi bevosita uning moliyaviy faoliyatiga ham bog'liq. Jumladan, uyushma va shu'ba korxonalaridan olingan dividendlar, boshqa olingan dividendlar, uyushma va shu'ba korxonalaridan olingan, berilgan qarzlar bo'yicha foizlar, boshqa to'langan, olingan foizlar, valuta kursi farqi, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromad hamda xarajatlar. Ushbu ko'rsatkichlarni korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalariga qo'shib korxona umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi aniqlanadi. Bu korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning to'rtinchisi hisoblanadi. Bozor sharoitida moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibida favqulodda olinadigan foyda va to'lanadigan zarar ham bo'lishi mumkin ekan. Agar oldingi ko'rsatkichga ushbu omil ta'siri inobatga olinsa, korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi navbatdagi ko'rsatkich — soliq to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija kelib chiqadi. Endi ular tarkibidan sof foydani aniqlab olish uchun mazkur ko'rsatkichdan daromad (foyda) solig'i hamda boshqa soliq va ajratmalarni ayirib tashlash lozim.

Ushbu jarayon har bir korxonaning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ida o'z aksini topadi. Shu tufayli moliyaviy natijalarni tahlil qilganda asosiy manba sifatida ushbu hisobot olinadi. Shu bilan birga tahlil jarayonida korxonaning «Buxgalteriya balansi», «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma», «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot», «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot», «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot», «Moliyaviy-iqtisodiy holat bo'yicha ma'lumotnoma» kabi hisobotlari, ma'lumotlari va hisob-kitoblari qo'llaniladi.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligi quyidagicha ifodalanadi:



Tahlil jarayonida ushbu bog'liqlikning hamma tizimi o'rganiladi. Bu uning vazifasini to'g'ri belgilab olishni taqozo qiladi. Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish vazifasi quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalarni ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarning to'g'ri aniqlanganligini tekshirish;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot davridagi o'zgarishiga baho berish;
- ushbu ko'rsatkichlarning har biriga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligini aniqlash va ularning sof foyda o'zgarishiga ta'sirini hisoblash;
- rentabellik ko'rsatkichlariga baho berish;
- uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- foyda va rentabellikni oshirishning ichki imkoniyatlarini izlab topish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Ushbu vazifani bajarish korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlab olishni taqozo qiladi.

## 18.2. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi uning daromadlari, foydasi va rentabelligi bilan bog'liq ko'rsatkichlardir. Bular quyidagilardan iborat:

*Daromadlar:*

1. Sotishdan olingan daromad.
2. Asosiy faoliyatdan olingan daromad.
3. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad.
4. Favquloddagi (tasodifiy) daromad.

*Foyda turlari:*

1. Sotishdan olingan foyda.
2. Asosiy faoliyatdan olinadigan foyda (zarar).
3. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda (zarar).
4. Favquloddagi (tasodifiy) foyda (zarar).
5. Soliq to'langunga qadar foyda.
6. Sof foyda.

*Rentabellik ko'rsatkichlari:*

1. Iqtisodiy salohiyat rentabelligi.
2. Moliyaviy salohiyat rentabelligi.
3. O'z mablag'lari rentabelligi.
4. Barcha aktivlar rentabelligi.
5. Xususiy kapital rentabelligi.
6. Sotilgan mahsulotning rentabelligi.
7. Aksiyaning rentabelligi.
8. Tahlil maqsadidan kelib chiqadigan boshqa rentabellik ko'rsatkichlari.

Ushbu guruhlarda keltirilgan moliyaviy natijalarni ifodalovchi muhim ko'rsatkichlarni aniqlash usuli 18.1-chizmada keltirilgan.

Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (Yamn) = Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan kelgan sof tushum (St) – Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi (Tn)

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (Afmn) = YAMN – Davr xarajatlari (Dx) + Boshqa operatsion daromadlar (Bd)

Moliyaviy faoliyat natijasi (Mfn) = Moliyaviy faoliyatdan kelgan daromadlar (Mfd) – Moliyaviy faoliyatga ketgan xarajatlar (Mfx)

Tasodifiy (favqulodda) foyda yoki zarar (Tf) (Tz) = Tasodifiy daromad (Td) – Tasodifiy xarajat (Tx)

Soliq to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija (foyda) (Yaf) = Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (Afmn) + Mfn + Tf

Sof foyda (Sf) = Soliq to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija (foyda) (Yaf) – Soliqlar va ajratmalar (S)

Taqsimlanmagan foyda (Tmf) = Sof foyda (Sf) – Dividendlar (Dv)

*18.1-chizma.* Korxonada moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari.

Ushbu chizmadagi ko'rsatkichlarni moliyaviy hisobotning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ga asosan korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot yilidagi holatini aniqlash usullarini ko'rib chiqish mumkin:

Yamn (852,8) = St (5694,5) − Tn (4841,7)

Afmn (711,7) = Yamn (852,8) − Dx (98,3 + 80,0) + Bd (37,2)

Mfn (80,4) = Db 4,7 + Shk 2,9 − Btf 27,5 + Vkf 7,1 + Bmf 93,2

Yaf (800,4) = Afmn (711,7) + Mfn (80,4) + Tf (8,3)

Sf (496,2) = Yaf (800,4) − S (248,5 + 55,7)

Tmf (396,2) = Sf (496,2) − Dv (100,0)

Ushbu ko'rsatkichlarni korxonaning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotidan olish mumkin. Uning shakli 18.1-jadvalda keltirilgan.

*18.1-jadval*

**Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | Satr raqamlari | O'tgan yilning shu davrida | | Hisobot davrida | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | daromadlar (foyda) | xarajatlar (zarar) | daromadlar (foyda) | xarajatlar (zarar) |
| Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum | 010 | 5728,6 | x | 6883,6 | x |
| Qo'shilgan qiymat solig'i | 020 | x | 799,1 | x | 831,3 |
| Aksizlar | 030 | x | 346,2 | x | 357,8 |
| Sotishdan olingan sof tushum (daromad) (010−020−030) | 050 | 4583,3 | x | 5694,5 | x |
| Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi | 060 | x | 3951,2 | x | 4841,7 |
| Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (050−060) | 070 | 632,1 | | 852,8 | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Sotish xarajatlari | 080 | x | 85,4 | x | 98,3 |
| Ma'muriy xarajatlar | 090 | x | 67,0 | x | 80,0 |
| Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari va xarajatlari | 100 | 31,3 | | 37,2 | |
| Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda yoki zarar) (070−080−090−100) | 110 | 511,0 | | 711,7 | |
| Uyushma va shu'ba korxonalaridan olingan dividendlar | 120 | | x | | x |
| Boshqa olingan dividendlar | 125 | 3,5 | x | 4,7 | x |
| Uyushma va shu'ba korxonalaridan olingan va berilgan qarzlar bo'yicha foizlar | 130 | 4,2 | | 2,9 | |
| Boshqa to'langan va olingan foizlar | 135 | | 21,6 | | 27,5 |
| Valuta kursi farqi | 140 | 5,8 | | 7,1 | |
| Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar va xarajatlar | 145 | 79,3 | | 93,2 | |
| Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda va zarar) (110+125+130 −5+140+145) | 150 | 582,2 | | 792,1 | |
| Favquloddagi (tasodifiy) foyda va zarar | 160 | 11,4 | | 8,3 | |
| Soliq to'langunga qadar umumiy moliyaviy natija (foyda) (150+160) | 170 | 593,6 | | 800,4 | |
| Foydadan (daromaddan) soliq | 180 | x | 200,0 | x | 248,5 |
| Boshqa soliqlar, to'lovlar va ajratmalar | 190 | x | 25,6 | x | 55,7 |
| Hisobot davridagi sof foyda (170−180−190) | 200 | 368,0 | | 496,2 | |

Jadval ma'lumotlarida korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning ikki yilligi keltirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar tahlil uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil jarayonida mazkur hisobot shakllaridan keng foydalaniladi. Chunki korxonani boshqarish tahlil natijasida amalga oshirilganligi tufayli hisobotlarda ifodalanadigan ko'rsatkichlarning haqqoniy bo'lishini ta'minlash lozim. Shundagina ko'zlangan maqsadga o'z vaqtida erishiladi.

## 18.3. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar umumiy hajmining tahlili

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi daromadlar va foyda bilan bog'liq ko'rsatkichlarga hisobot bo'yicha 8 ko'rsatkich kiradi. Korxona moliyaviy natijalarini tahlil qilganda, eng avvalo, ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishini aniqlash lozim. Buning uchun 18.2-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*18.2-jadval*

**Korxonaning hisobot yilida olgan daromadlarini asosiy turlari bo'yicha tahlil qilish**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|
| 1. Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum (Yat) | 5728,6 | 6883,6 | +115,5 | 120,2 |
| 2.Sotishdan olingan sof tushum (daromad) (St) | 4583,3 | 5694,5 | +1111,2 | 124,3 |
| 3.Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (Yamn) | 632,1 | 852,8 | +220,7 | 134,9 |
| 4. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining natijasi (foyda) yoki zarar (Afmn) | 511,0 | 711,7 | +200,7 | 140,6 |
| 5.Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi (Mfn) | 582,2 | 792,1 | +209,9 | 136,1 |
| 6.Favquloddagi (tasodifiy) foyda va zarar (Tf) | 11,4 | 8,3 | −3,1 | 72,8 |
| 7.Soliq to'langunga qadar umumiy foyda (5q+6q) (Yaf) | 593,6 | 800,4 | +206,8 | 134,8 |
| 8.Sof foyda (Sf) | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 134,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum, ya'ni moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkich tahlil qilinayotgan yilda 120,2 % ortgan. Biroq, sotishdan olingan sof tushumning o'sish sur'ati undan ham ko'proq, ya'ni 124,3 %ni tashkil qiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, korxona to'laydigan soliqlarning o'sish sur'ati mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushumga nisbatan ancha kam bo'lgan. Shu davrda uning miqdori 103,8 %ni [(831,3 + 357,8) · 100 : (799,1 + 346,2)] tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat)ning tannarxi o'tgan yilga nisbatan ortgan, lekin, o'sish sur'ati sotishdan olingan sof tushumning o'zgarish sur'atiga nisbatan ancha kam bo'lgan. Bu mazkur davrda 122,3 %ni (4841,7:3951,2 · 100), sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijaning o'sish sur'ati esa 134,9 %ni tashkil qilgan. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati bir-biriga nisbatan ortib borishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi ham shu hisobot davrida 140,6 % o'sgan. Bu ko'rsatkichning miqdori ham oldingi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori. Demak, ushbu

ko'rsatkichni shakllantirishda ishtirok etadigan sotish va ma'muriy xarajatlar ham ancha tejalganligidan dalolat beradi. Haqiqatda ushbu xarajatlarning o'sish sur'ati mazkur tahlil davrida 116,8 %ni [(98,3+80,0) · 100 : 85,4 + 67,0)] tashkil qiladi.

Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi biroz oldingisiga nisbatan kamaygan. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi 140,6 % o'sgan bir paytda ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati 136,1 %ni tashkil qiladi. Bu o'zgarish mazkur ko'rsatkichni shakllantiruvchi omillar evaziga amalga oshgan. Xususan, korxona oladigan dividendlar, berilgan qarzlar uchun olinadigan foizlari, valuta kursidan olinadigan farq, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar (xarajatlar) o'sishiga qaramasdan ularning o'zgarish sur'ati biroz past bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati hammasini jamlaganda 88,6 %ni [(3,5 + 4,2 − 21,6 + 5,8 + 79,3) · 100 : (4,7 + 2,9 − 27,5 + 7,1 + 93,2)] tashkil qiladi, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 11,4 %ga kam bo'lgan.

Hisobot davrida korxonada olingan tasodifiy foyda o'tgan yilga nisbatan 27,2 % kam bo'lgan (100,0—72,8). Natijada soliq to'langunga qadar bo'lgan umumiy foydaning ham o'sish sur'ati (134,8 %) o'zidan oldingi ko'rsatkichga nisbatan (136,1 %) past bo'lgan. Shu hisobot yilida foyda (daromad)dan to'lanadigan soliq stavkasining o'zgarmay qolganligi sof foyda o'zgarish sur'atiga ta'sir qilmagan. Natijada, ushbu ko'rsatkichning ham o'sish sur'ati 134,8 %ni tashkil qilgan. Demak, moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan. Bu bog'liqlik korxona rentabelligini aniqlash jarayonida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

## 18.4. Korxonada foyda tahlili

Korxona moliyaviy manbalarini aniqlash moliyaviy natijalar tahlilida muhim ahamiyatga ega, chunki foydaning kimga va qanday taqsimlanishi aynan shu manbalar shakllanishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonani tashkil qilish turli mulk egalari va turli mablag'lar evaziga shakllanadi. Shu tufayli ularning tashkil bo'lish manbalari 18.2-chizmasida berilgan. Chizmadan ko'rinib turibdiki, korxonani tashkil qilishda va uning faoliyati davomida moliyaviy manbalarning shakllanishi turli xildir. Korxonani tashkil qilishda ta'sischilar mablag'i, davlat mablag'i, aksiyadorlar va boshqa investorlar mablag'i hisobidan moliyalashtirilsa, uning




*18.2-chizma.* Korxonani tashkil qilishda va uning faoliyati davomida moliyaviy manbalarning shakllanishi.

faoliyati davomida moliyaviy ta'minoti o'z foydasidan bir qismini ajratish, moliyaviy bozorda ishtirok etish, banklardan qarz olish va boshqa manbalar evaziga amalga oshirilar ekan.

Aynan korxonaning sof foydasi moliyaviy natijalarning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Uning ham to'planishi va ishlatilishi o'ziga xos xususiyatga ega (18.3-chizma).




*18.3-chizma.* Foydaning shakllanishi va ishlatilishi.

Foyda to'planishi korxonaning qaysi sohaga mansubligiga bog'liq. Agar u ishlab chiqarish korxonasi bo'lsa, foydaning asosiy manbai ishlab chiqarib sotilgan mahsulot tushumidan, agar u xizmat ko'rsatishga daxldor korxona bo'lsa, foydaning asosiy qismi xizmat ko'rsatish evaziga olgan tushumdan iborat bo'ladi. Shu tufayli tahlil jarayonida qaysi soha o'rganilayotgan bo'lsa, uning faoliyatidan kelib chiqmoq maqsadga muvofiqdir.

### 18.4.1. Sotishdan olingan sof tushum tahlili

Sotishdan olingan sof tushumni korxonaning yalpi foydasi deb ham atash mumkin. Bu odatda, sotilgan mahsulotning umumiy qiymatidan uning tannarxini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Ammo shu ikki ko'rsatkich zamirida mahsulotning qiymati, miqdori, baho o'zgarishi, tannarxdagi tebranishlar mujassam. Shu tufayli yalpi foydaning vujudga kelishida bevosita shu omillar ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirish uchun 18.3-jadvalni tuzish mumkin.

*18.3-jadval*

**Yalpi foyda o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi**

| Ko'rsatkichlar | Asos yilida | Hisobot yilidagi mahsulot shu davr bahosi va asos yilidagi tannarx bilan | Hisobot yilidagi mahsulot asos yilidagi baho va hisobot yilidagi tannarx bilan | Hisobot yilida |
|---|---|---|---|---|
| 1. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning to'liq tannarxi | 3951,2 | 3951,2 | 4841,7 | 4841,7 |
| 2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) qiymati | 4583,3 | 5694,5 | 4745,4 ** | 5694,5 |
| 3. Yalpi foyda* (2q—1q) | 632,1 | 1743,3 | —96,3 | 852,8 |

*Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)dan olingan yalpi foyda.

** Viloyat statistika va istiqbolni belgilash boshqarmasining hisobotiga asosan baho indeksi 1,2 ga teng.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, yalpi foyda shu davrida 220,7 ming (852,8—632,1) so'mga ortgan. Uning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi

$$\Delta Fsm = (Sm_1 - Tn_0) - (Sm_0 - Tn_0) = 1743,3 - 632,1 = + 1111,2.$$

2. Tannarxning oshganligi

$$\Delta Ftk = [(Sm_1/i_r) - Tn_1] - (Sm_1 - Tn_0) = -96{,}3 - 1743{,}3 = -1839{,}6.$$

3. Bahoning oshganligi

$$\Delta Fb = (Sm_1 - Tn_1) - [(Sm_1/i_r) - Tn_1] = 852{,}8 + 96{,}3 = +949{,}1.$$

Barcha omillar ta'siri

$$\Delta F = 1111{,}2 - 1839{,}6 + 949{,}1 = +220{,}7.$$

Korxonada yalpi foyda ma'lum ahamiyatga ega, chunki u barcha moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar negizini tashkil qiladi. Ammo xo'jalik faoliyatining pirovard natijasi sof foydaga erishish bilan belgilanadi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda sof foydani o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

### 18.4.2. Korxonada sof foydaning shakllanishi

Korxonada sof foydaning shakllanish jarayoni butun moliya-xo'jalik faoliyatini qamrab oladi. Bu yerda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, sotish va ma'muriy xarajatlarni tejash, moliyaviy faoliyat natijasida ijobiy saldoga erishish, tasodifiy foydaga muyassar bo'lish, soliq stavkasi o'zgarmagan holda soliq obyektini ko'paytirish evaziga soliq summasini kamaytirish kabi bir qancha bosqichlar mujassam. Ularning ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin:

| | |
|---|---|
| | Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan sof tushum |
| − | Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi |
| = | Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija |
| − | Davr xarajatlari (sotish, boshqarish va boshqa ma'muriy xarajatlar) |
| ± | Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar va xarajatlar |
| = | Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining natijasi |

±

Moliyaviy faoliyat natijasi (olingan dividendlar, foizlar, berilgan foizlar, valuta kursi, farqi (foyda+, zarar−)

=

Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi

±

Favquloddagi (tasodifiy) foyda (+) yoki zarar (−)

=

Soliq to'lagunga qadar umumiy moliyaviy natija − foyda

Soliqlar va ajratmalar

−

Sof foyda

=

To'langan dividend

−

Balansda ko'rsatiladigan taqsimlanmagan foyda

Hozirgi paytda amaldagi me'yoriy hujjatlar moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning shakllanishini aynan shu tarzda ifodalashni taqozo qiladi. Ushbu holat moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun ham uslubiy jihatdan yondashishga asosdir. Ushbu ketma-ketlikka asoslanib, korxona sof foydasining shakllanishi va ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rib chiqish mumkin. Buning uchun 18.4-jadvaldan foydalanish mumkin.

*18.4-jadval*

**Korxonada sof foydaning shakllanish hosob-kitobi**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|
| 1. Mahsulotni sotishdan kelgan sof tushum (qiymatga qo'shilgan soliq va aksizlarsiz) | 4583,3 | 5694,5 | +1111,2 | 124,3 |
| 2. Sotilgan mahsulot tannarxi (ish, xizmat) | 3951,2 | 4841,7 | +890,5 | 122,5 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)dan olingan moliyaviy natija (1q–2q) | 632,1 | 852,8 | +220,7 | 134,9 |
| 4. Davr xarajatlari (mahsulotni sotish, boshqaruv va boshqa ma'muriy xarajatlar) | 152,4 | 178,3 | +25,9 | 117,0 |
| 5. Boshqa operatsion daromadlar | 31,3 | 37,2 | +5,9 | 118,8 |
| 6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar natijasi (foyda +, zarar–) (3q–4q+5q) | +511,0 | +711,7 | +200,7 | 140,6 |
| 7. Moliyaviy salohiyat natijasi (+,–) | +71,2 | +80,4 | +9,2 | 112,9 |
| 8. Tasodifiy (favqulodda) faoliyat natijasi (foyda +, zarar –) | +11,4 | +8,3 | –3,1 | 72,8 |
| 9. Soliq to'langunga qadar foyda (6q ±7q ±8q) | 593,6 | 800,4 | +206,8 | 134,8 |
| 10. Soliqlar va ajratmalar summasi | 225,6 | 304,2 | +78,6 | 134,8 |
| 11. Sof foyda (9q–10q) | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 134,8 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonaning sof foydasi hisobot yilida 128,2 ming so'mga yoki 134,8 %ga o'sgan. Bu o'zgarish juda ko'p omillar evaziga sodir bo'lgan. Ushbu omillar ta'sirini shu jadval ma'lumotlari asosida aniqlash mumkin. Bu omillar guruhiga quyidagilar kiradi:

- mahsulot hajmining o'zgarishi;
- tannarxning o'zgarishi;
- bahoning o'zgarishi;
- davr xarajatlarining o'zgarishi;
- turli operatsion daromadlar (xarajatlar) o'zgarishi;
- asosiy faoliyat moliyaviy natijasi;
- moliyaviy faoliyat natijasi;
- tasodifiy (favqulodda) foyda va zararlarning mavjudligi;
- soliq stavkasi;
- soliq summasi.

Ushbu omillarning ta'sirini jadval ma'lumotlari va yuqoridagi (18.4-bobdagi) hisob-kitoblar asosida ko'rib chiqish mumkin.

| | |
|---|---|
| 1. Sotilgan mahsulot hajmining ko'payishi → | + 1111,2 |
| 2. Tannarxning oshganligi → | – 1839,6 |
| 3. Bahoning oshganligi → | + 949,1 |
| 4. Davr xarajatlarining ko'payganligi (178,3–152,4) → | – 25,9 |
| 5. Boshqa operatsion daromadlarning ortganligi (37,2–31,3) → | + 5,9 |

| | |
|---|---|
| 6. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadning ortganligi (711,7–511,0) | +200,7 |
| 7. Moliyaviy faoliyatdan olingan foydaning ko'payishi (80,4–71,2) | +9,2 |
| 8. Tasodifiy foydaning kamayganligi (8,3 –11,4) | –3,1 |
| 9. Soliq summasining ortganligi (304,2–295,6) | –78,6 |
| 10. Barcha omillar ta'sirida sof foydaning o'zgarishi (496,2 – 368,0) | +128,2 |

Sof foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning umumiy miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta F = \sum_{i=1}^{n} \Delta F_i .$$

Ushbu formulaga tegishli ma'lumotlarni ko'rib, barcha omillar ta'sirida natijaning umumiy o'zgarishini aniqlash mumkin.

1111,2–1839,6+949,1–25,9+5,9+9,2–3,1–78,6=+128,2 ming so'm.

## 18.5. Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida rentabellik ko'rsatkichlarining yangi tizimini, ularni aniqlash va tahlil qilish hamda ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish evaziga ichki imkoniyatlarni axtarib topish orqali tahlil qilinayotgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Korxona rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- korxona ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi;
- sotilgan mahsulot rentabelligi;
- iqtisodiy salohiyat rentabelligi;
- asosiy vositalar rentabelligi;
- aylanma mablag'lar rentabelligi;
- nomoddiy faollar rentabelligi;
- mehnat salohiyati rentabelligi;
- moliyaviy salohiyat rentabelligi;
- o'z mablag'lari rentabelligi;
- chetdan jalb qilinganlik rentabelligi;
- ishlab chiqarish fondlari rentabelligi;
- aktivlar rentabelligi.

Bundan tashqari, qaysi sohada nimani tahlil qilishiga qarab, rentabellik ko'rsatkichlarining boshqa turlarini ham aniqlash mumkin bo'ladi. Barcha ko'rsatkichlar rentabelligini ketma-ket tarzda aniqlash usuli quyidagicha bo'ladi.

**Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati rentabelligini** (*Rich*) ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun sof foydani (*Sf*) mahsulot (ish, xizmat)ning tannarxiga (*Tn*) bo'lish lozim:

$$Rich = \frac{Sf}{Tn} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm ishlab chiqarish xarajatiga qancha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu qilingan xarajatning qanday samaradorlikka ega bo'lganligini ifodalaydi hamda bozor sharoitida bu korxona egasi, rahbari, jamoasi va investorlari uchun o'ta muhim ko'rsatkichdir.

**Sotilgan mahsulot rentabelligini** (*Rsm*) aniqlash uchun sof foydani (*Sf*) sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning (*Sm*) miqdoriga bo'lish kifoya:

$$Rsm = \frac{Sf}{Sm} \cdot 100.$$

Bu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm sotilgan mahsulot korxonaga qancha sof foyda keltirayotganligidan dalolat beradi. Shuningdek, u ko'rsatkich korxonaning tadbirkorligi, bozordagi faolligi bilan ham bevosita bog'liq. Mazkur ko'rsatkich rejali iqtisodiyot sharoitida umumiy rentabellikni ifodalab ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan olinar edi. Endilikda ishlab chiqarilgan mahsulot o'zining baholovchi ko'rsatkich sifatidagi mohiyatini yo'qotadi. Endi mahsulot sotilishi va o'z xaridorini bozordan topishi lozim. Shu tufayli bozor munosabatlari sharoitida ushbu ko'rsatkichning mohiyati oshadi.

**Korxonaning iqtisodiy salohiyati rentabelligi** (*Ris*)ni aniqlash uchun sof foyda (*Sf*)ni uning iqtisodiy salohiyati o'rtacha qiymatiga (Is) bo'linadi:

$$Ris = \frac{Sf}{Is} \cdot 100.$$

Mazkur ko'rsatkich korxonaning 100 so'm iqtisodiy salohiyatiga necha so'm sof foyda keltirilayotganligini ko'rsatadi. Agar korxonaning iqtisodiy salohiyati tarkibini keltiradigan bo'lsak, u quyidagi holatga ega bo'ladi:

$$Ris = \frac{Sf}{Av = Ayl.m + Na + Ms} \cdot 100,$$

bunda, *Av* — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati; *Ayl.m* — aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati; *Na* — nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati; *Ms* — mehnat salohiyatining o'rtacha yillik qiymati.

**Korxona asosiy vositalari rentabelligi** (*Rav*)ni aniqlash uchun sof foyda (*Sf*)ni asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga (Av) bo'lish kifoya:

$$Rav = \frac{Sf}{Av} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm asosiy vositalariga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi.

**Korxona aylanma mablag'lari rentabelligi** (*Ram*)ni aniqlash uchun sof foydani (*Sf*) aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga (*Ayl.m*) bo'linadi.

$$Ram = \frac{Sf}{Ayl.m} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qiymatiga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi.

**Korxona nomoddiy faollari rentabelligi** (*Rnf*) ham bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tarkibiga kiritildi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof foyda (*Sf*) ni nomoddiy faollarning o'rtacha yillik qiymatiga (*Na*) bo'linadi:

$$Rnf = \frac{Sf}{Na} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'mlik nomoddiy faoliga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi hamda korxona miqyosidagi qator yillarga aniqlab, nomoddiy faollar va foyda summalarining o'zgarish sur'atlarini, ularning bir-biriga muvofiqligini aniqlash uchun qo'llash mumkin.

**Korxonaning mehnat salohiyati rentabelligini** (*Rms*) aniqlash uchun sof foyda (*Sf*)ni mehnat salohiyatining o'rtacha yillik qiymatiga (*Ms*) yoki xodimlar soniga (*Xs*) bo'lish lozim.

$$Rms = \frac{Sf}{Ms} \cdot 100, \; Rms = \frac{Sf}{Xs} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm mehnat salohiyati qiymatiga yoki bir xodimga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

**Korxona moliyaviy salohiyati rentabelligi** (*Rsos*) 100 so'm moliyaviy salohiyatning o'rtacha yillik qiymatiga to'g'ri keladigan sof foyda miqdorini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof foyda (*Sf*)ni korxona moliyaviy salohiyati o'rtacha yillik qiymatiga (*Mos*) bo'linadi:

$$Rmos = \frac{Sf}{Mos} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich ham bozor munosabatlari sharoitida muhim ahamiyatga ega, chunki korxonaning moliyaviy manbalari uchun endi bevosita korxona egasi, investori mas'ul. Undan investor qancha samarali foydalansa shuncha yaxshi.

**Korxona o'z mablag'lari rentabelligi** (*Ro'm*) moliyaviy salohiyat rentabelligi singari sof foydani o'z mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga (O'm) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Ro'm = \frac{Sf}{O'm} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'm o'z mablag'iga qancha sof foyda to'g'ri kelishini ifodalaydi. Bu o'z kapitalining samaradorlik darajasini belgilaydi.

**Korxonaning chetdan jalb qilgan mablag'lari rentabelligi** (Rchjm)ni aniqlash uchun sof foyda (*Sf*)ni chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymatiga (*Chjm*) bo'linadi:

$$Rchjm = \frac{Sf}{Chjm} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning olgan uzoq va qisqa muddatli kreditlari hamda boshqa chetdan jalb qilingan mablag'larining samaradorligini ifodalaydi. Uning miqdori 100 so'm Chjm.ga to'g'ri keladigan Sf. miqdorini ko'rsatadi.

**Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabelligi** (Rif) bu asosiy va aylanma mablag'lar, ya'ni moddiy resurslar samaradorligini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun sof foyda (*Sf*)ni asosiy

vositalar (Av) va aylanma mablag'lar (*Ayl.m*) o'rtacha qiymati yig'indisiga bo'linadi:

$$Rif = \frac{Sf}{Av + Ayl.m} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich korxonaning 100 so'mlik moddiy resurslariga to'g'ri keladigan sof foydaning miqdorini ifodalaydi. Uning miqdori qancha ortib borsa, korxona uchun shuncha yaxshi.

**Korxonaning aktivlari rentabelligi** (*Ra*) bevosita barcha aktivlar samaradorligini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun sof foyda (*Sf*)ni barcha aktivlarning (*A*) o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi:

$$Ra = \frac{Sf}{A} \cdot 100.$$

Agar aktivlarni alohida qismi bo'yicha oladigan bo'lsak, ushbu formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Ra = \frac{Sf}{Av + Ayl.m + Na} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich 100 so'm aktivlar qiymatiga to'g'ri keladigan Sf. miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini baholashda keng qo'llanilib kelinmoqda. Tahlil jarayonida ma'lum iqtisodiy kategoriyalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash o'ta muhim. Lekin ularning o'zgarishi, ayniqsa, shu o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash tahlilning eng muhim vositasidir. Shu tufayli rentabellikni ifodalovchi har bir ko'rsatkichni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Mazkur ishda metodologik asos sifatida ularning ayrimlariga to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki ushbu ko'rsatkichlar tahlilining usullari boshqa ko'rsatkichlarni ham shunday tahlil qilish uchun metodologik asos bo'ladi.

## 18.6. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi umumlashgan rentabellik ko'rsatkichlarining omilli tahlili

Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichga mahsulot (ish, xizmat) rentabelligini kiritish mumkin. Mazkur ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Rst = \frac{Sf}{St} \cdot 100,$$

bunda, *Rst* — mahsulot (ish, xizmat) rentabelligi.

Ushbu ko'rsatkichga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sof foydaning yalpi foydadagi hissasi (*Sf/Yaf*);
- yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalardagi hissasi (*Yaf/Yamn*);
- yalpi moliyaviy natijaning sof tushumdagi hissasi (*Yamn/St*).

Ular o'rtasidagi bog'liqlik 18.4-chizmada aks ettirilgan.




*18.4-chizma.* Korxona umumiy rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik.

Ushbu omillarni natija bilan bog'laydigan bo'lsak, quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$Rst = \frac{Sf}{Yaf} \cdot \frac{Yaf}{Yamn} \cdot \frac{Yamn}{St}.$$

Ularning qisqartirilgan matematik modeli natijani «U», omillarni «$X_i$» deb belgilansa, quyidagi formula orqali ifodalanadi. Unda har bir omilni $X_i$ deb qabul qilish mumkin:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \prod_{i=1}^{3} X_i \quad (i = \overline{1,3}).$$

Ushbu formuladagi ko'rsatkichlarni 8.1 va 8.2-jadval ma'lumotlari asosida aniqlab, omilli tahlil uchun 18.5-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*18.5-jadval*

**Moliyaviy natijalar umumlashgan ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Zanjirli almashtirishlar | |
|---|---|---|---|---|
| | | | I | II |
| 1. Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi, % (8q:7q •100) | 61,995 | 61,994 | 61,994 | 61,994 |
| 2. Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalardagi hissasi (7q:3q) | 0,939 | 0,938 | 0,939 | 0,938 |
| 3. Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi (3q:2q) | 0,138 | 0,150 | 0,138 | 0,138 |
| 4. Mahsulot rentabelligi, % (1q •2q•3q) | 8,03 | 8,72 | 8,03 | 8,02 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot rentabelligi ko'rsatkichining 0,69 % (8,72—8,03) ortganligiga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning yalpi foydadagi ulushi juda kam miqdorda, ya'ni 0,001 % o'zgargan. Bu natija o'zgarishiga ta'sir qilmagan:

$$8{,}03 - 8{,}03 = 0.$$

2. Yalpi foydaning sotilgan mahsulotdan olingan yalpi moliyaviy natijalardagi hissasi 0,001 ga (0,938—0,939) kamayganligi natijani 0,01 % kamayishiga olib kelgan:

$$8{,}02 - 8{,}03 = -0{,}01.$$

3. Yalpi moliyaviy natijaning sotilgan sof mahsulotdagi hissasi 0,012 ga ko'payganligi mahsulot rentabelligini 0,7 % oshirgan:

$$8{,}72 - 8{,}02 = +0{,}7.$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$0 - 0{,}01 + 0{,}70 = +0{,}69.$$

## 18.7. Ishlab chiqarish fondlari rentabelligi tahlili

Korxonaning ishlab chiqarish fondlari yoki moddiy resurslari rentabelligi vazifasi hozirgi sharoitida ancha o'zgardi. Oldin rentabellik davlat mulkining samaradorligini ifodalasa, bugun xususiy (jamoa) mulkining samaradorligini ifodalaydi. Ularning

samaradorligidan hozir bevosita mazkur fondlarning ishlatilishidan korxona egasi, investori, mehnat jamoasi manfaatdor. Shu jihatdan tahlilning usuli ham shu talablarga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Korxona moddiy resurslarining umumiy rentabellik ko'rsatkichi, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ra = \frac{\text{Sof foyda (Sf)}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati (Av)} + \text{Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati (Ayl.m)}}.$$

Tahlil bevosita shu rentabellik darajasining farqini ($\Delta Ra$) aniqlashdan boshlanadi:

$$\Delta Ra = Ra^h - Ra^r = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Ayl.m^x}\right) - \left(\frac{Sf^r}{Av^r + Ayl.m^r}\right).$$

Endi rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini aniqlash lozim. Eng avvalo, rentabellik o'zgarishiga sof foyda summasi o'zgarishining ta'siri ($\Delta Rasf$) aniqlanadi:

$$\Delta Rasf = \left(\frac{Sf^x}{Av^r + Ayl.m^r}\right) - \left(\frac{Sf^r}{Av^r + Ayl.m^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga asosiy vositalar o'rtacha qiymati o'zgarishining ta'siri ($\Delta Raav$) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Raav = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Ayl.m^r}\right) - \left(\frac{Sf^x}{Av^r + Ayl.m^r}\right).$$

Rentabellikning o'zgarishiga aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining ta'sirini ($\Delta Raam$) hisoblash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Raam = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Ayl.m^x}\right) - \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Ayl.m^r}\right).$$

Barcha omillar ta'siri rentabellik o'zgarishining umumiy hajmiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta R_a = \Delta R_a sf \pm \Delta R_a av \pm \Delta Raam.$$

Ushbu formulalarga amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlash usulini ko'rib chiqishda 18.6-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*18.6-jadval*

**Korxona (firma)ning ishlab chiqarish fondlari rentabelligi darajasini aniqlash**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|
| 1. Sof foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 134,8 |
| 2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 2956,5 | 3497,5 | +541,0 | 118,3 |
| 3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 7269,0 | 8810 | +1541,0 | 121,2 |
| 4. Rentabellik darajasi, % | 3,599 | 4,032 | +0,433 | 112,0 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, rentabellik darajasi tahlil qilinayotgan korxonada hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 0,433 % bandga o'sgan. Bu sof foyda summasining 134,8 % o'sgandagi holati bilan asosiy vositalarning 118,3 % va aylanma mablag'larning 121,2 % o'sgan holatiga to'g'ri keladi. Demak, shu uch omil ham rentabellikning o'zgarishiga ma'lum darajada ta'sir qilgan. Ularning ta'sirini hisoblash uchun 18.7-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi. Hisobot yilida firmada ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasining umumiy miqdori 0,433 foizga oshgan (4,032—3,599).

*18.7-jadval*

**Korxona (firma)ning ishlab chiqarish fondlari rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Sof foyda o'zgarishi bilan *(Rsf)* | Asosiy vositalar o'zgarishi bilan *(Rav)* | Haqiqiy miqdori yoki aylanma mablag'larning o'zgarishi bilan *(Ram)* |
|---|---|---|---|---|
| 1. Sof foyda, ming so'm | 368,0 | 496,2 | 496,2 | 469,2 |
| 2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 2956,5 | 2956,5 | 3497,5 | 3497,5 |
| 3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 7269,0 | 7269,0 | 7269,0 | 8810,0 |
| 4. Rentabellik darajasi, % | 3,599 | 4,853 | 4,609 | 4,032 |

Ushbu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Foydaning 128,2 ming so'mga ko'payganligi rentabellik darajasini 1,254 % oshirgan

$$\Delta R_a f = R_a f - R_a = 4{,}853 - 3{,}599 = +1{,}254\ \%.$$

2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati 541,0 ming so'mga ortganligi rentabellik darajasini 0,244 % kamaytirgan

$$\Delta R_a av = R_a av - R_a f = 4{,}609 - 4{,}853 = -0{,}244\ \%.$$

3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati 1541,0 ming so'mga ko'payganligi rentabellik darajasini 0,577 %ga kamaytirgan:

$$\Delta Raam = Raam - R_a av = 4{,}032 - 4{,}609 = -0{,}577.$$

Barcha omillar ta'siri rentabellik o'zgarishining umumiy farqiga teng:

$$\Delta R_a = \Delta R_a f \pm \Delta R_a av \pm \Delta Raam = 1{,}254 - 0{,}244 - 0{,}577 = +0{,}433.$$

Korxonaning ushbu umumiy rentabelligi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilganda, ularning mazmunini o'zgartirish ham mumkin. Bunga ishlab chiqarish fondlari bilan bog'liq umumiy rentabellik ko'rsatkichini aniqlashning kengaytirilgan usulini qo'llagan holda ham erishish mumkin. Bunda ushbu an'anaviy formuladan foydalaniladi:

$$\text{Rentabellik } (R_a) = \frac{\text{Sof foyda (Sf)}}{\text{Asosiy vositalar o'rtacha qiymati (Av)} + \text{Aylanma mablag'lar o'rtacha qiymati (Ayl.m)}}$$

Ushbu formuladagi ko'rsatkichlarni bir xil ko'rsatkichga bo'lib yoki ko'paytirib olish yo'li bilan natijaning miqdorini saqlab qolgan holda omillarning nomini va mazmunini o'zgartirish mumkin. Masalan, biz o'zgartiruvchi ko'rsatkich sifatida korxona mahsulotini oldik. U holda aktivlar rentabelligi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$R_a = \frac{(Sf / M)}{(AV / M) + (Ayl.m / M)},$$

bunda, $M$ — mahsulot.

$$\text{Rentabellik } (R_a) = \frac{\text{Mahsulot rentabelligi (Rm)}}{\text{Asosiy vositalar sig'imining koeffitsiyenti (Rav)} + \text{Aylanma mablag'lar sig'imining koeffitsiyenti (Rav)}}$$

Ushbu formulaga asosan korxonaning umumiy rentabelligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning zanjirli almashtirish usulini qo'llagan holdagi hisob-kitobi quyidagicha amalga oshiriladi.

Rentabellikning umumiy farqi

$$\Delta R_a = \left(\frac{Rm^x}{Rav^x + Ram^x}\right) - \left(\frac{Rm^r}{Rav^r + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga mahsulot rentabelligi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta R_a rm = \left(\frac{Rm^x}{Rav^r + Ram^r}\right) - \left(\frac{Rm^r}{Rav^r + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga asosiy fondlar sig'imi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta R_a rav = \left(\frac{Rm^x}{Rav^x + Ram^r}\right) - \left(\frac{Rм^x}{Rav^r + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga aylanma mablag'lar sig'imi o'zgarishining ta'siri

$$\Delta R_a ram = \left(\frac{Rm^x}{Rav^x + Ram^x}\right) - \left(\frac{Rm^x}{Rav^x + Ram^r}\right).$$

Rentabellik o'zgarishiga barcha omillar ta'siri

$$\Delta R_a = \Delta R_a rm \pm \Delta R_a rav \pm \Delta R_a ram.$$

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun 18.8-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*18.8-jadval*

**Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabelligini aniqlash yo'llari**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | O'zgarish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|
| Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. Sof foyda | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 134,8 |
| 2. Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati | 2956,5 | 3497,5 | +541,0 | 118,3 |
| 3. Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati | 7269,0 | 8810,0 | +1541,0 | 121,2 |
| 4. Mahsulot hajmi | 4583,3 | 5694,5 | +1111,2 | 124,3 |

| Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. Mahsulot rentabelligi, % | 8,02 | 8,71 | +0,69 | 108,6 |
| 6. Asosiy vositalar sig'imining koeffitsiyenti (2q:4q) | 0,645 | 0,614 | −0,031 | 95,2 |
| 7. Aylanma mablag'lar sig'imining koeffitsiyenti (3q:4q) | 1,586 | 1,547 | −0,039 | 97,5 |
| 8. Ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasi, % [5q (6q+7q)] | 3,59 | 4,03 | +0,44 | 112,3 |

Jadval ma'lumotlari asosida korxona rentabelligi o'zgarishiga yuqorida qayd qilingan omillar ta'sirini aniqlash mumkin. Buning uchun 18.9-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*18.9-jadval*

**Korxonaning ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | Zanjirli almashtirishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | I | II | III |
| 1. Mahsulot rentabelligi, % | 8,02 | 8,71 | +0,69 | 8,71 | 8,71 | 8,71 |
| 2. Asosiy vositalar sig'imining koeffitsiyenti | 0,645 | 0,614 | −0,031 | 0,645 | 0,614 | 0,614 |
| 3. Aylanma mablag'lar sig'imining koeffitsiyenti | 1,586 | 1,547 | −0,039 | 1,586 | 1,586 | 1,547 |
| 4. Ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasi, % (1q · 2q · 3q) | 3,59 | 4,03 | +0,44 | 3,90 | 3,96 | 4,03 |

Mazkur korxonada hisobot davrida ishlab chiqarish fondlari rentabellik darajasi 0,44 % ortgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Mahsulot rentabelligining 0,69 % ortganligi ishlab chiqarish fondlari rentabelligini 0,31 % ko'paytirgan

$$3{,}90 - 3{,}59 = +0{,}31\ \%.$$

2. Mahsulotdagi asosiy fondlar sig'imi koeffisiyenti 0,031 ga kamaygan. Bu tahlil qilinayotgan ko'rsatkichni 0,06 % oshirgan

$$3{,}96 - 3{,}90 = +0{,}06\ \%.$$

3. Aylanma mablag'lar sig'imining koeffisiyenti 0,039 ga kamaygan. Bu esa natijaning 0,07 ortishiga olib kelgan

$$4{,}03 - 3{,}96 = +0{,}07\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng

$$0{,}31 + 0{,}06 + 0{,}07 = +0{,}44.$$

## 18.8. Barcha aktivlar rentabelligi

Bozor munosabatlari sharoitida ko'plab korxonalar barcha aktivlardan samarali foydalanish masalasini ustuvor vazifa qilib qo'yishmoqda. Chunki korxona aktivlari ularning mulki. Qolaversa, bu mulk foyda keltirish uchun mo'ljallangan mulkdir. Shu tufayli mazkur ko'rsatkichning tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga asoslangan.

Barcha aktivlar rentabelligini aniqlash quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{Rentabellik (Ra)} = \frac{\text{Sof foyda (Sf)}}{\text{Aktivlar (A)}}$$

Agar aktivlarni tarkibi bo'yicha yoyib chiqilsa, u quyidagi elementlardan tashkil topganligini ko'ramiz:

$$A = \underset{(Av)}{\text{Asosiy vositalar}} + \underset{(Na)}{\text{Nomoddiy aktivlar}} + \underset{(Ayl.m)}{\text{Aylanma mablag'lar.}}$$

Bu yerda aylanma mablag'lar ham ikki yirik guruhga bo'linadi. Ularni yoyib chiqilsa, quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$\text{Ayl.m} = \underset{\text{mablag'lar (Amm)}}{\text{Moddiy aylanma}} + \underset{\text{(Pm)}}{\text{Pul mablag'lari}}.$$

Aktivlar o'rniga uning tarkibiga kiruvchi alohida ko'rsatkichlarni qo'yadigan bo'lsak, aktivlar rentabelligini ifodalovchi formulalarning shakli quyidagicha ifodalanadi:

$$Ra = \frac{Sf}{Av + Amm + Pm + Na}.$$

Ushbu formulaga asosan korxona aktivlari rentabelligining tahlilini ko'rib chiqamiz. Eng avvalo, uning farqi aniqlanadi:

$$Ra = \left(\frac{Sf^h}{Av^h + Amm^h + Pm^h + Na^h}\right) - \left(\frac{Sf^r}{Av^r + Amm^r + Pm^r + Na^r}\right).$$

Aniqlangan farqqa ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash mumkin. Natijada, birinchi omilning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Rafs = Rafs - Ra^r = \left(\frac{Sf^x}{Av^r + Amm^r + Pm^r + Na^r}\right) - Ra^r.$$

Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Raav = Raav - Rafs = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Amm^r + Pm^r + Na^r}\right) - Rafs.$$

Natija o'zgarishiga uchinchi omilning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Raamm = Raamm - Raaav = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Amm^x + Pm^r + Na^r}\right) - Raav.$$

Natija o'zgarishiga to'rtinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanadi:

$$\Delta Rapm = Rapm - Raamm = \left(\frac{Sf^x}{Av^x + Amm^x + Pm^x + Na^r}\right) - Raamm.$$

Natija o'zgarishiga beshinchi omilning ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitobni amalga oshirish kifoya:

$$\Delta Ranf = Ranf - Rapm = Ra^x - Rapm.$$

Natijaning umumiy o'zgarishi, odatdagidek, barcha omillar ta'sirining yig'indisiga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta Ra = \Delta Rafs \pm \Delta Raav \pm \Delta Raamm \pm \Delta Rapm \pm \Delta Ranf.$$

Ushbu formulalarga aniq ma'lumotlarni qo'llab, korxona aktivlari rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uchun 18.10-jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

*18.10-jadval*

**Korxona rentabelligini aniqlash va uning hisobot yilidagi o'zgarishi tahlili**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | O'zgarishi (+,–) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|
| Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. Sof foyda (Sf) | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 134,8 |
| 2. Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati (Av) | 2956,5 | 3497,5 | +541,0 | 118,3 |
| 3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati (Ayl.m) | 7269,0 | 8810,0 | +1541,0 | 121,2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 4. Nomoddiy aktivlarning o'rtacha qiymati (Na) | 73,2 | 195,0 | 121,8 | 266,4 |
| 5. Barcha aktivlar (B) (2q + 3q + 4q) | 10298,7 | 12502,5 | +2203,8 | 121,4 |
| Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
| 6. Rentabellik darajasi, (Ra) [(1q · 100) / 2q+3q+4q] ёки [(1q · 100)/ 5q] | 3,57 | 3,97 | +0,40 | 111,2 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada aktivlar rentabelligi hisobot yilida 0,40 %ga ortgan. Bu bir qancha omillar ta'sirida ro'y bergan. Ularni aniqlash uchun 18.11-jadvaldan foydalaniladi.

*18.11-jadval*

**Rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli almashtirish yo'li bilan aniqlash**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Farqi (+,−) | Zanjirli almashtirishlar | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | I | II | III | IV |
| 1. Sof foyda | 368,0 | 496,2 | 128,2 | 496,2 | 496,2 | 496,2 | 496,2 |
| 2. Asosiy vositalar | 2956,5 | 3497,5 | +541,0 | 2956,5 | 3497,5 | 3497,5 | 3497,5 |
| 3. Aylanma mablag'lar | 7269,0 | 8810,0 | +1541,0 | 7269,0 | 7269,0 | 8810,0 | 8810,0 |
| 4. Nomoddiy aktivlar | 73,2 | 195,0 | +121,8 | 73,2 | 73,2 | 73,2 | 195,0 |
| 5. Barcha aktivlarning rentabellik darajasi, % | 3,57 | 3,97 | +0,40 | 4,82 | 4,58 | 4,01 | 3,97 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha aktivlarning rentabellik darajasi hisobot yilida 0,40 % ortgan. Bu quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

1. Foyda summasining 128,2 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 1,25 %ga oshirgan

$$(4,82 - 3,57).$$

2. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining 541,0 ming so'mga ko'payganligi tahlil qilinayotgan ko'rsatkich darajasini 0,24 % kamayishiga olib kelgan

$$(4,58 - 4,82).$$

3. Aylanma mablag'lar o'rtacha qiymatining 1541,0 ming so'mga ko'payganligi barcha aktivlar rentabellik darajasini 0,57 %ga kamaytirgan

(4,01 — 4,58).

4. Hisobot yilida nomoddiy aktivlarning 121,8 ming so'mga ko'payganligi ushbu kategoriyaning rentabellik darajasini 0,04 % kamaytirib yuborgan

(3,97 — 4,01).

Barcha omillar ta'siri natijasida barcha aktivlar rentabellik darajasining umumiy o'zgarishi hosil bo'lgan:

1,25 − 0,24 − 0,57 − 0,04 = + 0,40 %.

## 18.9. O'z mablag'lari rentabelligi tahlili[1]

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida har bir korxona o'z mablag'iga ega bo'lishi tabiiy hol. Bu, ayniqsa, xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes korxonalari uchun o'ta muhim, chunki ular o'z faoliyati uchun mulkini asosan o'z mablag'i evaziga shakllantiradi. O'zbekiston o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bunda barcha yangilanishlar jahon sivilizatsiyasidan bahramand bo'lgan holda qadriyatlarimizni tiklashga ham qaratilgan. Bu bevosita, kichik va xususiy tadbirkorlikda oila tadbirkorligini amalga oshirish bilan bog'liq.

Agar jahon tajribasiga tayanadigan bo'lsak, kichik va o'rta tadbirkor mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kichik va o'rta korxonalarning soni 15,8 millionni tashkil qiladi. Unda 68 million kishi ish bilan band. AQSHda 19,3 million kichik korxonada 70,2 million kishi ish bilan band bo'lsa, Yaponiyada bu ko'rsatkich, mos ravishda, 65 va 39,5 millionni tashkil qiladi[2]. Ko'rinib turibdiki, ushbu kichik korxonalarda ishlovchi soni jihatidan juda ixcham. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida har bir korxonada o'rtacha 4,3 kishi ish bilan band, AQSHda 3,6 kishi, Yaponiyada esa 6,1 kishi. Lekin ularning iqtisodiyotdagi o'rni salmoqli. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yalpi ichki mahsulotining 65 % kichik biznes korxonalariga to'g'ri kelsa, ushbu ko'rsatkich AQSHda — 50 %dan ko'prog'ini, Yaponiyada esa 55 %ga yaqinni tashkil qiladi[3]. Taraqqiy etgan mamlakatlarda shu bilan band aholining ham

---

[1] Ushbu paragraf A.Tursunov bilan hammualliflikda yozilgan.
[2] N.To'xliyev. Mo'taya «mitti»lar. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 10-aprel.
[3] O'sha joyda.

aksariyat qismi kichik va o'rta biznes korxonalarida joylashgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida barcha band aholining 72 %, AQSHda — 54 %, Yaponiyada 78 % shu o'rta va kichik biznes korxonalarida band.

O'zbekistonda bu borada o'ziga xos yo'lni tutish mumkin. Hozir mamlakatimizda 4,4 million oila mavjud. Agar o'rta hisobda har bir oiladan bittadan tadbirkor chiqsa, yana 4,4 million yangi ish o'rinlari ochiladi. Agar ular qo'shimcha ikki kishini jalb qilishsa, yana 8,8 million odam ish bilan ta'minlanadi. Bu hozirgi ish bilan band aholining soni bilan deyarli tengdir.

Kichik biznes korxonalari o'zlarining bir qancha afzalliklari bilan birga ishsizlikning oldini olish uchun ham juda qulaydir. Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik va o'rta biznes korxonalarining soni 183 mingdan ortgan, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 %dan ziyodroqni tashkil qiladi.

Kelajakda O'zbekistonda kichik va o'rta biznes korxonalari iqtisodiyotning rivojida salmoqli o'ringa ega bo'lishi tabiiy, chunki amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Mazkur korxonalar mulkining asosiy manbai uning o'z mablag'laridan iborat bo'ladi. Demak, o'z mablag'larini tahlil qilish, ayniqsa, uning samaradorligini oshirish, ular ichida o'z mablag'lari rentabelligini aniqlash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z mablag'lari rentabelligini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'z mablag'lari rentabelligini aniqlash;
- uni o'tgan davr va reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslab o'zgarishlarini aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash;
- o'z mablag'lari rentabelligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Korxonada o'z mablag'lari rentabelligini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Rentabellik\ (Ro'm) = \frac{Sof\ foyda\ (Sf)}{O'z\ mablag'lari\ (O'm)} \cdot 100.$$

Ushbu ko'rsatkich farqiga omillar ta'sirini aniqlash uchun uning qayta hisoblangan hajmi aniqlanadi. O'z mablag'lari rentabelligining qayta hisoblangan miqdorini ($Ro'm^{qh}$) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$Ro'm^{qh} = \frac{Sf^x}{O'm^r}.$$

Endi har bir omilning ta'sirini topish mumkin. Korxonaning o'z mablag'lari rentabelligi o'zgarishiga foyda summasining ta'siri ($\Delta Ro'm$ fs) quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Ro'm\ fs = Ro'm^{qh} - Ro'm^r = (\frac{Sf^x}{O'm^r}) - (\frac{Sf^r}{O'm^r}).$$

O'z mablag'lari rentabelligi o'zgarishiga o'z mablag'lari summasi ham ta'sir qiladi. Uning ta'sirini ($\Delta$Ro'm o'm) hisoblash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Ro'm\ o'm = Ro'm^x - Ro'm^{qh} = (\frac{Sf^x}{O'm^x}) - (\frac{Sf^x}{O'm^r}).$$

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta Ro'm = \Delta Ro'm\ fs \pm Ro'm\ o'm.$$

Ushbu formulalarda keltirilgan hisob-kitoblarni amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda yechish uchun 18.12-jadvaldan foydalaniladi.

*18.12-jadval*

**Korxona o'z mablag'lari rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | Qayta hisob-langan | Farqi (+,−) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami | Shu jumladan | |
| | | | | | foyda evaziga | o'z mablag'-lari evaziga |
| 1. Sof foyda | 368,0 | 496,2 | 496,2 | +128,2 | x | x |
| 2. O'z mablag'larining o'rtacha qiymati | 4039,9 | 4307,5 | 4039,9 | +767,6 | x | x |
| 3. O'z mablag'lari rentabelligi darajasi, % | 9,11 | 11,52 | 12,28 | +2,41 | +3,17 | −0,76 |

Jadvalda natijaning umumiy farqi 2,41 ming so'mga teng: $\Delta R = 11,52 - 9,11 = +2,41$.

Natija o'zgarishiga birinchi omil ta'siri, ya'ni sof foydaning 128,2 ming so'mga ortganligi rentabellik darajasini 3,17 % oshirdi: $\Delta Rf = 12,28 - 9,11 = +3,17$.

Natija o'zgarishiga ikkinchi omil ta'siri 0,76 %ni tashkil qiladi: ΔRo'm = 11,52 — 12,28 = — 0,76.

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natijaning umumiy farqiga teng: ΔR = 3,17 — 0,76 = +2,41.

## 18.10. Mahsulot rentabelligi tahlili

Korxonada mahsulot rentabelligining umumiy hajmini tahlil qilish usullari iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Ammo korxonada mahsulot rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari kam bayon etilgan. Shu tufayli mazkur masalaga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$R = \frac{Sf}{Q} = \frac{Sf}{Fsm} \cdot \frac{Fsm}{Faf} \cdot \frac{Faf}{Fmf} \cdot \frac{Fmf}{Fst} \cdot \frac{Fst}{Q},$$

bunda, $R$ — rentabellik darajasi; $Sf$ — sof foyda; $Q$ — natija (sotilgan mahsulot, tovar oboroti va h.k.); $Fsm$ — sotilgan mahsulotdan olinadigan foyda; $Faf$ — asosiy faoliyat foydasi; $Fmf$ — moliyaviy faoliyat foydasiga qo'shilgan foyda; $Fst$ — soliq to'langunga qadar foyda.

Natijani «U» bilan omillarni ketma-ket ravishda «X» bilan almashtirsak, quyidagi formula kelib chiqadi:

$$U = X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 = \prod_{i=n}^{5} X_i \qquad (i = \overline{1,5}).$$

bunda, $U$ — rentabellik darajasi; $X_1$ — sof foydaning sotilgan mahsulotdan olingan foydadagi hissasi; $X_2$ — sotilgan mahsulotdan olingan foydaning asosiy faoliyat foydasidagi hissasi; $X_3$ — asosiy faoliyat foydasining moliyaviy faoliyat foydasidagi hissasi; $X_4$ — moliyaviy faoliyat foydasining soliq to'langanga qadargi foydadagi hissasi; $X_5$ — soliq to'languncha bo'lgan foydaning ish hajmi (sotilgan mahsulot, tovar oboroti kabilar)dagi hissasi.

Mahsulot rentabelligi darajasiga alohida omillarning ta'siri zanjirli almashtirish usuli bilan quyidagicha hisoblanadi. Rentabellik o'zgarishiga:

1. Sof foydaning sotilgan mahsulotdan olingan foydadagi hissasi ($\Delta Fx_1$)ning ta'siri

$$\Delta Fx_1 = F_1^x - F^0 = (X_1^x \cdot X_2^0 \cdot X_3^0 \cdot X_4^0 \cdot X_5^0) - F^0.$$

2. Sotilgan mahsulotdan olingan foydaning asosiy faoliyat foydasidagi hissasi ($\Delta Fx_2$)ning ta'siri

$$\Delta Fx_2 = F_2^x - F_1^x = (X_1^x \cdot X_2^0 \cdot X_3^0 \cdot X_4^0 \cdot X_5^0) - F_1^x.$$

3. Asosiy faoliyat foydasining moliyaviy faoliyat foydasidagi hissasi ($\Delta Fx_3$)ning ta'siri:

$$\Delta Fx_3 = F_3^x - F_2^x = (X_1^x \cdot X_2^0 \cdot X_3^0 \cdot X_4^0 \cdot X_5^0) - F_2^x.$$

4. Moliyaviy faoliyat foydasining soliq to'langunga qadar foydadagi hissasi ($\Delta Fx_4$)ning ta'siri:

$$\Delta Fx_4 = F_4^x - F_3^x = (X_1^x \cdot X_2^0 \cdot X_3^0 \cdot X_4^0 \cdot X_5^0) - F_3^x.$$

5. Soliq to'languncha bo'lgan foydaning ish hajmi (sotilgan mahsulot, tovar oboroti va h.k.) ko'rsatkichlardagi hissasi ($\Delta Fx_5$) ning ta'siri

$$\Delta Fx_5 = F_5^x - F_4^x = (X_1^x - X_2^0 - X_3^0 - X_4^0 - X_5^0) - F_4^x.$$

Barcha omillar ta'siri odatdagidek, natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi kerak

$$\Delta F = \Delta Fx_1 \pm \Delta Fx_2 \pm \Delta Fx_3 \pm \Delta Fx_4 \pm \Delta Fx_5.$$

Ushbu hisob-kitoblarni aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda amalga oshirish mumkin. Buning uchun 18.13-jadvaldan foydalanish mumkin.

*18.13-jadval*

**Korxona mahsulot rentabelligi bilan bog'liq ko'rsatkichlarning hisob-kitobi**

(ming so'm)

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hisobot yilida | O'zgarishi (+,−) | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|---|
| Mutlaq ko'rsatkichlar | | | | |
| 1. Sotilgan mahsulot (*Q*) | 4583,3 | 5694,5 | +1111,2 | 124,3 |
| 2. Sof foyda (*Sf*) | 368,0 | 496,2 | +128,2 | 134,8 |
| 3. Sotilgan mahsulotdan olingan foyda (*Fsm*) | 632,1 | 852,8 | +220,7 | 134,9 |
| 4. Asosiy faoliyatdan olingan foyda (*Faf*) | 511,0 | 711,7 | +200,7 | 140,6 |
| 5. Moliyaviy faoliyat natijasi qo'shilgan foyda (*Fmf*) | 582,0 | 792,1 | +209,9 | 136,1 |
| 6. Soliq to'laguncha bo' lgan foyda(*Fsf*) | 593,6 | 800,4 | +206,8 | 134,8 |

| Nisbiy ko'rsatkichlar | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7. Sof foydaning sotilgan mahsulot foydasidagi hissasi — $X_1$ (2q:3q) | 0,5822 | 0,5818 | —0,0004 | 99,9 |
| 8. Sotilgan mahsulot foydasining asosiy faoliyat foydasidagi hissasi — $X_2$ (3q:4q) | 1,2370 | 1,1983 | 0,0387 | 96,9 |
| 9. Asosiy faoliyat foydasining moliyaviy faoliyat foydasidagi hissasi — $X_3$ (4q : 5q) | 0,8777 | 0,8985 | +0,0208 | 102,4 |
| 10. Moliyaviy faoliyat foydasining soliqqacha bo'lgan foydadagi hissasi — $X_4$ (5q:6q) | 0,9808 | 0,9896 | +0,0088 | 100,9 |
| 11.Soliqqacha bo'lgan foydaning sotilgan mahsulotdagi hissasi, $X_5$ (6q : 1q) | 0,1293 | 0,1406 | + 0,0111 | 108,6 |
| 12. Mahsulot rentabelligi darajasi, % — U (2q:1q:100) | 8,03 | 8,71 | +0,68 | 108,5 |

Jadval ma'lumotlariga asosan mahsulotning rentabellik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$U = \frac{X_1 \cdot X_2 \cdot X_3 \cdot X_4 \cdot X_5}{100}.$$

Ushbu formulaga jadval ma'lumotlarini qo'llasa, quyidagi natijalarga erishildi:

O'tgan yilda

$$Uo'y = \frac{0,5822 \cdot 1,2370 \cdot 0,8777 \cdot 0,9808 \cdot 0,1295}{100} = 8,03.$$

Hisobot yilida

$$Uhy = \frac{0,5818 \cdot 1,1983 \cdot 0,8985 \cdot 0,9896 \cdot 0,1406}{8,71 - 8,03 = +0,68} = 8,71.$$

Shu davrda o'zgarish sur'ati

$$\frac{8,71 \cdot 100}{8,03} = 108,5.$$

Jadval ma'lumotlari asosida mahsulot rentabelligining hisobot yilidagi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash mumkin. Bu amalni zanjirli almashtirish usulini qo'llagan holda 18.14-jadvaldan foydalanish mumkin. Korxonada mahsulotning umumiy rentabelligi hisobot yilida 0,68 % ortgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan:

**Korxonada mahsulot rentabelligi darajasiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi**

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | O'tgan yildagi rentabellik darajasi | | | | Hisobot yilida yoki $U^0x_5$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | $X_1$ omil o'zgarishi bilan 0 ($Ux_1$) | $X_2$ omil o'zgarishi bilan 0 ($Ux_2$) | $X_3$ omil o'zgarishi bilan 0 ($Ux_3$) | $X_4$ omil o'zgarishi bilan 0 ($Ux_4$) | |
| $X_1$ | 0,5822 | 0,5818 | 0,5818 | 0,5818 | 0,5818 | 0,5818 |
| $X_2$ | 1,2370 | 1,2370 | 1,1983 | 1,1983 | 1,1983 | 1,1983 |
| $X_3$ | 0,8777 | 0,8777 | 0,8777 | 0,8985 | 0,8985 | 0,8985 |
| $X_4$ | 0,9808 | 0,9808 | 0,9808 | 0,9808 | 0,9896 | 0,9896 |
| $X_5$ | 0,1293 | 0,1293 | 0,1293 | 0,1293 | 0,1293 | 0,1406 |
| $U$ | 8,03 | 8,02 | 7,76 | 7,94 | 8,02 | 8,71 |

1. Sof foydaning sotilgan mahsulotdagi hissasining 0,0004 ga kamayishi mahsulot rentabelligi darajasini 0,01 % kamaytirdi

$$\Delta Ux_1 = 8{,}02 - 8{,}03 = -0{,}01\ \%.$$

2. Sotilgan mahsulot foydasining asosiy faoliyat foydasidagi hissasining 0,0387 ga kamayishi mahsulot rentabelligi darajasini 0,26 % kamaytirdi

$$\Delta Ux_2 = 7{,}76 - 8{,}02 = -0{,}26\ \%.$$

3. Asosiy faoliyat foydasining moliyaviy faoliyat foydasidagi hissasining 0,0208 ga ortganligi mahsulot rentabelligi darajasini 0,18 % oshirgan

$$\Delta Ux_3 = 7{,}94 - 7{,}76 = +0{,}18\ \%.$$

4. Moliyaviy faoliyat foydasining soliq to'langangacha bo'lgan foydadagi hissasining 0,0088 ga ko'payganligi mahsulot rentabelligi darajasini 0,08 %ga oshirgan

$$\Delta Ux_4 = 8{,}02 - 7{,}94 = +0{,}08\ \%.$$

5. Soliq to'langangacha bo'lgan foydaning sotilgan mahsulotdagi hissasi 0,0111 ga ortganligi mahsulot rentabelligini 0,69 %ga oshirgan

$$\Delta Ux_5 = 8{,}71 - 8{,}02 = +0{,}69\ \%.$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng

$$\Delta U = -0{,}01 - 0{,}26 + 0{,}18 + 0{,}08 + 0{,}69 = +0{,}68\ \%.$$

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.

I.A.Karimov. Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar. T., «O'zbekiston», 1992.

I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Nutqlar, maqolalar, suhbatlar. T., «O'zbekiston», 1993.

I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. T., «O'zbekiston», 1993.

I.A.Karimov. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., «O'zbekiston», 1993.

I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., «O'zbekiston», 1994.

I.A.Karimov. Iqtisodiy islohot: mas'uliyatli bosqich. T., «O'zbekiston», 1994.

I.A.Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1995.

I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995.

I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.

I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998.

I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999.

I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000.

I.A.Karimov. Mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanish — taraqqiyot omili. «Xalq so'zi» gazetasi, 2004-yil 31-yanvar.

И.Т.Абдукаримов. Анализ издержек обращения в кооперативной торговле. М., «Экономика», 1968.

И.Т.Абдукаримов и др. Сборник задач по анализу хозяйственной деятельности потребительской кооперации. М., «Экономика», 1968.

И.Т.Абдукаримов. Анализ розничного товарооборота в кооперативной торговле. М., МКИ, 1971.

И.Т.Абдукаримов. Прибыль и рентабельность в кооперативной торговле. М., «Экономика», 1973.

И.Т.Абдукаримов и др. Задачник по анализу хозяйственной деятельности предприятий и организаций потребительской кооперации. М., «Экономика», 1975.

И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев. Анализ показателей по труду в кооперативной торговле. М., «Экономика», 1978.

И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев. Теоретические основы экономического анализа. Альбом наглядных пособий. Самарканд, СамКИ, 1983.

И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев. Анализ хозяйственной деятельности отдельных отраслей потребительской кооперации. Альбом наглядных пособий. Самарканд, СамКИ, 1983.

И.Т.Абдукаримов. Анализ хозяйственной деятельности потребительской кооперации. 2-е издание. М., «Экономика», 1989.

I.T.Abdukarimov va boshqalar. Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini analiz qilish. T., «O'qituvchi», 1989.

I.T.Abdukarimov va boshqalar. Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o'zbekcha lug'ati. T., «O'qituvchi», 1992.

И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев. Анализ хозяйственной деятельности. Программа для кооперативных институтов. М., ПУМК, 1987.

I.T.Abdukarimov. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998.

I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev. Rahbarning biznes tili. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 1.

I.T.Abdukarimov. Menejerga moliyaviy hisobot shakllari. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 2.

I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev. Buxgalteriya balansi va uning tarkibi. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 3.

I.T.Abdukarimov. Menejer buxgalteriya balansini qanday tahlil qilishi kerak. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 4.

I.T.Abdukarimov. Menejerga korxona likvidligi va to'lov qobiliyati haqida. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 5.

I.T.Abdukarimov. Menejerga korxona moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy baquvvatligi haqida. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 6.

I.T.Abdukarimov. Menejerga pul mablag'lari oqimi to'g'risida. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 7—8.

I.T.Abdukarimov. Menejerga moliyaviy natijalar va iqtisodiy samaradorlik to'g'risida. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 9.

I.T.Abdukarimov. Menejerga korxonaning aylanma mablag'lari to'g'risida. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 10.

I.T.Abdukarimov. Menejerga debitor va kreditor qarzlar to'g'risida. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 1999, № 11.

I.T.Abdukarimov. Menejerga asosiy vositalar holati va ularni qo'llash samaradorligini baholash haqida. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 2000, № 3.

В.И.Абдукаримов. Вопросы оценки эффективности многоотраслевой хозяйственной деятельности потребительской кооперации в условиях АСАД. Т., «Меҳнат», 1990.

R.A.Abdullayev va boshqalar. Iqtisodiy axborotlarni EHMda ishlashni avtomatlashtirish. T., «O'qituvchi», 1990.

E. Akromov. Korxonaning moliyaviy holati tahlili. T., «Moliya», 2003.

Y.Abdullayev va boshqalar. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. T., «Mehnat», 2001.

Е.Абдуллаев. Перестройка хозяйственного механизма. Вопросы и ответы. Т., «Меҳнат», 1989.

Y.Abdullayev. Statistikaning umumiy nazariyasi. T., «O'qituvchi», 1993.

Y.Abdullayev. Statistikaning umumiy nazariyasi. Testlar. T., «O'qituvchi», 1996.

Y.Abdullayev. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. T., «Mehnat», 1997.

Y.Abdullayev. Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. T., «Mehnat», 1998.

Amaliy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T., «Sharq», 1996.

Актуальные проблемы учета, аудита и совершенствования финансово-кредитной системы в условиях развития рыночных отношений. Материалы международной НПК. Самарканд, 1994.

Анализ экономики. Страна, рынок, фирма. М., «Международные отношения», 1999.

Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятий (объединений). М., «Финансы и статистика»,1988.

Анализ хозяйственной деятельности в промышленности. Минск, «Вышэйшая школа», 1995.

М.И.Баканов, А.Д.Шеремет. Теория экономического анализа. М., «Финансы и статистика», 1998.

М.И.Баканов, А.Н.Кашаев, А.Д.Шеремет. Экономический анализ. Теория, история, современное состояние, перспективы. М., «Финансы», 1976.

И.Л.Батухтин. Совершенствование методов анализа труда и заработной платы. М., «Экономика», 1975.

С.Б.Барингольц. Экономической анализ хозяйственной деятельности на современном этапе развития. М., «Финансы и статистика», 1984.

Н.Р.Вейцман. Очерки по бухгалтерскому учёту и анализу. М., «Госфиниздат», 1958.

Виды экономического анализа, их место и роль в совершенствовании управления промышленным производством. М., МГУ, 1976.

I.O.Voljin, V.P.Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998.

Н.В.Дембинский. Вопросы теории экономического анализа. М., «Финансы», 1973.

В.И.Ганштак. Экономический анализ резервов на машиностроительном предприятии. М., «Машгиз», 1960.

Е.В.Долгополов и др. Экономический анализ хозяйственной деятельности социалистических предприятий. Киев, «Выша школа», 1988.

Н.В.Дембинский. Вопросы теории экономического анализа. М., «Финансы», 1973.

Е.П.Жарковская и др. Анализ хозяйственной деятельности строительных организаций. М., «Стройиздат», 1989.

Д.И.Деркач. Анализ производственно-хозяйственной деятельности предприятий строительных организаций. М., «Финансы и статистика», 1990.

A.T.Ibrohimov. Moliyaviy tahlil. T., «Mehnat», 1995.

В.В.Ковалев. Финансовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности. М., «Финансы и статистика», 1996.

М.Н.Крейнина. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности акционерных обществ в промышленности, строительстве и торговле. М., АО «ДИС», МВцентр, 1994.

Курс экономического анализа. М., «Финансы и статистика», 1984.

И.И.Каракоз..Совершенствование экономической работы и управления производством на промышленном предприятии. Киев, «Вища школа», 1976.

И.И.Каракоз, В.И.Самборский. Теория экономического анализа. Киев, «Вища школа», 1989.

О.Р.Кмицикевич и др. Анализ хозяйственной деятельности предприятий потребительской кооперации. М., «Экономика», 1966.

О.Р.Кмицикевич и др. Анализ хозяйственной деятельности организаций и предприятий потребительской кооперации. М., «Экономика», 1971.

Л.И.Кравченко. Анализ финансового состояния предприятия. Минск, ПКФ «Экаунт», 1994.

Д.К.Кудбиев. Анализ эффективности использования в кооперативной торговле. М., ЗИСТ, 1981.

Д.К.Кудбиев. Проблемы анализа использования основных фондов в торговле. Т., «Ўзбекистон», 1990.

Курс анализа хозяйственной деятельности. М., «Экономика», 1984.

X.N. Musayev. Audit. T., «Moliya», 2003.

Б.И.Майданчик и др. Анализ и обоснование управленческих решений. М., «Финансы и статистика», 1991.

А.И.Муравьев. Теория экономического анализа: проблемы и решения. М., «Финансы и статистика», 1988.

А.И.Меркушев, А.А.Меркушев. Анализ хозяйственной деятельности снабженческо-сбытовых организаций. М., «Высшая школа», 1987.

O.Mahmudov. Qishloq xo'jaligi korxonalarining xo'jalik faoliyatini analiz qilish. T., «O'qituvchi», 1979.

M.Q.Pardayev,B. I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. I—II qismlar. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2001.

М.К.Пардаев. Эффективность труда в торговле и методика ее определения. // «Бухгалтерский учёт». 1978. № 9.

М.К.Пардаев, З.Н.Курбонов. Анализ показателей эффективности и интенсификации в кооперативной торговле. Т., «Ўқитувчи», 1990.

M.Q.Pardayev, Sh.K.Haydarov. Kooperativ savdo korxona va tashkilotlarining moliyaviy ahvolini tahlil qilish. T., RUMK, 1990.

M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov. Moliyaviy tahlil. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1999.

M.Q. Pardayev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. Samarqand, «Zarafshon» gazetasi, 2001.

M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov, T. Abdukarimov. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2003.

В.В.Петров, В.В.Ковалев. Как читать баланс. 2-е изд. М., «Финансы и статистика», 1994.

И.И.Поклад. Теоретические основы экономического анализа работы предприятий. М., «Финансы», 1969.

В.А.Раевский. Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятий (объединений). Учебник. М., «Финансы и статистика», 1988.

Н.А.Русак, В.А.Русак. Основы финансового анализа. Минск, ООО «Меркаванне», 1995.

Г.В.Совицкая. Теория анализа хозяйственной деятельности. Минск, ИСЗ, 1996.

Г.В.Совицкая. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Минск, ИП «Экоперспектива», 1997.

И.И.Савичев. Экономический анализ — орудие выявления внутрихозяйственных резервов. М., «Финансы», 1968.

N. S. Sanayev. Audit. T., «Sharq», 2002.

С.К.Татур. Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий. М., Изд-во экономическая литература, 1962.

Теория экономического анализа. М., «Прогресс», 1998.

N.A.Xan. Qishloq xo'jaligi korxonalari xo'jalik faoliyatining analizi. T., «O'qituvchi». 1978.

B.A. Hasanov. «Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyat». T., «Moliya», 2003.

Н.Хасанов, Л.Югай. Финансовое оздоровление предприятия: методы анализа и оценки. Т., Изд. дом «Мир экономики и права», 2001.

Теория анализа хозяйственной деятельности. Минск, «Вышэйшая школа», 1989.

М.М Тулахужаева. Аудит финансового состояния предприятия. Т., Изд. дом «Мир экономики и права», 1996.

А.Д.Шеремет. Комплексный экономический анализ деятельности предприятия (вопросы методологии). М., «Экономика», 1974.

А.Д.Шеремет. Методика финансового анализа предприятия. М., ИПО «МП», 1996.

А.Д.Шеремет. «Теория экономического анализа». М., ИПО «МП», 2002.

M.Sh. Sharifxo'jayev, Y. Abdullayev. Menejment. Darslik. T., «O'qituvchi», 2002.

X.A.Shodiyev. Intensivlash va samaradorlikning o'zaro aloqadorligi. T., «O'zbekiston», 1991.

Экономический анализ деятельности предприятий. Минск, «Вышэйшая школа», 1981.

Экономика предприятия. Пер. с нем. М., 1999.

## MUNDARIJA

Kirish ..... 3

*1-bob.* **Iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish**

1.1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati va uning zarurligi ..... 12
1.2. Iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi subyektlar ..... 13
1.3. Iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlar ..... 13
1.4. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari ..... 19
1.5. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish ..... 20

*2-bob.* **Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar**

2.1. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar tasnifi (klassifikatsiyasi) ..... 23
2.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarning tavsifi (xarakteristikasi) ..... 25
2.3. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik modellarning tiplari ..... 54
2.4. Hozirgi bosqichda tahlil usulini takomillashtirish masalalari ..... 56

*3-bob.* **Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar tizimi va unda buxgalteriya balansining o'rni**

3.1. Iqtisodiy tahlilning rahbarlar uchun ahamiyati ..... 59
3.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar ..... 61
3.3. Moliyaviy hisobotlar tarkibi ..... 63
3.4. Buxgalteriya balansi: turlari, tarkibi, tavsifi ..... 65
3.5. Buxgalteriya balansi moddalarining bir-biri bilan bog'liqligi ..... 73
3.6. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'liqlik ..... 78
3.7. Buxgalteriya balansini tahlilga tayyorlash va uning aniqligini tekshirish ..... 79

*4-bob.* **Buxgalteriya balansini tahlil qilishning vazifalari va unga asosan moliyaviy holatni baholash**

4.1. Moliyaviy holatni tahlil qilish ..... 82
4.2. Moliyaviy holatni dastlabki baholash ..... 83
4.3. Moliyaviy holatni to'liq baholash ..... 87
4.4. Korxonaning likvidliligi: mazmuni, ularni baholash va tahlil qilish yo'llari ..... 94

*5-bob.* **Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili**

5.1. Iqtisodiy salohiyat tahlili ..... 104
5.2. Iqtisodiy salohiyatning tarkibi va uning umumiy hajmini baholash yo'llari ..... 106
5.3. Iqtisodiy salohiyatni xarajatlar nuqtayi nazaridan baholash usuli ..... 110
5.4. Iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni tasniflash va aniqlash ..... 113
5.5. Iqtisodiy salohiyatning asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlari, ularning tasnifi va aniqlash yo'llari ..... 118
5.6. Iqtisodiy salohiyatning aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni aniqlash yo'llari ..... 121
5.7. Iqtisodiy salohiyatning nomoddiy aktivlar bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni aniqlash yo'llari ..... 126
5.8. Iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar omilli tahlilining metodologik jihatlari ..... 128

*6-bob.* **Korxonada asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llari**

6.1. Asosiy vositalarni baholash turlari ..... 139
6.2. Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari ..... 142
6.3. Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ..... 145
6.4. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ..... 147
6.5. Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ..... 150

*7-bob.* **Korxonada nomoddiy aktivlar mazmuni, ko'rsatkichlar tizimi va tahlil qilish yo'llari**

7.1. Nomoddiy aktivlarning mazmuni va turlari ..... 153

7.2. Nomoddiy aktivlarni baholash ..... 157
7.3. Nomoddiy aktivlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va tasnifi ..... 161
7.4. Nomoddiy aktivlar tahlili ..... 165
7.5. Nomoddiy aktivlar samaradorligini tahlil qilish ..... 168

*8-bob.* **Aylanma mablag'lar mazmuni, ko'rsatkichlar tizimi va tahlil qilish usullari**

8.1. Aylanma mablag'lar va ularni tahlil qilish ..... 173
8.2. Aylanma mablag'lar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi ..... 174
8.3. Aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ..... 179
8.4. Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ..... 182
8.5. Aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ..... 187
8.6. Aylanma mablag'larda joylashgan o'z mablag'larining tahlili ..... 191

*9-bob.* **Tovar-moddiy zaxiralar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili**

9.1. Tovar-moddiy zaxiralarning turlari ..... 196
9.2. Me'yordan ortiqcha sotilgan tayyor mahsulot qoldiqlarini baholash va ularni aniqlash usullari ..... 198
9.3. Tovar-moddiy zaxiralar tahlili ..... 203

*10-bob.* **Korxonaning mehnat salohiyati tahlili**

10.1. Mehnat va uning xarakteri, salohiyati hamda samaradorligini baholash mezonlari ..... 208
10.1.1. Mehnat tushunchasi ..... 208
10.1.2. Bozor munosabatlari sharoitida mehnatning xarakteri va manfaatlar mushtarakligi ..... 209
10.1.3. Mehnat salohiyati tushunchasi ..... 215
10.1.4. Mehnat salohiyati tarkibi ..... 218
10.1.5. Mehnat samaradorligi tushunchasi ..... 220
10.1.6. Mehnat salohiyati samaradorligini baholash mezonlari ..... 222

10.2. Mehnat salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning tasnifi, aniqlash yo'llari va tahlili ..... 225
10.2.1. Mehnat salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi ..... 225
10.2.2. Mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash va tahlil qilish ..... 226
10.2.3. Mehnat salohiyati bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish ..... 229
10.2.4. Mehnat salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish ..... 233
10.2.5. Mehnat salohiyati samaradorligining omilli tahlili ..... 236
10.2.6. Mehnat salohiyati rentabelligi va unga ta'sir qiluvchi omillar ..... 241
10.3. Mehnat motivatsiyasi va uning tahlili ..... 245
10.3.1. Mehnat motivatsiyasi tushunchasi ..... 245
10.3.2. Mehnat motivatsiyasining tiplari va omillari ..... 247
10.3.3. Mehnat bozorida ish kuchi va uning tovarga aylanishi ..... 250
10.3.4. Mehnat motivatsiyasida ish kuchining qiymati va uni baholash bo'yicha muammolarini yechishdagi ayrim tavsiyalar ..... 252
10.3.5. Mehnat haqining rejadagi va haqiqiy miqdorini aniqlash ..... 261
10.3.6. Mehnat haqi umumiy hajmining tahlili ..... 262
10.4. Korxonada band bo'lgan xodimlar soni tahlili ..... 268
10.4.1. Xodimlar soni tushunchasi ..... 268
10.4.2. Xodimlar soni o'zgarishining tahlili ..... 273
10.4.3. Qo'shimcha ish o'rinlari ochishning samaradorligi ..... 277
10.5. Ish vaqti va undan foydalanishning tahlili ..... 278
10.5.1. Ish vaqti tushunchasi ..... 278
10.5.2. Ish vaqti hajmining tahlili ..... 280
10.6. Mehnat salohiyati va xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'yicha korxona reytingini aniqlash ..... 286
10.6.1. Mehnat salohiyati va xarajatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash yo'llari ..... 286
10.6.2. Mehnat salohiyati va xarajatlari samaradorligi bo'yicha korxona reytingini aniqlash metodologiyasi ..... 288

*11-bob.* **Korxonalar moliyaviy salohiyati tahlili**

11.1. Moliyaviy salohiyat tushunchasi va tarkibi ..... 295
11.2. Moliyaviy salohiyatni tahlil qilish vazifalari va axborotlar manbai ..... 298

11.3. Moliyaviy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi ..... 300
11.4. Moliyaviy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni baholash va tahlil qilish ..... 302
11.4.1. Moliyaviy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning tasnifi ..... 302
11.4.2. Moliyaviy salohiyat holatining o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari ..... 308
11.4.3. Moliyaviy salohiyat holatining chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari, ularni aniqlash va tahlil qilish usullari ..... 316
11.5. Moliyaviy salohiyat samaradorligining tahlili ..... 323
11.5.1. Moliyaviy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari ..... 323
11.5.2. Moliyaviy salohiyat samaradorligining tahlili ..... 327
11.5.3. Moliyaviy salohiyat samaradorligining omilli tahlili ..... 330

## *12-bob.* **Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligini baholash hamda tahlil qilish usullari**

12.1. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikni baholash hamda tahlil qilishning zarurligi ..... 339
12.2. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikning mohiyati hamda mazmuni ..... 340
12.3. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni aniqlash ..... 342
12.3.1. Iqtisodiy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar ..... 342
12.3.2. Moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar ..... 345
12.4. Iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlikning tahlili ..... 348
12.4.1. Iqtisodiy mustahkamlikning tahlili ..... 348
12.4.2. Iqtisodiy mustahkamlikka ta'sir etuvchi omillar ..... 350
12.4.3. Moliyaviy mustahkamlikning tahlili ..... 354
12.4.4. Moliyaviy mustahkamlik o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili ..... 356

## *13-bob.* **Pul mablag'lari oqimining tahlili**

13.1. Pul mablag'lari oqimi tushunchasi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar ..... 360

13.2. Pul mablag'lari tushumini tahlil qilish ..... 363
13.3. Pul mablag'lari chiqib ketishini tahlil qilish ..... 364

*14-bob.* **Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot tahlili**

14.1. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotni ifodalovchi ko'rsatkichlar hamda ularni tahlil qilish ..... 369
14.2. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmining tahlili ..... 372

*15-bob.* **Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili**

15.1. Moliyaviy barqarorlik mohiyati va uni tahlil qilish zarurligi ..... 376
15.2. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi ..... 377
15.3. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullari ..... 378
15.3.1.O'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili ..... 378
15.3.2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili ..... 390
15.3.3. Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili ..... 395
15.3.4. Asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili ..... 401
15.3.5. Aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili ..... 406
15.4. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari ..... 413

*16-bob.* **Korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili**

16.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlari mazmuni ..... 416
16.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hamda tahlil qilish ..... 422

*17-bob.* **Korxonada foydalilik nuqtasini aniqlash va tahlil qilish**

17.1. Korxona daromadlari tarkibi ..... 429
17.2. O'zgaruvchi va o'zgarmas xarajatlarni aniqlash ..... 430
17.3. Muvofiqlik (proporsionallik) koeffitsiyentini aniqlash ..... 430
17.4. Korxonaning zararsizlik (tenglik) nuqtasini aniqlash ..... 431

17.5. Foydalilik nuqtasini aniqlashning bevosita usuli ..... 432
17.6. Bir qancha faoliyat turi bilan shug'ullanilganda zararsizlik nuqtasini aniqlash usuli ..... 434

## *18-bob.* **Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili**

18.1. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning vazifalari va ma'lumotlar manbai ..... 437
18.2. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi ..... 439
18.3. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar umumiy hajmining tahlili ..... 442
18.4. Korxonada foyda tahlili ..... 444
18.4.1. Sotishdan olingan sof tushum tahlili ..... 446
18.4.2. Korxonada sof foydaning shakllanishi ..... 447
18.5. Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ..... 450
18.6. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi umumlashgan rentabellik ko'rsatkichlarining omilli tahlili ..... 454
18.7. Ishlab chiqarish fondlari rentabelligi tahlili ..... 456
18.8. Barcha aktivlar rentabelligi ..... 462
18.9. O'z mablag'lari rentabelligi tahlili ..... 465
18.10. Mahsulot rentabelligi tahlili ..... 468
Foydalanilgan adabiyotlar ..... 472

M.Q. PARDAYEV, I.T. ABDYKARIMOV, B.I. ISROILOV

# IQTISODIY TAHLIL

*(O'quv qo'llanma)*

*«Mehnat» nashriyoti — Toshkent — 2004*

Tahririyat mudiri *A.Boboniyozov*
Muharrir *A.Bozorov*
Rassom *H. Qutluqov*
Badiiy muharrir *O.Baklikova*
Texnik muharrir *T.Smirnova*
Musahhiha *F.Temirxo'jayeva*

2004-yil 21-mayda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x84 1/16. «Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i 30,5. Nashr tabog'i 30,5. 1000 nusxa. Buyurtma № 3045.
Bahosi shartnoma asosida.

«Mehnat» nashriyoti, 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 66—2003.

Andoza nusxasi «Mehnat» nashriyotining kompyuter bo'limida tayyorlandi.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Birinchi Toshkent bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Sag'bon ko'chasi, 1-berk ko'cha, 2-uy.



«MEHNAT»